2024-yil. 7-son

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot.uz

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) https://oak.uz/pages/4802

9-MAY XOTIRA VA QADRLASH KUNI



2024-YIL 7-SON

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot.uz

M U N D A R I J A

Dolzarb mavzu

Olim Usmonov. G‘ulom Zafariy dramalarida jadidchilik g‘oyalarining yoritilishi..... 3

Nargiza Kadirova. Uyg‘onish va undan so‘nggi davr ijodkorlarining “evrilish” motividan foydalanish mahorati.....5

Muso Tojiboev. Badiiy tafakkur poetikasida nostalgiya va badiiy tilning komporativ qirralari.....9

Adiba Davlatova. Shoir poetik tafakkurining psixobiografik tadqiqi....12

Mahfuza Tuychiyeva. Lirik asarni o‘rganish tajribasidan.....15

Iqboloy Adizova. Uvaysiy ijodiy takomilida Lutfiyning ta’siri.....17

Зулҳумор Эгамназарова. Исторические закономерности развития русской сатиры второй половины XIX века.....20

Юлдуз Рахманова. Творческая работа студентов технических вузов на занятиях русского языка.....22

Xasanxon Omonov, Shaxlo Bekmirzayeva. O‘zbekistonda musiqa pedagogikasining rivojlanish bosqichlari.....25

Ilg‘or pedagogik texnologiyalar

Xadicha Sattorova. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida qo‘llaniladigan metodlar.....27

Oqiljon Mavlonov. “Qaro ko‘zum” sharhida yangiliklar bor.....29

Muhabbatxon Bakiyeva. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga ta’lim-tarbiyani tashkil etishda sharq mutafakkirlarining pedagogik ta’limotlari.....34

Mohro‘y Muxtoriy. Boshlang‘ich sinf o‘qish va musiqa darslarini integratsiyalash orqali o‘quvchilarning nutqini o‘stirishning pedagogik usullari.....36

Maftuna Qahhorova. Darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.....38

Dilyora Isaboyeva. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda xalqaro baholash dasturining mazmuni va mohiyati.....40

Dilfuza Abdullaeva. Using ict together with innovative methods in teaching the russian language in non-linguistic higher education institutions.....42

Maftuna Raxmatova. Maktabgacha ta’lim tashkilotida ko‘rgazma vositasi orqali rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish.....45

Зебо Аминова. Роль инновационных технологий и интернет ресурсов в активизации познавательной деятельности студентов в процессе обучения русскому языку.....47

Нилуфар Усмонова, Махбуба Хамидова. Современные тенденции преподавания русского языка как иностранного на нефилологических направлениях вузов.....49

Munojatxon Mamadjanova. O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishning samarali usullari.....51

Gulrux Rajabova. Kompyuter texnologiyalari talabalarning axborot kompetensiyasini rivojlantirish vositasi sifatida.....53

Anvar Yoqubov. Chet tilini o‘qitishda innovatsion metodlardan foydalanish.....55

Dilnoza Ro‘ziyeva. Axboriy muhitda kontentni o‘rganish va yolg‘on ma’lumotni aniqlashning sodda markerlaridan foydalanish usullari.....57

Ирина Чернобровкина. Методика

Bosh muharrir

Nargiza BERDIYEVA

Tahrir hay’ati:

Dilshod Kenjayev
Nizomiddin Mahmudov
Yorqinjon Odilov
Jabbor Eshonqulov
Baxtiyor Daniyarov
Abdurahim Nosirov
To‘lqin Saydaliyev
Barno Buranova
Zulxumor Mirzayeva
Qozoqboy Yo‘ldoshev
Bahodir Jovliyev
Salima Jumayeva
Qayum Baymirov
Manzar Abdulxayrov
Alijon Safarov
Madina Nuriddinova
Latifa Xudayqulova
Barno Kadirova
Nargiza Mirzayeva
Guli Shukurova
To‘maris Butunbayeva
Ramziddin Abdusatorov
Okila Turakulova
Yuldosh Raxmatov
Ramziddin Abdusatorov
Feruza Manukyan

Axborot hamkorimiz:

TIL VA ADABIYOT TA’LIMI

Muharrirlar:

Bibimaryam RAHMONOVA
Oydin SHUXRATOVA

Sahifalovchi:

Mahliyo ABDUQODIROVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko‘chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com

Ilmiy-metodik elektron jurnal

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayasatining 2023-yil 3-iyundagi 338/6-sonli qarori bilan Filologiya hamda Pedagogika fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir.
https: //oak.uz/pages/4802

преподавания терминологической лексики русского языка студентам неязыковых специальностей.....60
Элина Абдуллаева. Инновационные технологии в преподавании русского языка как иностранного.....63
Yorkin Alijonov. The influence of technology on language evolution: a study of internet slang in english.....65
Дильбар Курбанова. Новые методы приемов преподавания русского языка в иноязычных группах.....66
Nargiza Tulyaganova. Teaching english forms with the help of interactive games.....68

Tilshunoslik


Madina Batirxanova. Madaniy kodlar orqali somatizmlarning pragmatik tadqiqi.....70
Go'zal Tilovova. O'zbek tilshunoslik atamalarining tadqiqi.....72
Behzod Xudoyqulov. O'zbek tilidagi son komponentli iboralar va ularning lingvomadaniy xususiyatlari.....74
Aqida Amirova. Nemis va o'zbek tillari soliq terminologiyasida sinonimiya hodisasining tafovutli va o'xshash xususiyatlari.....77
Muattarxon Ismoilova. Turkiy tilshunoslikda qarashlilik-tegishlilikka munosabat.....79
Зохид Бектемиров. Лингвопрагматические особенности присоединительных элементов в современном немецком языке.....81
Эльвина Аджеминова. Образная основа фразеологизмов и фразеологических номинаций.....86
Nargiza Nomozova. Exploring the intersection of language and society: a sociolinguistic inquiry.....88
Gulabza Daminova. The importance of language as a "Mirror of culture".....89
Mehrinoza Aliyeva. Romaniy mifologik tafakkur va yozuvchi uslubi.....91
Ayimxan Eshniyazova. Hikoyada bolalik olamining badiiy talqini.....96
Zulfizar Azizova. Yosh avlod tarbiyasida mehnatning ahamiyati.....98
Qayrat Mambetaliyev. O'zbek va qozoq she'riyatida adabiy an'analarining aks etish takomili.....100

Tadqiqot

Zebo Berdiyeva, Nazira Berdiyeva. Lirik tasvir va ifodada metonimiya.....102
Gulshan Khaitova, Ferangiz Botirova. "Boburnoma"da zoonimlarning qo'llanilishi.....104
Said Raxmanov. Ijtimoiy-siyosiy gazetalarda iqtisodiy mavzu ko'lami masalalari.....108
Davron Mansurov. Partiya nashrlarida yoritilgan maqolalar mavzularining qiyosiy tahlili.....113
Mavjuda Lafasova. O'xshatishlarning antroposentrik paradigmada o'rganilishi.....115
Marxobo Erkinova. Assotsiativ tajriba materiallarining genderologik tahlili.....117
Niluzar Axmedova, Mohigul Bozorova. O'zbek tilidagi shaxs ruhiy holatini ifodalovchi birliklarning semantikasi.....122
Zulfiyaxon Komilova. Er-xotinlik munosabatlarida psixologik qovushuvning o'rni.....123
Хуршидбек Маматисаков, Эльдар Гиздуллин. Символы и религиозно-духовная интерпретация повести-притчи Эрнеста Хемингуэя «Старик и море» 125
Intizora Axmatova. Qorako'l tumanida "ota" komponentli nekronimlarining semantik tahlili.....127
Elnoza Qudratov, Sahob Karimov. Musiqa merosimiz namunalarini ta'lim - tarbiya jarayoniga joriy etish metodlari.....130
Durdona Ubaydullayeva. Ingliz va o'zbek tillarida shart komponentli gipotaksemalarning izomorfik va allomorfik jihatlari hamda ularni taqozo etuvchi omillar.....132
Mahliyo Sherqulova. Reklama slogani tushunchasi va uning funksiyalari.....133
Abror Rayxonov. Futbol o'yinida qoidalarning yaratilish va rivojlanish tarixi.....136
Dildora Tashmuxamedova. Xitoy tili taqlid so'zlarida initsial ishtirokining statistik tahlili.....139
Zuxraxan Kasimova. Beshik to'yi marosimi folklori janrlar tarkibiga doir ayrim mulohazalar.....144
Шоира Хашимова. Азартные игры в произведениях классической корейской литературы.....147
Баходир Дехконов. Архитектурные заимствования в современном русском языке.....149
Manzura Abduxalilova. Issues on translating english idioms into uzbek language.....151
Nilufar Turdiyeva, Davlatbek Egamkulov. Inversion in english literary tale.....153
Mahfuza Ruzieva. The notion of linguistic personality in translation studies.....155
Alisher Hamidov. Practical approach to the issue of simultaneous.....157
Dilorom Mirsagatova. Classifications of railway terms in english.....159
Раушан Торежанова, Шахризада Торежанова. Загадки и их значение в эстетическом воспитании молодежи в каракалпакской народной педагогике.....161

Kichik tadqiqot

Farida Na'matova. Tarjimada rejim o'lchamini tahlil qilish.....163
Zuxraxon Madaliyeva. O'zbek adabiyotining amerikalik tadqiqotchisi.....165
Umidaxon Usmonova. Structural-semantic and linguoculturological study of verb phraseological units in uzbek, russian, and english languages.....167
E'zoza Alimova. "Usta Gulmat" turkumidagi g'azallarning o'ziga xos xususiyatlari.....168
Parizoda Axrorxo'jayeva. Maysaraning makri yoxud mazlumlar ohi Haqqa yetganda.....170
Madinaxon G'ofurova. Nabi Jaloliddinning "O'qilmagan kitob" hikoyasida badiiy tasvir va qahramon ruhiyati uyg'unligi.....173
Nigora Yuldasheva. Litsey o'quvchilariga ingliz tilida o'qish ko'nikmasini shakllantirishda integrativ yondashuv hamda innovatsion metodlardan foydalanishning ahamiyati.....175
Gulnora Ximmatova. Halima Xudoyberdiyeva ijodida milliy ruh masalasi.....177
Dilnura Sotimboyeva. Mustaqillik davri o'zbek nasrida ibora va xalq maqollarining ahamiyati (Komil Avazning "Sozanda" romani misolida).....180
Gulmira Bozorova. Halima Xudoyberdiyevaning talmehdan foydalanish mahorati.....182
Munira Kurbanbayeva. O'zbek va koreys tillari grammatikasining qiyosiy tahlili.....184
Zilola Mirqodirova. Til o'rganishdagi muhim jihatlar.....186
Rukhshona Rahmonova, Mukhlisa Kenjaeva. Teaching english through songs.....187
Sabina Xamrakulova. Semantic analysis of english and uzbek phraseological units expressing juvenile age and youth from a comparative aspect.....189



Olim USMONOV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti

G‘ULOM ZAFARIY DRAMALARIDA JADIDCHILIK G‘OYALARINING YORITILISHI

Annotatsiya: o‘zbek adabiyotida musiqali drama janri va bolalar dramaturgiyasining vujudga kelishi bevosita G‘ulom Zafariyning nomi bilan bog‘liqdir. Fitrat va Cho‘lpon boshchiligidagi qaynoq adabiy muhitning faol namoyandalaridan biri bo‘lgan adib o‘z ijodi bilan o‘tgan asrning 10-20- yillari ma’naviy-ijtimoiy hayotida sezilarli iz qoldirdi. G‘ulom Zafariyning deyarli barcha asarlari jadidchilik g‘oyalari bilan sug‘orilgandir.

Tayanch so‘zlar: *musiqali drama, sanoyi nafisa, pantomima, raqs musiqasi, pyesa, spektakl.*

Annotation: the emergence of the musical drama genre and children's dramaturgy in Uzbek literature is directly related to the name of Ghulam Zafari. The writer, one of the active representatives of the literary environment led by Fitrat and Cholpon, left a significant mark on the spiritual and social life of the 10-20s of the last century with his work. Almost all of Ghulam Zafari's works are imbued with Jadidist ideas.

Key words: *musical drama, fine arts, pantomime, dance music, pesa, performance.*

Аннотация: появление жанра музыкальной драмы и детской драматургии в узбекской литературе напрямую связано с именем Гуляма Зафари. Писатель, один из активных представителей литературной среды во главе с Фитратом и Чулпаном, оставил своим творчеством значительный след в духовной и общественной жизни 10-20 годов прошлого века. Практически все произведения Гуляма Зафари проникнуты идеями джадидизма.

Ключевые слова: *музыкальная драма, изящные искусства, пантомима, танцевальная музыка, пьеса, спектакль.*

G‘ulom Zafariy o‘tgan asrning 20-30- yillari ma’naviy-ijtimoiy hayotida sezilarli iz qoldirgan jadid ma’rifatparvarlaridan biri edi. O‘ziga zamondosh taraqqiyparvar adiblar singari u ham adabiyotimiz, madaniyatimizning dolzarb muammolarini hal qilishga o‘z hissasini qo‘shdi. U serqirra ijod sohibi edi. G‘ulom Zafariy shoir, dramaturg, publisist, aktyor, rejissor, bastakor, teatrshunos, musiqashunos, folklorchi olim ham bo‘lgan. G‘ulom Zafariy nomining milliy madaniyatimiz va adabiyotimiz tarixida yorqin iz qoldirishiga sabab bo‘lgan asar uning “Halima” dramasidir. O‘sha davrda e’lon qilingan afisha va taqrizlarda asar “fojia” deb ko‘rsatildi. Bu faqat sevishgan ikki yoshninggina fojiasi emas edi. Xurofot va jaholat keltirib chiqargan turli illat natijasida, shuningdek, ijtimoiy tuzumning noqisligi tufayli o‘lkada shaxs erkinligi masalasi achinarli ahvolda bo‘lgan. Ayniqsa, ayollar erki, sevgiga asoslangan nikoh masalasi davrning eng ziddiyatli muammolaridan biri bo‘lib qolgan. “Halima” dramasida ko‘tarilgan g‘oya aslida barcha jadidlarning ma'naviy ustozi, bu harakatning yo‘lboshchisi Ismoil G‘asprali tomonidan o‘rtaga tashlangan bo‘lib, u maktab va maorif, matbuot va adabiy til masalalarini hal etish bilan birgalikda xotin-qizlarning shar'iy huquqlarini tiklashni ham o‘z harakat dasturiga kiritgan. Shariat qonunlari bo‘yicha ayollarga ko‘plab huquqlar berilgan bo‘lsa-da, hayotga joriy qilishda ko‘plab nohaqliklar yuz bermoqda edi. Ayniqsa, turmushga chiqayotgan xotin-qizlarning xohish-ixtiyorini hisobga olmaslik, hayotda, oilada ayolga past nazar bilan qarash hollari hanuzgacha susaymagan edi. Ismoil G‘asprali bu mavzuda talaygina maqolalar yozdi. Jumladan, Turkiston ayollari hayotiga oid “Turkiston xotin-qizlari qay holda yashaydilar?” (1913) nomli maxsus maqola bilan chiqdi. U ayollar huquqining toptalishi haqida yozgan maqolalaridan birida quyidagi misollarni keltiradi: “D” degan shaxs uylanadi. Bir yil, ikki yil yashaydi, so‘ng, xotinini tashlab, boshqa ayolga uylanadi. So‘ng uni ham tashlab, qaygadir borib, yana uylanadi. Avvalgi xotinlariga na ajralish xati, na nafaqa bermasdan birdaniga ikki-uch xotinni qiynaydi. Bu baxtsiz mazlumalarning oh-u zorlarini hech kimsa eshitmaydi. U “to‘ng‘iz” esa biladi – shariat qonuni go‘yoki, uning tarafida. Uning roziligini olmasdan xotinlarini undan hech kimsa ajrata olmaydi. Mullaning ham fikri shunday...

Minglarcha ayollarning chekkan zulm va aziyatlari uchun ularning olchoq erlari bilan bir sirada Allohning oldida uning eng bosh, eng asos ko‘rsatmasi – adolat buzilganligi uchun bizlar hammamiz javobgardirmiz” .

Bu javobgarlikni teran his qilgan o‘zbek adiblari ham asrimizning birinchi choragida bu mavzuda ko‘plab asarlar yaratishgan. Toshkent jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan bo‘lgan G‘ulom Zafariyni ham ko‘pdan buyon bu muammo bezovta qilar, hayajonga solar edi. “Halima” adib qalbini o‘rtagan, chuqur qayg‘uga cho‘mdirgan ana shu o‘y-xayollar hosilasi o‘laroq dunyoga keldi. Bu asar haqida “Qizil O‘zbekiston” gazetasining 1925- yil 20- mart sonida “To‘lqin” imzosi ostida yozilgan taqrizda shunday deyiladi: “O‘zbek oila turmushi juda ham yomon. Xotin-qizlarimiz bu kunga qadar o‘yinchi-qo‘g‘irchoq qatorida sanalib keldilar va haliyam sanalib kelmoqdalar. Qiz

berish, kuyov qilishda ham ixtiyor mutaassib ota-onalar qo‘lida bo‘ldi. Qiz ixtiyorsiz hayvon qatoridadir...

Bu hollar turmushimizda millionlab sanaladir. Bu sanoqsiz dardlarimizning kichkina namunasi “Halima” o‘perasidir va unda ko‘rsatiladurg‘on o‘zbek oila turmushidag‘i qayg‘uli hollar, yashashlar, ixtiyorsizliqlardir.

Bu o‘pera turmushimizning eng qayg‘uli, fojiali joylaridan olib yozilg‘on bir narsa bo‘lishi bilan barobar yo‘qolib ketmakda bo‘lg‘on ohanglarimizni bir yerga to‘plag‘on” .

“Halima”dan oldin va keyin yaratilgan bir qator asarlar, masalan, Hamzaning “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari” dramasi, Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon”, Cho‘lponning “Kecha va kunduz”, Oybekning “Qutlug‘ qon” romanlarida o‘zaro o‘xshashliklar bor. Bularning barchasida bosh qahramonlardan biri bo‘lgan bechorahol oiladan chiqqan qizning o‘zi kabi kambag‘al, pokiza qalbli yigitni sevishi, ammo sevganiga yetolmasdan qari, ammo boy kishiga uzatilishi tasvirlanadi. Bu asarlarda tasvirlangan davr ham deyarli bir xil, ya'ni asrimizning o‘ninchi yillari yoki “so‘nggi xon zamonlari”. Barcha mualliflarning o‘sha davrdagi ijtimoiy tuzumga nisbatan chiqargan hukmlari ham bir xil – adolatsiz tuzum. Ikki sevishgan yosh Ne'mat va Halima ana shunday muhitda tug‘ilib o‘sadilar. Halimaning otasi Muslim o‘rtahol do‘kondor bo‘lib, ishlari yurishmasligi oqibatida ancha qarzdor bo‘lib qoladi. Shu orada uning qiziga shaharning eng katta boylaridan Ortiqboy sovchi qo‘yadi va qalinga katta pul va'da qiladi. Muslim uchun xonavayron bo‘lmaslikning birdan-bir yo‘li qizini Ortiqboyga “sotish” bo‘lib tuyuladi. Ne'mat esa kambag‘al oiladan bo‘lib, katta qalin berishga qurbi yetmaydi. U Halimaning Ortiqboyga uzatilayotganligini eshitib ishq dardida kasal bo‘lib qoladi. Ortiqboy raqibini yo‘qotish uchun sotqin tabib orqali Ne'matga zahar beradi. To‘y kuni Ne'matning o‘limini eshitgan Halima ham o‘z joniga qasd qiladi. Dramaning qisqacha mazmuni shundan iborat. Lekin asarning asosiy quvvati ikki sevishgan yoshning butun ichki kechinmalari, orzu-armonlari-yu qalb g‘alayonlari, visolning totli sururi-yu ayriliqning achchiq faryodi aks etgan qo‘shiq va kuylardadir. Dramaturg ularni voqealar rivoji, qahramonlarning kayfiyati, holatlariga qarab juda o‘rinli joylashtirgan. Bu muallifning yuksak did, iqtidor egasi ekanligidan darak beradi.

Muallif asosiy qahramonlarning qalb kechinmalarini ochib berish uchun “Qanchalar”, “Iroq”, “Omon-omon”, “Sayra bulbul”, “Reza”, “Ko‘chabog‘i”, “Bayot III” kabi xalq ashulalaridan foydalanadi. Garchi dramaga maxsus musiqa yozilmay, xalqning musiqiy merosidan tanlab, saralab kiritilgan bo‘lsa-da, asarda hech bir sun’iylik sezilmaydi. Aksincha, qahramonlar xatti-harakati, ashulalar matni va musiqa o‘rtasida uzviy mutanosiblik namoyon bo‘ladi. “Halima” dramasini yaratar ekan, dramaturg asarning xalqona bo‘lishiga, xalq ruhiyati va qiziqish doirasini ochishga e'tiborni qaratadi. O‘zbek musiqasi va xalq og‘zaki ijodi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan G‘ulom Zafariy xalq ijodining cheksiz ummon, bebaho xazina ekanligini anglab etadi. Uning 20-yillar atrofida yozilgan o‘zbek teatri va musiqasi tarixiga bag‘ishlangan maqolalarida madaniy merosimizning juda boy va qadimiyligini, zamonaviy adabiyotimizda undan samarali foydalanish mumkinligini ta'kidlagan edi. Xalq ijodidan bahramandlik dramaturg asarlarining muvaffaqiyatini ta'minlagan omillardan biridir.

20-yillarda “Halima”ni “Turon” sahnasida ko‘rgan rus teatrshunosi B. A. Pestovskiy yozadi: “Birinchi pardada Halimani suygan yigitning ariyasi va beshinchi pardada o‘zbek to‘yi va Halimaning o‘lmagi juda go‘zal chiqg‘ondir. Hech bir musiqadan xabari bo‘lmag‘on, musiqa hislari uyg‘onmag‘on bir kishiga ham bu asar qattiq ta'sir qoldirarliqdir” .

Fitrat “Halima” dramasiga bag‘ishlangan taqrizida asarning muvaffaqiyati haqida to‘xtalib: “G‘ulom Zafariyda ko‘broq yozuvchilarimizda topilmag‘on yangi xususiyat bor. G‘ulom milliy kuylarimizni yaxshi biladir” deb yozgan. Darhaqiqat, dramaning matniga singdirib yuborilgan qo‘shiq va kuylarda insonni to‘lqinlantirib yuboradigan maftunkor va sehrli kuch bor. Asar qahramonlari bo‘lgan Ne'mat va Halimaning qayg‘u va hasratga to‘la ariyalari orqali ular yuragining tub-tubidan otilib chiqqan orzu-armonlari, shu bilan birga davrning bo‘g‘uvchi muhiti yorqin tasvirlanadi. Dramaning muvaffaqiyatini ta'minlagan, xalq orasida shuhrat qozonishining omillaridan biri ham mana shundadir.

Ismoil G‘aspirali 1882- yilda “Ayollarni o‘qitish kerakmi?” maqolasida yozgan edi: “Nima uchun qizlarga ilm o‘rgatish mumkin emas? Shariat buni ma'n qiladimi? Yo‘q, ma'n qilmaydi. Imkoniyati bor har bir ota-ona, o‘g‘il yoki qiz bo‘lsin, o‘z bolalarini tarbiya etmoqqa, o‘qitmoqqa burchlidir. Bolalari uchun ular Allohning oldida ham, jamiyatning oldida ham javobgardirlar... Agar o‘g‘il bolalarni yaxshi yigit, yaxshi ota va ishbilarmon xodim qilib o‘qitmoq kerak ekan, nega qizlarni yaxshi ayol, yaxshi ona va yaxshi uy bekasi bo‘lishi uchun o‘qitmaslik kerak?! O‘g‘lonlar erkaklar uchun kerak bo‘lgan narsalarni, qizlar xotinlar uchun kerak narsalarni o‘rganadilar. Shunda biri yaxshi bilimli ota bo‘ladi, biri esa yaxshi, uquvli ona...”

Xotin-qizlarning ilm olishiga jadidlarning bu qadar e’tibor bilan qarashlari bejiz emas edi. Ular millatning kelajagi onalarning qo‘lida ekanligini teran anglaganlar. Har bir inson ilk tarbiyani, avvalo, o‘z onasidan oladi. Shunday ekan, onaning ma'rifatli bo‘lishi millatning porloq kelajagiga garovdir.

G‘ulom Zafariy tomonidan 1919- yilda yozilib, shu yili sahnalashtirilgan “Tilak” pesasida dramaturg o‘zining ezgu orzu-tilaklarini, kurashlarini asar bosh qahramoni Murod tilidan so‘zlaydi. Uning fikricha, millatning taraqqiyotga erishishi uchun uning barcha a'zolari

ma'rifatli bo‘lishi shart. Shunday ekan, nega xotin-qizlarning bilim olishiga sharoit yaratilib berilmayapti? Axir butun insoniyatning yarmini xotin-qizlar tashkil etadi-ku! Agar xotin-qizlar savodsiz bo‘lsa, jamiyatning yarmi savodsiz bo‘ladi, degani emasmi bu?

Murodning: “Nega bizda qizlar bilim yurtlari uchun cholishg‘uchilar yo‘q, nima uchun maorif bo‘limlari qarab turadilar?” degan so‘zlari barcha jadidlarning, jumladan, G‘ulom Zafariyning ham qalbini o‘rtagan muammolardan biri bo‘lgan. Bu muammoni hal etish jadidchilik harakatining ilk davrlaridayoq kun tartibiga qo‘yilgan edi.

“Tilak” pyesasida xuddi shu g‘oya olg‘a suriladi. Ma'rifat nuridan bahramand bo‘lgan, qalbi yorug‘ hislarga to‘la Murod kelajakka umid bilan qaraydi, ma'rifat quyoshi chiqib jaholat bulutlarini to‘zg‘itib yuborishiga ishonadi. “...To‘g‘ri bu qarong‘iliklar ketur, o‘rniga bilim kuni tug‘adur, qizlar uchun ham bilim uylari ochilur, elning bolalari o‘qimishli onalar quchog‘ida yaxshi tarbiya ila yetishur, dunyoda yashamoq uchun bir-biriga muhabbat, hurmat va yaxshilik kerak ekanligini tushunurlar, ul chog‘da kishilar orasida birlik va qardoshlik o‘sar-da, hech bir tortishishlar, talashuvlar bo‘lmas”.

Murodning ziddiyatli o‘y-xayollarini ochib berishda G‘ulom Zafariy dramaturgiyaning turli vositalaridan foydalanadi. Romantik xayollar og‘ushida, ko‘tarinki kayfiyatda turgan Murod oldida bexosdan yovuzlik timsoli bo‘lgan shaytonning paydo bo‘lishi, uni to‘g‘ri yo‘ldan qaytarishga urinishi qahramonning diliga biroz tushkunlik, umidsizlik tuyg‘ularini soladi. Ammo shu chog‘da sahnaga qo‘lida kitob va chiroq tutgan farishtamonand Qiz paydo bo‘ladi. Ezgulik va ma'rifat nuriga dosh berolmagan shayton qorong‘ulik qa'riga sho‘ng‘ib, yo‘q bo‘ladi. Pyesa hayotbaxsh, nekbin kayfiyatda yakun topadi. Ushbu asar G‘ulom Zafariyning “Yomon o‘g‘il”, “Rahimlik shogird” pyesalari bilan birgalikda bir spektakl shaklida Karl Marks nomli teatr truppasi tomonidan 1919- yil 4- oktabrda namoyish etilgan. Shunisi diqqatga sazovorki, bu asar davlat teatrining bolalarga atalgan birinchi spektakli edi. Bu spektakl ham G‘ulom Zafariyning maslakdosh do‘stlari bo‘lgan Fitrat va Uyg‘ur asarlari bilan birga namoyish qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гъафаров Сейтгазы. Исмаил бей Гаспиринский.// Йилдыз. 1989. №6. – Б. 79-100
2. Каримов Н. Ғулом Зафарий// Шарқ юлдузи. – 2012. -№1 – 40-53 б.
3. Pestovskiy B.A. O‘zbek teatri tarixi // “Inqilob” jurnali. – 1922. - №3. 36-42 b. №4. 27-29 betlar.
4. Раҳмонов М. Ўзбек театри тарихи. – Тошкент. Фан, 1968. – 430 б.
5. Ризаев Ш. Жадид драмаси. – Тошкент. Шарқ, 1997. – 320 б.
6. Қосимов Б. Исмоилбек Гаспирали.– Тошкент. Адабиёт ва санъат, 1991.– 80 б.

Nargiza KADIROVA
TIQXMMI Milliy tadqiqot universiteti, f.f.f.d., dotsent

UYG‘ONISH VA UNDAN SO‘NGGI DAVR IJODKORLARINING “EVRILISH” MOTIVIDAN FOYDALANISH MAHORATI

Annotatsiya: ushbu maqola Rim, Angliya, Fransiya, Shotlandiya adabiyotlarida uyg‘onish va undan so‘nggi davr ijodkorlari asarlarida “evrilish” motivining qo‘llanilishi, uning mazmun-mohiyati misollar tariqasida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *evrilish, sehr-jodu, ma’buda, eshak, sag‘ri teri, afsonaviy shaxs.*

Аннотация: в данной статье в качестве примеров освещается использование мотива “преображения” и его сущность в творчестве творцов эпохи Возрождения и Позднего Возрождения в литературе Рима, Англии, Франции, Шотландии.

Ключевые слова: *трансформация, магия, богиня, осел, светлая кожа, легендарная личность.*

Annotation:this article highlights, as examples, the use of the “transformation” motif and its essence in the works of Renaissance and Late Renaissance creators in the literature of Rome, England, France, and Scotland.

Key words: *transformation, magic, goddess, donkey, fair skin, legendary personality.*

Antik davr Rim adabiyotining vakillaridan biri bo‘lgan Apuleyning “Oltin eshak” asarida keltirilgan “evrilish” motivi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Garchi u “evrilish” motivining qadimgi namunalaridan biri sifatida diqqatni tortsa-da, ushbu romanda tasvirlangan voqealar nuqtayi nazaridan antik adabiyot tarixi uchun yangi mavzu emas edi. Qadimgi zamon odamlari insonning sehr-jodu kuchi yordamida biror jonivorga, yomg‘ir yoki shamolga, dov-daraxtga aylanib qolishiga ishonganlarini e’tiborda tutib, Apuley ham, unga qadar ham asarlar yaratilgan. Adib kitobxonni kuldirish, uning ko‘nglini chog‘lash maqsadida shu afsonaviy mavzuni qalamga olganini romanning ilova qismida alohida ta’kidlab o‘tgan. Ammo u ana shu xushchaqchaqlik, vaqtichog‘lik niqobi ostida o‘z zamonasi

kishilariga axloq o‘rgatish, ularga pand-nasihat qilish maqsadlarini ko‘zlaganligi romanning xotima qismida ravshan sezilib turadi.

Romanda inson baxt-saodatini yolg‘iz diniy e’tiqodlarga, sehr qudratiga bog‘lagan holda talqin etish – muallifning taqvodor kishi bo‘lganligidan dalolat beradi. Bu romanni qo‘lga olgan har bir kitobxon beixtiyor ajoyib voqealar maftuni bo‘lib, goh Olimp tog‘i ma’budlari o‘rtasida, g‘ayritabiiy afsonalar, mislsiz sehr-jodular olamida kezadi, goh din ahllarining tantanali marosimlari, shaxsiy hayotlari guvohi bo‘ladi, goh Rim tomoshagohlarining tomoshabiniga aylanadi, goh qaroqchilarning sarguzashtlari hikoyasiga quloq soladi, goh shahar ko‘chalarida, bozor rastalarida aylanadi, goh oddiy xonadonlardagi o‘rtamiyona odamlarning xufiya ishlari ustidan chiqib qoladi. Bular orqali adibning realistik bo‘yoqlarda turmushni aynan ko‘rsatish talablaridan ancha uzoq turganini anglatadi. Apuleyning “Oltin eshak” asari to‘liq holda yetib kelgan. Unda asar bosh qahramoni Lyutsiyning hayot yo‘li metamorfozalar qobig‘iga o‘rab, evrilish motiviga tayanib yoritilgan. Voqealar eshak tusidagi Lyutsiyning o‘zi ko‘rganlari va eshitganlari tarzida ifoda etilgan.

Asarda bu motivga xos asosiy xususiyat – magiya, ya’ni sehr-joduga ishonch mohiyati bo‘rttirilib, yagona inson qismatini idrok etishning poetik shakliga aylantirilgan. Evrilish motivi vositasida Lyutsiyning inson ko‘rinishidan eshak ko‘rinishiga aylanishi tasvirlangan. U eshak ko‘rinishida jahongashtalik qiladi. Albatta, Lyutsiydagi bu keskin o‘zgarish uning taqdirida turli burilishlar bo‘lishiga olib keladi. Asarda qahramonning uchta holati va ko‘rinishi “evrilish” motivi vositasida badiiy aks ettirilgan:

1. Lyutsiyning eshakka aylangancha bo‘lgan holati va ko‘rinishi.
2. Lyutsiy – eshak.
3. Lyutsiyning misterik poklangan holati va ko‘rinishi.

Buni “tadrijiy evrilish” deyishadi. Negaki, bunda birgina odam – Lyutsiyning ruhiy holati, jismoniy ko‘rinishi jihatidan o‘zaro farqlanuvchi uch obrazi namoyon bo‘ladi.

Lyutsiy eshak tusiga kirib qolgani bilan uning insoniy fahm-farosati, ongi o‘zgarmagan edi. Shu sababli u har bir narsaga diqqat bilan razm soladi, tevaragidagi biron voqeani ko‘zdan qochirmaydi. Odamlar esa bundan bexabar turli-tuman jinoiy va zinoyi ishlarni hech narsadan hayiqmasdan qilaveradilar.

Uzoq vaqt atirgul topib yeyolmay, Lyutsiy asl qiyofasiga qaytolmaydi va kulfatlardan qutulolmaydi. Nihoyat, bir kun u xo‘jayinidan qochib ketib, dengiz bo‘yiga keladi va ma’buda Izidaga munojot qilib, odam qiyofasiga qaytarishini, yo bo‘lmasa jonini olib, azoblardan qutqarishini so‘raydi.

“Evrilish” motivining bu asardan o‘rin olishiga sabab shuki, adib Apuleyning chuqur ishonchiga ko‘ra, har bir odam o‘z turmushida, butun xatti-harakatlarida, yurish-turishlarida to‘g‘ri, halol, pokiza bo‘lmog‘i, ma’budlarning izmi bilan yashamog‘i lozim, aks holda, u taqdirning qahriga duchor bo‘ladi, boshi kulfatlardan chiqmaydi. Shuning uchun asarda Lyutsiyning ma’buda Izidaga munojoti va iltijolari, ularning qabul bo‘lib, qahramon tushiga ma’budaning kirishi, bundan buyon xaloskorga muxlislik bajo keltira olsa, qolgan hayotini uning yo‘liga hadya etsa, ko‘magini ayamasligini va’da qiladi. Ertasi kun ma’buda Izidaning sharafiga uyushtirilgan tantanali diniy marosim paytida Lyutsiy bosh kohin qo‘lidagi gulchambarni yeb, yana asl holiga qaytadi va hayotining oxirgi kunlariga qadar ulug‘ ma’budaga sodiq muxlis, mo‘min ummat bo‘lib qoladi.

Qadimgi manbalarda, jumladan, Apuleyning “Oltin eshak” asarida qo‘llangan metamorfoza magik mohiyat kasb etadi. Chunki unda evrilish sehr yo‘li bilan amalga oshiriladi. Yana mavjud an’anaga zid ravishda unda yagona insonning metamorfoza tufayli hayvoniy holatga kirib qolib, atrofidagi kishilardan, o‘zini qamrab olgan insoniy muhitdan, odamlarga xos sharoitlardan ayrilib qolishidan iborat ayanchli qismati yoritilgan. Bunda metamorfoza insonning hayvondan farqini idrok etishga ko‘mak beradigan badiiy shakl sifatida xizmat qiladiki, shuning uchun bu o‘rinda eshak metamorfozasining genezesidan ko‘ra, uning bajaradigan vazifasi ko‘proq e’tiborni tortadi.

Asardagi “metamorfoza” motivi orqali inson hayotining o‘ziga xosligi, hayvonot dunyosidan farqi, odamning boshiga tushgan qiyinchiliklar tufayli o‘zgarishi mumkinligi talqin qilingan. Shuning uchun “Oltin eshak” romanining ba’zi hikoyalari Bokkachchoning “Dekameron” asari yaratilishiga katta ta’sir ko‘rsatib, unga insonning turli hayotiy sinovlar vositasida ruhiy evrilishiga xos mavzularni hadya qilgan.

Xulosa qilib aytganda, Apuleyning “Oltin eshak” romani qadimiy va an’anaviy «evrilish» motiviga asoslangani bilan adib ijodida alohida o‘rin tutadi. Hatto bu asar shoirga katta shuhrat keltirdi va ijodining yuksak cho‘qqisi sifatida baholanadi. Albatta, bunday bo‘lishida uning tarkibidan o‘rin olgan «evrilish» motivi ga asoslangan badiiy lavhalarning ayricha o‘rni va ahamiyati bor.

Geoffrey Monmoutning 1136-yilda yozilgan “Britaniya qirollarining tarixi” asarida Artur haqidagi afsonalar hamda O‘rta asr Uels she’riyati orqali nomi mashhurlashgan juda ajoyib sehrgar, afsonaviy shaxs Merlin Ambrosius (uelscha Myrddin Emrys) tasviriga bog‘lab keltirilgan evrilish motivli lavhalar alohida e’tiborni tortadi. Aslida Buyuk Britaniya sobiq qirollarining tarixiy xislatlari haqida yaratilgan bu asarda Merlin xayoliy qahramon sifatida uchraydi. Chunki Merlin haqidagi afsonalarda uning odatda ismi sir saqlanadigan, aytilmaydigan onasi – shoh qizi

bo‘lgan o‘lik ayoldan tug‘ilgani, shaytondan yaralib, undan o‘z g‘ayritabiiy kuch va qobiliyatlarini egallagani hikoya qilinadi. Biroq “Nasroniy Brut” asarining eng qadimgi nashrida Merlinning onasi ismi Adon (Adan) sifatida tilga olingan.

Merlin o‘z sehr va nayranglari orqali qirol Arturga g‘alabalar keltiradi. U Arturning maslahatchisi va jangchilarning ustozi sifatida xizmat qiladi. Oxirida uni Ko‘l hukmdori bo‘lgan ayol sehrlab, tutqunlikda saqlaydi. Merlin esa sehrli o‘rmonda dafn qilinishini so‘rab oladi.

Ijodkor Robert de Boron sehrgar Merlinning o‘z qiyofasini o‘zgartira olish qobiliyati, ya’ni evrilish xususiyati, ayniqsa, uning kulgili shaxsiyati haqida gapirishga katta e’tibor qaratgan. Uning “Merlin” nasri (she’ri) Merlinning jodugarligi, qiyofasini o‘zgartirishiga oid bir qancha misollarni o‘z ichiga oladi. U bo‘ynida boltasi bor bo‘lgan, katta poyafzalli, yirtiq paltoli, qalin sochli va uzun soqolli daraxt kesuvchi bo‘lib namoyon bo‘ladi. Keyinchalik u Norsumberlanddagi o‘rmonda, Uterning izdoshi tomonidan chirkin odamga o‘xshab yashirinib yurgan va hayvonlarning katta podasini boquvchisiga o‘zini o‘xshatgan kishi tarzida ko‘rsatiladi. Keyinchalik u oldin chiroyli odam, so‘ngra chiroyli bola kabi namoyon bo‘ladi. Yillar o‘tgach, u Artur oldida charm poyafzal, jun palto, qalpoq kiygan va qo‘y terisidan tayyorlangan belbog‘ boylagan dehqon sifatida paydo bo‘ladi. U uzun bo‘yli, qora va qalin sochli shafqatsiz va yovuz shaxs sifatida ham gavdalantiriladi. Nihoyat, u uzun soqolli, pastgina bo‘yli, qaddi bukchaygan, eski va yirtiq libosdagi chol sifatida paydo bo‘ladi.

Sehrgar Merlin obrazi nafaqat adabiyotda, balki kinofilmlarda ham tasvirlanar ekan, uning sehrgarlik xislatiga, o‘z shaklini o‘zgartira olish qudratiga alohida ahamiyat qaratilgan.

Umuman aytganda, Merlin obrazi tarixiy va afsonaviy shaxslarning kombinasiyasi sifatida yaratilgan.

O.Balzakning falsafiy va fantastik xarakterdagi “Sag‘ri teri tilsimi” romani (1831) syujeti sirli evrilish motiviga asoslangani bilan e’tiborni tortadi. Unda kishini barcha orzu-istaklariga yetkaza oladigan sirli teri haqida so‘z yuritiladi. Asarning bosh qahramoni Rafael de Valanten ismli yosh yigit bo‘lib, u aslida iste’dodli shoir va olimdir. Ammo u kecha-kunduz o‘z ilmiy ishi ustida bosh qotirib tinimsiz ishlasa-da, omadi yurishmaydi. Hatto sevgan ayoli ham uning sevgisini rad qiladi. Rafael’ esa o‘z qobiliyati bilan butun Parijni zabt etmoqchi, shuhrat qozonmoqchi edi. Biroq ishlari yurishmagani hamda sevgisi rad qilinganidan qattiq tushkunlikka tushgan yigit o‘zini Sena daryosiga tashlab o‘ldirmoqchi bo‘ladi. Yo‘l-yo‘lakay u eski nodir-noyob, ya’ni antikvar buyumlar sotadigan cholning do‘koniga kirib, bu erdagi ajoyib narsalarni tomosha qila boshlaydi. Shunda yigitning ko‘zi sirli sag‘ri terisiga tushadi. Chol bu terini olgan kishining barcha istaklari amalga oshishini, lekin bunga zid holda terining hajmi ham qisqarib borishini, u qisqarib tugashi bilan teri egasining umri ham tugab, o‘lishini aytadi. Baribir o‘lishga qaror qilgan Rafael uchun buning ahamiyati yo‘q edi. Shuning uchun Rafael choldan terini oladi. Yigit terini qo‘liga olar ekan, sharq afsonalarida uchraydigan bu mo‘jizakor teriga “Mening egam hamma narsaga ega bo‘ladi, ammo uning joniga men ega bo‘laman. Tangri irodasi – shu. Istaganingni tila, ijobat bo‘lg‘ay. Lekin tilagingni hayotingga mosla. Joning – menda. Har bir tilagingdan umring kunlari kamaygani singari men ham kamayaman. Menga ega bo‘lishni istaysanmi? Ol. Senga tangri yor bo‘lgay. Omin!” kabi jumlalar tilsim kabi o‘yib yozilganiga ko‘zi tushadi.

Rafael vaqtincha bo‘lsa-da, baxtiyor yashash maqsadida teri bilan bog‘liq shartga rozi bo‘ladi. Darhaqiqat, terini qo‘liga olishi bilan Rafaelning ishlari yurishib ketadi. Atrofida do‘stlari ko‘payadi, jurnallar uning asarlarini bosishga kirishadi. Avval yigitning sevgisini rad qilgan zodagon ayol Feodora ham Rafael yoniga qaytadi, hatto o‘zi Rafaelga sevgi izhor qiladi. Biroq Rafael endi ayolning sevgisini qabul qilmay, rad qiladi. Tez orada yigit boyib ketadi. Uning barcha orzu-istaklari amalga osha boshlaydi. Shu bilan birga, terining hajmi ham tobora qisqarib boraveradi. Bir vaqtlar o‘zini-o‘zi o‘ldirmoqchi bo‘lgan Rafael endi ajaldan qo‘rqadi. Hayot unga juda-juda shirinlik qiladi. Yigit o‘lish fikridan qaytishga, barcha xohish-istaklarini to‘xtatishga, odamlardan yiroqlashishga urinadi. Buning uchun u hatto zamonasining nom qozongan mashhur fizik va kimyogar olimlariga murojaat qilib, sirli terining hajmini kengaytirishga, hech bo‘lmasa, uning qisqarishini to‘xtatishga intiladi. Ammo hech kim sirli terining qisqarish jarayonini to‘xtata olmaydi. Nihoyat, sag‘ri terisi qisqarib tamom bo‘ladi va Rafael ham o‘ladi.

Aslida romandagi “sag‘ri teri” ramziy obraz bo‘lib, o‘zida insonni halokatga mahkum etuvchi yaramas tuzumni ifodalashga xizmat qilgan. U orqali burjua dunyosining vahshiy qonunlari falsafiy va fantastik ruhda ochib berilishi ko‘zda tutilgan.

Xulosa qilib aytganda, O.Balzakning “Sag‘ri teri tilsimi” romanida evrilish motivi vositasida sirli terining kuchi bilan o‘z baxtsiz hayotini ma’lum muddat bo‘lsa-da, baxtiyor onlarga almashtirgan, hatto bunda o‘limdan ham qo‘rqmagan inson hayoti aks ettirilgan.

Shotlandiyalik yozuvchi Robert Luis Stivensonning gotik janrda yozilgan “Doktor Jekil hamda mister Xayd haqidagi g‘ayrioddiy voqealar” (1886) romanida ilm-fan yutuqlarini e’tirof etish, inson o‘z aqlu zakovati asosida kashf etgan dori-malhamini qabul qilishi bilan ko‘rinishini o‘zgartirishi an’anaviy evrilish motivi vositasida tasvirlangan. Romanda sirli dori tayyorlab, o‘z ko‘rinishini o‘zgartirgan va Eduard Xayd qiyofasiga

kirib olgan Genri Jekil obrazi uchraydi.

Asar voqealari uchinchi shaxs, notarius Gabriel Jon Atterson tomonidan bayon etiladi. U tabiatan o‘ziga nisbatan qattiqqo‘l, lekin o‘z atrofdagilarining zaif tomonlariga yomon munosabatda bo‘lgan, aybni emas, balki yordam berishni afzal ko‘radigan shaxs edi. Aynan shuning uchun u ko‘pincha aksariyat nufuzli odamlarning so‘nggi do‘sti va ular hayotida yaxshi ta’sir ko‘rsatuvchi shaxs edi.

Eduard Xayd shaytonomuz kishi bo‘lib, u kim bilan muloqot qilmasin, albatta, tushunarsiz tuyg‘usini qo‘zg‘atar, bir qator jirkanch xatti-harakati, bema’ni va shavqatsiz ishlari bilan yomon ot chiqargandi.

Asarning yana bir qahramoni jamiyatda hurmatli doktor Genri Jekil hisoblanadi. U Xayd bilan sirli ravishda bog‘liq edi. Bu bog‘liqlik notarius Attersonni qiziqtirib qo‘yadi. Xayd vaqt-vaqti bilan doktor Jekilning uyida paydo bo‘lardi va xizmatchilardan uning buyrug‘ini so‘zsiz bajarish talab qilinardi. Bundan tashqari, doktor vafot etganda yoki g‘oyib bo‘lib qolgan taqdirda, uning barcha boyliklari Xaydga vasiyat qilingani – eng qiziqarlisi edi.

Aslini olganda asarning ikki qahramoni bir kishi hisoblanadi. Barchaning hurmatiga sazovor bo‘lgan doktor Jekil jamiyatda kishilar nafratiga uchragan Xayd qiyofasida vaqtincha namoyon bo‘lish imkonini beradigan, ya’ni inson ko‘rinishini o‘zgartiradigan dori yaratgan edi. Bu qiyofada doktor taqdirning jirkanch amallarini bajaradi.

Yozuvchi asarda ikki xil xarakterdagi qiyofa tasvirini ustalik bilan yarata olgan. Jekil – mehribon, Xayd – qasoskor, Jekil – o‘zgalarni o‘ylaydigan, Xayd – xudbin, Jekil – hissiyotlarga berilmaydigan, Xayd esa jirkanchliklar ro‘yosi edi.

Asarning fantastik jihati shundaki, undagi evrilish inson aqli chegarasidan ancha uzoqqa chiqadi. Dorini ichgandan so‘ng qahramonning nafaqat hatti-harakatlari, balki tashqi ko‘rinishi, hattoki, qaddining kichrayib qolishi, sochlari o‘sib, qo‘rqinchli qiyofaga o‘zgarishini kuzatish mumkin. Doktor Jekil ilm-fan uchun o‘zida turli xil tajribalarni o‘tkazishga tayyor edi. Oddiy tajriba bo‘lib boshlangan ish sekinlik bilan doktorning o‘limiga olib keladi; har gal rahmdil doktor dorini ichganda shafqatsiz isyonkorga aylana boshlaydi. Shu niqobda osonlik bilan yovuz amallarni bajara oladi. Ammo doktor o‘zining Xaydga evrilish jarayonini boshqara olmaydi va oxir-oqibat o‘z-o‘zini yolg‘izlik, tushkunlik va o‘lim sari olib keladi.

Yozuvchi asarda inson tabiatiga pessimistik nazar bilan boqadi, ya’ni atigi bir tomchi dori yoki kimyoviy modda mehribon, har doim yordamga qo‘lini cho‘zadigan insonni yovuz, isyonkor shaxsga aylantirib qo‘yadi.

Ko‘rinadiki, asarda inson aqlu zakovati bilan tayyorlangan dori-malham vositasida evrilish motivi berilishi orqali inson qudrati ulug‘langan. Shuning barobarida bu an’anaviy motiv insonning o‘z qabihligini, aniqrog‘i, qotillik illatini yopish uchun qo‘l kelganini yoritishga xizmat qilgan.

Barchasini umumlashtirib, jahon adabiyotida Apuley tomonidan eshak metamorfozasi orqali qahramonning boshqalar xususiy turmushiga mo‘ralash, tinglash imkoniyatidan foydalanish holati saqlanib qolgan. Keyinchalik bu jahon romanchiligida uchraydigan “uchinchi odam” sifatida harakatlanadigan tiplarning spesifik mohiyatini ta’minlagan. Metamorfoza jarayonini boshdan kechirgan bunday obrazlar qatorida xizmatkor, telba, ayyor, masxara, avantyurist (tavakkalchi, chapani), fohisha, qo‘shmachi, yurist, vrach, sudxo‘r qiyofasidagi kishilar namoyon bo‘ladi.

Keyingi bosqichlarda yaratilgan badiiy asarlarda inson evrilishiga uning bevosita o‘zi ilm-fan va texnika sohasida erishgan yutuqlari sababchi bo‘lgani tasviri keltiriladi. Xususan, ilmiy-fantastik roman, qissa va hikoyalarda qahramonning o‘zi kashf qilgan biror narsasi, dorisi yoki tasodifan topib olgan qandaydir sehrli buyumi yordamida o‘z qiyofasini o‘zgartirishi, yoxud zumda ko‘zdan g‘oyib bo‘lishi, yoyinki g‘oyibdan paydo bo‘lishi, ko‘zga ko‘rinmaydigan bo‘lib qolishi kabi qiziqarli voqealar ifoda etiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, tahlili ko‘rib chiqilgan asarlar syujetidagi evrilish motivi fantastik mazmun kasb etsa-da, qahramonlarning ruhiy o‘zgarishlari bilan bog‘liq barcha tomonlarni yaqqol namoyon etishda katta ahamiyat kasb eta olgan.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Azizov Q., Qayumov O. Chet el adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1987. 150-151 betlar.
2. Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. – Jahon adabiyoti. – 2013. – 7-son.
3. Kadirova N. A. SKILLS OF USING THE “TRANSFORMATIONS” MOTIF IN WORKS OF BALZAC AND STEVENSON //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – T. 4. – №. 3. – S. 139-144.
4. N.A.Kadirova. Elementi prevrasheniy i perevoplosheniy v nekotorix znachimix proizvedeniyax mirovoy literaturi. Kazanskiy vestnik molodix uchyonix. Tom 3.2019. str.44-51
5. Kun N.A. Qadimgi yunon afsona va rivoyatlari. – Samarqand: Zarafshon, 2005.
6. Losev A.F. Ovidiy // Antichnaya literatura: Uchebnik dlya studentov ped.institutov. – M.: Prosveshenie, 1986.
7. Propp V.Ya. Istoricheskie korni volshebnoy skazki. – L.: Leningradskiy universitet, 1986.
8. Propp V.Ya. Morfologiya volshebnoy skazki. – M.: Labirint, 1998. – 144 s.

Muso TOJIBOEV,
O‘zDJTU professori,
f.f.d (DSc).
musajants@gmail.ru

BADIIY TAFAKKUR POETIKASIDA NOSTALGIYA VA BADIIY TILNING KOMPORATIV QIRRALARI

Annotatsiya: maqolada badiiy adabiyot namunalari asosida badiiy tafakkurning shakllanishi doirasida muhim kategoriya bo‘lgan makon va zamon tushunchalarining assotsiatsiyasi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *badiiy vaqt, poetika, nostalgiya, realiya, makon, zamon, taqvimiy, arxileksema, arxifakt, arxisema, arxetip.*

Аннотация: в стате на примерах художественной литературы раскрываэтся ассоциация понятий пространства и времени, которая явлйаэтся важной категорией в рамках формирования художественного мышления.

Ключевые слова: *художественноэ время, поэтика, носталгия, реалност, пространство, время, календар, архилексема, архифакт, архисема, архетип.*

Annotation: the article reveals the association of the concepts of space and time, which is an important category within the framework of the formation of artistic thinking, based on examples of fiction..

Key words: *artistic time, poetics, nostalgia, reality, space, time, calendar, archilexeme, archifact, archiseme, archetype.*

Badiiy tafakkur borliqning inson ongida aks etgan allegorik voqeligi. Inson har qancha ulug‘, ko‘p qirrali bo‘lmasin faqatgina badiiy tafakkur orqali borliqni yaxlit va bir ko‘rinishda qamrab oladi. Aks holda inson borliqning makon va zamon parametrlarini to‘laqonli his qila olmaydi. Endi savol tug‘iladi: tafakkurni tushunsa bo‘ladi-yu, nega endi u “badiiy” atributini olish kerak, degan. Bunda avvalo biz borliqning yaratilganligini, uni Yaratuvchisi borligini hamda uni yaratgan Zot, uni o‘zgartira olishi yoki yo‘q qila olishi mumkinligini nazarda tutamiz.

Arabcha “badiiy” termini yoki “poetika” yunoncha [poeitike] – 1) adabiyot nazariyasining badiiy asarlar strukturasini borliqning tizim va tarixiy qonuniyatlari asosida o‘rganadigan bo‘limi; 2) badiiy adabiyotda alohida badiiy tamoyillar va turli oqimlar, yo‘nalishlarning yoki alohida ijodkorning o‘ziga xos tamoyillar yoki belgilar in’ikosi. “Badiiyat” yoki “badiiylik” bajarilgan poetika ma’nolari bilan talqin qilinadi.

“Poetika” yoki “badiiy” terminidan yasalgan “badiiy tafakkur” borliq voqea - hodisalarining inson ongida allegorik aks eks etishi binobarida uni his qilish, tushunish, aks ettirish va uni o‘zgartira olish salohiyatini qamrab oladi. Bularning barchasi san’atning paradigmatik xususiyatini aks ettirgani holda arabcha san’at - “yaratish”, “bor qilish”, “o‘zgartira olish” ma’nolari doirasida yotadi.

Badiiy tafakkurning eng muhim qirrasi borliqni tasavvurga ko‘chirish orqali uni ko‘lankaga aylantirish va ko‘lankaga aylangan borliqning parametrlarini inson tasavvurida qayta va qayta yarata olish hamda o‘zgartira olish imkoniyatlarini shakllantirishdan iborat. Bunda tasavvurga ko‘chirilgan borliq yaxlit va yagona voqelikka aylanadi, undagi barcha voqea – hodisalar insonga bo‘ysunadigan imkoniyat darajasiga keltiriladi hamda ijodkor ularning vositasida o‘zi tabiiy yoki ijtimoiy borliqning parametrlarini belgilaydi.

Alloh dunyoni yaratganda uning asosiga ilmni qo‘ydi. Odam ilm va uning asoslarini o‘rganish orqali borliqni kashf qiladi. Borliq bir butun va yaxlit yaratilgan, uni inson aql va ilm orqali egallaydi. Borliqning barcha nuqtalarini bir yo‘la va tugal egallashda inson faqatgina o‘ziga xos bo‘lgan hissiyotga asoslanadi. Aql va ilm hissiyot orqali egallangan borliqni boshqaradi. Bu erdagi muhim moment - inson borliqni egallash orqali Allohning o‘ziga xizmat qiladi. Inson borliqni boshqarish san’atini o‘zi kashf qiladi. Germenevtika mana shu san’at namunasini o‘rganishga qaratilgan fan. Birgina misol: yolg‘iz imon so‘zida butun olam mujassam. Uning tagiga etish uchun mavjud tarixiy va zamonaviy bilimlarning barcha atributlarini ishga solish kerak.

Nostalgiya borliqning zamon va makondagi cheksizligi atributi. Aynan nostalgiya abadiy borliqdagi o‘chmas qadriyatlarning saqlanishi, eslanishi – yodda tutishni o‘rgatish borasida umumbashariy qadriyatlarni inson siymosida obyektivlashtiradi. Qadriyatlarning eng mukammallarini ramziy tushunchalar orqali insonning o‘zidan topadi uning o‘ziga taqdim qiladi.

Borliqning makon va zamon mutanosibligining turli holatlarini o‘rganish borasida falsafada astronomik vaqt, real vaqt va badiiy vaqt kabi terminlar qo‘llanadi. Badiiy adabiyot voqelikning badiiy in’ikosiga asoslangani bois unda realiyalar, voqelikdagi shart-sharoitlar va voqea-hodisalar xronikasi, tartibi real vaqt dinamikasidan o‘zgacha bo‘ladi.

Badiiy asarlarda badiiy vaqt va badiiy tilning muqoyasaviy qirralarini o‘rganish usullari ko‘pdan

beri munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Badiiy vaqtni o‘rganish turlari va usullarini ishlab chiqish kundalik dolzarb muammolaridan biridir. Hozirga qadar badiiy asarda aks etgan vaqtni astronomik vaqtga yoki real vaqtga munosabatlarini o‘rganishning turli usullari ilgari surilgan. Ularga muvofiq asar tilida vaqtga xos ayrim voqea–hodisalarning shakllanish imkoniyatlarini tahlil qilish ham alohida poetik munosabatlarni qayd qilish va tayyorgarlikni talab qiladi. Akademik V.V.Vinogradov boshchiligida bir guruh olimlar badiiy vaqt va badiiy asar tilini o‘rganish masalasiga alohida bir soha sifatida qarashni taklif qilganlar. Biroq bu borada hali biron bir qat’iy fikrga kelingan emas. Hozirga qadar badiiy tilni o‘rganishning yagona kriteriylari ishlab chiqilgan emas. Shu bois badiiy vaqtning badiiy tilga munosabati muammosi ham hali hanuz hal qilinmagan.

Badiiy vaqt tahlili asarda obrazlilik darajasining kengaytirilgan imkoniyatlarini talab qiladi hamda bu hol badiiy til bilan muvofiq holatda insoniyat aloqa tizimi estetik dunyoqarashining alohida ko‘rinishi sifatida talqin qilinadi hamda alohida tadqiqotlarga mavzu bo‘la oladi.

Bu borada yangi davr tilshunosligida til va nutq hodisalarini farqlash haqidagi nazariyalarni ham e’tiborga olish lozim. Unga ko‘ra til bevosita kuzatishda berilmagan. U jamiyat a’zolarining ongida mavjud bo‘lib, ularning barchasi uchun tayyor, umumiy, majburiy bo‘lgan, fikrni shakllantirish va uni ifodalashga xizmat qiladigan birliklar va ularning o‘zaro munosabatlari haqidagi tasavvurlar yig‘indisidir. Tilning bunday atributi unda har kanday realiyalarning makon va zamonda cheksiz transformatsiya qila olish imkoniyatini beradi. Psixologik germenevtika tilning aynan mana xususiyati orqali realiyalar in’ikosining efemer manzaralari bilan fantaziya yaratadi.

Nutq esa, realiyaning namoyon bo‘lishi, ro‘yobga chiqishi, voqelanish shakli bo‘lib, u bevosita kuzatishda berilgan moddiy qobiqqa ega bo‘lgan hodisa. Ushbu nazariya tarafdorlari shu o‘rinda til birliklarini nutqning u yoki bu ko‘rinishida ishlatish qonuniyatlari va imkoniyatlarini chegaralash xususida me’yor kategoriyasini ham ilgari suradilar.

Badiiy asar nutq hodisasi sifatida qaralgani bois unda aks etgan realiyalar taraqqiyotini ham vaqt, xronika muammosi va tartibi doirasida uning til xususiyatlari bilan mutanosiblikda kuzatish ham bevosita asarda obrazlilikning yangi manzaralarini kashf qilishga xizmat qiladi. Biroq biz ko‘p hollarda badiiy nutqni badiiy tilning avtonom namunasi ekanligini hisobga olmaymiz. Demak, badiiy nutqda badiiy vaqt va tilning bir ko‘rinishi namoyon bo‘ladi, xolos.

Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” asarida bir inson taqdiri umumbashariy mezonlarda butun insoniyat taqdirining eng muhim qirralari, burilish nuqtalari aks etgan bir asrga teng vaqt mezonlari bir kunlik voqealar rakursida ochib berilganki, ular siqiq qisqa bir vaqt oralig‘ida ulkan hayotiy holatlarning izohi uchun imkoniyat yaratgan. Psixologik aspektda badiiy vaqt badiiy tildagi so‘zlarning, aniqrog‘i so‘z ma’nolarining transformatsiyasiga asoslanadi. Uning badiiy tilga ta’siri tilning semantik-stilistik mezonlari doirasida shakllanadi.

Aznaurova E.S. o‘zining tadqiqotlarida shunday xulosaga keladiki, “agar (badiiy tilda) semantika so‘zning ma’nosini bildirsa, pragmatika uning so‘zlovchisi maqsadi, so‘zlanish sharoiti va maqsadli nutqning ta’sirchanligi samarasini ochib berishga intiladi... So‘zning vazifa bajarish imkoniyatlari muallif maqsadiga bo‘ysundirilganda so‘z belgisining to‘rt tipi ajratiladi: yadro, periferiya, axborotli va pragmatik semalar”. Aznaurova tadqiqotlarida badiiy vaqtning lingvopragmatik kontekst muammosi ham nazarda tutilgan. Xususan, u yozadiki, “shunday qilib, lingvopragmatik kontekst bu-nutq zanjirining vaqtga tatbiqan bo‘g‘inidir. Unda faol birliklarning pragmatik mazmuni namoyon bo‘lishi uchun kerakli verbal signallar paydo bo‘lish zamoni mujassam bo‘ladi. Signallar sifatida so‘zning ma’no – mazmuni pragmatik komponentining yoki okkazional pragmatik ma’no shakllanishi jarayonida (ularning eksplitsit lisoniy reprezentatsiyasi holatida) kontekstda o‘zining kommunikativ – pragmatik parametrlarning o‘zini aks ettiruvchi holatlar paydo bo‘lishi mumkin.

Pragmatik axborot signallari o‘zining verbal reprezentatsiyasidan tashqarida ham bo‘lishi mumkin. Bunday holatlarda pragmatik kontekst ekstralingvistik faktorlarni: “sharoit holati”, “fonli” yoki “madaniy saviya”, “zamon va makon” kabilarni ham o‘z ichiga oladi. Bunday holatlarda kontekst fonli kommunikativ bilimning summasi (mag‘zini) o‘z ichiga olgan holda hamda ma’lumotning barcha bilvosita ko‘rinishlarining kodini ochish orqali, binobarin, ularni aql doirasi imkoniyatlari va matn til markerlari yoki til signallaridan tashqaridagi presuppozitsiya bazasini ham mujassam qiladi” .

Yuqorida keltirilgan fikrlar mujassami barobarida shunday xulosa chiqarish mumkinki, nostalgiya, makon va zamon, badiiy asar tili alohida tadqiqotlar predmeti bo‘la olar ekan, buning uchun quyidagilarni asos qilib keltirish mumkin:

1. Badiiy asar yaratilishi jarayoni individual ijod bilan bog‘liq, ya’ni ijodkor talanti, shaxsiy qobiliyati, uning ijodiy g‘oyasi va badiiy tafakkurining hamda badiiy asar yaratilayotgan makon va zamoni mevasi. Badiiy asar alohida inson ijodiy faoliyatining o‘sha davrdagi faoliyati mevasi sifatida hali umumxalq tili, adabiy til doirasiga kirmaydigan so‘z va so‘z ma’nosi orqali g‘oyalarini ham qamrab oladi. Bu hol badiiy asar arxitektonikasi ijodiyligining eng muhim mezoni sifatida belgilanishi lozim.

2. Yangi davr badiiy adabiyoti insoniyat jamiyatining ko‘zgusi sifatida o‘zining funksional

doirasini tubdan o‘zgartirgan. Uning avvalgi faqatgina bir davr, zamondagi san’at namunasi sifatidagi funksiyasi badiiy adabiyot funksiyalaridan biriga aylanib qolgan, xolos. Yangi davr badiiy adabiyotida keng qamrovli badiiy vaqt kriteriyalari uning ilmiy-pragmatik uslubi bilan bog‘liq holdagi rakurslari paydo bo‘lishi uning jamiyat, ilm-fan va umuman mavjudlik funksiyalari darajasini g‘oyat darajada o‘zgartirib yubordi. Xususan, sarguzashtnoma, sayohatnoma asarlari geografiya, okeanologiya, zoologiya, botanika, biologiya bilan bog‘liq kashfiyotlarni o‘zida mujassam qilgani holda nafaqat bu boradagi ma’lum ilmiy g‘oyalar, nazariyalarni, balki hali ilmga noma’lum bo‘lgan ko‘plab gipotezalarni ham tarixan diaxron munosabatlarda ijtimoiyga arenaga olib chiqdi.

Bu borada yana kosmonavtika, fizika, kimyo, jamiyatshunoslik, maishiy, harbiy mavzudagi romanlarda ilgari surilgan g‘oya va fikrlarni inobatga olsak, badiiy asarda aks etgan badiiy vaqt va badiiy tilning ijtimoiy ong taraqqiyotidagi o‘rni va roli naqadar ulkan ekanligi ma’lum bo‘lib qoladi. Qolaversa, hozirgi davrda jamiyatshunoslikka oid juda ko‘p hodisalar ham badiiy asarda o‘z aksini topmoqda.

3. Umumxalq tili biron – bir millat, xalq nomi va saviyasi bilan bog‘liq. O‘sha xalqning mentaliteti, ilmiylik saviyasi, jahonda tutgan o‘rni umumxalq tilining ichki va tashqi darajasini belgilaydi. Badiiy til milliy qobiqdan holi hodisa sifatida badiiy asarning umuminsoniyat mulki ekanligi bilan asoslanadi. Binobarin, badiiy adabiyot umuminsoniy qadriyatlardan biri sifatida baholanadi. Navoiy, Shekspir, Dante, Pushkin, Servantes kabilarning dohiyona asarlari zamon va makon yoki milliy qobiqlarni tan olmaydi. Badiiy asar umuminsoniy qadriyatga aylanar ekan, unda ilgari surilgan g‘oyalar, kashfiyotlar butun insoniyat mulki bo‘lib qolar ekan, badiiy til ham biror bir xalq tili yoki tarixi bilan chegaralanib qolmasligi kerak. Ular insoniyat tarixining deyarli barchap vaqtlariga va jamiyatning barcha qobiqlariga tegishli. Badiiy asarning biror-bir xalq tilida, milliy tilda yaratilishi uning tashqi qobig‘ini belgilaydi, xolos.

Har bir xalqning milliy mentaliteti uning madaniyati, madaniy saviyasi, aniqrog‘i, “o‘zligining” saviyasi bilan bog‘liq. Badiiy adabiyot madaniyatning bir ko‘rinishi sifatida uning namoyon bo‘lish usullaridan biri va binobarin, eng muhim usulidir. Har qanday badiiy asar umuminsoniy madaniyat mulki bo‘lishi bilan bir qatorda u millatlar orasidagi madaniy, etnografik, diniy va boshqa xususiy belgilarni bir millatdan ikkinchi millatga o‘zlashtirilishida eng muhim vosita hamdirki, bu o‘rinda asarda aks etgan diaxron yoki sinxron vaqt oralig‘idagi voqea-hodisalar uning mavjudlik belgisi hisoblanadi. Zero, har bir millat va har bir insonning madaniy saviyasi uning tilida namoyon bo‘ladi.

Badiiy tafakkur badiiy asardagi realiyalar vaqti va makoni, ularning taraqqiyotini lingvistik elementlar bilan ta’minlashga bog‘liq til xususiyatlari demakdir. Unga muvofiq yuqoridagi gipotezalar badiiy vaqt va badiiy asar tilining mutanosiblik qirralarini o‘rganishning xususiyatlari aniqlab olinganidan so‘ng ma’lum bo‘ladiki, mavzu, real vaqt, badiiy vaqt, so‘z shakli va uning g‘oyasi asarda ma’lum bir shakl (so‘z shakli yoki so‘zning tovush tarkibi, grammatik va leksik-semantik holati) ning ham original istifoda qilinishini talab qiladi. Istifoda qilingan til shakllari milliy yoki individual til resurslari imkoniyatida yotadi.

Tilning tasviriy ifoda vositalari asarda o‘ziga xos shaklda qo‘llanishi ijodkorning individual uslubi hisoblanadi. G‘oya til shaklida bo‘ladi. O‘quvchi bu tilni qanday qamrab oladi? YOki qanday tushunadi? Tushunilishi davomida badiiy asar san’at namunasi sifatida o‘quvchida kerakli emotsional his-tuyg‘u yoki psixofiziologik holat - nostalgiya uyg‘ota oladimi – yo‘qmi, shu holatni yasash uchun ijodkor qanday mavzu, g‘oya, shaklni tanlashi va ularga muvofiq qanday til resurslaridan foydalanishi kerak, Asar arxitektonikasi qanday tuzilganda badiiy g‘oyaning izchilligi muvaffaqiyatli bo‘ladi? Xuddi shu holatlar so‘zsiz badiiy asarning muvaffaqiyati zamirida yotadi.

Badiiy asar-individual ijod mevasi. Binobarin, ijodkor o‘z lug‘aviy boyligi doirasida asar arxitektonikasi tuzadi, asar tilini bezash, shakllantirish uchun yangi lingvopoetik vositalar yaratish mobaynida original badiiy – tasviriy vositalarga murojaat qiladi, tilning lug‘aviy imkoniyatlarini kengaytiradi.

Asarda so‘zlarning adabiy shaklini istisnoli buzib ko‘rsatish ijodkorga muallif yoki qahramonning individual qalb manzaralari, psixologik kechinmalari mundarijasini ochib berishga xizmat qiladi. Xususan, Angliya modernizm adabiyoti otasi J.Joysning «Uliss» romanida bir inson taqdiri jamiyat taqdiriga aylanar ekan, uning bir kunlik taqdiri uzib olingan holda ko‘rsatiladi. Binobarin, qahramonlar monologi bayon qilinar ekan, so‘z, frazalar uzib qo‘yiladi, gaplar tumtaroq, yarimta-yurimta shakllarda beriladi, ayrim bandlar faqat nuqtalar bilan berilgan. Bundan maqsad qahramon ongida yuz berayotgan psixologik jarayonlarning aniq fotokopiyasini ta’minlashdan iborat edi.

Hayot hamisha ko‘p qirrali. Bir xil muhitda har kim nisbatan har xil yashashi, biri ikkinchisiga o‘xshamas tajriba, his-tuyg‘u orttirib borishi tabiiy. Yozuvchi yaratadigan tasvirlarda yuqoridagi omillar bilan birgalikda ana shu-xususiy hayot tajribalari, dunyoqarash, voqelikka munosabat, simpatiya-antipatiya, ideal, etik-estetik konsepsiyalarning ham muhri bo‘ladi. Shunga ko‘ra, uslub doimo o‘ziga xoslik, individuallik hodisasi sifatida yuzaga chiqmog‘i kerak. Uslubsizlik birinchi navbatda, talantsizlikni, qolaversa, yana mahoratsizlikni anglatadi. “Uslub bu-san’atkorning o‘zidir”, degan aforizmning ma’nosi ham shunda .

Yuqoridagi badiiy tafakkur doirasida nostalgiya, badiiy tilning komporativ qirralari doirasida badiiy vaqt va badiiy tilning o‘zaro poetik, stilistik mutanosibligi imkoniyatlari tahlili badiiy asarni o‘rganishning naqadar ulkan muammolari mavjud ekanligini ko‘rsatib beradi. Ular yechimini topish jarayonida zamonaviy adabiyotshunoslik badiiy tafakkurning yangi yo‘nalishlarini yaratishga intiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aksenenko I. Predlogi angliyskogo yazыka - M., 1956, 210 s.
2. Apolova M.A. Specific English - M., Mej.otn., 1977, 190 s.
3.Abduazizov A.A. O sostavnыx chastyax kognitivnoy lingvistiki// Xorijiy filologiya. – Samarkand: SamGIIYA, 2007. – №3(24). – S. 5-6.
4. Buranov Dj. Sravnitelnaya tipologiya angliyskogo i tyurkskix yazыkov. – M.: Vыsshaya shkola, 1983. – 267 s.
5. Demyankov V.Z. Kognitivnaya lingvistika kak raznovidnost interpretuyuщego podxoda // Voprosы yazыkoznaniya. 1994.
6. Nurmanov A. Maxmudov N. O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi. - T.: 1992.
7. Nurmanov A. Til haqida sintaktik nazariyalar. –T.: 1988.
8. Maslova V.A. Kognitivnaya lingvistika: Ucheb. Posobie. – Mn.: Tetra Sistems, 2004. – 293 s.
9.Safarov SH.S. Kognitiv tilshunoslik. – J.: «Sangzor nashriyoti», 2006. – 91 b.
10.Sternin I.A., Popova Z.D. Kognitivnaya lingvistika. – M.: «Vostok-zapad», 2007. – 314 s.
11. Galperin I.R. Stylistics - M., 1977.
12.Bloomfield L. An Introduction to the study of Language. N.Y. 1914 p Buranov J.B, Yusupov U.K, Mskulov M.T, SodikoV A.S. The grammatical structure of Engish, Uzbek and Russian. Tashkent, Ukituvchi PH, 1986.

Adiba DAVLATOVA,
CHDPU professori,
filologiya fanlari doktori (DSc)

SHOIR POETIK TAFAKKURINING PSIXOBIOGRAFIK TADQIQI

Annotatsiya: ushbu maqolada badiiy asar tahlilida muhim kategoriya hisoblangan poetik tafakkur, psixologik va biografik tahlil metodlari haqida so‘z yuritiladi. O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov lirikasidagi psixobiografik nuqtalar o‘rganilgan. Shoirning badiiy ijod olamiga kirib kelgan ilk yillardan tortib, umrining so‘nggi yillariga qadar yozilgan she’rlariga to‘xtalingan.

Аннотация: в данной статье говорится о методах поэтического мышления, психолого-биографическом анализе, который является важной категорией при анализе художественного произведения. Исследуются психобиографические моменты в лирике народного поэта Узбекистана Абдуллы Орипова. Обсуждаются стихи, написанные от первых лет его творческого творчества до последних лет жизни.

Annotation: this article talks about the methods of poetic thinking, psychological and biographical analysis, which is an important category in the analysis of a work of art. Psychobiographical moments in the lyrics of the people's poet of Uzbekistan Abdulla Oripov are explored. Poems written from the first years of his creative work to the last years of his life are discussed.

Muayyan asarning yaratilishi, tuzatish jarayonlaridan o‘tib, o‘quvchi qo‘liga yetib borishi bizga noma’lum psixologik, fiziologik, mantiqiy fikrlash kabi bosqichlardan o‘tadi. Asarga eng avvalo g‘oya, keyin shakl va mazmun tanlanadi. Bu jarayon ham aqliy emas, balki hissiy-ekspressiv holat bilan chambarchas bog‘liq. Shuning uchun shoir yoki yozuvchining “sermahsul ijodi” zamirida uning ruhiy holatida sodir bo‘layotgan qarama-qarshiliklarning o‘rni beqiyos. Qachonki, ijodkor eng avvalo o‘zi, mansub jamiyat qonun-qoidalaridan qoniqmasligi, yanada mukammalikni istaversa, tinimsiz ijodiy jarayon ham davom etaveradi. Ijodiy jarayonning psixologik tahlili fanda keng o‘rganilgan. Biz mazkur faslda Abdulla Oripovning she’r yaratish texnikasi emas, balki yaratilgan asarlarning shoir fenomeniga, ruhiy xaritasiga doir chizgilarni aniqlashga harakat qilamiz. Har bir asar mustaqil mavzu, g‘oya va mazmunni o‘zida jamlaydi. Lekin u bir ijodkorga tegishli bo‘lsa, ular mundarijasida shoir yoki yozuvchining ruhiy tarjimai holi – psixobiografiyasi ham mavjud bo‘ladi. Psixobiografiya yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, ma’lum tarixiy shaxslarning tarjimai holi va shaxsiyatini psixologik tahlil qilish janridir. Bunda muayyan shaxs

faoliyatidagi nuqtalarni aniqlashda uning ruhiy omillariga alohida e'tibor qaratiladi. Mazkur yondashuv XIX asr oxiri – XX asr boshlarida paydo bo'lgan bo'lib, Leonardo da Vinchi, Gyote, Russo, Shopengauyer, Dostoyevskiyning hayoti va ijodi asosida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Psixobiografiya tahlili psixoanalitiklar tomonidan amalga oshirilib, shaxsning g'oya va yo'nalishlari asosida ish olib boradi. Xorijlik psixoanalitik olim Erik Erikson tomonidan buyuk shaxslar, ijodkorlarning psixotarixiy hayoti orqali ular shaxsiyatiga baho berilgan. Bu usul psixobiografik metod deb nomlanib, nazarimizda badiiy asarlar yoxud ijodkorning butun ijodini o'rganishda ham qo'l keladi. Bunda olimlar akmeologik tizim asosida ma'lumotlarni, asosan, tarjimai holdan oladilar. Biz ham psixologiya ilmiga da'vo qilmagan holda, Abdulla Oripovning psixobiografiyasini kontent tahlili orqali ko'rsatishga harakat qilamiz. Buning uchun shoirning turli xil ijodiy davrlardagi asarlarini o'rganamiz. Ba'zida katta-katta asarlar, masalan, dostonlar ham ijodkor ruhiyatining ko'zgusi sifatida o'quvchiga axborot uzatishi mumkin. Bu birinchidan, yozuvchining ijod dinamikasini ko'rsatsa, ikkinchidan, ijodiy ruhiyati tarixining tarxini chizishda ham yordam beradi. Kontent tahlil muayyan ijodkor onggidagi ma'naviy, axloqiy, e'tiqodiy, shaxsiy komponentlarni tizimli o'rganadi. Bu ijodkorning tom ma'nodagi ijod yo'lini biografik nuqtalar kesimida tadqiq etishga yo'naltirilgan. Chunki har bir asarda qaysidir ma'noda shoirning o'zligi, she'r yaratilayotganidagi "kichik hayoti" mavjudligini inkor etib bo'lmaydi.

"Qushcha" e'lon qilinganda, shoir 17 yoshda edi. Aynan shu davrda "Yulduzlar", "Tog'lar", "Kapalak va men", "Qo'shig'im kabi", "Kelingiz, do'stlarim" singari she'rlari dunyo yuzini ko'rgan. Sarlavhalardan ham ko'rinib turibdiki, shoir ona tabiatning, uning bag'rida jo bo'lgan betakror go'zallikning shaydosidir. Tabiat, sevgi, orzu motivlari yetakchilik qiladi.

"Studentlik yillarim hamma studentlarniki singari yillar bo'ldi. G'o'rlik, do'st orttirish, birinchi muhabbat kabi savdolar yoshlik bilan hamqadam bo'lib yuradi. Men yuqoridagi taassurotlarimni ko'pincha she'r qilib yozardim. Yuragimni bo'shatib olgan bo'lsam kerakda! Universitetda jahon adabiyotini, o'z adabiyotimizni astoydil o'rganganmiz". Ya'ni shoir hayotidagi o'zgarishlar, onasining vafoti, oila qurishi, farzandlarning tug'ilishi, pinhona hujumlar girdobida yolg'iz qolishi kabilardan tushkunlikka tushish va o'z navbatida qayta "yaralish" instinkiga ega bo'ldi. Psixobiografiyasida bu inqiroz va marralar hayotining belgilovchi, ruhiyatining tetiklantiruvchi omiliga aylandi. Bu esa o'z navbatida shoirning shaxs sifatidagi qarashlarini qat'iylashishiga olib keldi hamda yangi badiiy obraz, tasvirlarga boy manba berdi. Bu davrga kelib, shoirda o'ziga, ijodiy potensialiga ishonish hissi o'sdi. Shuning uchun ham "Sozim" she'rida "men shoirman, istasangiz shu..." tarzidagi ijodkorlik tuyg'usi ochiq e'lon qilindi. Ya'ni bu davrga kelib, shoir o'zi ishongan, maqbul ko'rgan qarashlarni tanqidiy tahlil qildi, ularni yangidan baholadi. Shuning barobarida yangilarini hayoti, ijodiga olib kirdi. Yillar o'tishi bilan ijodkordagi ishonch, shaxsiyatidagi impulslar jamiyat va noravo odamlar ta'sirida yo'qola boradi. Endi uning misralari sho'xchan, o'ynoqi emas, vazminlik, falsafiylikka aylana boradi.

Mashrab-u Cho'lponlarning fojiasiga loqayd boqqan bu "olomon" qachon xalqqa aylanadi degan savollar uning kichik jussasini bukib, ruhiyatini sindirib qo'yadi. Shuning uchun u dunyoni bus-butun ko'rishning imkoni yo'q degan xulosaga keladi. "Ko'zgu parchalari"da olamni xuddi mozaikalar kabi terib tasvirlaydi. Natijada, qalb og'rig'i, yurak xastaligi – infarktni boshdan kechiradi. Atigi qirq yosh ustida turib shunday kasallikka ro'baru kelganidan nadomat chekadi. Dunyodan to'ymagan yosh yurakning nolalari vidoga aylanadi. Lekin uning vatanparvarligi shu darajadaki, u o'zga makonlarda omonatini topshirishni istmaydi. 1980-1985 yillarida O'zbekiston yozuvchilar uyushmasida turli lavozimlarda, shuningdek, 1988-2008 yillar "O'zbekiston mualliflar huquqini himoya qilish" rahbari sifatida ish olib bordi. 1996-yildan 2007-yilga qadar O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi raisi vazifasida faoliyat olib bordi. U hattoki oddiy ko'z qarashlardagi ma'noni ham tez ilg'aydi. Yonidagi suhbatdoshining bir jumlasi yoki o'zini tutishiga qarab unga to'laqonli baho berishga qodir sinchi. Bu xislatlar bilan yashash oson emas. Atrofidagi odamning ichini bilib turib, unga toqat qilish, muloqot qilish naqadar qiyin jarayon. Lekin shunday bo'lsa-da, shoir odamovi emas, u muloqotmand va va'zga moyil shaxs. Bu psixobiografik chizgilar she'rlari tahlil orqali ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

Shoir ongida butun hayoti davomidagi katta orzusi istiqlolga bo'lgan intilish kuchli aks etdi. Goh tanqidiy, goh ramziy mazmunda bu g'oya ifodalandi. Shoirning shaxsiyati vatanparvarlik tuyg'usi shu qadar kuchliki, bu holat she'rlariga g'oya berdi. Ozodlik kishining ruhini o'stiradi, unga quvonch bag'ishlaydi, shu bilan birga shaxs sifatida yangilanishga turtki beradi. Bu niyat shoir adabiy biografiyasida doimo bo'lgan, lekin 1980-1988-yillarga kelib yanada kuchaygan. Shoir ona xalqini yillar davomida aldanganidan armonga to'ladi. Ko'pgina obrazlarida kommunizm utopiyasining kulgili jihatlarini ham ochiq yozadi. Garchi "Chol va kommunizm" qissasida buni 1965-yildayoq yozib qo'ygan edi. Shuncha yillik sim-sim og'riqlar shoir ijodiy va shaxsiy kamolotga yetgan pallasida kuchli og'riqqa aylanadi.

Meni aldab ketdi lo'ttiboz olchoq,
Ishongan kishim ham ko'rsatdi yaroq,
Ularni xudoga topshirdim biroq,
Axir u men uchun armon emasmi?

Shu davrda shoir mustaqillik shukronasi, uni asrab-avaylash, birdamlik, hamjihatlik, xalqqa aylanish g‘oyasini badiiy obrazlarda yuksak tasvirlagan. Endi u mustaqillik tushunchasining yangi mafkuraviy asoslarini izlaydi. Diniy erkinlikni ham ulug‘lagan holda “Haj daftari” turkumini yaratadi. Buning biografik asosi ham mavjud bo‘lib, shoir haj amallarini ado etish baxtiga musharraf bo‘ladi. Ilohiy ibodatlar asnosida ruhida tug‘ilgan hissiyotlar, hadislarni she’riy tazmin qilish istagi qator ma’rifiy asarlarning tug‘ilishiga zamin hozirlaydi. Shoir ijod bilan bir qatorda mas’ul lavozimlarda ham faoliyat olib bordi. Xizmat vazifalari bilan turli xorijiy davlatlarda safarlarda bo‘ldi. “Jeneva daftari” turkumi ana shu davrlar mahsulidir. Lekin shoir o‘z-o‘zi bilan yolg‘iz qolganda, ruhiyatining asl chizgilari bo‘y ko‘rsataveradi. Yurt mustaqil, hamma shod. Lekin shoirning hasratlari hali tugagan emas. U butun dunyoda komillik istaydi, odamlarning raso bo‘lishidan umidini uzmaydi. Buning teskarisini ko‘rganda ruhan eziladi:

Hech kim hasratimga quloq solmadi,
Ruhimni biror zot anglay olmadi.
Bunda qiladigan ishim qolmadi,
Allohim, oq yo‘l ber, ketar chog‘imda.

Shoir ijodkorlikning qiyin qismatini, izma-iz ta’qib qilayotgan hasadni yetuk iste’dod va iste’dodsizlik o‘rtasidagi tabiiy tortishuvni hayot tarzi sifatida qabul qiladi. Bu kabi ruhiy zo‘riqishlarga, bosimlarga she’r vositasida davo izlaydi. Natijada, uning mulohazalari chuqurlashib, umuminsoniylik kasb eta boradi. Uning asarlarida millat va xalqqa mas’ullik, Vatan ravnaqi yo‘lida fidokorona xizmat qilish bilan bog‘liq asarlar mundarijasi kenggayadi. Hamma ishni o‘z egasi, bilimdoni qo‘liga topshirish kerak, odam bolasi pul, mansab, soxta obro‘ yo‘lida o‘zini u yoq bu yoqqa tashlayverishi to‘g‘ri emas, degan donishmandona xulosalariga keng o‘rin beriladi.

Orzu qilgan ekan boyvachcha yigit,
Uy qurdi, aqchani sarf etdi talay.
Uyni qo‘riqlardi lekin cho‘loq it,
Bo‘ynigacha qo‘tir, bir ko‘zi g‘ilay.
Shundoq imoratni qurdingmi, Odam,
Topib qo‘y-da endi loyiq itni ham.

Bu she’r tom ma’noda ramziylikka ega. Bu kabi tanqidiy tahlilga asoslangan she’rlar ko‘pchilikni tashkil qiladi.

Endi u dunyoviy muammolardan ham, badbin kimsalarning ozorlaridan ham charchagan. Ruhiyati va ijodiy g‘oyasida iymon, o‘limga chora yo‘qligi, jannatdan umidvorlik g‘oyalari birinchi o‘ringa chiqadi. O‘zi shoir tabiatida ham, she’rlarida ham Yaratganga topinish, murojaat ko‘p uchraydi. Masalan, adabiy merosidagi leksemalar statistikasi tahlil qilinganda, Yaratganga yuzlanish holatlari 303 marta uchraydi. Ya’ni Xudo so‘zi 159 marta, Alloh so‘zi esa 144 marta qalamga olingan. Bu to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘llanilish holati, bundan tashqari Shoir adabiy merosini kuzatganimizda, Ona obrazi va so‘zi 1092 holatda, go‘zal va go‘zallik tushunchasi 137 marotaba, hasad 74, hasadgo‘y obrazi 23 marta, hayot tushunchasi 389, iblis so‘zi 52, shayton esa 87 holatda, umumiy esa 139 marta qalamga olinadi. Mana shu kategoriyalarni tasniflaganimizda shoir qadrlagan eng oliy tuyg‘u Ona ekani, keyingi o‘rinda hayotni sevgani, qadrlagani, hayotsevarlik xususiyatlarini aniqlashga harakat qildik. Tasnifning keyingisida esa iblis so‘zi bo‘lib, bu orqali real tushuncha va uning xususiyatlarini tashuvchi odamlardan zadalik motivi kuchli ifodalangan. Keyingi o‘rinda esa, go‘zal va go‘zallik kategoriyasi turib, bu asosan shoir ijodining dastlabki yigirma yiliga to‘g‘ri keladi. Bora-bora shoir go‘zallik deganda boshqa fazilatlarni nazarda tuta boshlaydi. Hasad va hasadgo‘y obraziga ham keng to‘xtalgan bo‘lib, turli yillarda, turli vaziyat va she’rlarida jami 74 marta qalamga oladi. Bu uning ong osti uzatmalari bo‘lib, ko‘z o‘ngimizda shoirning psixobiografik xaritasi paydo bo‘ladi. Ya’ni mazkur tushunchalarning vujudga kelish chastotasi muallif ongi va ruhiyati dinamikasi makoni bilan bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Belyanin V.P. Osnovы psixolingvisticheskoy diagnostiki. M.: Trivola, 2000.-248 s.; Erikson E.H. Life History and Historical Moment. N.Y., 1975.; Kolsova V.A., Xolondovich Ye.N. Voplощyeniye duxovnosti v lichnosti i tvorchestve F.M. Dostoyevskogo. M.: Izd-vo «Instituta psixologii RAN», 2013. – 304 s.; Xolondovich Ye.N.Sosialno-psixologicheskiye aspektы formirovaniya i razvitiya genialnoy lichnosti. Psixologiya odarennosti i tvorchestva: monografiya / Pod red. prof. L.I. Larionovoy, prof. A.I. Savenkova. M.; SPb.; Izd-vo…: Nestor-Istoriya, 2017.; Xolondovich Ye.N. Fenomen duxovnosti geniyev. Nauka. Kultura. Obщyestvo. M.:IPSI RAN. № 2. 2016.
2. Davlatova A.R. Abdulla Oripov she’riyatida poetik tafakkur tadriji. Monografiya. – T.: Tafakkur, 2021
3. Davlatova A.R. Abdulla Oripov poetik tafakkurida Navoiy adabiy merosining ta’siri//O‘zMU xabarlari. 2020, 174-180-betlar.

Mahfuza TUYCHIYEVA,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori,
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU dotsenti
mahfuza.t.u.@mail.ru

LIRIK ASARNI O'RGANISH TAJRIBASIDAN

Annotatsiya: maqolada maktab adabiy ta'limida Erkin Vohidov hayoti va ijodini o'tishda asqatishi mumkin bo'lgan metodik tavsiyalar berilgan. Metodik tavsiyaga ko'ra an'anaviy va hamkorlikka asoslangan usullardan shoirning 11-sinf adabiyot darsligida berilgan shoir qalamiga mansub "Ruhlar isyoni" dostonini o'tishda adabiyot mashg'ulotlarida foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: *shoir, adabiyot, doston, an'anaviy, hamkorlikka asoslangan.*

Annotation: the article gives methodical recommendations that can improve the life and work of Erkin Vahidov in school literary education. According to the methodological recommendation, traditional and cooperative methods can be used in literature classes to pass the poem "The Rise of the Spirits" written by the poet in the 11th grade literature textbook.

Key words: *poet, literature, epic, traditional, cooperative.*

Аннотация: в статье даны методические рекомендации, способные улучшить жизнь и деятельность Эркина Вахидова в сфере школьного литературного образования. Согласно методической рекомендации, на уроках литературы можно использовать традиционные и кооперативные методы для прохождения стихотворения «Восстание бессмертных», написанного поэтом в учебнике литературы для 11 класса.

Ключевые слова: *поэт, литература, эпос, традиционный, кооперативный.*

Kirish. O'zbekiston qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidov serqirra sohibi qalamdir. U aruzga qayta jon bag'ishlagan lirik shoir, rang-barang mavzudagi ko'plab dostonlar muallifi, taniqli dramaturg, "Donishqishloq latifalari" turkumi bilan o'zbek adabiyotiga Matmusa timsolini olib kirgan o'ziga xos hajviyachi, jahon adabiyotining eng noyob durdonalarini o'zbek tiliga mohirona o'gira olgan mutarjim sifatida el ardog'iga sazovor bo'lgan adib. "She'riyat ikki hissa kuchlidir, agar u shoirning yurak qo'ri bilan yozilsa, va shaxsiy ibrati bilan mustahkamlansa, – deb yozgan edi Qaysin Quliyev. – Mening e'tiqodim shu: shoir ona vatani uchun og'ir damlarda oldingi saflarda bo'lishi kerak. Qo'rqoqlik va loqaydlik shoirlarga yot xislatdir. Bu ona tilida tasavvur qilishni bilmaslik va jozibasini his eta olmaslikka o'xshaydi". Erkin Vohidov ijodi ana shunday: yurak qo'ri bilan yozilgan, shaxsiy ibrat bilan mustahkamlangan. Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni" dostoni haqida so'z yuritgan Sanobar To'laganova dostonni badiiy-estetik va falsafiy jihatdan chinakam san'at namunasi sifatida ayricha qiymatga ega deb baholaydi [7: 25].

Asosiy qism. Umumta'lim maktablarining 5-, 11-sinflarida shoir qalamiga mansub "Nido", "Ruhlar isyoni" dostonlari o'rganiladi. Nafaqat shoir ijodi, balki o'zbek adabiyotida ham o'ziga xos mavqega ega bu asarlarni bog'lab turadigan umumiy jihati – tarixga marojaat qilinganidir. Erkin Vohidov ijodini o'tish adabiyot o'qituvchisi uchun doimo zavqli va oson ko'ringan. Xususan, o'qituvchilar "O'zbegim" qasidasidan parchalar yod olgan o'quvchisiga "Qasidada tilga olingan buyuk zotlarning qaysi fanlarga hissa qo'shganliklarini muhokama qilish" deb qasidada tilga olingan har bir allomaning ilm-fanga qo'shgan hissasini qayd etish bilan darsni davom ettirishadi. Lekin mavzuni bu tarzda tashkillashtirish badiiy asar ta'sirini, undan oladigan zavqni kamaytirib, shoir mahoratini juda jo'n qilib qo'yadi. Adabiyot darsida allomalarimizning qanchalik buyuk ishlarini, mehnatlarini bilish ahamiyati shoirning so'z qo'llash bilan bog'liq mahoratini anglashdan a'lo bo'la olmaydi. Adabiyot darsi tarix darsi emaski, asosiy e'tibor, darsning kattagina qismi globusni kim kashf qilganligi, algebra faniga kim asos solganligi, yulduzlar jadvalini kim tuzganligiga qaratilsa. Erkin Vohidov ijodini o'rganishda, davlat ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan bilish, malaka va ko'nikmalarni o'quvchilarga to'laligicha yetkazishda darsni tashkil etishda tanlangan usul, topshiriqlar badiiy so'z qo'llashdagi ijodkor san'atini ochishga yo'naltirish muhimdir.

Lirik asarlarni o'rganish o'zbek adabiyotini o'qitish metodikasida pishiq ishlangan masalalardan biridir. Deyarli har bir metodikaga oid manbalarda u haqida alohida sahifalar ajratiladi. Har bir metodist olim bu masalaga o'ziga xos tarzda yondashadi. "Lirikada voqelik subyekt his-tuyg'ulari orqali akslanadi, uning uchun badiiy nutq obyekti emas, subyekti birlamchidir" [5:152]. Lirik asarlar, asosan, ruhiyat manzaralarini aks ettirib, junbishga kelgan tuyg'ular ifodasi sifatida paydo bo'lgani uchun ham bu turga mansub asarlar tahlili jarayonida sezimlar, tuyg'ular tizimi tasviridagi o'zgachaliklarga ustuvor ahamiyat berilishi lozim. Lirikada voqealar bayoni, xatti-harakatlar ko'lami emas, balki kechinmalar zamzamasi qay tarzda berilishini tadqiq etish muhimdir [6: 188].

"Nido", "Ruhlar isyoni" dostonlarini o'tishda darsni

an’anaviy usulda ham interfaol metodlardan foydalanib ham tashkillashtirish tavsiya etiladi. An’anaviy usulda “Ruhlar isyoni” dostonini o‘rganishda quyidagi savol va topshiriqlardan foydalanish mumkin” [4: 28]:

1. Nima uchun shoir dostonda asosan yetti, sakkiz bo‘g‘inli barmoq vaznidan foydalangan?

2. Xalq dostonlaridagi qaysi qahramon holatida yetti bo‘g‘inli barmoq vazni ishlatilgan. Uning holati bilan Nazrul Islom holatini taqqoslang.

Darslikda dostondagi rivoyatlar berilmagan. Ularsiz asar ruhini to‘la his qilish dargumon. Shu sababli “Abadiyat haqida rivoyat”ni muqaddimadan so‘ng o‘qib berish tavsiya etiladi. Darsga tayyorlanish jarayonida o‘qish ohangi asar mazmuniga tushadigan o‘quvchini tanlab, uni o‘qishga hozirlash mumkin. Ikki ishtirokchi tomonidan o‘qilganda rivoyat keraklicha ajralib turadi. Oldindan tayyorgarlik esa umumiy uyg‘unlikni ta’minlaydi. Sinfdagi o‘quvchilarni shoir ta’siriga tushishiga yordam beradi. Navbatdagi savol aynan rivoyatdan kelib chiqadi:

3. Hayot esang
Hayot esang avvalo,
Ham shavq bilan,
Ham dard bilan
O‘tar ekan bu damlar.
Omon bo‘lsin
Sen anglagan,
Seni anglar odamlar. Shoir nima uchun asar muqaddimasini yuqoridagi satrlar bilan tugatgan?

4. Nazrul Islom taqdirining fojiali sahnalariga rivoyatning qanday aloqasi bor?

Uyga vazifa sifatida “Fidoyilik to‘g‘risida rivoyat, “Jaholat to‘g‘risida rivoyat”larni o‘qish va asar qahramoniga bog‘liq jihatlarini ifodalashni topshirish mumkin.

5. Nazrul Islom bu dunyoda
Yetmish besh yil yashadi.
Ammo
O‘ttiz ikki yoshda
Bu dunyoni
Tashladi.
Shoir bu o‘rinda nima uchun “tashladi” so‘zini qo‘llagan?

Shuningdek, o‘qituvchi shoir “ilhom otli pok ziyoga go‘dak qalbi yo‘g‘rildi” kabi iboralar, “oq o‘rgimchak” kabi metaforalardan foydalanganligiga o‘quvchi diqqatini qaratishi bilan Erkin Vohidov mahoratini anglatishga, his qildirishga erishishi mumkin.

Hamkorlik pedagogikasiga asoslangan dars tashkillashtirish uchun[6:64] 11-sinf “Adabiyot” dasturida “Ruhlar isyoni” asari o‘tib bo‘lingach, sinfdagi o‘ttiz o‘quvchi oltitalik besh kichik guruhga bo‘lib mashg‘ulotni tashkillashtirish mumkin. O‘qituvchi yangi mavzuni ham besh kichik o‘quv muammosiga bo‘ladi va har bir kichik guruhga bitta kichik muammoni hal qilish vazifasi topshiriladi. Buning uchun har bir kichik guruh ixtiyorida darslik, “Ruhlar isyoni” asari, Hindiston tarixiga oid, Erkin Vohidov ijodiga doir qo‘shimcha adabiyotlar, lug‘atlar, turli ilmiy jurnallar mavjud bo‘lishi kerak. “Ruhlar isyoni” mavzusini quyidagi topshiriqlar asosida o‘tish mumkin:

1. “Koinotga u tahayyur
Ko‘zi bilan qaradi”.
Matndan shoir “tahayyur ko‘zi” bilan nimalarni ilg‘agani va ijodi, taqdiriga qanday ta’sir qilgan o‘rinlarni oling.

2. “Isyon qo‘shig‘i”dagi talmeh san’atiga misollarni toping va izohlang. Nima uchun shoir aynan ularni tilga olgan?

3. Nazrul Islom malomat qilingan o‘rinlardan o‘xshatishlarni aniqlang. Dastlab qabul qilinmagan ijod keyinchalik ozodlik harakati uchun “tutantiriq” bo‘lgan o‘ringa e’tibor bering va izohlang.

4. G‘alayon lavhasidagi badiiy vositalarning vazifasini misraga tayanib izohlang. (Masalan, “Ko‘cha to‘lib qonlar oqdi. To‘qnashganda imonlar”. Imonlar – sinekdoxa. Shoir shu o‘rinda “dinlar” yoki “insonlar” qo‘llashi mumkin edi. Bu so‘zga qanday badiiy yuk qo‘llangan).

5. Nazrul Islom Hindistonni ta’riflagan o‘rinlarni toping, Erkin Vohidovning “O‘zbegim” qasidasidagi ta’riflar bilan solishtiring va ularni izohlang.

O‘qituvchi muammoni hal qilish uchun 10 daqiqa vaqt berilishini, undan so‘ng javoblar tinglanib kichik guruh a’zolariga baho qo‘yilishini e’lon qiladi. Barcha kichik guruhlarga o‘z oldilaridagi o‘quv muammosini yechishga birdan kirishadilar. Kichik guruh bir a’zosi darslik bilan, boshqasi ilmiy jurnallar bilan, yana biri lug‘atlar bilan, boshqasi ijtimoiy tarmoq bilan shug‘ullanib muammoga yechim izlaydi. Ikki nafar bola esa, o‘rtoqlarining muammo yechimiga qaratilgan fikrlarini qog‘ozga tushirib borishadi. Bu jarayonda o‘quvchilar fikriga munosabat bildirilmaydi, saralanmaydi. Ular nima deyishsa, qog‘ozga tushirilaveradi. Bu jarayon g‘oyat qizg‘in bo‘lib yetti daqiqagacha davom etishi mumkin. So‘ng bildirilgan fikrlardan muammoga tizimli va mantiqiy yechim tayyorlanadi. Bu ishga uch daqiqagacha vaqt ketadi. Har bir kichik guruh nomidan faqat bir o‘quvchi javob beradi. Boshqa kichik guruhdagilar ham ishlarini to‘xtatib, uni tinglaydilar. Bir kichik guruh nomidan berilgan javob o‘sha guruhdagilar tomonidan to‘ldirilmaydi. Boshqa guruhdagilardan birortasi qo‘shimcha qilishi mumkin. O‘qituvchi kichik guruh nomidan javob bergan o‘sha bir o‘quvchini baholaydi va bu baho kichik guruhdagi barcha o‘quvchilarga ham qo‘yiladi. Shuning uchun kichik guruhdagi o‘quvchilar o‘zlari bilgan barcha narsani javob beradigan o‘quvchiga o‘rgatishlari kerak bo‘ladi. Aks holda ularning bahosi pasayib ketishi mumkin. O‘qituvchi har bir kichik guruh vakili javobini tinglaydi, izohlaydi, kamchiligini to‘ldiradi so‘ng baho qo‘yadi. Har bir kichik guruh

javobini boshqa kichik guruhdagilar ham tinglashadi. Shu tariqa sinfdagi barcha o‘quvchilar yangi mavzu yuzasidan muayyan tasavvurga ega bo‘ladilar. To‘g‘ri, bu yo‘sinda uyushtirilgan saboqda izchillik, mantiqiylik, ilmiylik, tushunarlilik, tarbiyaviylik va boshqa bir qator ta’lim tamoyillari buzilishi mumkin. Lekin eng muhimi, yangi mavzuni o‘quvchilarning o‘zlari o‘tadilar! Negaki bolalar o‘zlari o‘qituvchidan oldin qandaydir yangi mavzuni o‘zlashtirishlari mumkinligini anglab yetadilar, o‘zlariga ishonch paydo bo‘ladi. Muhimi, ular nafaqat o‘qituvchi bilan, balki bir-birlari bilan ham hamkorlik qilishga, bir-birlariga yordam berishga va shu asnoda yangi bilim o‘zlashtirishga erishadilar. Agar an’anaviy ta’lim usulida a’lochi o‘quvchilar yolg‘iz o‘zlari a’lochi bo‘lishga intilsalar, interfaol usulda hammaning a’lochi bo‘lishiga tirishadilar. Negaki, sinfdoshining besh olishi unga ham aniq foyda keltiradi. Shu tariqa mashg‘ulot zavqli va foydali tashkil etiladi.

Xulosa. Lirik turdagi asarlar uchun asosiy narsa tuyg‘u va hissiyotga yo‘g‘rilgan hayotiy hikmat ifodasini berish hisoblanar ekan, ruhiy holat va hissiyot ifodasini o‘quvchiga singdirish, tuyg‘ular samimiyatini his qildirish imkonini berish o‘rganilgan lirik asar o‘quvchiga “zavq beribgina qolmay, uning emotsional tafakkuri va ma’naviy-axloqiy quvvatini uyg‘otib, faoliyatga undaydi”. Dars o‘ziga xos ijodiy jarayon. Yangi usul va vositalar, metod va yondashuvlar mavzuning o‘ziga xosligidan kelib chiqib tanlansa va me’yorida qo‘llansa, mashg‘ulotning samaradorligini oshiradi. “So‘z san’atining mo‘jizali jozibasini, inson ruhining faqat ozuqasinigina emas, balki dog‘ qoplangan qalbni tozalovchi vosita ekanligini o‘quvchiga anglatish, his ettirish uchun xizmat qiladi” [2: 2]. Ozod Sharafiddinov tomonidan “...shoirona tafakkur qilish, obrazlar bilan o‘ylash qobiliyatiga ega” deb ta’riflangan shoir Erkin Vohidov ijodi o‘quvchining ruhiy olamiga ta’sir etib, shaxsni, shaxs vositasida millatni tarbiyalashga hissa qo‘shishi mumkin bo‘ladi. Shoir tinchlikni, erkni kuylash bilan insonni ulug‘laydi. O‘zligiga ega shaxsni tarannum qilgan. Bu esa o‘z davrida katta jasoratni talab qilgan. Ch. Aytmatov ta’biri bilan aytganda, tinchlik davridagi qahramonlik kelajakni yo‘q qilishga tahdid solayotgan har qanday xavflarni yengib o‘tishdir [3:11].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vohidov E. Ruhlar isyoni. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1980. 141-b.
2. Madayev O. So‘z sehri. //Ma’rifat, 2007-yil. 25-iyul.
3. Aytmatov Ch. Shoirning fazosi.//Til va adabiyot ta’limi, 2018. 7-son.
4. To‘xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot. 11-sinf uchun darslik-majmua. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklpediyasi, 2018. 200-b.
5. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. –Т.:“Akademnashr”, 2010. – 204 b.
6. Yo‘ldosh Q, Yo‘ldosh M. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi. – T.: G‘. G‘ulom nashriyoti, 2022. 408-b.
7. To‘laganova S. “Ruhlar isyoni” dostoni tadqiqiga doir”.– Guliston: GulDU, 2020. 561-b.

Iqboloy ADIZOVA,
Filologiya fanlari doktori,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori
E-mail: ataullo98@mail.ru

UVAYSIY IJODIY TAKOMILIDA LUTFIYNING TA’SIRI

Annotatsiya: mazkur maqola o‘zbek mumtoz adabiyotining betakror shoirasi Jahon Otin Uvaysiy ijodining kamol topishida, Lutfiyning adabiy ta’sirini o‘rganishga bag‘ishlangan. Bu masala shoiraning Lutfiy g‘azaliga bog‘langan bir tatabbu’ g‘azali misolida yoritilgan. Uvaysiyning ustozlar ijodiga munosabati, ularning mahorat maktablaridan olgan saboqlari oydinlashtirilgan.

Kalit so‘zlar: *Lutfiy, Majolis un-nafois, oftob, zarra, tatabbu’, timsol, ramz.*

Annotation: this article is dedicated to the study of the literary influence of Lutfii in the development of the work of the unique poet of Uzbek classical literature, Jahonotin Uvaisi. This issue is covered by the example of a tatabbu' ghazal connected to Lutfiy's ghazal of the poetess. Uvaysi's attitude to the work of her teachers, the lessons she learned from their schools of skills are clarified.

Keywords: *Lutfiy, Majolis un-nafois, sun, particle, tatabbu', symbol, symbol.*

Аннотация: данная статья посвящена изучению литературного влияния Лутфий на развитие творчества уникальной поэтесса узбекской классической литературы Джаханатина Увайси. Этот вопрос освещается на примере газели татаббуъ, связанной с газелю поэт Лутфий. Выяснено отношение Увайси к работе своих учителей, урокам, которые он извлек из их школ мастерства.

Ключевые слова: *Лутфий, Мажолис ун-нафоис, солнце, частица, татаббуъ, символ.*

Uvaysiy o‘zbek mumtoz adabiyotidagi ko‘plab mashhur, ustoz shoirlar ijodiy maktabidan bahra olgan adiba. Devonidagi ko‘plab asarlarda bunday adabiy ta’sir izlari ko‘zga tashlanadi. U Navoiy, Lutfiy, Bedil, Fuzuliy, Amiriy kabi shoirlar ijodiga xos an’analarni davom ettirishga harakat qilgan.

Alisher Navoiy “Majolis un-nafois”da Lutfiyga baho berar ekan, umrining so‘ngida “Oftob” radifli she’r yozgani va unga barcha zamondosh shoirlar tatabbu’ qilganlari haqida so‘zlaydi: “...oxir umrida radifi “oftob” she’ri(ni) ayttikim, zamon shuarosi barcha tatabbu’ qildilar; hech qaysi (shoir) matla’ni oncha ayta olmadilar va ul matla’ budurkim:

E, zi zulfi shab misolat soyaparvar oftob,

Shomi zulfat ro ba joyi moh darbar oftob” [3, 1997, 61-62].

(Mazmuni: Zulfing tunga o‘xshash bo‘lib, go‘yo quyosh (yuzing) uning soyasida parvarish topadi. Qizig‘i shundaki, tunda oy bo‘ladi, ammo zulfing – tuni bag‘rida quyosh).

Navoiy fikridan ma’lum bo‘ladiki, Lutfiyning “Oftob” radifli g‘azaliga deyarli barcha zamondosh shoirlar tatabbu’ bog‘laydi. Shoir g‘azalini fors-tojik tilida, ramali musammani mahzuf vaznida yaratgan. Ammo, Navoiyning o‘zi negadir bu g‘azalga nazira bog‘lamaydi. Uning “Xazoyin ul-maoniy”sidagi to‘rtala devonda ham “Oftob” radifli g‘azal uchramaydi. “Devoni Foniy”da bitta “Oftob” radifli g‘azal mavjud [2, 2002, 110].

Ammo, uning “Dar tavri Xoja”, ya’ni Xoja (Hofiz Sheroziy) asariga tatabbu’ ekanligi shoir tomonidan ta’kidlanadi. Balki Lutfiy mazkur asarini fors-tojik tilida, Xoja g‘azalidan ta’sirlanib yaratgandir. Shu sababli, Navoiy Lutfiyga emas Xojaga tatabbu’ bog‘lagandir. Ammo, u Lutfiy g‘azaliga yuqori baho beradi. Navoiyning mazkur forsiy g‘azali 11 baytdan iborat. U muzore’i musammani makfufi mahzuf (- - V - V - V V - - V - V - Maf’ulu foilotu mafoiylu foilun) vaznida yaratilgan.

Navoiy davridan keyingi asrlarda ham Qo‘qon, Xiva adabiy muhitlarida mazkur radifda ko‘plab g‘azallar yaratilganini kuzatamiz.

Ularni qiyoslaganda, barchasida oshiq, yor munosabatlari quyoshning holati va maqomi bilan muqoyasalanganligining guvohi bo‘lamiz. Bu, albatta, o‘ziga xos, chuqur mantiqqa asoslangan. Dilshod Barnoda quyosh ilohiy nur manbai. Ilohiylik bilan bog‘lovchi pir, rahnamo ramzi sifatida baholanadi.

Navoiyning quyosh, may, sog‘ar, soqiy kabi timsollar bilan bog‘liq an’anaviy yo‘nalishda boshlangan fors tilidagi g‘azali so‘nggi bandlarda tarixiylik kasb etadi. Shoir e’tibori Husayn Boyqaro G‘oziy faoliyati va maqomini tavsiflashga qaratiladi.

Qo‘qon adabiy muhitida o‘ziga xos maqomga ega Uvaysiyning qo‘lyozma devonida ham “Oftob” radifli bir g‘azal uchraydi. Undagi timsollar qamrovi, badiiy yondashuv mezonlaridan Lutfiyning dong taratgan mazkur g‘azali ta’sirida yaratilganini sezish qiyin emas. Unda shoiraning yuksak mahorat egasi ekanligi yaqqol namoyon bo‘ladi. U oddiy tabiat hodisasi – quyoshning tongda sharqdan chiqib, shomda g‘arbga botishini asariga asos qilib oladi. Undan chuqur falsafa topishga erishadi. Shoira uning qismatida o‘z taqdirining ramzini ko‘radi. Mumtoz adabiyotda quyoshning diydor izlab samoda kezishi g‘oyasi an’anaviy. Ammo, Uvaysiy ana shu an’anaviylikning yangicha, o‘ziga xos talqinini yaratadi:

Charx zarfiga qo‘yub og‘zin, yutar har kunda qon,

Shom vaqtida shafaq bilgurdi xunbor oftob [7, 1959, 63].

Oftob botayotganida shafaqning qizarishini shoira husni ta’lil san’ati vositasida o‘ziga xos izohlaydi: U kun bo‘yi diydor ilinjida azoblanib qon yutadi. Shomda esa maqsadiga yetolmay, iztirobdan qon yosh to‘kadi. Shafaqning qizarishi, shoira fikricha, ana shundan. Mazkur baytda shoira quyosh timsoli vositasida oshiq ruhiy holatini ifodalar ekan, uning zamiriga zamon noqisliklaridan o‘z ko‘ngliga yetgan zahm-u jarohatlar tasvirini ham singdirib ketadi. Asarda ularga ishora sezilib turadi.

Shoira keyingi baytlarda quyoshni majnunvor oshiq sifatida tasvirlaydi. Shu bilan o‘ziga taskin tasalli topadi, go‘yo:

Men nechuk Majnun kabi rasvoyi olam bo‘lmayin,

Charx uza ruxsori mohingg‘a giriftor oftob?! [7, 1959, 63]

Hatto, osmondagi oftob hamki, mahbuba husniga giriftor ekan, shoira lirik qahramonining ishq yo‘lidagi jununlari tabiiy hol ekanligini ta’kidlaydi. Mazkur g‘azalda, yuzaki qaraganda, shoira quyoshning harakatini, oddiy tabiat hodisasini tasvirlayotgandek ko‘rinadi. Ammo, ziyrak kitobxon uning zamirida chuqur ijtimoiy va irfoniy ma’nolar mujassamligini sezishi qiyin emas. Avvalo, quyosh – oshiq va to‘g‘ri yo‘ldan maqsad sari borayotgan pir, rahnamo ramzi. Oshiq va pirning quyosh timsolida sintezlanishi uning mohiyatini chuqur anglash imkonini yaratadi. Zero, quyosh o‘zi “qon yutadi”, “azoblanadi”, “kecha kunduz yo‘l bosib diydor izlaydi”. Oqibatda, u yonib, butun olamga nur ulashadi, jahonni nurga yo‘g‘iradi, o‘zi ham nurga aylanadi.

Ikkinchidan, oftob va falak timsoli vositasida shoira chuqur ijtimoiy g‘oyalarni, insoniy munosabatlarni ham ifodalab beradi:

Do‘st deb tuttum etokin ul falaki g‘addorning,

Shatta urdi, ketti Mag‘rib, topti ozor oftob [7,

1959, 63].

Shoira mazkur misralarda do‘stlik, foniy dunyo va u bilan bog‘liq vafo tushunchasi haqida mulohaza yuritadi. Bu tasvir ortida biz lirik qahramon ko‘nglidagi zamona zarbalarining ifodasini sezamiz. Oftob taqdiriga qismatdoshlik kechinmalari tasvirini his etamiz.

Mashhur masalnavis Ezopning xojasi Ksanf o‘z shogirdlariga qarata, - “Ey muhtaram talabalarim, falsafa ilmi yolg‘iz muhokama va mulohazalardangina iborat deb o‘ylamang. Yo‘q... ko‘pincha, so‘zsiz falsafa so‘z bilan ifodalangan falsafadan ustunlik qiladi. Bu fikrim ifodasini, chunonchi, raqqoslar harakatida ko‘rish mumkin. Ularning qo‘llari muttasil harakat qilib, voqea-hodisalarning tub ma’nosini ifodalaydi va bu bilan sizning ko‘z oldingizda so‘zsiz falsafaning chinakam qiyofasini namoyon qiladi”, – deya ta’lim bergan edi.

Mahoratli, faylasuf shoira Uvaysiy ijodiga xos muhim xususiyatlardan biri ham xuddi shunday mohiyatga ega. U o‘z asarlarida ifodalamoqchi bo‘lgan fikr-g‘oyalarni faqat so‘zlar bilangina bayon etmaydi. Balki turli ramzlar, timsollar orqali ishoralar berib, o‘quvchining mantiqiy fikrlashiga, yakuniy xulosalar chiqarishiga ham imkon qoldiradi. Chunki olam va tabiatning o‘zi dono faylasuf. Uni kuzatish va o‘rganish bizni chuqur ma’nolarni anglash, ma’rifat hosil qilish sari yetaklaydi. Shoira mahoratining mazkur qirrasi talqin etgan g‘azalimizda ham to‘la namoyon bo‘lgan.

Mazkur g‘azal maqtaida oshiq va oftob taqdiri yana bir bor muqoyasalanadi. Oftobning qismati oshiq uchun go‘yo ibrat maktabi vazifasini bajaradi. Shu o‘rinda shoiraning timsol yaratish mahorati yaqqol ko‘rinadi. U quyoshni zarralar boshidagi dastor sifatida tasvirlaydi. Bu tasvir shaklan mutanosibligi bilan ham, mohiyatan yor va oshiqning maqomini belgilab berishi bilan ham muhimdir:

Vaysiy, boshing uzra qo‘y xurshid tal’at yorni,
Bilmadingmu, zarralar boshinda dastor oftob [7, 1959, 63]?!

Oftob maqomidan kelib chiqib, lirik qahramon o‘zi uchun yakuniy hukm chiqaradi: Yorning maqomi eng yuksakda. Eng aziz narsani boshiga ko‘tarish insonga xos xususiyat. Shunday ekan, quyosh yuzli yorni bosh ustida e’zozlash lozim. Bu misralardan anglashilayotgan dastlabki ma’no. Bayt yanada teranroq, botiniy mazmunni ham o‘zida mujassamlashtirgan. Unda yor va oftob, oshiq va zarralar parallel qo‘yiladi. Bu parallelizm zaminiga chuqur irfoniy ma’no ham singdirilgan. Ya’ni bular shaklan ikki ko‘rinishda bo‘lsa-da, mohiyatan yagona xilqat. Zarralar – oftob; oshiq – yor demakdir. Ular hodisa va mohiyat sifatida yagonalikka, birlikka ega.

Uvaysiyning shoirona mahorati, ayniqsa maqtada bayon etilgan mazkur chuqur mazmunli, umumlashtiruvchi hukmda namoyon bo‘ladi. G‘azal matnida oddiy tabiat hodisasi tasviridan iboratdek ko‘ringan ifodadan shoira hikmatomuz, falsafiy-irfoniy xulosa chiqaradi: Ya’ni oftob va zarralar yagona mavjudot. Oftob zarralarga, zarralar esa oftobga teng. Oshiq va yorda ham yagonalik mujassam. Oshiq – zarra, yor – oftob kabidir. Demak, oshiqning ham, quyoshning ham maqsadi bir nuqtada tutashadi. Har ikkalasi ham o‘zini izlash yo‘lidan borayotgan ekan. So‘nggi misralarda shoira ishoralar orqali ana shunday ma’noni nazarda tutadi.

Ko‘rinadiki, birinchidan, Uvaysiy she’riyatidagi har bir timsol mohiyatan keng qamrovga ega. Yuzaki qaraganda, oddiy ko‘ringan obrazlar, tabiat hodisalari vositasida shoira chuqur falsafiy-irfoniy mohiyatni ifodalashga erishadi.

Ikkinchidan, salaflari ta’sirida yaratgan asarlarida ularni yanada takomillashtirish yo‘lidan boradi.

Shoira mazkur g‘azalda ham Lutfiy g‘azalidagi, Navoiy urg‘u bergan badiiy tarovatni saqlagan, zamon ruhini singdirishni unutmagan holda, mohiyatan yanada chuqur, keng qamrovli falsafiy-irfoniy ma’nodagi yangi asar yarata oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adizova Iqboloy. Uvaysiy she’riyatida poetik tafakkurning yangilanishi. – Toshkent: Muharrir, 2020. 267-b.
2. Alisher Navoiy. MAT. 18-jild. Devoni Foniy. – T.: Fan, 2002.
3. Alisher Navoiy. MAT. 13-jild. Majolis un-nafois. – Toshkent: Fan, 1997. 284-b.
4. Doktor Sayyid Ja’far Sajjodiy. Farhangi istilohot va ta’biroti irfoniy. – Tehron, 1279 h. – 813 s.
5. Lutfiy. Devon. – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1965.
6. Muhammad G‘iyosuddin. G‘iyos ul-lug‘ot. Jildi II . – Dushanbe: Adib, 1988.
7. Uvaysiy. Devon. – Toshkent: Fan, 1959. 287-b.
8. Uvaysiy. Ko‘ngil gulzori. – Toshkent: Fan, 1983.

Зулхумор ЭГАМНАЗАРОВА,
доцент кафедры «Языки» АВС РУ

ИСТОРИЧЕСКИЕ ЗАКОНОМЕРНОСТИ РАЗВИТИЯ РУССКОЙ САТИРЫ ВТОРОЙ ПОЛОВИНЫ XIX ВЕКА

Аннотация: история XIX века характеризуется бурными событиями, которые не могли не отразиться в литературе. В данной работе автор исследует исторические закономерности развития русской сатиры второй половины XIX века и выделяет ряд ведущих концепций.

Ключевые слова: *особенность, реализм, закономерность, пороки, сатирическое мастерство.*

Annotation: the history of the 19th century is characterized by turbulent events that could not help but be reflected in literature. In the work, the author explores the historical patterns of development of Russian satire in the second half of the 19th century and identifies a number of leading concepts.

Key words: *peculiarity, realism, regularity, vices, satirical skill.*

Развитие литературы второй половины XIX века характеризуется следующими особенностями: во-первых, дальнейшее развитие получил реализм. Наглядно это отразилось в творчестве классиков Л. Н. Толстого, М. Е. Салтыкова-Щедрина. Во-вторых, появились новые темы и литературные формы: критическое изображение капитализма отразилось в произведениях Д. Н. Мамина-Сибиряка, П. Д. Боборыкина, Вс. М. Гаршина. Всё больше стало появляться произведений, относящихся к малым жанрам: рассказы, очерки, журнальные статьи.

История XIX века характеризуется нарастающей освободительной борьбой русского народа – это и восстание декабристов, активная деятельность петрашевцев, революционный подъем в 60-е годы, борьба народовольцев за полное переустройство общества на основе социальных принципов. Эти революционные движения отразились на литературе. В частности, на развитии сатиры.

Во второй половине 50-х годов XIX века, после смерти Николая I, русская сатира расцветает, стремится достичь рубежей, характерных для творчества Н.В. Гоголя. Предметом сатиры становятся не сословия, а пороки людей – их недостатки и поведение в обществе. В том случае, если изображались пороки представителей определенного сословия, то авторы подчеркивали, что данным отрицательным героям эпохи противопоставляются другие, лучшие. Сатирические мотивы проявлялись в романах и драмах, например, в произведениях А.С. Грибоедова («Горе от ума»), Н.В. Гоголя («Ревизор» и «Мертвые души»), А.В. Сухово-Кобылина, в стихах Г.Р. Державина. Н.А. Некрасова («Размышления у парадного подъезда»).

Высокого мастерства сатирического видения мира достигли Н.В. Гоголь и М.Е. Салтыков-Щедрин. Н.В. Гоголь постоянно подчеркивал, что смех помогает воспитанию человека, поскольку его вызывает не «кривой нос человека», а его «кривая душа». Критики того времени не воспринимали позицию слез и смеха, считая, что смешное не может быть источником страдания. Однако именно гоголевский «смех сквозь слезы» расширил границы юмора: смех рождал отвращение к порокам человечества, заставлял размышлять над реальностью жизненных ситуаций.

Социально-политическая сатира М.Е. Салтыкова-Щедрина отличается высокой идейностью, художественным совершенством, реализмом жизни государства и общества. Сила его юмора кроется в способности автора использовать гиперболы, гротеск, сатирическое иносказание. Аргументируя значимость и востребованность времени использования смеха, писатель утверждал, что смех служит сильным оружием, поскольку осознанно угадывается порок и «по его поводу раздается смех».

На развитие сатиры XIX века огромное влияние оказали такие журналы как «Искра» В. Курочкина и Н. Степанова, «Гудок» под редакцией Д. Минаева, «Будильнике» (при Н. Степанове). Сатирическая журналистика революционных демократов стала сильным средством борьбы против крепостничества и либерализма. В редакцию журнала «Искра» ежедневно поступали десятки писем из различных уголков России, в которых авторы раскрывали все негативные явления, совершаемые властью – взяточничество, казнокрадство, неправедный суд.

У русских сатириков второй половины XIX в. в соответствии с художественным методом были свои представления о национальном стереотипе, национальном характере русского народа. Доминирующие образцы в обществе привлекали внимание всех сатириков, поэтому мы наблюдаем такие особенности характера русской нации: сострадание и прощение, доброта без оглядки и широта души, чистосердечие и снисхождение. Одновре-

менно с этим видим чинопочитание, угодничество, подхалимство, самоуничижение (занижение значимости себя как личности), подобострастие, глупость и продажность чиновников, их страх перед вышестоящим начальством.

Крестьянский мир, показанный сатириками второй половины XIX века, многолик, поскольку отражает его нравственное совершенство и одновременно духовную несамостоятельность; коллективизм и индивидуальное самовыражение.

Теоретическое исследование исторических закономерностей развития русской сатиры второй половины XIX века позволило выделить ряд ведущих концепций в этой области.

Русская сатира была популярной еще в XVII веке: она проявлялась в народной повести и в творчестве скоморохов. В XVIII веке сатира в России достигла больших высот, появились такие новые жанры как эпиграмма, послание, басня, комедия, пародийная песня, публицистика. Образцом стихотворного жанра сатиры был А.Д. Кантемир, который разработал новые нормы синтаксиса, приблизил содержание сатирического произведения к «простому разговору». Именно с этой целью он ввел разговорные просторечные слова, пословицы и поговорки.

В XIX веке происходит расцвет литературы критического реализма, что непосредственно отражается на жанре сатира. Многие элементы сатиры проникают в роман и драму, поэтому большинство произведений этого времени отличалось критикой, сатирой, юмором, широко применялись такие приемы как гротеск и гипербола.

Наиболее употребляемыми стали следующие сатирические жанры: фельетон, памфлет, пародия, эпиграмма, анекдот, шутка. Каждое сатирическое произведение наполнено юмором, иронией, сарказмом, гротеском, гиперболой. Активность сатирических жанров в литературе связана с переломными, революционными периодами в развитии российского общества, самого государства в целом.

Огромный вклад в характер изображения русской истории и национальные стереотипы внесли такие сатирики как Ф.М. Достоевский, М.Е. Салтыков-Щедрин, Н.В. Гоголь. Они сознательно разоблачали политическую власть, устои России, антинародную сущность проводимых реформ.
Подтекст сатиры всегда содержит комическое, драматическое, иногда трагическое противоречие между существующим строем и старым, между классом властных, сильных (правителей, помещиков, чиновников) и миром простого народа. В этом противоречии заложена «двойственность» сатирического конфликта, разгадка смеха и слез, то есть комического и трагического в произведении.

В национальном стереотипе (русском архетипе) преобладает страх перед государством, перед вышестоящими структурами. Власть всегда вмешивалась в жизнь людей (насилием, идеологией) – русские люди не имели возможности сосредоточиться на своей частной жизни. Исходя из этого, в сатире второй половины XIX века воплощением несправедливой власти стало чиновничество, унижающее русского человека и ведущего его к нищете.

Постепенно образовался стереотип личности, терпеливой, пассивной, консервативной, равнодушной, способной выжить в самых критических ситуациях. Этот тип человека в большинстве случаев погружается в прошлое и одновременно занимается поиском идеалов, свято веря в лучшее будущее и справедливую власть. Русские люди генетически приучены не ждать от власти добра, помощи, поддержки, однако всегда надеются на чудо: на справедливого государя, на реформатора – избавителя от проблем.

Использованная литература:

1. Ершов Л.Ф. Сатирические жанры русской советской литературы (от эпиграммы до романа) / Л.Ф. Ершов. – Л.: Наука, 1977. – 382 с.
2. История русской литературы: в 4 т. Т. III: Расцвет реализма. – Л.: Наука, 1982. – 877 с. (В тексте – История РЛ)
3. Лихачев Д.С. Историческая поэтика русской литературы: Смех как мировоззрение и другие работы / Д.С. Лихачев. – СПб.: Алетейя, 2011. –511с.
4. Плоткин Л.А. О путях развития русской сатиры / Л.А. Плоткин // Русская сатира XIX – начала XX в. – М.-Л.: Советский писатель, 1960. С. 5-32.

Юлдуз РАХМАНОВА,
кафедра узбекского языка и литературы, и.о.доцента
Каршинский инженерно-экономический институт, г. Карши

ТВОРЧЕСКАЯ РАБОТА СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗОВ НА ЗАНЯТИЯХ РУССКОГО ЯЗЫКА

Аннотация: преподаватели в высших учебных заведениях, учитывая их специфику, стремятся максимально использовать в своей педагогической деятельности методы и средства, способствующие творческой самостоятельной работе студентов и соответствующие современным требованиям образовательной системы. В статье освещаются основные задачи научно-творческой деятельности студентов технических ВУЗов, способы и средства научной творческой самостоятельной работы, отвечающих требованиям современной системы образования. На примерах описывается применение метода «Инсерт», целью которого является отслеживание студентами их понимания получаемой информации с использованием интерактивной системы заметок, ее подтверждение, уточнение, отклонение.

Ключевые слова: *современное образование, технический вуз, творческое мышление, научно-творческая деятельность, современная система образования, информация, оценка, способы и средства, коммуникативные способности, текст.*

Annotatsiya: oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchilar o‘zlarining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, o‘z pedagogik faoliyatlarida talabalarning ijodiy mustaqil ishlashiga yordam beruvchi, ta’lim tizimining zamonaviy talablariga javob beradigan usul va vositalardan maksimal darajada foydalanishga intiladilar. Maqolada texnik oliy o'quv yurtlari talabalarining ilmiy va ijodiy faoliyatining asosiy vazifalari, zamonaviy ta'lim tizimi talablariga javob beradigan ilmiy ijodiy mustaqil ish usullari va vositalari yoritilgan. Misollar "Qo'shish" usulidan foydalanishni tavsiflaydi, uning maqsadi interaktiv eslatma tizimi yordamida talabalarning olingan ma'lumotlarni tushunishini kuzatish, uni tasdiqlash, aniqlashtirish va rad etishdir.

Kalit so'zlar: *zamonaviy ta'lim, texnik universitet, ijodiy fikrlash, ilmiy-ijodiy faoliyat, zamonaviy ta'lim tizimi, axborot, baholash, usul va vositalar, muloqot qobiliyatlari, matn.*

Annotation: teachers in higher educational institutions, taking into account their specifics, strive to make maximum use in their teaching activities of methods and means that promote the creative independent work of students and meet the modern requirements of the educational system. The article highlights the main tasks of scientific and creative activity of students of technical universities, methods and means of scientific creative independent work that meet the requirements of the modern education system. Examples describe the use of the “Insert” method, the purpose of which is to track students’ understanding of the information received using an interactive note system, confirming it, clarifying it, and rejecting it.

Key words: *modern education, technical university, creative thinking, scientific and creative activity, modern education system, information, assessment, methods and means, communication skills, text.*

Введение. Неотъемлемой частью подготовки будущих специалистов в области инженерии и экономики является научно-творческая работа студентов высших учебных заведений. Научное творчество представляет собой одну из форм творческой деятельности, нацеленную на создание новых знаний. По мнению ученых, в трудах которых выявлена природа научного творчества, основной характеристикой выступают творческий процесс и творческая личность [1; 2; 4].

Научно-творческая деятельность студентов – это процесс, в рамках которого студенты осуществляют исследовательскую и творческую работу в различных областях знаний под руководством опытных научных руководителей. Творческая деятельность студентов способствует развитию их аналитических, критических и творческих способностей, а также подготавливает их к будущей научной и профессиональной карьере.

Методы. Творческая деятельность, которую проводят студенты в технических ВУЗах, играет ключевую роль в совершенствовании их знаний русского языка. Систематическая и целенаправленная работа над языком, применяемым в профессиональной сфере, способствует улучшению подготовки будущих специалистов. Студенты развивают критическое мышление и могут творчески применять научные и технические достижения в реальной практике. Это позволяет им быстро адаптироваться к современным требованиям экономики и успешно конкурировать на рынке труда.

Основные цели творческой работы в области русского языка в техническом ВУЗе включают стимулирование развития творческого и аналитического мышления, а также расширение научных знаний; привлечение студентов к научно-творческому процессу на всех этапах обучения в ВУЗе, не

ограничиваясь только периодом изучения русского языка.

Творческая деятельность в любой сфере – языковой, художественной, научной, производственной – требует непрерывного повышения уровня научных знаний и сопровождается развитием творческого мышления и самостоятельной работы. На занятиях русского языка первокурсники читают, переводят и изучают научные тексты на русском языке, задания к текстам носят творческий, инновационный характер. Студенты изучают смысловые типы текстов; составляют описательный текст по картине; пишут сочинение-рассуждение, в котором одним из основных требований является изложение собственного отношения к той или иной теме; учатся писать рефераты не путем скачивания темы из интернета, а использовать несколько разных источников. Оценивается лишь тот реферат, который отвечает требованиям.

Преподаватели в высших учебных заведениях, учитывая их специфику, стремятся максимально использовать в своей педагогической деятельности методы и средства, способствующие творческой самостоятельной работе студентов и соответствующие современным требованиям образовательной системы. Чтение научной литературы, передача информации в устной и письменной формах, способы и средства наглядного представления аналитической информации (графические органайзеры), структурирования и реструктурирования информации, установление взаимосвязей между изучаемыми понятиями (явлениями, событиями, темами), организации обучения в сотрудничестве, коллективного решения проблемы, оценки и выбора приоритетных идей, решения практической ситуации, проектной деятельности являются способами и средствами научной творческой самостоятельной работы студентов. К графическим органайзерам относятся таблицы «Инсерт», ЗХУ, Т-схема, категориальные и концептуальные таблицы, диаграммы Венна.

В процессе изучения русского языка важно стимулировать развитие творческого мышления у студентов и умение анализировать информацию. Основные цели обучения русскому языку в нефилологических ВУЗах связаны с формированием коммуникативных навыков и культуры общения, необходимых для успешной работы с различными типами литературы, включая общественно-политическую, научно-популярную, публицистическую и художественную.

Результаты и обсуждение. Рамки статьи не позволяют подробно остановиться на всех видах и средствах творческой работы. Рассмотрим один из методов, используемых для установления взаимосвязей между изучаемыми понятиями (явлениями, событиями, темами). Целью метода «Инсерт» является отслеживание студентами их понимания получаемой информации с использованием интерактивной системы заметок, ее подтверждение, уточнение, отклонение. Применение этого метода позволяет развить навыки эффективной работы с текстом; активное, внимательное, вникающее чтение; позволяет связать известный ранее материал с новым; побуждает к дальнейшему изучению темы.

Известно, что пометки означают следующее:

(√) – соответствует знаниям, которые уже имеются на момент получения информации (подтверждает то, что я знаю)

(+) – новая информация

(-) – не соответствует имеющимся знаниям (противоречит тому, что я знаю)

(?) – информация, которая требует разъяснения, уточнения, дополнения (мне нужна по этому поводу дополнительная информация)

При изучении темы «Моя родина – Узбекистан» во время работы над текстом «По Великому шелковому пути» студентам предлагается заполнить таблицу методом «Инсерт». После прочтения текста были представлены следующие результаты.

(√) – подтверждает то, что я знаю:

1. Через пустыни, оазисы и горные перевалы соединил Великий шелковый путь народа Азии, Африки и Европы.

2. Шелк был одним из главных товаров, который китайские купцы вывозили в западные страны по этому пути.

3. Ферганская долина – один из крупнейших в мире районов производства натурального шелка.

4. И в наши дни в среднеазиатских республиках нарядами из авровых тканей гордится каждая семья.

5. Ткани, которые носят теперь название «хан-атлас», пользуются большим спросом и у гостей нашего края.

(+) – новая информация:

1. Вместе с караванами китайских купцов сюда был завезен и сам тутовый шелкопряд, а точнее, грена – яйца этой бабочки.

2. Ещё в X в. арабская рукопись свидетельствовала: «За один шелковый занавес, сотканный в Маргилане, стоит отдать все земли Бухары».

3. Сейчас ученые, используя достижения науки XX века, пытаются восстановить тайны чудесного шелка.

(-) – противоречит тому, что я знаю (или я не знал этого ранее):

1. Один из маршрутов этого пути пролёг от Ташкента через Ленинабад, Коканд, Фергану, Ан-

дижан, Ош до самого восточного города Ферганской долины – Узгена.

2. Секреты выработки этих тканей, общее название которых – авровые (от древнеперсидского слова «абр» – «облако») – из тьмы тысячелетий донесли до наших дней народные мастера.

(?) – мне нужна по этому поводу дополнительная информация

Шелковицу выращивают на любом свободном клочке земли для получения листьев – корма шелкопряда. (Как выращивают шелковицу? Как разводят шелкопряд?)

1. В Средней Азии бережно относятся к шелковице. (Почему к ней бережно относятся?)

2. Слава шелкоткацких мастеров этого города идет из глубины веков. (Как давно появились шелковые ткани? Как работают мастера?)

3. Самый главный секрет все-таки сбережен. (Имеются ли и сейчас древние виды шелка? В каких современных тканях используются секреты их создания?)

Аналогичная работа проводится с текстами «Абу Али ибн Сина» (тема «Из жизни замечательных людей»), «Спорт» (тема «Спорт в нашей жизни»), «Третьяковская галерея» (тема «В мире прекрасного») и др.

Выводы. Графические органайзеры являются способами и средствами наглядного представления аналитической информации. Метод «Инсерт», направленный на развитие у студентов самостоятельного структуирования и деструктуирования информации, установление связей и взаимосвязей между изучаемыми понятиями (явлениями, событиями, темами и пр.) [3], является эффективным инструментом для обучения коммуникативной деятельности в контексте межкультурных взаимодействий и международного сотрудничества.

Применение данного метода помогает развить творческие способности и логику мышления, объединить знания, полученные в ходе учебного процесса и приобщить к конкретным жизненно важным проблемам. Важно и то, что этот метод дает возможность выйти за рамки традиционных учебных правил, стимулирует активное взаимное общение, поиск новой информации и обмен ею. Таким образом, одним из основных компонентов методической системы развития у студентов технических ВУЗов творческой активности является применение различных форм организации научно-творческой работы студентов. Это способствует возрастанию интереса к избранной специальности и формированию способности к инновационной инженерной деятельности, которая так необходима в настоящее время.

Литература:

1. Полонский В.М. Научно-методическая информация. Словарь-справочник. - М.: Новая школа, 1995 – 286 с.
2. Сумбаев И.С. Научное творчество. - М.: Наука, 1978. – 276 с.
3. Ходиев Б. Ю., Голиш Л. В., Хашимова Д. П. Способы и средства самостоятельной учебной деятельности. – Ташкент: ТГЭУ, 2010. – с. 83 – 85, 109 – 111.
4. Матерова А.В. Творчество как основа научно-исследовательской работы студентов. // [Электронный ресурс] / Режим доступа: // http://rusnauka.com/2_KAND_2011/Pedagogica/77997.doc.htm
5. Рахманова Ю.К. Вопросы преподавания русского языка студентам инженерно-экономического ВУЗа с узбекским языком обучения // Международный научный журнал «Молодой ученый», № 20 (154), 2017. Российская Федерация, г. Казань, издательство «Молодой ученый».
6. Рахманова Ю.К. Задачи, способы и средства научно–творческой и самостоятельной работы студентов // Международный научный журнал «Наука без границ», № 4 (32), 2019. Российская Федерация, г. Москва, РГАУ-МСХА им. К. А. Тимирязева, сс.103–107.
7. Rakhmanova Y.K. Formation of independent thinking skills in youth is a current task of education and upbringing // Journal INX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. India. June, 2022.
8. Рахманова Ю.К. Увлекательный русский язык. Часть 1. – Учебное пособие для студентов нефилологических ВУЗов. // Карши, «Интеллект», 2023.

Xasanxon OMONOV,
JDPU, Musiqa ta'limi kafedrasi dotsenti
Omonovxasan354@gmail.com
Shaxlo BEKMIRZAYEVA,
Magistratura "Musiqa ta'limi va san'at" yo'nalishi 2 - kurs talabasi

O'ZBEKISTONDA MUSIQA PEDAGOGIKASINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Annotatsiya: qadimiy va boy tarixga ega o'zbek milliy musiqa madaniyati targ'ibotini amalga oshirish ushbu soxa ta'lim- tarbiyasi bilan maxsus shug'ullanish maqsadida asrlar davomida musiqa maktablari mukammal tarzda shakllangan hamda rivoj topib kelganligi to'grisida.

Kalit so'zlar: *Musiqa, Tarix, Madaniyat, Qadim, O'rta Osiyo, Olim, Sharq.*

Annotation: in order to promote the Uzbek national music culture with an ancient and rich history, music schools have been perfectly formed and developed over the centuries in order to deal specifically with the education of this field.

Key words: *Competition, History, Culture, Ancient, Central Asia, Scholar, East.*

Аннотация: в целях пропаганды узбекской национальной музыкальной культуры, имеющей древнюю и богатую историю, на протяжении веков прекрасно формировались и развивались музыкальные школы, занимающиеся именно образованием в этой области.

Ключевые слова: *Конкуренция, История, Культура, Древняя, Средняя Азия, Учёный, Восток.*

Tarixiy manbalar bizga milliy musiqiy madaniyatimiz uzoq moziy bilan bog'langanligini eslatib turadi. Qadimshunoslar tomonidan topilgan ashyoviy dalillar, tosh devorlarga chizilgan musiqiy sozlar va sozandalar, miniatyura ko'rinishidagi shohlar saroyidagi bazmlarda cholg'uchilar tasviri, milliy musiqa sozlari va ijrochiligimizning tarixi naqadar qadimiyligidan dalolat beradi. Jumladan, "Afrosiyob xarobalaridan surnay, doyra, ushpullaklar ham topilgan bo'lib, eng muhimi, ushbu musiqa asboblari hozirgi shaklidan deyarli farq qilmaydi. Yoki Surxondaryoning Dalvarzintepa va qadimgi Xorazmning Qo'yqirilganqal'a, Tuproqqal'a kabi yodgorliklaridan topilgan chang va boshqa musiqiy sozlar qoldiqlari ham dunyodagi eng qadimiy cholg'u yodgorliklaridir".

Kishilik jamiyatining rivojlanishi tarixida pedagogika, jumladan musiqa pedagogikasi eng qadimiy ham ilm, ham san'at ta'lim-tarbiyasi sohasidir. Zero, musiqa pedagogikasi tarixi nihoyatda boy ilmiy-nazariy merosga ega.

Musiqa madaniyatining qadimiy ildizlari yozma ma'rifiy yodgorlik "Avesto" va zardo'shtiylik dini an'analari bilan bog'lanib ketadi. "Avesto"da tarbiya-hayotning eng muhim tayanchi, deb hisoblangan. Insonlar paydo bo'lganidan buyon uning tarixi doimiy ravishda tarbiya muammosini hal qilish bilan bog'liq ekaniga guvohlik beradi. Chunki inson hayoti va turmush tarzi, xalq farovonligi, Vatan ravnaqi, jamiyat taraqqiyotining asosida tarbiya turadi. Ma'lumotlarga ko'ra "Avesto" eramizdan avvalgi VII asrning oxiri va VI asrning boshlarida yaratilgan bo'lib, to'liq kitob holida eramizdan avvalgi I asrda shakllangan"

Qadimiy va boy tarixga ega o'zbek milliy musiqa madaniyati targ'ibotini amalga oshirish ushbu soha ta'lim- tarbiyasi bilan maxsus shug'ullanish maqsadida asrlar davomida mukammal musiqa maktablari mukammal tarzda shakllangan hamda rivoj topib kelgan. Bu maktablarda musiqa ta'lim tarbiyasi bevosita va bilvosita amalga oshirib borilgan bo'lib, ularning faoliyat mazmunida musiqa haqiqiy ma'nodagi tarbiya vositasi ekanligi o'z ifodasini topgan.

Tarixiy manbalarda IX-XII asrlarda O'rta Osiyo musiqiy madaniyatida o'zgarishlar davri bo'lganligi bayon etiladi. Biroq, bu davrlarda ijod qilgan sozandalar, hofizlar va bastakorlarning nomlari hamda ularning ijodiy faoliyatlari haqida juda kam ma'lumotlar saqlanib qolingan.

Sharq, jumladan Markaziy Osiyo musiqa san'ati va madaniyati, uning an'analari qadimiy tarixga ega. Sharq xalqlari an'anaviy-kasbiy musiqasi asoschisi sifatida ulug'langa musiqashunos, bastakor, hofiz va shoir Borbad Marvaziy (yoki Faxlobod) VI-VII asrlarda o'zining musiqa maktabini yaratdi. Eron shohi Xusrav Parviz saroyida xizmat qilgan Borbad xalq kuylarini mahorat bilan ijro etish, hofizlik qilish bilan birga yosh musiqachilarning ta'lim-tarbiyasi bilan ham jiddiy shug'ullangan. Tarixchi olimlarning yozma manbalariga asoslangan holda fikr yuritilsa, jumladan, VI-VII asrlarda yashab ijod etgan ilk kasbiy musiqashunoslardan biri O'rta-Osiyolik

Borbad xaqida ma'lumotlarda uni musiqa san'atining asoschilaridan bo‘lib, bastakorlik, shoirlik, sozandalik va hofizlik borasida tengi yo‘q mashhur san'atkor bo‘lganligi ta'riflanadi. Borbadqator madhiya va tarixiy qo‘shiqlar, harbiy mavzudagi taronalar ijod etgan.

Shunisi muhimki, Borbad xalq kuylari asosida o‘sha davrda kasbiy musiqachilik an'anasini boshlab bergan, ijrochilik mahoratida yuksak salohiyatga erishgan san'atkor edi.

Shu bilan birga Borbad "Ustoz-shogird" an’anasini boshlab bergan murabbiy ham bo‘lgan. Sosoniylar sulolasi (milodiy 224-651yy) davrida kasbiy cholg‘uchi-sozandalardan Noqus, Romtin, Sarkab, Sarkash, Navogar va boshqalar Borbad musiqa maktabida saboq olib, so‘ngra uning an'analarini yuksak san'at, mahorat, iste'dod bilan davom ettirganlar.

Shunisi muhimki, Borbad xalq kuylari asosida o‘sha davrda kasbiy musiqachilik an’anasini boshlab bergan, ijrochilik mahoratida yuksak salohiyatga erishgan san’atkor edi.

Shu bilan birga Borbad "Ustoz-shogird" an’anasini boshlab bergan murabbiy ham bo‘lgan. Sosoniylar sulolasi (milodiy 224-651yy) davrida kasbiy cholg‘uchi-sozandalardan Noqus, Romtin, Sarkab, Sarkash, Navogar va boshqalar Borbad musiqa maktabida saboq olib, so‘ngra uning an'analarini yuksak san'at, mahorat, iste'dod bilan davom ettirganlar.

IX-XII asrlarda Movarounnahrda madaniyat, ilm-fan, san'at va adabiyot Islom madaniyati yo‘nalishida rivojlandi hamda taraqqiy etdi. Bu davrda Ahmad al - Farg‘oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ismoil al-Buxoriy, At-Termiziy, Abdullo Ro‘dakiy, Abdulqosim Firdavsiy, Ahmad Yassaviy, Yusuf Xos Hojib, Najmiddin Kubro kabi yuzlab fozil-donishmandlar yashab, ijod qildilar. Zabardast daholar-jahon ilmi, madaniyati yulduzlari qoldirgan ulkan meros hanuzgacha o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Donishmandlarning falsafiy-estetik qarashlari ta'limotlar tarzida shakllanib, borliqni mushohada etishda, nafosat (estetik) qadriyatlarni baholashda, inson ma'naviy kamolotida ulkan ahamiyat kasb etadi.

Sharq allomalari musiqa ilmi rivojlanishiga IX-XVI-asrlarda, ayniqsa musiqa nazariyasi va musiqada shakllar masalasi muammolarini yechish borasida ulkan hissa qo‘shdilar. Musikashunoslik, uning nazariyasi va amaliyoti bilan shug‘ullanib ulkan tarixiy musiqiy-pedagogik meros qoldirdilar. Jumladan, X asrning buyuk qomusiy olimi, musiqashunoslik fanining ulug‘ kashfiyotchisi Abu Nasr al- Forobiy (873-950) bo‘lib, uning musiqa sohasida yaratgan ta'limotlari asosida Yevropa olimlari ham qator asarlar yaratganlar.

Abu Nasr Farobiy (to‘liq nomi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad Uzalik ibn Tarxon al-Forobiy) (milodiy 873 yil) da Shosh-Toshkentga yaqin Forob (O‘tror) degan joyda harbiy xizmatchi oilasida tug‘ilgan.

Forobda boshlang‘ich ta'limni olgach, Shoshda, Buxoroda, Samarqandda ta’lim olganligi haqida ma’lumotlar bor. Farobiy Bog‘dodda matematika, mantiq, tibbiyot, ilmi nujum, musiqa, tibbiyot, huquq, tishunoslik bilan shug‘ullangan. Avval O‘trorda, bo‘lib, so‘ngra Bog‘dodga borib unda falsafa, tibbiyot, musiqa fanlari bilan chuqur shug‘ullangan.

O‘rta asr falsafiy fikr taraqqiyoti mutafakkiri Abu Nasr Forobiy nomi bilan bog‘liq bo‘lib, uning inson kamoloti haqidagi ta’limoti ta'lim-tarbiya sohasida katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1 Shirinov T.Sh.. Tariximiz etyudlari. – Toshkent: "Sharq". 336-b.

2 . Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. –Toshkent: "O‘qituvchi, 1996. 13-b.

3. Mustafayev Baxtiyor Ibragimovich. "Некоторые вопросы развития профессиональных навыков учителя музыкальной культуры" Academy, no. 11 (62), 2020, pp. 47-50.

4.Nurullayev F.G., Nurullayeva N.K. Музыкально-историческое наследие центральной Азии (психологический настрой армии Темура). Психология XXI столетия, 18-20 марта 2020 года С. 115-118.

5.Nurullayev F.G. Мусина таълимида Бухоро фольклор кушикларига куйиладиган методик талаблар. Pedagogik mahorat, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal2020, 3-son. Buxoro. Б.175-180.

6. Nurullyaev F.G., Nurullayeva N.K. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся. Научно- методический журнал «Проблемы педагогики» №3(48). Москва 2020. С.15-17.

Xadicha SATTOROVA,
Nizomiy nomidagi TDPU
Boshlang‘ich ta’limda ona tili va uni o‘qitish metodikasi kafedrasi dotsenti

ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA QO‘LLANILADIGAN METODLAR

Annotatsiya: mazkur maqola boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida qo‘llaniladigan metodlar, ularning samaradorligi, o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga o‘rgatishdagi o‘rni borasida fikr-mulohazalarga bag‘ishlanadi.
Kalit so‘z va iboralar: *o‘qitish metodlari, o‘qituvchi, o‘quvchi, ijodiy fikrlash, didaktik o‘yinlar, interfaol metodlar.*
Аннотация: данная статья посвящена отзывам о методах, используемых на занятиях по родному языку и чтению в начальных классах, их эффективности и роли в обучении учащихся творческому мышлению.
Ключевые слова и фразы: *методы обучения, учитель, ученик, творческое мышление, дидактические игры, интерактивные методы.*
Annotation: this article is devoted to feedback on the methods used in primary grade mother tongue and reading literacy classes, their effectiveness, and their role in teaching students to think creatively.
Key words and phrases: *teaching methods, teacher, student, creative thinking, didactic games, interactive methods.*

Bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda dars rejasi (loyihasi)ni interfaol metodlar va axborot kommunikatsiya texnologiyalar asosida aniq va mukammal ishlab chiqish ta’lim jarayonini samarali tashkil etish va o‘quvchilarning o‘quv materialini o‘zlashtirish sifatini oshirishning muhim omilidir.

O‘qitish metodlari o‘qituvchining o‘quvchilar bilan muayyan maqsadlarga erishish yo‘lidagi faoliyatidan tarkib topgan bo‘lib, kimga nimani qanday o‘rgatish zarurligi haqidagi masalalarni ochib berishga xizmat qiladi. Shuning uchun o‘quvchilarning bilish faoliyatlarini faollashtirish va ularning mustaqil, ijodiy fikrlashlari uchun qo‘llaniladigan metod va usullarni mos ravishda tanlash kelgusida kadrlar tayyorlashda o‘z samarasini beradi. Ilg‘or pedagogik va didaktik o‘yinlar bolaning his-tuyg‘usiga ta’sir etib, unda o‘qishga ijobiy munosabat va qiziqish xislatini tarkib toptiradi. Bunda o‘quvchilarning dars jaraonida faol ishtiroki va o‘zlashtirish darajasi takomillashadi.

O‘quvchilar faolligini oshirishga metodlarni to‘g‘ri tanlab, o‘quv-bilish faoliyatini oqilona boshqarish yordamida erishiladi. Dars jarayonida “Aqliy hujum”, “Kichik guruhlarda ishlash“, “Charxpalak”, “Insert”, “Blits-o‘yin”, “Rezyume” kabi interfaol metod va didaktik o‘yinlar texnologiyalardan o‘rinli foydalansa dars samaradorligini oshiradi.

“Insert” strategiyasi metodi

Insert – bu o‘quv jarayonida o‘z anglashini faol kuzatish uchun o‘quvchilarga imkoniyat beradigan kuchli vositadir.

Maqsadi: o‘quvchilarni matnni oxirigacha o‘qib, mazmunni anglab qayta hikoya qilishga o‘rgatish.

Vazifasi: faol bo‘lmagan o‘quvchilarni darsga qatnashishlarini ta’minlash hamda qo‘shimcha ma’lumotlarga ega bo‘lish.

O‘quvchi matnni “Insert” strategiyasi metodidan o‘rganilganda quyidagi jadvaldan “Oltin kuz” mavzusida foydalanish mumkin.

“V” bilganlarimni tasdiqlaydi	“ + ” yangi axborot	“ - ” bilganlarimga zid keladi	“ ? ” meni o‘ylantirib qo‘ydi
“Oltin kuz” deb atalishini bilaman. Chunki kuz faslida tabiat oltin tusga kiradi...	Tuyoqli jonivorlar haqida ma’lumotga ega bo‘ldim.	Ko‘kqarg‘alar ham issiq o‘lkalarga uchib ketar ekan.	Tuyoqli jonivorlarga nimalar kiradi, ularning hayot tarzi bilan tanishtiring?

“Rezyume” texnologiyasi murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar muammoli mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda bir yo‘la mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha axborot beriladi. Ayni paytda ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Maqsadi: O‘quvchilarni erkin, tanqidiy fikrlashga, jamoa bo‘lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab taqqoslash uslubi yordamida mavzudan kelib chiqqan holda uning muammosini yechimini topishga o‘rgatish.

Vazifasi: O‘quvchilarni kerakli xulosa yoki qaror qabul qilishga, jamoaga o‘z fikri bilan ta’sir o‘tkazishga, uni ma’qullashga, shuningdek berilgan muammoni yechishda, mavzuga umumiy tushuncha berishda o‘tilgan mavzulardan egallagan bilimlarni qo‘llay olishga o‘rgatadi. O‘quvchilar asar qahramonlarining ijobiy hamda salbiy tomonlarini tavsiflab beradilar.

«Blis-o‘yin» texnologiyasi. Ushbu texnologiya o‘quvchilarni harakatlar ketma-ketligini to‘g‘ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o‘rganayotgan predmeti asosida ko‘p, xilma-xil fikrlardan, ma’lumotlardan kerakligini tanlab olishni o‘rgatishga qaratilgan. Maqsadi: Ushbu usul orqali o‘quvchilarga tarqatilgan qog‘ozlarda ko‘rsatilgan harakatlar ketma-ketligini avval yakka tartibda mustaqil ravishda belgilab, so‘ngra o‘z fikrini boshqalarga o‘tkaza olish yoki o‘z fikrida qolish, boshqalar bilan hamfikr bo‘la olishga o‘rgatish. Vazifasi: O‘quvchilarni mustaqil, mantiqiy fikrlashga, shu bilan bir qatorda, o‘zgalar fikrini hurmat qilish va ularga o‘z fikrini o‘tkaza olishni o’rgatadi. Ushbu texnologiya quyidagicha tashkil qilinadi.

O‘quvchilarga alohida-alohida tarqatma materiallar beriladi. Ular tomonidan yakka tartibda bajarilishi kuzatiladi, qiynalganlarga yordam beriladi, yoki qaytadan tushuntiriladi. O‘quvchilar tarqatilgan qog‘ozlarda ko‘rsatilgan savollar ketma-ketligini avval yakka holda, mustaqil ravishda belgilaydi, so‘ngra guruhlar bilan tahlil qiladi.

O‘quvchilar tarqatma materialdagi «O‘quvchilar javobi» bo‘limiga o‘zining shaxsiy fikri asosida javoblarni ketma-ketligini javoblar mazmunidan topib, berilgan savollar raqamlari bilan belgilab chiqadi. Bu vazifani bajarish uchun 10 daqiqa vaqt beriladi. So‘ngra o‘quvchi javobi bilan to‘g‘ri javob o‘qituvchi yoki guruhlar tomonidan taqqoslanib, tahlil qilinadi.

“Charxpalak” metodi o‘quvchilarni o‘tilgan mavzularni yodga olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to‘g‘ri javob berishga va o‘z-o‘zini baholashga o‘rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o‘qituvchi tomonidan barcha o‘quvchilarni egallagan bilimlarini baholashga qaratilgan. Maqsadi. O’quvchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o‘z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o‘zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlashga, ko‘p fikrlardan keraklisini tanlab olishga o’rgatish. Vazifasi: o‘quv mashg’ulotlarining barcha turlarida dars boshlanishi yoki dars oxirida yoki o‘quv predmetining biron bir bo‘limi tugallanganda, o‘tilgan mavzularni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki yakuniy nazorat o‘tkazish uchun foydalaniladi.

“So‘zdan so‘z yasash”o‘yini. O‘quvchilarning lug’at boyligini oshirishda, so‘z zahirasini orttirishda yordam beradi. O‘yinning sharti: O‘quvchilar 3-guruhga bo‘linadilar. Mavzuga oid bir necha so‘z yozib qo‘yiladi. So‘zdagi harflardan foydalangan holda, boshqa harf ishlatmasdan, o‘zgacha ma’noga ega bo‘lgan so‘zlarni topib yozish taklif qilinadi. Masalan: “Donishmand yigit” ertagida donishmand so‘zidan so‘zlar yasashadi. Masalan: ona, ish, don, shon, nish, dam, dada, nishon, mashina.

“Soat bilan do‘stlashaman, javobni darrov aytaman” o‘yini. O‘yin ishtirokchilarida millari harakatlanadigan soatning modeli bo‘lishi lozim. O‘qituvchi o‘quvchilarga o‘rganilgan asarlar mazmuni yuzasidan savollar beradi. Javoblar raqam bilan ifodalanishi kerak: o‘quvchilar soat millarini mos songa qo‘yadilar. Masalan: 3-sinf “O‘qish” darsligidagi Mahmud Murodovning “Olma” hikoyasi.

– Olmazorga nechanchi sinf o‘quvchilari borishdi? (3)

–Bolalar qo‘llariga nechtadan savat olishdi? (1)

–Qudrat ota har bir bolaga nechtadan olma berdi? (5)

–Sodiqjon bolalarning har biridan nechtadan olma oldi? (1)

Didaktik o‘yinlar bolaning his-tuyg‘usiga ta’sir etib, unda o‘qishga ijobiy munosabat va qiziqish xislatini tarkib toptiradi..

“Domino” (So‘z top) o‘yini. Bu o‘yin darsning kirish yoki mustahkamlovchi qismida o‘tkazilishi mumkin. O‘qituvchi matn ichidan biron so‘z aytadi, o‘quvchilar davom ettiradilar. O‘qituvchi boshlagan so‘z qaysi harfda tugasa, o‘quvchi shu harfdan boshlangan so‘zni matn ichidan topib aytishi kerak. Masalan: “Toshkent” (Erkin Malik) matnidan o‘qituvchi Toshkent so‘zini aytsa o‘quvchilar Taxtapul – Labzak – Ko‘lob – Balx – Xiva kabi so‘zlarni topadilar.

“Kim tez topadi?” o‘yini. O’quvchilar guruhlarga ajratiladi. O‘yinning sharti: Shunday so‘zlar topingki, ularning bosh yoki oxirgi harflari olib tashlansa ham, ma’lum ma’no bildirsin. Masalan: “Soy suvi haqidagi ertak” (Zohir A’lam) ertagida soy-oy, yo‘q – o‘q, boy – oy, odam – dam, qish – ish, yoz – oz so‘zlarini tez topadilar.

“Kuz ” matinini mustahkamlashda “Ha-yo‘q” o ‘yinidan foydalanadi.

“Ha-yo‘q” o ‘yini

Kuzda paxta teriladimi? (ha)
Kuzda qaldirg‘ochlar uchib keladimi? (yo‘q)
Kuzda yig‘im-terim ishlari boshlanadimi? (ha)
Kuzda havo soviy boshlaydimi ? (ha)
Kuzda yangi yil bayrami bo‘ladimi ? (yo‘q)
Kuzda sumalak pishiriladimi ? (yo‘q)
Kuzda hosil bayrami bo‘ladimi ? (ha)
Kuzda daraxtlar kurtak ochadimi ? (yo‘q)

Demak, ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida qo‘llaniladigan metod va didaktik o‘yinlar texnologiyalardan foydalanish o‘quvchining o‘rganish jarayonini jadallashtiradi, mustaqil fikr yuritish, vaziyatini tahlil qilish, xulosalar chiqarish, munozarada ishtirok etish, boshqa shaxslar bilan muloqotga kirishishga o‘rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dilshoda Jalilova Ural qizi, Shaxnoza Jalilova Ural qizi. MUAMMOLI TA’LIM – BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI IJODIY FIKRLASHGA O‘RGATISH VOSITASI SIFATIDA. “RAQAMLI TA’LIMNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ULARNI TA’LIM-TARBIYA JARAYONIGA TATBIQ QILISH YO’LLARI” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI 25-oktabr 2023-yil. 509-512-b. https://doi.org/10.5281/zenodo.10038453

2. D.Sh.Yakibova. DEVELOPMENT OF TECHNOLOGICAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 3 ISSUE 3 MARCH 2024 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ. 348-351p.

3. G.Boymurodova, X.Sattorova va b. “O‘qish” 3-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma. – T.: “Sharq”, 2016. 240-b.

4. Sh.U.Sariyev, G.U.Raxmanova. O‘zbek adabiyotini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiya usullarini qo‘llash. – T.: Science and innovation, 2022. 531-533-b.

Oqiljon MAVLONOV,
Farg‘ona viloyati
O'zbekiston tumanidagi
16-maktabning ona tili va
adabiyot fani o‘qituvchisi

“QARO KO‘ZUM” SHARHIDA YANGILIKLAR BOR

(Adabiyot muallimlari uchun tavsiya)

Annotatsiya: ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Qaro ko‘zum” g‘azalini maktab o‘quvchisiga o‘rgatish usullari, g‘azal mazmun-mohiyatini tushunish va Alisher Navoiy dahosini anglash kabi jihatlar tahlilga tortilgan. Boshqa navoiyshunos ustozlarimizning tahlillariga qo‘shimcha tarzda yangi fikrlar ham qo‘shildi.

Kalit so‘zlar: *“Qaro ko‘zum” g‘azali, mardum, “vatan qilg‘il”, g‘amzada, rasan, hino.*

“Izlagan-topadi”, deganlaridek bugungi maqolamizda hazrat Navoiyning ,,Qaro ko‘zum” g‘azali borasida suhbatlashishni niyatladik. Ushbu ,,g‘azal ilm-ma’rifatda eng ko‘p va har tomonlama chuqur tadqiq etilgan badiiy asarlardan biridir”. (N. Jumayev) To‘g‘ri, bu g‘azalni bizga qadar o‘nlab mutaxassis-navoiyshunoslar tahlil qilishgan. Ularning har biri ham qaysidir jihatlari bilan shu g‘azal talqinlari aro navoiyshunoslik uchun bebaho sharhlardir. Muxlis sifatida shoir devonidagi g‘azallarni o‘qir ekanman, shu g‘azal borasida yana aytilishi lozim mulohazalar bordek tuyulaveradi… Mana hozir ikkinchi devondagi 530-g‘azalni qayta o‘qir ekanman mavjud sharhlarga yana nimadir qo‘shish zaruriyatini his qila boshladim. Shu kungacha qilingan tahlillarda ikkita savol oxirigacha o‘z javobini to‘liq topmay kelmoqda: 1. Qorako‘z nega oshiq ko‘zi gavharida vatan tutmog‘i lozim? 2. Qora ko‘zli yor nega mardumlig‘ qilmog‘i kerak? O‘qiyotganim g‘azalning ikkinchi bayti shu:

Chehrasiga miyzbon o‘lsun ko‘zum, ul chehrani,
Ko‘zlarim uyidan o‘zga uyga mehmon aylama.

Mana shu baytning ikkinchi misrasini ikki-uch qayta o‘qing-da, so‘ng “Qaro ko‘zum” maqta’sining ikkinchi misrasini ham qayta o‘qing:

Ko‘zum qarosida mardum kibi vatan qilg‘il.

Ana endi har ikki misrani so‘zma-so‘z solishtirib boraylik: “Ko‘zum qarosida” – “Ko‘zlarim uyida”, “mardum kibi” – “o‘zga uyga” (o‘zga mardumga), “vatan qilg‘il” – “mehmon ayla”(ma). Mana barchasi kundek ayon bo‘ldi-qoldi. Demak: “Ko‘z qarosida mardum kibi vatan qil”moq: ,,Ko‘zlar(im) uyi (gavhari) dan o‘zga uy(qorachiq)ga mehmon aylama”slik ekan. Shu qadar jo‘n, shu qadar oson ekan barchasi.

Voqean, o‘zi ma’shuqa chehrasiga “miyzbon

bo‘lmoq” iborasi ham mantiqan yor ko‘zi qorasi (lavhi) da “vatan tutmoq” ma'nosini berish uchun qo‘llanayotgani oydek ravshan. I-437-g‘azalda esa shoir “Ko‘zimda ul oy mardum o‘rnini tutdi” deyishgandi. O‘ylab qarasak, oshiqning: “Chehrasiga miyzbon o‘lsun ko‘zum” (ul chehrani) degan visol ilinjining yana bir ma’noviy muqobil variant ifodasi: “Ko‘zum qarosida mardum kibi vatan qilg‘il,” – bo‘ladi. Avvalgisida oshiq o‘z siymosini yor ko‘zi lavhidan o‘rnini tutishini istayotgan bo‘lsa, keyingi holatda esa uning ziddi: oshiq endi o‘z ko‘zi qarosida Yor chehrasi suvrati naqshlanib vatan tutmog‘ini xohlamoqda.

Kuzatishimizcha, “ko‘z uyi”, “ko‘z lavhi”, “mardumlar ichi”, “mardum o‘rnini tutmoq” (mardumak, qarog‘) singari birikmalar shoir ijodida uchrab turuvchi timsol. II-578-g‘azalda quyidagicha:

(Ko‘nluma xoling xayoli kirsa mardumluq qilib,)

Ko‘z uyida ani mardumlar ichinda asratay, -tarzida kelgan. Diqqatga sazavori bu misrada: “ko‘z uyi” ¬¬¬– “mardumlar ichi” shaklida so‘z o‘yini yuzaga kelmoqda. Har ikki g‘azal (II-530-, 578-) da ham “ko‘z uyi” birikmasi va “mardumlar ichi” mazmunan “vatan tutmoq” birikmasi o‘rniga qo‘llanmoqda. Hatto, 578-g‘azal misrasidagi “mardumlar ichinda asratay” so‘z birikmasi “mardum kibi vatan qilg‘il” birikmasining aynan birga-bir ma’noviy takror ko‘rinishi ekanligi yaqqol ayonlashmoqda. Bu misrani ham solishtirsak: “Ko‘z uyida” — “Ko‘zum qarosida”, “mardumlar ichinda” — “mardum kibi”, “ichinda asratay” —“vatan qilg‘il” , (“ani” — yor xolini) bo‘ladi. Demak, “Qaro ko‘zum”dagi bu bayt tahlili uchun juda tagdor, jimjimador izohlarga hojat yo‘q ekan… Shunchaki oshiq yigit o‘z sevimli qiziga: “Ko‘zum qarosida mardum kibi vatan qilg‘il”, ya’ni: “ Ko‘zlarim uyi (qarog‘i)dan o‘zga uy (gavhar) ga mehmon aylama” (vatan tutma)g‘il, yoki “Ko‘z uyida ani (chehrangni) mardumlar ichinda asratay” deyapti ekan xolos. Bu har ikki misra “Qaro ko‘zum” g‘azali 2-misrasining aynan birga-bir ma’noviy takror muqobil ifodasi ekanligi isbotlanmoqda.

Endi 2-savol: Qiz nega mardumlig‘ ko‘rsatmog‘i zarur? Shoir ijodida Yorning ikki ko‘zi oshiqqa ikki xil: biri: ishvagar va nozli, qiyo boquvchi va sehrgar, sho‘x va g‘amzali; ikkinchisi esa: yaxnigoh va qotilvash, mardumkush va badfe’l, qattol va zulmkor munosabatda bo‘lishi borasidagi tasvirlar mavjud baytlarning guvohi bo‘lamiz… G‘azallarda ishq yo‘lida yor nozidan ko‘ra jafokorligi ko‘p qayd etiladi… Albatta, shunday vaziyatda g‘amzada oshiq manzurdan niyozmandlik qilib oh-u zor qilish yo‘lidan emas, mardumlig‘ shevasidan borishni tanlaydi va mahbubani ham shu yo‘lni fan qilmoqlikka chaqiradi.

Qaro ko‘zum, kel u mardumlig‘ emdi fan qilg‘il!

Endi II-578-g‘azalning 6-baytiga o‘tamiz:

Ko‘nglima xoling xayoli kirsa mardumluq qilib,

Ko‘z uyida ani mardumlar ichinda asratay.

Ko‘ryapsizki bu baytda mardumlig‘ borasida ma’shuqqa oshiqning o‘zi ibrat namunasi ko‘rsatmoqda…

Keling shu baytni manzuraga nisbatan shartli shunday qo‘llaylik:

Ko‘zungga yuzum xayoli kelsa mardumluq qilib,

Ko‘z uyi (ng) da ani mardumlar ichinda asrat (gin).

Mana ,,…mardumlig‘ emdi fan qilg‘il“ning oshiq orzulayotgan ma’nisi to‘liq ochildi. Misradagi bu “mardumlig”ni insoniylik, odamgarchilik, marhamat, mardumdorlik, muloyimlik, ma’shuqaparastlikmi, nimaiki ezgulik deb bilaylik. Xullas, yaxshilig‘ qilmoqlik shevasida qo‘llanmoqda… Demak, oshiq yorni mardumlig‘ faniga chaqirish orqali kofirlik, jallodlik, qotilvashlik, xunxo‘rlik kabi illatlarni tashlab odamiylik, odamoxunlik, mardumafkandlig‘, mardumdorlik yo‘lini fan etmoqlikka chorlamoqda. Ko‘rinadiki, shu asoslarga ko‘ra yor ham bu chaqiriqqa javoban mardumlig‘ qilmog‘i lozim ekan…

Shoir I-238 – g‘azalda yozadilar :

Oshiq [Navoiy] ko‘zlaring mardumidin javri qon to‘kdi,

Darig‘ ul sho‘x mardumkushki , mardumdorlig‘ istamas.

So‘zsizki, yor mardumkushligidan ashki qon to‘kayotgan oshiq qattol sho‘x dilbardan bir zorlig‘u bir yorlig‘ istab, g‘amzada bedorligiga g‘amxo‘rlig‘ istab, mardumlig‘ (muloyimlik) shevasi bilan bir dildorlig‘ istab undan “emdi” — bundan buyog‘iga “mardumlig‘” “fan qil”mog‘ini so‘ramoqda: Qaro ko‘zum , kel-u emdi mardumlig‘ fan qilg‘il!

“Emdi”si ham bor… Ya’ni: yetar shuncha jabr-u jafo… Dard-u g‘amdan bezillab qolgan g‘amzada oshiq qahri qattiq yordan mardumlig‘ talab qilishi tabiiy hol.

Qaro ko‘zim , mardumlig‘idin o‘zgasin fan sa’ylama,

Ko‘zlarim uyidan o‘zga uyga mehmon aylama.

Muxlis to‘liq tushunmog‘i uchun haddim sig‘ib hazrat baytiga bir misra qo‘shib ham yubordim…

Shoir ijodida, ko‘z qarog‘i – mardumakni “ko‘z uyi” deb nomlashdan tashqari “ko‘z ichra”, ”mardumlar ichi”, “ko‘z lavhi”, “vatan” deb atash hollarini ham kuzatamiz . Masalan, I- 504 –g‘azalda :

Qaro menging bila qading xayoli kelsa , vatan

Munga ko‘z ichra yasay, anga jon aro qilayin, -deydilar .

Mana shu baytdagi “menging” so‘zi o‘rniga shartli “ko‘zing” so‘zini qo‘yib ko‘ring-a:

Qaro ko‘zing bila qading xayoli kelsa,vatan

Munga ko‘z ichra yasay, anga jon aro qilayin…

Demak, shoir bu baytda: “ko‘z ichra” deganlarida “ko‘z gavharida”, “ko‘z mardumida” yoxud “ko‘z ichra”, ya’ni: “ko‘z uyi” (qorachig‘i)dan o‘rin – vatan qilayin, demoqdalar. Yuqorida ta’kidlaganimdek: “Ko‘z qarosida mardum kibi vatan qilmoq: ,, Mun (yor timsoli) ga ko‘z ichra” … vatan yasamoq ekan. Bu misradagi “vatan” so‘ziga juda dabdabali izohlar berib yotishning

ham aslo hojati yo‘q ekan… Barchasi oddiy, barchasi navoiyona tashbehlar xolos… Alhosil, kuzatilgan iqtiboslardan chiqib kelib: “Ko‘zum qarosida mardum kibi vatan qilg‘il” misrasiga alternativ – muqobil, ma’nosi birga-bir mos keluvchi ifodalar shoir lirikasida mavjud ekan… Yuqorida eslaganimiz 578-g‘azalning 6-baytidagi “Ko‘nglima xoling” birikmasi o‘rniga “Ko‘zima jamoling” birikmasini shartli qo‘yib o‘qib ko‘rsak:

Ko‘zima jamoling xayoli kirsa mardumluq qilib,

Ko‘z uyi (m) da ani mardumlar ichinda asratay, – hosil bo‘ladi, ko‘rinadiki, ikkinchi bor yana shu narsa o‘z isbotini topmoqdaki: “Qaro ko‘zum, kelu mardumlig‘ emdi fan qilg‘il” misrasi “Ko‘z uyi(m)da ani mardumlar ichinda asratay” misrasining aynan birga-bir ma’noviy muqobili ekanligi ochilmoqda… Xulosa shuki, shoir o‘z g‘azallarida bir fikrni turlicha yo‘sin, turlicha ifodaviy usul, turlicha tashbehlar orqali ifodalash imkonlaridan umumli foydalangan ekanlar… Barcha savollarga javob shoirning o‘z bisotlarida mavjud ekan. Faqat muxlis sabr bilan, devonlarni sinchkovlik bilan mutoala qilmog‘i lozim kechadi.

Ey Navoiy , ul paridin odamiylig‘ (mardumlig‘) ko‘rmasang,

Ayb emas, ul hurdur yoki malak, inson emas .. (1-209-g‘.)

Demak, mardumlig‘i yo‘q yor yo hur, yo malak ekan... Bu yerda ulug‘lanayotgani yo‘q... shunchaki qiyoslanmoqda. Sabab: malak va hurlar “mardumlig‘ fani”dan mosuvo. Ularda odamgarchilik (“inson emas”) munosabatlari mavjud emas. Mana, gap qayerda ekan... Mardumlig‘i yo‘q yor — odamiyligi bo‘lmagan hissiz pari paykar ekan... Demak, shoir “Ey pari paykar, (odamiylikka begonavash xilqat) qani sen bashariy odob — mardumlig‘ni fan qilsang-u, so‘ng “ko‘zum qarosida mardum kibi, (mardumvash qiz yanglig‘) vatan tutsang” edi deyishmoqda ekanlar. Demak, oshiq “ko‘zi(m) qarosida mardum kibi vatan qil”mog‘i – “mardum o‘rnini tut”mog‘i uchun Yor yigit “chehrasiga mezbon bo‘l”mog‘iga to‘g‘ri keladi.Vaziyatan oshiq va ma’shuq ro‘parama-ro‘para kelmog‘i, “ul chehrani ko‘z lavhida tasvir et”mog‘i lozim kechadi. Zamonaviy holati: yuzma-yuz uchrashib ko‘z mardumagida “ul chehra” siymosini gavdalantirmoqqa, ya’ni “ani ko‘rmakka bu surat bilan tadbir et”mog‘i ekan. Taraddud maqsadi: Ko‘zum qarosida mardum kibi vatan qilg‘il, – ekan.

Ey ko‘zlari shamchiroq, Ey so‘zlari qo‘ng‘iroq
Suydirishni o‘rganding , Kuydirishni o‘ganding...
Mardumlig‘ni ham o‘rgansang
Kel,bugun bir yuzma-yuz ko‘rishaylik, – ekan...

Dabdabasiz, navoiyona mulohazalarimizga qo‘shilsangiz,bori shu...

Demak, Ko‘zum qarosida mardum kibi vatan qilg‘ilning ziddi: “Chehrasiga miyzbon o‘lsun ko‘zum, ul chehrani” misrasi ekan.

Necha ul chehra(yor)ni ko‘z lavhi (mardumi)da tasvir etayin,

Ani ko‘rmakka bu surat(mardum o‘rnini tutmoq) bilan tadbir etayin. (11-487-g‘.)

Mana, yana bir yor “chehrasiga miyzbon o‘lmoq”ning navoiyona yechimi…Ko‘z lavhida yorni tasvir etmoq — oshiq ko‘z qarosida ma’shuqaning suvratini naqshlamoqning bir tadbiri ekan. Barchasi oddiy, barchasi naviyona ifoda usuli ekan… G‘azalning ikkinchi bayti quyidagicha:

3-bayt: Takovaringga bag‘ir qonidin hino bog‘la ,
Itingga g‘amzada jon rishtasin rasan qilg‘il .

Takovar – tilimizdagi ot (hayvon)dir. Navoiy davrida otlar fe’li, rangiga qarab; samand (uchqur ot), abrash, ablaq (qashqa ot), tavsan (o‘jar ot), takovar (jangovor yo‘rg‘a) , raxsh (qizil yugirik ot) kabi nomlar bilan atalgan. Voqean, birinchi devondagi 83-g‘azal to‘liq otga bag‘ishlangan. Demak, takovar maxsus o‘rgatilgan jangovar ot ekan.

Bag‘ir qoni birikmasi nutqimizda deyarli yurak so‘zi bilan qo‘shalashib qo‘llanadi: “yurak- bag‘rimni xun qilding”, “yurak-bag‘rim qonga to‘ldi”… singari. Amalda yurakning ham, bag‘irning ham vazifasi qonni haydash, tozalash haroratni saqlash. Ishq dardi o‘zining haddi a’losiga chiqqan oshiq bag‘ir hirqatidagi o‘tlug‘ xunni yor oti uchun hinoga berishga ham shay. Bu kamlik qilsa : “Azob-u iztirobdan bezovta jonni qachongacha jismimga bog‘lab o‘tiraman, shu g‘amzada jon ipini itingga rasan qila qol”, demoqda.

It timsoli ham eng qadimiy an’anaviy obrazlardan. U sodiq do‘st, ba’zan raqib, ba’zan rafiq timsollarida ko‘zga tashlanadi. Shoir to‘rt devonidagi ikki yuzga yaqin it obrazlari o‘zida turlicha motivlarni ochiqlaydi. Ikkinchi devondagi 595-g‘azal esa to‘liq it timsoliga bag‘ishlangan.

G‘amzada, u ikki o‘zak g‘am va zadadan iborat. G‘am – tashvish, g‘ussa hajr, ayriliq, ishqiy dard, muhabbat azoblari. Zada – darddan bezillab qolgan, yurak oldirgan; azoblangan jonga nisbatan qo‘llanuvchi sifatlovchi so‘z.

Rishta – ip, rishtai jon – jon ipi. Inson joni uning vujudiga bog‘langan bo‘ladi, deyilgan qadimiy qarashdan yuzaga kelgan ibora. Hozir ham biror kishi vafot etsa, “joni uzildi” deyishadi. Go‘yo o‘sha tugun yechildi …

Rasan – bo‘yinbog‘, zanjir, chilvir, arqon ma’nosidagi so‘z. Shoir ijodini kuzatsak, qizil rang tasviri juda ko‘p qo‘llanadi: lolagun, gulrang, maygun, gulobrang kabi. Shularga qiyosan yor labi la’lga, oshiq qoni hinoga tashbehlanadi.

Hino – O‘rta Osiyo ko‘hna sharq xalqlari qadimdan mushk-u anbar va hinodan foydalanib kelishgan. Shoir o‘z she’rlarida ko‘p o‘rinda hino so‘ziga murojaat qiladi. Bundan ko‘rinadiki, turkiy xalqlar tarixida hino bilan bog‘liq udumlar juda qadimiy odat ekanligi.

3-baytning nasriy bayoni shunday bo‘ladi:

“Ey qaro ko‘zligim , sen nozu karashmang

orqali va qizil rangga o‘chliging boisidan (xunxo‘r) bag‘ir qonimni istayotgan bo‘lsang ola qol, bosh ustiga. Qonni olding, endi jonni ham olish uchun g‘amzada jon ipimni sug‘irib iting bo‘yniga mushkin maras (bo‘yinbog‘) qila qolgin!” Hazrat aytganlaridek:

Jonni oti oyog‘ig‘a dedim nisor aylay yo
Jon nisor ul sayd uchunkim, jon ang‘a qilg‘ay nisor.

G‘azalning keyingi bayti ifodasi quyidagicha:

Yuzing visoliga yetsun desang ko‘ngullarni ,
Sochingni boshtin- ayog‘ chin ila shikan qilg‘il .

Endi 5-baytdagi timsollarga bir-bir to‘xtalsak, dastlab yuz haqda. Biz siz bilan yuz timsoli borasida yuqorida gaplashgandik… Demak, yuz – husni jamol oinasi, go‘zallik va tajalli mazhari, qiz chehrasi.

Ko‘ngullar – ko‘plik sonda qo‘llanilayotgan bu so‘z bir oshiq ko‘nglini emas, bir qancha, sanog‘i aniq bo‘lmagan ko‘ngillarni ifodalamoqda. Bu yorga, bitta emas, ko‘plab ko‘ngillar oshufta demoqchilar. Birlik sondagi ko‘ngil esa – oshiqning ma’naviy olami, sevimli ma’shuqa ilinjidagi qalbi, jussa hojasi, irfon qutisi, tajallli ko‘zgusi.

Chin: rost, to‘g‘ri (o‘zbekcha); o‘ram, bukum, halqa-halqa (forscha ma’nosi) Shikan : 1 Pechu tob, qat-qat bo‘lish, o‘ram-o‘ram, zanjirsimon shakl olish. 2 Iskanja, azob. (Najmiddin Komilov ustoz izohlaridan.)

Zulf – yor sochi. She’riyatda: zanjir, arqon, tuzoq, tun, oqshom, o‘tkinchi dunyo; ilon, qorong‘ulik, bepoyonlik, kamand singari ma’nolarda qo‘llanuvchi timsol. Husni jamol nishonasi, tajalli olami, qiz ko‘rki.

Ishq dardidan g‘amzada oshufta ko‘ngulning yagona orzusi visol. Oshiq vasl istagani bilan ma’shuq noz-u istig‘no sabab bunga imkon bermasa, olamda yo‘q bunday mushkul hajr.

“Ey g‘amzada ko‘ngul, senga kerak vasl, yo‘q hajrida chunki zor sendek”, deganlaridek endi ko‘ngillarni yor yuzi visoli qiynomoqda. Ko‘ngillar yor yuzi visoliga yetishlari uchun markab – ulov zarur. Navoiy yechimiga ko‘ra bu markab “chin –u” “shikan”larga bisyor bo‘lgan yorning bir quloch sochlaridir.

Yuzin (visolin) istasang (ey oshiq) qochma zulfi fikridin ,
Kim seni istar aysh (vasl) ning ummidi bu qayg‘uda bor…

Ana endi shu bir quloch grih-grih silsilali kamandlar bo‘ylab ko‘ngil xoklari Yor visoliga yetmoq uchun ko‘tariladilar…

Nasriy bayon: “Ey yor, ko‘ngul (oshiq)lar yuzing visoliga erishsin desang, zulfing zanjirsimon grih (tugun)larini halqa-halqa qil. Shunda oshiqlaring qalbi xoklari bu ikki quloch kamanding “chin”u “shikan”lari “zinapoyasi” aro yuzing jamoliga uruj (ko‘tarilish) aylaydi’’.

Nabatdagi bayt: Xazon sipohiga, ey bog‘bon, emas mone’,
Bu bog‘ tomida gar ignadin tikan qilg‘il .

Baytdagi obrazlar quyidagilar:

– xazon sipohi – o‘z ma’nosida: kuz fasli, xazonrezgi davri kirishi; ko‘chma ma’noda: inson umrining quvvatsizlanib, yuzlar sariq tus olib, umr faslining zimistoniga yo‘l olish pallasining boshlanishi;

– bog‘bon – bog‘ egasi, uni parvarishlovchi kishi; yorga nisbatan – oshiq; mahbuba ko‘zda tutilsa, manzurning o‘zi, o‘z tanasiga murabbiyligi;

– igna-yu tikan – qadar va qazoga qarshi yurmaslik, muhofazakorlik hamda ehtiyotkorlik hushyorligi.

Bizningcha, bu baytdagi so‘zlar ramziy ma’noda qo‘llanmoqda. Shu sabab uni birlamchi ma’nodagi bog‘ egasi (sadovnik) deb emas, balki **ramziy bog‘** – vujud egasi, oshig‘i (lubovnik) yoki o‘z jismining tarbiyalovchi – murabbiysi (boy qiz, ma’shuqa) ma’nosida anglash zarur.

Endi nazmiy iqtiboslarga murojaat qilamiz:

Yilda besh – o‘n kun o‘ldi nihol uzra gul, valek,
Gul keldi to‘rt faslda **qadding niholida.** (ey Yor)

Husn bog‘inda ko‘rub **zulfu qaddingni** bog‘bon (oshiq)
Chekti xijlat sunbulu sarvi xiromoni birla.

Chun **husn bog‘i** vafosizdur , ey guli ra’no, (Yor)
Qil iltifot gohi andalib (oshiq) lar sori.

Bog‘ aro ruxsori qadding jilvasin to ko‘rdilar,
Bo‘ldi obi tobsiz gulbargi ham, shamshodi ham.

Ko‘rinyaptiki, ushbu baytlarda gap umr fasllari haqida bormoqda. Yor qaddi qomatini ulg‘aytiradigan “o‘rin” – “go‘sha” bu husn bog‘i ekan. Demak, shu bog‘i husn: tana, vujud, jism bog‘boni esa mantiqan manzur (qiz) ning o‘zi yo oshiq bo‘ladi-da, shubhasiz.

Qomatingdek bog‘i husn ichra yoq sarvi ravon,
Orazingdek xud qoni sarv uzra arg‘uvon.

Yuqoridagi qarashlarimizga asosan nasriy bayon: **“Ey umrining bahori faslida davron surayotgan nozanin! Endi oshiqlaring niyozmandligini tan olib o‘z fitna-yu ishvang, noz-u istig‘nongni kamaytirib mardumafkandlig‘** (mardlik) **qilib, mardumkushlik** (oshiq qotillik)**dan tiyilib, mardumdorlik** (muloyimlik) **shevasini tutsang bo‘lardi.** “Bahor ayyomin besh kun g‘animat angla”b, **o‘zingni me’yorsiz kerakli qilishdan xorimadingmiki, bu husn bog‘i tomida muhofazakorlik** (igna-yu tikan)**dan ,,devor” qursang ham, qadar va qazo hukmini hal etolmaysan. Chunki** kajraftor falak-da”, – demoqdalar bobomiz.

7-bayt:

Yuzida terni ko‘rib o‘lsam , ey rafiq, meni
Gulob ila yuvu gulbargidin kafan qilg‘il.

Misradagi dastlabki obraz Yuz ekan. Bu timsol borasida yuqorida atroflicha gaplashdik. Yuz – yor jamoli, sevikli manzur husni, qizning guldek chehrasi.

Keyingi so‘z ter ekan. Ter timsolining **xay, gulob, aroq** kabi sinonimlari bor. **Ter** – o‘zbekcha, xay – forscha, aroq – arabcha so‘z. Navbatdagi “ko‘rib olsam” so‘zi. Shoir lirikasida “o‘lmoq” juda ko‘p va qayta-qayta qo‘llanuvchi ramziy so‘z. U “hayratda

qolmoq, qotib qolmoq, sir bosmoq, ishq karaxti, tan bermoq, ilkis ajablanish, yor suroni, kutilmagan ishva va noz hayrati” kabi ko‘plab ma’nolarda qo‘llanuvchi obraz. Navoiy ijodida Yor yuzidagi hayo, uyat, xijolat va sharmdan balqigan terdan hayajonlanib, “o‘lib qolish” tasvirlari bisyor…

Gulob – gulning gulqatlari (qizil, sariq, oq va boshqa)dan maxsus sharoitda olinadigan xushbo‘y va shifobaxsh suyuqlik.

Rafiq – do‘st, sirdosh, bir-birlarining ishqiy munosabatlaridan xabardor bo‘lgan o‘rtoq.

Gulbarg – g‘unchalar ochilgach turli xil rangda ochilib yetiluvchi gulyaproq (novdadagi yashil bargi emas)lar jami to‘plami, qat-qat taxlami.

Kafan – mayyit (o‘lik)ga oq surpdan maxsus o‘lcham va shaklda tayyorlanib o‘raluvchi so‘nggi ,, kiyim’’ obchin yo bulg‘ori matosi. Endi iqtiboslarni kuzataylik:

Qatra xaylar ichra ul orazni ko‘rdim, **ey rafiq,**
O‘lmagim ermas ajabkim, suvga tushti axtarim .

Mumtoz adabiyotda Yor yuzini xijolat-u hayo, uyat-u sharm sabab ter bosish tasvirlari ko‘p uchraydi.

Xijlat (hayo) dan ne **ter**larki kavokibdin oqizib,
Oy ko‘rdi chu xurshidi jamoling **araq** ichra.

Mana shunday ter guvohi bo‘lgan oshiq ringdagi boksyor kabi nakautga – ishq falajiga uchrab **“o‘lib” qolishi** tasvirlari ham ko‘p. Endi uni ,,gulob ila yuvib” gulbargdin “kafanlsh” lozim bo‘ladi, vaziyatiga ko‘ra…

Gulobxonadagi gul kibi solib jismi,
Qilib **gulob** kibi **terning** o‘rtasida shinoh (suzish).

Oshiq o‘zicha mayyitini ana shu shifobaxsh va xushbo‘y gulob ichida suzayotgandek his qilmoqda. Inson yuvingach, momiq sochiqqa artingandek oshiq rafiqdan o‘z mayyitini gulobxona qozonidagi **bahmaldek gulbarglar ko‘rpasiga o‘rashlarini so‘ramoqda.**

Nasriy bayon: **“Yor yuzida hayo hayajoni va xijolatdan baliqiyotgan terlarni ko‘rib o‘lsam, ey rafiq, tanimni lolagun gulobga yuvib, bahmaldek qulbarg (gulqat)lardan kafan qiling.”** Bu o‘limni 427-g‘azaldagidek real o‘lim tasviri deb emas, mubolag‘ali, bo‘rttirilgan, vahimalantirilgan **ramziy o‘lim** deb anglamoq o‘rinli bo‘ladi. Shoir ijodida “may bila yuvib” so‘ng kafanlashlarini so‘rash hollari mavjud:

Mast agar mayxonada **o‘ldum** meni, ey do‘stlar;
May bila yuvib bog‘langiz na’shim belin tokdin. (11-467-g‘.)

Maqta’: Navoiy anjumani shavq jon aro tuzsang,
Aning boshog‘lig‘ o‘qin sham’i anjuman qilg‘il.

Anjumani shavq – oshiq ko‘nglidagi yorga ishtiyoqning avji, manzurga yetishish istak-orzusining ifodasi.

Jon aro – so‘fizmga ko‘ra ruh va tana o‘rtasidagi taxayyuliy (xayoliy) “suhbat” va ,,sirlashish” tuni.

Boshog‘lig‘ o‘q – sham’i anjuman – o‘tkir tig‘li, o‘tkir nuk (uch)li kamon novaki (o‘qi). Majozan yor kiprigi ham. Ushbu baytdagi “boshog‘lig‘” so‘zi bu joyda bug‘doy boshog‘ini emas, yoy o‘qi – novakni ifodalamoqda. Dalillarga murojaat qilaylik:

O‘qung teshmaki ko‘nglumni bas emas erdikim ,
Boshoq istarga dog‘i tiyg‘i ila har sari yorub .
Ko‘ngulga oncha o‘qungdin o‘kuldi **paykonim,**
Boshoq bila bu balo mazraida xirmondur .

Zahm aro qolgan ul **boshoq** jonimg‘a yetmish , ey rafiq ,
Rahim etib tangri uchun chek dog‘i **paykonim** chiqar .

Ushbu iqtiboslardan ko‘rinmoqdaki shoir **boshoq** so‘zidan **kamon o‘qi** ma’nosida foydalanar ekanlar. Navoiy yana bir o‘rinda yorning momiq fatilali boshog‘i ko‘ngil yarasiga malham bo‘layotganini ta’kidlayotganlarida ham “boshoq” so‘zidan yoy o‘qi yo nazar o‘qi ma’nosida foydalanganlarini kuzatamiz:

Bir uchig‘aki momuq chirmalibdur **boshog‘ing,**
Ko‘ngul yarasig‘a bo‘lmish fatilaliq marham .

Shoir ijodida oshiq qalbiga ketma-ket otilgan yor paykonlari tasviri yoki bitta o‘q o‘tsa, yana o‘tishini so‘rab yalinish, chunki “keyingi o‘qing avvalgisini mahkamlaydi-da”, mazmunidagi oshiq iltimoslari ko‘p uchraydi . Yor kiprigi boshoqlari – “qaysiki to‘g‘ri yurakka borib qadaluvchi” (N. Komilov) paykonlar tasviriga oid baytlar ham anchagina:

Kimgakim **kiprik o‘qing** yo‘qdursa ul gul rashkdin ,
Jismim ichra bir tikondur har sari mujgonida.
Chekti saf **kiprik**laring ko‘nglim sipohi ollig‘a ,
Sindirur yuz qalbni lekin alarming **sonchishi.**
Rishta jonimdin ochqay **no‘gi mujgoni grih,**
Har birini qatlimg‘a yo‘lkim neshi po‘lod aylagay .
Vah , ne qotillardurur **saf –saf aning mujgonikim,**
Har yumub ochquncha ko‘z zohir qilurlar bir masof .

Vahki bir badmehr (mujgon) **o‘qi jonimg‘a parrondur yana ,**
Tiyra ko‘nglum kulbasining **sham’i paykonidur yana.** (548g‘.)

Biz bu so‘nggi maqta bayt nasriy bayoni uchun ustozimiz Najmiddin Komilov sharhini o‘rinli deb topdik: **,,Ey oshiq [Navoiy], agar jon ichra shavq – hayajonli rag‘bat majlisni tuzmoqchi bo‘lsang, yor kiprigi – o‘qini shu majlising sham’i qil”. “... yor diydori orzusi yuragingni band etib, zo‘raysa, to‘lib toshsang, uning mujgonini shu orzu avjining chirog‘iga aylantir, ko‘nglingni uning muhabbati sham’i bilan yorit”**. Bil kull tamom.

Shavq tuni ul oy xayoliddin buzug‘ ko‘nglum yorur ,
Go‘shai vayrona(m)g‘a bastur **partavi mahtob sham’**. (293-g‘.)

Muhabbatxon BAKIYEVA,
“UNIVERSITY OF ECONOMICS AND PEDAGOGY” NOTM
PhD, dotsenti

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIGA TA’LIM-TARBIYANI TASHKIL ETISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING PEDAGOGIK TA’LIMOTLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada Sharq mutafakkirlarining pedagogik ta’limotlari va qarashlarida tarbiyaning ma’naviy, axloqiy negizlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *ta’lim, tarbiya, ijtimoiy ong, hadis, ensiklopediya, oliyjanoblik, fidoyilik, rivojlanish, mehnatsevarlik, hikmat, bilim, ma’naviy yuksalish.*

Annotation: this article discusses the spiritual and moral foundations of education in the pedagogical teachings and views of Eastern thinkers.

Key words: *education, upbringing, social consciousness, hadith, encyclopedia, nobility, dedication, development, hard work, wisdom, knowledge, spiritual growth.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются духовно-нравственные основы образования в педагогических учениях и взглядах восточных мыслителей.

Ключевые слова: *образование, воспитание, общественное сознание, хадисы, энциклопедия, благородство, самоотверженность, развитие, трудолюбие, мудрость, знания, духовный рост.*

Tarbiya – ijtimoiy ong ko‘rinishlaridan hisoblanib, shaxsda halollik, poklik, burch, vijdon, oliyjanoblik, fidoyilik kabi fazilatlarni shakllantiradi. Tarbiya insonlarning o‘ziga, oilasiga, yaqinlariga, do‘st-u yorlariga, atrofdagilariga bo‘lgan munosabatlarini tartibga solib turadigan xulq-atvor me’yorlarining majmuasidir. Tarbiya qadimdan ongimizga, qalbimizga singib kelgan, millatimizning o‘ziga xosligini ko‘rsatib beradigan, o‘zbek oilalarini boshqa millat oilalaridan ajratib turadigan, ota-bobolarimizdan meros bo‘lib kelayotgan sifatlardan biri sanaladi.

Tarbiya keng qamrovli tushuncha sifatida inson faoliyatining hamma jabhalariga ta’sir ko‘rsatadi. Tarbiya barcha soha – ishlab chiqarish, turmush, oila, bo‘sh vaqtda ham kishilar xulq-atvorini, insoniy munosabatlarini tartibga soladi. Tarbiya ijtimoiy ongning boshqa shakllaridan farq qilib, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy vazifalarni bajaradi.

Pedagogik ensiklopediyada “tarbiya” tushunchasi quyidagicha talqin qilingan : Tarbiya shaxsda ma’lum jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayondir. Shu bilan bir o‘rinda, tarbiya – bu kelajak avlodni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan umuminsoniy hamda ijtimoiy tajribani ta’lim oluvchilarga ya’ni o‘quvchi va talabalarga tizimli berib borish jarayonidir.

Tahlillar natijasiga ko‘ra, tarbiya tushunchasi pedagogik-psixologik kontekstlarda tor va keng ma’noda qo‘llaniladi. Tor ma’nodagi “tarbiya” subyekt tomonidan shaxsda muayyan qarashlar, tasavvurlar, me’yorlar, tushunchalar va boshqa shu kabilarni qaror toptirish maqsadida yo‘naltirilgan ta’sir ko‘rsatish jarayonidir. Bunda tarbiyaviy ta’sir jarayonining reja asosida olib borilishi va aniq maqsadga qaratilganiga urg‘u beriladi.

Keng ma’nodagi “tarbiya” tushunchasida esa insonning ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishiga ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy aloqalarning butun boshli tizimi nazarda tutiladi. Fikrimizcha, o‘quvchilarni jamiyat a’zosi sifatida shakllantirishga qaratilgan tarbiyani ijtimoiylashtirishning eng samarali vositasi deyilsa mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi. Bu borada, ya’ni tarbiyaning shaxs shakllanishiga ta’siri, ajdodlarimizning uning ijtimoiylashuvidagi o‘rniga oid qator qimmatli fikrlari hanuz o‘zining ahamiyatini yo‘qotmagan.

Shu nuqtayi nazardan IX–XII asrlarda ijod qilgan Sharq mutafakkirlarining tarbiyaviy qadriyatlaridan foydalanish katta pedagogik ahamiyat kasb etadi, degan xulosaga asoslangan holda nazariy ma’lumotlarni mohiyatan o‘rganish va tajriba-sinov ishlarimizda ularga tayanishga e’tibor qaratdik. Shuningdek, ajdodlarimizning hayotiy tajribalari, yosh avlod tarbiyasiga oid g‘oyalaridan foydalanmasdan turib, Vatanga sadoqatli, xalqi va yurtining ravnaqini o‘ylaydigan yuksak fazilatli yoshlarni shakllantirib bo‘lmaydi.

XI asrda ijod qilgan Sharq mutafakkirlaridan biri Yusuf Xos Hojibning komil insonni shakllantirish hamda farzand tarbiyasi haqidagi g‘oyalari, qarashlari ilmiy-ma’rifiy fikrlari tarbiyaviy ta’sir amaliyotini tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” she’riy asarida uning hayoti va faoliyati, o‘sha davr voqealari hamda ajdodlardan qolgan bebaho pedagogik qadriyat namunalari aks etgan .

Tarbiya masalasida so‘z borar ekan Imom al-Buxoriyning buyuk merosiga to‘xtalmay, u haqida so‘zlamay ketishning imkoni yo‘q. Imom al-Buxoriy boy va qimmatli ilmiy meros qoldirgan. Durdona asarlaridan biri “Sahihi Buxoriy” asari bo‘lib, Imom al-Buxoriyning ushbu yirik asari yozilganiga taxminan 1200 yil bo‘ldi,

o‘sha davrdan boshlab toki shu vaqtgacha u islom ta’limotida Qur’ondan keyingi ikkinchi o‘rinda turadigan muhim manba sifatida yuqori baholanib kelinmoqda. Boy ma’naviy va tarbiyaviy meros qancha davrlar o‘tsa ham farzand tarbiyasida eng samarali, eng ta’sirli va eng sevimli asardir. Ular mehr-muhabbat, saxiylik, ochiq ko‘ngillik, ota-ona, ayollar va kattalarga hurmat, yetim-yesirlarga muruvvat, faqir-bechoralarga himmat, Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, halollikka da’vat etish kabi haqiqiy insoniy fazilatlar va namunali tartibotlar majmuasidir. Unda nima yaxshi, nima yomon, nimani qilish kerak, nimadan o‘zini tiyish lozimligi haqida hozirgi jamiyatimiz ahli, ayniqsa, yosh avlod uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega yo‘l-yo‘riqlar, pand-nasihat va o‘gitlar aks ettirilgan. Hazrat Umar roziyallohu anhu bunday deganlar: “Boshliq bo‘lmasingizdan avval ilmni chuqur o‘rganing! Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamning sahobalari yoshlari ulg‘ayganda ham ilm o‘rganganlar”.

Yosh avlodni tarbiyalashda buyuk ajdodlarimizning o‘gitlari, pand-u nasihatlari, hadis-u rivoyatlari katta ahamiyatga ega. Imom al-Buxoriyning hikmatli xazinalaridan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining “Tarbiya” darsini o‘rgatish, sinf va sinfdan tashqari mashg‘ulotlardan unumli foydalanish, o‘quvchilarning axloqiy-estetik qarashlarini yanada rivojlantirish mumkin. Bugungi kunda ham Imom Muhammad al-Buxoriyning nafaqat diniy, balki ijtimoiy, iqtisodiy, tarbiyaviy, estetik, ma’naviy, ma’rifiy tarbiyaga oid ilg‘or g‘oyalari alohida o‘rin egallaydi. Shuningdek, odob va tarbiya, insonparvarlik, xalqsevarlik, ota-onani e’zozlash, adolatparvarlik, tejamkorlik, mehnatsevarlik, yoshlarni o‘zlaridan katta kishilarni hurmat qilish, kichiklarni izzat qilishga oid yondashuvlari bugungi kunda muhim tarbiyaviy qadriyat sifatida baholanadi. Sharq mutafakkirlari o‘zlarining asarlarida tarbiyaning bir nechta turlari haqida fikr yuritganlar. Ular – badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi, axloq tarbiyasi, mulk tarbiyasi, nafosat tarbiyasi, mehnat tarbiyasi, tejamkorlik tarbiyasi kabilar. Ularning fikricha, bolalarga tarbiyani ona qornidayoq berish kerak. Tarbiya ishida ota-onalar, mahalla fidoyilari, tarbiyachilar, o‘qituvchi-murabbiylar, jamiyat a’zolari hamda hukumat vakillari ham mas’ul ekanliklarini ta’kidlaydilar.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, tarbiya alohida xususiy ish emas, balki milliy, ijtimoiy ish hisoblanadi, har bir xalqning taraqqiyoti, davlatlarning qudratli bo‘lishi kelajak avlodlar tarbiyasiga bog‘liq, deyish mumkin. Shuningdek, Abu Nasr ibn Iroqning fikrlari e’tiborga loyiq . Uning fikricha, har tomonlama tarbiyalanganlik insonga xos xususiyat bo‘lib, yer yuzida uning oliy mavjudot ekanligini namoyon qiladi. Tarbiyali kishi yomon rasm-rusumlarni yo‘qotib, halollik, rostgo‘ylik, yaxshi, ezgulikka boshlaydigan qonun-qoidalarni o‘z hayotiga joriy etadi. Bunday darajaga yetishish uchun esa, inson avvalo, o‘zini o‘zi anglab yetishi kerak. Tarbiyaviy manbalarda ilgari surilgan g‘oyalar mag‘zini chaqqan bo‘lishi muhimdir.

Ma’lumki, aksariyat oilalarda farzand tarbiyasiga mas’uliyat bilan yondashish, manbalarda berilgan qoidalarni tushuntiradigan va albatta, bu jarayonda shaxsiy namuna ko‘rsatiladigan muhit yaratilmagan. Kattalar ta’siri orqali e’tiqod munosabatlarini o‘rganish imkoniyati yetarli bo‘lmagan bolalar maktabda, xususan, Tarbiya va boshqa fanlarda taqdim etiladigan tarbiyaga oid ma’lumotlarni o‘zlashtiradilar, hayotiy vaziyatlarni tahlil qilishlari mumkin. Aynan mana shu vaziyat ham boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari zimmasidagi mas’uliyatni kuchaytiradi.

Yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalash muammolari Yan Amos Komenskiyning qarashlarida ham alohida o‘rin tutgan. U shaxsning borliqni o‘rganishga yordam beruvchi sezgi organlari bilish jarayonlarida yetakchi o‘rinni egallashini ta’kidlagan.

K.D.Ushinskiy o‘z ilmiy tadqiqotlarida tarbiyani fikrlash hamda iroda sifatlarini rivojlantirishdan iborat faoliyat, deb tushuintirganligini ko‘rishimiz mumkin. Bilim oluvchilarda tarbiyaviy sifatlarni rivojlantirish jarayonida ishonch va qat’iyatni tarkib toptirish zaruratini ta’kidlab o‘tadi .

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Педагогика” энциклопедия. «Узбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти. - Тошкент, 2015.
2. Юсуф Хос Ҳожибнинг «Қутадғу билиг» асари. Ғофур Ғулом номидаги Бадиий адабиёт нашриёти. Тошкент 1971 й
3. Ал-Беруни Абу Райхан.Книга об индийских рашиках.Пер. и прим Б.А.Розенфельда. В кн.: Из истории науки и техники в странах Востока.Вып.3, 1963.
4. Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Руҳий тарбия, Т.: «Шарқ», 2010, 241-б

Mohro‘y MUXTORIY,
FarDU o‘qituvchisi
E-mail: m_muxtoriy@mail.ru

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH VA MUSIQA DARSLARINI INTEGRATSIYALASH ORQALI O‘QUVCHILARNING NUTQINI O‘STIRISHNING PEDAGOGIK USULLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarining nutqini o‘stirishning zamonaviy usullari tadqiq qilingan va o‘quvchilar nutqini o‘stirishda pedagogik-psixologik jarayon obyektlari ustidagi tadqiqotlarning samarali usullari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *pedagogika, psixologiya, tadqiqot, nutq, nutq o‘stirish, boshlang‘ich sinf, pedagogik jarayon, metod, metodika, usul, innovatsiya, integratsiya.*

Аннотация: в данной статье исследованы современные методы развития речи учащихся младшего школьного возраста, а также раскрываются эффективные методы исследования объектов педагогико-психологического процесса в ходе развивающейся речи учащихся.

Ключевые слова: *педагогика, психология, исследование, речь, культура речи, начальный класс, педагогический процесс, метод, методика, метод, новаторство, интеграция.*

Annotation: in this article, modern methods for growing speech of pupils of an elementary school age are studied, and effective methods of research on the objects of the pedagogical-psychological process are revealed during the growing speech of students.

Keywords: *pedagogy, psychology, research, speech, speech culture, primary class, pedagogical process, method, methodology, method, innovation, integration.*

Kirish. Ta’lim jarayonida bilimli yoshlarni yetishtirish hozirgi zamon talabi bo‘lib, pedagoglar tomonidan ta’lim sifatini yaxshilash uchun ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Yoshlarning chuqur bilimga ega bo‘lishi uchun ularda til ko‘nikmalarini rivojlantirish kerak.

Til va nutq o‘zaro aloqador, bir-biri bilan bog‘lik, biri ikkinchisisiz mavjud bo‘lmaydigan, ammo bir- biridan farqdi bo‘lgan ijtimoiy hodisalardir. Demak, til va nutq o‘zaro bog‘liq bo‘lgani bilan aynan bir xil narsa emas. Psixolog P.I.Ivanov: —Biz biror kishiga: Siz qaysi tilda gaplashasiz deb savol berganimizda, biz shu kishining nutqi, gapi bilan uning o‘z nutqida qanday tildan foydalanishini aniq bilamiz, deydi.

Har bir kishining o‘z nutqi bor va nutqida bir yoki bir necha tildan foydalanib gapiradi. Shu bilan birgalikda har bir kishining nutqi uning yoshiga, bilimiga, umumiy ma‘naviy-madaniy saviyasiga qarab, o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Bundan esa nutqning individual-hodisa ekanligi kelib chiqadi. Nutq haqiqatan ham individual. Nutq, individual o‘zining bajarilishiga, sodir bo‘lishiga ko‘ra, ya‘ni u individ, alohida kishi tomonidan amalga oshadi. Ammo o‘zining vazifasiga ko‘ra esa nutq ijtimoiydir. [1]

Til birliklari nutqni hosil qiladi, ya‘ni har bir inson o‘z fikrini boshqalarga til orqali, til birliklari orqali bayon qiladi, boshqalari fikrini til orqali egallaydi, tushunadi. Nutq tevarak-atrofdagi voqea-hodisalar haqidagi fikr muloqazalarni boshqalarga yetkazishdir. Shuning uchun til va nutq inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. [2]

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Hozirgi kunda boshlang‘ich maktab ta’limini integratsiya qilish haqida ko‘p gapirilmoqda. Bu tushuncha kichik maktab o‘quvchisi atrofidagi olamni bir butunligicha qabul qilish, uning uchun tabiatshunoslik, rus tili, musiqa va boshqa o‘quv fanlari nomi emas, balki atrofidagi olam obyektlarining tovushlar, ranglar, hajmlarning turli-tumanligining qiziqarliligi bilan harakterlanadi. [3]


Pedagogik izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, integratsion asosda fanlami o‘rgangan o‘quvchilar predmetli o‘rgatishning chiziqli kurslarini qisqa muddatda o‘zlashtirishmoqda. Tez o‘qitish maqsad qilib olinmaganiga qaramasdan, undagi tabiat, mehnat, rasm, o‘qish sohasidagi elementlar bu fanlami tez o‘rganishda umidli asos bo‘lib xizmat qilyapti.[4] Pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’limda integratsiyalashgan ta’limdan foydalanib darslarni tashkil etish ta’lim sifatini yanada oshiradi. Biz o‘qish darslariga musiqa darslarini integratsiyalash uchun quyidagi metodikamizni tavsiya etamiz.

Metodikamiz “Musiqiy so‘zlar” bo‘lib, o‘quvchilarga so‘z o‘yini o‘tkazilib tartib notalar orqali belgilanadi. Masalan, birinchi “Do” notasini olsak, bunda o‘quvchilar zanjir usulida “Do” notasi bilan boshlanadigan so‘zlarni ayta boshlaydilar. Masalan, doira, dono, doska, domla kabi. So‘z topa olmagan o‘quvchi o‘rnidan turadi va sinf xonasining orqa tomoniga o‘tadi. Ikkinchi marotaba “Re” notasidan boshlanadi so‘zlar. Bunda ham o‘quvchilar so‘zlarni ketma-ketlikda zanjir usulida ayta boshlaydilar. Masalan, registratura, reja, reklama kabi. Shu tartibda “Mi”, “Fa”, “Sol”, “Lya”, (lya harflari vilan boshlanadigan so‘z o‘zbek tilida deyarli uchramagani sabab, “Ya” bilan boshlanuvchi so‘zlar topish buyuriladi) “Si” notalariga so‘z tuzadilar. Bu o‘quvchilarning nutqini o‘stiruvchi metodika hisoblanadi.

Natijalar. Boshlang‘ich sinflar ichida ushbu metodikamiz o‘tkazilganda quyidagicha natijaga erishdik.

№	Sinf	O‘zlashtirish ko‘rsatkichi	“Musiqiy so‘zlar” metodikasi qo‘llangandan keyingi ko‘rsatkich
1	2-sinf	49 %	56 %
2	3-sinf	54 %	63 %
3	4-sinf	57 %	68 %

Ushbu jadvalni diagrammada quyidagicha ifodaladik.



Muhokama. O‘qituvchi ko‘p jihatdan o‘quvchiga o‘rnakdir. Shuning uchun ham u birinchi navbatda bolani o‘ziga jalb eta olishi kerak. Yangilanayotgan boshlang`ich ta`lim nazariyasi o‘qituvchining shaxsiy sifatlari, kasb mahorati va bilim darajasini diagnostika qilish asoslarini ishlab chiqishi lozim. Tekshirish natijalari asosida boshlang`ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash va ta`lim amaliyotiga joriy etilishi kechiktirilib bo‘lmaydigan vazifalardan biridir. Boshlang`ich maktab yoshidagi o‘quvchilarning ta`lim faoliyatini yaxshilashning eng samarali shakli – bu o‘qituvchining bilimliligi va mahoratida. Shu sababli avvalo ta`lim sifatini yaxshilashning yo‘li birinchi navbatda kasbini sevuvchi hamda mahoratli o‘qituvchi tayyorlashda. O‘qituvchi mahoratli bo‘lsa , albatta o‘quvchilar bilimli va har tomonlama yetuk bo‘ladi. Buning uchun avvalo o‘qituvchining o‘zi har tomomlama barkamol bo‘lishi talab etiladi. [5]

Boshlang‘ich sinflarda ta’lim jarayonining sifatini ko‘tarish, O‘quvchilarning fikrlash doirasi hamda nutqiy kompitensiyasini rivojlantirish dolzarb muammo sifatida tadqiqotchilarning ishida ko‘rinmoqda. Bu kabi holatlarda pedagoglar fanlarni o‘zaro integratsiyalovchi metodikalardan foydalanishsa, ta’lim jarayonining sifat samaradorligini yanada oshar edi.

Xulosa. O‘tilgan har bir qiziqarli mashg‘ulot o‘quvchilar ongida yaxshiroq qolishi, shuningdek, dunyoqarashini kengaytirishi bilan birga mustaqil ijodiy qobiliyatini o‘stiradi. Ijodkor o‘quvchi o‘ziga xos noyob tarzda fikr yuritadi. Uning fikri mustaqil, tiniq, birovnikiga o‘xshamagan bo‘lib, ko‘pincha g‘ayritabiiy yechimlarni ham topa oladi. [6] Biz yaratgan ushbu metodika nafaqat o‘qish darsi balki musiqa darsini ham qamrab olgan holda dars mashg‘ulotini qiziqarli o‘tishiga imkon yaratadi. Bunday metodikalardan foydalanish o‘quvchilarning bir vaqtning o‘zida ikki fan yuzasidan fikrlashlariga olib keladi. Qisqa vaqt mobaynida ko‘proq ma’lumot bilan ishlash imkonini yaratadi. Yaratilgan metodikamiz birinchi sinfda o‘tkazilmaydi, chunki bu o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelmaydi. Ikkinchi sinfda ular fanlar yuzasidan yetarli ma’lumotga ega bo‘ladilar va bu metodikani bajarishda qiyinchilikka uchramaydilar.

Xulosa qilib aytganda, boshlang’ich sinf o‘quvchilarining nutqini o‘stirishda fanlararo integratsiyadan foydalanish bolalarning nutqiy tafakkurini kengaytiradi, ularning nutqiy kompitensiyasining rivojlanishiga va nutqi ravon, tushunarli bo‘lishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N. S. Mirzayeva TIL VA NUTQ TUSHUNCHASI Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 3 | 2022 987-bet
2. Sh. Sh. Nizomova. Bolalar nutqini o‘stirish nazariyasi va texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma– Buxoro : Fan va ta‘lim, 2022. –176 b. 8-bet
3. B.D. Jonibekovna Boshlang‘ich sinflarda integratsiyalashgan darslarning maqsad va vazifalari hamda fanlararo aloqalarning ahamiyati “Yangi O‘zbekistonning umidli yoshlari” 1(4)-son 2022-yil 28-may. 179-bet.
4. R.A.Mavlonova, N.H. Rahmonqulova “Boshlang‘ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi” O 'quv qo‘llanma. Toshkent - Ilm Ziyo. – 2009. 194 b. 13-bet
5. Z. Norbekova “O‘zbekistonda boshlang`ich ta`limni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari” «Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya https://doi.org/10.5281/zenodo.6559965
6. X.Umarova “Boshlang‘ich ta’limni mustaqil tashkil etish” "Экономика и социум" №2(81) ч.1 2021

Maftuna QAHHOROVA
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti,
Pedagogika va o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi,
maftunaismailova0888@gmail.com

DARSDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLAR JARAYONIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Anotatsiya: maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish yo‘llari, ta’lim jarayonida o‘quvchilarini interfaol metodlar hamda o‘yinlar asosida ijodkorligini rivojlantirish usullari va samaradorligi haqida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich sinf, ijodkorlik, ta’lim, muammo, muammoli ta’lim, evristika, evristik ta’lim, intellektual.*

Аннотация: в статье описаны пути совершенствования технологий развития творческих способностей учащихся младших классов, методы и эффективность развития творческих способностей учащихся на основе интерактивных методов и игр в ходе образовательного процесса.

Ключевые слова: *элементарный, творчество, образование, проблема, проблемное обучение, эвристика, эвристическое обучение, интеллектуальное.*

Annotation: this article describes ways to improve technologies for developing creative abilities of elementary school students, methods and effectiveness of developing students' creativity based on interactive methods and games in the educational process.

Key words: *elementary, creativity, education, problem, problem-based learning, heuristics, heuristic learning, intellectual.*

Boshlang‘ich sinflarda darsdan tashqari ishlar o‘quvchilarning qiziqishi, xohish-istaklari va ehtiyojlariga suyangan holda ularning darsdan bo‘sh vaqtlarida o‘quv-tarbiya jarayonini to‘ldiradi. Darsdan tashqari ishlar o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Darsdan tashqari ishlarning o‘ziga xosligi shundaki, to‘garak dasturlarining rang-barangligi, ular mazmunidagi yangiliklar o‘smir yigit qizlarning shaxs sifatida shakllanishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning quyidagi so‘zlarini keltirib o‘tmoqchiman; “Hozirgi zamonda hamma jabhalarda ilm, bilim va salohiyat suv bilan havoday zarurligi, har qaysi davlat faqatgina shu asosda taraqqiyotga erishishi, sodda qilib aytganda, inson bilak kuchidan ko‘ra ilm kuchi bilan ko‘proq daromad va obro‘-e’tibor topishi mumkinligini hammamiz yaxshi anglaymiz” [1]. Albatta, chunki shu jamiyatda yashaydigan inson keng faoliyatga tayyorlanar ekan, uning rivojlanishi, tafakkurini yangilashda o‘quv jarayoniga ilg‘or texnologiyalarini kiritish, o‘quvchilarning erkin, mustaqil fikrlash, ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirishni taqozo etadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida bolalardagi yashirin iste’dodlarini yuzaga chiqarish, kichik maktab yoshidan boshlab o‘z faoliyatini namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratish, ulardagi ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish – kelajakda yuksak salohiyatli, ijtimoiy faol, o‘tkir zehnli, kashfiyotchilik qobiliyatini namoyon eta oladigan, raqobatbardosh, keng fikrlovchi, kadrlarni voyaga yetkazish muhim masalalardan hisoblanadi. Bugungi kunda mustaqillik tufayli amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari o‘z ishiga ijodiy yondashuvchi, fan, san’at, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shadigan yuksak malakali kadrlar tayyorlashga bog‘liq [2].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy faoliyatini shakllantirish haqida gapirishdan oldin “ijod”, “ijodkorlik” kabi atamalariga to‘xtalib o‘tamiz. Bugungi kunda ilmiy, uslubiy adabiyotlarda, darsliklarda “ijod”, “ijodkorlik” kabi atamalarni uchratib turamiz. Bu atamalarning adabiyot sahifalarida paydo bo‘lganligi bejizga emas. “Ijod” – so‘zining lug‘aviy ma’nosi: “yaratish”, “yangilikni kashf qilish” kabi so‘zlarini bildirib keladi. “Ijodkorlik” – faoliyatning turli holatlarida paydo bo‘ladi. Qiziqish, ilhom, intilish va boshqalar ijodkorlikning inson ongida eng oliy tarzda paydo bo‘lishidan, namoyon bo‘lish jarayonini o‘z ichiga oladi. Ijodkorlik sifat jihatdan yangi, moddiy va ma’naviy boyliklar yaratuvchi inson faoliyati jarayonidir.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarining ijodiy faoliyatining shakllantirish, shart-sharoitlari deganda, avvalo, ana shu shart-sharoitlarning paydo bo‘lishi, amalga oshishi hamda rivojlanish jarayoni tushuniladi. Ular quyidagilardan iborat:

1. O‘quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirishda ularning bu borada egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalari;

2. Ijodiy faoliyatini shakllantirishda nazariy bilimlar bilan amaliyotning aloqadorligi;

3. Ijodiy faoliyatini shakllantirishga doir mashg‘ulotlar, evristika, muammoli vaziyatlar yaratish;

4. O‘quvchilarning ijodiy faoliaytini shakllantirishga texnologik yondashuvlar;

Bu shart-sharoitlar quyidagicha amalga oshadi:

- dastur mateillarini qay darajada o‘zlashtirganligi;
- mavzularga doir asosiy tushuncha va qoidalarni o‘zlashtirganligi;
- tanlagan mavzu bo‘yicha topshiriqlarni mustaqil bajara olishi;
- o‘rganilayotgan mavzulardagi asosiy muammolarni anglab olishi;
- topshiriqlarni bajarishda o‘quv ashyolari va texnika vositalari, axborot texnologiyasidan foydalana olishi;
- mavzu bo‘yicha o‘z oldiga erishiladigan maqsadlarni qo‘ya olishi;
- o‘z variantini tavsiya eta olishi va hakozalar.

Ijodkorlik o‘zida insonning mehnatda namoyon bo‘lgan qobiliyatini ifodalaydi. Ob’ektiv olam qonuniyatlarini bilish asosida xilma-xil ijtimoiy ehtiyojlarini qanoatlantiradigan, yangi haqiqatni yaratadiganday mehnat ijodi bo‘lishi mumkin. Ijod turlari bunyodkorlik faoliyati bilan belgilanadi: ixtirochi, tashkilotchi, ilmiy va badiiy mehnat va boshqalar. Ijodiy faoliyat uchun imkoniyatlar ijtimoiy munosabatlarga bog‘liq.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy faollikka undash davomida o‘qituvchi:

1. O‘quvchilarni obrazli fikrlashga undashi;
2. Aniq muammolarni burro ifodalashi;
3. Fikrning doimo tugallangan jumla bilan, hamda muhim joylariga urg‘u berib ajratgan holda ifoda etilishi;
4. Xushmuammalali va ziyrak bo‘lishi;
5. Quyidagi so‘z birikmalaridan foydalanishi: “faraz qiling”, “tasavvur qiling”, “ijodiy parvoz eting” va shu kabilar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirishda interfaol metodlar va o‘yinlardan foydalanish muhim hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga interfaol metodlar va o‘yinlar nimaga kerak? Bu metod va o‘yinlarning dars jarayoniga qanday bog‘liqligi hamda samaradorligi mavjud? Yuqorida aytilayotgan mulohazalarga birma-bir misollar orqali aniqlik kiritamiz. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy faoliyatini shakllantirishda evristik va muammoli ta’limdan tashqari bilishga yo‘naltirilgan, ilmiy asoslangan interfaol metodlar va o‘yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Shu yerda “evristik” va “muammoli ta’limga” qisqacha to‘xtalib o‘tamiz. Ta’lim – bu bilim berish, malaka va ko‘nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasidir. Ta’lim jarayonida ma’lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta’lim tor ma’noda o‘qitish tushunchasini anglatadi. Evristika – yunoncha “heuriska” – “qidiraman”, “topaman» “ochaman”-degan ma’nolarini anglatadi [5]. Evristika o‘qitishning mazmuni va maqsadi o‘quvchilar tamonidan o‘zining mustaqil fikrini loyihalash (konstruksiyalash) maqsad qilib olinadigan, ta’limning maqsadi va mazmuni hamda uni tashkil qilish jarayoni, tashxis qo‘yish va tushunib yetish evristik ta’lim va o‘qish hisoblanadi.

Evristik o‘qitishdagi vaziyat o‘qitishning kalit elementi hisoblanadi. Bunday vaziyat o‘quvchining bilmasligidan faollashtiradi, uning maqsadi o‘quvchi tomonidan shaxsiy g‘oyaning tug‘ilishini, gipotezalar, sxemalar tuzishga yo‘llaydi. Evristik o‘qitishda ta’lim natijasini aytib bo‘lmaydi. Har bir o‘quvchidan turli javoblarni olish mumkin. Evristik o‘qitishda o‘quvchi oldingi olgan bilimini o‘zlashtiradi, keyin uni ijodiy o‘zlashtirish orqali o‘zining loyihasida qo‘llaydi. Bu yerda oldingi bilimlarni o‘rganish orqali kelajakka intilish shiori amal qiladi.

O‘quv jarayoni o‘quvchilar tafakkurining yuksak faolligiga erishib, ularning mustaqilligini asta-sekin o‘stirib borish yo‘li bilan o‘tadi. Ta’lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalari, darsga oid bo‘lgan o‘yinlarni o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kundan – kunga ortib, yanada takomillashib bormoqda. Bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va ularni egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib, mustaqil tarzda izlab topishi, mustaqil fikrlashi va o‘rganishi, tahlil qilishi hatto yakuniy xulosalarini ham o‘zlari keltirib chiqarishga o‘rgatadi.

O‘yinlarda bolaning xulqi erkin shakllanadi va ijtimoiylashadi. Intellektaul ijodiy o‘yinlar ham ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘yinda shaxsning kommunikativ sifatlashni rivojlantirish, intellektual savodxonligi, ziyrakligi, qarorlar qabul qilishda ta’lim zukkolikini rivojlantirish, xalq ijodkorligiga oid bilimlarga ega bo‘lishi sifatidagi salohiyatli rag‘batlantirishga oid maqsad va vazifalar qo‘yiladi. o‘quvchilarni aniqlash va ularni Kichik yoshdagi o‘quvchilarning intellektual darajasini rivojlantirish uchun sinfda va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda shunday o‘yinlarni tashkil qilish mumkin. Albatta, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy faoliyatini shakllantirish, diqqatini bir joyga jamlash, xotirasini yanada mustahkam qilish, mustaqil fikrlay olish jarayonini tashkil qilishda turli xil didaktik o‘yinlar, metodlar va usullarning ahamiyati e’tiborga loyiqdir. Didaktik o‘yinlar mazmuniga, qilingan tasnifiga ko‘ra asoslanib joylashtiriladi.

O‘quvchilar qahramonlarning ma’naviyatiga bo‘lgan qiziqishlari tufayli hayotning nurli va qorong‘u tomonlari xususida muayyan tushunchaga ega bo‘la boshlaydilar. Ularda go‘zallik va nafosatga muhabbat, yovuzlikka nisbatan nafrat tuyg‘usi hikoyalar bilan tanishish va uni tahlil qilish davomida shakllanib boradi.

Hikoya tahlili adabiy tur sifatida o‘ziga xos xususiyatlari va vazifasidan kelib chiqib ish ko‘rishni taqozo etadi. Undagi har bir so‘z, ibora, gap yozuvchining fikrini ifodalashga xizmat qiladi. Hikoya matni uning mazmunini yoki badiiy xususiyatlarini o‘rganishdagina emas, tahlilning ifodali, adabiy, shartli yoki ijodiy o‘qish, muammoli usullardan foydalanish uchun ham manba bo‘lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilim olishning poydevori hisoblanar ekan, mazkur sinfdan boshlab, o‘quvchilarda ijodiy faoliyatini rivojlantirishni taqoza etadi. O‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish, ularni har tomonlama yetuk bo‘lishiga xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinflarda interfaol metodlar va ta’limiy o‘yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o‘rganganlarini hayot bilan bog‘lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi.

Shunday qilib boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodiy faoliyatini shakllantirishda, yuqorida aytib o‘tilganidek ertak, hikoya, maqol, masal, she’r kabi asarlarni o‘rgatishda, she’rni yodlatishdan oldin o‘qituvchi mag‘zini chaqib berishi, o‘quvchilarda ushbu aytilayotgan ma’lumotlarni anglab yetishi, faraz qilishlari va hokozalar o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-son qarori.

2. Yoziyeva U.L. Oilada bolani televideniyega ijobiy munosabatini shakllantirishning pedagogik imkoniyati// Qoraqalpoq davlat universitetining axborotnomasi. – Nukus, 2016. -№4. 40-42 b.

3. Yoziyeva U.L. Axborot tahdidini bartaraf etish tamoyillari va darajalari //Ilmiy xabarnoma. – Andijon, 2016. - №4. -103-105-b.

4. Bikvayeva N.I., Y.Yangabayeva. Matematika. 3-sinf. T., 2004.-B. 12-13.

5. Брушлинский А. Новые педагогические технологии. - М: Просвещение, 1999. – 567 с.

6. Бюлер К., О. Зельц. Психология мышления. М.: Педагогика-пресс. 2002.-130 с.

Dilyora ISABOYEVA
Qo’qon DPI o‘qituvchisi

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARDA XALQARO BAHOLASH DASTURINING MAZMUNI VA MOHIYATI

Annotatsiya: mazkur maqolada xalqaro baholash dasturi talablari asosida boshlang’ich sinf o’quvchilarda zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy nazariy tahlil qilingan va tegishli xulosa ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *PISA, PIRLS, IEA, TIMSS, ICCS, baholash, boshlang`ich ta`lim, texnologiya, metod, o`qitish.*

Аннотация: В данной статье на основе требований международной программы оценки проведен научно-теоретический анализ особенностей формирования современных навыков у учащихся начальных классов и сделан соответствующий вывод.

Ключевые слова: *PISA, PIRLS, IEA, TIMSS, ICCS, оценка, начальное образование, технология, метод, обучение.*

Annatation: In this article, based on the requirements of the international assessment program, a scientific and theoretical analysis of the features of the formation of modern skills in primary school students has been carried out and an appropriate conclusion has been made.

Keywords: *PISA, PIRLS, IEA, TIMSS, ICCS, assessment, primary education, technology, method, training.*

Kirish. PIRLS 2006 tadqiqotida 40 ta mamlakatdan 215 mingga yaqin o‘quvchi ishtirok etdi. Har bir mamlakatning namunasi 150 ga yaqin maktabdan taxminan 4000 nafar o‘quvchi bo‘lgan. Rossiya PIRLS-2006 tadqiqotida mamlakatning 45 ta mintaqasidagi 232 ta umumta’lim maktablarining 4,955 ta boshlang‘ich maktabini bitirgan.

O‘quvchilarning test sinovlari uchun 10 ta matn (5 adabiy va 5 ta axborot) va ular uchun 126 ta topshiriq tayyorlandi. Tadqiqot natijalari bo‘yicha Rossiya, Gonkong va Singapur maktab o’quvchilari eng yaxshi natijalarni ko‘rsatdilar. Rossiya birinchi o‘rinni egalladi.[1]

PIRLS-2011 tadqiqotida 45 mamlakatdan 325 mingga yaqin o‘quvchi ishtirok etdi. PIRLS-2011 tadqiqotida Rossiyadan 42 mamlakatning umumta’lim muassasasidan 4461 nafar boshlang‘ich sinf bitiruvchilari qatnashdi.

2011-yil ma’lumotlariga ko‘ra, Gonkong, Rossiya, Finlyandiya va Singapur maktab o’quvchilari o‘qishni o‘zlashtirib olishda eng muvaffaqiyatli bo‘lgan; ushbu mamlakatlarning to‘rtinchi sinf maktab o’quvchilari barcha

ishtirokchi mamlakatlar o‘rtasida eng yaxshi natijalarni ko‘rsatdi. Ushbu mamlakatlarning o‘rtacha ballaridagi farq muhim emas. Boshqa ishtirokchi mamlakatlarning natijalari to‘rtta yetakchi davlatlar natijalaridan ancha past.[2]

PIRLS xalqaro tadqiqotiining 2016-yil ma’lumotlariga ko‘ra Rossiya, Singapur va Gonkong natijalari o‘tgan yillarga nisbatan yuqori natijaga erishganini ko‘rishimiz mumkin.

Asosiy qism. Monitoringning ilmiy-pedagogik jihatdan xolisligi olingan natijalarni taqqoslash uchun tuziladigan testlar va savolnomalarda oldingi yillarda amalga oshirilgan topshiriqlar va savollarning ham qamrab olinishi bilan ta'minlanadi.

Monitoring o‘tkazish jarayonlarini standartlashtirish PIRLS ni o‘rganish xalqaro muvofiqlashtirish markazi tomonidan ishlab chiqilgan yagona ko‘rsatmalar va qoidalarga muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

Mazkur jarayondagi har bir bosqich (namuna olish, tarjima qilish va tajriba-sinov ishlari o‘tkazish, ma’lumotlarni tekshirish va qayta ishlash) xalqaro ekspertlar tomonidan nazorat qilinadi. Masalan, testlar va anketalar tarjimalari xalqaro tarjimonlar tomonidan qayta ko‘rib chiqiladi.

Kuzatuvchilar belgilangan maktablarda o‘tkaziladigan test sinovlarida qatnashadilar. Berilgan javoblar bilan topshiriqlarning bajarilishi tajribali o‘qituvchi-mutaxassislar, so‘ng ba’zi ishlar (har to‘rtinchi daftar) boshqa o‘qituvchi-mutaxassislar tomonidan tekshiriladi.

Shundan so‘ng ishning ma'lum qismi skanerdan o‘tkaziladi va o‘quvchilarning javoblari yozilgan daftarlarning elektron versiyalari maxsus xalqaro ma’lumotlar bazalariga o‘tkaziladi. Ularning javoblari xalqaro ekspertlar tomonidan sinov yilida turli mamlakatlar mutaxssislari ishlarining taqqoslanishini aniqlash uchun o‘zaro tekshiriladi, shuningdek, tadqiqotning boshqa bosqichida milliy ekspertlar tomonidan o‘zaro tekshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 997-son Qaroriga muvofiq O’zbekiston Respublikasi Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi (keyingi o‘rinlarda Milliy markaz deb ataladi) tashkil etilgan.[3.248]

Milliy markazning asosiy vazifalari quyidagilar:

- xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish va muvofiqlashtirishda O’zbekiston Respublikasi Respublikasining vakili sifatida ishtirok etish(1);
- o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish(2);
- ta’lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o‘rnatish, loyihalar ishlab chiqish va amalga oshirish(3);
- fundamental va amaliy tadqiqotlar o‘tkazish(4);
- tadqiqotlarni ilmiy va uslubiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash(5);
- umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash(6);
- xalqaro baholash dasturlarida qayd etilgan natijalarni dunyo mamlakatlari bilan qiyosiy taqqoslash va boshqalar belgilandi.

Qarorda belgilangan vazifalarni “Yo‘l xaritasi”ga muvofiq tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda amalga oshirib borilmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Respublikasi ilk marotaba xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishi ta’lim tizimiga, uning sifati va samaradorligiga yangicha qarash va zamonaviy yondoshuvlar olib kirilishida muhim qadam hisoblanadi. Shunday ekan, milliy ta’lim tizimidan farqli bo‘lganligi sababli mazkur tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rish, shu orqali ta’lim sifatini oshirishga erishish uchun barcha manfaatdor vazirlik va idoralar, umumta’lim muassasalari jamoalaridan yuksak mas'uliyat, o‘quvchilardan yetarlicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlik, shuningdek o‘qituvchilardan zamonaviy innovatsion o‘qitish usullarini o‘zlashtirishlik talab etiladi.

Xalqaro ta’lim eksperti, Andreas Shlayayher o‘zining “Dunyo darajasidagi ta’lim: XXI asr maktab tizimini qanday qurish lozim?” nomli kitobida ta’lim sohasini tibbiyot sohasiga qiyoslaydi, uning so‘zlariga ko‘ra, “tibbiyot sohasida shifokor bemorning birinchi navbatda istmasini o‘lchaydi, tashxis qo‘yadi va davolash uchun eng samarali davo usulini aniqlaydi. Ta’lim tizimida, biz o‘quvchilarni o‘qitamiz va o‘quv yilining oxirida tashxis qo‘yamiz, ya’ni baholaymiz”.[4]

Shuningdek, qaror asosida Xalqaro tadqiqotlarda O’zbekiston Respublikasi Respublikasining ishtirok etishiga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” ham tasdiqlandi. 2 ta bo‘lim va 22 ta banddan iborat “Yo‘l xaritasi”da Tashkiliy tadbirlar va tadqiqot jarayonlarining o‘quv-uslubiy ta'minotini amalga oshirish kabi chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Shu kunga qadar amalga oshirilgan ishlar haqida to‘xtalib o‘tar ekanmiz, ta’lim tizimida hanuzchaga muammolar saqlanib qolayotganligini ta’kidlab o‘tish o‘rinli.

Misol sifatida aytish mumkinki, xalqaro tadqiqotlarga dastlabki tayyorgarlik holatini o‘rganish maqsadida, Respublikadagi 191 ta maktablarda tajriba sinovlar o‘tkazilib, 4873 nafar o‘quvchilarning savodxonligi baholangan edi. Uning natijalariga ko‘ra, o‘quvchilarda olgan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish, mantiqiy fikrlash, masalalarni nostandart yo‘llar orqali yechimini topish, shuningdek, berilgan topshiriqlar yuzasidan ochiq savollarga o‘z fikrlarini mustaqil

yozma bayon qilish ko‘nikmalari yetishmasligi ma'lum bo‘ldi.

Milliy markazi tomonidan PIRLS tayyorgarlik daftari hamda PIRLS daftari uchun baholash mezoni ham ishlab chiqilgan.[5.464] Tayyorgarliklar 2021 yilda yurtimiz 4-sinf maktab o’quvchilari ishtirokida o‘tkaziladigan PIRLS xalqaro baholash dasturi tajribalarining yaxshi natija berishida muhim omil sanaladi.

Milliy markazi tomonidan PIRLS tayyorgarlik daftari hamda PIRLS daftari uchun baholash mezoni ham ishlab chiqilgan. Tayyorgarliklar 2021-yilda yurtimiz 4-sinf maktab o’quvchilari ishtirokida o‘tkaziladigan PIRLS xalqaro baholash dasturi tajribalarining yaxshi natija berishida muhim omil sanaladi.

Xulosa. Tadqiqotning ahamiyati shundaki, u o‘quvchilarning erishgan yutuqlarini o‘rganishda barcha o‘quvchilardan emas, balki ushbu qatlamning vakillari sifatida tanlab olingan o‘quvchilardan test o‘tkazish orqali baholanadi. Shuningdek, maktab direktorlari, o‘qituvchilar, o‘quvchilar, hattoki ota-onalardan so‘rovnomalar o‘tkazilib, ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillarga doir qimmatli ma’lumotlar to‘planadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O’zbekiston Respublikasi Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi PQ-3931 son “Xalq ta'limi tizimiga boshqarishning yangi printsiplarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

2. O’zbekiston Respublikasi Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasi Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsegsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi 5712-son farmoni // Qonun hujjatlari ma‘lumotlar milliy bazasi, 29.04.2019 y.

3. Davletov E.Yu. Boshlangich ta'limga PIRLS baholash dasturi imkoniyatlari. Zamonaviy uzluksiz ta'lim muammolari: innovatsiya va istiqbollar. Xalqaro ilmiy konferentsiya. -T:. – 2018. –248 b.

4. Jumaboyev M. “Bolalar adabiyoti va folklor”. –T.,O’qituvchi, 1990

5. 1 Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O’zbek xalq og’zaki poetik ijodi. – Toshkent,” O’qituvchi”, 1990 [464]

Dilfuza ABDULLAEVA
Senior Lecturer
Tashkent University of Applied Sciences

USING ICT TOGETHER WITH INNOVATIVE METHODS IN TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE IN NON-LINGUISTIC HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Annatation: in this article, the use of ICT together with innovative methods in teaching the Russian language in non-linguistic higher education institutions has been studied. The relevance of our article lies in the fact that the use of information and communication technologies, as well as innovative methods in Russian language classes, is one of the most significant areas in the development of a socially mature, active, creative personality, in the formation of a qualified specialist.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar muvaffaqiyati jamiyatda axborot bilan ta’minlanishga munosabatni tubdan o‘zgartirish zaruratini keltirib chiqarganligi sababli, hozirgi kunda zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya tizimlari hamda texnologiyalarini barcha sohalarda qo‘llash va yanada rivojlantirishga g‘oyat muhim e’tibor qaratilmoqda. muvaffaqiyatlar mezoniga aylandi. Bu esa ta’lim tizimida axborot tizimi bilan ishlashga imkoniyatlar eshigini yanada kengroq ochib bera oldi. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi rivojlangan davlatlar darajasida harakat qilar ekan, bu borada muhim ahamiyat kasb eta oldi. Axborot bilan ishlash tizimi haqida to‘xtalar ekanmiz bunda alohida e’tiborga molik tomon o‘quvchi yoshlarni to‘g‘ri yo‘naltira bilish lozim. Bu muammo bugungi kun pedagoglari zimmasiga jiddiy va e’tiborli mas’uliyat yuklaydi. Ya’ni shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyoda yosh avlodni yetuk kadrlar qilib tayyorlashga mas’ul bo‘lgan pedagoglar oldiga qo‘yilayotgan talablar nihoyatda yuqori bo‘lib, ular sifat jihatidan yangi, intellektual, ma’nan barkamol va yuksak professional salohiyatli shaxslarni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Bunday maqsadlarga erishish uchun, avvalo, ta’lim muassasalari faoliyatiga jiddiy e’tibor qaratish, axborot bilan ishlash tizimini samarali tashkil qilish hamda bo‘lajak pedagog kadrlarni axborot kompetensiyasini shakllantirish masalasi muhim sanaladi.

O‘quv jarayonida o‘quv fanlarini o‘qitishning an’anaviy usullari bilan bir qatorda yangi axborot texnologiyalari tobora ko‘proq foydalanilmoqda, bu esa materialni taqdim etish uslubini o‘zgartirishga yordam beradi. Gumanitar fanlarni o‘qitish jarayonida talabalarga kompyuter texnologiyalaridan foydalanish o‘quv ma’lumotlarini o‘zlashtirish sifatini oshiradi, o‘quv jarayonini yanada samarali qiladi, talabalarning nazariy va amaliy xarakterdagi bilimlarni egallashga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Oliy ta’lim tizimida talabalarning axborot kompetensiyasini rivojlantirish vositasi sifatida kompyuter texnologiyalarining roli ortib borayotganligi, shuningdek, adabiyotlarda o‘rganilayotgan masala bo‘yicha asosiy tushunchalarning yetarli darajada rivojlanmaganligi nuqtai nazaridan, quyidagi tushunchalarni ko‘rib chiqish zarur: “axborot texnologiyalari”, “ta’limning axborot texnologiyasi”, “ta’limni axborotlashtirish” va shu kabilar. Ushbu turkumdagi eng umumiy tushuncha “axborot texnologiyalari” tushunchasidir. Kompyuter texnologiyalarini fan va ta’lim sohalarida qo‘llash muammolarini o‘rganuvchi bir qator mualliflarning (V.N.Arefiyev, M.I.Jaldak, M.I.Maxmutov, G.I.Ibragimov va boshqalar) fikricha, axborot texnologiyalar axborot kompetensiyasini rivojlantirishning muhim vositasi sifatida qaraladi [1]. Ushbu tadqiqotchilar tomonidan axborot texnologiyalari ma’lumotlarni yig‘ish, tartibga solish, saqlash, qayta ishlash, uzatish va taqdim etish, odamlarning bilimlarini kengaytirish va texnik jarayonlarni boshqarish qobiliyatini rivojlantirish usullari yoki texnik vositalarining ma’lum bir to‘plami sifatida ko‘rib chiqiladi.

E.I. Mashbits “ta’limni kompyuterlashtirish” atamasining paydo bo‘lishini “inson mehnatini avtomatlashtirish uchun kompyuterlardan foydalanish, elektron ma’lumotlar bazalarining tarqalishi” deb ta’riflagan. Muallifning fikriga ko‘ra, kompyuter o‘quv ma’lumotlarini taqdim etish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi, o‘qituvchining motivatsiyasini kuchaytirishga imkon beradi va talabalarni faol ravishda dars jarayonlariga jalb qiladi. E.I. Mashbits an’anaviy sinflarga nisbatan o‘qitishda kompyuterdan foydalanishning muhim afzalliklari to‘plami sifatida quyidagilarni nazarda tutadi:

1. Axborot texnologiyalari o‘quv ma’lumotlarini

taqdim etish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Rang, grafik, ovoz, videotexnologiyaning barcha zamonaviy vositalaridan foydalanish haqiqiy faoliyat muhitini qayta yaratishga imkon beradi.

2. Kompyuter talabalarning bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Motivatsiya muammoni to‘g‘ri hal qilish uchun yetarli rag’batlantirishdan foydalanish orqali ortadi.

3. Kompyuter texnologiyalari talabalarni o‘quv jarayoniga jalb etib, ularning qobiliyatlarini maksimal darajada ochib berishga, aqliy faollikni oshirishga hissa qo‘shadi.

4. Ta’lim jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish o‘quv vazifalarini qo‘yish va ularni hal qilish jarayonini boshqarish imkoniyatlarini oshiradi, turli ob’ektlar, vaziyatlar, hodisalarning modellarini qurish va tahlil qilish imkonini beradi.

5. O‘quv jarayonini boshqarishda moslashuvchanlikni ta’minlagan holda talabalar faoliyatini nazorat qilishni sifat jihatidan o‘zgartirish imkonini beradi.

6. Talabalarda refleksiyani shakllantirishga yordam beradi. O‘quv dasturi talabalarga o‘z harakatlarining natijasini tasavvur qilish, xatoga yo‘l qo‘yilgan muammoni hal qilish bosqichini aniqlash va uni tuzatish imkonini beradi [4].

Zamonaviy pedagogikada kompyuter va media vositalardan foydalanish haqida amerikalik tadqiqotchi S.Papertning fikricha, kompyuter texnologiyalaridan tizimli foydalanish talabalarga bilim olish, fikrlash, hissiy va kognitiv rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Kompyuter o‘qitish va o‘quv faoliyatini amalga oshirish vositasi, shuningdek, ta’lim jarayonini boshqarish vositasi sifatida ishlaydi.

Kompyuterlardan foydalanish amaliyoti kompyuter texnologiyalarining yangi avlodining paydo bo‘lishiga olib keladi, jumladan, shaxsiy kompyuterlarning paydo bo‘lishi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim sifatini oshirish, ta’limga ta’sir qilishning yangi vositalarini yaratish, o‘qituvchilar va talabalar uchun kompyuter texnologiyalari bilan yanada samarali hamkorlik qilish hamda axborot kompetensiyasini rivojlantirish imkonini beradi. Biz yuqorida ta’kidlagan ta’lim jarayoniga kompyuter texnologiyalari keng miqyosda jalb etilishi bir so‘z bilan ta’limni axborotlashtirish deyiladi. Ta’limni axborotlashtirishning mohiyati, bir tomondan, ta’lim tizimini axborot mahsulotlari, vositalar va texnologiyalar bilan to‘ldirish, ya’ni ijtimoiy-pedagogik o‘zgarishlar majmuasi sifatida; ikkinchi tomondan, ta’lim muassasalari kompyuter texnologiyalariga asoslangan axborot vositalarini, shuningdek, axborot mahsulotlari va shu vositalar asosidagi pedagogik texnologiyalarni joriy etish tushuniladi. O‘quv jarayonida kompyuter texnologiyalari funksional jihatdan bog‘liq bo‘lgan pedagogik, axborot, uslubiy, majmuasidan foydalanish asosida ta’limni axborotlashtirish maqsadlariga erishishga qaratilgan. Zamonaviy ta’lim muassasalarida kompyuter texnologiyalarining muvaffaqiyatli joriy etilishiga misol sifatida ma’lumotlarni to‘plash va saqlash, uni har bir foydalanuvchiga individual ravishda yetkazish uchun amalda cheksiz imkoniyatlarga ega bo‘lgan Internet global kompyuter tarmog‘ining ta’lim muassasalarida joriy etilishi bo‘ldi. Internet tezda fan, aloqa, ommaviy axborot vositalari, reklama, shuningdek, ta’limda ham o‘z qo‘llanilishini topdi.

Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish yanada samarali ta’lim modelini shakllantirishga yordam beradi, o‘quv materialini xayoliy idrok etish orqali chuqur eslab qolishga yordam beradi, uning hissiy ta’sirini kuchaytiradi. Bu multfilmlar ko‘rinishida taqdim etilgan diagrammalar, o‘quv rasmlari, video va audio sharhlardan foydalanish orqali sodir bo‘ladi.

Ko‘plab tadqiqotchilar o‘z izlanishlarida kompyuter texnologiyalarini joriy etish va yanada rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini, bu esa o‘z navbatida o‘quv, ilmiy va texnik markazlardan uzoqda joylashgan mutaxassislarni tayyorlash va malakasini oshirish muammolarini hal qilishga yordam berishini ta’kidlaydilar. Ta’limda yuqori ko‘rsatkichlarga erishish faqat mavjud ta’lim jarayoniga o‘zgartirishlar kiritish orqali, ya’ni ta’lim vositalarini takomillashtirish tufayligina mumkin. Oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilarining bilim sifatiga qo‘yiladigan talablarning ortib borishi ilmiy-texnika taraqqiyotining muqarrar natijasi bo‘lib, ular sharoitida o‘quv jarayoni o‘zgarishsiz qolishi mumkin emas. Talabalar uchun o‘qitish mazmuni murakkab va ko‘p komponentli tuzilishga ega bo‘lib, o‘rganilayotgan ob’yektlar, hodisalar va jarayonlarning xilma-xilligi bilan ajralib turishi tufayli uni chuqur o‘zlashtirish bilan bir qatorda ta’minlash ham muhim ahamiyatga ega. Katta hajmdagi nazariy bilimlardan ijodiy foydalanish imkonini beradigan axborot kompetensiyasini rivojlantirishning muhimligi ham aynan shunda namoyon bo‘ladi. O‘quv rejasidagi har bir fan bo‘yicha talabalarni tayyorlash jarayonida hal qilinadigan didaktik vazifalar rang-barang va chuqur aniq, kasbiy nazariy va amaliy yo‘nalishga ega bo‘lib, yaxlitligi va to‘liqligi bilan ajralib turadi. Bularning barchasi ularning axborot kompetensiyasini rivojlantirish uchun ta’lim muassasasining axborot resurslaridan zamonaviy pedagogika fanining yutuqlarini hisobga olgan holda kompleks foydalanishni taqozo etadi[2].

Xulosa sifatida shuni aytishimiz lozimki, oliy ta’lim talabalarining axborot kompetensiyasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki, talabaga bo‘lajak pedagog sifatida qaraganimizda buning naqadar dolzarb masala ekanligini his qilamiz. Axborot oqimi shiddatli bo‘lgan davrda axborotni chin yoki yolg‘onligini aniqlash, tahlil qilish, saqlash, uzatish kabi bilimlarga ega bo‘lishning asosi axborot kompetensiyasi sifatida qaraladi. Axborot kompetensiyasini shakllantirish

nafaqat ta’lim sifati va samaradorligini oshirish omili sifatida, balki axborotlar bilan ishlash madaniyatini shakllanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Avliyakulov N. X. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. - T.: 2001. - 68 s. 4. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. -T.: Ta’lim markazi, 1999.

2. Egamberdiyeva N. M. Madaniy-insonparvarlik yondashuvi asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish. - T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2009. - 135 b

3.Rusina, I.P. Axborot texnologiyalari va ularning o‘qitish shakllari va usullariga ta’siri [Matn] // “Ta’limda yangi texnologiyalarni qo‘llash” XV xalqaro konferensiya. Troitsk, 2004.-C. 204-206.

4.Urinov U. “Status and problems of cooperation with higher educational enterprise enterprises”, International Journal of Psychosocial Rehabilitation, vol. 24, no. 8, pp. 5277-5282, 2020. ISSN: 1475-7192.

Anvar YOQUBOV,
Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti
Tillarni o‘qitish kafedrasi o‘qituvchisi

CHET TILINI O‘QITISHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: mazkur maqolada ta’lim jarayonida innovatsion metodlar va texnologiyalar foydalanish to‘g‘risida mulohaza qilinadi. Ta’lim tizimida xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha qo‘llanilayotgan pedagogik texnologiyalar haqida fikr yuritiladi. Chet tilini o‘qitishdagi ayrim metodlar haqida so‘z borib, misollar bilan o‘rganiladi. Zamnoviy texnikalardan foydalanib dars o‘tishning samaradorligi xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *zamonaviy ta’lim, innovatsion texnologiyalar, uslub,metod, mahorat, talaba, o‘qituvchi.*

Annotation: this article discusses the use of innovative methods and technologies in the educational process. Pedagogical technologies used for teaching foreign language in the educational system are discussed. Some methods of teaching a foreign language are discussed with examples. It is about the effectiveness of teaching using modern techniques.

Key words: *modern, education, innovative, technologies, style, method, skill, student, teacher.*

Аннотация: в данной статье рассматривается использование инновационных методов и технологий в образовательном процессе. Обсуждаются педагогические технологии используемые для обучения иностранному языку обсуждаются на примерах. Использование современных методик говорит об эффективности занятия.

Ключевые слово: *современное образование, инновационные технологии, стиль метод, умение, ученик, учитель.*

Kirish. Bugungi kunda yurtimizda ta’lim tizimida barcha ta’lim bosqichlarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning asosiy mazmuni ta’lim tizimini yangilash hamda yanada rivojlantirishga qaratilgandir. Shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda oliy ta’lim tizimida pedagogik faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilardan tortib, bog‘cha tarbiyachilarigacha ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni modernizatsiyalash, mazkur jarayonga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish asosiy masala sifatida qaralmoqda va xorijiy tajribalarni o‘rganib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bunday vazifalarni amalga oshirishda pedagog zimmasiga ta’lim-tarbiya mazmuniga bog‘liq innovatsion ta’lim texnologiyalarini tanlash, mavzuni yoritib berishda turli maqsadli mashg‘ulotlar bilan ishlash, texnologik xaritalarni loyihalash, ularda belgilangan o‘quv maqsadlarini amalda qo‘llay olish, talabalarning yosh, psixologik xususiyatlariga asosan talaba shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil eta olish asosiy vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. [3]

Muhokama va natijalar. Ta’lim tizimida innovatsion texnogiyalardan foydalanish natijalarini ingliz tilini fanini o‘qitish misolida o‘rganamiz. Bu borada qator muammolar mavjud. Amaliyotga joriy qilinayotgan pedagogik texnologiyalar to‘laqonli natija bermayaptimi? Hozirgi kunda chet tilini o‘qitish jarayoni o‘n yillar oldingi o‘qitish tizimidan mutlaqo farq qilinib, yangicha xalqaro chet tilini o‘qitish texnikasi amaliyotga keng ko‘lamli ravishda tatbiq etila boshlandi. Bu metodika ta’lim tizimida sezilarli natijalarga erishilgan bo‘lsa-da, hali xalqaro ta’lim talablariga raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda yechimini kutib turgan qator kamchiliklar mavjud. Chet tili bilimini baholash xalqaro tizimida belgilangan me’yorlar: o‘qish, yozish, gapirish, tinglash kabi ko‘nikmalarni shakllantirishda yuzaga kelayotgan murakkabliklarning yechimi qanday? Talaba yodlagan grammatik qoidalarni, so‘zlarni, birikmalarni og‘zaki nutqda qo‘llashdagi passivlik darajasini aktivlikka

o‘zgartirishda duch kelayotgan qiyinchiliklar qanday yo‘llar qo‘llanilmoqda? Bunday muammolar, albatta, o‘z yechimini kutmoqda. Bunday ta’lim tizimida standart o‘quv va test topshiriqlari yoki so‘z boyligini oshirish bilangina amalga oshirib samarali natijaga erishib bo‘lmaydi. Turli rasmlarni tasvirlab aytib berish, hikoyani qayta aytib berish kabi bir qator mashg‘ulotlar talabalar tomonidan axborotni o‘zlashtirishga qaratiladi. Klaster tuzish, Venn diagrammasi, xorijiy tildan ona tiliga tarjima yoki ona tilidan xorijiy tiliga tarjima qilish – produktiv, qisman izlanishli hamda kreativlikni talab qiladigan tushuntirish bosqichi talaba mavzuni umumlashtirib tahlil qiladi, qayta ishlaydi, sinonim so‘zlardan foydalanib qayta aytib beradi va bu orqali mustaqil dalillar keltirib o‘z fikrini himoya qilish talab etiladi.

Amaliyot bosqichida talaba mavzu mazmunini moslashtirishi, qayta ishlashi, loyihalash, modellashtirish, qayta aytib berish jarayonlarida qatnashadi. Klaster tuzish, aqliy hujum, og‘zaki javob, chizmali organayzerlar, Pinboard texnikasi, Insert usuli reproduktiv, produktiv, qisman izlanishli, kreativ darajani ta’minlashga xizmat qiladigan qator amaliyotlar ham alohida o‘rin tutadi. Ta’lim jarayonida talabalarning nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalar bilan baravar rivojlantirib borish talab etiladi.[1,40] Og‘zaki nutqda so‘zlarni faol qo‘llay olish doimiy amaliy jarayon bilan bog‘liq tushunchadir. Shuning uchun ko‘pchilik til o‘rganuvchilarning passiv ko‘nikmalari aktiv ko‘nikmalarga nisbatan natijalar yaxshiroq ko‘rsatgich beradi. Bu borada “Blum toksionomiyasi” haqida fikr yuritish joiz.

Blum toksionomiyasi – o‘quv maqsadlarini aniqlash va shu asosda mashg‘ulotlarni tashkil etish, talabalarning mavzu maqsadidan kelib chiqqan holda, rejalashtirilgan natijaga to‘laqonli erishishlariga qaratilgan. O‘quv maqsadlarini mashg‘ulotning didaktik maqsadlariga muvofiq belgilanishi ta’lim samaradorligini aniqlash va mavjud kamchiliklarga barham berilishiga qaratiladi. Amerikalik o ‘ q u v - psixolog Benjamin Samuel Bloom tomonidan ishlab chiqilgan mazkur toksionomiyada Bloom fikrlash qobiliyatlarini tanqidiy fikrlash va mulohaza yuritish miqdoriga qarab tasniflashning yo‘lini yaratdi. Ushbu toksionomiya o‘z ichiga bilish, tushunish, amaliyotga qo‘llash, tahlil qilish, sintezlash, baholash kabilarni mujassamlashtirgan. Aynan Blum toksionomiyasini qo‘llagan holda o‘qitishda erishilish mumkin bo‘lgan yutuqlarni ikkiga bo‘lish mumkin: birinchisi – o‘quv maqsadlarini aniq va natijaga qaratilgan holda belgilanishi; ikkinchisi – talabalarda egallaniladigan nazariy bilimlar bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish hamda rivojlantirishga erishish. Aslida chet tilini o‘qitish metodikasi fan sifatida 200 yildan ortiq tarixni o‘z ichiga oladi. Bu vaqt ichida chet tilini o‘rgatish metodikasi bo‘yicha olimlar tomonidan juda ko‘plab fikrlar bildirilgan. Akademik L.V.Shcherbaning fikricha bu amaliy masalani hal qiladi, umumiy va xususiy tilshunoslikka asoslanadi. [2,112]

Hozirgi kunda chet tilini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Ayniqsa, tinglab tushunish ko‘nikmasining eng asosiy quroli hisoblanadi. Bunday texnikalar o‘rganuvchiga bir vaqtning o‘zida so‘zlarning talaffuzi, yozilishi va tarjimasini o‘rganish imkoniyatini beradi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o‘rgatish eng samarali usullardan hisoblanadi. Ta’lim jarayonida o‘tkaziladigan treninglarda nutq ko‘nikmalarini shakllantirishga va ijtimoiy moslashuvchanlikni rivojlantirishga yetarli darajada e’tibor berilishi kerak. Bundan tashqari ta’limda har bir darsning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan mashg‘ulotni to‘g‘ri tashkil etilishiga bog‘liq.

Xulosa. Chet tillarni o‘qitishda axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish dars samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Texnologiyalardan foydalanish talabalar uchun ma’lumotni mustaqil ravishda o‘zlashtirish imkoniyatini beradi. To‘g‘ri talaffuz va ingliz tilida so‘zlashuvchilar muloqotini tinglash, onlayn amaliy muloqotga kirishish imkoniyatini beradi. Til o‘rganishda texnologik vositalarning o‘rni beqiyosdir. Barcha ta’lim muassasalarida darslarning samaradorligini oshirishda zamonoviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish muhimdir. Innovatsion metodlardan foydalanish bugungi kun talabi va dars jarayonida yaxshi samaradorlikka erishishning kalitidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.Q.Xatamova, M.N.Mirzayeva. Ingliz darslarida qo‘llaniladigan interfaol usullar (uslubiy qo‘llanma). Navoiy, 2006. 40-bet
2. Балан Д.В. Связь между темпераментом и трудностями в преподавании современной молодежи. – Минск: ЛУЧ, 2021. С.112.
3. Микишева Т.В. Основные проблемы в преподавании. – М.: Новое слово в
4. Хурулбоев, Ш. А., Нишонов, И. А., Мамаджонов, А. В., & Абдувоитов, Р. А. (2020). ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ОНЛАЙН ЎҚИТИШНИНГ САМАРАДОРЛИГИ ВА ИСТИҚБОЛИ. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, (SI-2№ 8).

Dilnoza RO‘ZIYEVA,
Xalqaro Islom akademiyasi magistri

AXBORIY MUHITDA KONTENTNI O‘RGANISH VA YOLG‘ON MA’LUMOTNI ANIQLASHNING SODDA MARKERLARIDAN FOYDALANISH USULLARI

Annotatsiya: maqolada feyk yangiliklarning rost xabarlardan farqi, tarixiy manbalarda ikki xil axborotga bo‘lgan munosabat, turli uydirmalarga nisbatan murosasiz qarashlar va qo‘llanilgan qadimiy usullar, hozirgi davr bo‘ylab axborot tarqalishida manbaning roli, faktcheking qilish usullari, yolg‘on ma’lumotni aniqlashning sodda markerlari haqida bayon qilingan. Aniq amaliy misollar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *axborot manbalari, feyk yangilik, tezkor xabar, ishonchli so‘z, yolg‘on, kontent, OAV, faktcheking, ijtimoiy tarmoq, axborot iste’molchisi, fakt, tekshirilmagan manba, material muallifi, internet, sodda markerlar, tahlil, qidiruv, tarqatilayotgan ma’lumot, qonuniy javobgarlik.*

Аннотация: в статье рассмотрено отличие фейковых новостей от правдивых, отношение к двум видам информации в исторических источниках, бескомпромиссные взгляды на различные измышления и используемые древние методы, роль источника в распространении информации в современности, описаны методы фактчекинга, значение лжи, простые маркеры для идентификации информации. Приводятся конкретные практические примеры.

Ключевые слова: *источники информации, фейковые новости, мгновенное сообщение, достоверное слово, ложь, контент, СМИ, проверка фактов, социальная сеть, потребитель информации, факт, непроверенный источник, автор материала, интернет, простые маркеры, анализ, поиск, распространение информации, ответственность, установленная законом.*

Annotation: in the article, the difference between fake news and true news, the attitude to two types of information in historical sources, uncompromising views on various fabrications and the ancient methods used, the role of the source in the spread of information throughout the present era, methods of fact-checking, the meaning of lies simple markers for identifying information are described. Specific practical examples are given.

Keywords: *information sources, fake news, instant message, reliable word, lies, content, media, fact-checking, social network, information consumer, fact, unverified source, material author, internet, simple markers, analysis, search, dissemination of information, legal liability.*

XXI asrga kelib axborot texnologiyalarning rivojlanishiga xos bo‘lgan jadallik ommaviy axborot vositalari faoliyatiga o‘zining keskin ta’sirini o‘tkazdi. Ya’ni axborot olish manbalari ko‘paygani sari, u bilan bog‘liq muammolar ham ortdi. Bugungi kunda muayyan makonda sodir bo‘lgan har qanday voqea soniyalar ichida axborot iste’molchilari “dasturxon”ida paydo bo‘lyapti. Bu tezkorlik jamiyatda interaktiv muhitni vujudga keltirib, aholi ham axborot almashish jarayonlarida teng ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Biroq, odatda, ushbu iste’molchilar har doim ham olayotgan yoki uzatayotgan ma’lumotining to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekani haqida o‘ylash, uni tekshirib ko‘rishga e’tibor qaratishmaydi. Gap shundaki, oddiy o‘quvchi, tomoshabin, tinglovchi yoki internetdan foydalanuvchi birdaniga rost xabar bilan “feyk” yangilikning farqini ajrata olmaydi. Ayniqsa, u o‘zining jozibali, qiziqtiruvchi tabiatiga ko‘ra, rasmiy, siyqasi chiqqan, quruq, faqat faktlardan iborat oddiy xabarlarga qaraganda kreativligi, shov-shuvliligi, e’tiborni tortishi bilan ommani o‘ziga jalb etishi bilan ajralib tursa. Bu esa jamiyatda yolg‘on axborotning ko‘payishiga sabab bo‘lyapti.

Hozir biz, deyarli, har kuni duch kelayotgan “Feyk xabarlar” bugun uchun yangilik emas. Rasmiy jihatdan e’tirof etilayotgan, tan olinayotgan bunday yangiliklar bosma nashrlar paydo bo‘lgandan buyon mavjud. Mutaxassislar bu iborani uch yuz yildan ko‘proq vaqt avval, aniqrog‘i XVII asrda birinchi marta Germaniyada paydo bo‘lganligini qayd etadilar. Gazetalarda tekshirilmagan axborotga nisbatan “gazeta o‘rdagi” degan ibora yurardi. “Gazetalari adadi va xabarlari dovrug‘ini oshirishni istagan va o‘zlarini tartibli hisoblagan muharrirlar shubhali, tekshirilmagan, biroq e’tiborni tortuvchi yangiliklardan so‘ng ikki harf “NT”– en-te dan iborat belgi qo‘y-ganlar. U “non testatum” – “tekshirilmagan” degan ma’noni anglatardi. Bu belgi ostida taxminan quyidagi mazmunda: “Taksis grafligi hududida ikki boshli va olti barmoqli bola tug‘ildi”ga o‘xshash axborot tarqatilardi [1.5].

Ota-bobolarimiz yashab o‘tgan davrga nazar tashlaydigan bo‘lsak, yolg‘on, fitnachilik, og‘machilikka nisbatan murosasiz qarashlarini bayon etgan shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur axborotlarni tekshirishga ham alohida e’tibor qaratganining guvohi bo‘lamiz. U qo‘llagan usullar mazmunan bugungi faktchekingga juda o‘xshash:

“Dedilarkim, G‘aznining kentlarida bir mazor

bordurkim, salavot aytg‘och, qabr mutaharrik bo‘lur. Borib mulohaza qilildi, qabrning tebrangani mahsus bo‘ldi. So‘ngra ma’lum bo‘ldikim, mujovirlarning tazviri ekandur. Qabrning ustig‘a bir jul’ya yasabturlar, har zamon jul’yag‘a tegadurlar, jul’ya tebrangach, qabr tebrangandek mahsus bo‘ladur. Nechukkim, kemaga kirmagan el kemaga kirgach sohil mutaharrik mahsus bo‘lur. Buyurdumkim, mujovirlar jul’yadin yiroq turdilar, bir necha salavot ayttilar, qabrda harakate mahsus bo‘lmadi. Buyurdumkim, jul’yani buzub, qabrning ustida gunbaz qildilar. Mujovirlarni bu harakattin tahdid bila man’ qilildi”.

Mazmuni shuki, Bobur harakatga keladigan qabr borligi haqida eshitganida, uni o‘zi borib tekshiradi. Qabrning tebrangani seziladi. Ma’lum bo‘lishicha, xizmatchilar qabrning ustiga arqon tortib, ustiga devorsimon qilib mato tashlab qo‘ygan, har zamon arqon qimirlatilsa, mato tebrangani uchun ostidagi qabr qimirlagandek tuyulgan. Shunday qilib oddiy odamlarni hiylalari bilan aldayotgan xizmatchilarning yolg‘oniga chek qo‘yiladi [2].

Abu Rayhon Beruniy esa har qanday uydirmalarni rad qiladi, har bir holatni ilmiy asosda izohlaydi. Do‘l qaytaruvchi toshlar haqida hikoya qilar ekan, Hindistonda brahmanlar so‘zini tekshirib ko‘ruvchi, tabiat hodisasini tushuntirib beruvchi hech kim yo‘qligini tilga olgan. Haqiqatgo‘y olim ham amaliy faoliyatida, ham ilmiy tadqiqotlarida haqiqatdan hech qachon chekingan emas. U hamisha rostgo‘ylik bilan ish tutgani, chin fikrlarni izhor etgani axborot savodxonligi, madaniyati yuzasidan ahamiyatlidir.

Hozir biz, deyarli, har kuni yolg‘on-yashiq xabarlarga duch kelamiz. Ayni shuning uchun jurnalistlarning faktchekingga vaqt ajratishi muhim ahamiyatga ega. Jurnalist axborotni birinchi bo‘lib uzatishga emas, balki yolg‘on bo‘lmagan, aniq, dalillarga asoslangan xabarni yetkazishga ko‘proq urg‘u qaratishi lozim. Bugungi kunda tekshirilmagan ma’lumotlar tarqatilishiga u yoki bu tahririyatda ishlayotgan muxbirning kasbiy salohiyatining yetishmasligi ham sabab bo‘lishi mumkin. Bu esa xalqaro loyihalar doirasida axborotning haqqoniyligini qayta tekshirishga doir faoliyat natijasida jurnalistlar orasida faktcheking jamoalarini shakllantirishga turtki bo‘ldi. Buning uchun tahririyatlarga yordam sifatida 2015-yilning sentabrida “The International Fact-Checking Network” xalqaro faktcheking uyushmasi tashkil qilingan bo‘lib, u Poytner Institute bo‘linmasi sifatida butun dunyoda fakt – chekerlarni birlashtirishga yo‘naltirilganligi bilan ahamiyatlidir. Uyushmadan ko‘zlangan asosiy maqsad — axborot almashish orqali tez rivojlanib borayotgan ma’lumotlarni tekshirish amaliyotini qo‘llab-quvvatlashdan iborat [3.10].

Aslida, har bir faktni kamida 2-3 ta manbadan tekshirish lozim. Bu ishonchlilikni ta’minlaydi. Biroq aynan ijtimoiy tarmoqlar jurnalist va tahririyatning ishini osonlashtirishi bilan bir qatorda, murakkablashtiradi ham. Ya’ni tekshiruvchi axborotlar labirintida chalg‘ib qolishi mumkin. Faktcheking jarayonida ma’lumot va manbani ajratib olish zarur. Aniqrog‘i ikkisi ham obdon tekshirilishi kerak. Shuningdek, oddiy veb-instrumentlar ham bu borada ko‘l kelishi mumkin, masalan, Yandeks, Google saytlari orqali sarlavha, matnning ma’lum qismi yoki iboralarni tekshirish mumkin.

Tezkor va tekshirilmagan xabarlarga nisbatan ishonarli emasligi yoxud tasdiqlanmaganligini ta’kidlagan holda ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu ma’lumotni aniqlashtirish va tekshirish imkonini beradi. Odatda, vahimali, shov-shuvli axborot tez tarqaladi. Afsuski, jurnalistlar ham ushbu ma’lumotlarning tarqatuvchilari bo‘lib qolishyapti. Bunga esa, aksariyat hollarda, foto, video va audio ko‘rinishdagi xabarni faktcheking qilish bilan bog‘liq malaka yetishmasligi sabab bo‘ladi.

Jurnalistlar ham boshqalar kabi axborot iste’molchisidir. Avvalo, har qanday xabarni o‘zi qabul qilib, so‘ngra uni ommaga ulashish oldidan faktcheking qiladi. Zero, ilk qarashda matn va manbasi qanchalik haqqoniy ko‘rinsa-da, uni qayta tekshirib ko‘rish lozim. Yolg‘on ma’lumotni aniqlashning esa sodda markerlari mavjud:

1. Klikbeyt, chinqiruvchan nom: “Olimlar sensatsion ixtironi amalga oshirishdi”, “Epidemiya tobora tarqalmoqda”

2. Chaqiriq, harakatga chorlash: “Mazkur maslahatdan albatta foydalaning...”, “Vaqtni yo‘qotmang, bu xabarni do‘stlaringiz va yaqinlaringizga tarqating!”

3. Yuqori his-hayajon: “Bu o‘ta noxush holat!”, “Bu qanday bo‘lishi mumkin?!”

4. Qo‘rquv va vahima tarqatish, kelajakdan umidsizlik: “Karantin davrida sizni uylaringiz ham qutqara olmaydi...”, “Epidemiya – bu hali boshlanishi…”

5. Soxta ilmiy tadqiqotlar asosida tasdiqlovchi manipulyativ xulosalar: “Vaksina topildi! Olimlar sensatsion tadqiqotlarni amalga oshirishdi”

6. Rasmiy axborot va rasmiy manbalarga ishonchsizlik tarqalishi: “Statistika haqiqiy hodisani ko‘rsatmasdan aldaydi ...”, “Boshqa mamlakatlarda o‘nlab imtiyozlar belgilangan, bizda esa aksincha...”, “Niqob taqib himoya kiyimidagi shaxslarga eshiklaringizni ochmang – ular tovlamachi...”

7. U yoki bu tuzilmalar yorqin nomlari qo‘llanilgan giperssilkalar (linklar) xabarlarda ko‘rsatilmasligi: “London universiteti tadqiqotchilari...”, “AQSH sog‘liqni saqlash departamenti ma’lum qilishicha...”

8. Rasmiy organlar nomlanishining jug‘rofiy jihatdan shaxssizlantirilishi: (noto‘g‘ri ma’lumotni oson talqin qilish uchun, ya’ni hodisa aynan qayerda sodir bo‘lganligini yashirish maqsadida): “Sog‘liqni saqlash departamenti xabar berishicha...”, “Sog‘liqni saqlash

vazirligi huzuridagi ilmiy-tadqiqot instituti ekspertlari ma’lumotlarni ochiqladi...”

9. Xabar yoki axborot muallifi mavhumligi, yoki muallifning “manba” sifatida tilga olinishi: (bunda mazkur resursning boshqa sahifasi, ishlamaydigan sahifa, yoki link orqali ijtimoiy tarmoqlarga o‘tib ketish kuzatiladi).

10. Insayderlik manbalariga ssilka: “Bizning ma’lumotlarga ko‘ra...”, “Prezident ma’muriyatidagi aniq manbalar xabar berishicha...”

11. Rasmiy shaxs xabarini, rasmiy manba axboroti kabi aniq deb belgilash: “Shahar hokimi shaharda kasallanish holatlari kamayganligini xabar berdi...” – degani “Shahar statistika xizmati shaharda kasallanish holatlarlari kamayganligini ma’lum qildi” – degani emas.

12. Bir OAVlarning boshqa OAVlar ma’lumotlariga asoslanishi: Odatda, hududiy OAVlar, ikkilamchi OAV va resurslar tomonidan nashrni keng yoritish maqsadida qo‘llaniladi. Odatda, TOP-media havolasi ko‘rsatilmagan holda, “Falonchi OAV yozishicha” deb ko‘rsatiladi va havola bo‘lgan taqdirda ham, maqola sahifasiga emas, nashrning bosh sahifasiga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

13. Ijtimoiy tarmoqlardagi nashrlarga havola ochilishi, umumiy ma’noda birlamchi manba sifatida: “Twitterda falon haqida ma’lumotlar tarqalmoqda…”, “foydalanuvchilar yozishicha...”

14. Ekspertlarsiz ma’lumotda tarqalayotgan qarorlar, maslahatlar, retseptlar: “Bugungi murakkab davrda, jahon brendlari sizga 10 daqiqa ichida 16 500 u.e. mablag‘ni qo‘lga kiritish imkoniyatini beruvchi so‘rovnomani tarqatishdi...”, “Oddiy imbir va soda istalgan viruslarning kushandasi. Muhimi ularni to‘g‘ri qo‘llash...”

15. Tasvirlar (foto, video) bilan to‘lidirilgan sensatsion mazmundagi ma’lumotlar, ammo odatda, tasvirlar kesilgan, parcha holatlarida tasvirlanadi: Misol uchun, oqqush va delfinlarning Venetsiya kanallariga qaytganligi to‘g‘risidagi xabar feyk. Bu haqidagi barcha foto va video materiallar kesilgan formatda berilgan.

16. Go‘yoki rasmiy manbalarda noodatiy tilni qo‘llash: “Hurmatli fuqarolar. Ijtimoiy xizmatlar Ukrainaning barcha shaharlarida bepul niqob va dezinfektorlar tarqatilmoqda. Bepul yordamni birinchi navbatda nafaqaxo‘rlar, nogironlar, kam ta’minlanganlar oladi...”

17. U yoki bu hodisalarni belgilash uchun aniq sana va vaqt chegaralari mavjud emasligi: “Diqqat! Keyingi hafta davomida ko‘cha va yo‘llar dezinfeksiyasi amalga oshiriladi...”, “Ertaga soat 23.00 vertolyotdan viruslarni zararsizlantiruvchi modda sepiladi...”, “Ertadan fuqarolarni ommaviy tarzda koronavirusga tekshirish boshlanadi...”

18. Boshqa tillardan avtomatik tarzda tarjimasi belgilari:

- Grammatik xatolar;
- Xabarning so‘zlari orasida ortiqcha bo‘shliqlar;
- Matn ichida so‘zlarning katta harf bilan yozilishi.
- Ba’zi so‘zlar noto‘g‘ri tarjima qilinganligi;
- Gapda so‘zlarning xos bo‘lmagan tarzda yozilishi: “Bu ma’lumot rasmiy. Uning Prezident nutqi fuqarolar bilan paytida...”.

19. Xabarlarda skayner nusxalar va hujjatlar skrinshotlarining qo‘llanilishi (haqqoniylikni yoki hujjat deb iddao qilinayotgan qog‘ozning haqiqiqiyligini isbotlash uchun) bunda hujjat sifati juda past bo‘lib, hujjat yoki undagi muhrning tasviri xira bo‘ladi.

20. Manipulyativ tavsifga ega jumlalarning qo‘llanilishi:

- umumlashtirish — “barchaga ma’lumki...”, “barcha biladiki...”, “qadim zamonlardan beri ma’lumki...”
- Bo‘rttirish — “deyarli barcha ...”, “deyarli bir xil …”, “deyarli amalga oshirildi...”

Yuzaga kelgan vaziyat haqidagi axborotni “noto‘g‘ri taqdim etishning ikkita sababi bor: yangilik haqida xabar bergan shaxsning malakasi yo‘qligi yoki kimningdir ongli ravishda xabarni buzib ko‘rsatish istagi” [4] deya yolg‘on axborot sababiga nisbatan izoh bildiradi rossiyalik jurnalist Anatoliy Arni.

Darhaqiqat, tezkorlik – zamon talabi, biroq jurnalist ergashtiruvchi shaxs ekanini yoddan chiqarmaslik darkor. U mediaiste’molchilarning ommaviy axborot vositalaridan kontentni to‘g‘ri iste’mol qilishida yo‘lchi yulduz bo‘lib xizmat qilishi kerak. Ana shunda ishonchli axborot va mediakontentni izlash, uni tanqidiy baholash ko‘nikmasi shakllanadi xalqimizda.

Zero, birgina axborot atomdan kuchliki, u nainki bir inson hayotini o‘zgartirib yuborishi, hatto jamiyat nufuziga ham katta ta’sirini o‘tkazishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Беседы о журналистике / В. В. Учёнова. – М., 1985. С.205.
2. “Boburnoma”da faktchekingga oid misollar – Factchecking.uz
3. Fake news: mediada dezinformatsiya: qo‘llanma / N. Muratova, N. Toshpulatova, G. Alimova. – Tashkent: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa usyi”, 2020. 104-bet.
4. Азы фактчекинга: как научиться замечать ложь в новостях - Kislorod.io /Анатолий Арни.

Ирина ЧЕРНОБРОВКИНА,
старший преподаватель Университета «Ориентал», Ташкент, Узбекистан.

МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКОЙ ЛЕКСИКИ РУССКОГО ЯЗЫКА СТУДЕНТАМ НЕЯЗЫКОВЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ

Аннотация: научная статья посвящена разработке эффективной методики преподавания терминологической лексики русского языка студентам неязыковых специальностей. В статье рассматриваются современные подходы к обучению терминологии, анализируются особенности усвоения специфической лексики в рамках неязыкового образования. Предлагается комплексный методический подход, включающий в себя активные формы обучения, интерактивные методы и современные технологии, с учетом индивидуальных особенностей студентов.

Ключевые слова: *терминологическая лексика, обучение терминам, активные формы обучения, интерактивные методы, специфика языкового образования, технологии в образовании.*

Введение.Современный период развития характеризуется изменениями во всех сферах, как социальной, экономической, политической, так и культурной. Эти изменения выдвигают новые требования к высшему образованию и профессиональной подготовке будущих специалистов для адаптации к мультикультурной, многоязычной среде для реализации личных и профессиональных потребностей.

Согласно требованиям времени, владение русским языком необходимо будущим специалистам различных отраслей в их научной и практической деятельности, общении с зарубежными партнерами, получении информации, для самообразования и профессионального роста. Очень важно сформировать у будущих специалистов навыки работы с литературой на русском языке по выбранной ими специальности, поскольку это информация, которая является одной из основных средств пополнения профессиональных знаний. Любая отрасль оперирует определенными терминами. Поэтому объектом особого внимания является изучение специальной лексики – терминов и их эквивалентов в языке перевода. Знание терминологии помогает не только выполнить адекватный перевод узкоспециализированного текста, но и является неотъемлемой частью общей компетенции специалистов в конкретной отрасли.

Термин является ключевым элементом терминологической системы и обладает определенными характеристиками. Он также представляет собой единицу лексической системы языка, подчиняясь законам развития слова. Терминологическая система, в свою очередь, представляет собой подсистему языка, где специализированные и общие системы взаимодействуют двусторонне и поддерживают постоянное взаимодействие. Термины, принадлежащие узким областям использования, включаются в общеупотребительную лексику, а общеупотребительные слова становятся источником терминологии. Изучение терминов в различных областях литературы является важным на неязыковых факультетах, и внесение общих концепций о терминологических системах в курс преподавания русского языка как иностранного является целесообразным [1].

Стремление к полной определенности значения и стабильности употребления является обязательным требованием к терминам. Особое внимание следует уделять формированию навыков работы с аутентичными текстами на русском языке у будущих специалистов. Важность междисциплинарных связей также подчеркивается, поскольку невозможно обучать русский язык изолированно от базовых дисциплин. Работа с специализированными материалами, описывающими явления, технические новинки и открытия, предполагает тесное взаимодействие между преподавателем русского языка и преподавателями специальных дисциплин. Усвоение терминологического словарного запаса представляет собой одну из наибольших трудностей для студентов, и данная статья уделяет основное внимание различным методам активизации терминологии в неязыковых специальностях. На этапе активизации словарного запаса студенты уже знакомы с рядом терминов по определенной теме, а этап закрепления включает разнообразные упражнения, направленные на более глубокое усвоение значения, формы и употребления слов [2].

Методология

Изучение терминологической лексики представляет собой сложную задачу в области преподавания лексики русского языка для неязыковых специальностей. Основная цель этой работы заключается в овладении терминологической лексикой, которая позволяет студентам не только правильно воспринимать текст, но и активно использовать термины при формулировке своих высказываний в процессе

коммуникации. При разработке методологических основ изучения терминологии в специальности, эта работа должна быть включена в комплексную систему формирования лингвистических (лексических) и речевых умений. Таким образом, лексические навыки рассматриваются как способность понимания и правильного использования терминов в речи [3].

Одной из ключевых задач при изучении терминологии специальности является организация словарного запаса таким образом, чтобы предотвратить перегрузку памяти. Каждый усвоенный термин должен помогать запомнить и повторить предыдущий, создавая связь между ними. И.Д. Салистр отмечает важность определения содержания обучения иностранному языку на основе речевой направленности и последовательности усвоения материала.

Усвоение терминов начинается с их предъявления, при этом ассоциативная связь между изображением и словом может быть хрупкой и быстро угасающей. Для закрепления ранее выученных терминов необходимо включать их повторно в новые ситуации и контексты. Также важно систематически повторять слова-термины в различных формах, обеспечивая максимальную мобилизацию при работе над различными темами и способствуя формированию навыка сознательного переноса [4].

Развитие лексического навыка предполагает укрепление прочной связи между формой и значением на разных уровнях владения языком. Это достигается через многократное повторение, поскольку эффективность воспроизведения зависит от характеристик запоминаемого материала. При формировании терминологических навыков в отношении терминологических единиц необходимо включать этапы усвоения терминов, их активного использования в самовыражении, а также разработку системы упражнений и заданий, способствующих успешному решению поставленных задач.

Учитывая, что форма и значение слова усваиваются в контексте ситуативной соотнесенности и необходимости выражения мыслей, первичное обучение использованию новой лексики после ее предъявления проводится в условных речевых упражнениях, таких как подражание, замена, преобразование и воспроизведение. Тренировка в подражании позволяет учащимся создавать слуховой и зрительный образ слова на основе ощущений, обеспечивая прочное запоминание формальных признаков слова. Упражнения на замещение способствуют укреплению ассоциативных связей и развитию операции называния слова. Кроме того, упражнения с вопросами и ответами, в форме диалога, а также игровые методы с активным участием преподавателя, предоставляющего словесную поддержку, являются эффективной стратегией для запоминания новых терминов [5].

Цель следующего этапа состоит в формировании конкретных терминологических навыков и умений, связанных с разработкой этих терминов. Важными задачами также являются развитие умений выявления терминологических сочетаний в тексте, освоение законов функционирования термина в контексте и определение положения терминологической единицы в процессе высказывания. Для успешного достижения этих целей требуется тщательный отбор текстового, лексикографического и иллюстративного материала, предоставление ключевых ассоциаций к терминологическим единицам и знакомство со структурой терминологической системы.

Упражнения, направленные на использование словарного запаса на репродуктивном уровне, включают в себя активное использование новых слов в устной и письменной речи. Задания, такие как восстановление пропущенных слов в тексте, использование изображений или пиктограмм для замены слов, содействуют поддержанию внимания студентов к содержанию и форме. Творческие упражнения направлены на развитие творческих способностей студентов, что имеет особенно важное значение [6].

Цель третьего этапа – овладение высокоспециализированными терминами и профессиональными оборотами речи. Задачи включают формирование умений использования высокоспециализированных терминологических единиц в речи, знакомство со структурой терминологической системы подъязыка, анализ морфологической структуры производного термина, овладение наиболее продуктивными моделями словообразования и знакомство со спецификой функционирования термина в профессиональных текстах. Использование методик, таких как кроссворды, составление слов из букв и слогов, создание слов путем замены буквы, помогает в усвоении формальных признаков слов [7].

Разнообразные игровые техники, включая поиск пар, составление слов по картинкам, антонимы, синонимы, вопрос-ответ и другие, способствуют укреплению связи между образом слова и его значением. Ассоциативные упражнения, такие как поиск общего слова в цепочке или заполнение ассоциограммы, способствуют более глубокому усвоению терминологии. Эти этапы рассматривают введение терминологии не как одноразовое событие, а как систематизированный комплекс упражнений для закрепления новой информации.

Обсуждение

Основной целью было найти лучший метод изучения терминологической лексики для студентов

нелингвистических специальностей. Изучая статьи по этой теме, мне удалось найти ответы на вопросы моего исследования: студенты продемонстрировали хорошие результаты в изучении терминологии в профессионально ориентированных и значимых задачах, которые были интерактивными по своему происхождению, такими как обсуждения, ролевые игры, моделирование и презентации своих письменных отчетов. Существует прямая связь между использованием терминологической лексики и качеством обучения: чем больше терминологии используется в классе, тем лучше результаты [8].

Как было выявлено в ходе обзора статей, использование терминологической лексики должно систематически применяться во всех видах речевой деятельности, что может обеспечить эффективное усвоение учебного материала, а также повысить способности студентов. Студенты также отметили, что использование аутентичных источников для выбора терминологической лексики помогает не только расширить словарный запас, но и развивает навыки общения. Упражнения являются одним из самых важных средств представления языкового материала и формирования лексических и грамматических навыков и умений, их дальнейшего усовершенствования и превращения в навыки общения. Студентам необходима помощь в освоении словарного запаса и правильной терминологической фразеологии, соответствующей их возможностям, если они хотят успешно справиться с предметом. Преподаватели должны понимать, что не всегда легко дать очень точное определение некоторым терминам в обыденном русском языке и что такие термины лучше понимать в их технической форме. Однако альтернативным подходом к определению терминов было бы использование соответствующих примеров, уже известных студентам. Таким образом, используя терминологическую лексику, студенты смогут более эффективно изучать новые языковые единицы.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Соответственно, приведенные выше методы освоения профессиональной лексики могут быть адаптированы в соответствии с особенностями аудитории, целями и этапами обучения. Гибкость в использовании упражнений позволяет учителям наилучшим образом соответствовать потребностям студентов.

Упражнения, предложенные в тексте, способствуют развитию умения догадываться, активизируют языковую практику и способствуют лучшему запоминанию терминов. Они также поддерживают формирование ассоциативных связей между словами, что является важным элементом процесса усвоения.

Методы, направленные на изучение специальной лексики, особенно терминов и их эквивалентов в языке перевода, обладают высокой значимостью. Это знание не только обеспечивает возможность выполнения адекватного перевода специализированных текстов, но также является неотъемлемой частью общей компетенции специалистов в определенной области. Такой подход позволяет студентам осознать лексические единицы, увидеть связи между словами и грамотно использовать их в различных видах речевой деятельности. В конечном итоге, овладение профессиональной лексикой с использованием эффективных методов обучения становится ключевым элементом успешной подготовки студентов к профессиональной деятельности.

Литература

1. Бакирова Х. Б. (2020). Преподавание терминологии иностранного языка в неязыковом вузе. Международный научно-технический журнал “Инновационная техника и технологии”, 1 (2), 46–50.
2. Берардо, С. А. (2006). Использование аутентичных материалов в обучении чтению. Матрица чтения, 6(2).
3. Бидненко, Н. Р. (2021). К проблеме перевода новой терминологической лексики. Издательский Издательство «Балтия Паблишинг».
4. Мэдсен Б. Н., Томсен Х. Э. и Викнер С. (2004, май). Принципы системы моделирования терминологических понятий. В LREC. Мазур, Э. (1997). Понимание или запоминание: правильно ли мы преподаем. Конференция по вводному курсу физики по случаю выхода на пенсию Роберта Резника (стр.113–124).
5. Назарбаев, Н. А. (2017). Триединство языков – основа поликультурной личности, 54(9)
6. Николаенко, В. В. (2015). Изучение русской терминологии иностранными студентами экономических специальностей как элемент их профессиональной компетентности, (26), 109–118.
7. Смаилова Ф., & Жапаков С. (2021). Ретроспективный анализ дидактических принципов и методов обучения преподавание иностранного языка, 1(1 (75)), 374–379.
8. Заварзина Г. А., & Данкова Т. Н. (2019). Актуальные проблемы развития терминологической системы нового государственного управления. В сети конференций SHS (том 69, стр. 00138). EDP Sciences.

Элина АБДУЛЛАЕВА,
преподаватель Ферганского государственного университета

ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО

Аннотация: в статье анализируются различные подходы, методы и инструменты, которые могут эффективно использоваться для улучшения процесса преподавания и обучения русскому языку. Автор также подчеркивает необходимость адаптации традиционных методик к современным технологическим возможностям с целью создания более эффективной и интерактивной образовательной среды.

Ключевые слова: *инновационные технологии, преподавание русского языка как иностранного, информационно-коммуникационные технологии, интерактивные методы, онлайн-ресурсы, мотивация студентов, коммуникационные навыки, образовательная среда.*

Annotation: the article analyzes various approaches, methods and tools that can be effectively used to improve the process of teaching and learning Russian language. The author also emphasizes the need to adapt traditional methods to modern technological capabilities in order to create a more effective and interactive educational environment.

Keywords: *innovative technologies, teaching Russian as a foreign language, information and communication technologies, interactive methods, online resources, student motivation, communication skills, educational environment.*

Annotatsiya: maqolada rus tilini o'qitish va o'rganish jarayonini takomillashtirish uchun samarali foydalanish mumkin bo'lgan turli xil yondashuvlar, usullar va vositalar tahlil qilingan. Muallif, shuningdek, yanada samarali va interaktiv ta'lim muhitini yaratish uchun an'anaviy usullarni zamonaviy texnologik imkoniyatlarga moslashtirish zarurligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: *innovatsion texnologiyalar, rus tilini chet tili sifatida o'qitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv usullar, onlayn resurslar, talabalarning motivatsiyasi, muloqot qobiliyatlari, ta'lim muhiti.*

С появлением новых информационных технологий открываются широкие возможности для обогащения процесса преподавания русского языка как иностранного. Использование компьютерных программ, онлайн-ресурсов, мультимедийных материалов и интерактивных заданий способствует повышению мотивации студентов, улучшению восприятия и запоминания материала, а также развитию коммуникативных навыков и культурного понимания языка.

– Morfologiya: O‘zbek tilidagi so‘zlarning tuzilishi, shu jumladan, yasalishi va shakllarining o‘zgarishini tahlil qilish.

– Sintaksis: O‘zbekcha gaplardagi so‘z va iboralarning ma’noni bildirish uchun joylashishini tartibga soluvchi qoidalar.

– Semantika : O‘zbek tilidagi ma’no, jumladan, so‘z ma’nolari, gap ma’nolari va ular o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish.

– Pragmatika: O‘zbek muloqotida ma’no talqiniga kontekst qanday ta’sir qilishini o‘rganish.

– Leksika: O‘zbek tilining lug‘at tarkibi, jumladan, so‘zlar, idiomalar va iboralar.

– Dialektologiya: O‘zbek tilidagi mintaqaviy o‘zgarishlar, jumladan, talaffuz, grammatika va lug‘at tarkibidagi farqlarni o‘rganish.

– Tarixiy tilshunoslik: O‘zbek tilining davrlar bo‘yicha taraqqiyoti va evolyutsiyasini, jumladan, uning boshqa tillar bilan tarixiy aloqalarini o‘rganish.

– Til aloqalari: Boshqa tillarning o‘zbek tiliga ta’sirini o‘rganish, xususan, fors, arab, rus va turkiy tillar bilan tarixiy aloqalar tufayli.

– Standartlashtirish: Ta’lim, ommaviy axborot vositalari va davlat organlarida o‘zbek tilidan foydalanish normalari va standartlarini belgilash jarayoni.

– Tilni boshqarish: O‘zbek tilini rivojlantirish va targ‘ib qilish strategiyalari, jumladan, uning lug‘at boyligini kengaytirish va grammatikasini modernizatsiya qilish harakatlari.

– Ortografiya: O‘zbek tilidagi so‘zlarning imlo va tinish belgilarini tartibga soluvchi qoidalar.

– Korpus Linvistika: O‘zbek tilidagi til qo‘llanish qonuniyatlarini o‘rganish uchun katta hajmdagi matnlar to‘plamini tahlil qilish.

– Sotsiolingvistika: O‘zbekistonda til va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish, jumladan, til o‘zgarishi, til siyosati va tilni rejalashtirish masalalari.

Bu atamalar o‘zbek tilshunosligining keng ko‘lamli mavzularini qamrab olgan bo‘lib, til va uning jamiyatdagi o‘rnini tushunishga qiziquvchilar uchun boy ta’lim sohasini taklif etadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilshunoslik atamalarini o‘rganish o‘zbek tili va madaniyatining boy gobelenini ko‘p qirrali o‘rganish imkonini beradi. Leksikografiya, korpus lingvistikasi, etimologiyasi, semantik tahlili, dala ishi va hisoblash tilshunosligi orqali tadqiqotchilar o‘zbek til iboralari tarkibiga kirgan murakkab ma’nolar, tarixiy ildizlar va madaniy ahamiyatni ochib beradilar. Olimlar o‘zbek tilshunoslik atamalarini hujjatlashtirish, tahlil qilish va saqlash orqali o‘zbek tilining jonlanishiga hissa qo‘shadi, madaniyatlararo tushunishni rivojlantirishga hissa qo‘shadi va keyingi ilmiy izlanishlar va texnologik innovatsiyalarga yo‘l ochadi. Dinamik tadqiqot sohasi sifatida o‘zbek tilshunoslik terminlarini o‘rganish nafaqat til dinamikasi haqidagi tushunchamizni boyitibgina qolmay, balki o‘zbek madaniyatining bardavom merosi va rang-barangligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begmatov E. “O‘zbek tili antroponimikasi” (Qo‘llanma) T-2013-y.
2. Qorayev S. “ Toponimika”(Qo‘llanma) T-2009-y.
3. Yo‘ldoshev B. “O‘zbek onomastikasi masalalari”(Qo‘llanma) S-2011-y.
4. Rahmattullayev Sh. “O ‘zbek tilining etimologik lug‘ati” T-2000y.

Behzod XUDOYQULOV,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘qituvchisi,
E-mail: behzod_xudoyqulov@dtpi.uz

O‘ZBEK TILIDAGI SON KOMPONENTLI IBORALAR VA ULARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek tilidagi son komponentli iboralar va ularning lingvomadaniy xususiyatlari to‘g‘risida fikr yuritilgan. Unda son komponentli iboralarning turli raqamlar orqali qo‘llanilishi, ma’no xususiyatlari, inson ijtimoiy va madaniy hayotidagi tutgan o‘rni, muloqot kontekstida ifodasi va lingvomadaniy ahamiyati borasida misollar bilan tahlillar asosida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: *komponent, iyerarxik jihat, lingvokulturologiya, leksema, idioma, paremiya, variativlik.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются узбекские числовые выражения и их лингвокультурные особенности. Предоставляется информация на основе анализа с примерами об употреблении выражений с числовым компонентом через разные числа, их значении, их роли в социальной и культурной жизни человека, их выраженности в контексте общения, а также их лингвокультурном значении. .

Ключевые слова: *компонент, иерархический аспект, лингвокультура, лексема, фразеологизм, паремия, вариация.*

Annotation: in this article, the Uzbek number-component expressions and their linguistic and cultural features are discussed. It provides information based on analysis with examples about the use of expressions with a numerical component through different numbers, their meaning, their role in the social and cultural life of a person, their expression in the context of communication, and their linguistic and cultural significance.

Key words: *component, hierarchical aspect, linguistic culture, lexeme, idiom, paremia, variation.*

Tilshunoslikda so‘nggi yillarda tadqiqot ishlarining o‘ziga xos asosi antropotsentrik tamoyil ekanligi umumiy

qabul qilingan bo‘lib, uning mohiyati shundan iboratki, “ilmiy obyektlar, eng avvalo, inson shaxsini rivojlantirish va uni takomillashtirish inson uchun tutgan o‘rni, maqsadiga ko‘ra o‘rganiladi [1].

Frazeologik birlik komponenti deganda biz semalar tizimi sifatida sifat o‘zgarishlariga uchragan va so‘zning tashqi, rasmiy ajratilishini saqlab qolgan, belgi yoki a’zo vazifasini mustaqil bajara olmaydigan ma’noga ega bo‘lgan muhim yoki yordamchi so‘zni tushunamiz. Jumladan, raqamli komponentlar – bu sonning aniq yoki yashirin belgisini o‘z ichiga olgan so‘zlar bo‘lib, bir xil obyektlar sonining mavhum ko‘rsatkichi bo‘lib, ularni sanashda belgilash, sonlar frazeologik birliklarning tarkibiy qismlariga aylanib, iyerarxik jihatdan bog‘liq bo‘lgan semalar tizimi sifatida o‘zining leksik ma’nosini yo‘qotadigan miqdoriy so‘zlarning o‘ziga xos toifasida o‘z aksini topadi.

Bu yo‘nalishdagi fanlararo fanlar ichida til va madaniyatning o‘zaro munosabati va o‘zaro ta’sirini o‘rganuvchi lingvokulturologiya alohida ajralib turadi. Til, olimlarning fikricha, unda saqlanadigan milliy madaniyatning tarjimoni, tashuvchisi vazifasini bajaradi. U xalqning mentaliteti, dunyoqarashi, empirik tajribasi, axloqi, qadriyatlar tizimi va boshqalarni aks ettiruvchi madaniyatda ham rivojlanadi. Har qanday etnik guruh ongida, ya’ni dunyoning lingvistik tasvirida shakllangan madaniy tushunchalarning asosiy leksik vakillaridan biri frazeologik birliklardir. Frazeologiya, V.N.Telia fikricha, “lingvomadaniy jamoa o‘zining milliy o‘ziga xosligini belgilaydigan ko‘zgu”, “haqiqiy hayotdagi tilning eng madaniy tarkibiy qismi” sifatida ta’riflanadi. [2].

Raqamli komponentli iboralar birliklari keng komponentli frazeologik birliklar guruhi sifatida eng samarali birlik sifatida qo‘llaniladi. Muloqot kontekstida son komponentli iboralarning qo‘llanilishi alohida mazmun-mohiyatni anglashda ixchamlik va yakdillikda ifodalashga xizmat qiladi. Masalan,

Bir yoqda tursin – u yoqda tursin;

Bir yoqli bo‘lmoq – hal bo‘lmoq, bartaraf etilmoq;

Bir qulog‘idan kirib, ikkinchi qulog‘idan chiqib ketmoq-esdan chiqarmoq, unutmoq;

Bir jon - Bir tan bo‘lmoq – hamjihat bo‘lmoq.

Bu kabi iboralarning tilshunoslikda turli ma’no anglashilishida o‘zining boshqa birliklardan farqli jihati qisqaligi, muloqot uchun oson ifoda etilishi, xabar mazmuni boshqalar uchun tez tushunishga imkon berishini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbek tilidagi eng katta ibora yaratish qobiliyati – bu kardinal sonlar (70%), ular orasida birinchi komponentli birliklar (kamida bir ko‘z bilan qarash, bir ovozda, bitta uyda yashash), ikkinchi komponent (qisqa qilib (bir so‘z bilan) aytganda, ikki bosqichda, ikki etikka oyog‘i tiqilmoq), yetti komponent bilan (yetti o‘lchab bir kes, yetti uxlab tushiga kirmaslik ...).

Bundan tashqari, frazeologik nominatsiyalar “madaniy jihatdan belgilangan katta hajmdagi “yiqilgan” ma’lumotni ifodalaydi, chunki ular jamiyat rivojlanishining ma’lum bir bosqichida ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan hodisalarni aktuallashtiradi” [3]. Shu asosda frazeologik birlikni milliy madaniyatning bir qismiga aylangan fikrlarni o‘z ichiga olgan tayyor turg‘un ibora deyish mumkin, shuning uchun u lingvomadaniyatdir.

Bugungi kunda turli tillarda so‘zlashuvchi xalqlar tafakkurining rivojlanish bosqichlarini, ularning madaniy-tarixiy an’analarini aniqlash maqsadida lingvokulturologiya kontekstida frazeologik birliklarni qiyosiy o‘rganishga tilshunoslarning qiziqishi ortib bormoqda va tilda aks ettirilgan o‘ziga xos dunyoqarash, shu bilan birga, ushbu tadqiqot usuli tahlil qilinayotgan tillarning qarindoshlik yoki bog‘liqlik darajasini va ular uchun umumiy bo‘lgan hodisalarning paydo bo‘lishining nisbiy xronologiyasini aniqlashga yordam beradi.

Ushbu maqola o‘zbek tilida son komponentni o‘z ichiga olgan iboralarning lingvomadaniy yondashuv nuqtayi nazaridan qiyosiy tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, maqolada asosan bir, ikki va yetti sonlari ishtirokida tuzilgan iboralar va ularning lingvomadaniy tahlili borasida fikr yuritilgan. Jumladan, bir soni ishtirokidagi iboralarga e’tibor beradigan bo‘lsak, masalan,

Bir boshini ikkita qilmoq – Boshi ikkita bo‘ldi.

Bir yostiqqa bosh qo‘ymoq – Oilaviy hayot kechirmoq.

Bir yoqadan bosh chiqarmoq – Hamjihat/yakdil bo‘lmoq.

Bir pul bo‘lmoq – Barbod bo‘lmoq.

Ko‘rinib turibdiki ushbu birliklarda keltirilgan misollarda ma’no anglashilishi, xabar mazmuni yoki birgina bir soni bilan berilgan iboralarda inson hayotidagi turli madaniy xususiyat til ifodasi orqali bir qancha ijtimoiy miqyosidagi jarayonlarni aks ettirmoqda

Evfemik ma’noli leksemalar munosabatidagi o‘zaro farqlanish tamoyili, ayniqsa, quyidagi birliklarda yorqin ko‘zga tashlanadi. Ushbu misollar tahlilidan ko‘rinib turibdiki, keltirilgan har bir iborada o‘ziga xoslik komponentlari jamlanmasini ko‘rish mumkin.

Bir boshini ikkita qilmoq – Boshi ikkita bo‘ldi. Xalqimiz azaldan andisha, tarbiya bilan bog‘liq ravishda ikki yoshni turmush qurishida ayni shu iborani boshqacha aytganda, unashtirmoq (uylantirmoq) qo‘llanilishi ko‘rinishida qo‘llagan.

Bir yostiqqa bosh qo‘ymoq – iborasida ham oila va nikoh munosabatlarini ifodalovchi, birga oilaviy hayot kechirish ma’nosidagi ma’nolarni ifoda etadi.

Bir yoqadan bosh chiqarmoq – iborasida shuni anglab yetish mumkinki, unda hamjihatlik, yakdil bo‘lish, birgalikdagi harakat, hamfikr va hamjihatlikdagi harakatga aytiladi.

Bir pul bo‘lmoq – son komponentli iborasining zamirida obro‘-e’tiborda barbod bo‘lishi, qadrsizlanishi, bajarilgan ish harakat yoki muloqot jarayonida izza bo‘lishi ma’nolarida ifodalanadi.

Zamonaviy tilshunoslikda son nafaqat grammatik kategoriya, balki dunyoning lingvistik olamining lingvomadaniy va etnolingvistik tarkibiy qismi sifatida ham ko‘rib chiqiladi. Raqamli simvolizmni o‘rganish bizga til jamiyatlari tomonidan atrofdagi dunyoning majoziy-assotsiativ va intellektual rivojlanishining xususiyatlarini ajratib ko‘rsatishga imkon beradi. Buning sababi shundaki, raqamlar raqamli kodning elementlari sifatida koinotni, odamni va meta-tavsif tizimining o‘zini tasvirlaydi. Qadimgi mifopoetik an’analarda ular betartiblikdan farqli ravishda uyg‘unlik, tartibni anglatuvchi muqaddas ma’noga ega edi va shu bilan g‘ayritabiiy sehrli kuchga ega bo‘lgan sirni o‘zida mujassam etgan [6].

Shu bilan birga, raqam inson tafakkurining konseptual tizimining muhim tarkibiy qismi, shuningdek, umuminsoniy tushuncha va ma'naviy madaniyatning asosiy unsuri hisoblanadi. Tadqiqot obyekti har xil turdagi o‘zbekcha frazeologik birliklarning (idiomalar, frazeologik iboralar, birikmalar va paremiyalar) strukturasi bo‘lib, ular tub, tartib va yig‘ma raqamlarni o‘z ichiga oladi. Masalan,

Yetti buklanib – Ikki bukilib; yetti yoshdan yetmish yoshgacha; yetti uxlab tushga kirmaslik – xayoliga kelmaslik; yetti o‘lchab bir kesmoq – nihoyatda ehtiyotkorlik bilan ish tutmoq; ikki bukilib – ortiq darajada egilib; ikki gapning birida – gap davomida qayta- qayta gapirmoq; ikki ko‘zi to‘rt bo‘lib – intizorlik bilan kutmoq; ikki oyog‘ini bir etikka suqmoq – o‘z fikrining amalga oshishini qaysarlik bilan talab qilmoq; ikki oyog‘ini tirab olmoq – qaysarlik qilmoq; ikki og‘iz – ozgina; ikki so‘zning birida – ikki gapning birida; ikki o‘rtada – ikki tarafning o‘rtasida qolmoq; ikki qo‘llab – hech qanday e’tirozsiz; to‘rt ko‘z bilan – intizorlik bilan; to‘rt ko‘z bo‘lib – ko‘zi to‘rt bo‘ldi; to‘rt og‘iz – bir oz; to‘rt tarafi qibla – qayoqqa xohlasa ketaversin; uch – to‘rt og‘iz – to‘rt og‘iz....

Frazeologizmlarda sonlar turli leksikografik manbalardan uzluksiz tanlab olish usuli yordamida qo‘llaniladi. Shu bilan birga, raqamlarning madaniy semantikasini tushuntirish uchun o‘zbek tilining alohida izohli lug‘atlari va ensiklopediyalaridan foydalanilgan. Son komponentli iboralar sof miqdoriy qiymatlardan tashqari fazoviy, vaqt o‘lchovi, aqliy qobiliyatlarning qiymati, harakat yoki holat kuchining intensivligi qiymati, past darajadagi sifatning taxminiy qiymati, shaxs yoki obyektning xususiyatlarini o‘z ichiga oladi [7].

Turg‘un iboralarning bir qismi sifatida son kategoriyasining ishlatilishi uning hisoblash xususiyatlaridan ajratib olib, o‘ziga xos semantik mazmunni kasb etishiga guvoh bo‘lish mumkin. Muayyan tillar misoli asosida olib borilgan tadqiqotlarni tahlil qiladigan bo‘lsak A.Shakirov tomonidan tadqiq qilingan frazeologik abstraksiya va uning turlari son komponentlari bo‘lgan frazeologik birliklari asosida o‘rganildi. Unda son kategoriyasi uzual va okkazional variativlilik diapazoniga ega. Bunday variativlilikni matndagi frazeologik abstraksiya darajasi nuqtai nazaridan ko‘rib chiqish mumkin, uning almashinishi frazeologik birliklarning matn hosil qiluvchi imkoniyatlarini ochib beradi. Tadqiqotning asosiy maqsadi frazeologik abstraksiya turlarini zamonaviy frazeologik birliklarining son komponentlarining turli darajadagi avtonomiyasi bilan bog‘liq holda o‘rganishdir.

O‘tgan asrning yetmishinchi yillaridayoq son komponentini barqaror birikmalarning bir qismi sifatida o‘rganishga qaratilgan edi. Qator iboralarda son komponentining qo‘llanilishi ularning “sehrli raqam” ekanliklariga bog‘liq, masalan bir, ikki, uch, yetti va b.lar. “Sehrli raqamlar ibtidoiy fikrlash, turli diniy qoldiqlar va xurofotlarning xususiyatlarini aks ettiradi. Qadim zamonlarda odamlar obyektlar yoki hodisalarning miqdoriy atributi sifatida son ham sehrli kuchga ega deb ishonishgan” [8]. Masalan, dunyoning yetti kun ichida yaratilishi haqidagi afsona keng tarqalgan. Bir qator raqamlar vaqt kategoriyasi bilan bog‘liq. S.V.Olxovskayaning kuzatuvlariga ko‘ra, “son komponentli iboralar shakllanishida eng samarali sonlar bu birinchi o‘nta bosh raqamlardir” [9].

Son komponentli iboralar birliklarining ichki shaklining turtki manbai “nol” leksemasining ko‘chma ma’nolari bo‘lgan. Bu raqam dunyoning turli xalqlari ongida “bo‘shliq, yo‘qlik, ibtidoiy tartibsizlik...” uyushmalarini uyg‘otadi. Bundan tashqari “Bir” sonli frazeologizmlar turli tillarda yuqori mahsuldorlikka ega. Turli tillarda ifodalangani kabi ushbu birliklarni o‘rganib chiqib, “bir” so‘zining to‘qqizta ma’nosini aniqladi: yakkalik, moslik, yaxlitlik, diskretlik, kichik son, yaqin masofa, bir xillik va yolg‘izlik [10].

“Bir” leksemasi taqqoslanganda ushbu son lingvomadaniy va ramziy ma’nolarni ifodalaydi. 1. Yolg‘iz, boshqalarsiz, yolg‘iz. Bu ma’no inkor ma’noga ega bo‘lgan maqollarning sinonimik juftligining ichki shaklida mujassamlangan: bir qo‘l bilan tugun bog‘lab bo‘lmaydi; daladagi biri jangchi emas “yakka o‘zi hamma narsani qilish qiyin”.

Shunday qilib, son komponentli iboralarni tahlil qiladigan bo‘lsak, o‘rganilayotgan birliklar dunyoning umuminsoniy va etnospesifik xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Lingvistik universalliklar asosan turli etnik guruhlar kishilarining ruhiy bir xilligi asosida qurilgan modellarning bir xilligi bilan bog‘liq bo‘lib, etnospesifiklik esa o‘ziga xos xususiyatga ega. “Ma’lum bir etnomadaniyat uchun eng muhim obyektlarni, faktlarni, hodisalarni ko‘rsatadigan” o‘ziga xos lingvistik tasvirlar bilan ifodalanadi. O‘rganilayotgan birliklar

orasida shaxs va predmetning salbiy sifatlarini tavsiflovchi son komponentli birliklar ustunlik qiladi, bu esa son komponentli iboralarning umumiy qonuniyatlarini ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kubryakova E. S. Evolyutsiya lingvisticheskikh idey vo vtoroy polovine XX v. (opyt paradigmal'nogo analiza) // Yazyk i nauka kontsa XX v. / pod red. Yu. S. Stepanova. — M., 1995. S. 144—238.
2. Телия В. Н. Культурно-языковая компетенция: ее высокая вероятность и глубокая сокровенность в единицах фразеологического состава языка // Культурные слои во фразеологизмах и дискурсивных практиках. — М. : Языки славянской культуры, 2004. С. 19—31
3. Шкатова В. В. Фразеологическая картина мира как объект лингвистического изучения // Вестн. Петербург. гос. унта. 2012. № 1. Т. 7. С. 207—215.
4. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1978.
5. Hamidov X. Turk frazeologiyasi masalalari. – Toshkent: Bayoz, 2019.
6. Маковский М. М. Сравнительный словарь мифологической символики в индоевропейских языках. — М.: Гуманит. изд. центр «ВЛАДОС», 1996. 416 с.
7. 11. Шакиров А. С. Семантико-типологический анализ нумеративных фразеологических единиц в разносистемных языках: автореф. дис. … канд. филол. наук. М., 1986. 17 с.
8. Ольховская С. В. Некоторые наблюдения над особенностями имени числительного в составе фразеологических единиц // Фразеологическая система языка. Челябинск: Челябинск. гос. пед. ин-т, 1976. С. 123–127.
9. Ольховская С. В. О фразеологических единицах с компонентом-числительным //Лексико-грамматическая сочетаемость в германских языках. Челябинск: Челябинск. гос. пед. ин-т, 1977. Вып.2. С. 74–79.
10. Фаттахова Рузиля Фердависовна. Функциональносемантические особенности числительных в составе ФЕ татарского языка // Филологические науки. Вопросы теории и практики. — Тамбов: Грамота, 2015. № 3. Ч. 2. С. 199—201.

Aqida AMIROVA,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti o‘qituvchisi
aqidaamirova1@gmail.com

NEMIS VA O‘ZBEK TILLARI SOLIQ TERMINOLOGIYASIDA SINONIMIYA HODISASINING TAFOVUTLI VA O‘XSHASH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: maqolada soliq terminologik birliklarini sinonimik tarzda qo‘llanilishi, ularni turli ranglarga bog‘liq holda ifoda etilishi tarjima jarayonida o‘ziga xos qiyinchiliklar, qiyoslanayotgan tillar soliq terminologiyasining tafovutli jihatlari, chog‘ishtirilayotgan tillar soliq terminologiyasining o‘ziga xos analogik (o‘xshash) xususiyatlari tahlil etilgan.

Tayanch so‘zlar: *termin, soliq, soliqchi, soliqqa tortish, soliq terminlar sinonimiyasi, v krasnom, schmutziges Geld, in den roten Zahlen, in den schwarzen Zahlen, das Geld.*

Аннотация: в статье рассматривается употребление налоговых терминологических единиц в синонимичном порядке, их выражение в зависимости от разной окраски, специфические трудности в процессе перевода, различные аспекты налоговой терминологии сравниваемых языков, а также специфические аналогии (схожие) анализируются особенности налоговой терминологии сравниваемых языков.

Ключевые слова: *термин, налог, налогоплательщик, налогообложение, синонимия налоговых терминов, в красном, грязные деньги, в красных цифрах, в черных цифрах, деньги.*

Annotation: the article analyzes the use of tax terminological units synonymously, their expression in relation to different colors, specific difficulties in the translation process, discrepancies in the tax terminology of the languages being compared, specific Analogic (similar) features of tax terminology of the languages being studied.

Keywords: *term, tax, taxpayer, taxation, synonymy of tax terms, dirty money, in the red, in the black, the money.*

Hozirgi zamon tilshunoslik fanida terminlar sinonimiyasi masalasi eng dolzarb va yechilishi murakkab bo‘lgan muammolardan hisoblanadi. Xususan, sinonim terminlar bilan umumadabiy tildagi sinonimiya tushunchalari o‘rtasidagi tafovut masalalari hali to‘laqonli tadqiq etilgan emas. O‘zbek tili lug‘aviy tarkibining asosini tashkil etuvchi asli o‘zbekcha, fors-tojikcha, arabcha leksemalardan iborat soliq terminlar sinonimiyasini turli xil lug‘atlarda va boshqa manbalarda ko‘plab uchratish mumkin. Ilmiy manbalarda, terminologik sinonimiya masalasiga nisbatan

turlicha qarashlar mavjud bo‘lib, aksariyat tilshunoslar sinonimiyani terminlarning aniqligini saqlash uchun ularni kamaytirish tarafdori. O‘zbek xalqi tarixiy o‘tmishda arab, fors, tojik va boshqa millat vakillari bilan do‘stlikda, inoqlikda yashab kelganligidan dalolat beradi [4:45]. Terminlarning tarjimada berilishidagi muqobili nemis tilida yagona termin orqali ifodalanishi esa qiyoslanayotgan tillar soliq terminologiyasining tafovutli jihatlarini ko‘rsatadi. Fikrimizning tasdig‘i uchun ayrim misollarni keltiramiz.

***Der Steuermann** – soliqchi — ammol – soliqgir, **die Steuer** — soliq – solg‘ut — o‘lpon, **die Besteuerung** – soliqqa tortish — soliq yig‘ish — tovon to‘lash, **das Geld** — pul — aqcha, **der Vertrag** — ahdnoma — bitim — shartnoma, **das Einkommen -** daromad — kirim, **das Gehalt-** dastmuzd – maosh, **der Preis** — narx – baho, **die Kosten; die Aufwendungen** - sarf – xarajat — chiqim, **der Mehrwert** — ustama — qo‘shimcha, **das Büro** — boshqarma – idora — mahkama, **der Schuldner** — qarzdor – nasiyador, **der Händler-** bozurgon – savdogar, **der Inspektor** — nazoratchi — tekshiruvchi va b.*

Nemis tilidan farqli tarzda, o‘zbek tilida asli o‘zbekcha – fors — tojikcha yoki arabcha leksemalar qatoriga bir asosli, tub yoki yasama terminlar bilan birikmali terminlarning ham sinonimik munosabatga ega bo‘lishi mumkinligini quyida keltirilgan misollar tasdiqlay oladi: **die Finanzen** — moliya – pul mablag‘i, **die Revenue** — tushum – savdodan tushgan pul, **der Kaufmann, der Geschäftsmann** - savdogar – ishbilarmon, **der Unternehmer** — korchalon – olg‘ir ishbilarmon, **der Kunde, der Käufer** — xaridor – sotib oluvchi, **der Bestechungsgeld-** nehmer — poraxo‘r – pora oluvchi, **der Eigentümer**- mulkdor – mulk egasi, **der Kapitalgeber –** sarmoyador - puli ko‘p shaxs, **der Steuerzahler** - soliqchi – soliq yig‘uvchi va boshqalar. Qayd etish kerakki, hozirgi o‘zbek tilining og‘zaki muloqotida kishilar tomonidan ayrim sinonim jargonlarni qo‘llash hollari ham kuzatilmoqda. Bunday jargonlarni nemis tili leksikasida ham mavjud ekanligi chog‘ishtirilayotgan tillar soliq terminologiyasining o‘ziga xos analogik (o‘xshash) xususiyatlaridan biridir [3:3]. Masalan: umumadabiy tildagi pul-das Geld leksemasining jargonlari, masalan, schmutziges Geld – iflos (harom) pul; jinoiy, noqonuniy yo‘llar bilan topilgan pullarga nisbatan qo‘llanadigan bu iborani ham o‘zbek tilidagi ekvivalenti bir xil. Bu iboraga ma’nodosh sifatida “harom luqma”[1:35; 67] iborasi ham qo‘llaniladi. Bundan tashqari, o‘zbek tili jargonida loy, soqqa kabi so‘zlarni pul o‘rnida qo‘llanganidek, Die Asche – kul, Das Heu – pichan, Die Flocken – qor parchalari, Die Kröten – qurbaqalar, Das Kohle – ko‘mir, Der Kies – shag‘al otlarini ham pul o‘rnida qo‘llash holatlari ikki tilda mavjud.

Terminologik birliklarning bunday tarzda qo‘llanilishi, ularni turli ranglarga bog‘liq holda ifoda etilishi tarjima jarayonida o‘ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan, qizil rang bilan bog‘liq bo‘lgan soliq terminiga quyidagi jumlani misol tariqasida keltiramiz: Wie viele wissen, hat unsere Firma seit dem schrecklichen Ereigniß 93 in den roten Zahlen stagniert. Doch heute kann ich stolz verkünden, dass wir nach zehn langen Jahren endlich wieder in den schwarzen Zahlen sind. – Ko‘pchilik bilganidek, bizning kompaniyamiz 93-dagi dahshatli voqeadan beri qarzdorlik (kamomad, minus) holatida turg‘un bo‘lib kelmoqda. Ammo bugun men g‘urur bilan e’lon qila olamanki, o‘n yildan so‘ng biz nihoyat foyda olishga o‘tdik. »Revenge« Legacy, 2012 (Filmuntertitel).

Keltirilgan nemischa jumladagi “roten Zahlen” so‘z birikmasi rus tiliga aynan “в красном – noqulay holatda qolmoq” tarzida tarjima qilinsa, o‘zbek tiliga uni bu o‘rinda so‘zma — so‘z emas, balki kontekstual ma’nosidan kelib chiqqan holda “qarzdor bo‘lmoq, ziyon, zarar ko‘rmoq”[2:56] tarzida tarjima qilish maqsadga muvofiq. Raqamga tegishli bo‘lgan so‘z doirasi juda rang-barang va xilma-xildir. Qadimda tijorat hisobidagi tijoriy yo‘qotishlar, qarzlarni ajralib turishi uchun qizil siyohda yozilgan. Olingan foyda esa qora rangda yozilgan, shu sababli schwarzen Zahlen so‘z birikmasi – foyda keltirmoq ma’nosida qo‘llaniladi.

“Der deutsche Wortschatz von 1600 bis heute” lug‘atida rote Zahlen so‘z birikmasi Schulden, finanzielle Verluste; Stadium der Geschäftsentwicklung, in dem die Ausgaben die Einnahmen übersteigen, Verlustzone ma’nolarida qo‘llanilishi keltirilgan.

DUDEN. Wörterbuch. Wendungen, Redensarten, Sprichtwörter lug‘atida **roten / schwarzen Zahlen** so‘z birikmasi bilan bog‘liq quyidagi iboralar keltirilgan: rote Zahlen schreiben (Verluste/minus machen) – zarar qilmoq; pul yo‘qotmoq [6: 212]; schwarze Zahlen schreiben (Gewinne machen) – foyda olmoq; aus den roten Zahlen [heraus]kommen, [heraus] sein (aus der Verlustzone herauskommen, heraus sein; Gewinne machen) – qarzdorlikdan qutulmoq, qarzini uzmoq zarardan chiqmoq; foydaga o‘tirmoq; foyda ola boshlamoq; in die roten Zahlen kommen/geraten/ rutschen – zararga kira boshlamoq; qarzga botmoq; in den roten Zahlen sein/stecken (Verluste machen) – pul yo‘qotmoq; kamomadga kirmoq; qarzdor bo‘lmoq; in den schwarzen Zahlen sein (Gewinne machen) [5:180] – foyda qilmoq kabi iboralarni uchratish mumkin bo‘ldi. Misollar tahlillaridan anglashiladiki, daromad, tushum va pul terminlari soliq sohasi amaliyoti hamda terminologik birliklarining asosi bilan bog‘liq bo‘lgan leksemalardir.

Geld ist ein Tauschmittel, das aus Banknoten und Bankeinlagen oder anderen Dingen besteht, die zum Kauf von Waren und Dienstleistungen verwendet werden können und als Zahlungsmittel akzeptiert werden, weil andere es für den gleichen Zweck verwenden können - Pul - bu banknotalar va bank depozitlaridan yoki tovarlar va xizmatlarni sotib olish

uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan va to‘lov vositasi sifatida qabul qilinadigan boshqa narsalardan iborat ayirboshlash vositasi, chunki boshqalar undan xuddi shu maqsadda foydalanishlari mumkin [7].

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash lozimki, soliq va bojxona terminologiyasi iqtisodiyot leksikasining ajralmas tarkibiy qatlami bo‘lgani bois mazkur tizimda ham sinonimiya hodisasi keng tarqalgan. Terminlarning berilishida sinonimik birliklarning o‘ziga xos salbiy va ijobiy jihatlari mavjud. 1) Ularning ijobiy holati shundaki, tizimdagi birliklarning sinonimlik holatini hisobga olib, tarjimada lisoniy vositalarni to‘g‘ri tanlash muhimligi, ularning semantik belgilari va uslubiy vazifalari asliy monandini topib ishlatish jarayonida qo‘l keladi; 2) Salbiy holati esa har qanday terminologiyada sodir bo‘ladigan determinologizatsiya va reterminologizatsiya hodisasi natijasida birliklarning funksional-semantik diapazoni kengayib, torayib turish xususiyatlariga ega bo‘lishi natijasida tizimga ko‘chgan sinonimik birliklar tarjima jarayonida muayyan qiyinchiliklar tug‘diradi

Nemis va o‘zbek tillari soliq va bojxona terminologik tizimida sinonimik, omonimik, polisemantik, giperonimik, giponimik va antonimik munosabatlar keng tarqalgan. Sinonimik, omonimik va polisemantik munosabatlar terminlarning berilishi jarayonida muayyan qiyinchiliklar (interferensiya) tug‘dirishining asosiy sababi shundaki, ular terminologiyada yuz beradigan “determinologizatsiya hamda terminologizatsiya” hodisalari natijalari bilan bevosita bog‘liq. Tarjimada terminlarning ikki tilga xos bo‘lgan va xos bo‘lmagan integral va differensial xususiyatlarini e’tiborga olgan holda integral xususiyatga ega bo‘lgan terminlarni kalka usulida, differensial xususiyatga ega bo‘lgan terminlarni esa turli transformatsion usullarda tarjima qilish eng maqbul yo‘ldir. Terminologiyada mavjud bo‘lgan sinonimiya terminlar qo‘llanilishining xilma- xilligi terminologiyadagi asosiy tamoyillar bo‘lmish me’yor va tartibga solish kabilarga mutlaqo zid keladi. Soliq terminologiyasini ilmiy o‘rganish jamiyat a’zolari uchun soliq to‘lov majburiyatlarini aniq va qisqa, barchaga bir xilda tushuniladigan darajaga olib kelishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Raxmatullayev.Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. — T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1982.
2. Jumaniyozov O. O‘zbek tilidagi german tillari o‘zlashmalari. — T.: Fan, 1987.
3. Axmedov O. Soliq va bojxona terminlarini ingliz tilidan o‘zbek tiliga berilishi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati.
4. Гречко В.А. Синонимия терминов // Актуалные проблемы лексикологии и словообразования. Вып. № 3. - Новосибирск: 1974.
5. Duden – Redewendungen: Wörterbuch der deutschen Idiomatik (Duden — Deutsche Sprache in 12 Bänden). Dudenverlag Berlin. 2020.
6. Duden. Deutsches Universalwörterbuch A-Z. Mannheim-Leipzig-WienZürich: Dudenverlag, 1996.
7. https://www.core-econ.org/the-economy/v1/book/de/text/10.html

Muattarxon ISMOILOVA,
O‘zbekiston Milliy Universiteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi mustaqil tadqiqotchi
E-mail:s42813275@gmail.ru

TURKIY TILSHUNOSLIKDA QARASHLILIK-TEGISHLILIKKA MUNOSABAT

Annotatsiya: turkiy tilshunoslikda qarashlilik-tegishlilik kategoriyasi tadqiqiga alohida e’tibor qaratilgan. Tegishlilik kategoriyasi dastlabki grammatik tadqiqotlarning ham obyekti bo‘lgan, ammo mazkur kategoriyani tizimli o‘rganish nisbatan keyin boshlangan. Zamonaviy turkiyshunoslikda qarashlilik (tegishlilik) kategoriyasi alohida kategoriya sifatida mavjud. Egalik va qarashlilik kategoriyasi barcha oltoy, jumladan, turkiy tillarda mavjudligi xususiyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *Egalik , qarashlilik , tegishlilik , kategoriyas , grammatika , egalik , morfologik , sintaktik .*

Аннотация: в туретском языкознании особоэ внимание уделйаэтся исследованию категории принадлежности. Категория релевантности также была объектом ранних грамматических исследований, однако систематическоэ изучение этой категории началос сравнително позже. В современной тюркологии категория принадлежности (принадлежности) существует как отделная категория. Притяжателная и притяжателная категория проявляют особенност присутствия во вцех алтайских, в том числе и тюркских языках.

Ключевые слова: *владение, видение, принадлежност, категория, грамматика, владение, морфология, синтаксис.*

Annotation: in Turkish linguistics, special attention is paid to the research of the category of affiliation. The relevance category was also the object of early grammatical studies, but the systematic study of this category began relatively later. In modern Turkic studies, the category of affiliation (belonging) exists as a separate category. Possessive and possessive category shows the feature of presence in all Altaic, including Turkic languages.

Key words: possession, affiliation, belonging, categories, grammar, possession, morphological, syntactic.

A.D.Kaksinning e'tirof etishicha, turkiy tillarda obyekti sifatida XIX asrning ikkinchi yarmi − XIX asr boshlarida alohida qarashlilik kategoriyasi o'rganish ajratilgan. Mazkur kategoriya A.K.Kazem-Bek, O.Betling, N.I.Ashmarin, P.M.Melioranskiy, N.F.Katanov asarlarining o'rganish obyekti bo'lgan. Ilk grammatikalar yaratilgandan beri qarashlilik kategoriyasini o'rganishga mo'ljallangan bo'lim grammatikalarning ajralmas qismi bo'lgan. Turkiy tillar grammatikasida qarashlilik kategoriyasini ifodalashning morfologik, sintaktik va aralash kabi usullari ajratilgan.

Turkiy tillarda egalik va qarashlilik kategoriyasi masalasi turli tillar tizimida o'rganilgan. Jumladan, G.A.Abuxanov qozoq tilida egalik qo'shimchalarining semantik va sintaktik vazifalari, SH.X.Akbaev turkiy tillarda egalik qo'shimchalarining kelib chiqishi, S.Asliddinov zamonaviy o'zbek tilida qarashlilik kategoriyasi, T.P.Babina possessivlik subyekti va uning ifodalanishi, R.M.Biryukovich chulim-turkiy til materiali misolidaturkiy tillarda mansublik turkumining semantik asoslanishi , S.A.Veliev III shaxsga mansub affiksning yasalish tarixi N.Gadjiev hozirgi ozarbayjon tilida qarashlilik kategoriyasi, N.K.Dmitriev qarashlilik kategoriyasi, V.V.Ivanov qarashlilikning morfologik ifodalanishi, S.N.Ivanov turk tili materiali misolida, S.Kudaybergenov qirg'iz tilida qarashlilik kategoriyasi, E.R.Mindiyarova tatar va xantiy tilida qarashlilikni ifodalashning morfo-sintaktik usuli, K.M.Musaev qoraim tilida qarashlilikni ifodalash usullari, X.G.Nigmatov qadimgi turkiy tillarda qarashlilik shaklining sintaktik usulda ifodalash E.V.Sevortyan qarashlilik kategoriyasi mohiyati, T.Tachmuradov zamonaviy turkman tilida qarashlilik kategoriyasi, Z.G.Uraksin boshqird tilida qarashlilik kategoriyasi masalalarini o'rganishgan.

Mazkur kategoriyani dastlab N.K.Dmitriev egalik shaklida ikki mazmuniy va struktur komponent borligini: predmet (obyektga egalik) va ega nomi (possesor) deb qayd etdi . Uning fikricha, turkiy tillarda egalik va qarashlilik maxsus ko'rsatkichlar – egalik va qarashlilik qo'shimchasi bilan ifodalanadi. Bu ko'rsatkichlar, odatda, unli bilan tugagan asosdan keyin hamda undosh bilan tugagan asosdan keyin keluvchilar deb ajratiladi. N.K.Dmitriev boshqird, tatar, qo'miq, turk, turkman, oltoy, chuvash tillari materiallari asosida xulosalar chiqaradi.

Turkiy tillarda qarashlilik kategoriyasining ochilishida E.V.Sevortyanning hissasi katta. U tegishlilik grammatik shaklining barcha turkiy tillarda mavjudligi, alohida morfologik kategoriya ekanligi, kelishik bilan birga ismlarning xususiyatini ko'rsatishini aniqlagan . Possessivning uch turini farqlar ekan, qarashlilikni ifodalashning quyidagi farqli jihatlarini aytadi:tegishlilikni ifodalashning morfologik usuli asosga shaxs va sonda farqlanuvchi ko'rsatkich qo'shilishi bilan yuzaga chiqadi (atыm − «mening otim»);sintaktik ifoda usulida ham alohida ko'rsatkichlar guruhi mavjud: tegishli bo'lgan predmet nomi (egasi ko'rsatilmagan holda) kishilik olmoshi bilan farqlanadi (bizim at − bizning otimiz); tegishlilikning ifodalashning aralash usuli pleonastik deb ham ataladi, chunki unda yuqoridagi ikki usul ham ishtirok etadi: shaxs va son ikki marta ifodalanadi: qaratqich kelishigi va tegishli bo'lgan predmetda (mening uyim). Egalik/ qarashlilik/ tegishlilik kategoriyasi butun/bo'lak munosabatini xam yuzaga chiqarishi mumkin: predmet va uning qo'llanish sohasi, harakat va uning ob'ektga munosabati, shaxsning tashkilotga munosabati, qarindoshlik, do'stlik munosaatlari va h. Yuqoridagilar qarashlilik kategoriyasi haqida umumiy qarashlar bo'lib, quyida turkiy tillar oilasiga mansub alohida tillarning xususiyatlari tadqiqi borasida amalga oshirilgan ishlarga to'xtalamiz.E.V.Krasnoщekovning "Vozniknovenie i razvitie kategorii posessivnosti" nomli monografiyasi mazkur masalaga bag'ishlangan monografik tadqiqot bo'lib, unda qarashlilik kategoriyasining paydo bo'lishi va rivojlanishi o'rganilgan. Tilshunoslikda alohida tillardagi egalik/qarashlilik kategoriyasi tadqiqiga bag'ishlangan bir necha tadqiqotlarga qaramay, tildagi ushbu kategoriyani turli tizimli tillarda tizimli o'rganish, ularni diaxronik-tipologik jihatdan qiyosiy tahlil qilish imkonini taqdim etdi .

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Andrey D. Kaksin. K voprosu o kategorii prityajatelnosti i formax eyo vыrajeniya v xakasskom yazыke / Tehlikedeki Diller Dergisi /Journal of Endangered Language/ Elektron manzil: https://dergipark.org.tr/tr/download/article-file/689697

2.Abuxanov G.A. Semantika i sintaksicheskaya funksiya prityajatelnыx affiksov v sovremennom kazaxskom yazыke: Avtoref. dis. kand. filol. nauk. – Alma-Ata, 1950. – 22 s.

3.Asliddinov S. Kategoriya prinadlejnosti v sovremennom uzbekskom yazыke: Avtoref. dis. kand. filol. nauk. Samarkand, 1964. – 17s.

4.Babina T.P. Sub'ekt posessivnosti i sposobы ego vыrajeniya// Ideograficheskie aspektы russkoy grammatiki. – M.: Izdatelstvo MGU, 1988. – S. 35-47.

5.Xubieva T.M. Kategoriya prinadlejnosti v karachaevo-balkarskom yazыke: Dis. kand. filol. nauk: 10.02.02. – Karachaevsk, 2005. – 171 s.

6.CHirkoeva D.I. Kategoriya prinadlejnosti v yakutskom yazыke /

Зохид БЕКТЕМИРОВ,
преподаватель кафедры языков Международного университета туризма и культурного наследия «Шелковый путь».

ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРИСОЕДИНИТЕЛЬНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ В СОВРЕМЕННОМ НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация: данная научная статья посвящена исследованию лингвопрагматических особенностей присоединительных элементов в современном немецком языке. Присоединительные элементы, такие как союзы и союзные слова, играют важную роль в структурировании высказываний и организации дискурса, выражая различные отношения между частями текста. Цель исследования заключается в выявлении контекстуальных особенностей употребления присоединительных элементов и анализе их функциональных аспектов. В статье представлены результаты эмпирического анализа, включающего анализ текстовых корпусов и исследование конкретных примеров использования присоединительных элементов в различных контекстах. Полученные данные позволяют лучше понять, как выбор присоединительных элементов зависит от контекста общения и как они служат для выражения различных типов отношений в немецком языке.

Ключевые слова: *лингвопрагматика, немецкий язык, присоединительные элементы, союзы, союзные слова, контекст, эмпирический анализ.*

Annotasiya: ushbu maqola zamonaviy nemis tilidagi bog'lovchi elementlarning lingvistik va pragmatik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Bog'lovchi elementlari matn qismlari o'rtasidagi turli xil munosabatlarni ifoda etish orqali matn tuzishda va nutqni tashkil qilishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotning maqsadi bog'lovchi elementlardan foydalanishning kontekstual xususiyatlarini aniqlash va ularning funktsional jihatlarini tahlil qilishdir. Maqolada matn korpuslarini tahlil qilish va turli kontekstlarda bog'lovchi elementlardan foydalanishning o'ziga xos misollarini o'rganishni o'z ichiga olgan empirik tahlil natijalari keltirilgan. Olingan ma'lumotlar bog'lovchi elementlarning nemis tilida har xil turdagi munosabatlarni ifodalashga qanday xizmat qilishini yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

Kalit so'zlar: *lingvistik pragmatika, nemis tili, bog'lovchi elementlar,bog'lovchi so'zlar, kontekst, empirik tahlil.*

Annotation: this scientific article examines the linguo-pragmatic features of conjunction elements in contemporary German language. Conjunction elements, such as conjunctions and conjunctive words, play a crucial role in structuring utterances and organizing discourse, expressing various relationships between parts of the text. The aim of the research is to identify the contextual peculiarities of conjunction elements usage and analyze their functional aspects. The article presents the results of empirical analysis, including the examination of text corpora and investigation of specific examples of conjunction elements usage in different contexts. The obtained data provide insights into how the choice of conjunction elements depends on the communicative context and how they serve to express various types of relationships in the German language.

Keywords: *linguo-pragmatics, German language, conjunction elements, conjunctions, conjunctive words, context, empirical analysis.*

Введение

Присоединительные элементы в языке представляют собой лингвистические единицы, которые служат для связывания различных частей высказывания и обеспечивают логическую и смысловую цельность текста. Они играют ключевую роль в организации структуры языка и позволяют формировать различные типы связей между словами, фразами и предложениями [8].

Определение присоединительных элементов в языке включает в себя не только союзы, но также и подчинительные союзы, союзные слова и другие морфологические и синтаксические единицы, обладающие сходными функциональными характеристиками. Однако, для целей данного исследования, основное внимание будет уделено союзам, так как они представляют собой один из наиболее значимых типов присоединительных элементов в немецком языке и являются объектом активного лингвистического анализа.

Исследование лингвопрагматических особенностей присоединительных элементов в современном немецком языке имеет важное значение не только для понимания структуры и функционирования языка, но и для развития методов обучения и перевода, а также для эффективного коммуникативного взаимодействия в различных контекстах. В этом контексте, осмысление и классификация присоединительных элементов с учетом их лингвопрагматических особенностей представляет собой важную задачу современной лингвистики [12,9].

Материалы и методы

Исследование лингвопрагматических особенностей в немецком языке обладает значительной

актуальностью в современном лингвистическом контексте по ряду весомых причин.

Во-первых, немецкий язык является одним из наиболее распространенных и важных языков в мире, используемым как родным или вторым языком миллионами людей не только в Германии, но и в Австрии, Швейцарии и других странах. При этом, изучение лингвопрагматических особенностей немецкого языка позволяет лучше понять его структуру, функционирование и различия с другими языками, что имеет важное значение для кросс-культурного обмена и международного взаимодействия [6].

Во-вторых, в условиях глобализации и увеличения межкультурных контактов возрастает необходимость в эффективном использовании немецкого языка в различных сферах общественной жизни, включая деловые, научные, культурные и социальные области. Понимание лингвопрагматических особенностей немецкого языка способствует успешному взаимодействию и предотвращению недопонимания в различных коммуникативных ситуациях [11].

В-третьих, современные исследования в области лингвистики все больше обращают внимание на прагматические аспекты языка, так как понимание не только формальных, но и функциональных характеристик языка является ключевым для адекватного восприятия и анализа текстов, а также для успешного использования языка в различных ситуациях общения [9].

Целью данного исследования является анализ лингвопрагматических особенностей присоединительных элементов в современном немецком языке с целью более глубокого понимания их функциональных характеристик и роли в коммуникативном процессе.

Основные понятия лингвопрагматики

Лингвопрагматика представляет собой раздел лингвистики, который изучает связь между языком и контекстом использования, а также роль языка в реальных коммуникативных ситуациях. В контексте исследования присоединительных элементов в немецком языке, лингвопрагматика становится ключевым инструментом для понимания их функциональной значимости и влияния на процесс коммуникации [3].

Присоединительные элементы обладают семантическими значениями, которые определяют их основные функции и способность выражать различные типы логических и грамматических отношений между частями высказывания. Например, союз "und" обычно связывает две однородные части предложения, выражая их совместное или последовательное существование, в то время как союз "aber" выражает противопоставление или контраст между двумя частями предложения.

Однако, прагматические аспекты контекста также играют важную роль в использовании присоединительных элементов. Выбор конкретного союза или союзного слова может зависеть от коммуникативной цели говорящего, его отношения к слушателю, стилистических предпочтений и даже эмоционального состояния. Например, использование союза "aber" вместо "und" может подчеркнуть контраст или противоречие между двумя идеями, внося эмоциональный оттенок в высказывание [4].

В немецком языке союзы играют важную роль в связывании различных частей предложения и установлении логических и смысловых отношений между ними. Ниже перечислены основные союзы и их основные функции:

– und: Этот союз используется для связывания двух или более однородных частей предложения, выражая их совместное существование или последовательность. Например: "Ich trinke Kaffee und lese Zeitung." (Я пью кофе и читаю газету).

– aber: Союз "aber" обычно выражает контраст или противопоставление между двумя частями предложения. Это может быть контраст по смыслу, времени, условиям и т. д. Например: "Sie ist intelligent, aber faul." (Она умная, но ленивая).

– oder: Этот союз используется для выражения альтернативы или выбора между двумя или более вариантами. Например: "Möchtest du Tee oder Kaffee?" (Хочешь чай или кофе?).

– denn: Союз "denn" указывает на причинно-следственную связь между двумя частями предложения. Он часто используется для объяснения или обоснования предыдущего высказывания. Например: "Ich gehe nicht aus, denn ich bin müde." (Я не иду куда-то, потому что я устал).

– sondern: Этот союз также выражает контраст или противопоставление, но в более узком контексте, обычно используется для отрицания одной альтернативы и указания на другую. Например: "Sie spricht nicht Deutsch, sondern Englisch." (Она не говорит на немецком, а на английском) [2].

Это лишь несколько примеров основных союзов в немецком языке и их функций. Каждый из них играет свою уникальную роль в структурировании высказываний и установлении связей между различными идеями и конструкциями предложения.

Употребление союзов в немецком языке может изменяться в зависимости от контекста и коммуникативной цели высказывания.

– Обычные ситуации: В повседневной речи союзы употребляются для связывания двух или более частей предложения, чтобы выразить их логическую или временную последовательность. Например: "Ich gehe zur Arbeit und dann einkaufen." (Я иду на работу, а потом на покупки).

– Рассуждения и объяснения: в аргументативной речи или при объяснении чего-либо союзы могут использоваться для выражения причинно-следственных отношений или обоснования предыдущего высказывания. Например: "Ich bleibe zu Hause, weil ich krank bin." (Я остаюсь дома, потому что я болен).

– Альтернативы и выбор: в ситуациях, где необходимо выразить выбор между двумя или более альтернативами, союзы могут использоваться для предложения вариантов. Например: "Möchtest du Kaffee oder Tee trinken?" (Хочешь пить кофе или чай?).

– Контраст и противопоставление: в контексте, где необходимо подчеркнуть различие или противоположность между двумя идеями или фактами, союзы могут использоваться для выражения контраста. Например: "Er ist intelligent, aber faul." (Он умный, но ленивый).

– Отрицание одной альтернативы и указание на другую: союз "sondern" используется, когда необходимо отрицать одну альтернативу и указать на другую. Например: "Sie spricht nicht Deutsch, sondern Englisch." (Она не говорит на немецком, а на английском) [1,6].

Подчинительные союзы в немецком языке играют важную роль в создании сложных предложений путем подчинения одной части предложения другой. Они связывают главное предложение с зависимым, указывая на логическую или временную связь между ними. Вот некоторые из наиболее распространенных подчинительных союзов и их функции:

– dass: Этот союз используется для введения придаточных предложений, выражающих утверждение, дополнение или следствие относительно главного предложения. Например: "Ich weiß, dass er kommt." (Я знаю, что он придет).

– weil: Союз "weil" указывает на причинно-следственную связь между главным и зависимым предложением, выражая причину или объяснение для действия, описанного в главном предложении. Например: "Sie geht nicht zum Unterricht, weil sie krank ist." (Она не идет на занятия, потому что она болеет).

– obwohl: Этот союз выражает противоречие между главным и зависимым предложениями, указывая на то, что несмотря на какое-то условие или обстоятельство, происходит какое-то действие. Например: "Er geht raus, obwohl es regnet." (Он выходит на улицу, хотя идет дождь).

– wenn: Союз "wenn" используется для введения условных придаточных предложений, указывая на условие, при котором происходит действие, описанное в главном предложении. Например: "Wenn ich Zeit habe, gehe ich spazieren." (Когда у меня есть время, я иду гулять).

– ob: Этот союз вводит вопросительное придаточное предложение и используется для выражения неопределенности или выбора между альтернативами. Например: "Ich weiß nicht, ob er kommt." (Я не знаю, придет ли он) [7].

Эти подчинительные союзы играют ключевую роль в организации сложных предложений в немецком языке, устанавливая логические, временные, причинно-следственные и условные связи между частями высказывания.

Подчинительные союзы в немецком языке используются в различных типах предложений для установления связей между главным и зависимым предложениями. Вот несколько примеров употребления подчинительных союзов в различных контекстах:

1. Утверждение (dass):

– Главное предложение: "Ich weiß, er kommt." (Я знаю, он придет).

– Подчиненное придаточное предложение: "Ich weiß, dass er kommt." (Я знаю, что он придет).

2. Причинно-следственное отношение (weil):

– Главное предложение: "Sie geht nicht zum Unterricht." (Она не идет на занятия).

– Подчиненное придаточное предложение: "Sie geht nicht zum Unterricht, weil sie krank ist." (Она не идет на занятия, потому что она болеет).

3. Противоречие (obwohl):

– Главное предложение: "Er geht raus." (Он выходит на улицу).

– Подчиненное придаточное предложение: "Er geht raus, obwohl es regnet." (Он выходит на улицу, хотя идет дождь) [4].

4. Условие (wenn):

– Главное предложение: "Ich gehe spazieren." (Я иду гулять).

– Подчиненное придаточное предложение: "Wenn ich Zeit habe, gehe ich spazieren." (Когда у меня есть время, я иду гулять).

5. Вопрос (ob):

– Главное предложение: "Ich weiß nicht." (Я не знаю).

– Подчиненное придаточное предложение: "Ich weiß nicht, ob er kommt." (Я не знаю, придет ли он) [11].

Эти примеры демонстрируют различные контексты использования подчинительных союзов в немецком языке и их роль в организации сложных предложений.

Союзные слова в немецком языке представляют собой отдельную категорию присоединительных элементов, которые связывают слова, словосочетания или предложения. В зависимости от их значения и функций, союзные слова можно классифицировать следующим образом:

Aytishimiz mumkinki, jajman obrazi jamiyatning asosiy qismiga xos bo'lgan nafsning badiiylashtirilgan metaforik obrazidir. Badiiy asardagi obrazning muhim xususiyati hisoblangan metaforiklik adib ijodida alohida mavqe egallagan. Adabiyotshunos olim B.Sarimsoqovning "Badiiy ko'chimlar ichida metafora (istiora) juda katta o'rin egallaydi... So'zning istioraviy ko'chimiga asoslangan badiiy tasvir va ifodasi o'ta darajada favquloddalik kasb etadi. Natijada, vujudga kelgan obrazning ta'sirchanligi yuksak bo'ladi", degan ta'rifi jajmanning hikoyadan romaniy tafakkur darajasiga ko'tarilgan yozuvchi konseptual g'oyasini ochib berishga xizmat qiluvchi obraz vazifasining haqiqatda ham ta'sirchanligi yuksak bo'lgan.

Karlova universiteti tadqiqotchisi V.A. Pyanzinaning "Mualliflik mifi" adabiy janr sifatida mifologik roman tamoyillarining mantiqiy davomi va rivojlanishi bo'lib, mifologiklashtirishdan matnni semantik va kompozitsion tashkil etish vositasi sifatida foydalanadi. Shu bilan birga, "mualliflik mifi" ham tarkibiy, ham mazmun darajasida kuzatilishi mumkin bo'lgan o'ziga xos ikkilamchi xususiyati bilan ajralib turadi", - degan ta'rifi yozuvchi X. Do'stmuxammad jajman obrazi arxetiplik xususiyatiga ega bo'lgan Yuho yoki ajdaho mifologik obrazlariga xos xususiyatlaridan jamiyatda kechayotgan voqea-hodisalarga nisbatan yozuvchi munosabatini badiiy mifologiklashtirishini ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

Tadqiqotchining "Mualliflik mifi" janr aniqlovchisi ma'lum ma'noda oksyumoron bo'lib, u arxaik afsona bilan ifodalangan o'tmish va bizning zamondoshimiz tomonidan tasvirlangan hozirgi zamonning uyg'unligini anglatadi. "Mualliflik mifi"ga o'z tadrijiga ega badiiy-estetik hodisa sifatida qarash lozim", - degan xulosasi X. Do'stmuxammad qo'llagan Yuho – jajman, ajdaho – jajman mifologik munosabatlarini yozuvchi X. Do'stmuxammad "mualliflik mifi" deb talqin etishimizga asos bo'ladi.

X. Do'stmuxammadning "Jajman" hikoyasida jajman obrazi nafs ramzi sifatida "mualliflik mifi"ga asos bo'lgan bo'lsa, yozuvchining "Bozor" romanida zamon va makonda yashayotgan odamlarga xos tabiat ramzi sifatida metaforik oksyumoronni namoyon etadi. "Bozor" romani jamiyat badiiy-estetik tafakkuri in'ikosi sifatida zamon va makonda yuz berayotgan voqea-hodisalarni, fozil insonlar, ramzlar talqini in'ikos etar ekan, qadim miflarda tasavvur tasviri bo'lgan yuho va ajdaholar qadim va bugunni bir nuqtada tutashtiradi, ya'ni odamzot qaysi zamonda, qaysi makonda yashamasin, imon va insofini nafs yo'lida qurbon qilsa, mifologik metaforik jajmanga, ya'ni yuhoga aylanadi.

Mifologik tafakkur tasavvur ta'sirida shakllangan tafakkurdir. Har qanday mif poetikasiga e'tibor bersak mukammallik - hayot, xayol, orzu, obraz – barisi uyg'unlikda, sintezlashib beriladi. Ko'rsatib o'tish joiz,

miflarida – g‘ayri oddiy kuchlar, ma’budlar, xudolar, sehr-jodu va h.z. orqali inson niyati sari intiladi.

Yozuvchi Xurshid Do‘stmuxammad ijodida mifopoetik uslub hikoyadan romanga yo‘naltirilgan ekan, yozuvchining badiiy imkoniyatlarini to‘liq namoyon etgan asar – “Donishmand Sizif” mifopoetik romanidir.

Mustaqillik davrida yaratilgan mifopoetik romanlardan Xurshid Do‘stmuhammadning “Donishmand Sizif”romani qadimgi yunonlarning “Sizif haqidagi mif”i to‘liq reprezentatsiyasi bilan farq qiladi. Yozuvchi Sizif haqidagi qadimgi mifga murojaat qilib, o‘zining yangilangan (neomifologizm) mifini yaratadi, talqin jarayonida ko‘plab o‘zbek maqollari va iboralarni qo‘llaydi, Sizif obrazi, go‘yo-ki insonning dardlari, o‘y-kechinmalari va tashvishlarining ramziy talqini sifatida namoyon bo‘ladi.

Adabiyotshunos olima Z. Pardayeva “Donishmand Sizif” romani janr jihatidan ham, uslub jihatidan yangi bo‘lib zamonaviy o‘zbek romanchiligini bir pog‘ona yuqori ko‘tardi, desak, adashmaymiz. O‘zining badiiy muvaffaqiyati bilan ko‘plab adabiyotshunoslarni, tadqiqotchilarni, kitobxonlarni o‘ziga jalb etdi”, - deya romanni yuqori baholaydi.

Xulosa

Ha, haqiqatdan ham roman chop etilishi bilan, uning xususida xususida bahs-munozaralar, tortishuvlar yuzaga keldi, ilmiy fikrlar bildirildi. Adabiyotshunos olimlar olib borgan muqoyasa ham ushbu roman tegrasida hali ko‘p munozara bo‘lishidan darak beradi: Y.Solijonov “Ajabki, insoniyat hayotining ikki bosqichidan (tiriklik va o‘limdan keyin) kelib chiqadigan bu xulosa absurd falsafasining islom dini qoidalari va shartlariga ham yaqin kelishini ko‘rsatadi” desa, D.To‘rayev “Adibning “Donishmand Sizif” romani yunon mifologiyasi asosida yozilgan va u badiiy uslub jihatidan romantizm, fantastika va realizm tamoyillari jihatidan Dyula Seryon Obyu Kerkegor – daniyalik ruhoniy – faylasuf va yozuvchi Iyeshning “Prometey jumbog‘i” romaniga yaqin turadi”, - deya baholaydi, munaqqid M.Qo‘chqorova “X.Do‘stmuhammad qalami bilan yaralgan yangi Sizif neomifolegemasi undan oldin yaratilgan Siziflardan farqli ravishda mehnat mashaqqatlariga katta kuch-iroda, mehnat sarf etib, o‘z gunohlaridan va mahkumlikdan forig‘ bo‘ladi. Nazarimizda, aynan shu yangilik X.Do‘stmuhammadning neomifologik Sizif obrazini yangilagan deyish mumkin” degan xulosani beradi.

Uch asar – “Jajman”, “Bozor” va “Donishmand Sizif” yozuvchi Xurshid Do‘stmuxammadning mifopoetik tafakkurining serqirra va kengligidan darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Довурбоева Н. “Жажман”нинг жилвалари // Ёшлик. 1991.№5. – Б.42-43;
2. Дўстмухаммад Хуршид.Дустмухаммад Хуршид. Бозор. Роман., - Тошкент: Шарк НМК, 2000. - Б.124.
3. Дўстмухаммад Хуршид. Донишманд Сизиф. Роман. - Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2016. - Б. 249-359.
4. Кассирер Э. Понятие символической формы в структуре о духе // Культурология XX век. — 1998. — № 11. — С. 37—66.
5. 3. Кассирер, Э. Избранное: Индивид и космос / Пер. А. Н. Малинкина. — М.— СПб.: Университетская книга, 2000.
6. Мелетинский Е.М. Введение в историческую поэтику эпоса и романа. - Москва: Наука, 1986.
7. 2. Мелетинский Е.М. Поэтика мифа. - М., 2012. - 336 с.
8. 4. Мелетинский Е.М. О литературных архетипах. - Москва, 1994.
9. Нуруллаева С.М., Ўринова М. Замонавий ўзбек шеъриятида қуш кўринишидаги мифологик образлар тасвири ва талқини // Сўз санъати. Тошкент, 2020. №4. 84-87
10. Pardayeva Z. O`zbekromanipoetikasi. Toshkent. Tamaddun, 2023. – 172 b.
11. ПивоевВ. М. «Мифологическое сознание как способ освоения мира». Петрозаводск, 1991.
12. Пропп В.Я. Морфология волшебной сказки. - Москва: Лабиринт, 2001.
13. Пьянзина В.А. Авторский миф как жанр современной литературы // Universum: филология и искусствоведение : электрон. научн. журн. 2017. № 9 (43). https://7universum.com/ru/philology/archive/item/5111
14. Рахмонова Х.Х. Хуршид Дўстмуҳаммад ҳикоя ва қиссалари бадиияти (образ ва тасвир). Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2021. - 14-б. / 53 б.
15. Ритуально-мифологический подход к интерпретации текста. - Киев, 1998.
16. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Т.: Фан, – Б.43.
17. Солижонов Й. Камю, абсурд, Сизиф ва ўзбек адабиёти // Тафаккур. – Т., 2019. 1-сон. – Б. 78-83.
18. Фрейденберг О.М. Миф и литература древности. - Москва, 1998.
19. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик.: Тошкент, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2020.
20. Қуронов Д. “Ўтган кунлар”: мифопоэтик таҳлил тажрибаси” // Филология масалалари. 2015. №4. – Б. 10 – 16.

Ayimxan ESHNIYAZOVA,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

HIKOYADA BOLALIK OLAMINING BADIIY TALQINI

Annotatsiya: ushbu maqolada Nazar Eshonqulning zamonaviy o‘zbek hikoyachiligini yangi ohang, mavzu, ramz va metaforik tasvir mahorati bilan boyitayotgani “Farishta” hikoyasi tahlili asosida tadqiq qilinadi. Hikoyada yozuvchining ijod mohiyati insonning farishtalik davri – bolalik olami, avlodlarning taraqqiyot iyerarxiyasi, zamonaviy olamda insoniyatni bolalik tark etayotganini badiiy aks ettirish ekani talqin qilinadi.

Kalit so‘zlar: *hikoya, Sancho, ramz, bolalik, farishta, taraqqiyot iyerarxiyasi.*

Аннотация: в данной статье на основе анализа рассказа «Фаришта» исследуется обогащение современного узбекского рассказывания Назара Эшонкула новым тоном, темой, символом и метафорическим образным мастерством. В повести суть творчества писателя трактуется как художественное отражение ангельского возраста человека - мира детства, иерархии развития поколений, того факта, что детство уходит от человечества в современный мир.

Ключевые слова: *рассказ, Санчо, символ, детство, ангел, иерархия развития.*

Annotation: in this article, the enrichment of modern Uzbek storytelling by Nazar Eshonqul with new tone, theme, symbol and metaphorical image skills is studied based on the analysis of the story "Farishta". In the story, the essence of the writer's work is interpreted as an artistic reflection of the angelic age of man - the world of childhood, the hierarchy of development of generations, and the fact that childhood is leaving humanity in the modern world.

Key words: *story, Sancho, symbol, childhood, angel, hierarchy of development.*

Nazar Eshonqul zamonaviy o‘zbek hikoyachiligini yangi ohang, mavzu, tasvir mahorati bilan boyitgan katta ijodkorlardan hisoblanadi. Yozuvchining “Qultoy”, “Bahovuddinning iti”, “Qo‘l”, “Bepoyon osmon”, “Farishta” hikoyalari mumtoz va folklor an’alaridan oziqlangan holda yaratilgan. Hikoyalar xalq og‘zaki ijodi bilan birgalikda bugungi nasrga xos ramz va metaforik tafakkur uyg‘unligining yetuk namunalari deyishimizga asos bor. Nazar Eshonqul butun ijodida badiiyat, sezimlar orqali yangilashga ehtiyoj natijasida adabiyotdagi qoliplarni buzishga harakat qildi.

Yozuvchi o‘z mulohazalarida, ramz – xayolning va hayotning shartli ifodasi, nasr ham, nazm ham asli, ramz, metafora, voqelikning timsoli, voqelikning aynan o‘zi emas, tasavvurdagi aksi ekanligini, adabiyotning ilohiy kuchi ana shu tasavvurni aks ettira olishda ko‘rinishini aytgan [1; 351]. Yozuvchi mulohazalarini “Sibizg‘a volasi”, “Qo‘l”, “Farishta” hikoyalari asoslaydi.

“Farishta” hikoyasi tilining soddaligi, badiiy topilmalari bilan kitobxonni bugungi texnika avlodi haqida o‘ylashga, fikrlashga undaydi. Hikoya 8 qismdan iborat bo‘lib, voqeasi oddiy, ya’ni ham jisman, ham aqlan noqis Boyqulning tug‘ilishidan o‘limigacha bo‘lgan davr hayotidagi asosiy lavhalar tasvirlanadi. Hikoyaning mohiyati “qishloq farishtasi” (Panji muallim ta’rifi) Sanchoning kenja nevara tomonidan o‘yinda o‘ldirilishi voqesida aks etadi. Farishta – bolalik timsoli. “Uyg‘onish davri san’ati va barokkoda farishtalar bola timsoli bilan tasvirlangan. … bolalik dunyo tashvishlari g‘amginlashtirmagan eng baxtli davr. U aql-idrokka qarama-qarshi qo‘yiladigan butun boyliklari bilan namoyon bo‘ladigan qalb hayoti timsolidir” [4;52]. Farishtalik davridan kattalar olamiga bosqichma-bosqich o‘tiladi. Asarda insonning ham jisman, ham ma’nan ulg‘ayish jarayoni bosqichlari, bugungi bolalarning bolalik olamini ramziy ifodalaydi. Yozuvchi bolalikka shunday ta’rif bergan edi va Sanchoni ham shu qiyofada tasvirlaydi: “Bolalik – eshak mingan ashula, ulovdagi hofiz” [1; 285].

Hikoya “Ayagan ko‘zga cho‘p tushar” maqoli bilan boshlanadi va qariyb bir sahifadan iborat boshlanma gap beriladi. Boshlanma gapda yozuvchi Mulla Rahmonning yer-u ko‘kka ishonmay yurgan kelinidan “Mushuk bolasiday bir hovuch” nabiraning chala tug‘ilishi va unga katta umidlar bilan “Boyqul” ismining qo‘yilishi, “Xudo aqldan ham, bo‘ydan ham, do‘rillaydigan ovozdan ham qisgan, sun-u sunbatidan noqislik sezilib turadigan Boyqulning “Bolabuva” (kaltalik kelin), “Sancho” (Panji muallim tomonidan berilgan) nomlarini olishi tafsilotlari beriladi. Hikoyada badiiy makon Tersota qishlog‘i. Hikoya qahramonlari Sancho, Sanchoning xotini va ikkita o‘g‘li. Yozuvchi xotini va o‘g‘illariga nom bermaydi. Mulla Rahmon chala tug‘ilgan nabirasidan chavandoz ham, polvon ham, mulla ham chiqmasligiga ko‘zi yetgach, bir uyur echkini oldiga solib beradi. Umrining oxirigacha Sancho cho‘ponlik qildi, “Bolalik orolida” xayolparast mishiqilar orasida yashadi.

Sancho balog‘at yoshiga yetganda tog‘asi Shukur polvon oshnasi Norsafar qizilni qizini berishga ko‘ndiradi. Ammo Sancho Tersotaga kelgan baxshi Abdullaning ovozi va kuylagan dostonlariga ishqiboz bo‘lib, to‘yiga bir oy muddat qolganda qochib, uch yil badar ketadi. Boyqulni Panji muallim yo‘lda ko‘rib qoladi, qishlog‘iga kelib: “Abdulla baxshi ikkalasi Don Kixot va Sancho Pansaga o‘xshab shamol tegirmoni bilan urush qilishga ketayotgan ekan!.. Xavotir olmanglar, hurliqo Dulsineyani izlab topishgach, malikai muhtarama bilan

qishloqqa qaytib kelarmish”, deb mayna qiladi va shu-shu Boyqul ismi unutilib, Sanchoga aylanadi. Boyqulga o‘zini nima deb chaqirishlarining zarracha qizig‘i, ism bolalarbop bo‘lsa, uni bolalar bilan birlashtirib tursa bo‘ldi edi. Piyoda ketgan Sancho uch yildan keyin qishloqqa eshak minib qaytib keladi.

Norsafar qizilning qizi “sadoqatli chiqib qolgandi”, garchi kuyov to‘yni qoldirib qochib ketgan bo‘lsa-da “qiz qochoq kuyovni shahzodasini kutgan malika kabi o‘z uyida sabr bilan kutgandi” [2, 476]. Kelbati kuyovga ikkita keladigan qiz baribir Tersotaga kelin bo‘lib tushadi va butun Tersotani hayratda qoldirib, bolamijoz eri bilan ahil yashaydi. “Ikki yilgacha boshqa kuyovlarning havasini, kelinlarning hasadini keltirib xuddi sunnat qilingan boladay yasantirib, boshiga qati buzilmagan do‘ppi, egniga oppoq ko‘ylak, baxmal chopon kiydirib yurdi” [2; 477].

Hikoyada Sanchoning ayoli shunday tasvirlanadi: “... xotini ham unga xotin, kerakli paytlarda ona edi: u erini xuddi bolasiday ehtiyot qilar, bolasiday ko‘ngliga qarar, bolasiday xarxashasini ko‘tarar, bolasiday mehribonlik qilardi”. “...daryoning narigi betidagi otasi, inilari mehmonga chaqirishganda Olmadagi ko‘prikka borib o‘tirmay, shundoq Tersota to‘g‘risidan daryo kechib o‘tishayotganini tersotaliklar ko‘p ko‘rgan: kelin lippasini turib olib, daryodan oldin bolalarini, keyin Sanchoni yelkasiga ko‘tarib olib o‘tkazib qo‘yardi” [2; 478]. Sanchoning xotini eriga farzandiday mehribon bo‘lgani va ko‘p kuyungani tufaylimi tez qariydi. Kelin kattalar olamining odami edi. Kattalar olamida hayot mashaqqati, turmush urinishlari kelinni tez qaritdi.

Asarda o‘zbek xalqining bolaparvar xarakteri Sanchoning xotini obrazida jamlanadi: “Yigirma yil eri bilan birga yashab, biror kuni bolalarsiz o‘tmadi, zero eng katta bola erining o‘zi edi”, “… uyi bolalar bilan hamisha liq to‘la edi: ular oshiq, to‘piq, oqsuyak o‘ynashar, kelin esa bir chetda erining boladay qiliqlariga zavqlanib, ba’zida eriga bolalarning yashiringan joyini ko‘zi bilan imo qilib, zimdan o‘zi ham o‘yinga qo‘shilib o‘tirardi” [478]. Xalqimizda azal-azaldan bolalarimiz ertak, doston va boshqa xalq og‘zaki ijodi namunalarini eshitib ulg‘aygani hikoyada quyidagicha beriladi: “Sancho kunduzi bolalar bilan o‘ynab, kechqurun ularga Alpomishning qaytishi-yu Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishini aytishdan charchamasdi”, “Musht urganda qoya ko‘chgan Alpomishim, yig‘lay-yig‘lay ko‘zdan qolgan Boybo‘rim, bir ilikni ko‘p ko‘rishgan Yodgorim-a. Go‘rda tug‘ilib, mayit emgan Go‘ro‘g‘lim-a…”[482]. Sanchoning bola olami tasviri haqida: “…uning xayoli doston aytayotgan palla bu to‘qayda, yildan-yilga yiriklashib, yiriklashgan sayin odamlari maydalashib borayotgan Tersotada – hayot o‘yinida bir-birini aldashga, yamlashga tayyorlanayotgan qishloqdoshlari orasida, bu tog‘larda, bu vaqt o‘lchamida bo‘lmasdi”.

Sancho kattalar orasida o‘zini nochor, notavon, yolg‘iz his qilar, yuragi siqilar, yetti yot begona muhitga tushib qolganday bo‘lar, bolalar orasida esa yayrab-yashnab ketar, ular bilan birga paytlari undan baxtiyor kishi bo‘lmas, dunyoning hech bir orzu-havasini bolalarga qo‘shilib o‘ynash va ularga cho‘pchaklar-u doston aytib berishga almashmasdi, u kattalar dunyosidan qochib, bir umr bola bo‘lib yashashga ahd qilgandek edi. Sancho qariyib 60 yildan oshiq davr mobaynida tersotalik bolalarning tengdoshi bo‘lib qoldi.

Sanchoning ikkita o‘g‘li bor edi. Xotini erta vafot etdi. Xotinining o‘limi ikki yashar kenjasiga qattiq ta’sir qildi, chunki u hali emardi. Onasi yotib qolgani uchun parvarishsiz qolib ko‘kyo‘tal orttirib olgan bolani Sancho bola tasavvuri bilan saqlab qoladi, kenja o‘g‘liga ona ko‘kragi xumor qilganda echki emishni o‘rgatadi.

To‘ng‘ich o‘g‘il onasiga tortib norg‘il yigit bo‘lib ulg‘aydi. Alpqomat yigitning ko‘ngli daryoday keng ekan: u Kalta qishlog‘iga to‘yga borib, kurash tushayotganlarni devor osha tamosha qilayotgan tojik qizni ko‘rib yoqtirib qoladi-yu ichkuyov bo‘lib o‘sha qishloqda qolib ketadi. Shunda Sancho bolacha aqli bilan hal qiladi, Tersotada emas, Kalta qishlog‘iga borib, to‘y qilib beradi. Kenja o‘g‘il tez ulg‘ayadi, u otasining dostonlaridagi qahramonlarni va sarguzashtlarni izlab olis safarga otlanadi. Shaharga ketadi, o‘sha yerda uylanadi. Oradan 14 yil o‘tgach Kenja otasini izlab 12 yoshli o‘g‘li bilan keladi. Shu kelganda Sanchoni ota demaydi “boboy” deb chaqiradi. Sancho nabira bilan tez til topishib, o‘yinga berilib ketadi. “Supermen” o‘yinida maxluq rolini o‘ynaydi. O‘yinga berilgan 12 yoshli nabira qo‘lbola xanjari bilan Sanchoni halok qiladi.

Hikoyada muallif konsepsiyasi texnika va texnologiyalar rivojlangan zamonaviy olamda insoniyatni bolalik tark etayotgani, tug‘ilishi bilan katta bo‘lib qolayotganini aytish edi. Yozuvchi bu xavotirni mulohazalarida ham alohida ta’kidlaydi: “Hayotimizda qadriyatlar o‘rni ham omonat bo‘lib qolyapti. Qadriyatlar “virtual avlod” bilan unchalik chiqishmayapti. Ularga xalaqit berayotganga, shiddat va shitobni to‘sayotganga o‘xshaydi. Shu sababli ertangi “kompyuter avlodi” uni chetlab o‘tishga urinishi aniq”[3; 28]. Sancho – bolalikning timsoli va uni o‘ldirishdi, bugungi texnologiya o‘ldirdi, taraqqiyot o‘ldirdi. Hikoya shunday xotimalanadi: “Sancho bilan birga Tersotaning bolalik davri ham tugaganini ich-ichlaridan his etib tobut izidan boshlarini egib borishardi” [2; 508].

Hikoyada ayoli Sanchoni to‘ng‘ich o‘g‘liday parvarishladi, ammo tez qaridi, erta olamdan o‘tdi. Chunki ayol kattalar olamining odami edi. Kattalar olami murakkab. Ikkita o‘g‘il – bugungi olamning rivojlanish bosqichi, taraqqiyot iyerarxiyasi. To‘ng‘ich o‘g‘il ichkuyov bo‘lsa ham, bir oyog‘i Tersotada edi. Ikki-uch oyda kelin bilan otadan xabar oladi. Chunki to‘ng‘ich o‘g‘il qadriyatlardan batamom uzilmagan. Kenja o‘g‘il hamma narsadan yuz o‘girdi, 14 yilga badar ketdi. Aynan Kenja so‘nggi davr avlodi, bugungi dunyoning

farzandi. Kenja oxirgi degan ma'noda. Sanchoning Kenjaning o'g'li tomonidan o'ldirilishi ham ramziy ma'noga ega. So'nggi davr taraqqiyotning bolalikni o'ldirayotganiga ishora qilingan.

"Farishta" hikoyasi bugungi bolalarda bolalik olamining yo'qolib borayotgani, ular tez qarib qolayotgani haqida. Yovuzlik, o'lim, qon degan narsalarni erta ko'rayotgani, katta avlod bu jarayonga sekin-sekin bosqichma-bosqich borgan bo'lsa, bugungi bolalar tez katta bo'layotgani, bolalikning lazzati, farishtalik davrini kechirmayotganini aks ettiradi. Hikoyada ichimizda farishta bo'lib yashash davrini yo'q qilyapmiz, farishtalikdan mahrum qilib qo'ymoqdamiz degan hayqiriq bor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nazar Eshonqul. Kitob bandasi. – T.: "Akademnashr", 2022.
2. Nazar Eshonqul. Farishta. Saylanma I. – T.: "Akademnashr", 2022.
3. Nazar Eshonqul. "Men"dan mengacha. – T.: "Akademnashr", 2022.
4. Mingboyeva D. Timsollar tilsimi. – T.: Adabiyot, 2022.

Zulfizar AZIZOVA,
"University of economics and pedagogy" NOTM
PhD, dotsent

YOSH AVLOD TARBIYASIDA MEHNATNING AHAMIYATI

Annotatsiya: mazkur maqolada inson hayotida mehnatning o'rni, xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy ahamiyati, xususan, bolalarda mehnatsevarlik sifatlarini singdirishda ertaklarning ta'siri, bu boradagi tavsiyalar ham keltirib o'tilgan. Shuningdek, ayrim ertaklarning qisqacha mazmuniga ham to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *mehnat, ertak, maktabgacha yosh, allomalar, Kaykovus, Gulxaniy, Ayniy, xalq og'zaki ijodi, yosh avlod, mehnatsevarlik.*

Аннотация: в данной статье упоминается роль труда в жизни человека, воспитательное значение фольклора, особенно влияние сказок на привитие детям качеств трудолюбия, а также рекомендации на этот счет. Также было затронуто содержание некоторых сказок.

Ключевые слова: *труд, сказка, дошкольный возраст, учёные, Кайковус, Гульхани, Айний, народное устное творчество, подрастающее поколение, трудолюбие*

Annotation: this article mentions the role of work in human life, the educational significance of folklore, especially the influence of fairy tales on instilling in children the qualities of hard work, as well as recommendations in this regard. The content of some fairy tales was also touched upon.

Key words: *work, fairy tale, preschool age, scientists, Kaikovus, Gulkhani, Ainiy, folk oral creativity, the younger generation, hard work.*

Mehnat har qanday moddiy va ma'naviy boyliklarning asosiy manbayi, shu bilan birga shaxsni har tomonlama kamol toptirishning muhim vositasidir. "Mehnat — insonning maqsadga muvofiq ijtimoiy foydali faoliyati, eng avvalo, tabiat predmetlarini o'zgartirib, ehtiyojga moslashtirishni bildiradi. Mehnat kishilik jamiyati hayotining asosiy sharti, chunki u tufayli insoniyatning yashashi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratiladi"[1;486] .

Har bir bola maktabgacha ta'lim yoshidan boshlab mehnatda ishtirok etishi zarur. Bolalar bog'chasida, oilada bajariladigan uncha murakkab bo'lmagan har bir topshiriq uning kundalik vazifasiga aylanishi kerak. U bolalarning jismoniy rivojlanishida zarur shartlardan biri hisoblanadi. Mehnatda bola o'zining ishlash, harakat qilish ehtiyojini qondiradi, harakatlarning aniq, uyg'un bo'lishini ta'minlaydi. Mehnat jarayonida bola organizmining umumiy hayotiy faoliyati, uning chidamliligi ortadi. Mehnat bolalardan diqqat, o'tkir zehnlilik, topqirlik, bilib olgan malaka va ko'nikmalarini amaliyotda qo'llay bilish, ijodkorlik qobiliyatlarini egallashni talab etadi. Mehnat tarbiyasi estetik tarbiya bilan chambarchas bog'liqdir. Mehnat faoliyati bolalarni quvontiradi, ular bironta foydali ishni bajarayotib, biron kerakli narsani yasayotib o'zlarining kuch va imkoniyatlari o'sib borayotganini sezadilar. "Go'zallik quvonchisiz mehnat quvonchi bo'lmaydi, – deb yozgan edi V.A.Suxomlinskiy, – ammo bularda go'zallik bola ega bo'layotgan narsa emas, balki birinchi navbatda u yaratayotgan narsadir. Mehnat quvonchi – bu turmush quvonchidir". Mehnatning axloqiy qimmati uning jamiyat uchun qanchalik ahamiyatga ega ekanligi bilan belgilanadi. Mehnat har bir bolani o'z mehnatining ijtimoiy ahamiyatini tushunib yetishga, uning jamiyat hayotiga kirib borishiga, o'zini shu jamiyatning a'zosi deb his etishiga imkon yaratadi. Har bir bola oilada, bolalar mehnatida o'z ulushi borligini his eta bilishi lozim. Ishning shu tarzda tashkil etilishi bolalarda jamoachilik va intizomlilikni, burch hissini tarbiyalaydi. Mehnat jarayonida bolalar borliqni faol anglay boshlaydilar, dunyoni materialistik idrok etish imkoniyati yaratiladi. Ularni jismoniy jihatdan ham rivojlantirish bilan birga javobgarlik, mustaqillik, maqsadga qaratilganlilik, qat'iylik, tashabbuskorlik va faollik, sabr-matonatlilik, chidamlilik kabi bola shaxsining axloqiy sifatlarini tarbiyalaydi.

Kattalarning mehnati bilan tanishtirish maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mehnat tarbiyasini amalga oshirish yo'nalishlaridan biri hisoblanib, quyidagi maqsadni ko'zlab ham amalga oshiriladi: kattalar mehnati to'g'risida aniq bilim va tasavvurlar berish, mehnatni va mehnat natijalarini qadrlashga o'rgatish, mehnatga qiziqish va muhabbat uyg'otish, mehnat qilish xohishini tarbiyalash va ishni sifatli bajarishga o'rgatish [5;227].

Jahon fanining rivojiga bebaho hissa qo'shgan allomalarimiz mehnat tufayli ulkan yutuqlarni qo'lga kiritishgan, yoshlarni ham mehnat qilishga chaqirishgan. Ular o'zlari yaratgan turli asarlarida bolalarni savodli, bilimli, ilg'or fikrli, yaxshi xulqli, o'z vataniga, xalqiga muhabbatli, chin do'st hamda mehnatsevar bo'lib yetishishga chaqirdilar. Kaykovus o'z tabaqasi farzandlarining mehnatga qobiliyatsiz ekanligini, mehnatsiz na ilm va na ma'rifatga ega bo'lish mumkin emasligini shaxsiy hayotiy tajribasi orqali tushundi. Shuning uchun u o'g'lini mehnat qilishga, hunar o'rganishga chaqiradi: "Bilimni egallamoq uchun mehnat qilish, badanni dangasalikdan qutqarish foydalidir. Chunki dangasalik, ishyoqmaslik badanning buzilishiga, kasallanishiga sababchi bo'ladi. Agar mehnat qilib badanni o'zingga bo'ysundirmasang, sog'lom va baland martabali bo'la olmaysan...".

Xalq og'zaki ijodi yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etib, ularda ona Vatanga sadoqat, mehnatga ishtiyoq, qahramonlik, do'stlik, baynalminallik kabi oliyjanob insoniy fazilatlarni tarbiyalashda asosiy rol o'ynaydi. Shuningdek, g'oyaviy-estetik tomondan yuksalishiga ham ko'mak beradi. Xalq og'zaki ijodi bilan bolalar maktabgacha tarbiya yoshidan boshlab tanisha boshlaydilar. Xalq og'zaki ijodidagi eng boy va rang-barang janrlardan biri ertakdir. Ertaklar o'zining ijtimoiy kelib chiqishi bilan uzoq o'tmishga, ota-bobolarimiz zamonasiga taqaladi. U davrdan davrga, avloddan avlodga o'tib, bizgacha yetib kelgan va bundan keyin ham insoniyatning bitmas-tuganmas madaniyati xazinasi sifatida yashayveradi. Ertaklarda xalq hasrati, kurashi, ruhiyati, dunyoqarashi, urf-odatlari mujassam bo'ladi. U bolaga butun real va tabiatdan tashqari kuchlarning bo'ysungani ifodalaydi va bolaning hayotga tayyorlashda ko'maklashishini ham ko'rish mumkin. Ulardagi ijobiy qahramonlar o'z maqsadlari yo'lida harakat qilib, barcha to'siq va g'oyalarni mardlik bilan yengib, murod-u maqsadlariga yetadilar. Ba'zi ertaklarda turmush tajribalariga boy bo'lgan keksalarning donishmandligi, ularning o'z farzandlariga qilgan ibratli pand-nasihatlari, shuningdek, qahramonlik va jasorat, rostgo'ylik va do'stlik, kamtarlik va oliyjanoblik, mehnatsevarlik kabi eng yaxshi fazilatlar ifodalanadi. Unda yana mehnatsevarlar taqdirlanadi, yalqovlar jazolanadi. Bunday ertaklar bolalarni mehnatsevar, qahramon qilib tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Ana shunday qahramonlik ertaklaridan biri "Uch og'a-ini botirlar"dir. "Uch og'a-ini botirlar" ertagida yoshlarning qahramonligi, mardligi, mehnatsevarligi, to'g'riso'zligi, halolligi hikoya qilinadi. Uch og'a-ini botirlarning otasi ko'p yillar mehnat zahmatlarini chekkan, shu zahmatlar orqasidan farzandlarini tarbiyalagan mehnatkash kishi sifatida gavdalantiriladi. Ota o'z farzandlarini yoshligidan boshlab yaxshi o'qitadi, to'g'ri va botir bo'lishga, mehnat qilishga, qurol-yarog' ishlatishga, yolg'on gapirmaslikka, maqtanchoqlik qilmaslikka, dangasa bo'lmaslikka o'rgatadi. "Uch narsani aytaman, quloqlaringizga olib, eslaringizdan chiqarmanglar: to'g'ri bo'ling — bexavotir bo'lasiz. Maqtanchoq bo'lmang — uyatga qolmaysiz. Dangasa bo'lmang — baxtsiz bo'lmaysiz. Bundan boshqasini endi o'zingiz biling" — deydi mehribon ota. Uch og'a-ini — botirlik, to'g'rilik timsoli, ularning otasi esa xalq vakili, donishmand, nuroniy murabbiy sifatida kitobxonni o'ziga jalb etadi.

"Qumursqa" ertagida dunyodagi eng zo'r mavjudot mehnatkash inson ekanligi maktab yoshidagi bolalar ruhiyatiga mos holda bayon etiladi. Muz, bulut, kun, yomg'ir, yer, o't, mol, bo'ri, mergan, sichqonlardan "kim zo'r?" deb so'ralganda, biri ikkinchisini ko'rsataveradi. Oxirida qumursqa: "otangning olti yuz botmon bug'doyini olti tog'dan oshirib yeganman; pochchangning yuz botmon bug'doyini yetti tog'dan oshirib yeganman. Men zo'rman, men zo'r deydi". Bu yerda qumursqalarning mehnatsevar qilib ko'rsatilishi, xalq og'zaki poetik ijodiga xos mubolag'a va xayoliy lavhalarda bolalarga qiziqarli bayon qilingan. Bunday usul bolalarning asar mazmuni va g'oyasini osonlik bilan o'zlashtirib olishiga yaqindan yordam beradi.

"Zumrad va Qimmat" ertagida adolat, mehnat va yaxshilik ulug'lanadi. Unda bir-biriga qarama-qarshi xarakterdagi Zumrad va Qimmat obrazlari tasvirlanadi. Zumrad chiroyli, odobli, muloyim, aqlli va mehnatsevar qiz sifatida gavdalanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning mehnatsevarlik sifatlarini shakllantirishda quyidagilarni inobatga olishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

– mehnatni o'yin bilan bog'lagan holda har bir yosh guruhidagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib tashkil etish va unga to'g'ri rahbarlik qilish;

– o'z-o'ziga xizmat qilishni o'rgatish, navbatchilikni rejali tashkil etish; bolalarga inson hayotida biror natijalarga erishishi uchun mehnat qilishi kerakligini tushuntirish; bolalarda mehnat ahliga hurmatni, ularga qo'lidan kelganicha yordam berish xohishlarini tarbiyalash; bolalarda mehnatsevarlik sifatlarini shakllantirishda ertaklardan samarali foydalanish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi», Davlat ilmiy nashriyoti. – Toshkent. 486-bet. www.ziyouz.com kutubxonasi.

2. Suxomlinskiy V.A. Bolalarga jonim fido. Tanlangan asarlar. – T. 231-bet.
3. Tojiboyeva G.A.. Bolalar tarbiyasida ertakning o‘rni. Scientific progress. Volume 3 | ISSUE 3 | 2022 ISSN: 2181-1601. P.513.
4. А.Суюмов, М.Жумабоев. Болалар адабиёти. Тошкент. “Ўқитувчи” 1995. 14-20-бетлар.
5. F.Qodirova va b. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2019. 227-bet.

Qayrat MAMBETALIYEV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich ta'lim fakulteti dotsenti, f.f.f.d (PhD

O‘ZBEK VA QOZOQ SHE’RIYATIDA ADABIY AN’ANALARINING AKS ETISH TAKOMILI

Annotasiya: maqola o‘zbek va qozoq she’riyatida uslubiy-shakliy mushtaraklik XX asrdagi shiorbozlik va sinfiylik nuqtayi nazaridan bir-biriga juda o‘xshash mavzularda yangragani to‘g‘risida.
Kalit so‘zlar: *adabiyot, she'riyat, shoir, she'r, faylasuf, viqor, ijod*
Аннотация: статья о том, что в узбекской и казахской поэзии стилистически-формальное единство перекликается с лозунгами и классицизмом XX века.
Ключевые слова: *литература, поэзия, поэт, поэзия, философ, честь, творчество.*
Annotation: the article is devoted to the fact that the style-form in Uzbek and Kazakh poetry in the XX century sounded on topics very similar to each other in terms of generality and classicism.
Keywords: *literature, poetry, poet, poem, philosopher, dignity, creativity.*

O‘zgarayotgan global dunyoda inson ruhiyatini she’riyat kabi tez va oson tasvirlaydigan badiiy janrlar bo‘lmasa kerak. Chunki tig‘izlashgan va lahza sayin o‘zgarib, yangilanib, kichrayib, ixchamlashib borayotgan she’r tabiatida tafakkurni o‘zgartirishga e’tibor kuchaydi. Nanotexnologiyaloar girdobida qolayotgan inson qalbi – o‘zining his-tuyg‘ulariga bo‘yinsunib yashashga mahkum ekanligini ko‘rsatib qo‘ymoqda. Natijada, shaxs fe’l-u ruhiyasidagi vaqtga moslashish va zamonga ko‘nikish manerasi ham adabiy ta’sirni ranginlashuviga olib keldi. Bugun insoniyat yangi ming yillikning ko‘z ilg‘amas taraqqiyoti davriga qadam qo‘ydi. Badiiy asar avvalgidek, inson qalbini muhofaza qiladigan adabiy qarashlarni ham parchalanib ketayotganini tushunib etdi. Modern va postmodern dunyoda – Allohni tanish borasida zamon tegrasida fikrlaydigan odam uchun murakkablashib, tushunchalar esa arifmetik ko‘lam hosil qilib bormoqda. Texnologiya shu qadar botinimizdan his va tuyg‘ularni olomon orasiga uloqtirib tashlamoqdaki, shoir endi ana shu mezonning eng muhimini kuylashga moslashishiga majbur sezmoqda o‘zini. Demak, yangi dunyo qarshisida so‘z aytishga bel bog‘lagan shoirki bor, dunyo bilan hamqadam yurishlarni hayotining asosiy oltin qoidasi deb bildi.

O‘zbek va qozoq xalqlari azaldan tub-ildizlari tutashgan zamin fuqarolari. Olam va odamga bitta oina orqali boqib o‘rgangan xalqlarimiz ko‘ngil rishtalarida o‘zaro yaqinlik mavjud. Buning eng muhim jihatlarini topib, ulardan yangi-yangi ma’nolarni kashf qilishda adabiyotshunoslik o‘zining avzoyini o‘zgartirgani ma’lum. Ayni shu mezon biz tanlagan mavzuning to‘laqonli mohiyatini takshil qiladi. O‘zgarayotgan global dunyo hech qachon bir maromda silliq taraqqiy etgan emas. Texnologik taraqqiyot asrida va yangi ming yillikda ayni shu jihatlar badiiy asarga ham ko‘chib o‘tdi. Bu ko‘chib o‘tishlarda – ruh va so‘z uyg‘unligi hamisha dolzarbligini yo‘qotmaydi. Chunki she’r fikr va his mahsuli. Buni boshqacha ifodalab bo‘lmaganidek, davrning o‘ziga xos tutimlarini teran anglash doimiy diqqatimizda bo‘lishini taqozo etadi. She'r – yakkalikdan qochishga uringan odamning xarakterida paydo bo‘ladi. Yolg‘izlik ihotasida qolgan ko‘ngil she'rga tayanadi. Bugun ana shuning tub ildizlarini va kelib chiqish shajarasini bilishga qiziqish kuchaygan bir davrda bularni nazariy-ilmiy jihatdan aniqlash mavzu dolzabrligini isbotlaydi.

Cho‘lpon va uning safida qalam tebratgan qator shoirlar kuylagan ozodlik mavzusi Abay va uning izdoshlari mehnatlarida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Keyinchalik bu adabiy ta'sir mohiyatida olam va odam munosabati ranginlashdi. Tafakkurni o‘zgartirishga qaratilgan she'rlar tavri ham o‘zgarishga yuz tutdi. O‘zbek va qozoq she'riyatidagi shakliy-uslubiy izlanishlar modifikasiyasi ham ayni shu mezonlarni idroklashga bel bog‘ladi.

XX asr nafaqat o‘zbek va qozoq, balki dunyo she'riyatida nazmning misli ko‘rilmagan rivojlanishi kuzatildi. Milliy adabiyotning asl ildizi xalq og‘zaki ijodiga borib tutashuvi hamda folklor ana'analaridan oziqlanishi har ikkala xalqning adabiyotida mifopoetik talqin takomilini yangicha ruhda ifodalashga katta zamin yaratdi. Bu erda jahon adabiyotining yorqin ifoda usullari ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Fransuz, ingliz, ispan, italyan, nemis va rus shoirlarining poetik izlanishlari o‘zbek va qozoq she'riyatida ham katta iz qoldirdi.

Turkiy xalqlarning azal-azaldan san'at va madaniyati, urf-odatlari o‘zaro uyg‘un holda rivojlanib kelgan. Xususan, xalq og‘zaki ijodi janrlari va epos tabiatidagi uzil-kesil o‘zgarishlar, hamda jahon she'riyatining har ikkala xalq she'riyatiga ta'siri masala mohiyatini yanada jipslashtiradi. Negaki, shakliy-uslubiy izlanishlar poetik yaxlitligi xuddi bir daraxt nomdalari kabi o‘xshashdir. XX asr ibtidosida jahon she'riyatining har ikkala xalq adabiyotiga kirib kelishi hamda ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning barqarorlashuvi she'riyatni ham tubdan yangilanishiga keng yo‘l ochib berdi. Ma'rifatparvar mumtoz shoirlar ijodidan bahra olgan ijodkorlar shakl va mazmunda katta yangilik yasadilar.

Yangi davr she'riyatiga benihoya katta adabiy ta'sir ko‘rsatgan ma'rifatparvarlar qatorida Abayning ham o‘rni beqiyosdir. Bu haqda so‘z borganda: “Abay Qo‘nonboev adabiy tafakkurni nurlantirgan, mavjud hayotni san'atkorona badiiy aks ettirgan ulkan mutafakkir adibdir. U shoir sifatida butun insoniyatga muhabbat ko‘zi bilan qaradi. Shoirni milliylik qobig‘idan chiqarib, uni umumbashariy shoirga aylantirgan omil uning o‘z xalqiga bo‘lgan cheksiz va beg‘ubor muhabbati, el-yurtining taqdiri bilan bog‘liq kurashchan dono fikrlaridir. Zero, o‘z xalqini chin sevgan kishigina boshqa xalqlarni seva oladi, o‘z qadrini himoya qilishga qodir odamgina inson qadrini ulug‘lay oladi.

O‘z elining tinch, osoyishta hayot kechirishini, ilmli-bilimli bo‘lishini, madaniyatining yuksalishini orzu qilgan ulug‘ shoir xalqiga teran hikmatlar va go‘zal tuyg‘ular bilan to‘lib-toshgan ajoyib she'rlar xazinasini meros sifatida qoldirdi. Shoirning adabiy merosi milliylik chegarasidan chiqib, jahon so‘z san'atining asl durdonalariga, insoniyat tafakkurining xazinasiga aylandi. Uning qo‘shiq bo‘lib tillarda yangragan ajoyib she'rlari, hikmat bo‘lib dillarga singgan nasriy asarlari dunyoning ko‘plab tillariga tarjima qilingani va tarjima qilinayotganining tub sababi ham shunda bo‘lsa kerak. Ko‘rib o‘tganimizdek, Abayning badiiy tafakkuri bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini nafaqat qozoq she'riyati, balki qardosh xalqlar orasida ham e'tibordan chekkada qolganmas. Mana shu jihatlarga mutanosib ravishda bu kabi ijodkorlar Navoiy va Boburning izdoshlari sifatida ulug‘lanadi.

Barchaga ma'lumki, turkiy xalqlar she'riyati haqida so‘z borganda, avvalo, bir-biriga monand har bir xalq adabiyotining umumiy va xususiy jihatlaridan oziqlanish, ijodkorlar tomonidan yaratilgan badiiyat durdonalarining kelib chiqish ildizlari o‘ziga xos va adabiy ta'sir doirasi ham muhim ahamiyat kasb etishi nazarda tutiladi. O‘zbek va qozoq xalqlari she'riyati ham ayni shu jarayonning ajralmas xalqalari desak aslom mubolag‘a bo‘lmaydi. Keyingi yillarda davr va zamon o‘zgardi. She'riyatga bo‘lgan munosabat, ularni tahlilu tadqiq qilish mezonlari ham turfalandi. O‘tgan asrning ellikinchi yillarida ko‘plab qalamga olingan mavzu – ikkinchi jahon urushi va undan keyingi xalq hayotining she'riy kayfiyati ham mazkur masalaninng ranginlashuviga sharoit yaratdi. Jumladan, o‘zbek she'riyati o‘tgan asr ibtidosida maydonga kelgan mavzu, muammo, tasvir va talqinda ham juda ko‘plab yangilanishlarni boshidan o‘tkazdi. Shuningdek qozoq she'riyatidagi falsafiy-estetik tanlov ham ana shu mezonlarni yangilashga qaratildi. Jahon adabiyotining ilg‘or an'analarini o‘zida aks ettirish, ularni bir-biriga o‘tib turish manzaralarini sintezlash ham masala mohiyatini teran idrok qilishga keng yo‘l ochdi.

Badiiy asar (she'r) mohiyatida ko‘ngil va ruh ziddiyati, olam va odam munosabatlari tig‘izligi talqin boshqaruvini qo‘lga oldi. Aytish olzimki, mana shu o‘zgarishlar natijasida har ikkala xalq she'riyati tamomila yangilandi.

Qozoq she'riyatida o‘ziga xos o‘rin egallagan Iran G‘ayib ana shunday ijodkorlardan biri sanaladi. Bizda 70-yillarda kirib kelgan U.Azim, X.Davron, Sh.Rahmon she'riyatidagi uslubiy-shakliy izlanishlar G‘arbu Sharq an'analarini izchil davom ettirib, o‘zlariga yangi-yangi tasvir usullarini ochib, dunyoni boshqacha ranglarda ifodalay boshladirlar. Qozoq adabiyotida Sho‘mishbay Sariev, Jarken Bo‘deshov, Temirxon Madadbek kabi shoirlar barmoq, sarbast o‘lchovida go‘zal asarlar bitganlar.

O‘zbek va qozoq she'riyatida uslubiy-shakliy mushtaraklik XX asrdagi sobiq ittifoq davrida shiorbozlik va sinfiylik nuqtayi nazaridan bir-biriga juda o‘xshash mavzularda yangragan. Biroq 70-yillardan keyin mazkur mavzudagi she'rlar janriy, uslubiy jihatdan nihoyatda turfalandi. Bu turfalanishning yagona sababi jahon filsafiy-estetik tafakkurning har ikkala she'riyatga singib borayotgan idroklash manerasi bilan belgilanadi. Bular bir hudud, bir qatlam yaqinligida namoyon bo‘layotgan tuyg‘ular realizmida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Aytish lozimki, jamiyatning moddiy va ma'naviy dunyo bilan hayotga pragmatik yondashuvi yuksak poeziyani tavrini ranginlashuviga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamajonov S. Lirik olam va epik ko‘lam. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1979.
2. Mirvaliev S. O‘zbek adiblari / XX asr o‘zbek adabiyoti / – Toshkent: Yozuvchi, 2006.
3. Rahimjonov N. Mustaqillik davri she'riyati. Toshkent. 2007.
4. G‘afurov I. Lirikaning yuragi. Toshkent. Yosh gvardiya nashriyoti. 1982.
5. Mo‘minov G‘. Hozirgi o‘zbek adabiyotida folklorizm: Filol. fan. d-ri ...diss. – Toshkent, 1994.
6. To‘raev D. Davr va ijod mas'uliyati. Toshkent, Yangi asr avlodi. 2004.
7. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: Sharq NMAK, 2004.

Zebo BERDIYEVA,
f.f.f.d. (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali
“O‘zbek va xorijiy tillar”kafedrasi o‘qituvchisi
https://orcid.org/0009-0001-0470-2312
Nazira BERDIYEVA,
Ter DU
“Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

LIRIK TASVIR VA IFODADA METONIMIYA

Annotatsiya: maqolada metafora, metonimiya, sinekdoxa va vazifadoshlikdan tashqari, ma’no ko‘chishining qorishiq holda qo‘llanishi hamda metafora-metonimiya, metonimiya-sinekdoxa tarzida uchraydigan ko‘chimlar og‘zaki nutqda ham, badiiy adabiyotda ham ko‘p uchrashi, “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da badiiy adabiyotda, ayniqsa, metaforik tafakkur yetakchilik qilayotgan zamonaviy adabiyotda metonimiya metaforaga nisbatan kam uchrashi, estetik funksiyadorligi jihatidan u metaforadan quyiroq turishi olam va ijtimoiy borliqqa munosabati hamda unda tutgan o‘rni muammo sifatida o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: *metafora, metonimiya, sinekdoxa, metaforik obraz, badiiy ko‘chim, istiora g‘oyaviy¬ estetik yangilanish*

Аннотация: помимо метафоры, метонимии, синекдохи и дежурства, в статье рассматривается смешанное использование смысловых переносов, а также то, что переносы, встречающиеся в метафоре-метонимии, метонимии-синекдохе, часто встречаются как в устной речи, так и в художественной литературе. В ”Словаре литературоведения " исследуется проблема того, что в художественной литературе, особенно в современной литературе, где преобладает метафорическое мышление, метонимия встречается реже, чем метафора, по эстетической функциональности она стоит ниже метафоры.

Annotation: in addition to metaphor, metonymy, synecdoche, and assignment, the article addresses the blurred use of meaning migration, and the frequent use of metaphorically-metonymy, metonymy-synecdoche in both oral and nonfiction. The”Glossary of literary studies " explores metonymy as a problem in fiction, especially in modern literature, where metaphorical thought is leading, and in terms of aesthetic functionality it stands below metaphor as a problem for its attitude to the universe and social being, and its role in it.

Har qanday so‘zning lug‘aviy ma’nosi biror belgi, harakat, xususiyatning boshqa xuddi shunday xususiyatga ega bo‘lgan obyektga ko‘chirilishi natijasida kengayib boradi va rivojlanadi. Ma’no ko‘chishining bunday rivojlanishini belgilab beradigan har bir tilning o‘zidagi semantik qonuniyatlar bevosita badiiy ijod bilan bog‘liq.

Metonimiya (yunoncha metonymia — “qayta nomlash”) yo‘li bilan ma’no ko‘chishida bir belgi, harakatning nomi boshqa bir o‘xshashlik asosida emas, o‘zaro aloqadorlik, bog‘liqlikka asoslanadi.

Metafora, metonimiya, sinekdoxa va vazifadoshlikdan tashqari, ma’no ko‘chishining qorishiq holda qo‘llanishi ham kuzatiladi. Bu hodisa metonimiyaga ham tegishli: metafora-metonimiya, metonimiya-sinekdoxa tarzida uchraydigan ko‘chimlar og‘zaki nutqda ham, badiiy adabiyotda ham ko‘p uchraydi. “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da badiiy adabiyotda, ayniqsa, metaforik tafakkur yetakchilik qilayotgan zamonaviy adabiyotda metonimiya metaforaga nisbatan kam uchraydi, zero estetik funksiyadorligi jihatidan u metaforadan quyiroq turadi. Shunday bo‘lsa-da, badiiy matnda metafora bilan yondosh qo‘llangan holda u katta badiiy samara beradi, fikrni lo‘nda va ta’sirli ifodalashga xizmat qiladi .

“Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati”da metonimiya –“ikki tushuncha o‘rtasidagi yaqinlikka asoslangan ko‘chma ifoda” , deyilgan bo‘lsa, boshqa bir adabiyotshunoslik lug‘atida esa quyidagicha ta’rif berilgan: “ikki tushuncha o‘rtasidagi yaqinlikka asoslangan o‘xshashsiz ko‘chim. Metonimiyada biror narsa yoki voqea-hodisaning nomi boshqasiga ko‘chiriladi, u boshqa nom bilan ifodalanadi, biroq bu nomlash predmet yoki narsalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka emas, balki ular o‘rtasidagi yaqinlikka, aloqadorlikka asoslanadi. Mana shu jihati bilan metonimiya istioradan farq qiladi” . Yuqoridagi ta’riflardan kelib chiqib, metonimiya haqidagi tushunchalarni umumlashtirsak, quyidagi to‘xtamga kelamiz. Demak, metonimiya – ma’no ko‘chishi, ya’ni majozning bir turi bo‘lib, u ikki narsa, voqea-hodisa o‘rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi, biroq ular o‘rtasida shakl, mazmun jihatidan o‘xshashlik, yaqinlik umuman kuzatilmaydi. Masalan, ko‘k (osmon, ko‘kat, rang, pul birligi (dollor) .

Metonimiya yo‘li bilan ko‘chirishning quyidagi ko‘rinishlari mavjud:

1) bir predmetning nomi shu predmetdagi boshqa bir predmetga ko‘chiriladi:

Istambulni tinglayman ko‘zlarim yumilgan
Oldindan mayin bir shabada esar
Asta-asta silkinar

Yaproqlar daraxtlarda
Uzoqlarda juda uzoqlarda
Meshkobchilarning tinmagan shiqildoqlari
Istambulni tinglayman ko‘zlarim yumilgan.

Turk shoiri O‘rxun Veli she’ridan keltirilgan mazkur parchada o‘tgan asrdagi Istanbul shahridagi hayot tarzi, shaharda yashaydigan kishilarning turmush sharoiti, ularning o‘y-fikrlari, tashvish-u iztiroblari ifodalangan. Muallif qisqalikka intilib, shahar so‘zini tushirib qoldiradi. O‘quvchiga ma’lum bo‘lgan ortiqcha so‘z-ma’lumotni tushirib qoldiradi. Odatda, bunday usul og‘zaki nutqqa xos. Jumladan, Toshkent shahriga bordim gapi Toshkentga bordim tarzida ishlatiladi va bu nutqimiz uchun odatdagi me’yor sanaladi. Chunki bunday usul nutqni ixcham, fikrni siqiq va ta’sirli qiladi. She’rning birinchi satrida metafora (Istambulni tinglayman) va metonimiya (Istambulni tinglayman) qo‘llangan. Birinchisida shahar so‘zi tushirib qoldirilgan bo‘lsa-da, u kontekstda anglashib turadi, ikkinchisida esa tinglamoq aslida o‘zidan tovush, aks-sado chiqaruvchi narsa yoki kishilarga xos xususiyat “shahar”ga ko‘chirilgan.

Dunyoga toq kelgan kabi
Otilaman ***Hind tog‘i uchiga.***
Kirib ketar kallamning ichiga
Kimsasiz dunyoning sohibi.

Bandda tog‘ va toq so‘zlarining shakliy o‘xshashligidan so‘z o‘yini sifatida foydalanilgan, tog‘ning uchi – metafora, bunda parallel ravishda cho‘qqi so‘zi barmoqqa tenglashtirilib, litota san’ati hosil qilingan. Kallamning ichi deyilganda shoir inson boshini emas, uning bir qismi bo‘lgan miyani nazarda tutmoqda va butunni bo‘lak orqali ifodalab, sinekdoxa namunasini yaratmoqda. “Kirib ketish” harakati, odatda jonli narsalarga nisbatan qo‘llansa-da, nutqda oyog‘iga tikan kirdi, jon kirdi, aqli joyiga kirdi, esi kirdi kabi emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorlikka ega ko‘chma ma’noli birikma tarzida ham ishlatiladi.

Xoh shoir bo‘lsin, xoh nosir bo‘lsin, hech kim metonimiyadan ham, perifrazadan ham bosh tortmagan va bunday adabiy priyom (usul)lar orasida juda qadimdan ma’lumlari to hozirgacha ham uchrab turadi, ular Avgust davri (XVII asr oxiri XVIII asr o‘rtalari) dayoq shoirlarga oddiy va siyqa tuyulgan. Ular bilan bir qatorda esa yana yangilari ham yuzaga keladi va ular kelajakda davrimizning adabiy g‘alatiliklari haqidagi asarlarning sahifalarini bezashi shubhasiz, deb yozadi Yan Parandovskiy . Uning fikriga ko‘ra, metonimiya, perifraza, xuddi istiora kabi ijtimoiy tuzum, hukmron mafkura qanday bo‘lishiga qaramay barcha asrlar poeziyasiga xos mushtaraklik mavjud, metonimiya inson fikrlay boshlagan davrlardayoq tug‘ilgan.

Metonimiya kinoya sifatida talqin qilinar ekan , bu uning ibtidoiy xalqlar madaniyatida yetuk tamaddunlardagiga qaraganda ham ko‘proq tarqalganligini ko‘rsatadi.Chunki istioralar, kinoya, qochirimlar panasida tilga olish lozim bo‘lmagan so‘zlar yashiringan bo‘lib, ular ifodalagan tushunchalar esa parda ostiga olingan va tanib bo‘lmas darajada niqoblangan. Odamlar yovvoyi hayvonlarning, tabiatdagi dahshatli hodisalarning, kasalliklar va o‘limning nomini tilga olishdan saqlanishgan. Ba’zi bir qabilalarda shunga o‘xshash urf-odatlar to hozirga qadar saqlanib qolgan, jumladan, qabila boshlig‘iga taalluqli bo‘lgan barcha narsalarni ochiq-oydin aytish mumkin emas va shama, ishoralardagi topqirlik, ijodkorlik goho uningcha chigallik darajasigacha yetib boradi .

Majoz she’riy nutqni boyitadi, shoirning tasvir obyektiga munosabatini ifodalashga imkon beradi. O‘xshatish, sifatlash, metafora (istiora), jonlantirish ham majoz turlariga kirsa, metonimiya, mubolag‘a, sinekdoxa, perifraza, kinoya, antifraz, sarkazm kabilar qorishiq majozlar deb yuritiladi

Jazba tunlarida oyning shu’lasin
Yo‘l bilgan xayolman.
Boshqa hech kimman.
Bir qudratli ***ovoz qilichi***
Sasim chiqarmas.
Bo‘g‘zimga ko‘mildim*. Jimman.*
G‘arlik, chaquv, fahsh-u tuhmatni beor
Olqishlab gullarga ko‘mganda shahar;
Tillarini chaynab do‘stlarim nochor,
Tiynatim kosamga quyganda zahar;
Pokiza jonlarni balchiqqa bulg‘ab,
Bayroq ko‘targanda iblis lashkari;
Tomoshagoh bo‘lib bo‘zlayotgan qalb,
O‘grilib turganda do‘stlar teskari,
Ketdim.

She’r adolatsizlik, zulm, haqsizlikdan bag‘ri qon bo‘lgan, do‘st-u birodarlaridan oqibat ko‘rmagan, o‘zidan boshqa hech kim suyamasligini tushunib etgan va tan bergan, shu musibatga ko‘nikkan, kurashda yengilgan va chekinishga majbur bo‘lgan, ichi nafratga to‘la, do‘stlaridan yordam kutganida ular yuz burib ketgan inson haqida. Unda bo‘g‘izga ko‘milgan ovozning qotili qudratli kuchning zulm-istibdodi ko‘rsatilgan. Fahsh, chaquv, fahsh, tuhmatni olqishlayotgan beor shahar qiyofasi aks etgan. Shahar so‘zi orqali sinekdoxa yuzaga chiqqan, shahar emas, unda yashayotgan qo‘rqoq, oqibatsiz soxta do‘stlar dushmanga xizmat qiladi. Hatto o‘sha dushmanga qo‘shilib, unga zahar tutadi, faqat bu og‘u qahramonning ziynatiga quyiladi. Bu erda zahar ham ramziy ma’noda qo‘llangan. Zahar – jaholat, sotqinlik, qo‘rqoqlik, manfaatparastlik. Tillarini chaynayotgan do‘stlar – inson qachon tilini chaynaydi? Yo og‘riqning zo‘ridan, yo qo‘rquvning kuchliligidan. Ko‘rinib turibdiki, soxta do‘stlar ikkinchi toifaga mansub. Iblis lashkari – individual metafora, bu do‘stlarning yana bir ko‘rinishi, ular bayroq ko‘tarib olishgan, bayroq esa g‘alaba belgisi. Bayroq ko‘tarish uchun kuch-qudrat bo‘lishi

kerak, iblis to‘dasi shaharda bayroq ko‘tarib yurgan ekan, demak u kuchga, qudratga to‘lgan va o‘z atrofida deyarli butun shahar xalqini birlashtirgan qavm. She’rda ilgari surilgan badiiy g‘oya, muallif aytmoqchi bo‘lgan fikr, lirik qahramonning qalbini o‘rtayotgan dardni ochib berishda metafora, metonimiya, sinekdoxa va boshqa ko‘chimlar jonli kartina hosil qilgan, voqelikni xuddi kinotasvirdek kitobxon ko‘z oldida namoyon qilgan.

Til va nutq metonimiyasini kuzatish nutq metonimiyasida yangi lug‘aviy ma’no hosil bo‘lmasligini, atoqli otning turdosh ot o‘rnida qo‘llanishini kontekstual yoki shartli metonimiya deb atash to‘g‘riligiga asos bo‘la oladi. Sinekdoxa she’rning ta’sirchanligini oshirish bilan birga qofiya imkoniyatlarini bir qadar kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Афоқова Н. Аросат фасли. – Бухоро, “Бухоро” нашриёти., 2004, –Б.23.
2. Афоқова Н. Бизнинг эра. – Тошкент: Ижодпресс, 2019. –Б.72.
3. Аҳмедова Ҳ. Яшил. Ўзбекистон Нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. –Б.168.
4. Маҳкам Асқар.Ҳақ.Сайланма. Душанбе, Адиб, 1998. –Б.284.
5. Маҳкам Асқар.Ваҳдат куйи. –Тошкент: Nurafshon business,2021. –Б.372.
6. Парфи Р. Сакина. – Тошкент: “Муҳаррир”, 2013. –Б.376.
7. Парфи Р. Сайланма. – Тошкент: Академнашр, 2013. –Б.432.

Gulshan KHAITOVA,
BuxDU katta o‘qituvchisi;
Ferangiz BOTIROVA,
BuxDU 2-bosqich talabasi

“BOBURNOMA”DA ZOONIMLARNING QO‘LLANILISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotining buyuk siymosi Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari tahlilga tortilgan. Tahlil jarayonida asardagi hayvonot olami xususida to‘xtalib o‘tilgan. Asosan, Hindiston, qisman Kobuldagi hayvonlarning o‘xshash va farqli xususiyatlari ko‘rsatilgan. Asardagi hayvonlar temantik guruhlarga ajratilib, ularning ayrimlari borasida so‘z yuritib o‘tilgan. Tilshunoslikda hayvonlarni o‘rganish, ular borasidagi dastlabki tadqiqotlar haqida so‘z yuritilgan. Tadqiqotchi olimlarning fikr va mulohazalari, hayvonlarning turlari borasida fikrlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *hayvonot dunyosi, parranda nomlari, qush nomlari, zoolog.*

Annotation: this article analyzes the work "Boburnoma" by the great figure of Uzbek classical literature, Zahiriddin Muhammad Babur. During the analysis, the animal world in the work was discussed. A similar and different view of animals in Kabul, mainly India. The animals in the work are divided into temantics and some of them are discussed. The language talks about studying animals, working on them. Opinions and opinions of research scientists, what is appropriate for animal species.

Keywords: *animal world, bird names, bird names, zoologist.*

Аннотация: в данной статье анализируется произведение «Бобурнома» великого деятеля узбекской классической литературы Захириддина Мухаммада Бабура. В ходе анализа обсуждался животный мир в произведении. Сходные и различные характеристики животных показаны, главным образом, в Индии, частично в Кабуле. Животные в произведении разделены на тематические группы, некоторые из них обсуждаются. Языкознание занимается изучением животных и их предварительным исследованием. Приводятся мнения и мнения ученых-исследователей, мнения о видах животных.


Ключевые слова: *животный мир, названия птиц, названия птиц, зоолог.*

Kirish. Kishilik tarixida iqtidor va fazilatlari beqiyos kishilar kam uchraydi. Bobur ana shunday buyuk podshoh, shoir, adabiyotshunos, tilshunos, etnograf olim, hayvonot va nabotot olamining bilimdoni, ko‘p qirrali faoliyat sohibi edi. Birgina ‘‘Boburnoma’’ning o‘zida yigirmadan ortiq sohalarga qiziqqanligi bunga yorqin misol. Ushbu asarda Bobur Navoiy, Jomiy, Binoiy, Muammoiy, G‘ulom Shodiy, Sulton Ali, Shoh Muzaffar kabi qator shoir va san’atkorlar haqida ma’lumot keltiradi. Ularning asarlaridan namunalar, qiziqarli hikoyatlar keltirib o‘tiladi. ‘‘Boburnoma’’ asari Bobur zamonida yashagan, ma’naviyat va madaniyat arboblarining faoliyati, shaxsiy sifatlari haqida muhim ma’lumotlarga ega bo‘lamiz. ‘‘Boburnoma’’ asari yaratilgandan beri o‘z qadr qiymatini yo‘qotgan emas. O‘zbek adabiyotining buyuk siymosi Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi, shoir shaxsiyati, nafaqat she’riyat bobida, balki siyosat va diplomatiya sohasida ham o‘z davriga xos yetakchi rahbar bo‘la olganligi haqidagi ma’lumotlarni beruvchi dastlabki manba o‘zining asarlari hisoblanadi.

Qisqa hayoti (1483-1590) davomida anchagina asarlar yaratgan bo‘lsa ham, bizgacha ularning hammasi ham yetib kelgan emas. Uncha to‘liq

bo‘lmagan bir devoni, “Mubbayin” she’riy risolasi, “Volidiya” tasavvufga doir asari, “Xatti Boburiy” nomi bilan mashhur bo‘lgan alfavit jadval hamda “Boburnoma” asaridan tarkib topgan. Asl kitob nomi “Boburiya” bo‘lsa-da, “Voqeanoma”, “Tuzuki Boburiy”, “Voqeoti Boburiy”, “Tabaqoti Boburiy”, “Tavorixi Boburiy” va keyinchalik “Boburnoma” nomini olgan. Ushbu asar bir dunyo materiallarni o‘z ichida qamrab olgan. Asar “Devoni lug‘otit turk” asarini eslatuvchi, keng qamrovli yo‘nalishda yozilgan. Unda toponimlar, antroponimlar, urug‘-qabila nomlari, turli din vakillari, shuningdek, biologiya va zoologiyaga doir qimmatli ma’lumotlar berib o‘tilgan.

Asosiy qism. Zoonimlarga doir tadqiqotlar juda uzoq tarixga ega, ilmiy zoologik tadqiqotlarning ilk vakili eramizdan oldingi 384-322-yillarda yashab o‘tgan qadimgi yunon olimi Aristotel hisoblanadi. Jumladan, u hayvonot olamining 454 turini tasvirlagan va birinchilardan bo‘lib ularning sistematikasini yaratishga uringan. Zoonimlarni zamonaviy ilmiy tasniflash jarayonini atoqli shved tabiatshunos olimi Karl Liney (1707-1778) boshlab berdi. U har bir turni ikki lotin so‘zi bilan nomlashni taklif qildi. Birinchi nom – jonzotni tabiiy xususiyatiga ko‘ra, ikkinchisi turga oid nomlash.



Hayvon nomlarini o‘rganish bilan XVII–XVIII asr Sharq olimlari ham shug‘ullangan bo‘lib, ulardan biri Muhammad Chingiydir. Muhammad Chingiy – Hindistonda Muhammadshoh Olamgir Abdulmuzaffar Muhiddin davrida yozilgan “Kelurnoma” leksikografik kitobining muallifi sanaladi. Kitob chig‘atoy-fors tillarining ideografik lug‘ati xarakterida bo‘lib, XV bob va 343 qismdan (fasliy) iborat. Muhammad Chingiy kitobining oxirgi IX bobi hozirgi til lug‘atini o‘rganishga bag‘ishlangan [Abdualiyeva, 1, 20-bet].

Bobur o‘zi boshqargan hududlarning tabiatini katta qiziqish bilan o‘rgangan va hududlarning o‘simliklari, mevalari, qushlari hamda hayvonot dunyosi haqida ko‘plab ma’lumotlar bergan.

Bobur hayvonot dunyosining tabiiy boyligini, xo‘jalik imkoniyatlari u yoki bu hayvonlarning hayoti va xususiyatlarini tasvirlaganda, o‘zining nihoyatda kuzatuvchanligini, chuqur tajriba va ilmiy bilimga ega ekanligini, foydali maqsadlarini amalga oshirishga intiluvchanligini ko‘rsatadi. Xususan, Hindiston tuprog‘iga qadam qo‘yar ekan, Bobur o‘lkadagi birorta ham yaratiq va hodisalarni nazardan qochirmaslikka harakat qiladi. Masalan, Hindistonda bir yilda uch fasl bo‘lgan holda, har bir fasl to‘rt oydan iborat ekanligini va bu ob-havo sharoitiga ko‘nikkan hayvonlarning turlari xususiyatda to‘xtalib o‘tadi. Hindistonda O‘zbekistondagina faqat qushlarning sayrashi ovozini, balki boshqa hayvon turlarining ham xususiyatlarini solishtiradi: “Bizni viloyatlarga boqa o‘zga olamedur. Tog‘ va daryosi va jangal va sahrosi, mavozi’ va viloyati va hayvonot va nabototi, eli va tili va yomg‘uri va yeli borcha o‘zgacha voqe bo‘lubtur” [7, 250].

Zoolog sifatida Hind yerlarining o‘ziga xos hayvonot olami haqida boy ma’lumot beradi. Xususan, nomlarni quyidagicha temantik guruhlarga bo‘ladi:

1. Hayvonot nomlari: fil (hotiy), kark (karkidon), sahroyi govmish, nilagov (erkagi baqa tupchoq), ko‘tahpoy, ho‘na, galahra(qora kiyik, aslida, galahran).

2. Parranda nomlari: tovus, to‘ti, jangaliy, shorak, vin shorak, miyno, lo‘cha (buqalamon, hind tilida kabki doriy), durroj, kanjal, pul-pakor, sahroyi tovuq, chalsiy, shom, bo‘dana, xor chal, tug‘doq, charz, bag‘riqaro.

3. Suv va suv yoqasida yashovchi qushlar nomlari: ding, soras, manik, laklak, uqor, oq bo‘zak, ulug‘ bo‘zak,



o‘rdak (garmpoy), shahmurg‘, zumaj, bo‘rk, sor, ola qarg‘a, murg‘i jangal, shappora (chamagdar, Hindiston akasi (mato), sandug‘och, qarcha, qorlug‘och, quyil (bulbul) ;

4. Suvda yashovchi hayvon nomlari: sheri obiy, sepsor, xuki obiy, karyol, kokka baliq, baqa kabi. Keltirilgan hayvonlardan ayrimlarini sharhlashga urindik.

I. Hindistonda faqat o‘sha yerga xos hayvonlar tarqalgan. Yovvoyi hayvonlardan biri: “...vuhushdin bir fildurkim, Hindistoniy “hotiy» derkim…” [7, 252], u Kalpiy viloyatining chegaralarida bo‘ladi. Undan yuqori Sharq tomonlarda esa yovvoyi fillar ko‘proq uchraydi, o‘sha yerlardan fil tutib keltiradilar. Kurara va Manikpurning 30-40 joyidagi aholi fil ovlash bilan shug‘ullanadi va har bir fil uchun ham javobgardir. Fil katta va ziyrak jonivor. Nima desalar biladi va nima buyursalar bajaradi. Bahosi katta yoki kichikligiga qarab, qarichlab sotiladi. Har qancha katta bo‘lsa, bahosi ham shunga yarasha bo‘ladi. Hindiston xalqi uchun filning ahamiyati katta. Lashkardagi har bir qismga, albatta, bir nechta fil hamroh bo‘ladi. Filning ba’zi yaxshi xususiyatlari bor: “uluq suvlardin va tund va tez suvlardin qalin yuk ko‘tarib, oson o‘tadur” [7, 252], to‘rt yuz-besh yuz kishi tortadigan qozon arovasini (to‘p ortilgan aravani) uch-to‘rt fil bemalol tortadi.

Yana kark (karkidon), bu ham juda ulkan jonivor. Shakl shamoyili: “Bir shoxi bor, burning ustida, uzunligi bir qarishdan ko‘prak, ikki qarish xud ko‘rilmaydur. Bir uloq shoxidin bir obxo‘ra kishti bo‘ldi, yana bir nardning tosi bo‘ldi, yana uch-to‘rt ellik ham shoyad ortti ekin. Terisi bisyor qalin bo‘lur. Qattiq yoy bila bag‘alkusho va xo‘b to‘l turub, ursalar, yaxshi kirsa, to‘rt ellik kirar. Derlarkim, po‘stining ba’zi yerlaridin o‘q xeyli o‘tar ermish. Ikki qo‘lining (old oyoqlari) qoshidin va ikki butining (orqa oyog‘i) qoshidin tihi (burma) tushubtur. Yiroqdin yopug‘ (jul) yopg‘ondek ko‘rinur” [7, 253].

Yovvoyi hayvonlardan yana biri sahroyi govmish (yovvoyi ho‘kiz)dir. U bizning ho‘kizdan ancha katta bo‘ladi. Uning shoxlari bunikidek orqaga qarab ketganmas. U juda yomon va yirtqich hayvon. Saru daryosi qirg‘oqlarida juda ko‘p uchraydi.

II. Parranda nomlaridan biri tovusdir. Shakl-u shamoyili: “purrang va purzeb jonivoredur. Andomi rang va zebicha emas. Jussada turnacha bo‘lg‘ay, turnacha baland emastur. Narining va modasining boshida yigirma-o‘ttuz par bordur, ikki-uch ellik balandlig‘i bo‘lg‘ay. Modasining yana zeb va rangi yo‘qtur. Narining boshida tovqi savsaniydur, bo‘yni xushrang ko‘ktur”, “orqasidag‘i gullari kichikraq-kichikraq gullardur. Orqasidin quyiroq ushbu ranglar bila munaqqash ulug‘-ulug‘ gullar quyrug‘ining uchig‘acha bordur. Ba’zi tovuslarning qurug‘i birar quloch bo‘lur va gulluk parlarining ostida qisqaroq, o‘zga qushlarning quyrug‘idek, quyrug‘i ham bordur. Bu rasmiy quyrug‘i va qanotlari qizildur”[7, 254]. U bir-ikki martadan ortiq ko‘tarolmaydi. Uchishga ojiz bo‘lganligi uchun yo tog‘da yoki changalzorda yashaydi. Yana qizig‘i shundaki, tovuslar yashaydigan changalzorda bo‘rilar ko‘p bo‘ladi. Tovuslar bir quloch dumi bilan changaldan changalga o‘tib yuraveradi.

Yana biri to‘ti – bu yerlarda keng tarqalgan. Bobur ana shu to‘tining turli xil turlarini sanab o‘tadi. Jumladan, “jangaliy” deb nomlangan qushni “changalzor to‘tisi” deb ataydilar. “Jangal” so‘zi asli sernam joylarda uchraydigan daraxt-buta aralash to‘qay, o‘rmon, changalzor hisoblanadi. Tojikiston daryosi bo‘ylaridagi daraxtzor bo‘lib, ozarbayjon, turkman tillarida “jengel”; Afg‘oniston, Hindistonda “jangal”, Eronda “jengel” (o‘rmon) deyiladi. “Boburnoma”da ham “jangal” so‘zi “o‘rmon” ma’nosida keladi. Va Bobur o‘rmonda yashaydigan to‘tiqushga nisbatan “jangaliy to‘ti” nomini bergan. “Boburnoma” asarida esa “o‘rmon” so‘zini uchratmadik. Ushbu qush to‘tidan kichikroq bo‘lib uni gapirishga o‘rgatadilar. Besh-olti ming to‘ti bir gala bo‘lib uchadi.

Yana bir to‘ti borki, u changalzor to‘tisidek kichkina bo‘ladi. Shakl-u shamoyili: “tumshug‘i qora, bo‘ynida uluq qora tavqi bor, qanotlarining usti qizil, yaxshi so‘z o‘rganur” [7, 255]. To‘ti bilan maynaga har narsa desa, shuni takrorlaydi, o‘zlari biron narsa o‘ylab aytolmaydi, deb o‘ylaydi Bobur. Shunda yaqinlaridan Abulqosim Jaloyir qiziq bir voqeani aytib beradi. Mana shu xildagi to‘tining qafasi yopiq ekan. To‘ti: “Royi maro vo kunki, damgir shudam” (Mening yuzimni ochgin, dimiqdim), deb gapiribdi. Yana boshqa safar esa bir necha gapiradigan to‘tini olib ketayotgan kishilar biroz dam olish uchun o‘tirishadi. Yo‘lovchilarning o‘tib ketayotganini ko‘rgan to‘ti: “Mardum raftanad, shumoyam meravad” (Odamlar ketdi, siz bormaysizmi?), debdi. Bu rivoyatlarning to‘g‘riligiga javob berish roviyning zimmasida. Yana Bobur ilova qilib qo‘yadiki, kishi o‘z qulog‘i bilan eshitmaguncha, ishonib bo‘lmas.

III. Suv va suv yoqasida yashovchi qushlardan biri laylakdir. Bo‘yni oq, boshi va qolgan barcha a’zosi qora va bu qushni O‘zbekistonning viloyatlariga uchib boradigan laylakdan kichikroq. Hindistonliklar bu qushni “yakkarang” deb aytishadi. U yerdan yana bir laylak turi tarqalgan. Bobu ta’biricha: “rangi va va’zi tamon ul viloyatg‘a borur laylakdektur. G‘oyatosh, tumshug‘i qoraroqtur. Ul laylakdain xeyle kichikroqdur” [7, 258].

Sor (kalxat) degan bir qush tarqalgan orqasi ham, dumi ham qizil. Yana bir olaqarg‘a bo‘lib, biz olaqarg‘adan kichik va nozikroqdir. Bo‘ynida ozgina oqi bor. Hindistonda uchraydigan qushlardan yana biri uqor (turna jinsidagi qush) bilan laylakka o‘xshaydigan bir qush. Uqordan tumshug‘i kattaroq va uzunroq, jussasi laylakdan kichik.

IV. Hindistonda suv hayvonlaridan biri suv sheri. U oqmas suvlarda yashaydi. Gilos (kaltakesak)ga o‘xshashligi bor. Aytishlaricha, u odamlarni hatto ho‘kizni ham yamlamay yutar emish.

Yana biri suv cho‘chqasi bo‘lib, “bu tamom suvdan

boyakbor chiqar, boshi ko‘rinur-ko‘rinmas yana suvg‘a cho‘mar, quyrug‘i (dumi) ko‘rinib qolar’’ [7, 259]. Buning tumshug‘i seysarniki kabi uzun va unikidek mayda qator tishlari bor. Qolgan qismlari baliqnikidek suvda o‘ynayotgan mushukka o‘xshab ketadi. U baliqqa o‘xshab suvdan tashqariga chiqmaydi.

Hindiston baqalari esa bizning baqalarga o‘xshasada, ular suv yuzida yetti-sakkiz qari yugura oladi.

Hindistonning hayvonot dunyosi haqida so‘z yuritar ekanmiz, Hasanxo‘ja Nisoriyning ‘‘Muzakkiri ahbob’’ini ham misol keltirishimiz mumkin. Asarning II rukn 1-faslida Bobur shaxsiyati, uning zamondoshlari va Boburiylar sulolasi davomchilari haqida so‘z yuritiladi. Hindiston tabiati va hayvonotini quyidagicha sharhlaydi: ‘‘Hind juda azim o‘lkadir. Hind va Sind aka-uka bo‘lib, Xom bin Nuh alayhissalom avlodidan ekan. Hindda turli xil ajoyib-g‘aroyib hayvon va qushlar juda ko‘p bo‘ladi. U yerda bir xil qo‘y borkim, oltita dumbali, bittasi dumbasi asl joyida, bittasi esa sinasida osig‘liq, ikkitasi bo‘lsa, ustida, ikkitasi sonida. Hindda ulkan bir qush bo‘lguvchi, tumshug‘ining bir pallasida qayiq yasaydilar’’ [6, 52]. Yana asarda keltirilishicha, Hindistonning chekka yurtlaridan birining bir joyida oltin bo‘lakchalari qum bilan qorishgan holda bo‘ladi. U yerda katta-katta chumolilar ham bo‘lib ustida issiq suv sepsalar, barchasi in-iniga kirib ketadi. Odamlar esa qulay fursatdan foydalanib tezlik bilan tillolarni terib olib qochadilar.

Afg‘oniston tasvirida bu yerda uchrovchi hayvonot olamidagi hayvonlar ikki-uch tilda chog‘ishtirilganligini uchratishimiz mumkin. Xususan, lucha nomli qush afg‘on tilida buqalamon, hind tilida kabki dari, tovus hindlarda mo‘r deb yuritilishi, bundan tashqari, xarchal hindlarda tug‘doq, bo‘dana Kobulda qurotu, saros turk tilda teva turna, laylak hind tilida yakrang, o‘rdak g‘armpoy, shahmurg‘, qarg‘a murg‘ijangal, shappora chamag‘dor, hakka mato nomlari bilan atalishi haqida qimmatli ma’lumotlar uchraydi.

Hindiston hayvonot dunyosida esa turli til birliklari o‘zaro qiyoslanganligini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, fil hayvoni hind tilida hotiy, maymun bondar, nul degan maymun turi mushhurmo, sichqon kilahariy kabilarni misol qilishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Bobur barcha sohalarda kuzatuvchanlik mahoratini ishga soldi. Shu sohalardan biri – zoolog sifatida hayvonlarning turlarini klassifikatsiyalab, o‘zi kuzatgan hayvonlarning yurish-turishi, yashash sharoiti, qayerlarda ko‘p uchrashi-yu qayerlardadir uchramasligi haqida qimmatli ma’lumotlar keltiriladi. Hayvonot dunyosi temantik jihatdan tahlilga tortib ularning har biri haqida alohida-alohida to‘xtalib o‘tdik. Asarda, asosan, Hindiston qisman Kobuldagi hayvonlarning o‘xshash va farqli xususiyatlar ochib berilgan. ‘‘Boburnoma’’ o‘z muallifi adabiy-tanqidiy qarashlarini o‘rganishda bebaho dalillar bera oladi. ‘‘Boburnoma’’ – muazzam asar. Buyuk hukmdorning o‘z hayot yo‘liga yozilgan ‘‘Iqrornoma’’ desak, yanglishmaymiz. Asarni Bobur o‘zi yozmasdan, ma’lum bir muarrix tomonidan yozilganda u hozirgidek buyuk asar darajasiga ko‘tarila olarmidi? Tafakkur qilishimizcha, yo‘q. Chunki tarixiy asarlarni o‘rganish davomida ‘‘noma’‘lar tojdorlar sharafiga yozilib, ularning tavsifi madh etilardi. Go‘yoki tojdorlar qudratli iloh kabi ta’riflanardi. Tojdorlar uchun bu ma’qul uslub edi. Ammo Bobur bu uslubni buzib, o‘zi yozishga qaror qilgan. Hukmdor qanday bo‘lsa, shundayligicha izohlab o‘tgan, uning xato va kamchiliklaridan to‘g‘ri xulosa chiqarish va yutuqlaridan ibrat olishlik va biz yoshlar uchun manfaatli bo‘lishligi haqida bayon qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуалиева З.У. Гипонимо-эквонимические отношения в системе зоонимов русского и узбекского языков: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Худжанд, 2014. – 86 с.
2. Атавуллайева Х. Бобурнома жозибаси - ‘‘Бобур ва дунё’’ журнали. 2023. N-°2. - B. 3-4.
3. Fattoyeva Z., Botirova F. Qishloq xo‘jaligi leksikasi lingvistik tadqiqot obyekti sifatida, Talqin va tadqiqot ilmiy uslubiy jurnali, 2024. 4-10-betlar.
4. Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent, 1976. 568-608-b.
5. Toirova G., Botirova F. JARGON, ARGO VA SLENGLAR HAQIDA, PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI, 2024. 74-78-betlar.
6. Valixo‘jayev B. Mumtoz siymolar. – Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq meros nashriyoti, 2002. 260-302-b.
7. Хасахужа Нисорий. Музаккири ахбоб. – Тошкент: А.Кодирий номидаги халк мероси нашриёти, 1993 - 51-66-б.
8. 3. М. Бобур. Бобурнома, - Тошкент. Гафур Гулом номидаги адабиёт ва саньат нашриёти, 1989 - Б. 367.
9. Азамов О. ЗООФРАЗЕМАЛАРНИ ЎРГАНИШ ТАМОЙИЛЛАРИ ВА ТАҲЛИЛ УСУЛЛАРИ." IJODKOR O‘QITUVCHI" JURNALI 2022. N-°24.
10. Z. M. Bobur. Boburnoma. – Toshkent: ‘‘Yangi kitob’’, 2019. 430-b.
11. Sharipova M. TILSHUNOSLIKDA ZOONIMLARNING O‘RGANILISHI. “JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI VOLUME 2, ISSUE 4, 2024. APRIL.

Said RAXMANOV,
O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari uyushmasi bo‘im boshlig‘i
e-mail: said_rakhmanov@mail.ru

IJTIMOIY-SIYOSIY GAZETALARDA IQTISODIY MAVZU KO‘LAMI MASALALARI

Annotatsiya: maqolada O‘zbekiston milliy jurnalistikasidagi o‘zgarishlar, hozirgi o‘tish davri sinovlari, uning bosma ommaviy axborot vositalariga ta’siri tahlil qilingan. Bu borada xorij tajribasi qiyosan o‘rganilib, gazeta va jurnallar duch kelinayotgan muammolarni yengib o‘tish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Maqolada, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy gazetalarda iqtisodiy mavzu ko‘lami markaziy nashrlar misolida ko‘rib chiqilib, har taraflama tahlil qilingan. Sifatli kontent yaratish, materiallar o‘qishliligini oshirish yuzasidan takliflar ilgari surilgan. Mavzuni yoritish, muammo va yechimni taqdim eta olishda jurnalist salohiyati va mahoratining muhimligi ochib berilgan.

Tayanch so‘zlar: *iqtisodiy jurnalistika, bosma matbuot, ijtimoiy-siyosiy gazetalar, internet, iqtisodiy mavzu.*

Ommaviy axborot vositalari jamiyat taraqqiyotining ko‘zgusi, kishilar ongi, dunyoqarashi, siyosiy saviyasining yuksalishida asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Shu bois, unga hamma davrlarda talab yuqori bo‘lib, matbuotdan nafaqat axborot ulashuvchi muhim manba, balki asosiy targ‘ibot quroli sifatida foydalanib kelingan.

O‘zbekistonda jurnalistika XIX asrning ikkinchi yarmida (1870-yillarda) paydo bo‘lgan bo‘lsa, chop etilgan ilk gazetalar — “Turkestanskie vedemosti” va “Turkiston viloyatining gazeti” nashrlarining oldiga ham o‘sha davr mustabidlik siyosatini o‘tkazish asosiy vazifa qilib qo‘yilgan. Ushbu nashrlarning yoritgan mavzu doiralari, asosan, chor Rossiyaning o‘lkadagi manfaatlaridan iborat bo‘lgan.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgachgina bundan xalos bo‘lib, milliy jurnalistika tarixiy rivojida yangi davr boshlandi. Ommaviy axborot vositlarida son va sifat jihatidan o‘sish kuzatildi. O‘z navbatida, jurnalistikaning asosiy vazifasi ham o‘zarib bormoqda. Uning ijtimoiy hayotda sodir bo‘lgan voqea-hodisalar haqida jamoatchilikka xabar berish vazifasi bilan birga, jamoatchilik fikrini shakllantirish va boshqarish, jamiyatning turli guruhlari, jamoalari, kishilari o‘rtasida kommunikativ munosabatlar o‘rnatish, muayyan g‘oya va mafkuralarni targ‘ibot va tashviqot qilish, tarbiyalash, axborot bozoriga mahsulot yetkazib beruvchi ishlab chiqarish korxonasiga aylanishi kabi faoliyat turlari ham rivojlandi. Istiqlolning ilk yillarida 395 ta ommaviy axborot vositasi faoliyat yuritgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2016-yilda 1514 taga, 2023-yilda 2140 ta yetdi. E’tiborli tomoni shundaki, 1991-yilda davlatga qarashli bitta televideniye va radiodan boshqa elektron ommaviy axborot vositasining o‘zi mavjud emas edi. Bugungi kunda esa ommaviy axborot vositalarining 65 foizini nodavlat media vositalari tashkil etgani holda, internet nashrlari soni 745 taga yetdi.

1-infografika.

Jurnalistikaning asosi bosma OAV hisoblanadi. Biroq gazeta matbuotning o‘zagi, o‘q ildizi bo‘lishiga qaramasdan, har safar taraqqiyotning kaltagi aynan uning boshida sinadi. O‘tgan asrning 50-yillari televideniye, undan avvalroq radio paydo bo‘lgan paytda ham matbuot biroz chetga surilib qolgan. Sababi — oddiy. Kundalik axborotlarni olish uchun yangi manbalar topilgan. 90-yillarning ikkinchi yarmida bu holat yana takrorlandi. Internet o‘quvchilar uchun qulay va arzon axborot vositasi sifatida maydonga kirib keldi.

Ijtimoiy tarmoqlar ommalashgan hozirgi zamonda yana o‘sha tarix takrorlanmoqda. Statistik ma’lumotlarning tasdiqlashicha, so‘nggi 10 yillikda gazetalar soni 283 taga kamaygan.

2-infografika.

Darhaqiqat, keyingi o‘n-o‘n besh yil davomida mamlakatimizdagi bosma nashrlar jiddiy sinovlarni boshidan kechiryapti. Gazeta va jurnallar obunasining keskin kamayib, tirajining tushib ketishi, boshqa tomondan qog‘oz, bo‘yoq narxi oshib, chop etish xarajatlarining ko‘payishi oqibatida ayrim bosma nashrlar yopildi. Shunday bo‘lsa-da, gazetalar hozirgi o‘tish davridagi moliyaviy qiyinchiliklarga qaramasdan qayta kuchga kirishga, bozor sharoiti talablariga moslashib, media olamida o‘z o‘rnini saqlab qolishga, sifatli axborot uzatishga intilmoqda. Mamlakatning hatto olis hududlarida yangi gazetalar tashkil etilayotgani shundan dalolat beradi, albatta. 2024-yildan Jarqo‘rg‘on tumanida “Janub gavhari” ijtimoiy-siyosiy gazetasi chop etila boshlagani, yangi ta’sis etilgan “Vatan” ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-ma’rifiy jurnali, “Yoshlar kundaligi” ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy jurnalining ilk sonlari o‘quvchilarga taqdim etilgani esa bosma nashrlarga ehtiyoj borligini amalda tasdiqlaydi.

Texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanishi, foydalanishga qulay gadjetlarning hayotimizga kirib kelishi nafaqat yurtimizda, balki jahon miqyosida ham gazeta, jurnal, tele-radio auditoriyasini keskin qisqartirib yubordi. Buyuk Britaniyadagi yetakchi gazetalar 2015-yildan boshlab 25-30 foiz adadini yo‘qotdi.

Xususan, “The Sun” o‘quvchilari 1,8 milliondan 1,37 millionga, “The Guardian” mushtariylari 179 mingdan 134 mingga kamaydi. AQShda ham bundan o‘n yillar oldin 1,3 million nusxada chop etilgan “The New York Times”ning kundalik tiraji 343 mingga tushib qoldi. “The Washington Post” tiraji keyingi o‘n yil davomida qariyb 38 foizga qisqargan bo‘lsa-da, hozirda onlayn obunachilar soni 2,2 millionga yetib, mamlakatda birinchi o‘ringa chiqqan.

Xavotirli savol tug‘iladi: gazeta va jurnallar o‘z o‘rnini internet jurnalistikasiga bo‘shatib beradimi?

Albatta, yo‘q! Bosma matbuot OAVning eng muhim turi sifatida, albatta, yashab qoladi. Buning uchun gazeta va jurnallar isloh etilib, zamon talabiga moslashishi, “kollaboratsiya” qilinib, boshqa OAV turlari bilan uyg‘unlashishi kerak. Kollaboratsiya so‘zi fransuzcha “collaboration” so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zbek tiliga o‘girilganda hamkorlik ma’nosini anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, umumiy manfaatga birga erishish uchun ikki yoki undan ko‘proq kishi yoxud turli soha vakillarining sherikchiligi, ijodiy hamkorligiga nisbatan qo‘llaniladi. Bizning fikrimizcha, internet jurnalistikaning eng katta yutug‘i ham aynan kollaboratsiyada, ya’ni o‘zida ham matbuot, ham radio, ham televideniye unsurlarini mujassam etganidir.

Yurtimiz olimlari buni “jurnalistikada konversiya” iborasi bilan izohlashadi. “Konversiya” qo‘shilish, birlashish ma’nolarini bildirib, u turli xil elektron texnologiyalarning tez rivojlanishi va o‘zaro aloqadorlikda ishlashi natijasida yagona tizimga birlashish, qo‘shilish jarayonini anglatadi. Jurnalistikada konversiya bevosita turli xil axborot uzatish shakllarining yagona bir tizimga o‘tishida yaqqol ko‘rinadi. Masalan, televideniyeda hozirda nafaqat tasvir va ovozdan, balki matnli ma’lumotlardan ham bevosita foydalaniladi. Buni ovozdan tashqari, qo‘shimcha ma’lumot berishga mo‘ljallangan titr yozuvlarida kuzatish mumkin. Bu usulda axborot uzatish ko‘pgina qulayliklarga ega ekani isbotlangan.

Gazetalar jurnalistika oldidagi birlamchi talab hisoblangan tezkorlik bo‘yicha internet jurnalistikasi bilan bahslasha olmasligi — oddiy haqiqat. Biroq unda tahlil, masalaga chuqur yondashuv, sifatli mahsulotlar bilan auditoriyasini saqlab qolish imkoniyati katta. Qolaversa, bugungi kunga kelib, internetdagi yangiliklar sifat jihatdan talab darajasida emasligini ko‘pchilik seza boshladi. Tekshirilmagan, oldi-qochdi, “feyk” xabarlar avj olib ketdi. Media savodxonlik esa nafaqat jurnalistikaning, balki butun boshli jamiyatning bosh og‘rig‘iga aylandi. Odamlar internetdagi sayoz materiallardan ko‘ra to‘laqonli, tahliliy maqolalarni qidira boshlashdi. Bu bosma matbuotga o‘quvchilarni qayta jalb etish uchun qulay imkoniyatdir.

Ma’lumotlarga qaraganda, ayni paytda Osiyo davlatlarida chop etilayotgan gazetalar adadi bo‘yicha dunyo yetakchilik qilyapti. Tadqiqotchilar buning ikkita asosiy sababini ko‘rsatishmoqda:

Birinchisi, demografik omil bo‘lib, aholi sonining ko‘pligi va o‘sib borayotgani bilan bog‘liq;

Ikkinchisi, xalqda gazetxonlik madaniyati yaxshi shakllangan bo‘lib, mutolaaga ishtiyoq kuchli ekanligi bilan bog‘liq.

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, Yaponiyaning “Yomiuri Shimbun”, “Asahi Shimbun” va “Mainichi Shimbun” nashrlari jahondagi eng katta tirajli nashrlar qatorida turibdi. “The Times of India” dunyo miqyosida ingliz tilida chop etiladigan eng ko‘p adadli gazeta sanaladi. Ahamiyatli tomoni shundaki, ular an’anaviy bosma formatdan tashqari “Broadsheet”, “Compact”, “Berliner” va “Online” tarzda ham ish olib bormoqda. Demak, xorijiy tajribadan oydinlashyaptiki, yirik gazetalar hozirgi sivilizatsion to‘siqlardan ancha oson sakrab o‘tmoqda. Adad nisbatan qisqargan bo‘lsa-da, raqamli muhitda ham munosib o‘rin egallamoqda. Turli zamonaviy formatlarda yaxshi natijalarga erishishmoqda.

O‘zbekistondagi markaziy nashrlar, jumladan, ijtimoiy-siyosiy gazetalar hozirgi o‘tish davrining jiddiy sinovlarida obdon toblanyapti. Ularning adadi yil sayin pasayib, vaqt chig‘irida saralanib qoldi.

2024-yil boshidan ijtimoiy-siyosiy gazetalarining adadi:

“Xalq so‘zi” gazetasi — 17 579 nusxada;

“Yangi O‘zbekiston” gazetasi — 9 800 nusxada (1-martdan gazeta adadi birdaniga ko‘tarilib, 44 621 nusxaga yetdi);

“Narodnoe slovo” gazetasi — 4 096 nusxada;

“Pravda Vostoka” gazetasi — 1 674 nusxada;

“Qishloq hayoti” gazetasi — 1 755 nusxada;

“Jamiyat” gazetasi — 1 015 nusxada;

“O‘zbekiston ovozi” gazetasi — 3 505 nusxada;

“XXI asr” gazetasi — 4 851 nusxada;

“Milliy tiklanish” gazetasi — 5 036 nusxada;

“Adolat” gazetasi — 2 048 nusxada;

“Oila va tabiat” gazetasi — 2 248 nusxada;

“Yoshlar ovozi” gazetasi — 10 367 nusxada chop etilyapti.

Gazetalar orasida adadi jihatidan “Ishonch” gazetasi yetakchilik qilmoqda. U 35 046 nusxada nashr etilib, o‘quvchilarga yetkazib berilyapti.

Bunday sharoitda bosma OAVlari yashab qolishi, o‘quvchilarini ko‘paytirishi uchun nima qilish kerak?

Keng jamoatchilik o‘rtasida ushbu masala muhokama qilinar ekan, ziyolilar tomonidan ko‘plab takliflar ilgari surildi. Ularni umumlashtirgan holda, quyidagilarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin:

— muassislar gazetalar moliyaviy ahvolini yaxshilashga yaqindan ko‘mak berishi kerak;

— gazetalar bozor iqtisodiyoti sharoitiga moslashib, raqobatga kirisha olishi lozim;

— matbuot nashrlari uchun davlat grantlari ajratish amaliyotini takomillashtirish zarur;

— hozirgi murakkab vaziyatda jamoat tashkilotlari obunani tashkil etishning zamonaviy yo‘llari, vositalarini qo‘llashi joiz;

— Milliy mass-mediani qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi hamda boshqa milliy va xalqaro jamg‘armalarning grantlarini jalb qilish darkor;

— gazetaning targ‘ibot-tashviqotini kuchaytirish zarur;

— odamlarni qiynayotgan muammo, kamchiliklar, ularning yechimi xususida tanqidiy, tahliliy, o‘qishli maqolalarni ko‘paytirib, nashr nomini tanitish zarur;

— reklama va e’lonlarni ko‘proq joylash orqali daromad qilish lozim;

— xorij amaliyotidan to‘g‘ri saboq olib, tezroq yangi formatlarni o‘zlashtirish shart.

E’tirof etish kerak, hozirgi kunda markaziy ijtimoiy-siyosiy gazetalarning deyarli barchasi izlanishda, raqamli faoliyatini takomillashtirish harakatida. Ular o‘z rasmiy saytiga ega bo‘lib, onlayn formatda ham ish yuritmoqda. Lekin gazeta-jurnallar saytlari hali daromad keltiradigan manbaga aylana olgani yo‘q. Tashrif buyuruvchilar soni va materiallarning o‘qilish darajasi bo‘yicha ommabop saytlardan anchayin ortda.

O‘rganishlarimizga qaraganda, matbuot sahifalarida “tish-tirnoqli”, o‘tkir muammoli masalalar ko‘tarilgan tahliliy materiallar juda kam foizni tashkil etadi. Shunday bo‘lsa-da, oxirgi yillarda ijtimoiy-siyosiy gazetalarda iqtisodiy mavzu ko‘lami ortib, hududlar qamrovi kengaygani, tahliliy chiqishlarga ko‘proq e’tibor qaratilayotgani quvonarli holdir. Masalan, “Qishloq hayoti” gazetasining mavzu mundarijasining 60 foizini iqtisodiy materiallar hissasiga to‘g‘ri keladi. Agrosanoat tarmoqlari, moliya-bank tizimi, paxta-to‘qimachilik sanoati masalalari nisbatan ko‘proq yoritiladi. Gazeta sahifalarida tanqidiy materiallar nisbatan kam beriladi. Ayni shu masala bo‘yicha so‘rovimizga tahririyat rahbariyati “Odamlar ishonmay qo‘ygan, haqiqiy, ishonarli tahliliy-tanqidiy material tayyorlashning esa o‘zi bo‘lmaydi”, degan mazmundagi javobni oldik.



Ular bunday paytda jurnalistlarning ixtisoslashuvi yordamga kelishini qo‘shimcha qilar ekan, ammo bugungi jamiyatda gazetachilikning og‘ir yukini yelkasiga olishga tayyor bo‘lgan, odamlar kutayotgan muammoli masalalarni olib chiqadigan, asl holatni chuqur tahlil qilib beradigan malakali jurnalist topish qiyin ekanligini afsus bilan tilga olishdi.

Aslida, qaysi mavzuni olib qaramaylik, uning negizida iqtisodiyot yotadi. Narxlarning oshishi yoki tushishi, soliq bo‘yicha imtiyozlar, xalqimiz farovonligini oshirishga qaratilgan islohotlar — bularning hammasi iqtisodiyotga borib taqaladi. Biroq ijtimoiy-siyosiy nashrlarda iqtisodiyotning barcha sohalari ham to‘liq yoritilyapti, deb bo‘lmaydi. Ushbu yo‘nalishdagi materiallarda moliyaviy xizmatlar bozori, xususan, tijorat banklari faoliyati ustunlik qiladi. Ammo ularda moliya muassasalari erishayotgan yutuqlar, ijobiy ko‘rsatkichlari bilan chegaralanadi. Kredit foizlarining yuqoriligi, asosiy stavkaning balandligi, inflatsiyaning o‘sib borish sabablari haqida negadir so‘z ochilmaydi. Faqat “Ishonch” gazetasining 2022-yil 12-maydagi sonida “Asosiy stavka pasaymaydimi?” deya Markaziy bank raisi Mamarizo Nurmuratov e’tibori uchun ochiq savol yo‘llanganini inobatga olmaganda, bu mavzularga murojaat boshqa kuzatilmadi.

“Ishonch” gazetasida shunday yoziladi: “Sanksiyalar bois Rossiya Markaziy banki shu yilning 28-fevralida asosiy stavkani 20 foiz etib belgilagan edi. Ammo oradan hech qancha vaqt o‘tmay, ya’ni 8-aprel kuni asosiy stavkani dastlab 17 foizga, 29-aprelda esa 14 foizga kamaytirdi.

Rossiya Markaziy banki raisi Elvira Nabiullinaning so‘zlariga qaraganda, shu yilning oxiriga qadar asosiy stavkani 12,5 foizga, 2023-yili — 9-11 foizgacha, 2024-yili 6-8 foizgacha kamaytirish rejalashtirilgan.

O‘zbekiston Markaziy banki esa asosiy stavkani shu yilning 18-martida

14 foizdan 17 foizga ko‘tardi. Avval buni tushungandek ham bo‘ldik, ammo endi-chi? Umuman, Markaziy bank asosiy stavkani kamaytirib borish bo‘yicha qachon bir jiddiy qadam tashlaydi? Biz nimani kutayapmiz?”

Bu savollar hamon dolzarbligini yo‘qotmagan. Eng achinarlisi, hali ham ochiqligicha qolmoqda.

Shu bilan birga, sug‘urta bozori, soliq va bojxona, servis xizmatlari ko‘rsatish, umumiy ovqatlanish, kon-metallurgiya, yonilg‘i-energetika, avtomobilsozlik sohasiga oid kichik axborotlarni hisobga olmaganda, chuqur yoritilmaydi.

Kuzatishlarimizga ko‘ra, keyingi yillarda eng ko‘p e’tirozlarga sabab bo‘layotgan sohalardan biri energetika hisoblanadi. Energetika taqchilligi tufayli harorat pasayib ketgan qish-qirovli kunlarda ta’minotda cheklovlar o‘rnatilib, avtomobillarga gaz quyish shoxobchalari faoliyati vaqtincha to‘xtatilmoqda. Buning ortidan yonilg‘i-moylash materiallariga bo‘lgan talab ortib, joylarda benzin yetishmovchilik holatlari kuzatilyapti. Bu haqidagi murojaatlar bilan ijtimoiy tarmoqlarda to‘lib-toshadi. Chunki endilikda jamiyat a’zolari faqat OAV orqali axborotni qabul qilibgina qolmasdan, o‘zlari ham bu jarayonda bevosita ishtirok etyapti. Bu esa zamonaviy jurnalistikaning mohiyati va vazifalariga o‘zgartirishlar kiritadi, albatta.

Odamlarning o‘zlari yashayotgan jamiyatda sodir bo‘lgan voqealar, o‘zlari kundalik hayotida duch kelayotgan muammolar ko‘proq qiziqtiradi. Ayniqsa, bu holatlar ularning manfaatlariga daxldorlar bo‘lsa, hech qachon e’tiborsiz qoldirmaydi. Yoqilg‘i-energetika tizimida kuzatilayotgan muammolar ana shunday ko‘pchilikni o‘ylantirayotgan dolzarb masalalar qatorida turibdi.

To‘g‘ri, Energetika vazirligining matbuot xizmati vaziyat va ta’minot, iste’molchilarni energiya resurslari bilan barqaror ta’minlash bo‘yicha qilinayotgan ishlar, tezkor tadbirlar haqida muntazam axborot tarqatib turibdi. Lekin sohadagi asl holat tahlil qilingan yoki vaziyat sharhlangan materiallar barmoq bilan sanarli darajada kam. Ana shunday paytda “Yangi O‘zbekiston” gazetasi muxbiri ushbu mavzuga murojaat qilib, 2024-yil 5-mart sonida “Benzin nimaga muammo bo‘lmoqda?” sarlavhali maqola e’lon qilgani diqqatga sazovor, albatta.

“Shu kunlarda yurtimizda benzin muammosi yuzaga kelgan. Havo sovishi bilan avtomobillarga gaz quyish shoxobchalariga kiritilgan cheklovlar sabab benzin quyish shoxobchalaridagi navbatlar ortgan. Haydovchilar orasida ommalashgan AI-80 benzini esa hamma joyda ham mavjud emas va cheklangan miqdorda sotilmoqda”, deya dastlab yonilg‘i-energetika bozoridagi vaziyat haqida ma’lumot beriladi. Shundan so‘ng nisbatan cho‘ntakbop bo‘lgan AI-80 markali benzin taqchilligining sababi haqida so‘z yuritiladi.

Maqolada urg‘u berilishicha, AI-80 markali benzinga 2022-yilning 13-dekabrida joriy etilgan imtiyoz tufayli bu metan gaz bilan bog‘liq muammoni qisman yopgan bo‘lsa-da, keyinchalik undan ko‘proq xususiy shoxobchalar foyda ko‘rgan. “Xususan, benzin avtomobillarga yonilg‘i quyish shoxobchalariga bozor tamoyillari asosida birja savdolari orqali sotilishi va narxi erkin shakllanishi tufayli xususiy shoxobchalarda qimmat sotilgan. Natijada, aktsiz solig‘i nollashtirilganidan iste’molchilardan ko‘ra, xususiy shoxobchalar ko‘proq manfaatdor bo‘lib kelgan. Shuningdek, aktsiz solig‘i imtiyozlari sababli Davlat byudjetiga 1 trillion 228,8 milliard so‘m tushmay qolgan”, deyiladi.

Shuningdek, bugungi kunda AI-80 benzinini bosqichma-bosqich iste’moldan chiqarish choralari ko‘rilayotgani, bozorda taqchillik kuzatilmasligi va iste’molda uzilish bo‘lmasligi uchun chora-tadbirlar rejalashtirilgani, jumladan, xorijdan benzin olib kiruvchi subyektlar faoliyatini kengaytirish orqali iste’mol bozori bir maromda ushlab turilishi ko‘zda tutilgani haqida axborot beriladi. Maqolada tadbirkorlar fikriga tayanilib, sohadagi tizimli muammolar sanalgani jurnalistning katta yutug‘idir.

Tadbirkorlarning aytishicha, banklar tomonidan ajratilgan kredit yuklamasi, logistika narxlari yuqoriligi, import qilingan benzin barcha standartlarga to‘g‘ri kelishi va sifati talabga javob berishi yuzasidan hujjatlar borligiga qaramay, yurtimizga olib kirilganda qo‘shimcha majburiy sertifikatlashdan o‘tkazilishi, QQS to‘lovini to‘lash muddati qisqaligi, mahsulot realizatsiya qilinmagan, biroq mablag‘ o‘tkazilgani uchun soliqqa tortilishi holatlari, yonilg‘i saqlash sig‘imlar ijarasi qimmatligi yonilg‘i yetkazib berishga salbiy ta’sir qilmoqda.

“Qisqasi, benzin masalasida muammolar bor. Ularni aniqlash va tizimli ravishda hal etish choralarini ko‘rish muhim vazifaga aylanmoqda. Aks holda bir salbiy holatdan ikkinchisi yuzaga chiqib kelaveradi”, deya xulosa qilinadi maqolada.

Yonilg‘i-moylash materiallari bozoridagi muammolar haqida so‘z yuritganda, “Yangi O‘zbekiston” gazetasida 2024-yil 22-fevral sonida e’lon qilingan “Dizel yonilg‘isi narxi 15 foizga pasaytirildi. Buning hisobiga paxta yetishtiruvchilar ixtiyorida qancha mablag‘ qoladi?” sarlavhali materialni alohida keltirish o‘rinlidir. Sababi, unda qishloq xo‘jaligi xodimlarining haqli e’tirozlariga sabab bo‘layotgan dizel yonilg‘isi bahosining yuqoriligi va narxini pasaytirish bo‘yicha ko‘rilgan choralar haqida so‘z yuritilgan.

Maqolada Prezidentimiz raisligida 2024-yil 12-fevral kuni bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida berilgan ko‘rsatmaga asosan, dizel yonilg‘isi narxi 15 foizga pasaytirilganiga e’tibor qaratilib, “Xo‘sh, ushbu yengillik paxta yetishtiruvchilarga qancha iqtisodiy naf beradi?” deya soha vakili savolga tutiladi.

“Dastlabki hisob-kitoblarimizga qaraganda, yonilg‘i-moylash materiallari narxida berilayotgan imtiyozlar hisobiga paxta yetishtiruvchi klaster va fermerlar ixtiyorida kamida 585 milliard so‘m miqdorida mablag‘ tejab qolinar ekan.

...Ushbu mablag‘lar, birinchi navbatda, yetishtirilgan paxta xomashyosi tannarxining kamayishiga, klaster va fermer xo‘jaliklarining daromadlari oshishiga

olib keladi. Qolaversa, narx imtiyozi qayta ishlash bosqichlarida ham mahsulot tannarxiga o‘z ta’sirini ko‘rsatib, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini berishi bilan alohida ahamiyatga egadir”, deya O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari uyushmasi Iqtisodiy tahlil va rejalashtirish boshqarmasi boshlig‘i Hakim Elmonovning so‘zlari keltiriladi.

Umuman olganda, “Yangi O‘zbekiston” gazetasida iqtisodiy mavzulardagi maqolalarga katta o‘rin ajratib kelinmoqda. Chop etilayotgan materiallarning o‘rtacha 20-25 foizini iqtisodiy sohalarga doir materiallar tashkil etadi. Bunda jurnalistlarning mualliflik maqolalaridan tashqari, vazirlik va idoralar, davlat tashkilotlari rahbarlarining, iqtisodchilar, ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanayotgan izlanuvchilar, olimlarning chiqishlariga ham keng o‘rin ajratiladi. Gazeta sahifalarida qurilish, qishloq xo‘jaligi, suv xo‘jaligi, sanoat tarmoqlari, jumladan, paxta-to‘qimachilik sanoati sohalar nisbatan ko‘proq yoritiladi.

Mazkur gazetada iqtisodiy masalalarning yoritishda o‘ziga xos yondashuv shundaki, informatsion janrlarga deyarli murojaat qilinmaydi. Tahliliy janrdagi materiallarga ko‘proq e’tibor qaratiladi. Bugungi tezkor axborot davrida bu juda yaxshi qaror hisoblanadi. “Tahlil” (ruscha “analiz” so‘zidan olingan bo‘lib), 1) ilmiy tekshirish usuli, obyektiv voqelikni ilmiy bilish, o‘rganish vositasi; 2) tahlil qilish; 3) tekshirish degan ma’nolarni anglatadi. Shu nuqtayi nazardan tahliliy jurnalistikaning asosiy vazifasi tahlil, tekshirish orqali sodir bo‘lgan voqelikni jamoatchilikka yetkazish, tushuntirishdir.

Mavzuni o‘rganish hamda tadqiqotimizning dastlabki natijalaridan kelib chiqqan holda, ijtimoiy-siyosiy gazetalarda iqtisodiy mavzuni to‘laqonli yoritish yuzasidan quyidagi takliflarni beramiz:

Birinchidan, iqtisodiy jurnalistika haqidagi qarash va mavjud mezonlarni o‘zgartirish kerak. Chunki u tijorat yo‘sinidagi materiallar, moliyaviy muassasalar faoliyati yoki reklama va e’lonlardan iborat emas, balki iqtisodiyot sohalari, sanoat tarmoqlarining barchasini yoritish, aholining iqtisodiy hayotimizdagi o‘zgarishlardan xabardor etadigan jurnalistikaning eng muhim yo‘nalishidir.

Ikkinchidan, mavzular rang-barangligini, hududlar qamrovini kengaytirish zarur. Hozirgi paytda ijtimoiy-siyosiy gazetalarda agrar tarmoq, yengil sanoat, tadbirkorlar faoliyati nisbatan ko‘proq yoritiladi. Boshqa yo‘nalishlarga kam hollardagina murojaat qilinadi. Eng achinarlisi, hududlar iqtisodiyoti, ularning “o‘sish nuqtalari” yoki zaif tomonlari ochib berilmayapti.

Uchinchidan, vazir yoki mas’ul rahbarlarning mualliflik maqolalaridan imkon qadar qochib, rahbar kadrlar chiqishlarida formatni o‘zgartirish lozim. Odatda, ular chiqishlarida o‘zi faoliyat yuritayotgan sohadagi yutuqlarga ko‘proq urg‘u beradi. Tabiiyki, aholi kutayotgan, keng jamoatchilikni qiziqtirgan masalalar e’tibordan chetda qoladi. Bunday hollarda jurnalistlar tashabbusni qo‘lga olib, suhbat yoki davra suhbati tashkil etsa, rahbarlarni dolzarb masalalar bo‘yicha so‘roqqa tutish, muhokamalar markazida bo‘lib turgan mavzular bo‘yicha munosabatini olish imkoniyati paydo bo‘ladi.

To‘rtinchidan, nainki ijtimoiy-siyosiy gazetalarda, balki barcha OAVlarda iqtisodiy sharhni yo‘lga qo‘yish o‘ta zarur. Hozirgi paytda iqtisodiy gazetalarda ham iqtisodiy sharhlar deyarli berilmaydi. Xalqaro iqtisodiy sharh tayyorlash esa bundan ham og‘riqli masalaga aylangan.

Beshinchidan, iqtisodiy mavzularni yoritadigan jurnalistlar bilim malakasini oshirib borish zarur. Bunday treninglarga xorijiy OAVlarida faoliyat yuritayotgan taniqli amaliyotchi jurnalistlar ko‘proq etilsa, bizningcha, samarasi katta bo‘ladi. Gazeta-jurnallarda faoliyat yuritayotgan muxbirlar uchun ma’ruza tinglash u qadar qiziq emas.

Qaysi soha bo‘lmasin, ayniqsa, iqtisodiy sohada qalam tebratish uchun jurnalistda katta bilim, tajriba va albatta, mahorat talab etiladi. Bular esa muttasil o‘qish, izlanish orqali shakllanib boradi.

Umuman olganda, keyingi paytlarda ijtimoiy-siyosiy gazetalar sahifalarida iqtisodiy mavzuni yoritishda ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Bundan o‘n yil oldingi holat bilan qiyoslanganda, til, uslab, masalaga yondashuv keskin o‘zgarganiga guvoh bo‘lish mumkin. Qolaversa, tahliliy va tanqidiy materiallar sonida o‘sish sezilyapti. Bizningcha, jurnalistikadagi o‘zgarishlarni sonlar kam yoki ko‘pligi bilangina emas, aksincha, sifati bilan, aniqrog‘i, ko‘tarilgan masalaning jamiyatga keltirgan manfaati bilan baholasa to‘g‘riroq bo‘ladi. Ya’ni matbuotda berilayotgan kichik axborotdan tortib, tahliliy maqolalargacha shunchaki e’lon qilinmasin, u o‘quvchiga, jamiyatga naf keltirsin, foyda bersin. Ana shunda gazeta va jurnallar o‘quvchilari safi kengayib, hozirgi o‘tish davridagi qiyinchiliklar yengib o‘tiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tabrigi, 2023-yil 27-iyun.
2. Boybo‘ta Do‘stqorayev. O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi. — Toshkent, 2009.
3. Nazira Qurbon. Tahliliy jurnalistika. O‘quv qo‘llanma. — Toshkent: “Bayoz”, 2019.
4. Qosimova N., Toshpo‘latova N. va boshqalar. Bosma OAV tahririyatlari uchun o‘quv qo‘llanma. — Toshkent, 2008.
5. Beruniy Alimov. O‘zbek matbuotini taraqqiyot kaltagi ostidan qanday qutqarish mumkin?// Oyina.uz partali, 2022-yil 21-iyun.
6. O‘zbekistonda milliy jurnalistikaning rivojlanishi bo‘yicha O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasining I milliy ma’ruzasi.
7. Ruscha—o‘zbekcha lug‘at. 1-jild. — Toshkent: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” DIN, 2013.
8. Statistika agentligi rasmiy sayti.
9. “Vikipediya” svobodnaya ensiklopediya.

Davron MANSUROV,
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Harbiy va sport jurnalistikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi
E-mail: davron1522140@mail.ru

PARTIYA NASHRLARIDA YORITILGAN MAQOLALAR MAVZULARINING QIYOSIY TAHLILI

Annatatsiya: maqolada O‘zbekiston Respublikasida demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar nashrlarining 2016-yil Prezident saylovi davrida chop etilgan ba’zi sonlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *partiya nashrlari, “Adolat” gazetasi, “O‘zbekiston ovozi” gazetasi, saylov, saylovoli dasturi, demokratiya, sarlavha, reklama.*

Аннотация: в статье анализируются некоторые вопросы публикатsій политических партий, действующих в процессе углубления демократических реформ и формирования гражданского общества в Республике Узбекистан, опубликованных в ходе президентских выборов 2016 года.

Ключевые слова: *партийные издания, газета «Адолат», газета «Голос Узбекистана», выборы, предвыборная программа, демократия, заголовок, реклама.*

Annotation: the article analyzes some issues of publications of political parties operating in the process of deepening democratic reforms and forming civil society in the Republic of Uzbekistan, published during the 2016 presidential election.

Key words: *party publications, "Adolat" newspaper, "Voice of Uzbekistan" newspaper, election, electoral program, democracy, headline, advertising.*

Yangiliklarni tayyorlashda kim, kimni, nima, qachon, qayerda, nima uchun kabi 6 boqiy savolni unutmaslik kerak. Ushbu keltirilgan kategoriyalar asosida O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalarning 2016-yilda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligi saylovidagi ishtirokining[1] partiyalar ijtimoiy-siyosiy nashrlarida qanday yoritilganini aniq misollar asosida tahlil qilib chiqamiz. Masalan, “Adolat” ijtimoiy-siyosiy gazetasida **“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlar ro‘yxatga olindi”**[2] sarlavhali maqola O‘zbekiston “Adolat” SDPdan Prezidentlikka nomzod Narimon Majitovich Umarovning dasturini qo‘llab-quvvatlashga chaqiriq bilan boshlanadi. Gazetaning 1-4 sahifalarida nomzodning Surxondaryo, Qashqadaryo, Farg‘ona viloyatlari saylovchilari bilan uchrashuvlari yoritilgan maqola chop etilgan. Sarlavha asar mohiyati, uslubini o‘zida ko‘rsatib turadi. Aynan matnning nima xususida ekanligi, qanday uslubda yozilganligi unga qo‘yilgan sarlavha orqali anglashib turadi. Ta’kidlash lozimki, badiiy publitsistik matnlar sarlavhasidan badiiylik, shuningdek, ta’sirchanlik ko‘rinib turadi. Tasviriy ifoda vositalaridan foydalaniladi. Ammo siyosiy matnlarga qo‘yilgan sarlavhalarda esa aksincha, jiddiylik, ba’zan oddiylik va aniqlikni kuzatish mumkin. Yuqoridagi sarlavha jiddiylik va oddiylik asosiga qurilganini ko‘rishimiz mumkin.

Gazetani varaqlar ekansiz 4-sahifada **“Huquqiy maslahat”** sarlavhasi ostida Prezident saylovi bilan bog‘liq savollarga huquqshunos A.Rahmonov tomonidan batafsil javoblar e’lon qilingan. Buni ijobiy baholamoq kerak. Chunki kattami-kichikda o‘tkazilayotgan saylov bilan bog‘liq savollar bo‘lishi tabiiy va buni oldindan anglagan holda berib borish gazetxonlar va partiya a’zolari uchun foydadan xoli bo‘lmaydi.

Gazetaning 7-sahifasida “Adolat” gazetasi muxbiri Kamol Matyoqubovning **“Boqiy shaharning yangilanayotgan qiyofasi”** nomli maqolasi chop etilgan. Maqolada Xiva shahridagi tarixiy obidalar, sayyohlik majmualari, Ichan-qal’ada olib borilayotgan ta’mirlash ishlari haqida so‘z boradi. Mavzuni davom ettirgan holda O‘zbekiston “Adolat” SDP Xiva tuman Kengashi raisi Shuhrat Bekchanov “2013-2015 yillarda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”gi Prezident Qarori ijrosi bo‘yicha qilinayotgan ishlar xususida “Tarix ko‘zgusi” nomli maqolasida o‘z fikr-mulohazalarini bildiradi. Yuqorida keltirilgan ikki maqolada ham mualliflar masalada partiyaning aloqasi qanday bo‘lganligi xususida to‘xtalmaganlar, faqatgina o‘zlarining shaxsiy fikrlari bilan cheklanganlar. Fiklarning berilgani yaxshi, albatta, lekin masalaning ikkinchi tomoni ham borda. Maqolada keltirilgan masalalar O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining saylovoldi dasturida ilgari surilgan vazifalar sirasiga kiradi. Bunga na maqolani yozgan gazeta muxbiri va na gazeta bosh muharriri, qo‘yingki, partiya Siyosiy Kengashi raisining mafkuraviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari ham e’tibor bermagan. Muhim siyosiy jarayon vaqtida bu kabi e’tiborsizlikni kechirib bo‘ladimi?

Gazetada 8-sahifaning juda katta qismi Asaka bank tomonidan “Sog‘lom ona va bola yili” munosabati bilan taqdim etilayotgan milliy valyutadagi omonat

turi haqidagi reklama e'loni bilan to'ldirilgan. Xuddi shuningdek, o'sha sahifada "GLOBAL SAVDO FAYZ BUXARA" MChJning boshlang'ich bahosi oshib borish tartibida o'tkaziladigan ochiq auksion savdosiga taklif chop etilgan. Buni qanday tushinmoq kerak. Mamlakatda saylov jarayoni tobora o'zining avj pallasiga kirib borayotgan vaqtda siyosiy partiyaning bosma nashrida reklama berilishini qanday izohlash mumkin. Bundan shunday xulosa chiqarishimiz mumkinki, gazetaning maxsus saylovoldi targ'iboti uchun media rejasi ishlab chiqilmagan. Reklamaning bu tarzda berilishi gazetaning yillik rejasida ko'zda tutilgan rejaga muvofiq ish ko'rilganidan darak beradi. Siyosiy partiyalar ijtimoiy-siyosiy nashrlari siyosiy kompaniyalar jarayonida reklama berishdan o'zlarini tiyishlari kerak, nazarimda. Bu jarayonda eng katta e'tibor saylovchi ishonchiga sazovor bo'lish ekanini yodda tutish lozim.

"O'zbekiston ovozi" gazetasining 1-2-sahifalarida saylovga tayyorgarlik haqida[3] foto material katta hajmda bosilgan.

"Prezidentlikka nomzod va uning saylovoldi dasturi tasdiqlandi" sarlavhali maqolada O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi Markaziy Kengashi raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi partiya fraksiyasi rahbari Hotamjon Ketmonovning O'zbekiston XDP X qurultoyidagi ma'ruzasi chop etilgan. (Bu kabi holatlarni boshqa siyosiy partiyalar nashrlarida ham kuzatishimiz mumkin)

4-sahifada **"Ertangi kun bizniki, marra bizniki"** rukni ostida "Yosh o'zbek sozandasi hammani maftun etdi" nomli sarlavha ostida "Jahon" axborot agentligi materiali bosilgan. Bu maqolani berishdan maqsad nima ekanligini ochig'i anglolmadik. Sababi, jamiyatda siyosiy jarayonlar avj olayotgan pallada gazetaning barcha sahifalari saylovga oid materiallar bilan to'lib toshishi kerak emasmi? Mustaqil rivojlanish yillari mobaynida mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlod vakillariga ilm-fan va san'at bilan yaqindan oshno bo'lishlari, ularning respublika va xalqaro miqyosdagi tanlovlar, olimpiadalar va musobaqalardagi ishtirokini rag'batlantirish, ijodiy va intellektual salohiyatini namoyon etishlari uchun barcha zarur sharoitlar yaratilgan. Maqolada shu imkoniyatlardan unumli foydalangan yosh sozanda haqida so'z boradi. Ammo savol tug'iladi, bu o'smirning siyosiy partiyaga qanday aloqasi bor? Savol savolligicha qolib ketadi. Faqatgina sahifani to'ldirish uchungina foydalanishgan degan xulosaga kelishimiz mumkin.

So'nggi sahifada "Rang-barang yangiliklar" rukni ostida og'ir atletika bo'yicha Rio-2016 Olimpiadasi g'olibi, Olimpiya o'yinlari rekordchisi Ruslan Nuriddinov 2017-yilgi sport mavsumida hech qanday musobaqada ishtirok etmasligi, shuningdek, vodiy yo'nalishida yana bir yangi poyezd qatnovi yo'lga qo'yilganligi bilan bog'liq maqolalar yoritilgan. Maqolada keltirilgan ma'lumotlar ruknga mos keladi. Ammo keltirilgan ikki ma'lumotda ham partiyaning yoxud partiya deputatlik korpusining nechog'lik o'rni borligi haqida so'z yuritilmaydi.

"Reklama o'rnida" rukni ostida Shahnoza Ro'ziyeva tomonidan tayyorlangan "Ipoteka-bank" sarmoyalari ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo'naltirilmoqda" sarlavhali maqola beriladi. Shu yerda bir savol tug'iladi: Saylov jarayonida siyosiy partiyalar nashrlarida reklamalar berilishi zarurmi? Saylov kompaniyasiga start berilgandan so'ng siyosiy partiya aholi, saylovchi e'tiborini tortish uchun harakat qilishi kerak emasmi. Bu kabi materiallari bilan saylovchi e'tiborini torta olmaydi. Maqolani e'tibor bilan o'qib chiqsangiz, partiya saylovoldi dasturida ilgari surilgan vazifalarga taalluqli bo'lgan ma'lumotlarni uchratmaysiz. "Buxoro Shams savdo-oyna" xususiy korxonasi rahbari, "Ferradu biznes grup" MChJ rahbarlarining mavzuga aloqador fikrlari bosilgan. Ular tomonidan bildirilgan fikrlar O'zLiDeP tomonidan ilgari surilgan maqsad va vazifalarga kiradi. Gazeta tahririyati tadbirkorlar va ishbilarmonlar O'zLiDeP elektorati ekanligini unutishgan shekilli.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nurmatov N., Qosimova N. "Saylov jarayonlarini yoritishda ommaviy axborot vositalarining roli". O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2014. 40-b.
2. "Adolat" gazetasi. 2016-yil 4-noyabr. № 46 (1110)
3. "O'zbekiston ovozi" gazetasi. 2016-yil 15-oktyabr. № 123 (32.182)
4. Mullajonov Bahodirjon. (2020). Develop a system for converting from flat to braille and use it in special libraries. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. 10. 1107-1113. 10.5958/2249-7137.2020.01889.3.
5. Davron Mansurov, & A. Safarov. (2023). STAGES OF DEVELOPMENT AND THE NEW IMAGE OF POLITICAL PARTIES IN UZBEKISTAN. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 15, 155–161.

Mavjuda LAFASOVA,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti o‘qituvchisi
mavjudalafasova990@gmail.com

O‘XSHATISHLARNING ANTROPOSENTRIK PARADIGMADA O‘RGANILISHI

Annotatsiya: maqolada badiiy asar matnida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan badiiy o‘xshatishlarning o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. O‘xshatishlar haqida bir qancha olimlarning ilmiy qarashlari muhokama qilinadi. Tilshunoslikda umumnutq va badiiy o‘xshatishlar va ularning o‘ziga xosliklari haqida turli mulohazalar keltirilib izohlanadi.

Kalit so‘zlar: *o‘xshatish, o‘xshatishlarning turlari, tashbeh, vosita, asos, obyekt, subyekt, umumnutq o‘xshatishlari, badiiy o‘xshatishlar*

Annotation: the article discusses the specific features of artistic similes that are important in the text of a work of art. The scientific views of several scientists about similes are discussed. In linguistics, various opinions are given and explained about common and artistic similes and their peculiarities.

Key words: *simile, types of similes, allusion, tool, base, object, subject, universal similes, artistic similes*

Аннотация: в статье рассматриваются специфические особенности художественных сравнений, имеющие важное значение в тексте художественного произведения. Обсуждаются научные взгляды ряда ученых на сравнения. В лингвистике высказываются и объясняются различные мнения об распространенных и художественных сравнениях, их особенностях.

Ключевые слова: *сравнение, виды сравнений, аллюзия, средство, основа, предмет, предмет, универсальные сравнения, художественные сравнения.*

O‘xshatish tasviriy ifodaning eng qadimgi shakllaridan bo‘lib, Aristotel poeziyani o‘xshatish san’ati deb ataydi. Uning fikricha, inson boshqa mavjudotlardan o‘xshatish qobiliyati borligi bilan ajralib turadi, hatto u dastlabki bilimlarni aynan o‘xshatishlardan oladi va bu jarayon samaralari barchaga huzur bag‘ishlaydi. O‘xshatish o‘zbek mumtoz adabiyotshunosligining an’anaviy vositalaridan biri bo‘lib, XV asr badiiy san’atlar ilmining donishmandi Atoulloh Husayniy uni shunday ta’riflagan. “Tashbeh vasfta bir nimani bir nimaga o‘xshatmoqtin iborattur. Anikim, tashbeh qilurlar mushabbah derlar va anikim anga tashbeh qilurlar, mushabbah bix derlar va ul vasfni vajx-i-shibx (o‘xshash tomoni) derlar”.[1, 23]

O‘zbek tilshunosligida o‘xshatishlar haqida tadqiqotni boshlab bergan olim M.Mukarramov hisoblanadi. Olim bu san’at turini uch asosdan iboratligi, o‘xshatiluvchi obyekt va o‘xshovchi obraz o‘xshatishning sharti ekanligini ta’- kidlaydi. O‘xshatish vositasi asos sifatida hisobga olinmaydi. O‘xshatishning badiiy funksiyasi nutqning badiiy-obrazliligini oshirish, shu orqali kishida estetik ta’sir uyg‘otishdir. Badiiy asarlarda uchraydigan barcha o‘xshatishlarga shu nuqtayi nazardan yondashib bo‘lmaydi. Sababi, o‘xshatishlar o‘xshatish obyekti va o‘xshatish subyektining, ular orasidagi o‘xshash belgining oldindan ma’lum yoki noma’lumligi bilan o‘zaro farqlanadi. Shu boisdan badiiy nutqda uchraydigan o‘xshatishlarni ikki guruhga bo‘lish mumkin. Bular: 1. Umumxalq xarakteridagi o‘xshatishlar. Bu turdagi o‘xshatishlarda obyekt va subyekt o‘rtasidagi belgi oldindan ma’lum bo‘ladi, masalan: olmaday tarang, bulutdek oppoq, buloqdek toza va hokazo; 2. Badiiy o‘xshatishlar. Badiiy o‘xshatishlarda kutilmagan, avvaldan ma’lum bo‘lmagan yoki o‘xshayotgan va o‘xshatilayotgan predmetlar uchun xos bo‘lmagan belgi mavjud bo‘lib, ular obrazlilik asosida vujudga keladi.

Badiiy tilning tasviriy vositalaridan biri hisoblangan o‘xshatish obrazlilik, tasvirlilikni kuchaytirishi favqulodda poetik ifodalilik xususiyati bilan ajralib turadi. Shu boisdan ham kutilmagan ifodadorlik, obrazli, ta’sirchan fikr ifodalash o‘xshatishning muhim belgilaridan hisoblanadi. Favqulodda fikr ifodalanishiga ko‘ra o‘xshatish badiiy tasviriy vosita nutqning bezagidir. Alpomishday yigit ekansiz, asli sizga ko‘z tegibdi, shekilli, – dedi u hazillashib (A.Abdullayev. Dard). O‘xshatish tasviriy vosita sifatida ko‘pincha badiiy nutqda qo‘llanadi. Bu holat shu vositaning qisman uslubiyligini ham belgilaydi. Lekin o‘xshatish badiiy nutq doirasida cheklanib qolgan vosita emas, uni nutqning boshqa ko‘rinishlarida, jumladan, so‘zlashuv nutqida ham ko‘plab uchratish mumkin.[2, 45]

O‘xshatishlar haqida maxsus tadqiqot olib borgan D.Xudoyberganova o‘xshatishlar to‘rt komponentdan iborat ekanligini, ayrim o‘xshatish konstruksiyalarida bu komponentlarning biri uslub talabi bilan ifodalanmay qolishini ko‘rsatadi. Olima o‘xshatish asoslarining bu xilda birining ifodalanmasligini uning ma’nosini boshqa qismlar orqali anglanishi bilan izohlaydi.

S.L.Neveleva Paninidan boshlab qadimgi hind poetik traktlarida o‘xshatish tarkibini to‘rt asosdan iborat ekanligini ko‘rsatadi: subyekt (nima o‘xshatilyapti), obyekt (nima bilan o‘xshatilyapti), o‘xshash belgi va o‘xshatish shakli (vositasi). “Nutq madaniyati va uslubiyati asoslari” kitobida o‘xshatishning to‘rt asosdan: o‘xshatilgan narsa, o‘xshatiladigan narsa, o‘xshatish asosi, o‘xshatish vositasidan iboratligi ko‘rsatilgan.[3, 76]

Prof. N.Mahmudov o‘zbek tilida o‘xshatishlarning to‘rt unsurdan tashkil topishini, ular o‘xshatish subyekti, o‘xshatish etaloni, o‘xshatish asosi va o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi ekanligini ta’kidlaydi. [4,68] Keltirilgan fikrlar va manbalardan olingan misollar o‘xshatishning to‘rt asosdan iboratligini tasdiqdaydi. Demak, o‘xshatish hosil bo‘lishiga ko‘ra to‘rt asosga – o‘xshatiluvchi predmet (o‘xshatish obyekti), o‘xshovchi predmet (o‘xshatish etaloni), o‘xshatma belgi (o‘xshatish asosi) va o‘xshatish vositasi (o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi) asosida shakllanadigan tasviriy ifodadir. Tasviriy vositaning bu turi narsa yoki predmetning belgisini ikkinchi narsa yoki predmetning xuddi shu belgisiga ko‘ra qiyoslash natijasida vujudga keladi. Shunga ko‘ra o‘xshatish uch asosga ega: o‘xshayotgan predmet, o‘xshagan predmet va o‘xshovchi belgi bu uch jarayon o‘xshatishning asosini tashkil qiladi. Bundan tashqari o‘xshatish vositalari ham o‘xshatish hosil qiluvchi muhimroq omillardan hisoblanadi. Lekin o‘xshatish vositalarining o‘xshatish hosil qilishidagi ishtiroki ba’zan nisbiydir. Chunki ayrim o‘xshatishlarda ko‘pincha bunday vosita ishtirok etmaydi. Shunga ko‘ra o‘xshatish vositali va vositasiz o‘xshatishlarga bo‘linadi. Vositali o‘xshatishlarda o‘xshatish hosil qiluvchi uch asosdan tashqari o‘xshatish vositasi ham ishtirok etadi. Tilda o‘xshatish hosil qiluvchi turli vositalar mavjud bo‘lib, o‘xshatish asosan leksik va grammatik jarayonlar vositasida vujudga keladi. Allohim, hayratdan ayirma meni, Benasib qilmagin iftixoringdan. Havas g‘unchalari guldek ochilsin (A.Oripov. Hikoyat).

O‘xshatish hosil qiluvchi leksik vositalar: kabi, singari, go‘yo, xuddi, misli, misoli, bamisli ko‘makchilari hisoblanadi. -day (-dek), -simon, -ona, -larcha va boshqa ko‘pgina qo‘shimchalar o‘xshatish hosil qiluvchi grammatik vositalardir. O‘xshatishlardagi nutqiy obrazlilikni oshiruvchi asosiy xususiyat favqulodda o‘xshatilishdir. Agar o‘xshatilayotgan narsa yoki hodisa orasidagi belgi oldindan ma’lum bo‘lsa, bunday o‘xshatishlar nutqning obrazliligini kuchaytiradi, deyish qiyin. Shunga ko‘ra o‘xshatishlarni ikki turga bo‘lish mumkin:

1. Umumnutq o‘xshatishlar;
2. Badiiy o‘xshatishlar;

O‘xshatishlar ko‘p qirrali hodisa sifatida ko‘plab ilmiy yo‘nalishlar uchun tadqiqot obyekti bo‘lib kelgan. Mantiq va psixologiyada, adabiyotshunoslik va tilshunoslikda o‘xshatishlarni tahlil qilishning uzoq an’analari mavjud bo‘lib, qator olimlarning ishlarida o‘xshatishlar turli jihatdan tahlil qilingan. Jumladan, o‘zbek tilshunosligida o‘xshatishlar tadqiqi yuzasidan olib borilgan ishlar orasida M.Mukarramov, R.Qo‘ng‘urov, D.Xudoyberganovalarning tadqiqotlarida o‘xshatishlar semantik-stilistik, sintaktik-shakliy, semantik-grammatik jihatdan tadqiq etilgan bo‘lsa, N.Mahmudov o‘zining “O‘xshatishlar – obrazli milliy tafakkur mahsuli” nomli maqolasida birinchilardan bo‘lib, lisoniy universaliyalar qatoriga kiruvchi o‘xshatishlarning lingvomadaniy jihatlariga e’tibor qaratadi. Bundan tashqari N.Mahmudov “O‘xshatishlar va milliy nigoh” nomli maqolasida turg‘un o‘xshatishlarni millatning idrok intizomi, mentalitetini ko‘rsatib beruvchi borligi sifatida ta’riflaydi, ularda aks etgan baho munosabatida milliy-etnik idrok hal etuvchi rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

O‘xshatishlar haqida qimmatli fikrlarini bildirib o‘tgan yana bir tadqiqotchi G.Qobuljonovadir. U metafora va o‘xshatishlar o‘rtasidagi farqlarni izchillik bilan asoslab bergan.

O‘xshatishlar tadqiqi borasida N.Mahmudov va D.Xudoyberganovalar tomonidan tuzilgan “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati” o‘ziga xos qimmatga ega. Bu lug‘atda tilimizdagi 500dan ziyod o‘xshatishlarning semantik va lingvomadaniy xususiyatlari leksikografik jihatdan yoritib berilgan.

O‘zbek tilida o‘xshatishlar borasida olib borilgan tadqiqotlar orasida F.Usmonovning izlanishlari alohida ahamiyatga molik. Muallifgacha o‘zbek tilidagi turg‘un o‘xshatishlar lingvomadaniy jihatdan maxsus tadqiq etilmagan.

F.Usmonovning “O‘zbek tilidagi o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi” nomli dissertatsiyasida o‘zbek tilidagi turg‘un o‘xshatishlar o‘zbek millatiga xos olamning lisoniy manzarasini namoyish etuvchi lingvomadaniy birliklar ekanligi asoslangan; turg‘un o‘xshatishlar tahlili orqali o‘zbek madaniyati me’yorlarini aniqlash imkoniyati yaratilgan; turg‘un o‘xshatishlar orqali madaniy axborotni tashuvchi lingvomadaniy kodlar iyerarxiyasi aniqlangan; turg‘un o‘xshatishlarda olamning turli unsurlariga oid aksiologik munosabat va milliy-madaniy konnotatsiya reallashuvi izohlab berilgan; o‘zbek tilidagi turg‘un o‘xshatishlar vositasida ifodalanuvchi o‘zbek madaniyati tayanch qadriyatlari izohlangan.[5, 6]

O‘xshatishlar yuzasidan olib borilgan tadqiqotlardan yana biri S.Babanazarova nomi bilan bog‘liq bo‘lib, muallif dissertatsiyasida turg‘un o‘xshatishlarni kognitiv jihatdan tahlil qiladi.

Bugungi kunda antroposentrik nuqtayi nazardan o‘xshatishlarning kognitiv va lingvokulturologik jihatlariga alohida e’tibor qaratilib, ushbu birliklarning til tarkibidagi ahamiyati, muayyan ijodkor nutqiga xoslanishi, madaniy birlik sifatida muayyon xalqning

mental jihatlarini o'zida aks ettirishi kabi xususiyatlari alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Husayniy A. Badoyi’u-s-sanoyi’. Forschadan Alibek Rustamov tarjimasi. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981.
2. Mukarramov M. O‘zbek tilida o‘xshatishlar. – T.: Fan,1976.
3. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – T.: Fan, 2013.
4. Mahmudov N. O‘xshatishlarning til va nutqdagi o‘rni//Til tilsimi tadqiqi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2017.
5. Usmanov F. O‘zbek tilidagi o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi. diss. – T., 2020.

Marxobo ERKINOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘qituvchisi
erkinovamarhabo1@gmail.com

ASSOTSIATIV TAJRIBA MATERIALLARINING GENDEROLOGIK TAHLILI

Annotatsiya: maqolada gender lingvistikaga, ya’ni ayollar va erkaklar nutqining o‘ziga xos lingvistik xususiyatlari, gender tafovutlariga e’tibor qaratilan. Genderlik belgisini namoyon qiluvchi til birliklari, nutqiy odat so‘zlari keltirilgan. Assotsiativ tajriba metodi asosida ayollar va erkaklar nutqidagi lingvistik omillarning qo‘llanishi genderologik tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: *gender, gender lingvistika, assotsiativ tajriba metodi, stimul frazema, genderologik tahlil, sinaluvchi, javob reaksiyasi, assotsiatsiya.*

Annotation: the article focuses on gender linguistics, i.e. specific linguistic features of women's and men's speech, gender differences. Linguistic units and words of speech habits showing the sign of gender are listed. Based on the method of associative experience, the use of linguistic factors in women's and men's speech was analyzed genderologically.

Key words: *gender, gender linguistics, method of associative experiment, stimulus phrase, gender analysis, experimenter, response reaction, association.*

Аннотация: в статье основное внимание уделяется гендерной лингвистике, т.е. специфическим лингвистическим особенностям женской и мужской речи, гендерным различиям. Перечислены языковые единицы и слова речевых оборотов, имеющие признак пола. На основе метода ассоциативного опыта гендерологически проанализировано использование языковых факторов в женской и мужской речи.

Ключевые слова: *гендер, гендерная лингвистика, метод ассоциативного эксперимента, стимульная фраза, гендерный анализ, экспериментатор, ответная реакция, ассоциация.*

Gender – sotsio-lingvo-madandiy kategoriya bo‘lib, jinslar rolini an’anaviy o‘rganishni nazarda tutmaydi. Gender – ijtimoiy va psixologik jarayonlarning yirik majmuyidir. Shuningdek, jamiyatda vujudga keladigan, milliy va lisoniy shaxsning axloqiga ta’sir ko‘rsatadigan madaniy ko‘rsatmalar, qoidalardir.

Gender ko‘p qirrali tarmoq bo‘lgani uchun nafaqat faylasuf va sotsiologlarning, balki tilshunoslarning ham e’tiborini tortgan. Tilshunoslikda gender elementlariga e’tibor doim ham mavjud bo‘lgan. Erkak va ayol nutqining muayyan farqlarga ega ekanligi ko‘rinib turishi dunyoning barcha tillari uchun xosdir. Ayrim tillarda bu omil ochiq namoyon bo‘lsa, boshqa tillarda uning lingvistik asoslarini ko‘rsatib berish oson emas [4, 87].

1960-yillar o‘rtalariga kelib tilshunoslikda gender masalasiga bo‘lgan qiziqish uch yo‘nalishdagi ikki jihatga: muayyan tilda erkaklar va ayollar nutqining tafovutlari hamda muayyan til tizimida erkaklik, ayollik belgilari bilan bog‘liq tushunchlarni ifodalovchi til birliklari tadqiqotlarda o‘z aksini topdi:

1) erkak ayol nutqining ijtimoiy tabiati;
2) nutqiy muloqotning o‘ziga xos xususiyatlari;
3) tafovutlarning kognitiv aspekti [5, 192].

Bu yo‘nalishda jahon tilshunosligida F.Mautner, E.Sepir, O.Yespersen, Y.I.Goroshko, O.L.Kamenskaya, A.V.Kirilina, O.V.Ryabovlar, V.V.Potapov, A.Bodrova, D.Semyonova, Y.Grisenko, Y.Kartushina, A.Kostikova, Y.Nazarova, Y.Badmayeva kabi tadqiqotchilar tomonidan gender tadqiqi bo‘yicha jiddiy ishlar amalga oshirilgan.

Bugungi kunda o‘zbek tilshunosligida Sh.Iskandarova, S.Mo‘minovlarning ilmiy tadqiqotlarini hisobga olmaganda xotin qizlar nutqini o‘rganishga bag‘ishlangan ijtimoiy lisoniy aspektda olib borilgan ishlar juda kam. Shuning uchun atoqli tilshunos olimlar Sh.Safarov va S.Boymirzayevalarning «Jamiyatda jinsga oid

faoliyat ko‘rsatmalari, me’yorlarini belgilovchi ma’lum qoidalar, o‘ziga xosliklar, tafovutli holatlar paydo bo‘ladi va shunga nisbatan ijtimoiy hayotda ayollarga va erkaklarga xos bo‘lgan ayricha tushunchalar, g‘oyalar tug‘iladi. Ijtimoiy guruh sifatida toifaga ajratiladigan ayollar va erkaklarning nutqiy, lisoniy faoliyatini ikki turdagi, juda ko‘p o‘ziga xosliklari, farqli jihatlariga ega bo‘lgan alohida uslublar sifatida o‘rganish lozim» [1, 60]ligi to‘g‘risidagi fikrlariga to‘liq qo‘shilish mumkin.

XX asrning 90-yillariga kelib dunyo tilshunosligida gender tilshunosligi borasida izlanishlar olib borish qizg‘in tus oldi. Ayniqsa, bu borada rus tilshunosligida e’tiborga molik ishlar amalga oshirildi. Shuningdek, Z.Akbarovaning “O‘zbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi” hamda N.Ahmedovaning “O‘zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi” mavzusidagi nomzodlik ishlarida jins anglatish maydoniga ko‘ra murojaat so‘zlar guruhining izohi haqida to‘xtalib o‘tilgan. Sh.Iskandarovaning “O‘zbek nutq odatining muloqot shakllari” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida ayol va erkaklarga xos ba’zi lingvistik farqlar va “O‘zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o‘rganish (shaxs mikromaydoni)” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida jinsiy va fiziologik holat asosida farqlangan shaxs nomlari haqida, shuningdek, olimaning “Ayollar nutqida undov so‘zlarning qo‘llanishi”, “O‘zbek nutq odobini ifodalovchi paralingvistik vositalar” nomli maqolalarida ayollar nutqiga xos ba’zi lingvistik xususiyatlar haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan. Jumladan, xotin-qizlarga xos xususiyatlardan biri ular his-hayajonlarining, holatlarining tez yuzaga chiqishidir, bu xuxsusiyat ko‘proq nutqiy vositalar bilan ifodalanadi. Ayollar nutqida dialogga moyillik nisbatan ustunroq ekanligi Sh.Iskandarova tadqiqotlarida qayd etilgan. M.Saidxonovning “Noverbal vositalar va o‘zbek tilida ularning ifodalanishi" mavzusidagi nomzodlik ishida o‘zbek va boshqa millat ayollarining qayg‘uni ifodalovchi usullari haqida to‘xtalib o‘tgan. F.Musayeva esa “(O‘zbek tilida biologik jinsni ifodalashning leksik-semantik usuli" nomli maqolasida erkak va ayol jinsi ma’nosini ifodalovchi leksemalar haqida ma’lumot beradi. Respublikamizda gender tilshunosligi borasida dastlabki qadamlar qo‘yildi. Jumladan, A.Morozova, I.To‘xtasinov va G.Ergasheva kabi yosh olimlarning nomzodlik tadqiqotlari bunga misol bo‘ladi. A.Morozova gender masalasiga ispan tili materiallari asosida yondashib, “erkaklik” va “ayollik” konseptlari mazmuni, ularga xos gender stereotiplar tavsifi haqida ilmiy mulohazalar bildiradi. I.To‘xtasinov ingliz va o‘zbek tillariga xos badiiy matnda qo‘llanuvchi erkak hamda ayollarga xos fiziologik, ya'ni, yuz va tana tuzilishi bilan bog‘liq leksik birliklarning gender farqlanishini qiyosiy tipologik aspektda keng ochib bergan. G.Ergasheva ingliz va o‘zbek tilining frazeologik va paremiologik sistemasiga xos erkak va ayol tushunchalarining gender, pragmatik, kognitiv xususiyatlari, gender stereotiplarning o‘zbek frazeologiyasidagi tavsifi, o‘zbek paremiyalarining gender tahlili, ularning ingliz tilidagi ifodalari bilan o‘xshash yoki noo‘xshash jihatlari haqida fikr yuritadi.

O‘zbek tilshunosligida keyingi yillardagi tadqiqotlarda oz bo‘lsa-da, bu haqida yoritib o‘tilgan. Jumladan, S.Mo‘minov, Sh.Iskandarovalarning ilmiy tadqiqotlarida buni ko‘rish mumkin.

Tilda ba’zi iboralar va so‘zlar mavjudki, ular faqat ayollar nutqida xos yoki aksincha erkaklar nutqida uchraydi. O‘zbek tilida ba’zi iboralar, asosan erkaklar nutqiga xos va ularga xos xususiyatni aks ettiradi. Masalan, “Jag‘ini ezmoq”, “Basharasini bejamoq”, “Qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan”, “Abjag‘ini chiqarmoq”, “Jigarida n urmoq”, “Burnini yerga ishqamoq”, “O‘pkangni bos”, “Pixini yorgan”, “Po‘stagini qoqmoq”, “Onasini uchqo‘rg‘ondan ko‘rsatmoq”, “Ammamning buzog‘i”, “Dumini tugmoq” kabi iboralar qo‘llanishi jihatidan erkaklarga xos xususiyatlarni aks ettirib, o‘zida ijobiy va salbiy baho munosabatlarini namoyon qiladi.

Ishimizda assotsiativ tajriba materiallarini genderologik tahlil etamiz.

Salbiy baho bildiruvchi turqi sovuq stimul frazemasining assotsiativ maydonini ayol va erkak sinaluvchilarning javob reaksiyalaridagi o‘xshash va farqli jihatlarni tahlil qilamiz. Sinaluvchilar 24 ta ayol jinsiga va 24 ta erkak jinsiga mansub.

Turqi sovuq stimul frazemasi erkak sinaluvchilar javob reaksiyasi assotsiativ maydonidan quyidagilar o‘rin egallagan:

Turqi sovuq: xunuk 6, yoqimsiz 3, ilon 2, xunuk inson 2, istarasiz, tovuq, “U ham inson, ichidagi noma’lum”, yomon inson, “Tashqi ko‘rinishi sovuq bo‘lgani bilan ichi doim toza va oq ko‘ngil bo‘ladi”, o‘ziga qaramasdan yuradiganlar, bezbet, “Yoqtirmaydigan odamingiz”, doim xo‘mrayib yuradigan, odamlarga yomonlik qiladigan, hayvon, hayotdan xafa insonlar, bashara, yoqmaydigan inson, “Ko‘rinishi va qilmishlari yoqimsiz”, javobi berilmagan 1. (28+19+4+16+1) .

I .Turqi sovuq stimul frazemasi leksik-semantik belgisi. Turqi sovuq stimul frazemasi I u g ‘ a v i y ma’nosi, semik tarkibi. Turqi (yoki so‘xtasi)sovuq - gap-so‘zi, tashqi ko‘rinishi bilan kishiga yoqmaydigan kimsa haqida aytiladigan ibora. Turqi sovuq stimul frazemasi bu ma’nosi quyidagi birliklar orqali ochib

beriladi: xunuk, yoqimsiz, istarasiz, ko‘rinishi va qilmishlari yoqimsiz, yoqtirmaydigan odamingiz.

Turqi sovuq stimul frazemasi lug‘aviy ma’nosi semalari quyidagi birliklar orqali voqelangan: yoqmaydigan inson, bashara, bezbet, xunuk inson.

Assotsiativ maydonda turqi sovuq frazemasi quyidagi birliklar bilan paradigmatik munosabatga kirishadi:

1) sinonimik munosabat: turqi sovuq: istarasiz, yoqimsiz, xunuk kabilar. Sinonimiya assotsiativ birliklar o‘rtasida ham uchraydi: yoqtirmaydigan odamingiz, yoqmaydigan inson; doim xo‘mrayib yuradigan, hayotdan xafa insonlar.

Erkak sinaluvchilar javob reaksiyasi assotsiativ maydonida turqi sovuq frazemasi bilan antonomik, omonimik, uyadoshlik munosabatidagi birliklar uchramadi.

Turqi sovuq stimul frazemasining ko‘chma ma’nolari: Erkak sinaluvchilar javob reaksiyasi assotsiativ maydonida turqi sovuq frazemasi bilan bog‘liq assotsiatsiv maydonida “Tashqi ko‘rinishi sovuq bo‘lgani bilan ichi doim toza va oq ko‘ngil bo‘ladi” assotsiatsiya gapi tarkibida, sovuq, toza va oqko‘ngil bo‘ladi kabi birliklari metaforik ko‘chma ma’no asosida qo‘llangan.

II. Turqi sovuq stimul frazemasining leksik-grammatik belgisi. Turqi sovuq stimul frazemasi assotsiativ maydonida stimul frazema+assotsiativ birlik munosabatida quyidagi aloqa-bog‘lanish turlari kuzatiladi:

Tobe aloqa usullari: a) bitishuv usuli. Bitishuv usuli turqi sovuq stimul frazemasi bilan assotsiativ bog‘langan ayol, hayvon, ilon, tovuq javob reaksiyalarining o‘zaro sintagmatik munosabatida kuzatiladi;

b) moslashuv usuli. turqi sovuq stimul frazemasi bilan assotsiativ bog‘langan quyidagi erkak sinaluvchilarning javob reaksiyalarining sintagmatik munosabati asosida yuzaga keladi: xunuk inson, yomon inson, o‘ziga qaramasdan yuradiganlar, yoqtirmaydigan odamingiz, hayotdan xafa insonlar, yoqmaydigan inson. turqi sovuq stimul frazemasi + xunuk inson, yomon inson, o‘ziga qaramasdan yuradiganlar, yoqtirmaydigan odamingiz, hayotdan xafa insonlar, yoqmaydigan inson kabi javob reaksiyalarining sintagmatik munosabati asosida moslashuv usuliga asoslangan “Turqi sovuq – xunuk inson”, “Turqi sovuq – yomon inson”, “Turqi sovuq – o‘ziga qaramasdan yuradiganlar”, “Turqi sovuq – yoqtirmaydigan odamingiz”, “Turqi sovuq – hayotdan xafa insonlar”, “Turqi sovuq – yoqmaydigan inson”.

Assotsiativ maydonda struktur jihatdan quyidagi tuzilishli birliklar o‘rin olgan:

– sodda so‘z shaklidagi assotsiatsiyalar: ilon, ayol, yoqimsiz, istarasiz, tovuq,xunuk, hayvon, bashara;

– qo‘shma so‘z shaklidagi assotsiatsiyalar: bezbet;

– birikma shaklidagi assotsiatsiyalar: xunuk inson, yomon inson, o‘ziga qaramasdan yuradiganlar, hayotdan xafa insonlar, yoqmaydigan inson;

– gap shaklidagi assotsiatsiyalar: “U ham inson, ichidagi noma’lum”, “Tashqi ko‘rinishi sovuq bo‘lgani bilan ichi doim toza va oq ko‘ngil bo‘ladi”, “ Yoqtirmaydigan odamingiz”, “Ko‘rinishi va qilmishlari yoqimsiz”.

III. Turqi sovuq stimul frazemasining derivatsion xususiyati. Turqi sovuq stimul frazemasi assotsiatsiyalarida quyidagi yasalmalar uchradi: yoqimsiz, bezbet, istarasiz. Turqi sovuq stimul frazemasi asosida yasalgan yasalmalar uchramadi.

Turqi sovuq stimul frazemasiga talaffuzda hamohang bo‘lgan birliklar kuzatilmadi.

V. Turqi sovuq stimul frazemasining pragmatik belgisi. Assotsiativ maydonda o‘ziga xos konnotativ birliklar o‘rin olgan bo‘lib, ko‘chma ma’noda qo‘llangan. Turqi sovuq frazemasiga nisbatan javob reaksiyasi sifatida ifodalanib, konnotativ xususiyatni namoyon etgan. Masalan, “Tashqi ko‘rinishi sovuq bo‘lgani bilan ichi doim toza va oq ko‘ngil bo‘ladi”, ilon, tovuq kabilar.

Baho munosabatining ifodalanishi. Quyidagi erkak sinaluvchilarning javob reaksiyalarida turqi sovuq frazemasiga nisbatan salbiy baho munosabati aks etgan: xunuk inson, yomon inson, “Yoqtirmaydigan odamingiz”, doim xo‘mrayib yuradigan, odamlarga yomonlik qiladigan, yoqmaydigan inson, “Ko‘rinishi va qilmishlari yoqimsiz” kabilar. Turqi sovuq salbiy baho bildiruvchi frazemasiga assotsiatsiyalar orasida ijobiy baho munosabati ham namoyon bo‘lgan. Masalan, “Tashqi ko‘rinishi sovuq bo‘lgani bilan ichi doim toza va oq ko‘ngil bo‘ladi”.

VI. Turqi sovuq stimul frazemasining gender belgisi. Erkak sinaluvchilarning javob reaksiyalarida turqi sovuq frazemasiga nisbatan gender belgisi namoyon bo‘lgan. Masalan, ayol.

VII. Turqi sovuq stimul frazemasining assotsiativ maydoni. Turqi sovuq stimul frazemasining assotsiativ maydonining asosiy qismini so‘zlar tashkil qiladi. Javob reaksiyalarining 18 tasi so‘z shaklida bo‘lib, 64 % ini tashkil qiladi. 6 tasi so‘z birikmasi shaklida, 4tasi gap shaklidagi birliklardir.

VIII. Assotsiatsiyalarning qo‘llanish chastotasi. Turqi sovuq stimul frazemasining assotsiatsiyalarining statistik tahlili shuni ko‘rsatadiki, erkak sinaluvchilarning ko‘pchiligida xunuk, istarasiz, yoqimsiz, yoqtirmaydigan odam ma’nosida qo‘llangan.

Turqi sovuq stimul frazemasi ayol sinaluvchilar javob reaksiyasi assotsiativ maydonidan quyidagilar

o‘rin egallagan:

Turqi sovuq: xunuk 6, yoqimsiz odam 2, so‘xtasi sovuq 2, “Nuri yo‘q yuzida”, dushmanlarim, xunuk inson, so‘kish ma’nosida, “Ko‘rinishi yoqimsiz”, razil, ichi qora, bo‘zraygan odam, ko‘rinishidan yomon insonga o‘xshab ko‘rinadigan, xunuk yuz ifodali inson, qovog‘ini uyib yuruvchi, “Hayotga yaxshi nazar solmasdan befarq”, badbasha, g‘isht, istarasiz, betuturiq, o‘ylamay gapiradigan, makkor va yoqimsiz, qo‘rqinchli, men yoqtirmagan odamlar, “O‘zi ham, xarakteri ham yoqimsiz”, yuzini yoqimsiz qiladiganlar, “Insonning tashqi ko‘rinishiga qarab baho bermaslik kerak”, istarasi sovuq. (34+27+3+24+0) .

I. Turqi sovuq stimul frazemasining leksik-semantik belgisi. Turqi sovuq stimul frazemasi l u g ‘ a v i y ma’nosi, semik tarkibi. Turqi (yoki so‘xtasi)sovuq - gap-so‘zi, tashqi ko‘rinishi bilan kishiga yoqmaydigan kimsa haqida aytiladigan ibora. Turqi sovuq stimul frazemasi bu ma’nosi ayol sinaluvchilarning javob reaksiyasi assotsiatsiyalarida quyidagi birliklar orqali ochib beriladi: xunuk, yoqimsiz odam, so‘xtasi sovuq, xunuk inson, ko‘rinishi yoqimsiz, istarasiz, o‘zi ham, xarakteri ham yoqimsiz.

Turqi sovuq stimul frazemasi lug‘aviy ma’nosi semalari ayol sinaluvchilarning javob reaksiyasi assotsiatsiyalarida quyidagi birliklar orqali voqelangan: xunuk, yoqimsiz odam, so‘xtasi sovuq, bo‘zraygan odam, xunuk inson, badbasha, istarasiz, yuzini yoqimsiz qiladiganlar, istarasi sovuq.

Turqi sovuq **stimul frazemasi ayol sinaluvchilar javob reaksiyasi assotsiatsiyalarida betuturuq, g‘isht kabi dialektlar uchradi.**

Assotsiativ maydonda *turqi sovuq* frazemasi quyidagi birliklar bilan paradigmatik munosabatga kirishadi

1) sinonomik munosabat: Turqi sovuq: yoqimsiz odam,xunuk odam, : xunuk, yoqimsiz, so‘xtasi sovuq, istarasi sovuq, istarasiz, badbasha. Sinonimiya assotsiativ birliklar o‘rtasida ham uchraydi: bo‘zraygan odam, qovog‘ini uyib yuruvchi kabilar.

Assotsiativ maydonda antonimik, omonimik munosabatdagi assotsiatsiyalar uchramadi.

Turqi sovuq stimul frazemasining ko‘chma ma’nolari: Ayol sinaluvchilar javob reaksiyasi assotsiativ maydonida turqi sovuq frazemasi bilan bog‘liq assotsiativ maydonida nuri yo‘q yuzida, so‘xtasi sovuq, ichi qora, istarasi sovuq kabilar metaforik ko‘chma ma’no asosida qo‘llangan.

II. Turqi sovuq stimul frazemasining leksik-grammatik belgisi. Turqi sovuq stimul frazemasi assotsiativ maydonida stimul frazema+assotsiativ birlik munosabatida quyidagi aloqa-bog‘lanish turlari kuzatiladi:

Tobe aloqa usullari: a) moslashuv usuli. Moslashuv usuli turqi sovuq stimul frazemasi bilan assotsiativ bog‘langan quyidagi javob reaksiyalarining sintagmatik munosabati asosida yuzaga keladi: yoqimsiz odam, dushmanlarim, xunuk inson, ko‘rinishi yoqimsiz, men yoqtirmagan odamlar, o‘zi ham, xarakteri ham yoqimsiz, yuzini yoqimsiz qiladiganlar, qovog‘ini uyib yuruvchi. Keltirilgan assotsiatsiyalarimiz o‘zidan oldin turqi sovuq frazemasi bilan birikib, predikativ birliklarni yuzaga keltiradi.

Ko‘rinadiki, turqi sovuq frazemasi javob reaksiyalarining ba’zilari bilan sintagmatik munosabatga kirishib, faqat moslashuv usulida predikativ munosabatni hosil qiladi.

Assotsiativ maydonda struktur jihatdan quyidagi tuzilishli birliklar o‘rin olgan:

– sodda so‘z shaklidagi assotsiatsiyalar: xunuk, dushmanlarim, razil, badbasha, g‘isht, istarasiz, betuturiq, qo‘rqinchli;

– birikma shaklidagi assotsiatsiyalar: yoqimsiz odam, xunuk inson, bo‘zraygan odam, ko‘rinishidan yomon insonga o‘xshab ko‘rinadigan, xunuk yuz ifodali inson, qovog‘ini uyib yuruvchi, o‘ylamay gapiradigan, men yoqtirmagan odamlar.

– gap shaklidagi assotsiatsiyalar: “Nuri yo‘q yuzida”, “Ko‘rinishi yoqimsiz”, “Hayotga yaxshi nazar solmasdan befarq”, “O‘zi ham, xarakteri ham yoqimsiz”, “Insonning tashqi ko‘rinishiga qarab baho bermaslik kerak”.

– ibora shaklidagi assotsiatsiyalar: so‘xtasi sovuq, ichi qora, istarasi sovuq.

III. Turqi sovuq stimul frazemasining derivatsion xususiyati. Turqi sovuq stimul frazemasi asosida yasalgan yasalmalar uchramadi. Turqi sovuq stimul frazemasi assotsiatsiyalarida quyidagi yasalmalar uchradi: yoqimsiz, istarasiz, badbasha, betuturiq, qo‘rqinchli

IV. Turqi sovuq stimul frazemasining akustik belgisi. Turqi sovuq stimul frazemasiga talaffuzda hamohang bo‘lgan birliklar kuzatilmadi.

V. Turqi sovuq stimul frazemasining pragmatik belgisi. Assotsiativ maydonda o‘ziga xos konnotativ birliklar o‘rin olgan bo‘lib, ko‘chma ma’noda qo‘llangan. Turqi sovuq frazemasiga nisbatan ayol sinaluvchilarning javob reaksiyasi ko‘ma ma’noda ifodalanib, ta’sirchanlik oshirish uchun xizmat qilgan va konnotativ xususiyatni namoyon etgan. Masalan, so‘xtasi sovuq, “Nuri yo‘q yuzida”, ichi qora, istarasi sovuq, g‘isht kabilar.

Baho munosabatining ifodalanishi. Quyidagi ayol sinaluvchilarning javob reaksiyalarida turqi sovuq frazemasiga nisbatan salbiy baho munosabati aks etgan: dushmanlarim, ko‘rinishi yoqimsiz, razil, bo‘zraygan odam,, makkor va yoqimsiz, qo‘rqinchli,

men yoqtirmagan odamlar, o‘zi ham, xarakteri ham yoqimsiz, yuzini yoqimsiz qiladiganlar kabilar.

VI. Turqi sovuq stimul frazemasining gender belgisi. Ayol sinaluvchilarning javob reaksiyalarida turqi sovuq frazemasiga nisbatan gender belgisi uchramadi.

VII. Turqi sovuq stimul frazemasining assotsiativ maydoni. Turqi sovuq stimul frazemasining ayol sinaluvchilarning javob reaksiyalari assotsiativ maydonining asosiy qismini so‘zlar tashkil qiladi. Jami 34 ta javob reaksiyasining 13 ta so‘z shaklida, 11 tasi so‘z birikma, 6 tasi gap shaklida, 4 tasi frazema shaklidagi birliklardir. Turqi sovuq stimul frazemasining ayol sinaluvchilarning javob reaksiyalari assotsiativ maydonining ko‘p qismini so‘zlar tashkil qilib, 38 % ni tashkil qiladi. Keyigi o‘rinda so‘z birikmasi bo‘lib, 32 % ni tashkil etadi.

VIII. Assotsiatsiyalarning qo‘llanish chastotasi. Turqi sovuq stimul frazemasining assotsiatsiyalarining statistik tahlili shuni ko‘rsatadiki, ayol sinaluvchilarning ko‘pchiligida xunuk inson, istarasiz, yoqimsiz odam, yoqtirmaydigan odam, so‘xtasi sovuq, istarasi sovuq, o‘zi ham, xarakteri ham yoqimsiz ma’nolarida qo‘llangan.

Turqi sovuq stimul frazemasiga nisbatan ayol va erkak sinaluvchilarning javob reaksiyalarining assotsiativ maydonini solishtirib, undan kelib chiqadigan xulosalar quyidagilar:

– *ayol* sinaluvchilar javob reaksiyalari assotsiatsiyalari soni 34 ta, erkak sinaluvchilar javob reaksiyalari assotsiatsiyalari soni 28 ta bo‘lib, ayol sinaluvchilar javob reaksiyalari assotsiatsiyalari soni ko‘proq;

– *erkak* sinaluvchilar javob reaksiyalari assotsiatsiyasining asosiy qismi 18 tasi so‘z shaklidagi birliklar, assotsiativ maydonning 64% ini tashkil qiladi. Ayol sinaluvchilar javob reaksiyalari assotsiyalarida esa asosan so‘z shaklidagi va so‘z birikmasi shaklidagi birliklar, shundan 13 tasi so‘z assotsiativ maydonning 34 % ini, 11 tasi so‘z birikmasi shaklida bo‘lib, assotsiativ maydonning 32 % ini tashkil etgan;

– *erkak* sinaluvchilar javob reaksiyalari assotsiatsiyalarida ko‘chma ma’nodagi birliklar, ayollar javob reaksiyalarinikidan kamroq qo‘llangan. Ayol sinaluvchilar javob reaksiyalarida frazemalar uchraydi. Erkak sinaluvchilar javob reaksiyalarida esa kuzatilmadi;

– *turqi sovuq* stimul frazemasiga nisbatan erkak sinaluvchilar javob reaksiyalari gender belgisiga ko‘ra assotsiatsiya kuzatildi. Masalan, ayol. Ayol sinaluvchilar javob reaksiyasida esa ushbu holat kuzatilmadi;

– *turqi sovuq* stimul frazemasiga nisbatan erkak sinaluvchilar javob reaksiyalarida jonivor nomlari assotsiatsiyalari ham uchradi. Masalan, ilon, tovuq, hayvon;

– *erkak* sinaluvcuhilar javob reaksiyalari assotsiativ maydonida faqat tobe bog‘lanish kuzatildi. Ayol sinaluvchilar javob reaksiyalari assotsiativ maydonida esa teng va tobe bog‘lanish kuzatildi;

– *turqi sovuq* stimul frazemasi bilan bog‘lanadigan assotsiatsiyalar ikkala jins javob reaksiyalarida tobe aloqa munosabati, moslashuv usuli, predikativ munosabat qo‘llangan;

– *turqi sovuq* frazemasiga ikkala jins sinaluvchilari javob reaksiyalari assotsiatsiyalarida salbiy baho munosabti aks etgan. Erkak sinaluvchilar javob reaksiyasi assotsiativ maydonida ijobiy baho munosabati ham aks etgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, assotsiativ tajriba materiallari orqali sinaluvchilarning javob reaksiyalari shuni ko‘satadiki, ikkala jins vakillarining tanlangan til birligiga qo‘llangan assotsiativ maydoni ayollar va erkaklar nutqidagi gender tafovutlarni namoyon qilgan. Qo‘llagan javob reaksiyalari orqali sinaluvchilarning ayol va erkak psixologiyasi, kognitiv ongi, ijtimoiy holati, milliy madaniyati yaqqol ko‘ringan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alimova B. Badiiy matnda “lisoniy shaxs” namoyon bo‘lishining sotsiopragmatik talqini. – Samarqand, 2014.
2. Джамбаева Ж.А. Ассоциативный эксперимент: методологические основы // Л.Н. Гумилев атындағы ЕҰУ Хабаршысы. 2013. – №1. – С. 20.
3. Lutfullayeva D. Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Meriyus, 2017.
4. Pirmatova M. Undovlar va gender differensiyasi// O‘zbek tili va adabiyoti. № 3. – Toshkent, 2013.
5. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019.

Niluzar AXMEDOVA,
Renessans ta'lim universiteti o'qituvchisi
nakhmedova95@gmail.com
Mohigul BOZOROVA,
Renessans ta'lim universiteti o'qituvchisi
mohigulbozorova44@gmail.com

O'ZBEK TILIDAGI SHAXS RUHIY HOLATINI IFODALOVCHI BIRLIKLARNING SEMANTIKASI

Annotatsiya: mazkur maqolada o'zbek tilidagi shaxs ruhiy holatini ifodalovchi til birliklari: ya'ni sifat,ot, fe'l so'z turkumlariga doir so'zlar, so'z qo'shilmalari va so'z birikmalarining semantik jihatlari izohlangan. Shuningdek, so'zning denotativ va konnotativ ma'nolari ham misollar bilan ta'riflab berilgan.

Kalit so'zlar: *denotativ, konnotativ, lug'aviy ma'no, leksik ma'no.*

Аннотация: в данной статье описаны семантические аспекты единиц узбекского языка, выражающих психическое состояние человека: то есть слов, словосочетаний и словосочетаний, относящихся к словосочетаниям прилагательных, существительных и глаголов. Также на примерах описаны денотативное и коннотативное значения слова.

Ключевые слова: *денотатив, коннотатив, лексическое значение, лексическое значение.*

Annotation: this article describes the semantic aspects of Uzbek language units that express the mental state of a person: that is, words, phrases and phrases related to the word groups of adjectives, nouns, and verbs. Also, the denotative and connotative meanings of the word are described with examples.

Key words: *denotative, connotative, lexical meaning, lexical meaning.*

Semantika tilshunoslikda keng qo'llaniladigan tushuncha bo'lib, u til birliklarining ma'nolarini o'rganadigan soha hisoblanadi. Har bir so'zning ma'nolari turli matnlarda turlicha izohlanadi. Bunday tushuncha so'zning denotativ va konnotativ ma'nolari orqali hisoblanadi.

So'z yoki iboraning denotativ ma'nosi uning tushunarli va aniq ma'nosi bo'lib, u nazarda tutilishi yoki bog'lanishi mumkin bo'lgan har qanday tushuncha yoki ma'nodan farq qiladi. So'zning denotati, o'z mohiyatiga ko'ra, u bevosita nimani anglatishini yoki ifodalashini ko'rsatadi.

Denotatsiyani konnotatsiyaga solishtirilsa, uning ma'nosi yanada ravshan bo'ladi. So'zning ma'nosi u nimani ko'rsatayotgani yoki taklif qilgani, shuningdek, unga bog'liq bo'lgan har qanday ikkinchi darajali ma'no yoki ta'sir bilan bog'liq.

Ijobiy va salbiy konnotatsiyalar ko'pincha konnotatsiya atamasini ifodalaydigan ikkita ibora hisoblanadi. Buning sababi ko'p so'zlarning ijobiy yoki salbiy ma'noga ega bo'lishidir.

Farqlarni ko'rsatish uchun oddiy misoldan foydalanamiz. Masalan, "xafa" atamasi bo'g'ish, bo'g'ilish, nafas qaytish kabi ma'nolarni ifodalaydi. Bu atamaning denotativ ma'nosi. Ko'pgina odamlar "xafa" atamasini negativ konnotatsiyada qo'llagan holda, uni ranjigan, norozi, arazlagan, qayg'uli holatga tushgan singari ma'nolarda tushunishadi. "Xafa" so'zining konnotativ ma'nosi ana shu assotsiatsiya va ma'nolardan iborat. Bundan ko'rinib turibdiki, o'zbek tilida hissiyotni bildiruvchi har bir so'z turkumi o'z ma'no va mazmuni jihatidan farq qiladi. O'zbek tilshunosligida semasiologiya yo'nalishi mavjud bo'lib, u o'z ichida leksema, semema, sema kabi tushunchalarni qamrab oladi. Ruhiy holatni ifodalovchi birliklar turli so'z turkumlari doirasida ifodalanishiga ko'ra har birining o'z lug'aviy hamda leksik ma'nosi mavjud. Lug'atda ko'rinadigan so'z yoki leksemaning ma'nosi uning leksik ma'nosi deyiladi. Lug'aviy ma'no asosiy ma'no, denotativ ma'no va semantik ma'no deb ham ataladi.

Leksik semantika tilshunoslikning leksik ma'no tahliliga yo'naltirilgan sohasidir. Atamaning leksik va strukturaviy ma'nolari har doim ham bir-biriga mos kelishi shart emas. Masalan, "stress" atamasini ko'rib chiqsak, uning lug'aviy va tarkibiy ma'nolari ham bir narsaga tegishli ekanligini ko'rishimiz mumkin. Biroq, so'zning leksik va tarkibiy ma'nolari ko'pincha qarama-qarshi, hatto butunlay qarama-qarshi ma'nolarda ishlaydi. Masalan, "tuyg'u" so'zi hissiyotga bog'liq leksik ma'noga ega bo'lsa-da, ruhiy holat bilan bog'liq tarkibiy ma'noga ega. Boshqa tomondan, "Yig'lamoq" so'zi holat bilan bog'liq leksik ma'noga ega, lekin jarayon bilan bog'liq tarkibiy ma'noga ega. Bundan ko'rinib turibdiki, ruhiy holatni ifodalovchi har bir so'z turkumi o'z lug'aviy hamda semantik, ya'ni tarkibiy ma'nolariga ega. Semantika tilshunoslikning ma'no tahliliga ixtisoslashgan bo'limidir. Semantikaning maqsadi tilning tarkibiy qismi sifatida ma'noni tushunish, shuningdek, til qanday ma'no hosil qilishini va so'zlovchilar va tinglovchilar uni qanday idrok etishi, yashirishi va muhokama qilishidir.

Kontekstdagi ma'noni o'rganuvchi pragmatika tilshunoslikning semantika bilan chambarchas bog'liq bo'lgan yana bir kichik sohasidir. Pragmatika ko'proq amaliy tadqiqot sohasi bo'lib, u qo'llanilganda tildagi ma'no bilan shug'ullanadi, semantika esa tildagi ma'noni alohida, tilning o'zida tekshiradigan

ko‘proq nazariy tadqiqot usulidir. Shunday ekan semantika lingvistikaning alohida bir sohasi bo‘lib, til birliklarining ma’no sathini ifodalayotganda pragmatika bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Semantika, shuningdek, so‘z ma’nolari o‘rtasida mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan aloqalarni ham tekshiradi. So‘zlarning semantik bog‘lanishiga misollar quyida keltirilgan:

Sinonimiya: Agar ikkita so‘z bir xil narsani ko‘rsatish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lsa (hech bo‘lmaganda ba’zi holatlarda; so‘zlar kamdan-kam hollarda barcha sharoitlarda mutlaqo o‘xshash), ular sinonim hisoblanadi. Masalan, shaxs ruhiy holatini ifodalovchi so‘z turkumlaridan sifatni oladigan bo‘lsak, bu turkum doirasida sinonimlar juda ham ko‘pchilikni tashkil qiladi. Bunga misol qilib ayyorona, mug‘ombirona, makkorona so‘zlari olinsa bo‘ladi. Yuqoridagi so‘zlarning bari ayyorlarga xos, ayyorlik bilan ma’nolarida qo‘llaniladi. Quyidagi gaplarda bu so‘zlarning bir ma’noda kelishiga misollar keltirilgan.

1. Ulug‘vor gavdali, sersoqol, ko‘zoynak ostidan ayyorona kulib qarovchi bir kishi so‘z oldi. (Oybek)

2. Musa mug‘ombirona kuldi-da, Elmurodning yelkasiga urib qo‘ydi. (M.Tursun)

3. Mastura ko‘zlarini makkorona o‘ynatib javob berdi. (Oybek)

Antonimiya: Bunda ikkita so‘z bir-biriga qarama-qarshi ma’noni ifodalab keladi. Antonimlar turli olimlar izohida turlicha ifodalanib keladi. O‘zbek tilshunosligida bir ildizli ko‘plab so‘zlar antonimlar deb ataladi; shunga qaramay, ba’zi kuzatuvchilar antonimik munosabatdagi so‘zlar alohida ildizlarga ega ekanligini ta’kidlaydilar. Baxtli va baxtsiz kabi bir ildizdan foydalanib, qozoq tilshunosi J. Musin ko‘rsatganidek, bu so‘zlar bir-biriga qarama-qarshi emasligini ko‘rishimiz mumkin. Bu atamalar barcha ma’nolarda bir-biriga zid fikrlarni bildiradi. Ushbu atamalar ingliz tiliga tarjima qilinganda har bir o‘zakdan iborat zid ma’nolarda qo‘llaniladi: Baxtli-baxtsiz, happy-unhappy.

Boshqa tillarda baxtli-baxtsiz xilma-xilligining antonimlari o‘zlarining ekvivalenti bilan bir ildiz bo‘lsa ham, antonim hisoblanadi. Bunga misol tariqasida quyidagi gaplarni keltirib o‘tsak bo‘ladi:

a) Muzaffar onasining ahvoli yomonlashganini eshitib o‘zini baxtsiz his qilardi;

b) Sa’diya universitetni imtiyozli tugatganidan o‘zini juda ham baxtli his etar edi.

O‘zbek tilida shaxs ruhiy holatini ifodalovchi birliklar ifodalanganda asosan sinonimiya va antonimiya hodisasi ko‘proq uchraydi. Bundan tashqari, bunday birliklar ifodalaydigan gaplar orasida ham bir-biri bilan bog‘liqlik bo‘lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilida ruhiy holat bildiruvchi birliklar turli so‘z turkumlari doirasida ifodalanishiga ko‘ra o‘z ichida turli ma’nolarni ifodalab keladi. Bu birliklar lingvistikaning semasiologiya sohasida keng talqin qilinadi. Yuqorida keltirib o‘tilgan izoh, tushuncha, fikrlar bunga misol bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N. Mahmudov. “O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati”. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. 110-111-betlar.

2. N. Mahmudov. “O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati”. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. 227-bet.

3. R.Shukurov. “O‘zbek tilida antonimlar”.O‘zbekiston SSR Fanlar Akademiyasi. S. Pushkin nomidagi til va adabiyot instituti. – Toshkent: O‘zbekiston SSR «Fan» nashriyoti, 1977. 5-bet.

4. Azim Hojiyev. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1974. 19-bet.

Zulfiyaxon KOMILOVA,
University of economics and pedagogy” NOTM
Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi

ER-XOTINLIK MUNOSABATLARIDA PSIXOLOGIK QOVUSHUVNING O‘RNI

Annotatsiya: maqolada oila va oilaviy munosabatlar, nikoh masalalarida psixologik qovushuvning psixologik xususiyatlari haqida so‘z borgan. Shuningdek, sharq mutafakkirlarining asarlarida hamda psixologlar tomonidan bildirilgan fikrlarning qiyosiy tahlili berilgan.

Kalit so‘zlar: *oila, er-xotin, biologik qovushuv, psixologik qovushuv, sotsial qovushuv.*

Аннотация: в статье рассматриваются психологические особенности психологического воссоединения в вопросах семьи и семейных отношений, брака. Дан также сравнительный анализ мнений, выраженных в трудах восточных мыслителей, а также психологов.

Ключевые слова: *семья, пара, биологическое воссоединение, психологическое воссоединение, социальное воссоединение*

Annotation: the article discussed the psychological features of psychological arousal in family and family relations, marriage issues. A comparative analysis of the opinions expressed by psychologists is also given in the works of Eastern thinkers.

Keywords: *family, couple, biological attachment, psychological attachment, social attachment*

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev «Biz uchun muqaddas bo‘lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik-xotirjamlik, ahillik va o‘zaro hurmat muhitini yaratish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to‘ldirishdan iborat bo‘lmog‘i zarur», deb alohida ta’kidlab o‘tgan [1]. Oila – inson uchun muqaddas maskan, kishilik jamiyatining ijtimoiy poydevoridir. Oilaviy turmushning asosiy maqsadi – farzand ko‘rish orqali avlodlar bilan ajdodlar vorisligi va davomiyligini hamda yer yuzida insoniyat tarixiy taraqqiyotini ta’minlashdan iboratdir. Darhaqiqat, oila – har bir shaxsda bolaligidan boshlab shakllanadigan insoniy fazilatlar, ezgu-istaklar, qadriyatlar shakllanadigan, xalqimizning qadriyatlari va ma’naviy merosi ravnaqini ta’minlovchi tarbiya maskanidir. Bugungi kunda mamlakatimizda oila sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi oila hayoti, undagi shaxslararo munosabatlar mustahkamligi va farovonligini ta’minlashdan iborat.

Oilaviy hayot psixologiyasi, oila-nikoh munosabatlari, oiladagi o‘zaro munosabatlar, undagi ziddiyatlar, ajralishlar va uning oqibatlari keyingi yillarda psixologiya fanining keng tadqiqot obyektiga aylanib bormoqda. Bu sohada psixolog olimlardan G‘.B.Shoumarov, M.G.Davletshin, E.G‘oziyev. V.M.Karimova, N.A.Sog‘inov, X.Karimov, F.R.Ro‘ziqulov va boshqalar olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari diqqatga sazovordir.

Afsuski, oila-nikoh munosabatlarining hozirgi davrga kelib zaiflashib borayotganligi dunyoning deyarli ko‘pchilik mamlakatlarida, jumladan, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Angliya, Fransiya, Germaniya, Boltiqbo‘yi davlatlari, Rossiya va boshqa qator davlatlarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. O‘zbek oilalari hayotida oila-nikoh munosabatlarining zaiflashuvi va uning buzilishlari yuqorida qayd etilgan davlatlarga qaraganda ancha kam bo‘lsa-da, afsuski bor. Ajralishning asoratlari oila a’zolari va qarindosh-urug‘lar o‘rtasida nihoyatda ayanchli oqibatlar, noxush holat va hodisalar keltirib chiqarayotganligi kuzatilmoqda. Shuningdek, jamiyatning ijtimoy hayotiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Oilaviy ajrimlarni keltirib chiqaruvchi omillarga e’tibor berilsa, oiladagi o‘zaro kelishmovchiliklar, er-xotinlik munosabatlarining o‘zaro qovushuv jarayonida buzilishlar, uzilishlar bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin.

G‘.Shoumarovning fikricha, oilaning mustahkam bo‘lishi, er-xotinning baxtiyor hayot kechirishlari va tinch-totuv yashashlarida ularning o‘zaro qovushishi muhim rol o‘ynaydi. U o‘zaro munosabatlarni shartli ravishda 3 tarkibiy qismga bo‘linishni e’tirof etadi. Ular:

1) biologik qovushuv;
2) psixologik qovushuv;
3) sotsial qovushuv. [2]

Ba’zi hollarda mijoz turi ya’ni temperamenti va xarakteri jihatidan kelin-kuyovlar o‘zaro mos kelmasa-da, lekin ular orasidagi hissiy-emotsional holatlarning kuchli ekanligi, psixologik-pedagogik bilimning mavjudligi, oilaviy hayotni mustahkamlashga intilish, mas’uliyat hissi, tarbiya va madaniy bilimdonlik darajasi, ularning o‘zaro qovushishini ta’minlaydi, bu esa oilaning mustahkamligini ta’minlay oladi. Kelin-kuyovlarda alturizm hissi egoizmdan, xudbinlikdan ustun bo‘lsa, har qanday nizo, kelishmovchilik oilaviy turmush uchun xavf tug‘dirmaydi. Shuningdek, psixologik qovushuvda markaziy o‘rinni shaxs psixologiyasining tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan fe’l-atvor va xarakter egallashi alohida ta’kidlanadi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, oilaviy qadriyat va an’analarga hurmat ruhida tarbiyanlangan oila farzandlarida ham qovushuv jarayoni samarali kechadi. Ana shu negizlar baquvvat oilada er-xotin totuvligi, oila barqarorligi, oilaning baxti va farovonligi ta’minlanadi.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda bo‘lg‘usi kuyov-qayliqlar bir-birlarini chuqurroq o‘rganishlari, ayrim nuqsonlardan ko‘z yumishlari zarurligini uqtirish lozim. Yoshlarni qiyinchiliklarni yengishga, yangi shart-sharoitlarga ko‘nikishga bolalikdan o‘rgatib borish lozim. Sabr-qanoat, shukronalik hislarini shakllantirish lozim.

Oilada er bilan xotin orasida yuzaga keladigan kelishmovchiliklarni psixologik tahlil qilinsa, ularning asosiy sabablari kelin-kuyovning kasb faoliyati va oilaning qadr-qimmatini o‘lchashlari, oilada yetakchilik mavqeyini qo‘lga kiritish uchun kurashishlari, bir-birini psixologik xususiyatlarini tushunib yetmasliklari, uy-ro‘zg‘or ishlarini bajarishga tayyor emasliklari, jinsiy tarbiyaga oid bilimlarning yetarli emasligi, bolalarni tarbiyalashdagi kelishmovchiliklari, mijozlarning mos kelmasligi, jinsiy masalalarda kelisholmasliklari, farzandsizlik, rashk va ishonchsizlik ekanligini ko‘rsatib o‘tadi.

Ibn Sino «Kitob ush-shifo» asarida oila inqirozi va buzilishiga sabab bo‘ladigan omillarni ham ko‘rsatib o‘tgan. Bularga:

1. Agarda er va xotinlikdan farzand dunyoga kelmagan bo‘lsa;
2. Agarda xotin eriga xiyonat qilib, uning e’tiborini pasaytirsa;
3. Xotin kishi tarbiyasiz bo‘lsa-yu, tarbiya olishni istamasa;
4. Er va xotin bir-birlariga yoqmaydigan tabiatli bo‘lsa.[3]

Ibn Sino asarlarida oilaviy munsabatlar masalasida va oilaviy turmush, unda er-xotinning o‘zaro tahlil qilingan va ibratli misollar asosida yoritgan. Shuningdek, asarda ayollar mavqeyi oilaviy munosabatlarda muhim o‘rin tutishini asoslab bergan. Er-xotin ularni yodda tutishi va unga amal qilishi oilaviy munosabatlar barqarorligiga ijobiy ta’sir etadi.

O‘z davrining yetuk ulamosi Rizouddin ibn Faxruddin o‘z asarlarida er-xotin munosabatlarining

sofligi naqadar muhim ahamiyat kasb etishini e'tirof etgan holda bu masalaga shunday yondashadi. "Go'zal muomalali bo'lmoq islom shariatining birinchi qoidalaridandir. Go'zal muomalaning eng lozim qismi xotin bilan bo'lajak muomaladir. Qur'oni Karim xotinlar bilan go'zal mushoirat etishga buyurgandir. Bunday muomala etuvchi erning dunyosi tuzuk, oxirati rohat bo'lur. Xotinga go'zal muomala qiluvchi oliy tabiatli erlar shariat-u aql tarafidan man etilgan narsalarga xotinlarini yo'llamaydilar va eng aziz bolasiga bo'lgan mehr-u shafqati darajasida oqibat ko'rsatib, xotinlarini barcha mashaqqatdan saqlaydilar, qurbilari yetmagan xizmatga buyurmaydilar"[4].

Bugungi kunda oilani mustahkamlash, oila manfaatlarini himoya qilish davlat ahamiyatiga molik ustuvor vazifa sanaladi. Shunga ko'ra, zamonaviy yoshlarni oilaviy hayotga maqsadli tayyorlash taqozo etiladi. Yoshlar oilaviy hayotning ma'naviy, axloqiy, iqtisodiy xususiyatlari, oilani rivojlantirish, oilada tinchlik va totuvlikni saqlash, oilada farzand tarbiyasini amalga oshirish ishlariga tayyorlash zarur. Shu jumladan kelinlik va kuyovlikka nomzod yoshlarga nikoh, oila, oila a'zolarining o'zaro munosabatlari, oila tutish sirlari, er-xotinlik munosabatlari kabi masalalar yuzasidan bilimlarni o'rgatish ham zarur. Maqola asosida quyidagi taklif va tavsiyalarni berishimiz mumkin:

– er va xotin oilaviy turmushining boshidanoq bir-biriga samimiy munosabatda, shirinso'zlik bilan muomala qilmog'i, bir-birining xarakter xususiyatini anglagan holda munosabatlarni to'g'ri yo'naltira olishga harakat qilishi lozim;

– oilada er va xotin barobar tarzda farzandlariga nutq odobini, muloqot madaniyatini hamda oila mas'uliyatini bolaligidanoq o'rgatishi, bu borada er va xotin birdek mas'ul bo'lib harakat qilishi kerak.

Bundan kelib chiqadiki, ota-onalik maktabida ota-ona farzand uchun eng namunali andoza bo'lishi lozim.

Foydalangan adabiyotlar

1.Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. 2017-yil 14-yanvar.
2. Fayziyeva M., Jabborov A. «Oilaviy munosabatlar psixologiyasi». «Yangi asr avlodi», 2007.
3. Shoumarov F.B. Oila psixologiyasi: Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun. – T., Sharq.
4. Rizouddin ibn Faxruddin. Oila. – T.: «Mehnat», 1991. 64-b.
5. www.moiti.uz – "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot institut portal.

Хуршидбек МАМАТИСАКОВ,
Эльдар ГИЗДУЛЛИН,
преподаватели кафедры методики преподавания Русского языка Ферганского государственного университета

СИМВОЛЫ И РЕЛИГИОЗНО-ДУХОВНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПОВЕСТИ-ПРИТЧИ ЭРНЕСТА ХЕМИНГУЭЯ «СТАРИК И МОРЕ»

Аннотация: статья посвящена анализу символов и религиозно-духовной интерпретации повести-притчи Эрнеста Хемингуэя «Старик и море». В ней рассматриваются ключевые символы-старик, море и рыба, и их связь с религиозными и духовными темами. Рассматривается использование этих символов для передачи глубоких идеологических и философских идей. Особое внимание уделяется вопросам человеческой выносливости, веры и борьбы. Предлагается новый взгляд на повесть, раскрывая сложные религиозные и духовные подтексты этого произведения.

Ключевые слова: *композиция, кольцевое обрамление, стойкость, смирение, интерпретация, символическая интерпретация.*

Annotatsiya: maqola Ernest Xemingueyning "chol va dengiz"qissasi-masalining ramzlari va diniy va ma'naviy talqinini tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda asosiy ramzlar-chol, dengiz va baliq, ularning diniy va ma'naviy mavzular bilan aloqasi ko'rib chiqiladi.Ushbu ramzlardan chuqur mafkuraviy va falsafiy g'oyalarni etkazish uchun foydalanish ko'rib chiqiladi. Insonning chidamliligi, e'tiqodi va kurash masalalariga alohida e'tibor beriladi.Ushbu asarning murakkab diniy va ma'naviy subtekstlarini ochib beradigan voqeaga yangi nuqtai nazar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: *tarkibi, halqali bayon, chidamlilik (sobitlik), kamtarlik, talqin, ramziy talqin.*

Annotation: the article analyses the symbols and religious and spiritual interpretation of Ernest Hemingway's parable story "The Old Man and the Sea". It examines the key symbols-the old man, the sea, and the fish-and their relationship to religious and spiritual themes.The use of these symbols to convey profound ideological and philosophical ideas is examined. Particular attention is paid to issues of human endurance, faith and struggle. Offers a new perspective on the tale, revealing the complex religious and spiritual undertones of this work.

Keywords: *composition, circular framing, resilience, humility, interpretation, symbolic interpretation.*

«Старик и море» – это одно из самых известных произведений Эрнеста Хемингуэя, которое было удостоено Нобелевской премии по литературе. В этой повести-притче Хемингуэй использует библейские мотивы для создания сложного и глубокого образа старика, борющегося с морем и его обитателями.

Повесть-притча написана в 1951 году и состоит из трехчастной композиции с кольцевым обрамлением: «Старик и мальчик», «Старик и рыба», «Возвращение старика».

Проводя анализ повести-притчи приводится огромное количество ссылок на стойкость, смирение, волю и мечтания главного персонажа [1:6,13,24 ;5:26,32].

Хотя в диалогах с критикой автор избегал раскрытия идеи произведения, настаивая лишь на желании реалистично обрисовать состояние и действия рыбака в сложившихся условиях, в данной статье мы рассмотрим религиозно-символическую интерпретацию действий главного персонажа.

Главные герои: условная первая часть композиции связана со стариком и мальчиком. Мальчика зовут Манолин, что является уменьшительно-ласкательным сокращением от Эммануила, одного из имен Иисуса Христа. Старика зовут Сантьяго, что также является именем святого Иакова, а также ветхозаветного Иакова, бросившего вызов самому Богу. Эти имена подчеркивают связь между героями и библейскими образами.

Молитвы старика: в повести старик читает основные христианские молитвы – «Отче наш» и «Богородицы».

Символика рыбы: огромная рыба, с которой сражается рыбак, носит двоякий символический характер: с одной стороны – это собирательный образ всех рыб, пойманных когда-то Сантьяго, образ предназначенного ему Богом дела, с другой – это образ самого Создателя, обитающего в каждом своем творении, умершего ради людей, воскресшего и живущего в душах верующих.

В целом, библейские мотивы в «Старике и море» служат для углубления образа старика и его борьбы, а также для создания связи между его жизнью и более широкими духовными темами. Это делает повесть более сложной и глубокой, позволяя читателям увидеть связи между жизнью старика, его испытаниями и библейскими образами. Это также подчеркивает универсальность тем и идей, которые Хемингуэй исследует в своей работе[6;7].

Возможно интерпретировать и обобщенный образ рыбака:

Апостол Петр: Петр был рыбаком, прежде чем стать апостолом Иисуса Христа.

Андрей Первозванный: Андрей также был рыбаком и является одним из самых известных святых, которого рыбаки часто прославляют.

Николай Чудотворец: в православии Николай Чудотворец считается покровителем рыбаков и моряков.

Святой Антоний Падуанский: этот святой преимущественно прославляют в Италии. Он считается покровителем рыбаков и нерестовых рек.

Святой Фома Аквинский: рыбаки также обращаются к святому Фоме Аквинскому, возможно, это имеет отношение к его роли покровителя животных.

Для более глубокого анализа условной второй части повести «старик и рыба» используем краткие выдержки из содержания, но интерпретация действий, мыслей и чувств старика производится на основе раннехристианских трех символов, составляющих триаду – Крест, Якорь и Сердце. По мнению историко, эти символы на протяжении тысячелетий служат метафорой для представления трех основных христианских ценностей: веры, надежды и любви. Вместе они образуют символ Святой Троицы [4].

Разберем эпизоды, где действия Сантьяго можно охарактеризовать символом якоря-надежды:

Надежда на улов: старик Сантьяго, выходя в море, надеется поймать большую рыбу. Он ловит тунца, что дает ему надежду на то, что рядом с тунцом может плыть большая рыба.

Надежда на победу над марлином: старик борется с огромным марлином, который стал самой большой добычей в его жизни. Этот бой длится несколько дней, и старик все это время сохраняет надежду на победу.

Надежда на возвращение с добычей: после того как старику удается победить марлина, он привязывает его к своей лодке и направляется домой, надеясь, что сможет доплыть до берега с добычей.

Надежда на помощь мальчика: старик Сантьяго уверен, что мальчик Манолин будет рыбачить вместе с ним, и это дает ему надежду [4; 6].

Но, несмотря на все трудности и испытания, старик Сантьяго не теряет надежды и продолжает борьбу. Это ключевой момент повести, подчеркивающий несгибаемый дух главного героя.

В повести «Старик и море» Эрнеста Хемингуэя есть значимые места, где главный герой, старик Сантьяго, испытывает любовь, символом этого чувства выступает сердце:

Любовь к морским обитателям: Сантьяго проявляет уважение и любовь ко всему живому в море. Он волнуется за птиц, которым тяжело добывать себе пропитание, и наслаждается любовными играми морских свинок, жалеет и любит морских черепах.

Сочувствие к марлину: старик испытывает со-

чувствие к марлину, который лишился своей подруги по его вине. К большой рыбе старик относится с чувством глубокого уважения.

Уважение к рыбам: при каждой встрече с морской живностью, Сантьяго проявляет уважение к ней.

Любовь к морю: море он сравнивает с женщиной и обращается к ней La mar признавая и снисходительно терпя ее прихоти.

Отеческая любовь к мальчику Манолину.

Эти моменты подчеркивают глубокую связь Сантьяго с природой и его любовь к жизни во всех ее проявлениях [3; 4].

Так же в повести «Старик и море» Эрнеста Хемингуэя есть несколько эпизодов, где главный герой, старик Сантьяго, проявляет свою веру, символом служит крест:

Вера в победу над марлином: старик Сантьяго, борясь с огромным марлином, верит в свою победу. Эта вера помогает ему не сдаваться и продолжать борьбу.

Вера в себя: несмотря на свою старость и одиночество, Сантьяго верит в свои силы. Он уверен, что сможет преодолеть все трудности и испытания.

Вера в мечту: старик Сантьяго мечтает о победе, и эта мечта дает ему силы продолжать борьбу.

Вера в единство с природой: Сантьяго чувствует свою связь с природой и верит в ее помощь. Он разговаривает с рыбами и птицами, как с живыми существами, и верит в их поддержку.

Эти моменты подчеркивают несгибаемый дух главного героя и его веру в себя и в свою мечту [8;9].

Исходя из приведенной выше трактовки можно с уверенностью утверждать, что повесть-притча о простом рыбаке вбирает в себя множество библейских мотивов, где они переплетаясь организуют триединую символику с возможностью широкой интерпретации в указании источника и в описании человеческих качеств главного персонажа.

Список литературы:

1. «Старик и море» Э. Хемингуэй - Москва, 2019 год
2. Задорнов С.З. Путешествие к Голгофе: к истокам «Старика и моря» Эрнеста Хемингуэя. М.: Книжное обозрение, 2010 г.
3. Лозовая О. Символика и образы в Библии. – М.: Слово Жизни, 2010
4. М. Горельский. Эрнест Хемингуэй: «Старик и море». Текст и контекст: исследования, анализы, интерпретации. М.: Индрик, 2018 год
5. Танейева А.А. Библейские символы: история и толкование. — СПб: Алетейя, 2015
6. Тимофеев В.Ф. Библейские символы и знаки. — М.: Московский образовательный центр, 2001
7. Хемингуэй Э. Старик и море / Эрнест Хемингуэй; Пер. Н. Гасиной. – СПб: Азбука-Классика, 2014
8. Шугаева Е.Г. Комплексный анализ произведения Э. Хемингуэя «Старик и море». М.: Издательство Московского университета, 2005 год

Intizora AXMATOVA,
Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi
intizoraaxmatova@gmail.com

QORAKO‘L TUMANIDA “OTA” KOMPONENTLI NEKRONIMLARINING SEMANTIK TAHLILI

Annotatsiya: Qorako‘l vohasida avliyolar nomiga agar u yassaviylik tariqatiga mansub bo‘lsa “Ota”, “Ato”, naqshbandiylikka mansub bo‘lsa “bobo”, Kubroviylik tariqatiga mansub bo‘lsa u zotning ismlari boshi yoki oxiriga “bobo” nisbasi qo‘shib aytilgan. Biz ushbu tadqiqotimizda Qorako‘l tumanida joylashgan “ota” komponentli qabriston nomlarini semantik jihatdan tahlil qildik.

Tayanch tushunchalar: *nekronim, avliyo, qabriston, ziyoratgoh, masjid, bobo, xo‘ja, shayx, hazrat, eshon, ziyoratgoh, mozor, sag‘ana, tug‘, tariqat,*

Аннотация: в Каракольском оазисе, если он принадлежит к ордену Яссави, «Отец», «Ато», «дед», если он принадлежит к ордену Накшбанди, и «дед» к началу или концу имени святого, если он принадлежит к кубровскому ордену. В данном исследовании мы с семантической точки зрения проанализировали названия кладбищ с компонентом «отец», расположенных в Каракольском районе.

Опорные понятия: *некроним, святой, кладбище, святыня, мечеть, дедушка, ходжа, шейх, хазрат, ишан, святыня, могила, сагана, племя, секта,*

Annotation: in the Karakol oasis, if he belongs to the Yassavi order, "Father", "Ato", "grandfather" if he belongs to the Naqshbandi order, and "grandfather" to the beginning or end of the name of the saint, if he belongs to the Kubrovian order said. In this study, we analyzed the names of the cemetery with the "father" component located in the Karakol district from a semantic point of view.

Basic concepts: *necronym, saint, cemetery, shrine, mosque, grandfather, khoja, sheikh, hazrat, eshan, shrine, grave, saghana, tribe, sect,*

Kirish. Qorako‘l vohasida avliyolar nomiga agar u yassaviylik tariqatiga mansub bo‘lsa “Ota”, “Ato”, naqshbandiylikka mansub bo‘lsa “bobo”, Kubroviylik tariqatiga mansub bo‘lsa u zotning ismlari boshi yoki oxiriga “bobo” nisbasi qo‘shib aytilgan. Biz ushbu tadqiqotimizda Qorako‘l tumanida joylashgan “ota” komponentli qabriston nomlarini semantik jihatdan tahlil qildik.

Metodlar. Maqolada nekronimlarning til tizimidagi ahamiyatini aniqlash uchun tarixiy, qiyosiy-chog‘ishtirma, tavsiflash, differensial-semantik, kuzatish usullaridan foydalaniladi.

Natijalar. Chibirdonota – Chibirdon ota nomiga nisbat berilgan sakkiz burchakli maqbara va xonaqohdan iborat qadimiy qabristonlardan biri. Maydoni 10 gektarni tashkil qiladi. Ushbu tarixiy yodgorlikni o‘rganish XIX asrning 40-yillaridan boshlangan va geografik manbalarda Toshmachit tarzida qayd qilingan. Maqbara va unga tutash joylardagi qoldiqlarni o‘rganishni birinchilardan bo‘lib arxeolog tarixchi V.A.Nilsen boshlab bergan. A.V.Nilsenning yozishicha ushbu maqbara O‘rta Osiyo hududidagi XI asrga oid qurilish jihatdan ajralib turuvchi sanoqli yodgorliklardan biridir. Tarixchilarning yozishicha maqbara yonida X-XII asrlarga oid so‘g‘dchada “suv bo‘yidagi shahar” ma’nosini anglatuvchi Amdiza shahri bo‘lgan. Arxeologik qazishmalar natijasida bu hududdan aholi manzilgohlari, g‘ishtsozlik korxonasi, turli davrlarga mansub sirlangan va sirlanmagan haykalchalar va turli ashyolar topilgan. 1986-yilgi qazishmalar davomida bu yerdan zardushtiylarning xilxonasi – nekropil ham topilgan. Qabristondagi qadimiy qabrlarga yozilgan yozuvlar sharqshunoslar tomonidan o‘qilganda ulardan biri Ali ibn Muhammad ibn Ali ibn Abu Bakr ibn Ali an-Nasafiy al-Poykandiy nomi borligi va uning vafoti milodiy 1319-yil deya qayd qilingan. Bu zot Sakkokiyning “Miftoh-ul ulum” asarining uchinchi qismiga sharh yozgan olim bo‘lib, asli Nasaflik keyinchalik Poykandda istiqomat qilgan. Qabr toshlari ustida kufiy yozuvidagi namunalar uchraydi. Mazkur qabristonda hazrat Alisher Navoiy nazariga tushgan Hisomiddin Husomiy-Qorako‘liy (1442-1505) qabri ham mavjud. Hazrat Navoiy “Majolis-un nafois” tazkirasida Husomiyni tilga olib, uning ijodidan quyidagi parchani kitobda keltirib o‘tgan:

Fig‘on ey, do‘ston, kon la’li shirin az havas moro,
Bikushtu hech kas bar sar nayomad jo‘z magas moro.

(Mazmuni, Fig‘on, ey do‘stlar, ul shirin labli havas yuzasidan bizni o‘ldirdi-yu, pashshadan bo‘lak hech kim boshimizga kelmadi).

Husomiyning shaxsi, ijodi va faoliyati haqida Som Mirzo Safaviyning “Tuhfai Somiy”, Nisoriyning “Muzakkiri ahbob”, Darvishali Changiyning “Risolai Musiqa”, Sayyid Roqimning “Torixi Roqim”, Abdulla Qobuliyning “Tazkirat ul-tavorix”, Lutf Alibekning “Otashkadai Ozar”, Mutribiyning “Tazkirat ush-shuaro” tazkiralarida qimmatli ma’lumotlar berilgan.

Abdulla Qobuliyning “Tazkirat ut-tavorix” asarida “Mavlono Husomiy kasallanib, so‘ng o‘zi kelib maqom tutgan Cho‘kurdum Oto qabristonidagi xonaqohda vafot etgan va cho‘kurdum Otoning nurli mozori yoniga dafn qilingan” deya ma’lumot berilgan. Demak, dastlab zardushtiylarning qabristoni o‘rnida paydo bo‘lgan Cho‘kurdum ota yodgorligi atrofida katta qabriston paydo bo‘lgan. Ismoil Bekjonov tomonidan tarjima qilingan “Cho‘kurdum Oto qabristoniga taalluqli vaqf yerlariga da’vogarlik bo‘yicha chiqarilgan hukm” vasiqa matnida ushbu qabriston, uning hududi, kimlarga tegishli ekanligi haqida to‘liq ma’lumotlar berilgan. Xulosalar shuni ko‘rsatadiki, mazkur qabriston nomidan ko‘ra ancha qadimiydir. Ato, Oto, Ota tushunchalari yassaviylik tariqati vakillari, Zangi otaning to‘rt mashhur xalifasidan biri Sayyid Ahmad Buxoriy – Sayyid Ato avlodlari yoki izdoshlariga nisbatan ishlatiladi. maqbara XI asrga oidligini inobatga olsak, avliyolar nomiga ato qo‘shimchasini qo‘yish XII asrdan keyin boshlangan. Demakki, qabriston nomiga nisbat berilgan bu zot yassaviylikka mansub emas. O‘rta asr manbalarida bu qabriston "Qof ul-duob" deb nomlangan.

S.S.Buxoriy “Buxoroning tabarruk ziyoratgohlari” kitobida bu ziyoratgoh haqida shunday yozadi: “Hazrat Chibirdon ota ziyoratgohlari Qorako‘l tumanidadir. U yerda katta maqbara bor”.

Said Ota Abdullosharbax – Qorako‘l tuman Sho‘rrabot MFY hududidagi qabriston, maydoni 10 gektar. Qabriston nomi Buxorodan Xorazmga borib qolgan Zangi Otaning to‘rt xalifasidan ikkinchisi Sayyid Atoning o‘g‘li va bosh xalifasi bo‘lgan Sayyid Abdulloh Zarbaxsh nomiga atab qo‘yilgan va bu zotning qabri ustida baland oq tug‘ ko‘tarilgan. Qorako‘l vohasidagi barcha Sayyid Atoyi xo‘jalar Sayyid Abdulloh Zarbaxshning avlodlaridir. Sayyid Abdulloh Zarbaxsh haqidagi ma’lumotlar turkiyalik professor Nedjat Tosunning “O‘rta Osiyoda islom” kitobining “O‘rta Osiyoda tasavvuf” qismida, Amir Muzaffarxonning o‘g‘li Nosiriddin Buxoriyning milodiy 1910-yil tarixi yozilgan “Tuhfat uz-zairin” asarida, L.Ziminning “Развалины древнего Пайкенда” kitoblarida qayd qilingan. Shuningdek, Komilxon Kattayevning “Tasavvuf allomalari” kitobida Sayyid Abdulloh Zarbaxshning XIV asr boshlarida 400 xalifasi, shogirdlari bilan Xorazmdan Buxoroga ko‘chib kelgani va umrining oxirigacha Poykent hududida muqim yashab qolgani haqida ma’lumotlar berilgan.

Qadimda Sho‘robod, Qizilrabot, Poykent, Janafar, Qulonchi, Aliykaxo‘ja, Sayyot, Solur, Do‘rmon qishloqlari aholisi uchun ziyoratgoh bo‘lgan mazkur qabristonga hozirda Qizilrabot, Sho‘robod qishloqlarining marhumlari dafn etiladi.

Olloquli Shayx Ota – Qorako‘l tuman Chovli va Oqoltin mahallari o‘rtasidagi qabriston. Jat, Oq oltin, Do‘koncha, Mirob, Guppos qishloqlarining marhumlari dafn etiladi. Qabristonda Olloquli shayx otaga nisbat

beriluvchi oq tug‘ ko‘tarilgan qabr mavjud. Alloquli, Allohiy nomlari bilan tanilib, asli o‘qimishli shayx avlodidan bo‘lgan. Buxorodagi Chor Minor madrasisda Niyozquli Xalifadan tahsil olgan. She’rlar yozgan, Buxoroda oxundlik, shayxlik darajasiga ko‘tarilgan. Hayotining qismida Qorako‘lda yashab, ijod qilgan va umri oxirida yana o‘z yurtiga qaytgan. Mazkur qabriston shu zotning tabarruk qadamjosi sifatida ziyoratgohga aylantirilgan.

Zangi Ota – Qorako‘l tuman Quvvacha QFYda joylashgan qishloq. Qabriston sifatida foydalanilmasada, obodonlashtirib qo‘yilgan mazkur ziyoratgoh Zangi Otaning muqaddas qadamjolaridan biridir. Respublikaning boshqa hududlarida ham shu nomdagi ziyoratgohlar mavjud bo‘lib, ularda oq tug‘ ko‘tarilgan.

Ramazonota – Qorako‘l tuman Arna qishlog‘ida joylashgan qabriston. Chovurchi qishlog‘ining marhum kishilari, qisman Qo‘lvo, Nimpoykol, Qumqishloq aholisi mayyitlari shu qabristonga ko‘miladi. Ariq va zovur o‘rtasida joylashgan tepalikda Ramazon otaga nisbat beriluvchi ikkita oq tug‘ ko‘tarilgan qabr mavjud.

Polvonota – Qorako‘l tuman Quyi Yangibozor va Qoraun qishloqlarida shu nomdagi ikkita qabriston mavjud. Polvon otaning ramziy qabri ustiga oq tug‘ ko‘tarilgan. Qishloq aholisining aytishicha bu zot nufuzli polvonlardan bo‘lib, bir kurashda barcha xorazmliklarni yenggan. Qabristonga Yangibozor, Qiyos, qisman Oqrabot va Quvacha qishloqlarining marhum kishilari dafn etiladi. Qoraun qishlog‘idagi Polvon ota qabristoni nomi qadimda G‘arib ota deb atalgan va o‘tgan asrning 80-yillaridan boshlab aholi tomonidan Polvon ota deyilgan.

Hasan Uzunota – Qorako‘l tuman So‘kso‘k, Pirlar , Guppos qishloqlari o‘rtasida joylashgan qishloq. Oq tug‘ ko‘tarilgan. Guppos va So‘kso‘k qishloqlari marhumlari dafn etiladi. Uzun Hasan otaning qabri Qozog‘iston viloyati Sayram tumanida bo‘lishiga qaramay, mazkur qabristonda bu zotning muqaddas qadamjolari sifatida ramziy qabr tiklangan. Uzun Hasan Ota Zangi Otaning mashhur to‘rt xalifasidan biridir.

Ketmonchiota va O‘roqchiota – Qorako‘l tuman Qozon qishlog‘ida joylashgan qabristonlar. Qabristonda Ketmonchiota va O‘roqchiotaga nisbat beruvchi sag‘analar mavjud, ular ustida oq tug‘ ko‘tarilgan. Qabristonga erta yoshda ko‘z yumgan chaqaloqlar, musofirlar, g‘arib, kimsasiz kishilar dafn qilingan. Ketmonchiota va O‘roqchiotalar aka-uka bo‘lib, qishloq aholisining qabriston eshigi oldiga qo‘yib ketgan mehnat qurollarini tuzatib qo‘yishgan.

G‘oyibota – Qorako‘l tuman Qozon va Qorahoji qishloqlarida joylashgan qabriston. Qozon qishlog‘ida joylashgan G‘oyibota qabristonida bu zotga nisbat beriluvchi ramziy qabr ustida oq tug‘ ko‘tarilgan. Hozirda faqar erta yoshda vafot etgan chaqaloqlar dafn qilingan. Ushbu qabristonga o‘tmishda katta va kichik yoshdagi marhumlar qo‘yilgan.

Muhokama. Yuqorida izohlangan Qorako‘l tuman qabriston nomlari tuzilishiga ko‘ra qo‘shma bo‘lib, ularning aksariyati ot+ot qolipida hosil qilingan nekronimlardir. Qorako‘l tuman nekronimlarini quyidagi jihatlarga ko‘ra turlarga bo‘lamiz:

1. Shaxsning xususiyatlari jihatidan nomlangan nekronimlar: Polvonota, Hasan Uzun ota, G‘oyibota qabristonlari misolida tahlil qiladigan bo‘lsak, ushbu nekronimlar uchun nomlari asos qilib olingan shaxslarning o‘ziga xos xususiyatlari asos qilib olingan.
2. Diniy unvoni jihatidan kelib chiqib nomlangan nekronimlar: Said ota, Sulton Xo‘jaipok ota, Olloquli Shayx ota qabristoni misolida ko‘rib chiqdigan bo‘lsak shu davrda, ma’lum bir hududda shayxlik va eshonlik bilan shug‘ullangan va shuhrat qozongan shaxslar nomi asos qilib olingan.
3. Kasb-kori jihatidan nomlangan nekronimlar: Ketmonchi ota, O‘roqchi ota qabristoni misolida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, shu paytda yashab hunarmandchilik, dehqonchilik bilan shug‘ullangan mashhur shaxs nomi asos bo‘lgan.
4. Yashab turgan hududi jihatidan nomlangan nekronimlar: Do‘rmon, Solur, Yangi Avliyo qabristonlari misol bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begmatov E. Uluqov N. O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati. – Namangan, 2006.
2. Qorayev S. Toponimika. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. – T., 2006.
3. Raximovna U. N. Tasavvuf ta’limoti va g‘arb adabiyoti //Ethiopian International Multidisciplinary Research Conferences. – 2023. – С. 117-119.
4. Umurova N., Samadova S. Oriental Motives on “The Fifth Mountain” By Paulo Coelho //International Engineering Journal For Research. – 2020. – Т. 5. – №. 2.
5. Ғайбуллаев С. Қоракўл воҳаси тарихий топонимлари атласи. Тошкент, Lesson Press нашриёти, 2021 йил 190 бет.
6. Садриддин Салим Бухорий. Бухоронинг табаррук зиёратгоҳлари. –Бухоро, Дурдона, 2012. –Б.272.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд. – Т.: Ўзбек миллий энциклопедияси, 2008. – 606 б.
8. Axmatova I.H. Philology and sociology ilmiy jurnal. “Qorako‘l tuman toponimlarining fonetik va tarkibiy tuzilishi” 10-16-betlar.
9. Axmatova I.H. “Buxoro janubiy tumanlarida “Rabot” asosli toponimlarning semantik xususiyatlari”. “Ilm-fan va ta’lim” ilmiy jurnali, 8-son. 30.06.2023. 100-105.
10. Axmatova I.H. Olot tumani tarkibidagi etnonim asosli toponimlar tahlili. “O‘rta Osiyodan Ando‘ligacha: Turkiy xalqlar tili, tarixi, madaniyati va etnografiyasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 2023. 145-147-betlar.

Elnoza QUDRATOV,
Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti,
Musiqa ta'limi kafedrasi katta o'qituvchi equdratova@mail.ru
Sahob KARIMOV,
Musiqa ta'limi kafedrasi o'qituvchisi
E-mail address: karimovsaxob1@gmail.com

MUSIQA MEROSIMIZ NAMUNALARINI TA'LIM - TARBIYA JARAYONIGA JORIY ETISH METODLARI

Annotatsiya: maqolada milliy musiqa merosining ulkan tarbiyaviy-ta'sirchanlik xususiyatlari ta'kidlangani holda bugungi kunda ulardan yosh avlod ma'naviy kamolotida foydalanish holati, muammo va imkoniyatlari tahlil qilingan. Shu o'rinda xalq musiqa merosi namunalarini ta'lim va tarbiya jarayoniga tadbiq etishda yanada samarali natijalarga erishish imkonini beruvchi ilmiy asosli tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: *xalq musiqa merosi, milliy g'oya, mafkura, ta'lim, tarbiya, shaxs ma'naviy kamolot, umumta'lim maktablari, pedagogik talab va mezon.*

Аннотация: в статье подчеркнуты большие воспитательно-изобразительные особенности народно-музыкального наследия и проанализированы состояние, проблемы и возможности их использования в духовном развитии подрастающего поколения на сегодняшний день. На данный момент выдвинуты научные рекомендации, позволяющие добиться более эффективных результатов в применении образцов народного музыкального наследия в процессе обучения и воспитания.

Ключевые слова: *народное музыкальное наследие, национальная идея, идеология, воспитание, воспитание, духовная зрелость личности, общеобразовательная школа, педагогические требования и критерии.*

Annotation: the article emphasizes the great educative-impressive features of folk music heritage and analyzes the situation, problems and possibilities of using them in the spiritual development of the young generation today. At this point, scientific recommendations have been put forward that allow to achieve more effective results in the application of examples of folk music heritage to the process of education and upbringing.

Key words: *folk music heritage, national idea, ideology, education, training, personal spiritual maturity, comprehensive schools, pedagogical requirements and criteria.*

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida yangi ma'naviy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'liga o'tishi sharofati bilan ta'limning milliy g'oya va mafkura hamda jahon pedagogikasining ilg'or yutuqlari asosida qayta qurish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. "Ushbu milliy-ma'naviy tiklanishning tarkibiy mazmunida musiqa ta'limi-tarbiyasini milliy musiqa merosimiz ustuvorligida qayta ishlab chiqish yosh avlodda musiqiy madaniyatni shakllantirish bilan birga milliy,badiiy tafakkurni tarkib toptirish uchun ham muhimdir" .

Milliy musiqiy ta'lim va tarbiya o'z mazmunida insonparvarlik, milliy g'urur va umuminsoniy g'oyalarni mujassam etishi bilan o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy g'oya va milliy mafkura ruhida tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Milliy g'oya va mafkura o'z mazmun va mohiyatiga ko'ra eng avvalo, xalqimizning milliy qadriyatlariga tayanadi. Zero,"Milliy istiqlol mafkurasi-xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyati, an'ana va urf odatlari, ulug' bobokalonlarimizning ulmas merosidan oziqlanadi" .

Madaniy va ma'naviy meros avlod – ajdodlarimiz tomonidan yaratilib, bizgacha yetib kelgan bebaho xazina, eng oliy qadriyatdir. Musiqa merosi esa bu xazinaning sarchashmalaridan hisoblanadi. Shu bois, pedagogika fani ta'lim nazariyasi amaliyotiga ulkan hissa qo'shgan pedagog – olimlar, faylasuflar va musiqashunoslar yosh avlodga beriladigan bilimlar tizimida shaxsning ruhiy va aqliy kamolotida estetik mazmun va mohiyat kasb etuvchi san'at turlariga, xususan, musiqaga, uning tarbiyaviy ta'sirchanlik kuchiga alohida e'tibor berishgan. Estetik tarbiyaga daxldor ta'limiy va tarbiyaviy ishlar tarkibida musiqa san'atining inson shaxsini barkamol rivojlanishiga samarali ta'sir o'tkazishini hayotiy misollar va ilmiy tadqiqot natijalariga ko'ra asoslaganlar.

Xalq musiqa merosidan yosh avlod tarbiyasida foydalanish orqali ularda ona vatanga, xalqimiz tarixi, tili, adabiyoti, madaniyati, urf – odatlari va an'analariga mehr – muhabbat tuyg'ularini shakllantirish, ularni qadrlash, asrab – avaylash va rivojlantirishga mas'ullik hissini tarbiyalash ta'lim tizimi oldidagi o'z dolzarbligini hech qachon yo'qotmaydigan vazifalardan sanaladi.

Birinchi Prezidentimiz I. Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida shunday yozadi: "Birinchi navbatda milliy madaniyatimiz, xalq ma'naviy boyligining ildizlariga e'tibor berish zarur. Bu xazina asrlar davomida misqollab to'plangan, tarixning ne – ne sinovlaridan o'tgan. Insonlarni og'ir damlarida madad bo'lgan. Bizning vazifamiz shu xazinani ko'z qorachig'idek asrash va yanada boyitishdan iboratdir".

Albatta, bu vazifani amalga oshirish birinchi

navbatda ta’lim muassasalari zimmasiga tushadi va bu yerda faoliyat yurituvchi pedagoglardan o‘z ishlariga o‘ta mas’uliyat bilan yondashishni talab qiladi.

O‘zbek xalq musiqa merosi namunalarini ta’lim – tarbiya mazmuniga singdirish, shu orqali yoshlarning badiiy – estetik madaniyati va ma’naviy kamolotini shakllantirish borasida e’tiborga molik ishlar amalga oshirilayotgan va bu ishlar muayyan shart – sharoitlarga bog‘liq holda davom ettirilayotgan bo‘lsa – da, ushbu qamrovi va ko‘lami hamda tarbiyaviy – ta’sirchanlik imkoniyatlari beqiyos katta bo‘lgan bebaho xazinadan yosh avlod tarbiyasida yanada samarali foydalanishning zamonaviy talablarga mos yangicha yo‘l – yo‘riqlari, mezonlarini ishlab chiqish, takomillashtirish va amaliyotga tadbiq etish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Qudratli tarbiyaviy – ta’sirchanlikka ega bo‘lgan xalq musiqa merosi namunalarini ta’limning barcha bo‘g‘inlarida yoshlar tarbiyasiga tatbiq etish, xususan, ta’lim tizimining eng muhim shakllantiruvchi bo‘g‘ini bo‘lgan umumta’lim maktablari va qolaversa, maktabgacha ta’lim muassasalarida tizimli yo‘lga qo‘yish, bu ishni dars va darsdan tashqari faoliyatlar uyg‘unligida olib borish lozim. Ushbu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar va kuzatuvlarimiz umumta’lim maktablari va maktabgacha ta’lim muassasalaridagi musiqiy – estetik ta’lim va tarbiyaviy faoliyatlarni tahlili quyidagicha pedagogik talab va mezonlar asosida ish tutish maqsadga muvofiq bo‘lishi to‘g‘risidagi xulosaga kelishimizga sabab bo‘ldi:

1. Umumta’lim maktablarida o‘quvchi -yoshlarni xalq musiqa merosi namunlalari bilan maqsadli tanishtirish borish orqali ularda xalq musiqa ijodiga qiziqish va muhabbat tuyg‘usini uyg‘otish, xalq qo‘shiqlarini kuylash, sevib o‘rganish bilan o‘zi mansub bo‘lgan xalqning madaniyatiga chuqur hurmat, iftixor tuyg‘ularini shakllantirish sinf, sinfdan tashqari va maktabdan tashqari musiqiy faoliyatlar uyg‘unligida olib borilishiga e’tibor qaratish.

2. Dars va darsdan tashqari (badiiy havaskorlik to‘garaklari, madaniy – ommaviy va bayram tadbirlari, konsert dasturlarini tayyorlash, ko‘rik tanlovlarga tayyorgarlik va qatnashish kabilarda) faoliyatda xalq musiqa merosi namunalariga keng o‘rin berish va ularni tanlashda tarbiyaviy ta’sirchanlik xususiyatlarini inobatga olish va muayyan pedagogik talab va mezonlarga amal qilish o‘rinli bo‘ladi. Bu o‘rinda :

– xalq musiqasiga mansub kuy – qo‘shiqlarni har bir sinf bo‘yicha o‘quv dasturi va darsliklariga kiritilgan hamda erkin repertuar tanlash imkoniyatidan kelib chiqib o‘rganiladigan namunalarni o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilim va malakalar mazmuniga mosligiga e’tibor berish;

– xalq musiqasi namunalarining hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan xalq urf – odatlari, bayramlari, marosimlari, turli mahalliy uslublarga tegishliligi, shuningdek, madaniy ma’rifiy tadbirlar, konsert dasturlariga kiritish imkoniyatlarini e’tiborga olgan holda ish tutish;

– asarlarni o‘rganishda ta’limning boshqa tarkibiy qismlarini: musiqa savodi, musiqa tarixi, musiqa asarlari tahlili, musiqiy ijodkorlikni o‘zlashtirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatish xususiyatiga qaratish ham pedagog jihatdan to‘g‘ri yondashuv hisoblanadi.

3. Xalq musiqa merosiga mansub namunalarni ta’lim – tarbiya jarayoniga tadbiq etishda sinf dasturlariga kiritilgan va o‘rganiladigan mavzular bo‘yicha o‘quvchilarning nazariy bilim va amaliy ijrochilik ko‘nikma va malakalarini mustahkamlash nuqtayi nazaridan yondashgan holda amalga oshirib borilishi lozim. Bunday ish tutish musiqa darslarining faoliyat turlari bo‘yicha mashg‘ulotlarni mazmunli hamda sifat va samaradorlik kasb etishiga olib keladi. Darsdan tashqari faoliyatda o‘quvchilarning qiziqishlariga ko‘ra erkin tanlov asosida o‘rganilgan kuy – qo‘shiqlar musiqiy ta’limning asosiy maqsad va vazifalariga mos bo‘lishi e’tiborda tutilishi zarur.

4. Umumta’lim maktablarida faoliyat yurituvchi musiqa o‘qituvchilari o‘quvchilarni xalq musiqa merosiga mansub asarlar bilan tanishtirib borishda nazariy, amaliy ijrochilik, va uslubiy jihatdan muntazam ravishda o‘z bilim va malakalarini muttasil oshirib borishi, ko‘rgazmali va texnik vositalardan, ta’limning ilg‘or pedagogik va innovatsion texnologiyalaridan o‘rinli foydalanishlari o‘quvchilarda musiqa san’atiga, xususan, xalq musiqasini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish va ehtiyojlarini oshib borishiga ijobiy ta’sir etadi.

Xalq musiqa merosi namunalari orqali o‘quvchi yoshlarning musiqiy madaniyatini shakllantirishda qayd etilgan talab va mezonlar doirasida cheklanib qolmasdan bu yo‘lda doimiy ravishda izlanish, yangi – yangi usullardan, tajribalardan foydalanish asosida ish tutish musiqiy ta’lim va tarbiyani zamonaviy talablar asosida, milliy negizda takomillashtirib borishda yangi ufqlar ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I. Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, Ma’naviyat, 2008-yil.

2. Romanova .S.E. Qoraqalpoq milliy musiqiy an’analari asosida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini ma’naviy tarbiyalashning pedagogik asoslari.Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan Avtoreferat. –Toshkent, 2005-yil. 3-bet.

3. Abdukarimova E. Xalq ta’limi jurnali, 2001 yil, 5-son, 22-bet.

4. Hamidov H. O‘zbek an’anviy qo‘shiqchilik madaniyati tarixi. –T.: O‘qituvchi, 1996.

5. Abdukarimova E.I. Oliy Pedagogik ta’limda bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini mumtoz musiqa vositasida amaliy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish. Xalq ta’limi jurnali. – T., 2021. №3. 82-84-b.

Durdona UBAYDULLAYEVA
FarDU, Ingliz filologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi
durdonaxonubaydullayeva464@gmail.com

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA SHART KOMPONENTLI GIPOTAKSEMALARNING IZOMORFIK VA ALLOMORFIK JIHATLARI HAMDA ULARNI TAQOZO ETUVCHI OMILLAR

Annotatsiya: maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi shart komponentli gipotaksemalarning izomorfik va allomorfik jihatlari va ularni taqozo etuvchi omillar tahlil qilingan. Turli tizimga mansub bo‘lgan ingliz va o‘zbek tillarida shart komponentli gipotaksemalarning o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlashda ularning ta’rifi, tasnifi, struktur-semantik jihatlari hamda shart subordinatorlarining joylashish tartibi tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: *shart komponentli gipotaksema, izomorfizm, allomorfizm, sintaktik vosita, subordinatorlar.*

Annatation: the article analyzes the isomorphic and allomorphic aspects of conditional component hypotaxemes in English and Uzbek and the factors that require them. Their definition, classification, structural-semantic aspects, and the arrangement of conditional subordinators were analyzed in order to determine the similar and different aspects of conditional component hypotaxemes in English and Uzbek languages, which belong to different systems.

Key words: *conditional component hypotaxema, isomorphism, allomorphism, syntactic device, subordinators.*

Аннотация: в статье анализируются изоморфные и алломорфные аспекты гипотаксем условного компонента в английском и узбекском языках, а также факторы, обуславливающие их наличие. Проанализированы их определение, классификация, структурно-семантические аспекты, расположение условных подчинителей с целью выявления сходства и различий в гипотаксемах условного компонента в английском и узбекском языках, принадлежащих к разным системам.

Ключевые слова: *условный компонент гипотаксема, изоморфизм, алломорфизм, синтаксический аппарат, подчинители.*

Kirish. Ingliz va o‘zbek tillarida shart komponentli gipotaksemalarning izomorfik va allomorfik jihatlari bu aynan ikki tilda shu gaplarning o‘xshash va noo‘xshash xususiyatlari hisoblanadi. Izomorfik jihati o‘zaro o‘xshash bo‘lgan tomonlari bo‘lsa, allomorfik jihati esa ularning farqli tomonlaridir. Yuqoridagi qiyosiy tahlillarimizdan kelib chiqib shuni ta’kidlashimiz lozimki, analitik tillarga mansub ingliz tili va agglyutinativ tillarga kiruvchi o‘zbek tilidagi shart komponentli gipotaksemalar izomorfik va allomorfik jihatlarga ega. Ingliz va o‘zbek tillarida shart komponentli gipotaksemalarning izomorfik (o‘xshash) jihatlari quyidagilardir:

O‘zbek va ingliz tillarining eng muhim izomorfik jihati shundaki, har ikkala til ham shart ma’nosini ifodalovchi sintaktik vositalarga boy. Ular ma’lum monotaksemalar, gipotaksemalar, ega komponentli gipotaksemalar, to‘ldiruvchi komponentli gipotaksemalar, aniqlovchi komponentli gipotaksemalar, o‘rin komponentli gipotaksemalar, payt komponentli gipotaksemalar, proporsional komponentli gipotaksemalar, qiyos komponentli gipotaksemalar, parataksemalar va murakkab sintaktik butunliklardir. Bu vositalarning yig‘indisi birgalikda shart konsepti maydonini hosil qiladi. Shart konsepti maydon yadro (markaz) va periferiyadan tashkil topadi.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi shart munosabatlarini ifodalovchi vositalar o‘rtasidagi asosiy farqlar ularning yuzaki strukturasida, ishlatilishida, qoliplarining sonida va stilistik xususiyatlaridadir.

Shart komponentli gipotaksemalarning ta’rifiga to‘xtalsak, deyarli ikki tilda (ingliz va o‘zbek tillarida) shart komponentli gipotaksemalarga berilgan ta’rif bir xil desak ham bo‘ladi.

Ikkala tildan kelib chiqib, biz shart komponentli gipotaksemalarga quyidagicha ta’rif beramiz:

“Shart komponentli gipotaksemalar shunday SHKGki, unda kamida bir bosh gap va bir tobe komponent bo‘lib, tobe komponent bosh gapdan anglashilgan ish – harakatning (shart, zaruriyat kabilarni) amalga oshirilishi uchun qaysidir ish harakatni bajarish zaruriyatini nazarda tutadi.” Ta’rifning bir xil ekanligi bu ularning izomorfik (o‘xshash) jihatidir.

Muhokama. Ingliz va o‘zbek tillarida SHKGlarning shart komponent qismi bosh gapga nisbatan postpozitiv, prepozitiv, interpozitiv tartibda joylashadi. Ikki tilda ham ularning kelish tartibi erkindir.

Ingliz va o‘zbek tillarida SHKGlarning shart komponentlari asosan bosh gapga quyidagi yo‘llar bilan bog‘lanadi;

Ingliz tilida:

1) shart subrodinatorlari (if, unless, if not, once, in case)

2) that bog‘lovchisi bilan keluvchi fel so‘z turkumidagi bog‘lovchi so‘zlar yordamida (considering (that), admitting (that), presuming (that), seeing (that) assuming (that), allowing that, on the understanding that, with the understanding that, conceding that)

3) shart subordinatorlari vazifasida keluvchi so‘zlar (while, whereas)

4) so‘roq olmoshlari yordamida (when, who)

O‘zbek tilida:

1) shart subordinatorlari yordamida (agar, agarda, mabodo, basharti, koshki)

2) sintetik subordinatorlar yordamida (-sagina, -sa-chi, -sa bormi, -sa edi, -sa ekan, -sa qaniydi)

3) bog‘lovchi vazifasidagi so‘zlar yordamida (yo‘qsa, bo‘lmasa, aks holda)

Ingliz va o‘zbek tillarida SHKGlarning izomorfik jihatlari quyidagicha:

1) Har ikki tilda SHKGlar bosh gapdan anglashilgan voqea, hodisa, belgi-xususiyatning qanday shart-sharoitlarda ro‘y berishi yoki ro‘y bermasligini ko‘rsatadi.

2) Ular kamida ikki komponentdan bosh va tobe komponentlardan iborat.

3) SHKGlar komponentlarini bog‘lashda shart subordinatorlari qo‘llanadi, bu ularning sindetik turidan dalolat bersa, komponentlari subordinatorsiz (so‘z tartibi o‘zgarishi orqali) bog‘lanadigan SHKGlar ham mavjud.

4) Har ikkala tilda subordinatorlar tobe komponent oldidan qo‘llaniladi, o‘zbek tilida esa ular eron tillaridan oligan subordinatorlar (agar, gar, basharti, mabodo)

5) Har ikkala tilda SHKGlarda tobe (shart yoki konditsional) komponent bosh gapga nisbatan boshida, o‘rtasida, oxirida kela oladi.

6) Har ikkala tilda SHKGlarda tobe komponent bosh komponentdan oldin kelish holatlari ustun.

Ingliz va o‘zbek tillarida SHKGlarning allomorfik jihatlari quyidagicha:

1) SHKG turlari son jihatdan farqlanadi.

2) Ingliz tilida barcha subordinatorlar analitik vositalar, o‘zbek tilida esa sintetik, analitik va analitik sintetik vositalar yordamida ifodalanadi.

3) Ingliz tilida “if” komponentli SHKG son jihatdan ustun, o‘zbek tilida esa “-sa” sintetik subordinatori orqali bosh komponentga bog‘langan tobe komponentlar ko‘pchilikni tashkil etadi.

4) SHKGlar ikkala tilda yuzaki strukturasi bilan farqlansa, ichki ma’no jihatdan asosan farqlanmaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, ingliz va o‘zbek tillarida bog‘lovchi vositalarning o‘xshash jihatlari ham mavjud. Masalan, o‘zbek tilidagi agar,gar, garchi, agarda, mabodo, basharti, koshki, zora, agarda, aks holda, bo‘lmasa, yo‘qsa va.xkzlar kabi bog‘lovchilar ingliz tilidagi if, in case, once, unless, providing that, supposing that, provided that, granting that, granted that, assuming that, presuming that bog‘lovchilariga to‘g‘ri keladi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ingliz va o‘zbek tillardagi SHKGlarning izomorfik va allomorfik jihatlari ulardagi ma’lum tipologik qonuniyatlar bilan tushuntiriladi. Bunday qonuniyatlar qiyoslanayotgan tillarning tipologik xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, mazkur tillarning qaysi tipga mansubligi bilan belgilanadi. Ingliz tili analitik tipdagi SVO tillar qavmiga mansubligi uning SHKGlarida komponentlar o‘rtasida faqat analitik subordinativ vositalar qo‘llanilishini, o‘zbek tili esa agglyutinativ tipdagi SOV tillar qavmiga tegishli bo‘lganligi uchun unda mazkur gaplarning komponentlarini faqat analitik-sintetik va sintetik subordinativ vositalar orqali bog‘lanishini kuzatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдураҳмонов Ғ.А. Қўшма гап синтаксиси асослари. Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1958.
2. Нурмонов А, Махмудов Н, Ахмедов А, Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент Фан, 1992.
3. Хошимов Ғ. М. Типология сложных предложений разносистемных языков. – Т.: Фан, 1991

Mahliyo SHERQULOVA
Tayanch doktorant, O‘zDJTU
mahliyo0707@mail.ru

REKLAMA SLOGANI TUSHUNCHASI VA UNING FUNKSIYALARI

Annotatsiya: maqolada reklama slogani tushunchasining asosiy xususiyatlari yoritib berilgan va uning brend identifikatori sifatidagi funksiyasi tahlil qilib berilgan. Brend identifikatori sifatida reklama sloganlari brend qiymatini oshirish, mijoz bilan hissiy aloqa o‘rnatish, global kengayishga yordam berish va boshqa raqiblardan differensiatsiya qilis kabi vazifalarni bajaradi.

Kalit so‘zlar: *diskurs, brend, identifikator, differentsiatsiya, reklama slogani.*

Аннотация: в статье выделены основные особенности понятия рекламного слогана и проанализирована его функция как фирменного стиля. В качестве фирменного стиля рекламные слоганы выполняют такие задачи, как повышение ценности бренда, установление эмоциональной связи с покупателем, содействие глобальному расширению и дифференциации от других конкурентов.

Ключевые слова: *дискурс, бренд, идентичность, дифференциация, рекламный слоган.*

Annatation: the article discusses the main features of an advertising slogan and analyzes its function as a brand identity. As a brand identity, advertising slogans perform tasks such as enhancing brand equity, establishing an emotional connection with the buyer, promoting global expansion and differentiation from other competitors.

Key words: *discourse, brand, identity, differentiation, advertising slogan.*

Kirish. Reklama diskursi tili haqida gap ketganda, turli xil strukturaga ega bo‘lgan og‘zaki va yozma diskursni farqlash muhim hisoblanadi. Og‘zaki reklama diskursi leksik va grammatik jihatdan turli xillilikka boy va bunda urg‘u va intonatsiya alohida ahamiyatga ega. Yozma reklama diskursi ozining alohida tuzilish konstruksiyasiga ega. Bunda punktuatsiya (tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llash) muhim hisoblanadi. Og‘zaki reklamalardagi urg‘u va intonatsiya hamda yozma reklamalardagi tinish belgilari ritmni belgilab beradi va tomoshabin tomonidan tushunilishida muhim rol o‘ynaydi. So‘zli matnlar quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘ladi:

1. Slogan
2. Sarlavha
3. Asosiy reklama matni
4. Exo-ibora

Har qanday reklamaning ajralmas komponenti, uning mafkuraviy ildizi “slogan” bo‘lib, reklamaning qisqacha mustaqil xabari, yaxshi eslab qolinadigan va yorqin jumlasidir. Atama etimologiyasiga e’tibor qilsak, slogorn - anglo-sakslar, sluagh-ghairm - Irlandiya va Shotlandiyada talaffuz qilingan. “Slaugh” – “jangchi” + “ghairm” – “qo‘shiq” degan ma’noni anglatadi. Uzoq vaqt davomida uning sinonimlari sifatida reklama lozungi, jarangdor chiziq, reklama sarlavhasi, reklama iborasi, reklama devizi kabilar qo‘llanilib kelingan. O‘zbek tilida reklama shiori slogan atamasiga mos keladi. [1:84]

Ko‘plab tadqiqotchilar reklama slogani tushunchasini ta’riflashda bir fikr borasida to‘xtalishgan. Reklama slogani- bu aniq, qisqa va lo‘nda, reklamaning asosiy g‘oyasini osonlik bilan idrok qilishga va esda saqlashga qaratilgan faoliyat natijasi. Bu qisqa, tushunarli va yengil talaffuz etiluvchi ibora, tasvir nomining yoki savdo markasining asosiy mantiqiy elementidan iborat bo‘lib, firmaning mohiyati va falsafasini, uning turli sohalardagi bir butun siyosatini ifodalaydi. Sloganning o‘rtacha hajmi 4-5 so‘zdan iborat bo‘lib, maksimal hajmi esa qoida bo‘yicha 7 ta so‘zdan oshmaydi. Slogan quyidagicha bo‘lishi zarur:

- qisqa;
- esda qoladigan;
- savdo markasi nomidan iborat bo‘lishi;
- boshqa tillarga to‘liq darajada tarjima qilanadigan bo‘lishi; [3:251]

Reklama samaradorligining 75% muvaffaqiyatli shioriga bog‘liq deb ishoniladi, chunki agar shior iste’molchiga qiziq bo‘lmasa, unda matnning qolgan qismi ham qiziqish uyg‘otmaydi.[4:18]

Reklama slogani asosiy funksiyalaridan biri bu brend identifikatori bo‘lib xizmat qilishidir. Brendni identifikatsiyalash strategiyasini ishlab chiqish bozorda kuchli va unutilmas ishtirokni rivojlantirishga intilayotgan tashkilotlar uchun juda muhimdir.[2:44] Ushbu strategiyada reklama shiorlari muhim ahamiyatga ega, chunki ular brendning e'tiqodlari, shaxsiyati va va'dalarini qisqa va ta'sirli tarzda ifodalaydi. Reklama shiorlari, masalan, McDonald's "Men uni sevaman" yoki Apple "Think other" kabi iste'molchilar ongida brendning o‘ziga xosligini mustahkamlash uchun ishlatiladi. Brend identifikatori har qanday biznes marketing strategiyasining muhim qismidir va reklama shiorlari ushbu o‘ziga xoslikni shakllantirish va mustahkamlashga yordam beradi. Brendning o‘ziga xosligi uning qadriyatlari, shaxsiyati, missiyasi va mijozlarga va'dasini o‘z ichiga oladi va reklama shiorlari bu xususiyatlarni aniq va esda qolarli tarzda yetkazishning samarali usuli hisoblanadi.

Quyida brend identifikatorini mustahkamlovchi sloganlarga misol keltirilgan:

Apple: "Think Different" - brendning innovatsion va ijodiy xususiyatini ta'kidlaydi;

Coca-Cola: "Taste the Feeling" - brendning hissiy jozibasi va zavqini ifodalaydi;

Volvo: "Safety First" - brendning asosiy taklif qiladigan qiymati xavfsizlik ekanligini ta’kidlaydi;

Starbucks: "The Third Place" - brendni mijozlar uchun mehmondo‘st joy sifatida ta’riflaydi;


Google: "Don't Be Evil" - brendning uchun axloqiy normalar muhimligini ifodalaydi;

Amazon: "Earth's Biggest Selection" - brendning keng turdagi mahsulot takliflari va qulayligini ta'kidlaydi;

Disney: "The Happiest Place on Earth" - brendning quvonch va o‘yin-kulgi bilan bog‘liqligini aks ettiradi;

Tesla: "Accelerating the World's Transition to Sustainable Energy - brendning missiyasi va barqarorlikka sodiqligini ta'kidlaydi.

Brend identifikatori biznesning muvaffaqiyati va uzoq umr ko‘rishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. U bir nechta asosiy funksiyalarni bajaradi:



1. Differensiatsiya: Bugungi gavjum bozor sharoitida brendlar o‘zlarini raqobatchilardan farqlashlari kerak. To‘g‘ri tanlangan reklama slogani orqali brendning o‘ziga xos xususiyatlari, takliflari yoki asosiy tamoyillarini ta'kidlash va ajralib turishi mumkin. Noyob va o‘ziga xos shiorni yaratish brendning raqobatchilardan ajralib turishiga va kuchli o‘ziga xoslikni shakllantirishga yordam beradi.

2. Izchillik. Bir nechta marketing platformalarida bir xil reklama shiorini ishlatadigan korxonalar o‘zlarining brendini kuchaytirishi va izchil brend imidjini yaratishi mumkin. Mijozlar brenddan doimiy foydalanganida uni tan olishlari va unga sodiq qolishlari ehtimoli ko‘proq.

3. Brend pozitsiyasi: reklama sloganlari brendning bozordagi o‘rnini bildirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Ifodalanayotgan xabardan qat'iy nazar sloganlar sifat, arzonlik, innovatsiya yoki mijozlarga yo‘naltirilganlik kabi brendning asosiy qadriyatlarini va maqsadli auditoriyaga kerakli imidjini samarali ifodalashi mumkin.

4. Hissiy aloqa: Kuchli reklama sloganlari o‘z auditoriyasida o‘ziga xos his-tuyg‘ularni, qadriyatlarni va istaklarni yaratish qobiliyatiga ega. Hikoya, yumor yoki emotsional tildan foydalanish orqali iste'molchilar bilan hissiy aloqani yaratishi mumkin, bu ularning ishonchini, sodiqligini va biznes bilan ijobiy aloqalarini kuchaytiradi.

5. Global kengayish: To‘g‘ri belgilangan brend identifikatori turli bozorlarda izchil va taniqli imidjni taqdim etish orqali global miqyosda tanilishni osonlashtirishi mumkin. Bu kompaniyalarga o‘z brendini mahalliy qadriyatlarga moslashtirish bilan birga, global miqyosda ham tan olinishga yordam beradi.

6. Xodimlarni jalb qilish: Aniq brend identifikatori xodimlarni maqsad va yo‘nalish hissi bilan ta'minlash orqali ularning faolligini oshirishi mumkin. Xodimlar brendning qadriyatlarini to‘liq tushunib, qabul qilsa, ularning ish samaradorligi yanada oshishi mumkin.

7. Brend qiymati: Brend identifikatori iste'molchilar ongida brendning qabul qilingan qiymati bo‘lgan brend tengligiga hissa qo‘shadi. Kuchli brend identifikatori brend kapitalini oshirishi va uni kompaniya uchun yanada qimmatli qilishi mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, reklama shiorlari brend identifikatori sifatida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. U brendni tan olish va iste'molchilar ongida o‘ziga xoslikni o‘rnatish uchun kuchli vosita bo‘lib xizmat qiladi. Yoqimli va esda qolarli shiorlar orqali kompaniyalar o‘zlarining qadriyatlari, missiyasi va mahsulot takliflarini maqsadli auditoriyaga samarali yetkazishlari mumkin. Yaxshi ishlab chiqilgan slogan hissiyotlarni uyg‘otish, ishonchni mustahkamlash va brendni raqobatchilardan farqlash imkoniyatiga ega. Shunday qilib, kuchli reklama shiorini ishlab chiqish uchun vaqt va resurslarni sarflash bugungi raqobat bozorida brendning muvaffaqiyati va uzoq umr ko‘rishiga katta hissa qo‘shishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev B.X O‘zbek reklama lingvistikasi:nazariya va amaliyot. 2020
2. Ibaydullayev F Reklama- uning turlari va ta’sir etishning samarali usullari. Andijon. 2000
3. Mamirova D.SH The social phenomenon in advertising language. NamDU ilmiy axborotnomasi. 2020, 251
4. Tairova M.M, Abdulloev A.J Brendni boshqarish: o‘quv qo‘llanma / Buxoro: OOO "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2021.148 b.

Abror RAYXONOV
Qarshi davlat universiteti,
Sport faoliyati kafedrasi o‘qituvchisi
abrorrayxonov47@gmail.com

FUTBOL O‘YINIDA QOIDALARNING YARATILISH VA RIVOJLANISH TARIXI

Annotatsiya: ushbu maqola millionlar o‘yini bo‘lmish futbolga bag‘ishlangan bo‘lib, futbol o‘yinining inson hayotidagi ahamiyati, futbolning mazmuni va futbol o‘yini qoidalarining dastlabki yaratilishidan hozirgi kundagi rivojlangan holatlari haqida keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *futbol, qoidalar, halol o‘yin, umumiy bir xil qoidalar.*

Аннотация: эта статья посвящена футболу, игре миллионов, а также значению футбола в жизни человека, значению футбола и развитию футбольных правил от истоков и до наших дней.

Ключевые слова: *футбол, правила, честная игра, общие правила одинаковы.*

Annotation: this article is dedicated to football, the game of millions, and the importance of football in human life, the meaning of football and the development of football rules from the beginning to the present.

Keywords: *Football, rules, fair play, same general rules.*

Futbol – Yer sharidagi eng ommabop sport turlaridan biri bo‘lib, bu o‘yinni yer yuzidagi barcha mamlakatlarda turli yosh toifalaridagi insonlar sevib o‘ynashadi. Butun dunyoda – FIFAning Jahon chempionati finalidan tortib, Sayyoramizning eng olis joylaridagi bolalar o‘rtasidagi o‘yinlargacha futbol qoidalari bir xil tarzda tashkil etilgan.

Jahonning har bir Konfederatsiyasi, mamlakati, shahri va qishlog‘idagi barcha o‘yinlarda yagona qoidalarning qo‘llanilayotgani – bu katta ustunlik bo‘lib, uni asrab qolish, rivojlantirish va takomillashtirish muhim hisoblanadi [1]. Shuningdek, bu hamma joyda futbol o‘yinining to‘g‘ri va halol o‘ynalishi uchun qo‘llash mumkin bo‘lgan yagona imkoniyat hisoblanadi.

Qoidalar o‘yin halol bo‘lishi uchun xizmat qilishi kerak. Boisi, chiroyli o‘yinning asosi undagi adolat bo‘lib, bu futbol “Ruhiyati”ning o‘ta muhim qismi hisoblanadi. Eng yaxshi o‘yinlarda hakamlarning borligi ham sezilmaydi, chunki unda futbolchilar bir-birlari bilan va uchrashuvning rasmiy shaxslari hamda o‘yin qoidalariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishadi.

Qoidalarning yaxlitligi shundaki, ushbu qoidalar asosida hakamlar qabul qilgan qarorlarni doimo hurmat qilish va ularni qarorini himoya qilish zarur hisoblanadi. Vakolatli barcha shaxslar, ayniqsa, murabbiylar va jamoa sardorlari uchrashuv rasmiy shaxslari, hakamlarning qarorlarini hurmat qilish uchun mas’ul hisoblanishadi.

Qoidalardagi o‘zgarishlarni boshqarish: Futboldagi dastlabki universal Qoidalar 1863- va 1886-yillarda ishlab chiqilgan. Xalqaro futbol assotsiatsiyalari kengashi (IFAB) xalqaro tashkilot sifatida Britaniyaning to‘rtta futbol assotsiatsiyalari (Angliya, Shotlandiya, Uels va Shimoliy Irlandiya) tomonidan tashkil qilingan bo‘lib, uning yagona vazifasi o‘yin Qoidalarini rivojlantirish va saqlab qolishdan iborat bo‘lgan [2].



FIFA 1913-yilda IFABga qo‘shilgan. IFAB Qoidalarga o‘zgartirish kiritishda bu narsa o‘yinga foyda keltirishiga ishonch hosil qilishi lozim bo‘lsagina o‘zgarishni kiritgan. Bu esa har qanday kiritilishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlar dastlab sinovdan o‘tkazilishini bildiradi. Masalan, uchrashuvning rasmiy shaxslari uchun yangi kiritilgan qizil va sariq kartochkalar, darvoza maydonidan to‘pni o‘yinga kiritish va o‘yinchi almashtirilish tartibidagi o‘zgarishlarda bo‘lgani kabi [4]. Har bir taklif

qilinayotgan o‘zgarishda asosiy e’tibor adolatga, yaxlitlikka, hurmatga, xavfsizlikka, ishtirokchilarning o‘yindan zavq olishiga, shuningdek, texnologiyalar o‘yinga qanday foyda keltirishi mumkinligiga e’tibor qaratilishi darkor hisoblangan. Qoidalar ishtirokchilarning kelib chiqishi va imkoniyatlaridan qat’i nazar, ularni ruhlantirishi lozim deb qaralgan.

Ba’zida baxtsiz hodisalar ro‘y berib turishiga qaramay, Qoidalar o‘yinni maksimal darajada xavfsiz qilishi kerak. Buning uchun o‘yinchilar o‘z raqiblarini, hakamlarni hurmat qilishlari kerak, haddan tashqari tajovuzkor va qaltis o‘ynayotgan futbolchining harakatlariga barham berib, xavfsiz sharoit yaratishlari talab etiladi. Qoidalar o‘zining intizomiy iboralarida xavfli o‘yin qabul qilinmasligini o‘z ichiga oladi. Masalan: “qaltis harakat” ogohlantirish (sariq kartochka) bilan jazolanadi, “raqibning sog‘ligiga xavf solgan” yoki “haddan ziyod kuch ishlatgan” futbolchi maydondan chetlatiladi (qizil kartochka) [3].

Futbol o‘yinchilar, hakamlar, murabbiylar, oddiy ishqibozlar, fanatlar va boshqalar uchun jozibador va yoqimli bo‘lishi kerak bo‘lib, Qoidalar o‘yinning qiziqarli bo‘lishiga xizmat qilishi kerak. Insonlarning yoshi, irqi, dini, madaniyati, etnik kelib chiqishi, jinsi, oriyentatsiyasi, jismoniy imkoniyatlari va hokazolardan qat’i nazar futbol jarayonida ishtirok etishni istashlari va unga aloqadorlikdan zavq olishlari kerak.

Futbol qoidalari boshqa jamoaviy sport turlariga nisbatan sodda, ammo o‘yinda ko‘p o‘ziga xos vaziyatlar yuzaga keladi. Hakamlar ham inson (xato qilishlari mumkin) bo‘lgani sababli, ularning ba’zi qarorlari bahs va munozaralarni keltirib chiqaradi. Mazkur munozaralar ba’zi insonlar uchun o‘yinning jozibadorligi va undan zavq olishning bir qismi bo‘lib, qarorlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bo‘lishidan qat’iy nazar o‘yinning “ruhiyati” hakamning qaroriga hamisha hurmat bilan qarash kerakligini talab etadi.

O‘yin qoidalari yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan barcha vaziyatlarni qamrab ola olmaydi. Shu bois, Qoidalarda ko‘zda tutilmagan vaziyatlarda IFAB hakamdan o‘yin “ruhiyati”dan kelib chiqib qaror qabul qilishni kutadi. Bunda ko‘pincha “Futbol nimani istagan bo‘lardi yoki futbol nimani kutgan bo‘lardi?” – degan savolga javob topish kerak bo‘ladi.

IFAB Qoidalardagi o‘zgarishlar barcha darajada va Sayyoramizning har bir burchagida futbolga manfaat keltirishi uchun jahon futbol oilasi bilan hamkorlik qilishda davom etadi. Shu tariqa, o‘yinning yaxlitligi, Qoidalar va hakamlar hurmat qilinadi, qadrlanadi va himoya qilinadi.

2016-2017-yilgi mavsumda o‘yin Qoidalarini qayta ko‘rib chiqish IFAB tarixida har tomonlama keng o‘zgarishlar davrini boshlab berdi.

Maqsad – Qoidalarni yanada aniqroq, yanada hammabop qilish bo‘lib, u, shubhasiz, barcha darajadagi zamonaviy o‘yinning talablarini o‘zida aks ettira olishi kerak bo‘ldi. Ko‘p o‘zgarishlar – alohida shaxslar, guruhlar va milliy futbol assotsiatsiyalari tomonidan berilgan takliflar natijasi bo‘lib, ular IFABning futbol va texnik maslahatlar qo‘mitalarida ko‘rib chiqilgan. Bu orqali futbolning barcha sohalari Qoidalarning rivojlanishiga yordam berishini kafolatlash lozim. Boisi, Qoidalar faqatgina hakamlar uchun emas, futbol o‘yinida ishtirok etadigan barcha uchun mo‘ljallangan bo‘lishi lozim.

Qoidalar 2016-2017-yildan boshlab eng so‘nggi o‘zgarishlar ko‘p tamoyillarni kengaytirdi. “Halol o‘yin!” strategiyasida ta’kidlanganidek, barcha darajada futbolning jozibadorligini oshirishga harakat qilish kerak. Shundan kelib chiqib, 2017-yilgi yillik bosh majlis (AGM) quyi darajadagi futbolning rivoji uchun ba’zi sezilarli o‘zgarishlarni tasdiqladi [5]. Jumladan:

– o‘z mamlakatida futbolni rivojlantirish maqsadida Milliy futbol assotsiatsiyalarining imkoniyatlarini kengaytirish uchun Qoidalardagi ba’zi tashkiliy jihatlarini modifikatsiya qilish;

– yoshlar, faxriylar, imkoniyati cheklangan insonlar o‘rtasidagi va ommaviy futbol o‘yinlarida muqobil jazo chorasi sifatida vaqtinchalik chetlatish (qoidabuzarlar o‘rindig‘i)dan foydalanish imkoniyatini taqdim etish;

– yoshlar, faxriylar va imkoniyati cheklangan insonlar o‘rtasidagi futbol o‘yinlarida (ommaviy futbolda bo‘lganidek) o‘yinchini qayta almashtirish imkoniyatini kengaytirish.

2018-yilning mart oyida IFABning Yillik bosh majlisi navbatdagi bir qator o‘zgarishlarni tasdiqladi. Ulardan ikkitasi musobaqalar uchun muhim ahamiyatga ega bo‘ldi:


– qo‘shimcha bo‘limlarda yana bitta o‘yinchi almashtirishga ruxsat berish va videoyordamchi hakam (VAR)dan foydalanish.

Qo‘shimcha bo‘limlarda yana bitta o‘yinchi almashtirish imkoniyati futbolning barcha toifalari uchun manfaatli bo‘ldi. Boisi, maydonga tushirilgan yangi futbolchi o‘ynayotgan o‘yinchining madori qurishi yoki jarohatlanishining oldini oladi hamda qo‘shimcha bo‘limlarda o‘yin taqdirini hal qilish imkoniyatini oshiradi.

VARning joriy qilinishi so‘nggi yuz yillikda professional futboldagi eng katta inqilob bo‘ldi. Mazkur texnologiya orqali qabul qilinadigan qaror o‘yinning uzluksizligiga putur yetkazmaydimi, hissiyotlarni so‘ndirib qo‘ymaydimi, mazmunidagi qizg‘in bahs-munozaralarga ko‘p yillar kerak bo‘lganini inobatga olsak, bu hayratlanarli darajada tezkor inqilob bo‘ldi.

VAR qo‘llanilgan dastlabki o‘yin 2016-yilning 12-avgust kuni AQShning Nyu-York shtatidagi Nyu-

Jersi shahrida bo‘lib o‘tdi. E’tiborli tomoni, oradan atigi 23 oy o‘tib, VAR Moskva shahrida bo‘lib o‘tgan 2018-yilgi Jahon chempionati finalida qo‘llanildi. VAR hech qachon barcha munozarali vaziyatlarni hal qilib bermaydi, boisi, ko‘p qarorlar o‘ziga xos xarakterga ega bo‘ladi.



Shunga qaramay, bu texnologiyadan foydalanayotgan ko‘pgina yetakchi mamlakatlar shuni ko‘rsatmoqdaki, VAR futboldagi adolatni o‘rnatishda yordam bermoqda va o‘yinchilarning xulqiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Qoidalar 2019-2020-yildagi ko‘p o‘zgarishlar o‘yinning borishiga va uning mavqeyiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan:

– to‘pni darvoza maydonidan o‘yinga kiritish chog‘ida to‘p jarima maydonini tark etishi shart emasligi o‘yinni tashkil qilishni tezlatdi;

– jarima zarbasi paytida hujum qilayotgan o‘yinchilarning “jonli devor”da turishiga ruxsat berilmasligi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan to‘qnashuv va mojarolar (shuningdek, o‘yinning cho‘zilishi)ning oldini oladi;

– to‘p tashlab berishning adolatliroq tartibi hozirgi “suiste’mol qilishlar”ga barham beradi;

– to‘p hakamga tegib darvozaga kirsa, to‘pni nazorat qilayotgan jamoa almashsa yoki yangi hujum boshlansa, to‘p tashlab berish orqali o‘yinga kiritiladi.

Qoidalardan foydalanish bo‘yicha IFAB talablarining qismi sifatida ishtirokchilarning xulqi va o‘yin mavqeini yaxshilash maqsadida jamoalarning o‘zini nomunosib tutgan rasmiy shaxslari endi sariq va qizil kartochkalar bilan jazolanadi. Agar qoidabuzarni aniqlashning imkoni bo‘lmasa, u holda kartochka murabbiylardan lavozimi bo‘yicha kattasiga ko‘rsatiladi.

IFAB Qoidalarga sezilarli o‘zgartirish kiritish bo‘yicha tajribalarni davom ettiradi.

Tajribalarning aksariyati muvaffaqiyatli chiqdi, lekin “AB-BA” shaklidagi o‘yindan keyin penaltilar seriyasi, ya’ni dastlabki jamoa bir marta zarba berganidan keyin jamoalar ikki martadan zarbani amalga oshirish tizimi u qadar ommalashmadi. Boisi u murakkab tizim edi. Futbol esa tabiatan oddiy (va an’anaviy) o‘yin hisoblanadi. Shu bois mazkur tajriba to‘xtatildi.

Xulosa qilib aytganda futbol o‘yini o‘zining ko‘p yillik tarixi va o‘ziga xos o‘yin tizimiga ega. Uning rivoji hamda mashhurligini o‘yinchilar bilan birga xalq, ya’ni muxlislar belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abidov Sh.U. Yosh futbolchilarning o‘quv-mashg‘ulot jarayonini tashkil qilish va rejalashtirish. Uslubiy tavsiyanoma. – T., 2011.
2. Yusupov N.M. Yuqori malakali futbolchi qizlar tezlik-kuch tayyogarligining vosita va usullari. Uslubiy qo‘llanma. – T., 2011.
3. Davletmuradov S.R. Trenirovka kvalifitsirovanngx futbolistov v podgotovitelnom periude. Metodicheskiye rekomendatsii. – Tashkent – 2012.
4. Акрамов Р.А. Игровьге и тренировьгчнме нагрузки в футболе. Учебное пособие. – Т., 2000.
5. Варюшин В.В. Тренировка юнмх футболистов. Учебное пособие. Москва, 2007.
6. Акрамов Р.А. Талипджанов А.И. Подготовка футболистов вьюокой квалификатсии. Учебное пособие. Ташкент, 1994.
7. O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasining rasmiy tarjimasi. 2019-yil 1-iyun.

Dildora TASHMUXAMEDOVA
Xitoy filologiyasi kafedrasi I bosqich doktoranti, TDSHU

XITOY TILI TAQLID SO‘ZLARIDA INITSIAL ISHTIROKINING STATISTIK TAHLILI

Annotatsiya: xitoy tilida bo‘g’in, tovush va ma’no bir iyeroglif doirasida birlashgani sababli xitoy tili leksikasini tahlil qilish birmuncha murakkabliklarni tug’diradi. Taqlid so‘zlar hamda ular anglatadigan ma’no iyeroglif tarkibidagi birliklarning fonetikadagi o‘rniga bog’liq. Ushbu maqolada xitoy tili taqlid so‘zlarida initsiallar ishtiroki va ularning umumiy taqlid so‘zlardagi roli yoritilib, statistik tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *taqlid so‘zlar, xitoy tilida initsial, xitoy tilida final, fonetika, undosh tovushlar, unli tovushlar.*

Аннотация. анализ лексики китайского языка вызывает некоторые затруднения, поскольку в китайском языке слог, звук и значение объединены в одном иероглифе. Звукоподражательные слова и их значения зависят от фонетического положения иероглифических единиц. В данной статье выделено и статистически проанализировано участие инициалов в китайских словах-имитациях и их роль в общих словах-имитациях.

Ключевые слова: *звукоподражательные слова, инициалы китайского языка, финалы китайского языка, фонетика, согласные, гласные.*

Annotation: analyzing the lexicon of the Chinese language causes some complications because syllable, sound and meaning are combined in one hieroglyph in the Chinese language. Onomatopoetic words and their meanings depend on the phonetic position of the hieroglyphic units. In this article, the participation of initials in the Chinese onomatopoeia and their role in general onomatopoeic words is highlighted and statistically analyzed.

Key words: *onomatopoeic words, initials in Chinese, finals in Chinese, phonetics, consonants, vowels.*

Xitoy tili fonetikasi birmuncha murakkab bo‘lib, eng kichik morfema – bu iyeroglifdir. Xitoy belgilari bir morfema, bir bo‘g‘in, bir tovush hamda ma’no birlashuvidan hosil bo‘ladi. Biz iyeroglif tovushini tahlil qilish uchun, pinyindan foydalanamiz va aynan lotin alifbosi harf va tovushlarini hozirgi zamon xitoy tili fonetikasi sifatida o‘rganamiz.

Undosh tovushlar ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra 7 turga bo‘linadi :

1. 塞音 (portlovchi) – artikulyatorning ikki qismi bir biriga yaqinlashtirilib, havo oqimi o‘tishini butunlay to‘xtatib qo‘yadi. To‘siqni olib tashlaganda birdan havo oqimi tashqariga chiqib, portlovchi undoshlarni hosil qiladi. Bundan tovushlarga b, p, d, t, g, k kabi tovushlar kiradi.

2. 擦音 (sirg‘aluvchi) – artikulyatorlar bir biriga yaqinlashib, havo oqimi uchun tor bo‘shliq hosil bo‘ladi hamda tovushlar sirg‘alib chiqadi. Bunday tovushlarga f, s, sh, r, x, h misol bo‘la oladi.

3. 塞擦音 (qorishiq undosh) – Ovoz organining ikki qismi dastlab bloklanadi, so‘ngra to‘siq bo‘shatilib, so‘ngra to‘siq bo‘shashib, bo‘shliq hosil qiladi, bu havo oqimining ishqalanish orqali chiqib ketishiga imkon beradi, natijada affrikatlar paydo bo‘ladi. Affrikatlardagi portlash hamda frikativ jarayon chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular odatda bitta artikulyar jarayon sifatida qaraladi. Hozirgi zamon xitoy tili tovush tizimida z, c, zh, ch, j va q affrikatlar sanaladi.

4. 边音(lateral undosh) – havo oqimi tilning ikki tomoni bo‘ylab o‘tib, boshlang‘ich undoshni hosil qiladi va talaffuz paytida tovush paychalari tebranadi. Bunga l tovushi misol bo‘la oladi.

5. 鼻音(burun tovushi) – talaffuz paytida og‘izdagi havo oqimi yo‘li yopiladi, yumshoq tanglay cho‘kadi va burunning ventilyatsiyasi orqali tovush chiqariladi. m, n, ng kabilar. “n” bilan tugaydigan finallar oldingi burun tovushlari, “ng” bilan tugaydigan finallar esa orqa burun tovushlaridir.

Hozirgi zamon xitoy tilida 22 ta shengmu va 38 ta yunmu mavjud. Ohangni hisobga olmasak, shengmu va yunmular nisbatidan maksimal 836 ta tovush hosil qilish mumkin (22x36=836). Aslida esa, 407 ta tovush bo‘lib, undan 130 tasi taqlid so‘zlarda uchraydi .

Taqlidlarni hosil qilgan tovushlar initsiallarning 39tasi塞音, 26 tasi擦音, 29 tasi 塞擦音, 10 tasi边音, 7 tasi 鼻音 hisobiga to‘g‘ri kelib, qolgan 19 ta tovush finallarning o‘zidan hosil bo‘lgan (Jadval 1). Tovush paychalarining tebranishiga qarab esa, 130 tovushdan 20 tasi浊音, 91 tasi清音 undoshidan boshlanib, 19 tasi esa faqat finaldan tashkil topgan. (Jadval 1).



Jadval 1

塞音 guruhiga kirgan 39 taqlid tovushlar portlovchi 6 tovushdan, ya'ni initsialdan boshlanib, umumiy taqlidlar hamda portlovchilar orasida eng katta ulush d shengmusiga to'g'ri keladi. Eng kam ko'rsatkichli portlovchi esa b bo'lib, umumiy taqlidlarning 4% qismi shu portlovchiga to'g'ri keladi (jadval2).

№	Taqlid tovushlari	Portlovchi initsiallardagi ulushi	Taqlid tovushlardagi ulushi
1.	ba, bo, bang, beng, biao	13%	4%
2.	pa, po, pang, peng, pi, ping, pu	18%	5%
3.	da, de, dao, dou, dang, deng, dong, di, ding, du	26%	8%
4.	tei, tang, teng, tong, tu, tuo	15%	4%
5.	ga, ge, gang, gu, gua, guo, guang	18%	5%
6.	ka, keng, kong, kuang	10%	13%

Jadval 2

№	Taqlid tovushlari	Sirg‘aluvchi initsiallardagi ulushi	Taqlid tovushlardagi ulushi
1.	Feng	4%	1%
2.	Sa, se, si, sou, su, suo	24%	4%
3.	Sha, shua	7%	1,5%
4.	Ran, ren, rong	11%	2%
5.	Xi, xiao, xiu, xu	16%	3%
6.	Ha, he, hei, heng, hong, hu, hua, huo, hui, huang	38%	7%

Jadval 3

塞擦音 guruhiga kiruvchi 6 initsialdan z sirg‘aluvchisi taqlidlarni hosil qilishda kamroq ishtirok etsa (1.5%), ch hamda c sirg‘aluvchilari umumiy taqlidlarning 5%ini tashkil qildi. Bu sirg‘aluvchi talaffuz jihatdan ham, umumiy statistik ko‘rsatkich jihatidan ham bir-biriga yaqin natijalar ko‘rsatdi (jadval 4).

№	Taqlid tovushlari	Qorishiq initsiallardagi ulushi	Taqlid tovushlardagi ulushi
1.	Ze, zi	6%	1,5%
2.	Ci, cai, cao, ceng, cong, cui	24%	4%
3.	Zha, zhi, zhou, zheng, zhuo, zhuan	20%	4%
4.	Cha, chi, chou, chan, cheng, chong, chua	24%	5%
5.	Ji, jie, jiu, jian	13%	3%
6.	Qi, qie, qiang, qu	13%	3%

Jadval 4

Faqat btta tovush边音 initsialini hosil qilgani bois, uning o‘zi lateral tovushining 100%lik o‘rnini to‘ldiradi, umumiy taqlidlarning 8% qismi esa l initsiali bilan boshlanadi (jadval 5).

№	Taqlid tovushlari	Lateral initsiallardagi ulushi	Taqlid tovushlardagi ulushi
1.	La, lang, leng, long, li, lie, liu, lin, ling, lu	100%	8%

Jadval 5

鼻音 tovushlari 2 ta undoshdan iborat bo‘lib, ular taqlidlarni hosil qiluvchi 130 tovushdan 5.5%ining initsiali hisoblanadi. M tovushi bilan boshlanuvchi taqlidlar umumiy burun tovushlarining 72%ini, n tovushi bilan boshlanuvchilar esa 28%ini tashkil qiladi.


Burun tovushiga ng ham kiradi, biroq bu tovush xitoy tilida shengmular qatorida kelmaydi. Ng tovushi unli yunmular bilan birikib, tovushning ikkinchi qismida keladi (bang, beng, dong, lang kabi). Ng burun tovushi ishtirok etgan taqlidlarning umumiy soni 37ta bo‘lib, umumiy taqlidlarning 28%ini tashkil qiladi (jadval 6).

№	Taqlid tovushlari	Burun initsiallaridagi ulushi	Taqlid tovushlardagi ulushi
1.	Mou, mi, miao, mie, ming	72%	4%
2.	Nao, nan	28%	1,5%

Jadval 6

Putunhuada initsiallarning yuqoridagi kabi tasnifidan tashqari, jarangdorlik mezoniga ko‘ra ham bo‘linishi mavjud. Undosh tovushlar tovush paychalarining tebranishiga qarab, 2 turga bo‘linadi:

1. 清音 (jarangsiz) – talaffuz paytida tovush paychalarining tebranishisiz hosil bo‘ladigan undosh tovushlar, ya’ni sof havo oqimi to‘sig‘idan hosil bo‘lgan va musiqiy tovushga ega bo‘lmagan jarangsiz tovushlar. Masalan: b, p, f, d, t, g, k, h, j, q, x, zh, ch, sh, z, c, s.
2. 浊音 (jarangli) – tovush paychalarining hosil bo‘lgan undoshlari nafaqat havo oqimini to‘sib qo‘yadi, balki musiqiy tovushlarni hosil qilish uchun ovoz paychalarini tebratadi. Masalan: m, n, l, r (jadval 7).



Jadval 7

Taqlid so‘zlar orasida h va d initsiallari bilan boshlanuvchi so‘zlar jarangsiz tovushlar hamda hamda umumiy taqlidlar orasida salmoqli o‘ringa egaligi ko‘rinadi. Umumiy taqlidlar orasida h va d shengmulari bilan boshlanuvchi so‘zlar 7%ni tashkil qilsa, jarangsiz tovushlar orasida ular 10,1%lik ko‘rsatkichga ega (jadval 8).

№	Taqlid tovushlar	Jarangsiz tovushlardagi ulushi
1.	ba, bo, bang, beng, biao	5,5%
2.	pa, po, pang, peng, pi, ping, pu	7,8%
3.	feng	3,3%
4.	da, de, dao, dou, dang, deng, dong, di, ding, du	10,1%
5.	tei, tang, teng, tong, tu, tuo	6,6%
6.	ze, zi	2,2%
7.	ce, cai, cao, ceng, cong, cui	6,6%
8.	sa, se, si, sou, su, suo	6,6%
9.	zha, zhi, zhou, zheng, zhua, zhuan	6,6%
10.	cha, chi, chou, chan, cheng, chong, chua	7,8%
11.	sha, shua	2,2%
12.	qi, qie, qiang, qu	4,4%
13.	ji, jie, jiu, jian	4,4%
14.	xi, xiao, xie, xu	4,4%
15.	ga, ge, gang, gu, gua, guo, guang	7,8%
16.	ka, keng, kong, kuang	4,4%
17.	ha, he, hei, heng, hong, hu, hua, huo, hui, huang	10,1%

Jadval 8

Xitoy tilida jarangli tovushlar nisbatan kamchilik tashkil qilib, uar faqatgina m, n, l va r tovushlaridir. L tovushi initsial sifatida butun taqlidlarni hosil qilgan initsiallar orasida ham (8%), jarangli taqlidlar orasida miqdor jihatdan ko‘p tovushlarni hosil qiladi. Jarangsizlar orasida n initsiali eng kam ko‘rsatkichga ega bo‘lib, umumiy jarangsiz shengmidan boshlanuvchi taqlidlarning 10%ini tashkil qiladi (jadval 9).

№	Taqlid tovushlar	Jarangli tovushlardagi ulushi
1.	Mou, mi, miao, mie, ming	25%
2.	Nao, nan	10%
3.	La, lang, leng, long, li, lie, liu, lin, ling, lu	50%
4.	Ran, ren, rong	15%

Jadval 9

Xitoy tili taqlid so‘zlarida initsial ishtirokining yuqoridagi kabi statistik tahlili faqatgina tovushni hosil qilish yuzasidan ko‘rib chiqilgan bo‘lib, taqlid so‘zlarning umumiy sonini e’tiborga olmagan. Taqlidlarning leksik hamda semantik ma’nosi va ularda shengmularning nisbati yuzasidan qilinadigan tahlil boshqacha natijalarni ko‘rsatishi mumkin. So‘zlardagi ohang va iyeroglif xilma xilligini hisobga olmagan holda taqlidlarning tovush sifatidagi tahlili qorishiq hamda jarangsiz initsiallar ustunligini ko‘rsatdi. Qolgan undoshlarning ishtiroki bir-biriga yaqin bo‘lib, ularning qo‘llanilishi hamda ma’nosi so‘zda ishtirok etgan inistialning jarangli yoki jarangsiz, portlovchi yoki sirg‘aluvchi ekanligiga ko‘ra ham farqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 李镜儿. 现代汉语拟声词研究. – 上海：学林出版社，2006. – 260页.
2. 马建忠. 马氏文通. – 北京：商务印书馆，1987. –231页.
3. 现代汉语词典：商务印书馆创立115年纪念版/中国社会科学院语言研究所词典编辑室编. 弟6版. – 北京：商务印书馆, 2012. – 1874页.
4. 储泰松. 现代汉语里的声母韵母. – 安徽：安徽师范大学学报， 2023. – 48页.

Zuxraxan KASIMOVA,
Andijon davlat universiteti katta o‘qituvchisi
E-mail: zkasimova1972@gmail.com

BESHIK TO‘YI MAROSIMI FOLKLORI JANRLAR TARKIBIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek xalqida bolani beshikka bog‘lash bilan bog‘liq urf-odatlar va marosim janrlari to‘g‘risida ayrim fikr-mulohazalar bayon etilgan. Turkiy xalqlarda bola tug‘ilishi bilan bog‘liq marosimlar bir qadar bir-biriga yaqin turishi, shuningdek, o‘zbek xalqi chaqaloqni beshikka bog‘lash, uni cho‘miltirish va tirnog‘i, sochini olish, tanglayini bosish, unga ism qo‘yish kabi amallarni bajarishida o‘ziga xos aytimlar ijro qilinganligi, beshik to‘yi marosimi folklorining asosiy janrlari marosim jarayonida ijro etiladigan alla, olqish va beshik aytimlaridan tashkil topganligi xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *beshik to‘yi, marosim, folklor, janr, lokal, aytim, udum, jarayon, sovg‘a.*

Annotation: this article describes the customs and ritual genres of tying a child to a cradle in the Uzbek nation. The rites related to the birth of a child in Turkic nations are somewhat close to each other, as well as the fact that the Uzbek people have their own special sayings when carrying out such actions as tying the baby to the cradle, bathing it, cutting its nails, cutting its hair, pressing its palate, naming it, the main folklore of the cradle wedding ceremony is It is thought that the genre consists of alla, applause and lullabies performed during the ceremony.

Key words: *cradle wedding, ceremony, folklore, genre, locale, saying, customs, process, gift.*

Аннотация: в данной статье описаны некоторые примечания обычаи и ритуальные жанры привязывания ребенка к колыбели у узбекского народа. Обряды, связанные с рождением ребенка у тюркских народов, в чем-то близки друг другу, как и то, что у узбекского народа есть свои особые присказки при совершении таких действий, как привязывание ребенка к колыбели, купание его, разрезание его ногтей, стрижка волос, прижатие нёба, присваивание ему Имени. Основной жанр фольклора обряда "Бешик туйи" - это Алла, колыбельная, исполняемая во время церемонии.

Ключевые слова: *колыбельная свадьба, церемония, фольклор, жанр, место действия, поговорка, обычаи, процесс, подарок.*

Beshik har bir insonning dunyoga kelganidan o‘z bag‘rida asrab-avaylagan muqaddas tushuncha. U hayot ibtidosi, dunyoning ramziy ko‘rinishidir. Hassos folklorshunos M.Jo‘rayev beshik haqida yozar ekan: “Ma’lumki, insonning vatani avvalo, beshikdan boshlanadi. Jigargo‘shasiga qalb qo‘rini baxsh etib beshik tebratayotgan ona allasi orqali murg‘ak bola ilk bor ona va vatan mehrini tuyadi”, – degan edi .

Bolaga ezgu niyat tilash motivi beshik qo‘shiqlarining asosida turadi. Folklorshunos Z.Husayinova tomonidan Qorabuloqlik Qumri Otashevadan 1969-yilda yozib olingan bolani beshikka solayotganda ijro qilinadigan beshik to‘yi qo‘shig‘ida ham buni ko‘rishimiz mumkin:

Achasi kirsin, kuchugi chiqsin,
Beshigingni o‘zing to‘zdirgaysan,
Chuvaragingni o‘zing chuvratgaysan.
Sariq sochlik bo‘l, oq tishlik bo‘l,
O‘sib-o‘sib o‘zing oq so‘zingga ega bo‘l,
O‘sib-o‘sib ota-onangni o‘zing boq .

Mazkur aytimda yovuz ruh kuchuk timsolida tilga olinadi. Bolaning beshikni to‘zdirishi – uni rosa ishlatib eskirtishi, chuvaragini chuvratishi – beshik anjomlarini ishlatib eskirishiga erishishini anglatadi. Farg‘ona vodiysida bolaga yangi kiyim kiydirganida:

Tepib-tepib to‘zdirsin,
Jo‘ralaridan o‘zdirsin.

– degan aytim aytiladi. To‘zdirish – kim yoki biror narsani rosa ishlatish, eski holga keltirishni anglatadi. Bola sog‘-omon bo‘lsagina, kiyimni yoki beshik anjomini to‘zdiradi. Bolaning o‘sib, oq so‘ziga ega bo‘lishi, uning adolatli, elning oldi bo‘lishiga ishora, shuningdek, ota-onasini boqish istagida ham uning istiqbolda ulug‘ inson bo‘lishini tilash motivi o‘z ifodasini topgandir.

Namanganliklardan yozib olingan beshik to‘yiga doir materiallarda aytim – Egasi keldi beshikka,
Shayton chiqdi eshikka,
o‘ngmi, o‘ng;
olqish – bo‘lsinmi? Bo‘lsin!

Va alla janriga xos aytimlar ijro qilingan. Namanganliklar beshik to‘yi folklorida aytim qofiyaga solingan, ohangdosh so‘zlar bilan yakunlangan beshikka, eshikka so‘zlari orqali ifodalangan. Bola beshikning egasi u kelishi bilan shayton beshikdan qochib eshikka chiqadi. Shayton obrazi ham O‘zbekistonning boshqa hududlari beshik to‘yi folklorida uchramaydi. Boshqa joylarda babasi – yovuz ruh sifatida talqin etiladi. Namanganda shayton obrazi uchraydi. Bu bizningcha, hudud aholisining islomiy e’tiqodi kuchliligi va islom mifologiyasi ta’sirida bo‘lganligidan dalolatdir.

Bolaning sochini olishdagi eski sochi yomon bo‘lsin – iborasida bolaning ona qornida paydo bo‘lgan sochida turli narigi dunyo vakillarini chorlovchi elementlar bor deb tasavvur qilish, yovuz ruhlar (ko‘pincha “it”lar) shu soch tufayli bolaga o‘ralashadi deb ishonishning o‘ziga xos badiiy ifodasidir. Aytimning ikkinchi satri – boshginasi omon bo‘lsinda esa, aytuvchining bolaga tilaklari, olqishi o‘z aksini topgan. Demak, bolaning tavallud kunidan boshlab, uning har bir ulg‘ayish onlari o‘ziga xos tarzda urf-odatlarni ifodalaydi. Bunday urf-odatlar ajdodlarimizning mifologik tasavvurlari natijasida shakllangan. Ularning, ya’ni turli urf-odatlarning mifologik mohiyati odatni amalga oshirishda bajaruvchi tomonidan ijro etiladigan og‘zaki matnlar mazmunida o‘z ifodasini topadi.

Tug‘ilgan chaqaloq agar qiz bola bo‘lsa, uning sochlari yuvilib, ilk taralayotganda:

Oyga quloch,
Kunda tutam,
Sanga kuyov,
Menga palov! - deganlar .

Shu o‘rinda beshik to‘yi bilan bog‘liq aytim va qo‘shiq masalasiga ham to‘xtalib o‘tilsa, aytim – odatda ohangdorlikka ega bo‘lmagan, qisqa hajmdagi magik mohiyatga ega gap yoki ibora. Qo‘shiqda garchi hajm qisqa bo‘lsa-da, ohangdorlik mavjud bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan beshik bilan bog‘liq ba’zi bir ohangdorlikka ega og‘zaki matnlarni qo‘shiq deb tavsiflanishi mumkin.

Chaqaloqqa isiriq tutatayotganda aytiladigan musiqiy ohangdorlikka ega, qofiya so‘zlar yaqqol ko‘zga tashlanib turuvchi og‘zaki she’riy aytimlar borki, ularni umumlashtirish va o‘rganish maqsadga muvofiq keladi.

Hazorisvandning donasi,
Shu begunohning shonasi,
Chashmi yosh, chashmi xesh,
Hamsoyahoi girdupesh,
Harosvand hazor dori,
Hazor dardga davoyi,
Onasining ko‘zi,
Dadasining ko‘zi,
Yomon ko‘zlar yo‘qolsin,
Balo-qazo yo‘qolsin,
Shu bolam omon qolsin .

Yuqoridagi og‘zaki matn o‘ziga xos ritmik ohangdorlikka ega. Unda donasi, shonasi, esh, xesh, dori, davoyi, onasining, otasining, yo‘qolsin, omon qolsin so‘zlari qofiya so‘zlar bo‘lib, matnning musiqiy ohangda ijro qilishga qulayligini belgilab beradi.

Isiriq dona-yu, dona,
Tutunidan to‘lsin xona,
Kuya qolsin hasadli ko‘z,
Ko‘cha qolsin g‘arazli ko‘z,
Ko‘chsin, ko‘chsin, cho‘lga ketsin,
Oqsin, oqsin, qo‘lga oqsin,
Bachaginam yashnab qolsin .

Matndagi birinchi ikki misra ohangdorlik jihatidan anori dona-yu dona, topilmas ota-yu ona deb nomlanuvchi xalq qo‘shig‘ini eslatadi. Bu misralarda dona, xona so‘zlari to‘liq qofiya bo‘lsa. Keyingi misradagi hasadli, g‘arazli o‘zlari yarim qofiya, cho‘lga

ketsin, ko‘lga oqsin, yashnab qolsin kabi qofiya o‘rnida qo‘llanilgan so‘zlarda xalqona ohangdorlik bir qadar buzilgan. Biroq ritmik bo‘laklarga ajralish, musiqiylikka moyillikning yetakchiligi sezish qiyin emas.

XX asr boshlarida Toshkent atrofidagi turkiy qavmlarning bola tug‘ilishi bilan bog‘liq marosimlarini o‘rgangan elshunos A.L.Troiskayaning V.V.Bartolga bag‘ishlangan ilmiy to‘plamda e’lon qilgan maqolasida isiriq aytimining aniq qo‘shiq shaklidagi parchasi keltiriladi:

Isiriq isman dedilar,
Ming dardga darmon dedilar,
Eshikdan kelgan baloga,
Issiriq darmon dedilar .

XX asr boshlarida faoliyat ko‘rsatgan rus etnografi F.Fiyelstrupning XX asr boshlarida qirg‘izlar marosimlariga bag‘ishlangan tadqiqotida bolani beshikka bog‘laganda doya kampir beshikning ustiga uch marta o‘tirib:

Kuttu bayyanu қылsын
Janын uzak bolsun.
deb aytim aytishini qayd etadi .

Bolaning beshikka bog‘lash jarayonida isiriqning tutatilishi aftidan Markaziy Osiyo xalqlari uchun mushtaraklik kasb etib, shu yerlarda istiqomat qilishgan qadimgi ajdodlarimizning animistik tasavvurlari natijasida shakllangan.

Alla beshik to‘yi marosimining muhim va asosiy janrlaridan biridir. Alla matnlari onalar tomonidan ijro etilib, onaning orzu-armoni, quvonch-u tashvishini, dard-u sitamlarini o‘zida badiiy ifodalaydi:

Gul sariq rangim sariq, bolajonim, alla,
Sarg‘ayganim kim bilar, qo‘zichog‘im, alla.
Hasrati, armonlarim, alla bolam, alla,
Jon berganim kim bilar, shirin bolam, alla.
Ariqlar bo‘yida rayhon, jonim bolam, alla,
Tegmay o‘ting shoxlariga, qo‘zichog‘im, alla.
Uzoq joyda bolam bor, asal bolam, alla,
Olloh o‘zi saqlasin, jonim bolam, alla.
Gul-u safsarni ko‘ring, alla bolam, alla,
Suvlarga qarab qayriladi, jonim bolam, alla.
Bevafo bolamni ko‘ring, o‘rtoqjonim, alla,
O‘lmay turib ayrildim, qo‘zichog‘im, alla,
Allalar aytsam uxlagin, jonim bolam, alla,
Uxlab turib o‘ynagin, qo‘zichog‘im, alla .

Beshik tebratayotgan ona beshikdagi bolaning uxlashi uchun hirgoyi qiladigan qo‘shiq matnida mung, ijrochining dardi, hasratli g‘oyalari ifodalangan. Mazkur alla matni an’anaviy alla matnlariga nisbatan dardni timsollashgan talqini ko‘zga tashlanadi.

Gul sariq rangim sariq, bolajonim, alla,
Sarg‘ayganim kim bilar, qo‘zichog‘im, alla.
Hasrati, armonlarim, alla bolam, alla,
Jon berganim kim bilar, shirin bolam, alla.

Qo‘shiq marosim lirikasiga xos, uning ijrochisi o‘z kechinmalari asosiga qurilgan o‘zlik kartinasini sariq rang timsoli orqali ifodalagan. Lirik qahramonning rangi sariq, gul ham sariq. Asli sariq rang turkiy folklorda holsizlik, nochorlik timsoli sifatida qo‘llaniladi. Roziya Tujjor hikoyalaridagi ranglarda aks etgan ramziy ifodalar tahliliga doir kuzatishlar olib borgan O.Turdiyevaning qayd etishicha, eroniylarda sariq rang halokat timsoli sifatida talqin etilgan . Qadimgi turkiy folklorda sariq rang, za’faron kishining yomon kayfiyati, ozuqsizligi, nochorligi, qayg‘usi ifodalangan:

Бэглар атiн arg`urur,
Qazg`u ани turg`urub,
Мэнзijуэi sarg`ayib,
Ko`rkum anar to`rtulur .

Mahmud Koshg‘ariy tomonidan keltirilgan mazkur qo‘shiq – Afrosiyob o‘limiga bag‘ishlangan marsiyada mangu judolik qayg‘usidan beklarning ozib, yuzlari xuddi za’faron surgandek sarg‘aygani badiiy ifodalangan. O‘zbek xalqida rangi sarg‘ayish, rangi somon bo‘lish iboralari nochorlikni anglatadi. Hatto xalqimizda nochor holda kimgadir nimanidir yalinib so‘rash holati ham sarg‘aymoq iborasi orqali ifodalanadi.

Yuqoridagi alla matnida onaning rangi sariqligi uning ezilganligini anglatgan, u o‘z fikrini keyingi misrada sarg‘ayganim kim bilar gapi orqali mantiqan to‘ldiradi. Qo‘shiq bandining keyingi qismida:

Hasrati, armonlarim, alla bolam, alla,
Jon berganim kim bilar, shirin bolam, alla.

Ayni shu keyingi bandda alla matnidagi sariq rangning timsoliy mohiyati ochiq ifodalanadi.

Ayni shu axborotchidan yozib olingan allaning boshqa bir variantiga e’tibor qaratsak, unda onaning orzu-umidlari to‘la ifodalanganini ko‘ramiz:

Allalar aytayin men senga,
Jonim bolam, alla.
Sen yotib orom olgin,
Shirin bolam, alla.

Allalar seni yaratdi,
Bolajonim, alla.
Uyqular sening quvvating,
Shirin bolam, alla.

Men gulmidim ochilgani,
Shirin bolam, alla.
G‘unchamidim qayrilgani,
Jonim bolam, alla.

Yuraklari chaldishmidi,
Alla bolam, alla.
Choylar solib qaynatgani,
Shiringinam, alla.
Bu yuraklar g‘amsizmidi,
Bolajonim, alla.
G‘amlar solib uyg‘otgani,
Shirin bolam, alla.

Men seni allalar qilaman,
Jonim bolam, alla.
Ko‘tarib kattalar qilaman,
Alla bolam, alla.

Xudoyim umringni bersa-yo,
Shirin bolam, alla.
O‘qitib olim qilaman,
Jonim bolam, alla.

Uyimizni nurga to‘ldir,
Jonim bolam, alla.
Rayhon isi kelar sendan,
Qo‘zichog‘im, alla.

Ko‘rinadiki, bola uyning nurga to‘ldiruvchi quvonchning sababchisi sifatida talqin etiladi. Ona o‘zini gul yoki g‘uncha misol ochilishi qayrilishini qayd etadiki, bu xalqimizning “Ona bilan bola gul bilan lola” maqoli mazmuniga hamohangdir. Xullas, beshik to‘yi marosimi folklorining asosiy janrlari marosim jarayonida ijro etiladigan alla, olqish va beshik aytimlaridan tashkil topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oy oldida bir yulduz: O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari//To‘plab nashrga tayyorlovchi, kirish so‘zi va izohlar muallifi M.Jo‘rayev. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000. 3.(160-b)
2. O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori insituti H.Zarif nomidagi O‘zbek folklori arxivi. Inv.1630/16.
3.Oy oldida bir yulduz... 13-bet.
4.Oy oldida bir yulduz... 10-bet.
5.Ko‘rsatilgan manba. 11-bet.
6.Troiskaya A.L. Perviy sorok dney rebenka (chilla) sredi osedlego nasileniya Tashkenta i Chimkentskogo uyezda. Sb. “V.V.Bartoldu”. – Tashkent, 1927, – S.349-361,
7.Fiyelstrup F.A. Iz obryadovoy jizni kirgızov nachala XX veka: Obryadi, svyazanniye s rojdeniyem i vospitaniyem rebenka.– Moskva: Nauka, 2002. – 299 s.
8. Dissertantning dala materiallari. Andijon viloyatining Shahrixon tumanidagi Cho‘ja QFY Obi hayot ko‘chasida yashovchi 1942-yilda tug‘ilgan Akbarova Sottixon ayadan 2022-yil oktyabrda yozib olingan.
9. Turdiyeva O. Roziya Tujjor hikoyalarida ranglar simvolikasi//Sharq mash’ali. 2021. 1-son. 70-75-betlar.
10. Koshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. 3 jildli. 1-jild // Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. Mutallibov. – T.: Fan, 1960. 318-bet.

Шоира ХАШИМОВА,
преподаватель Ферганского государственного университета

АЗАРТНЫЕ ИГРЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ КЛАССИЧЕСКОЙ КОРЕЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация: данная статья исследует представление азартных игр в произведениях классической корейской литературы. Автор анализирует, как азартные игры воплощаются в текстах, каков их символический смысл и влияние на сюжетные линии и характеры. Исследование основывается на анализе различных литературных произведений и культурных контекстов, чтобы понять, как азартные игры отражают социокультурные аспекты корейского общества и мировоззрения.

Ключевые слова: *Корейская литература, азартные игры, символика, культурный контекст, социокультурные аспекты, сюжет, персонажи.*

Annotatsiya: ushbu maqola klassik koreys adabiyoti asarlarida qimor o'yinlarining taqdimotini o'rganadi. Muallif qimor o'yinlari matnlarda qanday mujassamlanganligini, ularning ramziy ma'nosi va syujet chiziqlari va belgilariga ta'siri qanday ekanligini tahlil qiladi. Tadqiqot qimor o'yinlari Koreya jamiyati va dunyoqarashining ijtimoiy-madaniy jihatlarini qanday aks ettirishini tushunish uchun turli adabiy asarlar va madaniy kontekstlarni tahlil qilishga asoslangan.

Kalit so'zlar: *koreys adabiyoti, qimor o'yinlari, ramziylik, madaniy kontekst, ijtimoiy-madaniy jihatlar, syujet, belgilar.*

Annotation: this article explores the representation of gambling in the works of classical Korean literature. The author analyzes how gambling is embodied in texts, what is their symbolic meaning and influence on storylines and characters. The research is based on the analysis of various literary works and cultural contexts in order to understand how gambling reflects the socio-cultural aspects of Korean society and worldview.

Keywords: *korean literature, gambling, symbolism, cultural context, socio-cultural aspects, plot, characters.*

В мире художественной литературы азартные игры выступают важным мотивом, который отражает не только индивидуальные характеры персонажей, но и шире – общественные и культурные аспекты. От зна-

менитых романов до коротких рассказов, азартные игры часто становятся ключевым средством для авторов в изучении человеческой природы, динамики взаимоотношений и моральных дилемм. В этой статье мы исследуем роль азартных игр в художественной литературе, их символическое значение и влияние на развитие сюжета и характеров. От классических произведений до современных творений, азартные игры продолжают быть неотъемлемой частью литературного наследия, богато отражающего человеческий опыт и его противоречия.

Классическая литература любой культуры служит отражением ее ценностей, убеждений и общественных норм. Это справедливо и для классической литературы Кореи. Произведения классической корейской литературы дают представление о культуре и обществе древней Кореи, а присутствие игр, в том числе азартных, в этих произведениях свидетельствует об их важности в жизни народа.

Корейская классическая литература берет свое начало в эпоху Троецарствия (57 г. до н. э. – 668 г. н. э.) и считается одной из самых древних и богатых литератур в мире. Произведения корейской классической литературы известны своим поэтическим языком, яркими образами и сильными темами. Они считаются неотъемлемой частью корейского культурного наследия и дают ценное представление об обществе и культуре древней Кореи. [1]

Присутствие игр, в том числе азартных, в корейской классической литературе является отражением важности досуга в жизни народа. Литература дает представление о различных видах игр, которые были популярны в то время, а также о социальных и культурных нормах, связанных с ними.

Корейская классическая литература дает глубокое представление о традиционных играх, которые были популярны в древней Корее. К таким играм относятся настольные и карточные игры, а также игры на открытом воздухе, такие как стрельба из лука. Литература дает представление о правилах этих игр, а также об обычаях и традициях, связанных с ними.

Азартные игры были популярным видом досуга в древней Корее, и они изображены в нескольких произведениях корейской классической литературы. Литература дает представление о различных видах азартных игр, которые были популярны в то время, таких как игры в кости, карточные игры и азартные игры. Изображение их в литературе позволяет понять общественные нормы, связанные с этой деятельностью, включая отношение общества к ней и влияние, которое она оказывала на жизнь людей.

Одно из самых известных произведений корейской классической литературы, «Чхунхянчжон», содержит изображение азартных игр. В 1960 году «Чхунхянчжон» был переведен на русский язык как «История о верности Чхун Хян» в сборнике классических корейских романов XVII–XIX веков Аделаиды Троцевич, профессора корейской литературы Санкт-Петербургского университета в России. Это произведение – история о любви и самопожертвовании, и оно дает представление о культурных нормах и ценностях древней Кореи. Изображение азартных игр в этом произведении служит показателем их популярности в обществе, а также их значимости в жизни людей.

Тема игр и азартных игр была популярной в классической корейской литературе, отражая отношение общества к этим занятиям. Во многих произведениях игры изображались как развлечение, которым наслаждались как члены королевской семьи, так и простолюдины, и часто служили фоном для политических маневров и социальных комментариев.

Например, в классическом корейском романе «Повесть о Чхунхяне» карточная игра, в которую играет правитель, используется для проверки смекалки и хитрости главного героя Чхунхяна. Это не только демонстрирует важность игр в повседневной жизни, но и подчеркивает потенциальные последствия азартных игр, поскольку Чунхян использует свой ум, чтобы перехитрить правителя и обеспечить себе свободу [5].

В других произведениях, таких как «Облачный сон девяти» и «История Хон Гильдуна», игры служат для героев средством продемонстрировать свою храбрость, смекалку и хитрость, добавляя в истории элемент азарта и непредсказуемости. [3] [4]

Кроме того, изображение игр в классической корейской литературе также отражает культурные ценности и верования того времени. Например, игра Го, в которую и сегодня широко играют в Корее, считалась символом мудрости и стратегии, отражая конфуцианские ценности интеллекта и планирования.

Помимо отражения общественных взглядов и культурных ценностей, преобладание игр и азартных игр в корейской классике также показывает историческое значение этих занятий в истории Кореи. Во времена династии Чосон правительство жестко контролировало и регулировало азартные игры, рассматривая их как источник морального разложения и социального беспорядка. Это отражено в изображении азартных игр в корейской литературе, где они часто изображаются как коррумпированное и опасное занятие.

В целом, присутствие игр и азартных игр в классической корейской литературе показывает, какую

важную роль эти занятия играли в повседневной жизни и какое культурное и историческое значение они имели. От демонстрации остроумия и хитрости персонажей до отражения отношения общества и культурных ценностей – влияние игр в корейской классике невозможно переоценить.

В заключение следует отметить, что тема игр и азартных игр постоянно повторяется в классической корейской литературе, давая представление о культурном, историческом и общественном отношении к этим видам деятельности. Будь то досуг, средство демонстрации храбрости и смекалки или символ общественных ценностей и убеждений, изображения игр в корейской классике показывают, какую важную роль они играли в жизни людей и общества в целом.

Литература:

1. Ким Чжонгпиль. История корейской литературы. СПб: Институт востоковедения РАН, 2013.
2. Пак Чжэ-Сун. «Культурная и социальная роль азартных игр в Корее». Журнал «Корейские исследования», том 22, №3, 2013 год, с. 78–91.
3. Чжун К. М. «Облачный сон девяти». М.: Художественная литература, 1961.
4. Хо гюн. Повесть о Хон Гильдоне – пер. М. Никитина (Достойный Хон Кильдон; Повесть о Хон Гильдоне); 1975 г. – 2 изд.
5. История о верности Чхун Хян: Средневековые корейские повести. М.: Издательство восточной литературы. 1960.
6. Choi, Jinhee "Chunhyang, chunhyang, chunhyang: Poetics of Im Kwan-Taek's Chunhyang". Asian Cinema. 13 (1): 57–66. doi:10.1386/ac.13.1.57_1. ISSN 1059-440X.

Баходир ДЕХКОНОВ,
преподаватель Ферганского государственного университета

АРХИТЕКТУРНЫЕ ЗАИМСТВОВАНИЯ В СОВРЕМЕННОМ РУССКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация: в данной статье поднимается вопрос архитектурных заимствований в русском языке и проводиться анализ строительного языка. Архитектурная терминология выступает, как отдельный сегмент в представлении мира носителей языка, формируя разветвленную терминосистему, объединяющую общелитературную лексику и специальные термины, описывающие концепции архитектуры.

Ключевые слова: *архитектурные заимствования, русский язык, анализ строительного языка, терминология, общелитературная лексика.*

Annotation: this article raises the issue of architectural borrowings in the Russian language and analyzes the construction language. Architectural terminology acts as a separate segment in the representation of the world of native speakers, forming an extensive terminological system that combines general literary vocabulary and special terms describing the concepts of architecture.

Keywords: *architectural borrowings, Russian language, analysis of the construction language, terminology, general literary vocabulary.*

Annotatsiya: ushbu maqolada rus tilida me'moriy o'zlashtirishlar masalasi ko'tariladi va qurilish tili tahlil qilinadi. Arxitektura terminologiyasi ona tilida so'zlashuvchilar dunyosini aks ettirishda alohida segment bo'lib, umumiy adabiy lug'at va arxitektura tushunchalarini tavsiflovchi maxsus atamalarni birlashtirgan keng terminologik tizimni tashkil etadi.

Kalit so'zlar: *me'moriy qarzlar, rus tili, qurilish tilini tahlil qilish, terminologiya, umumiy adabiy lug'at.*

Архитектура играет важную роль в жизни обществ как древних, так и современных: как искусство проектирования сооружений, она несет символическое значение и отражает не только культурные особенности цивилизации определенной эпохи и религиозные символы народа, но и духовные стремления ее создателей. С ускоренным развитием современной науки в сфере социального и информационного пространства научная информация приобретает ключевое значение. Учитывая роль медиа как среды для множественных дискурсов, можно выдвинуть гипотезу о развитии архитектурного дискурса, который также выступает в качестве отражения определенной области человеческого знания [1].

Архитектурный дискурс включает тексты (научные работы по архитектуре, путеводители, путевые заметки, художественные произведения и т. д.) и участников этого обширного обсуждения (архитекторы, художники, критики, политические и религиозные деятели, журналисты, мыслители, писатели и т. д.) в конкретных социально-исторических контекстах. Лексический состав специального языка архитектуры является разнообразным. Он включает три основных блока терминологии: общенаучную, междисциплинарную и узкоспециализированную.

Определение границ между этими блоками не всегда является однозначным. В научной речи, исполь-

зующей язык для обозначения архитектурной деятельности, происходит взаимопроникновение узкоспециализированной и общелитературной лексики. В процессе исследования материала на иностранных языках были выделены следующие структурные типы архитектурных терминов: абака, апсида, зубец, капельница, экседра, иконостас, подвеска, розетка, ротонда, подошва.

The words like exhaust pipe (a pipe that carries the gases or steam out of an engine), fender (a part of a vehicle that covers or protects the area round a wheel), filler cap (the small roundlid that coversthe hole where you put the petrol in a car or other vehicle), fin (a thin flat part on the back of a vehicle that is used for decora on) grille (the radiator of a motor vehicle), hood (a cover on a car or pram that can be pulled up to give protection from the rain or the sun) belong to external parts of the car. As for internal part of the car

the following words can be exemplified: airbag, brake pedal, gas tank, spark plug, etc. From the lexico-grammatical point the words denoting railway can be classified into the following groups: types of car, car verbs, types of car drivers, car parking. The words like railway , automotive, banger, beach buggy, beemer, boneshaker, buggy, cab, a taxi, compact, convertible, crock, four-by-four, railway drive belong to the first class, whereas the words such as accelerate, back up, change gears, crash, de-accelerate, fasten seat-belt, fill up with gas, idle the engine, park, pass, pass, push the accelerator, push the clutch, race, run out of gas belong to car verbs. Types of car drivers may include the terms like cabbie cabbies, cabby driven, hack motorist, petrolhead, racing driver, road hog, designated driver, charioteer chauffeur. Car parking can be another group of words denoting railway transport in English which can have the following thematic group of words like train park, trainport cycle rack, double-park drive, train garage, garage multi-storey parking, parking ticket, valet parking, etc.`

Regarding borrowed terms, a significant percentage is taken from the German language: bracket, throttle, reserved seat, route, diesel. Approximately the same percentage is borrowed from the French language: platform, compartment, passenger, depot, luggage. Borrowings from English are very insignificant: drainage, hopper, buffer, clearance, feeder.

Engine: General meaning: a machine for converting thermal energy into mechanical energy or power to produce force and motion.

Railway terminology: term used for any kind of locomotive

Bogie: General meaning: a low strongly built cart. Railway terminology: A swivel-mounted wheel assembly; known as a Truck in North America.

Boiler: General meaning: a vessel used for boiling.

Railway terminology: A cylindrical container adjacent to the firebox in which steam is produced to drive a steam locomotive.

Tie: General meaning: to fasten, attach, or close by means of a tie.

Railway terminology: A railroad tie/railway tie/ crosstie, or railway sleeper is a rectangular support for the rails in railroad tracks.

Gauge: 52 General meaning: an instrument that measures and gives a visual display of the amount, level, or contents of something. Railway terminology: The width between the inner faces of the rails.

Geep: General meaning: the hybrid offspring of a goat and a sheep. Railway terminology: An EMD GP38- 2,"General Purpose"(GP) locomotives are often called a "Geep"

Any of the GP ("general-purpose") series of Electro-Motive four-axle diesel locomotives; originally applied only to EMD GP7, GP9, and GP18 models [93]

Generator: General meaning: an apparatus in which vapor or gas is formed

Railway terminology: The control switch of a diesel-electric locomotive that opens or closes the circuit between the main generator and the traction motors. Or let us take the following Uzbek sentence taken from literary text: Temir badanli mashina “hey, esingni yig’” deganday Jahongirni silkib-silkib qo’ydi. (T. Malik, So’nggi o’q) This sentence conveys a stylistic colorings such as metaphor “temir badanli mashina” (iron-bodied car) and a simile - “hey, esingni yig’” deganday. Dealing with the terms of railway transport in English we can observe this field of English vocabulary is rich in borrowed words as well as original English words. The borrowed words have been either taken directly from a certain foreign language or indirectly, i.e. the terms with two or more steps and degrees of borrowing. Most of the borrowed terms related to railway transport in English are taken from Greek, German, French, Latin etc. The first division of the words related to railway transport can be related to the parts of speech they belong to. On this occasion the words denoting railway transport can be divided into: nouns, verbs, adjectives, and adverbs. While analysing semantic field of words related to cars, we classified words according to their lexical meaning and we found out below-mentioned semantic fields.

List of used literatures:

1. Арнольд И.В., Лексикология современного английского языка, М., 1985, стр. 9
2. Demishkevich E.V. Strukturnyi analiz angliiskoi terminolo-gii zheleznodorozhnogo transporta. – Omskii nauchnyi vestnik, No4,201
3. Grin Grinevich S.V. Terminologiya: oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. M .: Akademiya. 2008 yil. – B.77-79.
4. Lewis, M. J. T. (2001). "Railways in the Greek and Roman world" (PDF). In Guy, A.; Rees, J. (eds.). Early Railways. A Selection of Papers from the First International Early Railways Conference. pp. 8–19.
5. Малюга Е.Н.англоязычный профессиональный жаргон в деловом дискурсе // Вестник Воронеж-ского государственного архитектурно-строительного университета. Серия: Современные лингвистиче-ские и методикодидактические исследования. 2010. Вып. 2 (14). С. 11-18
6. Miyanda, F. Total Meaning and Equivalence in Translation. NAWA Journal of Language and Communication. - University of Bostwana, 2004. – P. 120.

Farida NA'MATOVA,
O'zDJTU Tarjimonlik fakulteti o'qituvchisi,
feyakahharova@gmail.com

TARJIMADA REJIM O'LCHAMINI TAHLIL QILISH

Annotatsiya: ushbu maqolada matnlarni ikki o'lchov bo'yicha ajrata olishimizni tekshirish uchun matn tasnifi qo'llaniladi: tarjimalar va tarjima bo'lmaganlar o'rtasidagi farqni ko'rsatadigan matn ishlab chiqarish o'lchovi (bu yerda tarjimalar sharhlangan matnlarni ham o'z ichiga oladi); va og'zaki va yozma matnlarni ajratib turuvchi rejim o'lchovi. Maqola, shuningdek, ushbu ikki o'lchov o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: *matnlar o'lchovi, rejim o'lchami, variatsion tilshunoslik, tarjima tahlili, tarjimonlikni o'qitish, tarjimonlik tadqiqoti, paradigma.*

Аннотация: в данной статье применяется классификация текстов, чтобы проверить, насколько хорошо мы можем различать тексты по двум измерениям: измерение производства текста, которое различает переводы и непереводы (где переводы также включают интерпретированные тексты); и измерение способа, которое различает устные и письменные тексты. Статья также направлена на изучение взаимосвязи между этими двумя измерениями.

Ключевые слова: *измерение текстов, измерение способа, вариативная лингвистика, анализ перевода, обучение переводу, исследование перевода, парадигма.*

Annotation: the present article applies text classification to test how well we can distinguish between texts along two dimensions: a text-production dimension that distinguishes between translations and non-translations (where translations also include interpreted texts); and a mode dimension that distinguishes between and spoken and written texts. The article also aims to investigate the relationship between these two dimensions.

Key words: *dimension of texts, dimension of mode, variational linguistics, translation analysis, translation teaching, translation research, paradigm.*

Kirish. Ushbu maqolada biz tarjimani lingvistik xususiyatlarda ifodalangan qator lingvistik xususiyatlarga ega mahsulot sifatida tahlil qilamiz. Ushbu lingvistik xususiyatlar tarjimani boshqa til mahsulotlaridan farq qiladi. Tarjimaning o'zgaruvchanligiga til, registr, matn ishlab chiqarish va tajriba kabi turli jihatlar ta'sir qiladi (Lapshinova-Koltunskiy 2017). [Lapshinova-Koltunski 2017].

Ular tarjimani tilning cheklangan xilma-xilligi sifatida ko'radigan Kotze (2019: 346-bet) tomonidan belgilangan cheklovlar bilan bog'liq. Bu navlar turli xil o'zaro ta'sir o'lchovlari bilan ehtimollik bilan shartlangan bo'lib, ularning o'zgarishini modellashtirishga imkon beradi. Rejim va matn ishlab chiqarish Kotze tomonidan tasvirlangan besh o'lchovdan biridir. Ushbu maqolada asosiy e'tibor ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimaning o'zgarishiga qaratilgan bo'lib, u rejim o'lchamini, ya'ni og'zaki va yozma til ishlab chiqarish o'rtasidagi o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Bizning fikrimizcha, bunday o'zgaruvchanlik yozma va og'zaki tarjimalarning lingvistik xususiyatlarida (mos ravishda "tarjimalar" va "og'zaki tarjimalar" deb ham yuritiladi), masalan, modallik ma'nolarini afzal ko'rish, nominal yoki og'zaki iboralar nisbati va boshqalarda namoyon bo'ladi. Bu xususiyatlar bizga tegishli o'lchamlarni tahlil qilish va modellashtirish imkonini berishi kerak. Uslubiy jihatdan, biz matnlarning leksiko-grammatikasida aks ettirilgan ushbu lingvistik xususiyatlarning miqdoriy taqsimotiga e'tibor qaratamiz. Quyida biz tarjima mahsulotlarining til xilma-xilligini, shu jumladan, tarjimalar va sharhlarni tahlil qilamiz. Bizning e'tiborimiz tarjima mahsulotlaridagi rejimga qaratiladi – ingliz tilidan o'zbekcha tarjimalar va talqinlar o'rtasidagi farqlar. Shuningdek, biz o'zbek tilidagi tarjima qilingan va tarjima qilinmagan matnlar o'rtasidagi farqlarni tahlil qilamiz. Bu farqlar matn ishlab chiqarish hajmining xilma-xilligiga mos keladi.

Tarjimashunoslik, talqin va variatsion tilshunoslikdagi mavjud tadqiqotlarga asoslanib (2-bandga qarang), biz modallik o'lchamidagi o'zgarishlar matn ishlab chiqarish o'lchovidagi o'zgarishlardan kuchliroq bo'lishini kutamiz. Bizni tarjima qilingan va tarjima qilinmagan tillarda og'zaki va yozma zamon o'rtasidagi farqqa yordam beradigan lingvistik xususiyatlar qiziqtiradi.

Maqolaning qolgan qismi quyidagicha tashkil etilgan: tegishli ishlar va nazariy ma'lumotlarning umumiy ko'rinishini beradi; bizning tahlillarimizda qo'llaniladigan ma'lumotlar va usullar haqida batafsil ma'lumot beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Tarjimashunoslik bo'yicha ishlarga asoslanib, biz tarjima qilingan matnlar ularni asl, tarjima qilinmagan matnlardan ajratib turadigan umumiy til xususiyatlariga ega ekanligini ko'rsatamiz. Biroq, bu farqlar Gellerstam tomonidan da'vo qilingan va Kunilovskaya va Lapshinova-Koltunski tomonidan empirik tarzda ko'rsatilgandek, matnlarning sifatini ko'rsatmaydi. [1] Tarjimashunoslik ko'proq statistik hodisa bo'lib, farqlar leksik-grammatik, morfo-sintaktik va matn

tili naqshlarining taqsimlanishida o‘z aksini topadi, ularni ko‘pincha tarjima xususiyatlari deb ataladigan mavhum kategoriyalar nuqtayi nazaridan tashkil qilish mumkin. Bularga soddalashtirish, aniqlashtirish, normallashtirish, olov va konvergensiya kiradi. Tarjima qilingan va tarjima qilinmagan matnlar o‘rtasidagi farqlar statistikdir va ularni avtomatik ravishda aniqlash mumkin.

Tarjimashunoslik bo‘yicha so‘nggi ishlar turli xil xususiyatlar to‘plamidan foydalangan holda avtomatik aniqlash usullaridan foydalanadi. Bu sohadagi birinchi tadqiqotlardan biri. [2] Ushbu tadqiqotda leksik va grammatik xususiyatlarni ifodalovchi so‘z shakllari, so‘zlar va nutq qismlari uchun n-grammalar nazorat ostidagi ssenariyda tarjima qilingan va tarjima qilinmagan matnlarni farqlash uchun ishlatilgan. [3]

Ilisei va boshqalar mashinani o‘rganish algoritmlari bilan tarjima qilingan va tarjima qilinmagan matnlarni muvaffaqiyatli ajratish uchun soddalashtirish bilan bog‘liq xususiyatlar to‘plamidan foydalangan. Tarjima ko‘rsatkichlari to‘plami Volanskiy va boshqalar tomonidan tarjimalar va asl nusxalar o‘rtasidagi avtomatik tasniflash uchun nazoratsiz yondashuvda amalga oshirildi. Kunilovskaya va Lapshinova-Koltunski rus va nemis tilidagi tarjimalarni ikkala tildagi asl nusxadan avtomatik ravishda ajratish uchun lingvistik talqin qilinadigan xususiyatlardan foydalangan. Ular xususiyat tavsiflarida pastdan yuqoriga qarab harakat qiladi va korpus tahlili natijalari asosida tarjima effektlarini aniqlashga harakat qiladi. [4]

Biz tizimli funksional tilshunoslik va janr yoki registr tadqiqotlari kabi variatsion tilshunoslik sohasidagi tadqiqotlarga murojaat qilamiz. Ushbu tadqiqotlarga ko‘ra, til foydalanish kontekstiga qarab o‘zgaradi. Tilning funksional tashkil etilishini hisobga olish uchun tizim kontekstli konfiguratsiyalarni taklif qiladi, ya’ni kontekst darajasini tavsiflovchi uchta o‘zgaruvchi: maydon, tenor va diskurs rejimi. [5]
Shu maqsadda biz modallik (bizning modal o‘lchov tushunchamizga mos keladigan) ontologiyadan (matn ishlab chiqarish konsepsiyamizga mos keladigan) kuchliroq ta’sirga ega ekanligini ta’kidlagan Shlesinger va Ordan ishiga amal qilamiz. Bu shuni anglatadiki, rejim o‘lchovi (ya’ni matnning og‘zaki yoki yozilishi) matn ishlab chiqarish hajmiga (ya’ni matn tarjima yoki original bo‘ladimi) qaraganda ko‘proq ta’sir qiladi.[6]

Xulosa. Ushbu tadqiqot inglizchadan nemischaga tarjimada modal o‘lchovdagi o‘zgarishlarga qaratilgan. Tarjima xilma-xilligi biz variatsion tilshunoslikdan olingan til naqshlari bilan tahlil qilishimiz mumkin bo‘lgan lingvistik xususiyatlarda namoyon bo‘ladi. Biz bu naqshlarning o‘zbek tilidagi og‘zaki va yozma matnlarda, shuningdek, tarjima va sharhlarda tarqalishini aniqladik. Ushbu tarqatish ma’lumotlari quyidagi maqsadlarda ishlatilgan.

Bu bizning topilmalarimizni Shlesinger va Ordanning (2012) rejim matn ishlab chiqarishdan ko‘ra kuchliroq ta’sir qiladi, degan da’vosiga mos keladi. Demak, og‘zaki va yozma matnlar o‘rtasidagi farq tarjima va tarjima bo‘lmagan matnlar orasidagi farqdan kuchliroqdir. Shunday qilib, bizning ma’lumotlar to‘plamimizdagi sharhlar yozma tarjimaga qaraganda nemis tilidagi suhbatlarga ko‘proq o‘xshash bo‘lib, sharhlarni "tarjima qilingan" emas, balki "og‘zaki" qiladi. Shu bilan birga, bizning tadqiqotimiz ba’zi cheklovlarga ega ekanligini tan olamiz. Avvalo, biz variatsion tilshunoslikdan ilhomlangan xususiyatlar to‘plamidan foydalanamiz. Oldingi ba’zi tadqiqotlarda tarjimashunoslik tahlilida qo‘llanilgan bo‘lsa-da, u dastlab registr xilma-xilligini, shu jumladan, modal o‘lchovdagi xilma-xillikni tahlil qilish uchun ishlab chiqilgan. Biroq, bizning to‘plamdagi ko‘plab til naqshlari tarjimashunoslik tahlilida ham keng qo‘llaniladi (masalan, bog‘lovchi belgilar). Ushbu tadqiqotning yana bir kamchiligi shundaki, korpus ma’lumotlari cheklangan – u faqat siyosiy nutqlarni o‘z ichiga oladi. Shunga qaramay, bunday tahlil uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan ko‘plab tarjima korpuslari mavjud bo‘lsa-da, taqqoslanadigan talqin qilingan ma’lumotlarni topish qiyin.

Kelajakda biz tarjima qilingan va tarjima qilinmagan matnlarning xususiyatlarini yanada tadqiq qilish uchun xususiyatlar va ma’lumotlarni kengaytirishimiz kerak. Shuningdek, zamonning farqlanishiga hissa qo‘shadigan xususiyatlarni batafsil ko‘rib chiqish va bu xususiyatlarni sifatli tahlil qilish qiziqarli bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baker, Mona. 1993. Corpus linguistics and translation studies: Implications and applications. In Mona Baker, Gill Francis & Elena Tognini-Bonelli (eds.), Text and technology: In honour of John Sinclair, 233–250. Amsterdam: John Benjamins.

2. Bernardini, Silvia & Adriano Ferraresi. 2011. Practice, description and theory come together: Normalization or interference in Italian technical translation? Meta 56. 226–246

3. Baroni, Marco & Silvia Bernardini. 2006. A new approach to the study of translationese: Machine-learning the difference between original and translated text. Literary and Linguistic Computing 21(3). 259–274. DOI:

10.1093/llc/fqi039.
4. Kunilovskaya, Maria & Ekaterina Lapshinova-Koltunski. 2019. Translationese features as indicators of quality in English-Russian human translation. In Proceedings of the Human-Informed Translation and Interpreting Technology Workshop (HiT-IT 2019), 47–56. Varna: Incoma Ltd. https : / / www . aclweb . org / anthology/W19-8706
5. Halliday, Michael A.K. 2004. An introduction to functional grammar. London: Arnold.
6. Kajzer-Wietrzny, Marta. 2012. Interpreting universals and interpreting style. Unpublished PhD thesis. Poznan: Uniwersytet im. Adama Mickiewicza. (Doctoral dissertation).

Раушан ТОРЕЖАНОВА,
кандидат педагогических наук ТХТИ,
Шахризада ТОРЕЖАНОВА,
учитель русского языка РСМШ им. Р.М. Глиэра

ЗАГАДКИ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ В ЭСТЕТИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ В КАРАКАЛПАКСКОЙ НАРОДНОЙ ПЕДАГОГИКЕ

Annotatsiya: maqolada topishmoqlar va ularning qoraqalpoq xalq pedagogikasida yoshlarga estetik tarbiya berishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Topishmoqlarning asosiy maqsadi tafakkur va xotirani rivojlantirish, ongni bilim bilan boyitish, yosh avlodga estetik va axloqiy qadriyatlarni singdirishdir.
Kalit so`zlar: *topishmoqlar, estetik tarbiya, xalq pedagogikasi, qadriyat.*
Аннотация: в статье анализируются загадки и их значение в эстетическом воспитании молодежи в каракалпакской народной педагогике. Главным назначением загадок было развитие мышления и памяти, обогащение ума знаниями, привитие подрастающему поколению эстетических и нравственных ценностей.
Ключевые слова: *загадки, эстетическое воспитание, народная педагогика, ценность.*
Annotation: The article analyzes riddles and their significance in the aesthetic education of youth in Karakalpak folk pedagogy. the main purpose of riddles was to develop thinking and memory, enrich the mind with knowledge, and instill aesthetic and moral values in the younger generation.
Key words: *riddles, aesthetic education, folk pedagogy, value.*

Одно из важных мест в педагогической сокровищнице каждого народа занимают загадки. Фольклористы В.П. Аникин и Ю.Г. Круглов дают им следующее определение: «Загадка – это жанр, в котором вещи и явления воспроизводятся иносказательно, через сравнение их с отдаленно сходными» [1; с.127]

Известные ученые-педагоги Г.Н. Волков и Г.Д. Баубекова довольно шире трактуют определение загадок: «Загадки представляют собой комбинированные средства воздействия на сознание, призванные осуществить умственное воспитание в единстве со всеми другими сторонами формирования личности. Это единство достигалось благодаря тесной связи в загадках умного (мудрые мысли, многочисленные сведения о важном и нужном), и прекрасного (совершенные художественные формы загадок, поэтизация человеческой жизни и явлений природы и т.п.). [2; с.92]

В нашем случае, мы придерживаемся второй точки зрения, так как загадки действительно развивают образное мышление и память детей, и в то же время обогащают их сознание эстетическими представлениями об этих предметах и явлениях, а также воспитывают эстетический вкус.

В каракалпакской народной педагогике загадкам отводилась большая роль в воспитании подрастающего поколения.

Каракалпакское слово «загадка» – «жумбак», состоит из двух слов: «жум» – «прятать» и «бак» – «смотри», то есть слово «жумбак» означало «смотри на спрятанный предмет и отгадай».

У каракалпаков имеется давняя традиция на праздниках устраивать состязания по отгадыванию загадок. Тех, кто быстро отгадывал загадки, ждали ценные призы, а неспособных – ждали шуточные наказания: выпить 40 ложек воды, получить щелчки по лбу, устроить небольшое пиршество для друзей и т.д. Поэтому, в народе до сих пор бытует следующая поговорка: «жумбакты айкан адам кулып болады, ал шешкен адам гилт болады» (дословно: «Загадавший человек – замок, отгадавший – ключ»).

Загадки, как и другие виды каракалпакского фольклора, отражают созданный народом поэтический образ окружающей действительности: различных предметов и явлений, людей, животных и т.д. Высокопоэтичны каракалпакские загадки о природе, о солнце, о луне, о небе, о птицах и т.д.

Возьмем, к примеру, загадку о небе и земле:

Еки гилем кен гилем
Екеуи де тен гилем. (Аспан, жер)
Дословный перевод:
Два ковра – широкие ковры
Оба – равные ковры. (Небо и земля).

Или же, загадка о луне и звездах:

Кырык жапыраклы, бир мийуалы. (Ай, жулдыз)

Перевод: Сорок листьев, один плод. (Луна и звезды)

Такие загадки признаны были развивать мышление детей и подростков, приучать их анализировать предметы и явления из различных областей окружающей действительности. Наличие большого количества загадок об одном и том же явлении позволяло давать всестороннюю характеристику данному явлению.

Также, поучительны были загадки, содержащие разнообразные сведения о человеке, одежде, предметах быта, животных, птицах и так далее.

Каждая загадка по своей сути является хитроумным вопросом. Чаще всего в загадках встречаются метафоры, где предметы неживого мира метафорически сопоставляются с живыми существами и, наоборот, живые существа – с предметами и явлениями быта и природы. Это обусловлено, прежде всего стремлением загадки сделать ее отгадывание возможно более затруднительным.

Например: отасы палуандыр, анасы – жорга.
Баллары –ойыншы, кызлары – сазенде.
Перевод: отец – богатырь, мать – иноходец.
Сыновья – танцоры, дочери – музыканты.

Здесь метафоры, раскрывая каждую деталь загадки, способствуют созданию картины: «богатырь» – мост, «иноходец» – вода, «танцоры» – рыбы, «музыканты» – лягушки.

Загадки присутствовали также в дастанах и сказках.

Возьмем, к примеру, загадку – состязание между учителем и его учеником Нажепом из дастана «Ашык Нажеп»:

Устаз: Ол немедур тан атканша шок болар,
Ол немедур кун шыкканша йок болар.
Ол немедур атылмайын ок болар,
Нажеп шайыр болсан андын хабар бер.
Нажеп: Ол уркердур сахар уакты шок болар.
Ол жулдыздур кундиз куни жок болар
Ол олимдур атылмайын ок болар
Меннен сауал сорасан мани шул деди. [3; с.149]

Перевод Что это за пламя, немеркнущее до утра?

Учитель: Что это, которое исчезает при восходе солнца?

Если ты, Нажеп – поэт, дай правильный ответ.

Нажеп: Пламя, немеркнущее до утра – полярная звезда.

При восходе солнца исчезают звезды.

Вы меня спросили, вот вам мой ответ.

Народ всегда был высокого мнения о загадках, т.к. они играли огромную роль в жизни народа. Главным назначением загадок было развитие мышления и памяти, обогащение ума знаниями, привитие эстетических и нравственных ценностей подрастающему поколению. Значение загадок не исчерпано и по сей день.

Думается, что внедрение традиций народного воспитания в современный учебно-воспитательный процесс, станет важным компонентом в формировании гармонично развитой личности.

ЛИТЕРАТУРА:

1. В.П. Аникин, Ю.П. Круглов. Русское народное поэтическое творчество. Л.: Просвещение, 1987.
2. Г.Н. Волков, Г.Д. Баубекова. Этнопедагогика. Ташкент. Фан, 2000.
3. Каракалпакский фольклор. Многотомник. Нукус, 1978 Т.4 (на кк. яз).
4. Р.У. Торежанова. Традиции эстетического воспитания молодежи в каракалпакской народной педагогике. /Диссертация на соис.ученой степени кандидата педагогических наук. Ташкент, 2007.

Zuxraxon MADALIYEVA,
Andijon davlat universiteti doktoranti
zuhraxonmadaliyeva1995@gmail.com

O‘ZBEK ADABIYOTINING AMERIKALIK TADQIQOTCHISI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek adabiyotining xorijda o‘rganilishi, xususan, amerikalik tadqiqotchi Shawn Lyonning o‘zbek adabiyoti yuzasidan olib borgan tadqiqotlari haqida fikr yuritiladi.
Kalit so‘zlar: *adabiyot, mafkura, Shawn Lyon, xorijiy tadqiqotchi, “Boy ila xizmatchi”, “Munozara”.*
Аннотация: в данной статье рассматривается изучение узбекской литературы за рубежом, исследование, проведенное американским исследователем Шоном Лайоном по узбекской литературе.
Ключевые слова: *литература, идеология, Шон Лйон, зарубежный исследователь, “Бой ила хизматчи”, “Мунозара”.*
Annotation: this article discusses the study of Uzbek literature abroad, the research conducted by the American researcher Shawn Lyon on Uzbek literature.
Key words: *literature, ideology, Shawn Lyon, foreign researcher, “Servant of the Rich”, “Debate”.*

O‘zbek adabiyoti, uning rivojlanish qonuniyatlari, adabiyot va mafkura, adabiyotning ijtimoiyligi kabi masalalar jahon adabiyotshunosligi uchun dolzarb masalalardan hisoblanadi. O‘tgan asrda o‘zbek adabiyoti yuzasidan olib borilgan xorijiy tadqiqotlar ko‘proq ma’lum maqsadga asoslangan bo‘lsa, mustaqillikdan keyingi tadqiqotlarda yangi yo‘nalishlar ko‘rinadi. E.Allworth, D.Matushevskiy, W.Fierman, D.Montgomery kabi olimlarning izlanishlaridan farqli ravishda bugungi kun xorijiy tadqiqotlari ilmiy mushohadalar kuchli ekanligi, masalaga xolis yondashilgani bilan ajralib turadi. Naomi Beth Caffee Ozarbayjon va Qozog‘iston adabiyoti yuzasidan izlanishlar olib borayotgan bo‘lsa, Shawn Thomas Lyon, Christopher James Fort, Claire Nadine Roosien, Huseyin O‘zboy, Hasan Poksoy, Halim Kara, Nermin Erjan kabi olimlar o‘zbek adabiyoti bo‘yicha turkum tadqiqotlarni amalga oshirmoqdalar.

1999-yilda AQShning Wisconsin-Madison universitetida Shawn Thomas Lyon “Uzbek historical fiction and Russian colonialism, 1918-1936” (“O‘zbek tarixiy fantastikasi va rus mustamlakachiligi, 1918-1936”) mavzusidagi falsafa fanlari doktorligi uchun tayyorlagan dissertatsiyasida Hamza (“Boy ila xizmatchi”), Fitrat (“Abulfayzxon”), Qodiriy (“O‘tkan kunlar”), Cho‘lpon (“Kecha va kunduz”) asarlarini ham tahlil qiladi. Tadqiqotchi yuqoridagi asarlarni rus mustamlakachiligi kontekstida o‘rganganini aytar ekan, asosiy maqsadi mustamlakachilik siyosatiga mahalliy vakillik tizimi munosabati qanday (sheriklik yoki qarshilik) bo‘lganligini aniqlash ekanini ta’kidlaydi. Xususan, “Boy ila xizmatchi” asari haqida, o‘zining shunday mazmundagi xulosasini keltiradi: dramada Jamila kurashchi sifatida tasvirlansa-da, muallif ko‘pxotinlikni, ayollarga nisbatan noo‘rin munosabatlarni qoralasa-da, baribir erkaklar rolini yuqorida ko‘rsatishda davom etadi. Bizningcha, muallifning bunday xulosa keltirishiga bir necha omillar mavjud: birinchidan, muallifning dunyoqarashi gender masalasi katta ahamiyat kasb etadigan G‘arb madaniyati ostida shakllangan, Sharq xalqlarida ham bu masala ahamiyatli, albatta (Sharqda asrlar osha yashab kelayotgan ma’naviy qadriyatlar ham bor ekanligini yodda tutish kerak). Asarda erkaklarning roli oshirib ko‘rsatilayotgani bilan, undagi G‘ofur va boy obrazlarini tenglashtirib bo‘lmaydi.

Yuqorida aytilganidek, Sh.Lyon Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanini ham tahlilga tortadi. Muallifning o‘zi bu haqida asarni bir vaqtning o‘zida sobiq hukmron madaniyatni tasdiqlovchi va rad etuvchi, shu bilan birga, qarama-qarshi adabiyotni tanqid qiluvchi tadqiqot sifatida tahlil qilishga harakat qilganini aytib o‘tar ekan, Cho‘lponning Rus va G‘arbiy Yevropa adabiyotining yirik asarlarini o‘zbek tiliga mohirlik bilan tarjima qilganini, bu uning ajoyib bilimdonligi, ma’rifatliligidan ekanligini ta’kidlaydi. [1:161] Dissertatsiyaning “Imperial Fidelity/Indecent Russophilia in Night and Day” (“Imperiyaga sodiqlik/ Kecha va kunduzdagi nomunosib rusofiliya”) (Russophilia – (so‘zma-so‘z Rossiya yoki ruslarga bo‘lgan muhabbat) bu Rossiyaga (shu jumladan, Sovet ittifoqi va Rossiya imperiyasi davriga), rus tarixiga, rus madaniyatiga hayrat va muhabbat.) deb nomlangan bobida muallif asarni g‘oyaviy jihatdan tahlil qilishga urinadi. Shuningdek, ko‘pxotinlik va zaharlash mavzusi “Boy ila xizmatchi” (Hamza), “O‘tkan kunlar” (Qodiriy), “Kecha va kunduz” (Cho‘lpon) asarlarini birlashtiruvchi jihatlar ekanini aytib o‘tadi.

2001-yil “Inner Asia” jurnalida olimning “Resisting colonialism in the Uzbek Historical Novel “Kecha va kunduz” (Night and day), 1936” (“O‘zbek tarixiy romani “Kecha va kunduz”da mustamlakachilikka qarshi turish”) nomdagi maqolasi e`lon qilinadi. “Kecha va kunduz” romanining g‘oyasi, obrazlar tizimi, undagi til vositalari xususida so‘z yuritilib, u yuqoridagi dissertatsiyaning umumiy mazmunini aks ettirgani bilan xarakterlidir. Anglashiladiki, bugungi tadqiqotlar garchi obyekti bir bo‘lishiga qaramay, ularga yondashuv avvalgi izlanishlardan farq qiladi.

Shawn Lyonning Fitrat haqidagi yaqin yillarda

yozilgan tadqiqoti ham o‘zbek jadid davri adabiyotining xorijdagi tadqiqotlari orasida ajralib turuvchi ishlardandir. Tadqiqotchining “Central Asian Survey” jurnalining 2012-yil oktabr sonida e’lon qilingan “Chase away this pig from the mosque”: Eastern politics in the Indian dramas of Abdurauf Fitrat” (“Bu cho‘chqani masjiddan quvib chiqaring”: Abdurauf Fitratning Hind dramalarida Sharq siyosati”) maqolasida “Chin sevish”, “Hind ixtilolchilari” asarlarini tadqiq qiladi. Muallif yuqoridagi ikki asar yaratilgan davrda mahalliy hokimiyatning senzurasidan omon qolishi uchun muhim xayoliy tanqid maskaniga aylangan hududlar Hindiston va Afg‘oniston bo‘lganini aytadi. Maqola muallifi Fitratdan tashqari yana Hamza Hakimzoda ham bu hududlarda bo‘lib, keyinchalik bu haqida yozganini, Zokirjon Furqat va Abdulla Avloniylar ham ushbu joylarda bo‘lganini ta’kidlaydi. 1920-yillarda nashr etilgan va sahnalashtirilgan har ikki drama (“Chin sevish”, “Hind ixtilolchilari”) markazida ingliz imperializmi turar edi. Sh.Lyonga ko‘ra, 1917-yildan keyin Sovet hokimiyati ingliz imperializmini qoralashni kuchaytiradi, Sharq musulmonlarini Angliyaga qarshi birlashishga chaqiradi va ayni shu tomondan Fitratning yuqoridagi asarlari Sovet hukumati va mustamlakachilikka qarshi turli tashkilotlar tomonidan ilgari surilgan chaqiriqqa munosib javob bo‘ldi. Dastlab sovet tanqidchilari tomonidan maqtovga sazovor bo‘lib, keyinchalik Sovet inqilobi aks etmagani uchun qoralangan har ikki asar 1919-1926-yillarning mahalliy aktyorlariga ham yoqqan edi. Dramalar Samarqand, Toshkent va boshqa shaharlarda sahnalashtirilib, shu qadar mashhur bo‘ladiki, Chimkentdagi aktyorlar guruhi o‘zlarini “Fitrat teatr guruhi” deb o‘zgartirishga qaror qilishadi. Fitratning Hindiston bilan bog‘liq birinchi asari “Munozara” edi. Undan so‘ng “Kommunist”, “Hurriyat” kabi mahalliy gazetalarda Fitratning musulmon dunyosi, xususan, Afg‘oniston taqdiriga bo‘lgan munosabatlari aks etgan “Ingliz intrigasi”, “Inglizlar va Turkiston”, “Sharq siyosati”, “Afg‘on ishi” kabi maqolalari e’lon qilindi. Sh.Lyon Fitratning 1917-yildan keyin ham musulmon dunyosi uchun eng katta xavflardan bo‘lib qolayotgan narsa mustamlakachilik ekanini ta’kidlashda davom etib, uning “Sharq siyosati” (1919-yil) asaridan ayrim parchalarni keltiradi. Shuning bilan bir qatorda, uni “Turkistonda ruslar” (1917-yil) asari bilan qiyoslab, Fitrat qarashlaridagi o‘zgarishlarni ko‘rsatib o‘tadi. Uning dramalari haqida to‘xtalar ekan, “Hind ixtilolchilari”ning Germaniyada ham nashr qilinganini aytadi. Fitrat dramalari sovet dunyosi mafkuraviy talablarining bir qismini bajargandek tuyulsa-da, ularda jadidlarning g‘oyasi o‘z aksini topgan edi. Xususan, Abdulhamid Cho‘lponning “yaqinda o‘zbek sahnasi ulug‘ va ulug‘ligi qadar yuksak ham go‘zal bir tomosha (pyesa) ko‘rdi” degan e’tirofiga sazovor bo‘lgan “Chin sevish”da jadidlarning majburiy nikohga qarshilik g‘oyasi mavjudligi seziladi. Bundan tashqari, ma’rifatparvar Fitratning “Hind ixtilolchilari” asari Berlin universiteti tadqiqotchilaridan bo‘lgan Ahmad Shukriy tomonidan Husayn Jovidning “Shayx San’on” asariga qiyoslanadi. [3:32]

Shuningdek, tadqiqotchining o‘zbek adabiyoti yuzasidan olib borgan yana bir “Otabek`s return: Ignoring the lessons of Jadid reformism in Modern Uzbekistan” izlanishida Hamzaning “Boy ila xizmatchi”, Fitratning “Chin sevish” hamda Qodiriyning “O‘tgan kunlar” asarlari g‘oyasi, qahramonlari tahlilga tortiladi. [2:2-12] “Boy ila xizmatchi”da kitobxon ikki toifadagi ayollarni uchratadi: biri – Jamila, qo‘shxotinlikka qarshi, ikkinchisi – turmush o‘rtog‘ining e’tiborini tortish uchun har qanday yovuzliklarga qo‘l ura oladigan kundoshlari. Dramada ko‘rinadigan ayollar qarshiligi, taslim bo‘lmaslik harakatlari, o‘z taqdirlarini o‘zgartirish uchun qilgan amallari muvaffaqiyatsiz yakun topadi, har ikki toifadagi ayollar jamiyatdagi hech bir ijtimoiy o‘zgarishlarga qarshilik qila olmaydi, ayni shu jihati bilan ular tengdirlar. Bizningcha, Jamila obrazini boyning boshqa ayollari bilan tenglashtirish biroz noo‘rin. Jamila kundoshlari kabi muhitga ko‘nib ketavermadi, o‘z erki uchun kurashdi, garchi bu yo‘l uni o‘limga yetaklasa ham. Uning uchun jismoniy o‘limdanda qo‘rqinchlisi ma’nan yoki qalban o‘lim edi. Shunday ekan, uning o‘limini imkonsiz vaziyatdagi g‘alabasi sifatida ham baholash mumkin. Sh.Lyon majburiy nikoh har doim “mustamlaka va mustamlakachi” o‘rtasidagi ziddiyatga bo‘ysundirilishini aytadi. Bu holni Jamila va kundoshlari, Jamila va boy, Jamila va muhit konfliktlarida ko‘rish mumkin.

Tadqiqotchi “O‘tkan kunlar” asari garchi muallifining o‘zi (Qodiriy) shu zamonning “Tohir Zuhra”lari, “Chor darvesh”lari, “Farhod Shirin”lari bilan tanishtirishga majburiyat his etishiga qaramay, unda an’anaviy ishqiy asarlar andazasini ko‘radi. Xususan, Otabekning Kumush dardida iztirob chekishi, ishq xastaligiga chalinishini Majnunga qiyoslasa, Kumushning “qora ko‘zlari”, “kamondek qoshlari”, “oy yuzlari” Markaziy Osiyo adabiyotidagi go‘zallarning an’anaviy tasviridir. Kumushning boshqalarning qaroriga ko‘ra, o‘zi ko‘rmagan kishisiga nikohlanishi to‘g‘risidagi qaror uni Hamzaning yuqoridagi qahramoni Jamila bilan birlashtiradi. Avvaliga faqat bir inson turmush qurib, baxtli yashash g‘oyasini ilgari surgan Otabekning, keyinchalik Zaynabga ham uylanishga rozi bo‘lishi esa Otabek va boy timsollarini o‘zaro birlashtiradi. Faqat bunda Otabekning ota-ona roziligi majburiyati ostida qolgani, boyning esa nafs talabidan shunday yo‘l tutganini unutmaslik lozim.

Muallifga ko‘ra, har uchala asarni umumlashtiruvchi jihat bu – an’anaviy gender mafkurasi. Bizningcha, muallif bu o‘rinda ayollarga xos hokisorlik, kamtarlik, “ojizalik” kabi sifatlarni nazarda tutmoqda. Sh.Lyon yuqoridagi asarlarda majburiy nikoh, qo‘shxotinlik qoralanishiga qaramay, qahramonlar nutqi va xatti-harakatlari orqali ayollarning shunday

bo‘ysunuvchanligi ideallashtirilgan xayoliy muhitni yaratib ulgurganini qoralaydi. O‘tmish davrda ayollar masalasi, taqdiri haqiqatdan shunday kechgan edi. Ya’ni mualliflar ayollar taqdiri bilan bog‘liq xayoliy bo‘lmagan, real hayotda sodir bo‘lgan voqealarni asarlarda ifodalaganlar.

Ko‘rinadiki, jahon adabiyotshunosligidagi bugungi izlanishlar nazariy masalalarni tadqiq etishni maqsad qilgan. Xususan, adabiyotshunoslikdagi mavzu, shakl, mazmun, voqelik, estetik ideal kabi tushunchalar bugungi davr izlanuvchilarining diqqat markazidan o‘rin egallagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lyon Sh Uzbek historical fiction and Russian Colonialism, 1918-1936. Doctor of philosophy (Central Asian Languages and Cultures) dissertation. University pf Wisconsin-Madison. 1999.

2. Lyon. Otabek`s return: Ignoring the lessons of Jadid reformism in Modern Uzbekistan. YRL. ILL. Document delivery services. Journal of Central Asian Studies: the publication of the association for the advancement of Central Asian Research. Vol/Iss 5 1, 1 5 . 2000.

https://en.m.wikipedia.org

3. Турдиев.Ш “Ҳинд ихтилолчилари” фожиаси ҳақида. “Шарқ юлдузи” журнали. 1990.4. 32 б.

Umidaxon USMONOVA
Farg’ona davlat universiteti tayanch doktoranti

STRUCTURAL-SEMANTIC AND LINGUOCULTUROLOGICAL STUDY OF VERB PHRASEOLOGICAL UNITS IN UZBEK, RUSSIAN, AND ENGLISH LANGUAGES

Annotation: this article aims to conduct a comparative analysis of verb phraseological units in Uzbek, Russian and English languages , focusing on their structural-semantic and linguoculturological aspects. Verb phraseological units are established expressions comprising a verb along with one or more accompanying words that serve as complements or modifiers.

Key words: *phraseological units, structural-semantic aspects,linguoculturological aspects,idiom, idiomatic expressions, culture, metaphorical dimension.*

Annotatsiya: ushbu maqola o‘zbek, rus va ingliz tillaridagi fe’lli frazeologik birliklarning qiyosiy tahlilini o‘tkazish , ularning tarkibiy-semantik va lingvokulturologik jihatlariga qaratilgan. Fe’l frazeologik birliklari to'ldiruvchi yoki o'zgartiruvchi sifatida xizmat qiladigan bir yoki bir nechta qo‘shma so‘zlar bilan birga fe’lni o‘z ichiga olgan belgilangan iboralardir.

Kalit so’zlar: *frazeologik birliklar,tarkibiy-semantik jihatlar,lingvokulturologik jihatlar, idioma, idiomatik iboralar, madaniyat, metaforik o'lchov.*

Аннотация: данная статья посвящена проведению сравнительного анализа глагольных фразеологизмов узбекского, русского и английского языков , их структурно-семантическим и лингвокультурологическим аспектам. Глагольные фразеологизмы-это определенные фразы, содержащие глагол вместе с одним или несколькими составными словами, которые служат дополнением или модификатором.

Ключевые слова: *фразеологические единицы, структурносемантические аспекты,лингвокультурологические аспекты, идиома, идиоматические выражения, культура, метафорическое измерение.*

Language plays a crucial role in every society, and phraseological units serve as fundamental elements within language frameworks. They mirror the distinct traits of a culture, transmitting idiomatic expressions and cultural subtleties. This piece explores the structural, semantic, and linguoculturologic dimensions of verb phraseological units across Uzbek, Russian, and English. Through comparing and contrasting these languages, our objective is to illuminate the intricate relationship between language and culture. Phraseologisms are special units of the language in which the cultural identity of the people is reflected. They indirectly reflect the views of the people, the social system, the ideology of their era. The phraseological wealth of any language is the property of its national linguistic consciousness. Most phraseologisms are untranslatable into other languages: each nation shows its nature in them, the familiar figurative turn of speech. The impact of phraseological units gives the language vividness of the national character and unique flavor that distinguishes one from the other both the languages of centuries-old culture and the literary languages newly composed by writing. Verb phraseological units are established expressions comprising a verb and other lexical elements, forming a cohesive semantic entity. Across Uzbek, Russian, and English, these units typically maintain consistent word order and collocational patterns. For instance, in Uzbek, the phraseological unit "qo'lga kelmoq" (to go to hand) conveys the meaning of "to become available" or "to come to hand." Similarly, the Russian expression "копать землю" (to shovel the earth) signifies "to die,"

while in English, "kick the bucket" also means "to die." These illustrations highlight the fixed structure of verb phraseological units in these languages.

The semantic examination of verb phraseological units unveils the figurative and idiomatic connotations they carry. In Uzbek, numerous phraseological units reflect cultural customs and beliefs. For example, "olimni tut" (to catch the scientist) symbolizes "to encounter difficulties" or "to face challenges." In Russian, "выйти из под контроля" (to go out of control) signifies "to become unmanageable" or "to spiral out of control." Similarly, the English expression "let the cat out of the bag" means "to disclose a secret." These instances underscore the cultural and metaphorical dimensions inherent in verb phraseological units. Examining verb phraseological units through a linguoculturological lens delves into the intricate relationship between language and culture. These units are deeply embedded in cultural contexts, mirroring the history, traditions, and values of communities. In Uzbek, they often embody notions of hospitality, respect, and societal norms. Russian phraseological units frequently draw from literature, folklore, and historical events, while English ones reflect Western cultural aspects, including sports, literature, and popular culture. This analysis unveils the unique cultural traits embedded within these languages. Verb phraseological units serve as cultural artifacts, embodying the customs, beliefs, and collective experiences of communities. English units may reference Western cultural practices and popular culture, like "break the ice," symbolizing initiating social interaction. These units shed light on the cultural values and shared experiences of language speakers. Linguistic diversity manifests in variations of verb phraseological units across dialects or regions within a language. In Uzbek, variations stem from geographical distribution, including local dialects or loanwords from neighboring languages. Russian exhibits dialectal diversity due to its expansive territory, resulting in regional differences in phraseological units. Similarly, English displays variations across different English-speaking countries, reflecting diverse cultural influences. Exploring the structural, semantic, and linguoculturological aspects of verb phraseological units in Uzbek, Russian, and English offers a captivating insight into the intersection of language and culture. By analyzing their consistent structure, metaphorical interpretations, and cultural implications, we enhance our comprehension of the values, beliefs, and customs within each community. Such investigations play a crucial role in safeguarding and celebrating linguistic variety and cultural legacy.

References:

1. Ганиева Д.А. Жаҳон тилшунослигида феълларни таснифлаш масалалари /«Филологиянинг долзарб масалалари» халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. 1-жилд. – Фарғона, 2022, март. – Б.283-286.

2. Ганиева Д.А. Турли тизимдаги тиллар феълларида грамматик категориялар /«Филология таълими масалалари: муаммо ва унинг инновацион ечимлари» халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. 2қисм. – Фарғона, 2022. – Б.5052

3. Ivanova E.V. A world in English and Russian proverbs. – St. Petersburg: SPGU, 2006.

4. Macmillan Dictionary and Thesaurus: Free English Dictionary Online [Electronic source]. URL: http://www.macmillandictionary.com (08.12.2014).

5. Kunin A. V. Course of Modern English Phraseology. Moscow. Phoenix Publishing Center, 1996. 381 p.

E’zoza ALIMOVA,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milly universiteti magstranti

“USTA GULMAT” TURKUMIDAGI G‘AZALLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada Anvar Obidjonning “Usta Gulmat” turkumidagi g‘azallarning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ayrim fikrlar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *uchchanoqlar, shakl, muxammas, ruboiylar, Kulkul afandi, kompozitsiya, g‘azal, mumtoz an’ana.*

Аннотация: в статье изложены некоторые мысли об особенностях газелей серии Анвара Обиджона «Уста Гулмат».

Ключевые слова: *тройни, форма, мухаммас, рубаи, Кулкул Эфенди, композиция, газель, классическая традиция.*

Annotation: this article contains some thoughts about the specific features of the ghazals of Anvar Obidjon's "Usta Gulmat" series.

Key words: *triplets, form, mukhammas, rubai, Kulkul Effendi, composition, ghazal, classical tradition.*

Anvar Obidjon ijodining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri, mumtoz adabiyotda mavjud bo‘lgan an’analarga,

jumladan, mumtoz she'riy shakllarga murojaat etganligida ko'rinadi. Yangi shakl vositasida o'z davrida aytish mushkul bo'lgan qaltis fikrlarni ham ilgari surish mumkin edi. Buning uchun shoir adabiyotimizning qadim-qadimdan mavjud bo'lgan turli janrlariga murojaat qilib, ulardan unumli foydalanishga, mazmunga mos libos tanlashga intildi. Shuning uchun bo'lsa kerak, kitobxon ko'z o'ngida uning asarlari shakl va mazmunning munosib kelishligidan dunyoga kelgan noyob manbadek taassurot qoldiradi.

Shoir ijodidagi yangi shakliy izlanishlar uning bir qatorli "ignabarg", ikki misralik "Fardlar", uch qatordan tashkil topgan "Uchchanoqlar" deb atalgan she'rlarida, Usta Gulmat, Kulkul afandi, bulbulcha nomidan bitilgan va raqamlangan "G'azallar", "Muxammaslar", "Falsafalar", "Muloqotlar", "Mustazodlar", "O'gitlar", "Ruboiylar", "Tuyuqllar", o'zi tomonidan bitilgan "G'azal shaklidagi she'rlar"ida ayon bo'lsa, mazmunan ularning organizmiga erk va ozodlik, millatparvarlik, ezgulik va go'zallik, muhabbat va fidoiylik tuyg'usi singdirib yuborilganida namoyon bo'ladi. Adib o'zining ana shu g'oyaviy niyatlarini o'quvchiga aniq yetkazish uchun qahramonlarga ism, zamon va makon tanlashga ham, tashqi va ichki qiyofasini goh parallel, goh kontrast holda tasvirlash ham alohida e'tibor beradi.

Usta Gulmat va Kulkul afandi ikkovi birlashib, o'z davrida avj olayotgan chirkin illatlarni turli xil badiiy vositalar orqali fosh qilishga kirishadi. Adibning Gulmat, Kulkul afandi nomidan yozgan barcha asarlari o'sha davr adabiyotida tomir oayotgan madhiyabozlik, soxta gumanizm, didaktizm, lo'ttibozlik kabi ko'rinishlariga qarshi jiddiy parodiyalar sifatida dunyoga kelganini va ular adabiy jamoatchilik uchun o'z davrida ogohlik da'vati bo'lib yangraganini alohida ta'kidlash zarur.

Bu turdagi asarlari adibning "Bezgakshamol", "Alamazon va Gulmat hangomasi", "Alamazon va Gulmat" deb nomlangan to'plamlarida jamlangan. Albatta, bu kitoblar hajmi, ya'ni asarlarning ko'p yoki ozligi va yangiligi bilan bir-biridan farq qiladi. Muallif hatto kitoblarini nomlashda ham farq borligiga ishora qiladi. Masalan, "Alamazon va Gulmat hangomasi" kitobi "Alamazonning boshidan kechirganlari" qissasi, "To'tiqul" pyesasi va "Kambag'albop Gulmatiy" nomli bo'limlardan iborat. "Alamazon va Gulmat" to'plamiga esa "Alamazon va uning piyodalari", "Yaltiroq tugma" qissalari hamda "Kambag'albop Gulmatiy" hangomasi kiritilgan.

"Mushtum" kutubxonasi seriyasida chop etilgan va yumoristik hangomalardan iborat "Bezgakshamol" O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmadning "Usta Gulmatning mirzosi" nomli so'zboshisi bilan boshlanadi. Unda yozishicha, "Adabiyotga olovdek yonib kirib kelgan Anvar Obidjon hajv dargohiga bir etak kulgu ko'tarib keldi. To'plamdagi jamiki g'azallarni adib o'tgan asrda yashab, ijod etgan Usta Gulmat degan shoir" nomidan bitgan.

Bundan shu anglashiladiki, Usta Gulmat shoirning o'zi. "Bezgakshamol"da Usta Gulmat nomidan yozilgan 50 ta g'azal, ikkita g'azal, 3 ta mustazod, bitta hangoma, 9 ta ruboiy, 5 ta tuyuq, 10 ta fard va o'gitlardan namunalar berilgan. "Alamazon va Gulmat hangomasi" kitobidan Gulmat Shoshiyning 71 ta g'azali, 5 ta muxammasi, 2 ta muloqoti, 15 ta fard va so'nggida "Usta Gulmat jumbog'i", "Alamazon va Gulmat" to'plamidan esa 63 ta g'azal, 5 ta muxammas, 2 ta mustazod, shuningdek, "Falsafalar", "O'gitlar", "Fardlar" o'rin olgan.

Har ikkalasida ham "Sartaroshlikdan – gaptaroshlikka" o'tgan Gulmat haqida to'la ma'lumot beriladi. Ular "olimlikka ishqiboz, ashaddiy Gulmatshunos Burundor Tusmoliyning hali tasdiqlanmagan ilmiy ishi"dan olingan. Xo'sh, Gulmat kim va u qanday shoir? Tusmoliyning (aslida A.Obidjonning) yozishicha, asli Farg'ona vodiysidan Toshkentga kelib turg'unlashib qolgan Gulmat "o'rtamiyona ismining ortiga Shoshiy degan dabdabali taxallusni tirkab" ijod qilishga kirishadi.

Said Ahmadning "Usta Gulmat ba'zan juda quv, ba'zan o'ta ketgan darajada landavur, ba'zan sodda mug'ombir...", tadqiqotchi Tusmoliyning "to'pori va dalliroq, lekin g'irt ahmoq ham bo'lmagan" degan ta'riflari uning xarakterini va asarlari mazmun-mohiyatini to'g'ri anglashimizga yordam beradi. Ma'lumki, bunday darveshnamo kimsalar dilidagini tiliga chiqarib, shartta aytaveradigan jasoratga (Mashrabni eslang) ega bo'lishadi. Gulmat Shoshiy ham zamona zayliga qarab o'tirmay, ayrim illatlarni keskin tanqid qiladi. Demak, yozuvchi qahramonini shunday qiyofada taqdim etish va u yashagan zamonni oldingi asr deb ko'rsatish bilan o'sha paytda qilichini qayrab turgan senzuraning ko'zini chalg'itmoqchi bo'lgan.

Anvar Obidjon "o'zining galdir qahramonidan juda ustalik bilan foydalangan, – deb yozadi Said Ahmad. – U hamma gapni yumoristik til bilan jiddiy tarzda aytayotgandek ko'rinsa-da, aslida maishatparastlik, dumbul falsafabozlik, gumrohlarcha dindorlik, xudbinlik, ig'vogarlik, loqaydlik, manmanlik, molparastlik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, munofiqlik kabi salbiy illatlarni beayov masxaralaydi, ustidan kuladi". Tabiiyki, jamiyatda chuqur ildiz otgan bunday qusurlarni, kamchiliklarni keskin fosh etish va tanqid qilish uchun ijodkor o'zini bir qadar erkin his etishi kerak. Ijodiy erkinlikka to'siq qo'yilgan bir paytda Anvar Obidjon Gulmat obrazini bejiz tanlamagan. Bu obraz ustozi Abdulla Qodiriydan o'rganishi samarasi va ijodiy ta'sirlanishi natijasida yuzaga kelgan. Bu haqida adibning o'zi quyidagicha yozadi: "Keyinroq, aynan o'sha Kalvak mahzum qiyofasida endi shoirga aylangan Gulmat ham shu yo'ldan borib, o'z g'azallarida xalqimizning bugungi dardlarini cho'qilab-cho'qilab bo'lsa-da, izhor qilishga tutindi" ("Ajinasi bor yo'llar", 161-b). Gulmat o'z g'azallarida xalqning

bugungi dardlarini, ichki his-tuyg‘u va armonlarini kuylashga harakat qiladi. Mana bu misralarida u o‘zini shoir sifatida “nosog‘roq”, yozganlari “shaklan g‘azal”dek ko‘rinsa ham, ular mazmunan xalq dardiga darmon bo‘lishini aytib, o‘zining bu boradagi ijodiy prinsiplarini quyidagicha ilgari suradi:

Bu nechuk shoir demang, asli man nosog‘roq,
Yozg‘onim shaklan g‘azal, lek o‘zi barmog‘roq.
Har qalay she’rimda bor ma’niyu oz-moz fikr,
Ko‘p axir ahli qalam mandinam maymog‘roq.
Asli chin ash’ornavis yozmagay oddiy bayon,
Barchani o‘ylantirur gap otib ilmog‘roq.

Keltirilgan misoldagi “nosog‘roq”, hamda “Ko‘p axir ahli qalam mandinam maymog‘roq” iboralariga e’tibor qaratsak. Shoirning “nosog‘roq” so‘zi kasal, betob ma’nosida emas, balki “bilimsiz, to‘g‘ri tushunmaydigan” degan ma’noda kelyapti. Keyingisi esa aynan parodiya janriga xos achchiq kinoya, keskin inkor bilan to‘ydirilgan. Aytmoqchiki, “mening she’rlarim har holda oz-moz ma’no va fikr bor, ammo shunday qalam ahli borki, asarlaridan kunduzi chiroq yoqib ham bu tanqis matolarni topolmaysiz”. “Maymog‘roq” so‘zi oyog‘i qiyshiq degan to‘g‘ri ma’nosidan tashqari “bundayroq, chalasavod, befahm” kabi qo‘shimcha vazifalarni ham bajaryapti. Bu, shubhasiz, adibning so‘z ustida jiddiy ishlashini, so‘z ma’nosiga chuqur yondashishini asoslaydigan faktlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Obidjon A. Bezgakshamol. – Toshkent: Sharq, 1985.
2. Obidjon A. Аламазон ва Гулмат ҳангомаси. Қиссалар, ҳангомалар. – Т.: Чўлпон нашриёти, 1992.
3. Obidjon A. Alamazon va Gulmat hangomasi. Qissalar, hangomalar. – T.: Cho‘lpon nashriyoti, 1992.
4. Obidjon A. Alamazon va Gulmat. Hajviy qissalar, she’riy hangomalar. – T.: Ma’naviyat, 1998.
5. Solijonov Y. So‘z sehri va mehri. – Toshkent: Sharq, 2018.
6. Barakayev R. Jonajonim, she’riyat. – Toshkent: Cho‘lpon, 1997.
7. Barakayev R., Mamatalimov Z. Anvar Obidjonning nurli ijodi/ “O‘zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon tavalludiga 70 yil” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. (1-kitob) – Toshkent, 2017.
8. Barakayev R., Mamatalimov Z. Anvar Obidjonning nurli ijodi/ “O‘zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon tavalludiga 70 yil” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari (2-kitob). – Toshkent, 2017.
9. Boltaboyev H. Nasr va uslub. – Toshkent: Fan, 1992.
10. Yoqubov I. Badiiy-estetik so‘z sehri. – Toshkent: TDPU, 2011.
11. Yoqubov H. Saylanma (Adabiy-tanqidiy maqolalar) 2 jildlik. 1-jild. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983.

Parizoda AXRORXO‘JAYEVA,
Farg‘ona davlat universiteti
1-bosqich magistranti
Parizodaruziboyeva@gmail.com

MAYSARANING MAKRI YOXUD MAZLUMLAR OHI HAQQA YETGANDA

Annotatsiya: ushbu maqolada jadid dramaturgiyasining eng yaxshi asarlaridan biri bo‘lgan Hamza Hakimzoda Niyoziy qalamiga mansub “Maysaraning ishi yoki burungi qozilar” dramasi tahlil etiladi. Dramadagi ayollar xarakteri, xususan, Maysara obrazining ruhiyati, fe’l-atvoridagi o‘ziga xosliklarga, o‘sha davrda ayollarga bo‘lgan munosabatlarga alohida to‘xtalib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: *jadid dramasi, Oyxon, Maysaraning makri, obrazlar psixologiyasi, obrazlararo o‘xshashlik.*

Аннотация: в данной статье анализируется одно из лучших произведений современной драматургии, драма «Произведение Майсары, или Судьи носа», написанное Хамзой Хакимзаде Ниязи. Подчеркивается характер женщин в драме, в частности, психика героини Майсары, особенности ее характера, отношение к женщинам в то время.

Ключевые слова: *современная драматургия, Айхан, трюк Майсары, психология образов, сходство образов.*

Annotation: this article analyzesbthe drama “Maysaraning ishi yoki burungi qozilar” written by Hamza Hakimzada Niyazi, one of the most original works of modern dramaturgy. The character of women in the drama, in particular, the psyche of Maisara’s character, the peculiarities of her character, and the attitudes towords women at that time are emphasized.

Key words: *modern drama, Oykxon, Maisara’s trick, psychology of images, similarity between images.*

Har davrning o‘z mavzusi, o‘z muammosi va o‘z qahramonlari bo‘ladi. Ular zamonasining eng oldi kishilaridan bo‘lib xalqni bir mushtarak maqsad, bir o‘y, bir istak atrofida birlashtirishga intiladi. Ana shu qahramonlar davrning, kishilarning har qanday qarshiligiga bo‘yin egmaydi, aksincha, yanada shiddat-u shahd bilan harakat qiladi. Kimdir olqishlaydi, kimdir tosh otadi. Kim haq ekanligini esa yillarning o‘zi isbot etadi.

Jadidlar – ma’tifatparvar bobolarimiz ham ana shunday bir maqsadni ilgari surgan edi. Ular xalqni ilm-u ma’rifatga yetaklash, ularni dunyo madaniyati va ilm-fani bilan tanishtirish, yangi dunyolarni kashf etish borasida bir qancha ishlarni amalga oshirdi: gazeta va jurnallar, o‘quv darsliklar nashr ettirdi, yo‘qsillarga yordam berdi, ilmga intilgan yoshlarni xorijga o‘qishga yubordi, yangi romanlar, yangi dramalar yozishdi. O‘zlarining otashnafas she’rlari, asarlari orqali millat madaniyatini yuksaltirishga harakat qildi. Yangi o‘quv binolari, yangi o‘qitish usullarini tatbiq etishdi. Bu harakatlar qisqa fursatlarda o‘z natijasini bera boshladi.

Bu davrda o‘z g‘oyalarini teranroq anglatishda sahna asarlaridan keng foydalanildi. O‘z navbatida omma uchun qiziq bo‘lgan “Padarkush” (Mahmudxo‘ja Behbudiy), “Baxtsiz kuyov” (Abdulla Qodiriy), “Biz va Siz” (Abdulla Avloniy), “Yorqinoy” (Abdulhamid Cho‘lpon), “Juvonmarg” (Abdulla Badriy), “Mazluma xotin” (Hoji Muin) kabi dramalar sahna yuzini ko‘rdi.

Bu dramalar maishiyligi, hajviyligi, kundalik hayotga yaqinligi, ijro mahoratining yuksakligi va mavzuning puxtaligi bilan keng yoyildi. Bu dramalar oz bo‘lsa-da, o‘ylashga, fikr yuritishga undadi.

Bu davrda drama janrida sermahsul ijod qlgan Hamza Hakimzoda Niyoziy “Paranji sirlaridan bir lavha yoki Yallachilar ishi”, “Burungi saylovlar”, “Qozining sirlari”, “El quzg‘unlari”, “Burungi qozilar yoki Maysaraning ishi” kabi asarlar yaratdi. Bu sahna asarlari achchiq kulgiga boyligi, soxta dindorlar ustidan nihoyatda ustalik bilan kulinganligi, qochirimlarga va inkor etib bo‘lmas haqiqatlarga to‘laligi bilan ajralib turdi. O‘zbek dramaturgiyasining dunyoga kelishi, janrlarining ko‘payishi va rivojlanishida Hamza Hakimzodaning roli shak-shubhasiz beqiyosdir. Garchi dramaning ilk namunasi Behbudiy tomonidan yozilgan bo‘lsa ham, bu adabiy turning barcha janrlarida yetuk asarlar yaratish uning zimmasiga tushdi. Yana shunisi ham muhimki, u o‘zbek adabiyotida birinchi bo‘lib dramatik trilogiya (“Loshmon fojiasi”, 1916-19-y), dramatik tetralogiya (“Farg‘ona fojiasi”, 1918-20), she’riy dramalar (“Saylov oldidan”, “El quzg‘unlari”) ni adabiyotimiz xazinasiga olib kirdi. Bu faktlar o‘zbek dramaturgiyasining tom ma’nodagi asoschisi Hamza Hakimzoda Niyoziy bo‘lganligini yana bir bor tasdiqlaydi. Taniqli va mahoratli rejissyor Bahodir Yo‘ldoshev “Oyina” jurnaliga bergan intervyusida shunday deydi: “Bizda Hamza bilan bo‘ylasha oladigan dramaturg yo‘q. Uning har bir pyesasidan tilni, voqealarni bir-biriga qanday bog‘lashni o‘rganish mumkin. Odatda, pyesalar o‘qiladi yoki yoziladi. Hamzani ham o‘qiysiz, ham ko‘rasiz. Yumorlari juda nozik, askiyalar me’yoridan o‘tmagan.”

“Maysaraning ishi” daramasi ham Hamza ijodining eng sara asarlaridan biridir. Ushbu drama uch pardadan iborat bo‘lib unda xotinga o‘ch, birovning haqqiga hiyonat qilishdan, birovning haramiga ko‘z olaytirishdan cho‘chimaydigan, shariat qonunlarini o‘zining foydasiga hal etadigan amaldorlar, ochko‘z kimsalar va qalbi sof sevgi-muhabbatga to‘lgan, mehnatkash, dilkash odamlar haqida so‘z boradi.

Dramaning bosh qahramonlaridan biri bo‘lgan Maysara nihoyatda oqila, tadbirli, ishning ko‘zini biladigan, aqlli ayol. U jiyani Cho‘pon va kelini Oyxonlarning baxtli hayot kechirishi uchun harakat qiladi. Amaldorlarni hiyla bilan qo‘lga tushiradi. Muallifning o‘zi ta’kidlaganidek botir yurak deganicha bor. Uning nutqidagi ohangdoshlik, qofiyadoshlik Cho‘lponning “Yorqinoy” dramasidagi Kal obrazini eslatadi.

Bu drama tomoshabinda ham, o‘quvchida ham sof, samimiy kulgu uyg‘otadi. Qahramonlar tilidan aytilgan ba’zi gaplar kishini mulohazaga chorlaydi. Cho‘ponning ota yurtiga borib, otasidan qolgan bog‘lardan xabar olish haqidagi fikrini sevgilisi Oyxonga aytayotgandagi suhbatida bir qator shunday ibratli fikrlarni ko‘rishimiz mumkin:

Oyxon: “Chehra degan ko‘ngilning oynasidir”.

Cho‘pon: “Behuda o‘ylarga yig‘lamoq – sog‘ yurakni dog‘lamoqdir. O‘rtada sir yashirilgan sevish, chin sevish hisoblanmaydi”.(18-b)

Oyxon: “Erlarda vafo bo‘lsa, xotinlarda jafo bo‘lmasdi”.(19-b)

Maysara: “Bekorga ko‘z yoshlamoq – jafo bilan o‘ynashmoqdir”, “Er yigitning bosh solgani o‘lganidir” , “Sher yigitni odam o‘ldirmas, nomus o‘ldiradir” (20-24-b)

Albatta dramani o‘qigan kitobxon yoki tomoshabin bu fikrlarni inkor etolmaydi. Aksincha, Hamzaning so‘z qo‘llash mahoratiga, topqirligiga yana bir bor guvoh bo‘ladi, olqishlaydi.

Shuningdek, ushbu dramada bir nechta kamchiliklar ham ko‘zga tashlanadi. Misol uchun Oyxon va Cho‘ponning suhbatiga e’tibor qaratsak:

– Nega so‘zlamay xomush tursan? Yuragingda sir tutma! Chunki o‘rtada sir yashirilgan sevish chin sevishlardan sanalmaydi. Men har birisini ochib so‘zlaganim eng keyingi sevishlarimni

bildirganim emasmi, Oyxon!

– Farishtam Cho‘pon! Sen har narsa desang men ishonurman, lokin sensiz bir nafasga ham chidolmasman...

Ushbu dialogda Oyxon o‘z sevgilisiga “farishtam” deb murojaat qiladi. Odatda bu so‘z qizlarni, ayollarni erkalash uchun qo‘llaniladi va bu an’anaga ham aylanib ulgurgan. Bu o‘rinda biz an’anaviylikning buzilganini ko‘rishimiz mumkin. Balki muallif Cho‘ponning begunohligi nuqtayi nazaridan ushbu terminni qo‘llashni joiz topgandir. Buni bir o‘ylab ko‘rish kerak.

Yana bir o‘rinda Cho‘ponning kelinoyisi Hurzodning Hisor hokimi bilan bo‘lgan voqeasi haqida so‘z boradi va Hurzod nomusini himoya qilib, ikki go‘dagini yetim tashlab, o‘zini Amudaryoga otib nobud bo‘lganini aytadi. Cho‘ponning ota-onasi, akasi vafot etgan bo‘lsa, Hurzodning yetim go‘daklarining taqdiri nima bo‘ldi? Bu haqida hech qanday fikr bildirilmaydi. Bu – ikkinchi masala.

Uchinchi masala Mulla Do‘st obrazi bilan bog‘liq. Ma’lumki, Mulla Do‘st ikkinchi pardaning ochilishida qozining hovlisida supur-sidir qilib yurgan bo‘ladi va shu holatda bir qo‘shiq kuylaydi.

Olma-anoringga balli,
Yakdona holingga balli,
Tangrim, meni sho‘r loydan
Yasagan kulolingga balli...

Bu o‘rinda Hamza Tangri bilan kulolni boshqa-boshqa qilib qo‘llaydi. Aslida odamzodni yo‘qdan bor qilgan yaratuvchi kulol Yaratganning o‘zi emasmi?! Bu ham aksioma.

Dramada oshiqlarning chin sevgisi, ahdiga vafosi, sadoqati, ular o‘rtasidagi samimiy munosabatlar dialoglar orqali keng ochib berilgan. Dramadagi har bir ayolni tadbirli, mulohazali, sharm-hayo va andishali qilib tasvirlaydi.

Xalqimizda “Ayol kishining makri qirq tuyaga yuk bo‘ladi”, – degan gap bor. Hamza Hakimzoda Niyoziy ham bu dramada ochko‘z amaldorlarni qo‘lga tushirishda ayollarning ana shu makridan keng foydalanadi. Maysaraning makri Mulla Ro‘zini ham, Mulla Do‘stni ham, Hidoyatxonni ham, Qozini ham qo‘lga tushiradi va alal oqibat sharmandagarchilikka olib keladi. Mulla Ro‘zini ho‘kiz terisini kiyishga, Hidoyatxonni echki terisini kiyishga, Mulla Do‘stni chirog‘poya bo‘lishga, Qozini beshikka belanishga ko‘ndiradi. Maysara so‘zlarni shu qadar ustamonlik bilan qo‘llaydiki, ishonmaslikning imkoni yo‘q.

Mulla Ro‘zi va Hidoyatxonning qanday ko‘ndirilganligi va Oyxonni ko‘rish ishqida necha marta hozirlik ko‘rgani-ku ma’lum, lekin dramaning qo‘lyozma nusxasida 14 bet tushib qolganligi sababidan Mulla Do‘st va Qozining bu jarayondagi holatlari aniq emas. Bu drama haqida Rejissyor Bahodir Yo‘ldoshev quyidagicha ma’lumot beradi: “Shoir o‘lganidan keyin Mannon Uyg‘urdan “Hamza oldingizga ko‘p kelardi, mabodo pyesalari sizda emasmi”, deb so‘rashadi. “Cherdakni ko‘ringlar, bir tugun olib keluvdi, men o‘sha yoqqa tashlab qo‘ygandim”, – deydi u. Shu bilan “Boy ila xizmatchi”, “Paranji sirlari”, “Maysaraning ishi” topilgan. Agar o‘shanda axtarib kelishmasa, umuman yo‘q bo‘lib ketardi” . Balki ana shu 14 sahifa Mannon Uyg‘ur cherdagida yo‘qolgandir, yana bilmadim.

Dramada mazlumlar birlashsa, ko‘p narsani hal qilishi mumkinligiga ishora beriladi. Hamzaning bor dramaturgik mahorati, obrazlarni his etish va yaratish qobiliyati namoyon bo‘ladi. Bu drama xalqchilligi, samimiy kulguga boyligi, qahramonlar xarakteriga mahorat bilan yondashilganligi bois ham hali hanuz teatrlarimiz sahnasida namoyish etilmoqda. Ijodkorning ijoddan topgan baxti mana shu bo‘lsa kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами. – Т.: “Фан” нашриёти, 1989.
2. Jadidlar. Behbudiy Mahmudxo‘ja. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.
4. Qosimov B. Uyg‘ongan millat ma’rifati. – Toshkent: Ma’naviyat, 2011.
5. Rizayev Sh. Jadid dramasi. – Toshkent: Sharq, 1997.
6. Solijonov Y. Haqiqat izlagan adib.
https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/yoldosh-solijonov-haqiqat-izlagan-adib.html
7. https://oyina.uz/uz/article/466Hamzaningbadali

Madinaxon G‘OFUROVA,
Farg‘ona davlat universiteti
1-bosqich magistranti
madinagofurova9@gmail.com

NABI JALOLIDDINNING “O‘QILMAGAN KITOB” HIKOYASIDA BADIIY TASVIR VA QAHRAMON RUHIYATI UYG‘UNLIGI

Annotatsiya: ushbu maqolada yozuvchi Nabi Jaloliddinning ijodiy mahorati, uslub va qahramonlar yaratishdagi o‘ziga xosliklari “O‘qilmagan kitob” hikoyasi tahlili misolida o‘rganiladi. Qahramon ruhiyatidagi o‘zgarishlar, evrilishlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *qahramon ruhiyati, evrilish, “O‘qilmagan kitob”, go‘zallikka intilish, xarakter, adabiyotning ta’sir kuchi.*

Аннотация: в данной статье на примере анализа повести «Непрочитанная книга» рассматриваются творческие способности, стиль и особенности создания персонажей писателя Наби Джалалуддина. В нем говорится об изменениях и эволюции психики героя.

Ключевые слова: *психика героя, эволюция, «Непрочитанная книга», стремление к красоте, характер, влияние литературы.*

Annotation: in this article, writer Nabi Jalaluddin's creative skills, style and peculiarities in creating characters are studied as an example of the analysis of the story "The Unread Book". It talks about changes and evolutions in the hero's psyche.

Key words: *the psyche of the hero, evolution, "The Unread Book", the pursuit of beauty, character, the influence of literature.*

Adabiyot – bu bog‘. Bu bog‘dagi har bir mevaning o‘z tarovati, o‘z mazasi, o‘z xaridori bor. Yozuvchilarimiz tomonidan yozilgan va yozilayotgan asarlarni mana shu bog‘ning sarxil mevalariga qiyoslasak, nosirlarni esa yangidan yangi mevalar navlarini yaratayotgan bog‘bonga o‘xshatgimiz keladi.

Adabiyot, xususan, adabiy jarayonda yaratilayotgan asarlarning janrlararo takomillashuvi, uslubiy yangilanishlar, mavzu ko‘lamining kengayib, o‘qirmanlar soni ortib borayotgani har bir adabiyotga oshno qalbni befarq qoldirmaydi. Bu yuksalishlar esa, albatta, ijodkorning ijodiy mahoratiga borib taqaladi.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida “Umr”, “Bayroq”, “Erkagi bor uy”, “Ota”, “O‘qilmagan kitob” hikoyalari, “Xayyom”, “Tegirmon”, “Urushning davomi” romanlari orqali kitobxonlarga sevimli bo‘lib ulgurgan Nabi Jaloliddin ijodida ham bu kabi yangilanishlarni uchratish mumkin. Yozuvchi ijodida urush mavzusi yetakchilik qiladi. Bu ijodkorning o‘zi ham urush qatnashchisi bo‘lganidandir balki. Zero, buyuk yozuvchi Ernest Xeminguey aytganidek: “Faqat o‘zing yaxshi o‘rgangan, yaxshi biladigan narsalar haqida yozish, yozganda ham samimiy va rost yozish kerak; tasvirlangan holat inson qalbini o‘rtab yuborsin, voqelikni baholashga yordam bersin, o‘quvchi boshidan kechirgan voqelikning bir qismiga aylanib qolsin.”

Nabi Jaloliddin hikoyalarida qahramonlar ruhiyati, ichki kechinmlari, ularning botiniy olami, xarakterini nihoyatda ustamonlik bilan namoyon etadi. Yozuvchining “O‘qilmagan kitob” hikoyasi ham ana shunday hikoyalardan biridir.

Hikoya bosh qahramoni – kunlik yollanma ishchi. Yozuvchi hikoya so‘ngigacha uning ismini keltirmaydi, qahramonga U deb murojat qiladi. Uning turmush tarzi – “randalanmagan taxta darvoza”, “zanglagan qulf”, “butalmagan mevali daraxtlar”, “o‘t-o‘lan bosgan tomorqa”, “sarg‘aygan uy devori”, “qurt bosgan uy”, “mazasiz ovqat”... bularning hammasi qahramon va uning turmush sharoitidan darak beradi. Bir qarashdayoq o‘quvchi qahramonning yolg‘izligini ham anglaydi. Bir o‘rinda esa yozuvchi buni o‘zi ham qahramon tilidan aytib o‘tadi: “Uyga qaytib paqirdagi unda yayrayotgan do‘mboq oqish qurtlarga sarasof soldi. Kim yeydi endi buni? Xotini bo‘lsaydi, elab-netib non qilardi.”

Hikoya qahramoni yolg‘izlikdan ezilgan, ayniqsa, kitob varaqlashni boshlagan paytlarida har ikki sobiq ayolini xotirlaydi. Kitobni o‘qib borgani sari ruhi tiniqlasha boshlaydi. Bu o‘rinda yangi ish boshlagan xonadonidagi Sohiba ismli xonadon bekasiga yoqish istagi ham yo‘q emasdi.

Uning “Ko‘chaga chiqay desa, darvozasi oldi supurilmaganiga ancha bo‘lgan”, – deb o‘ylanishi, “Plitaga choy qo‘yib, belkurakni oldi-da, sahndagi o‘tlarni tuproq qorishiq qira ket...” ishi, Sohiba va uning qizlari haqida “Ular manavinaqa uyda yasholmasayam kerak. Yo hamma yoqni tozalab,

odam kepata qilishadi, yoki “hayyo-huyt”, deya tark etishadi” , – deyishi, ichishni tashlab, borgan sari kitob o‘qishga bo‘lgan ehtiyoji, qiziqishi ortib borishi, ayol uchun ataylab she’r yod olishi bu aynan erkak kishi xarakterini aniq ifodalab beradi.

Yozuvchi bu o‘rinda yana bir narsani, kitob o‘qigani sari go‘zallikni his etish darajasi yuksalib borayotganiga ham ishora qiladi:

“...so‘ng nigohi chakalakzor yanglig‘ hovliga og‘di. Bir nur – yaxshilik qidirdi. Tok yaproqlari ostida oppoq kapalak paydo bo‘ldi. Tavba, nima u? Uning kapalakligini anglab turardi, ammo shuuri inkor etardi, chunki hech qachon e’tibor bermagandi. Kapalak shunaqayam yoqimli uchardiki, go‘yo ikki bo‘lak shu’la bir-birini erkalayotgandek tuyuldi. Chaqnagan ko'zlari atrofni kezindi: nahotki uyim shu qadar chiroyli bo’lsa?”. U Nodar Dumbadzening “Abadiyat qonuni”dagi qahramonlar o‘rniga o‘zini qo‘ya boshlashi, kitob o‘qib turish kerakligini anglashi, ust-boshi, uy-joy tutishdagi o‘zgarishlarning barcha-barchasi erkak kishining o‘zgaruvchan, ayni paytda boladek tanti fe’l-atvoriga ishora qiladi. Yozuvchi qahramon portretini chizishda har bitta detal, har bitta harakatga e’tibor beradi. Har bir narsani harakatga chorlaydi. Badiiy tasvirni shakllantirishda har bir voqea, har bir so‘zdan mohirona foydalanadi.

“Kapalaklar raqsi”ni kuzatishi, ish joyiga soch-soqolini tartibga keltirib, xushbo‘y iforga burkanib borishi, his-tuyg‘ular haqida o‘ylay boshlashi... bularning hammasi qahramonning ruhidagi evrilishlardan darak beradi.

O‘zi bilmagan holda ayol tomonidan rad etilishi, umidlari yerparchin bo‘lishi oqibatida ruhi sinishi, yana o‘zining eski holiga qaytishi qahramonning umidsizlikka yuz tutishi har bir kitobxon qalbida achinish hissini uyg‘otsa ne ajab?

Nabi Jaloliddin dunyoni nafaqat go‘zallik, balki adabiyot, his-tuyg‘u, mehr-muhabbat qutqarishini ham eslatib o‘tadi. Bu o‘rinda “O‘qilmagan kitob” ham qahramonning o‘zi, ham u oshiq bo‘lishga ulgurgan Sohiba. U sevish asnosida, kitob o‘qish asnosida o‘zini ham qayta kashf etdi.

Umuman olganda yozuvchining har bir hikoyasida odamiylik, mehr-muruvvat, jasorat, vatanga bo‘lgan, yorga bo‘lgan sof, samimiy tuyg‘ular qalamga olinadi va bularning hech biri o‘quvchini befarq qoldirmaydi. Har bir mavzu ustida bosh qotirishga, tafakkur qilishga undaydi. Adabiyotning ta’sir kuchi shunda emasmi axir?!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jahon adiblari adabiyot haqida. «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasi, 2014-yil 39-52-sonlari.
2. O‘qilmagan kitob. Nabi Jaloliddin https://mutolaa.uz/kitob/oqilmagan-kitob
4. „Бадиий публицистика кенгашида йил сарҳисоби“. https://yuz.uz.
5. „Nabi Jaloliddin. Oftob isli bola & Oraliq (Xayyom) | Xurshid Davron kutubxonasi“. kh-davron.uz.
6. uza.uz „Серқирра ижодкор билан учрашув“ (uz). Uza.uz (2022-yil 23-noyabr).
7. Urushning davomi: qissa,hikoyalar va roman / N. Jaloliddin. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021. 336-b.
8. Ulug‘ov Abdulla. “Adabiyotshunoslik nazariyasi”. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.
9. O‘zbek adiblari”. S. Mirvaliyev, R. Shokirova. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2016.
10. “Andijonnoma” gazetasi, 2012-yil 2-may soni.
11. Qayumov Abduvahob Abdurashidovich “Hozirgi o‘zbek nasrida milliy xarakter va badiiy mahorat” (O‘tkir Hoshimov va Nabi Jaloliddin hikoyalari misolida). Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati. – Farg‘ona, 2018
12. https://nabijaloliddin.uz/
13. https://kh-davron.uz/
14. https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/nabi-jaloliddin/
15. https://baxtiyor.uz/nabi-jaloliddin-haqida-ma-lumot/
16. https://saviya.uz/hayot/tarjimai-hol/nabi-jaloliddin-1962/

Nigora YULDASHEVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Turizm fakulteti "Lingvistika va o'qitish metodikasi" kafedrasi magistranti

LITSEY O'QUVCHILARIGA INGLIZ TILIDA O'QISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUV HAMDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada bugungi kunda ingliz tilini o'qitish zamon talablaridan biri ekanligi hamda ingliz tilini o'qish ko'nikmasini rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining ahamiyati borasida fikr va mulohazalar yuritilgan. Litsey o'quvchilarining ingliz tilini o'qitishda integrativ yondashuv asosida o'qish ko'nikmasini shakllantirishning bugungi kundagi ahamiyati va roli hususida nazariy asoslari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: *ingliz tili, integrativ yondashuv, metod, innovatsiya, ta'lim tizimi, multimediya texnologiyalar va boshqalar.*

Аннотация: в этой статье рассматриваются размышления и размышления о том, является ли преподавание английского языка сегодня одним из требований времени, а также о важности инновационных образовательных технологий в преподавании английского языка. Проанализированы теоретические основы современного значения и роли обучения старшеклассников на основе интегративного подхода к обучению английскому языку.

Ключевые слова: *английский язык, интегративный подход, метод, инновация, система образования, мультимедийные технологии, метод SWOT анализа и др.*

Annotation: this article reflects on the importance of teaching English today as one of the requirements of the time, as well as the importance of innovative educational technologies in teaching English. The theoretical foundations of the importance and role of teaching today in the framework of an integrative approach to teaching English by high school students are analyzed.

Keywords: *english, integrative approach, method, innovation, educational system, multimedia technologies etc.*

Kirish. Jahonda jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan integrasiyalashuv jarayoni va xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hamkorligi chet tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqish, ehtiyoj va intilishini yanada kuchaytirishning innovatsion texnologiyalari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Chet tillarni o'rganishni litsey o'quvchilari orasida kuchaytirish va ta'lim va tarbiya berishning eng optimal usullarini shakllantirish, o'quvchilarni Oliy ta'limga sifatli tayyorlash uchun ta'lim dasturlari, innovasion pedagogik texnologiyalarni qo'llash metodikasini takomil-lashtirish, xorijiy tilni o'rgatish mazmunini modernizatsiyalashtirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

"Integratsiya ta'limining pedagogik nazariyasi va amaliyotini rivojlantirish tamoyili sifatida ta'lim sohalarini ajralmas ta'lim jarayoniga birlashtirishni aks ettiruvchi o'quvchilarni rivojlantirish va tarbiyalashda yanada yaxshi natijalarga erishishni kafolatlaydi". Integratsiya jarayonida belgilangan integratsiya tizimlari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri uyg'un aloqalarni o'rnatish va tavsiya etilgan natijaga muvofiq o'quvchilar uchun yangi integratsiyalashgan ta'lim tizimini yaratiladi. Ingliz tilida o'qish ko'nikmasini shakllantirishda SQ3R metodi ya'ni o'qish ko'nikmasini rivojlantirish strategiyasi metodi mavjud bo'lib, ushbu metod orqali bugungi kunda ingliz tilida reading ya'ni o'qish ko'nikmasini yanada rivojlantirish imkoniyati mavjud bo'ladi. SQ3R-bu besh qadam uchun nomlangan o'qishni tushunish usuli: so'rov, savol, o'qish, tahlil va ko'rib chiqish. Har qanday sinfdagi matn talablaridan iloji boricha ko'proq ma'lumot to'plashni o'rganish uchun quyidagi amallarni bajarish lozim.

O'qishdan olingan ma'lumotlar tahlil qilish va til o'rganishda muhim hisoblangan ushbu metodda dunyoqarashni rivojlantirishga imkoniyat beradi. Ushbu metoddan foydalanish quyidagi tarzda tashkil etiladi.

Maqsadlarni aniqlash va shakllantirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'plash. Sarlavhani o'qish-ongda mavzuni qabul qilishga tayyorgarlik ko'rishga yordam berish. Kirish va xulosani o'qish-har bir bobda muallifning maqsadlariga qanday mos kelishiga yo'naltiring va muallifning eng muhim fikrlarni bayoniga e'tibor qaratish. Har bir

qalin sarlavha va xulosaga e’tibor berish-o‘qishni boshlashdan oldin fikrni tartibga solish va kelgusi fikrlar va tafsilotlar uchun tuzilmani yaratish.

Har qanday grafikaga e’tibor berish – jadvallar, xaritalar, diagrammalar va boshqalar. Ularga alohida e’tibor berish va nazardan chetda qoldirmaslik.o‘qituvchi tahlil jarayonida ham shu narsaga e’tibor qaratishi lozim.

Fikrni jalb qilish va diqqatni jamlashga yordam berish

O‘qituvchi tomonidan Har bir bo‘lim uchun qalin yuz sarlavhasini ushbu bo‘limda javob beradigan savollarga aylantirish lozim. Savollar qanchalik yaxshi bo‘lsa, o‘quvchining tushunishi shunchalik yaxshi bo‘ladi. Davom etayotganda har doim boshqa savollarni qo‘shish mumkin. O‘quvchi savollarga javob berishda o‘rganishga intiladi. Bu esa bilim va saviyani yanada oshiradi.

Ingliz tilida o‘qish ko‘nikmasini shakllantirishga yordam beradigan yana bir metod bu Literature Circles metodi hisoblanadi. Adabiyot to‘garaklari yondashuvi-bu o‘quvchilarga yo‘naltirilgan o‘qitish usuli bo‘lib, unda talabalarning kichik guruhlari tanlangan matnni mustaqil ravishda o‘qiydilar va keyin uni muhokama qilish uchun yig‘ilishadi. Guruhning har bir a'zosi munozara rahbari, umumlashtiruvchi, ulagich yoki so‘z ustasi kabi o‘ziga xos rolni bajaradi, bu faol ishtirok etish va chuqurroq tushunishga yordam beradi. Yondashuv hamkorlikda o‘rganish, tanqidiy fikrlash va adabiyot atrofidagi ijtimoiy o‘zaro aloqalarni rivojlantiradi. Mazmunli munozaralarda qatnashish va tushuncha almashish orqali o‘quvchilar matnni chuqurroq tushunishni rivojlantiradilar va muhim o‘qish ko‘nikmalarini shakllantiradilar.

O‘qishning oddiy ko‘rinishining ikkita muhim komponenti Skarboro tomonidan yaratilgan illyustratsiya bilan ifodalanadi. O‘qishni tushunishga hissa qo‘shadigan ikkita kerakli asosiy ko‘nikmalardan iborat. O‘qishning oddiy ko‘rinishi ikki komponentni talab qiladigan darajada malakali o‘qishni tushunishga o‘tishni ifodalaganligi sababli, u “oddiy” deb nomlanadi. Aslida, komponentlarning har biri uning asosiy elementlari tufayli murakkabdir. Tilni tushunishda o‘quvchilar doimiy ravishda asosiy baza bilimlari, lug‘at, og‘zaki fikrlash va savodxonlik bilimlarining asosiy bazasini to‘plashlari kerak va ushbu elementlarni o‘qish paytida strategik ravishda qo‘llash qobiliyati matnlarni tushunish imkoniyatini beradi. Strategik jihatdan qo‘llash matnni o‘qish paytida o‘quvchilar uning ma’nosini qanchalik yaxshi tushunishlarini doimiy ravishda kuzatib borishlari va mavzu, so‘zlar, va boshqalar haqida har qanday bilimlarni berishlari kerakligini anglatadi. Bu jarayon “metakognitsiya" yoki fikrlash haqida o‘ylash deb ataladi.

Tilni tushunish va uning bilim bilan bog‘liqligi

Devis (2006) “hatto eng yaxshi fonikaga asoslangan ko‘nikmalar dasturi ham bolani kuchli o‘quvchiga aylantirmaydi, agar bola tilni cheklangan bilimga ega bo‘lsa, so‘z boyligi qashshoq bo‘lsa va asosiy mavzular haqida kam ma'lumotga ega bo‘lsa”. Tilni tushunish uchta elementdan iborat bo‘lib, ular o‘quvchilar o‘qish paytida ularni strategik (avtomatik ravishda aksincha) qo‘llashlari uchun o‘rgatilishi kerak. O‘quvchilar matnlarning ma'nosini talqin qilar ekan, ular o‘zlarining dastlabki bilimlarini, lug‘at haqidagi bilimlarini va so‘zlar orasida va jumlalar ichida mavjud bo‘lgan til tuzilmalarini tushunishlarini strategik ravishda qo‘llashlari kerak.

Xulosa.

Mamlakatimizda chet tillarini o‘rganish hamda ta’lim sohasini yuqori bosqichga ko‘tarish borasida olib borilayotgan islohotlar albatta ta’lim tizimini ham chetda qoldirayotgani yo‘q. Yurtimizda amalga oshirilayotgan bunday islohotlar har bir pedagog mutaxassis, ayniqcha chet tili o‘qituvchilarining ma’suliyatini bir necha barobarga oshiradi. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, chet tillarini o‘rgatishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish albatta samadorlikni bir necha martaga oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Davis, M. (2006). Reading instruction: The two keys. Charlottesville, VA: Core Knowledge Foundation
2. Diab, A.A.M., Abdel-Haq, E.M. and Aly, M.A.S. (2018) The Effectiveness of Using Content and Language Integrated Learning (CLIL) Approach to Enhance EFL Stu-dent Teachers’ Cultural Awareness.
3. Sakellariou, G. and Papadopoulos, I. (2020) Interculturalism in Content and Lan-guage Integrated Learning Classes: Research Perspectives from European Policy to Greek Reality

Gulnora XIMMATOVA,
Chirchiq davlat pedagogika univeristeti
Gumanitar fanlar fakulteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi

HALIMA XUDOYBERDIYEVA IJODIDA MILLIY RUH MASALASI

Annotatsiya: mazkur maqolada xalqimizning iste’dodli shoirasi Halima Xudoyberdiyeva ijodidagi milliy ruh ifodasi tahlil qilingan. Milliylikni aks ettiruvchi atributlar, xalqimizga xos qadriyat va an’analarning lirikadagi ko‘rinishiga doir kuzatishlar amalga oshirilgan. Shoira she’rlaridagi o‘ziga xoslik, obrazlarning tadrijiy takomiliga oid tahlillar mavjud.

Kalit so‘zlar: *badiiy ijod, lirik qahramon, peyzaj, falsafiylik, milliy atribut, chalg‘i, tashbeh.*

Аннотация: в данной статье анализируется выражение национального духа в творчестве Халимы Худойбердиевой, талантливой поэтессы нашего народа. Были сделаны наблюдения за появлением в текстах песен атрибутов, отражающих национальность, ценности и традиции, присущие нашему народу. Проводится анализ своеобразия стихов поэта, постепенное совершенствование образов.

Ключевые слова: *художественное творчество, лирический герой, пейзаж, философия, национальный атрибут, зрелищность, аллегория.*

Annotation: this article analyzes the expression of the national spirit in the work of Halima Khudoiberdieva, a talented poetess of our people. Observations were made of the appearance in the lyrics of songs of attributes reflecting the nationality, values and traditions inherent in our people. An analysis of the originality of the poet's poems and gradual improvement of images are carried out.

Key words: *artistic creation, lyrical hero, landscape, philosophy, national attribute, entertainment, allegory.*

Badiiy adabiyot insonni ezgulikka chorlash, nafis va inja tuyg‘ularni uyg‘otish hamda milliy o‘zlikni anglatishda betakror estetik san’at turlaridan hisoblanadi. Muayyan millat adabiyotida maydonga kelgan asarlar o‘sha xalqning ming yillik qadriyatlarini, o‘zligini, orzu-umidlarini, o‘ziga xos turmush tarzini ham misralar qatiga singdiradi. “Mohiyatan umuminsoniyatga daxldor bo‘lsa-da, adabiyot milliy shaklda namoyon bo‘ladi. O‘zida millatning ruhini ifodalaydi” , – deya ta’kidlaydi, filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborov. Qalbida ona, yurt, millat sevgisini jo qilgan har qanday ijodkor borki, asarlarida o‘zi daxldor bo‘lgan milliylikni aks ettirishi tabiiy, albatta. XX asr boshlarida yangi adabiyotning boshlovchilari hisoblangan ziyolilarimiz ham “she’r va shoirlik” borasida fikr yuritganda, eng avvalo, millat manfaati uchun xizmat qiladigan, milliy ruh va tuyg‘uni tarbiyalaydigan asarlarni birinchi o‘ringa qo‘ydilar. Shu sababli milliy adabiyotimizda milliy ruhni aks ettirish she’riyatning bosh mezoniga aylandi. Demak, Fitratning o‘tkir zehni va o‘tli qalbi mahsuli bo‘lmish she’rlarida, Cho‘lponning iste’dod uchqunidan alangaga aylangan lirikasida va G‘afur G‘ulomning beqiyos falsafasidan dunyoga kelgan satrlarida milliy ruhning to‘laqonli namoyon bo‘lishi shundandir balki. Keyinchalik esa Abdulla Oripov dahosi, Erkin Vohidov ijodidagi samimiyat, Muhammad Yusuf she’rlaridagi erkalik zimnida aslida o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan aql-u farosat, biroz andisha hamda tantilik tabiiy aks etgandek taassurot qoldiradi.

Xalqimizning ardoqli shoirasi Halima Xudoyberdiyeva ijodida ham milliylik, milliy ruh turli rakurslarda ifodalangan.

Milliy atribut – milliy o‘ziga xoslik, muayyan xalq va millatlargagina xos bo‘lgan predmet yoki tushunchalar majmuidir. Halima Xudoyberdiyeva ijodida uchrovchi milliy atributlar, ijodkorning she’rlaridagi milliy ruh tushunchasini mavzu va yo‘nalishlarga bo‘lib o‘rganishimizda muhim rol o‘ynaydi.

Shoira Halima Xudoyberdiyeva oddiy o‘zbek oilasida tarbiya ko‘rib katta bo‘lgan. Qishloqda o‘tgan bolaligini, yoshligidan dalalarda mehnat qilib o‘sganligini shoiraning o‘zi ta’kidlagan quyidagi jumlalardan bilib olsak bo‘ladi: “Qishloqda nima ko‘p – ish ko‘p. Kunduzlari maktabga, pillaga, dalaga, paxtaga… xullas, tinim bilmasdik” . Mana shunday mehnatlar ichida toblanib o‘sgan shoira ilohiy qudrat qalbiga solgan iste’dodga bir lahza bo‘lsa ham xiyonat qilmadi. O‘zbek oilasining tarbiyali qizi o‘laroq tengdoshlari bilan mehnat-u uy-ro‘zg‘or ishlarida ham toblanib o‘sdi. Shuning uchun ham she’rlaridagi o‘zbek qizlariga xos bo‘lgan tirishqoqlik ifodasi to‘g‘ri va tabiiy ko‘rsatilgani o‘quvchida iftixor tuyg‘usini o‘stiradi.

Mirzacho‘l qiziman, ha, cho‘l qiziman,
O‘kinmayman lekin cho‘lda o‘sdim deb.
Quyosh o‘z taftini baxsh etgan sevib,
Cho‘l nuri toblagan anor yuziman.

Yuqoridagi misralardan ko‘rinadiki, shoira har qanday inson, avvalo, Alloh ato etgan taqdirdan rozi bo‘lishi, tug‘ilgan tuprog‘ini jon qadar aziz bilishi, gulini ham, tikonini ham birdek sevishini ta’kidlaydi. She’rda anor yuziman deya keltirilgan so‘zlar qaysidir ma’noda milliy ruhga ishora. Anor yuzlik deganda faqat quyosh qizdirgan yuzlar nazarda tutilmaydi. Xalqimiz orasida

ibo-hayoli va iffat-u andishali qizlarning ham yuzida qizili bo‘ladi degan qarashlar mavjud. Endi yuqorida keltirilgan misralar ma’nosi ham chuqurlashadi. Muallifning asl o‘zbek qizi ekanligi oydinlashadi.

Halima Xudoyberdiyeva ijodida milliy ruh tushunchasini tahlil etishda biz ikkita yo‘nalishni belgilab oldik, ya’ni dastlab milliylikni aks ettiruvchi insoniy munosabatlar va an’analar, ikkinchisi esa milliyligimizni ko‘rsatuvchi predmetlarni aniqlashdan iborat. Har ikkalasi ham bir vaqtning o‘zida aralash, biri ikkinchisini to‘ldirish holatlari ham uchrashi mumkin.

Qishloq hayotida haqiqiy o‘zbeklarga xos an’analar va oilaviy munosabatlar yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Halima Xudoyberdiyevaning she’rlarida tasvirlangan o‘zbeklarga xos bo‘lgan jihatlar turli mavzularda ayniqsa, qishloq tasviri va undagi ijtimoiy hayotning chizilishida ochilib boradi. Ota va qiz munosabatlarini aks ettirgan she’rlari shoiraning sara ijod namunalaridir.

Otam mening mehribon otam,
Siz solguncha turmushni izga,
Qor yog‘di soch-soqolingizga

Yuqoridagi ta’sirli satrlar bilan boshlanuvchi “Otam mening, mehribon otam” she’rida shoira haqiqiy o‘zbek otasining suratini chizadi. Bu she’rdan o‘sha davrda ham, bugungi kunda ham otalarning gardanidagi yuk qanchalik og‘ir ekanini anglaymiz. Lirik qahramonning otasi oddiy dehqon bo‘lishiga qaramay qizini o‘qitayotgani va qizi shaharda o‘qishi uchun qishloqda ter to‘kayotgani tasvirlangan mazkur she’rda o‘zbeklarning qon-qoniga singib ketgan oilaparvarlik, farzand kamoli uchun har qanday mehnatga rozilik – bu faqat millatimizgagina xosdir. Lirik qahramon otasi ham sahardan to shomga qadar dalada ter to‘kadi. She’rdagi ketmon, dala, ekin, namgarchilik va ketmon sop kabilar otaning dehqonchilik bilan shug‘ullanayotgan holatini ko‘z oldimizda gavdalantiradi. Otaning ruhiy ahvoli va tashqi ko‘rinishi ifodasida go‘zal tashbehlardan foydalanilgan. Yuqorida keltirilgan bandda ham oq qor otaning oq sochlaridir.

Xalqimizda dehqonlarga “bobo dehqon”, “tanti dehqon” deya murojaat etishadi. Bu jihatga ham e’tibor bergan shoiraning “Dehqon otamsan” deb nomlangan she’ri mavjud. Birinchi she’rida sal tushkun kayfiyatni, qizning otasidan uzr so‘rash holatini his qilsak, keyingi asarda esa aksincha mamnunlikni, g‘urur va faxrlanish tuyg‘ularini kuzatamiz. Halima Xudoyberdiyevaning otasi va uning zamondoshlari ayni paxta masalasi eng asosiy o‘rinda ketayotgan davrda yashagan. Mehnat og‘ir, bugungidek texnikalar yo‘q, xalqimizning dard-u xayoli esa faqat paxtada bo‘lgan. Shoira o‘z otasini emas, butun millatni ahvolini, uning sodda va oqko‘ngilligini oyna qilib ko‘rsatib bergan.

Dehqon otam, sen shu kunga yetguncha,
Yengil yashamabsan, kuymabsan bekor.
Rizq-ro‘zning oq tog‘in hosil etguncha
Qora sochlaringga yog‘ibdi oq qor.

Bu she’rda she’riy san’atlar va badiiy tasvir vositalari she’rning yana ham ta’sirchan bo‘lishiga zamin yaratgan. Ushbu she’rda ham oq soch qorga qiyoslanib go‘zal tashbeh qo‘llanganini ko‘rishimiz mumkin. She’rdagi peyzaj namunalari esa o‘sha vaqtdagi milliy koloritni aks ettirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Peyzaj lirik qahramonning ruhiyatini, uning qarashlarini va ezgu niyatlarini umumiy tarzda anglashimizga yordam bergan. She’rda tabiat tasviri milliy ruhni aks ettirish vazifasini ham o‘z bo‘yniga olgan.

Kuz kezar sendayin horigan, charchoq,
Senikiday yorqin kuz chehrasi ham.
Seni, kuz sha’nini kuylab hushchaqchaq
Tortiqlaringizni ko‘ramiz baham.

Shoiraning otasini xotirlab “Otam xotirasiga” deb nomlangan she’ri ham mavjud bo‘lib, e’tibor qaratadigan narsa shuki, ijodkor oldingi she’rida paxta yig‘im-terimini yozgan bo‘lsa, bu she’rida bug‘doy o‘rimini tasvirlab bergan. Aynan bu mavsumda otasining qilgan mehnatlari, bug‘doy o‘rimida chalg‘ichi bo‘lganligi va bu ishda undan o‘tadigani bo‘lmaganini g‘urur va sog‘inch bilan yod etadi. Azaldan bug‘doy o‘rimi ham xalqimiz hayotida katta o‘rin tutgan. Bu jarayonga milliy an’anaviy mavsum darajasida qaraladi.

Halima Xudoyberdiyeva ijodida ota timsoli bilan birgalikda ona tasviri ham milliy ruhni aks ettirishda katta ahamiyatga ega. Shoiraning aksariyat she’rlari ona haqida yozilgan. Ona timsoliga bag‘ishlangan she’rlarining deyarli har birida milliy atributlar ko‘zga tashlanadi. Bunda tandir, o‘rmak, urchuq, non va dasturxon kabilar yetakchilik qilib, she’rlarda tez-tez uchraydi:

Sen ham mening onam, oq ko‘ngil bekach,
Noningni yopaver olmasdan hadik.
Tandirdan uzganing-bug‘doy non yegach-
Bug‘doyzorga uchmay, qayga ketardik.

Shoira bolalik davrining bir qismini shunday so‘zlaydi: “Onam bilan yonma-yon o‘tirib o‘rmak to‘qirdik, iroqi do‘ppilarning iroqisini tikardik.” Halima Xudoyberdiyeva har bir she’rida hayotining bir lahzasini yoritib o‘tganiday xuddi shu holatni quyidagi she’rida tasvirlab yozgan:

Onam o‘rmak to‘qir, betin erta-kech
Qishloq ayollarin udumin qilib.
U ba’zan shiddatli solganda qilich,
Nimjon iplar ketar chirt-chirt uzilib.

o‘rmak, qilich kabi gilam to‘qish atributlari millatimizga xos bo‘lgan gilamdo‘zlik san’atiga aloqador tushunchalardir. Onalarimiz uy-ro‘zg‘or, bola-chaqa tashvishlaridan ortib, qizlar, kelinlar seplariga atab gilam ham to‘qiganlar.

Vatan nomi va sha’ni doimo ona bilan yonma yon qo‘yiladi. Shuning uchun tug‘ilgan joyga nisbatan ona Vatan, ona tuproq va ona yurt deyiladi. Milliylikni aks ettirishda shoira ona vatanini yuksak darajada madh etgan she’rlari ham ahamiyatli:

O‘zbekiston, ona yurtim, to abadiy g‘olib
Bolalarga panoh bo‘lib ko‘kraging kergin.
Paxtasining oq, yumshoqligin ko‘nglimga solib
Xirmonning yuksakligin she’rimga bergin.

Bu she’rda haqiqiy milliy ruh ufurib turganini ko‘rish mumkin. O‘zbekiston va bu yurtdagi xalq doimo bolajonligi, bolalarga g‘amxo‘r bo‘lganligiga urg‘u berilgan. Ikkinchi jahon urushi davrida ham xalqimizning matonati va sabriga, eng asosiysi bolajonligiga ahli jahon haligacha tahsin o‘qib kelmoqda. Adabiyotimizda qalam tebratgan ijodkor xalq, millat va yurtni tasvirlayotganda, albatta, paxta haqida so‘z yuritmasdan o‘tmaydi.

Vatan ichidagi kichik Vatan bu oiladir. O‘zbek oilalari azaldan hovlilarda yashashgan. Qishloqlarda hovlilar atrofi o‘ralmagan, hatto ba’zi hovlilarga darvoza qo‘yilmagan. Qo‘shnilar uy o‘rtalariga devor ham tortilmaydi. Bu mehr-oqibatdan, ahillikdan darak berib, bunday hovlilar tasviri ham o‘zbekning milliy ruhini ifoda etib turadi. Halima Xudoyberdiyeva shunday hovlilarni tasvirlab, ularning ko‘rinishini buzmaslikni tarannum etadi:

Hovlilar atrofiga urmangiz devor,
Ochiq qo‘ying eshik, derazalarni...
Hovlilar! Quyosh nurlariga yo‘g‘rilgan.
O‘choqlarda yongan olov azizmas kimga?...

Ijodkor hovlilarni tasvirlar ekan, undagi har bir detalga e’tibor qaratadi. She’rni o‘qiyotganimizda xuddi shu hovlida yurgandek bo‘lamiz. She’rning ta’siridan qo‘shni hovlidagi odamlar ovozigacha eshitilayotganday tuyuladi. Ijodkorning mahoratini bu holatdan birgina hovli orqali butun xalq orasidagi munosabatlarni ko‘rsatib berganidan ham anglab yetamiz. Shoira qishloq bog‘larini ham shunday shoirona mohirlik bilan tasvirlaganki, yurtimizdagi yam-yashil, gullagan daraxtlar, kuz vaqtida esa shoxlarini egib meva solgan har turli mevali bog‘lar ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi. She’riyatda bog‘ni Vatan timsoli sifatida tasvirlash an’anasi mavjud. Bunday ijod na’munalarini G‘afur G‘ulom va Zulfiyaxonim kabi ijodkorlarimizning adabiy meroslarida ko‘rishimiz mumkin. Halima Xudoyberdiyeva ham shu yo‘ldan borib “O‘zimizning bog‘lar’’ she’rida shunday yozadi:

Bog‘lar gul ochganlar, bemalol, qulf urib,
Ular o‘z vatanini burkarlar nurga.
O‘zga chamanlarning gullashini ko‘rib,
O‘zimizning bog‘lar tushar xotirga.

Milliy ruhni ifodalashda milliy qadriyat va an’analardan foydalanmaslikning iloji yo‘q. Chunki qadriyat va an’analar milliylikning o‘chog‘i hisoblanadi. Halima Xudoyberdiyeva “Sovchi kelar” she’rida o‘zbek xalqining azaliy va o‘lmas urf-odatlaridan sanalmish sovchilik jarayonini juda go‘zal tarzda she’rga solgan. She’rda o‘zbek oilalarida sovchi kutish jarayoni va oiladagi munosabatlar talqini bayon qilingan.

Sendan sovchi kelar ilk bora...
So‘zamolin tanlabsan, balli.
Ammo balki, sovching bechora,
Yetolmaydi maqsadga hali.
Onam bu gal- xuddi sutday oq-
Bir og‘iz der: “Otasida gap!”...

Xalqimizda sovchilikka gapga chechan, so‘zga usta, qizning ota-onasini ko‘ndira oladigan odam jo‘natiladi. Qizning ota-onasi esa bir deganda rozi bo‘lmaydi. O‘zbek xalqida “Qizi borning – nozi bor” maqoli bekorga ishlatilmaydi. She’rdan o‘zbek oilalarida otalarning ustunlik holati ham anglashiladi. Bu tasvirlarning barchasi milliy ruhni o‘ziga jo qilgan.

Halima Xudoyberdiyevaning ijodiy merosini o‘rganish jarayonida shunga amin bo‘lamizki, shoira qaysi mavzuga qo‘l urmasin, ularning har biriga milliylik va o‘zbeklarga xos xarakter-xususiyat singdirilgan bo‘ladi. Shoiraning she’rlari insonda vatanga va oilaga bo‘lgan muhabbatni oshiradi, o‘z xalqimizni o‘zimizga yangitdan tanitadi. O‘ziga xos iste’dod va takrorlanmas tafakkur mevasi bo‘lgan she’rlarining barchasi milliy ruhni ifoda etib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jabborov N.A. Erkin Vohidov she’riyatida milliy ruhiyat tasviri // Zamon. Mezon.She’riyat. https:// inlibrary.uz
2. Xudoyberdiyeva H. “Eng qora ish, eng toza ish – bizning ishimiz…” Qarang. www.kh-davron.uz.
3. Xudoyberdiyeva H. Saylanma. 1-jild. – T.: G‘afur G’ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2018.

Dilnura SOTIMBOYEVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Gumanitar fanlar fakulteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
dilnurasotimboyeva@gmail.com

MUSTAQILLIK DAVRI O‘ZBEK NASRIDA IBORA VA XALQ MAQOLLARINING AHAMIYATI
(Komil Avazning “Sozanda” romani misolida)

Annotatsiya: ushbu maqolada mustaqillikdan keyingi davrda yaratilgan, ya’ni aynan nasr janrida maqola va iboralarni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyati haqida fikr yuritiladi. Ularning badiiy matndagi ma’nosi va funksiyasi tahlil qilinadi. Maqolaga Xorazm adabiy muhitining yorqin vakili Komil Avazning ,,Sozanda” romanida qo‘llanilgan maqol va frazemalar asos qilib olinadi.

Kalit so‘zlar: *maqol, frazema, yozg‘it, duz, yanga, et, dish.*

Аннотация: в данной статье размышляется об особенности употребления артиклей и выражений в постнезависимый период, то есть в жанре прозы. Анализируется их значение и функция в художественном тексте. В основу статьи легли пословицы и обороты, использованные в романе «Созанда» яркого представителя хорезмийской литературной среды Камиля Аваза.

Ключевые слова: *пословица, фраза, йозгит, дуз, янга, эт, диш.*

Annotation: this article reflects on the peculiarity of the use of articles and expressions in the post-independence period, that is, in the prose genre. Their meaning and function in the artistic text is analyzed. The article is based on proverbs and phrases used in the novel "Sozanda" by Kamil Avaz, a bright representative of Khorezm literary environment.

Key words: *proverb, phrase, yozgit, duz, yanga, et, dish.*

Kirish. O‘zbek xalqi azal-azaldan har bir fikrini maqol bilan tushuntirib berishga harakat qilgan. Maqollar ko‘p asrlik hayotiy tajribalar, doimiy kundalik kuzatishlar, xulosasini tugal fikr tarzida qat’iy qutbiylikda ifodalar ekan, ularda har bir so‘zning ma’no xilma-xilligi iboralarning turg‘unligi, shakliy barqarorlik ustunlik qiladi. Ammo qo‘llanish o‘rniga qarab ularning ma’no doirasi doimiy ravishda kengayib boradi.[1] Shuning uchun ham har bir yozuvchi o‘z asarida maqolga murojaat qila olmaydi. Yana shunday asarlar bor, unda qahramon tilidan aytilmoqchi bo‘lgan fikr, bir dona maqol yordamida kitobxonga tushunarli tarzda yetkaziladi. Bu ham yozuvchining mahorati orqali amalga oshiriladi. Badiiy asarlarda voqelik talabiga ko‘ra maqollarni qo‘llash asarning mazmundorlik ko‘lamini yanada oshirish bilan birgalikda ulardagi mohiyatning yanada to‘la-to‘kis ochib berilishiga ham xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Sababi, ulardagi tugallik, qisqalik hamda lo‘ndalik asar voqeliklariga uyg‘undorlik baxsh etadi.

Asosiy qism. Asarlarda xalq maqollaridan nima maqsadda foydalanadi? Bu savol ko‘pchilik olimlarni fikrlashga undaydi. Maqollar eng avvalo xalqning urf-odati, qadriyatlari, etnik madaniyati, turmush tarzi, zamon va davr birliklarini o‘z ichiga olgan holda paydo bo‘ladi. Ushbu hayotiy xulosani o‘zida aks etgan frazeologizmlarni badiiy adabiyotda samarali ishlatish mazmunni boyitadi. Tahlil qilinmoqchi bo‘lgan Komil Avazning ,,Sozanda” romanida ham maqol qo‘llash orqali Xorazm shevasi, ularning urf-odati, qadriyatlari asar ruhiga maqol va iboralar yordamida singdirilgan. Hattoki, asarda faqatgina o‘g‘uz lahjasida gapiruvchi insonlarning tilidagina uchraydigan maqol va iboralardan mahorat bilan qo‘llanilgan.

Asardagi supra bilan bog‘liq hikoyatda romanning bosh qahramoni Qutlug‘murodning oilasi va uning shu davrdagi ahvoli haqida gap ketar ekan, onasi go‘sht deb o‘ylab qozon yuvgichni solib, moshxo‘rda qiladi. Shu vaziyatda Qutlug‘murodning otasi Sultonmurod xotiniga tanbeh berish o‘rniga uning ko‘nglini ko‘tarib: ,,Etni yesang dishinga, yemasang dushinga giradi”[2.12] deya o‘g‘uz shevasida so‘zlashuvchi aholi tilida qo‘llanadigan maqoldan foydalanadi. Ushbu maqolda ba’zi o‘g‘uz lahjasiga mansub leksema butunlay yoki fonetik jihatdan o‘zgargan. Et-go‘sht so‘zi butun leksema boshqacha bo‘lsa, dish-tish, dush-tush, giradi-kiradi so‘zlarida jarangsiz undosh jarangliga o‘zgargan. Demak, bu misollardan shuni ko‘rishimiz mumkinki, o‘g‘uz lahjasidagi fonetik qoidalarning aksariyati jarangsiz undoshning jarangliga o‘zgarishi bilan kechar ekan.

Yana boshqa bir vaziyatda Sultonmurod ayoli Oliyani tasvirlar ekan uni ,,Otdan tushsa ham egardan tushmaydigan”[3.10] xotinlardan deya

tasvirlab nutqida xalq maqollaridan ustalik bilan foydalanadi. Shu bilan birgalikda Oliya ko‘rpangga qarab oyoq uzat deya xotiniga tanbeh berish asnosida uning nutqidagi iboralarni ham ko‘rishimiz mumkin.

Asar syujetida yolg‘iz o‘g‘li Qutlug‘murodning istiqbolini o‘ylab, shu haqida suhbatlashayotgan er-xotin Sultonmurod va Oliya tilida ko‘plab maqollarni uchratishimiz mumkin. Masalan, Sultonmurod o‘g‘lini savdogar qilishni xohlab, ,,Onasi, nima deding? Safar – ham ish, ham sayohat” – deya fikr so‘rasa, Oliya ,,Qo‘ying otasi, yo‘l azobi – go‘r azobi”[4.15] deydilar. Yakka-yu yolg‘iz o‘g‘lim ilonli, chayonli olis yo‘lda suyagi qotmagan bola bir kor-holga yo‘liqsa, chiqqusiz dard bo‘ladi. Bunday misollar asarni mutolaa qilgan kitobxon oldida ko‘p marotaba uchraydi.

O‘g‘li yosh bo‘lishiga qaramasdan, tun-u kun yolg‘iz jigarbandining kelajagini o‘ylab tashvishlanadigan bu ota-ona o‘z nutqida xalqimizda ,,Onasini ko‘r – qizini ol, otasini ko‘r, kuyov qil”[5.17] degan maqoldan ham ustalik bilan foydalangan.

Kamarsulton ishqida olov bo‘lib yonayotgan Sultonmurod ,,Aravaga besabab savat minmaydi”[6.23] degan maqol zamirida ajib hikmat bor, hatto tasodiflar ham shunday sababsiz bo‘lib ketavermas ekan deya bir ko‘rishda sevib qolgan Kamarsultonning visoli to‘g‘risida xayol surib o‘tirardi.

Xorazmda istiqomat qiluvchi aholining nikoh to‘yidan bir kun oldin qiz uyida o‘tkaziladigan sevimli marosim ,,Xina yopar” (ba’zi joylarda ,,xina yoqar”deydilar) marosimida asar qahramonlari Kishjon, Mohigul va O‘g‘iljon kabi yosh qizlar gap talash qilib ,,Ha, og‘zi qiyshiq bo‘lsa ham boyning qizi gapirsin”[7.27] degan maqolni Kishjonga nisbatan qo‘llaydilar.

Kamarsultonning otasi Qutlug‘murod sovchi qo‘yganda sozanda bo‘lganligi sababli qizini bermasligini eshitgan Oloviddin ,,Zamonaning to‘zgani, eshak otdan o‘zgani”[8.99] degan maqoldan o‘z o‘rnida keragicha foydalanadi.

Asarning ijobiy xarakterdagi qahramonlaridan biri Abdirim bangi tilida ,,Yo‘li bo‘lgan yigitning yangasi chiqar oldidan”[9.108] degan maqol ishlatiladi. Bu maqolda qo‘llanilgan ,,yanga” so‘zi adabiy tildagi ,,kelinoyi” leksemasining o‘g‘uz shevasidagi varianti hisoblanadi.

Romanda shayton kabi bir obraz nutqida ,,Ayron quyilib yog‘ bo‘lmas, qum uyulib tog‘ bo‘lmas”[9.147] maqoli qo‘llangan.

Qutlug‘murod uylanmoqchi bo‘lgan qiz Kamarsultonning onasi Guljamol qizini Qutlug‘murod bilan sevishib yurgan deya taxmin qilib o‘zi shunaqa ,,Qiz bola uyda, qilig‘i duzda”[10.149] degan maqolni qo‘llaydi. Ushbu maqoldagi ,,duzda” so‘zi ,,dalada, ko‘chada” degan ma’noda ishlatilgan.

Romanda uchinchi tarixiy qatlam – sho‘rolar davri, Qizil imperiya bosqini davri xususida Qutlug‘murod o‘yga tolib, ha to‘g‘ri, ,,Yozg‘itni yoqalab o‘tib bo‘lmaydi”[11.305] deydi. Bu maqoldagi ,,yozg‘it” so‘zi o‘g‘uz lahjasida so‘zlashuvchilar tilida mavjud bo‘lib, adabiy tilda ,,taqdir” degan ma’noni bildiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, romanda ibora va maqollarning qo‘llanganligi asarni o‘qishlikni oshirib bera olgan. ,,Sozanda” romanini tahlil qilar ekanmiz uning tili, yozilish uslubi bizga A.Qodiriyning ,,O‘tkan kunlar”, A.Qahhorning ,,Sarob”, S.Ayniyning ,,Qullar” romanini eslatadi. Yozuvchi Komil Avaz romanda bir-birini takrorlanmas o‘ttizdan ortiq maqol va frazemalardan o‘z o‘rnida mahorat bilan foydalangan. Yuqorida ulardan bir nechtasini tahlil qilish orqali yozuvchining asar yozish borasidagi ko‘nikmalari bilan bir qatorda asarda xalqimizning asrlar aro tajribalarini o‘ziga singdirgan maqollardan qay yo‘sinda foydalana olishiga guvoh bo‘ldik. Romanda tug‘ma iste’dodi yo‘q, olchoq, tamagir, baxil va hasadgo‘y, iste’dodli san’atkorlar bilan raqobatda zimdan, yashirin choh qazib, qotillikdan ham qaytmaydigan qo‘shiqchi Matmurod hofiz – Matti murrik xarakterini ochib berish uchun ham bir qancha maqollardan o‘rni-o‘rnida foydalana olganligiga guvoh bo‘ldik. Yozuvchi Matti murrikni ,,Ko‘chada ko‘rgulik, uyda ko‘mgulik odam”[12.207] dek ham sanay olmasligini ta’kidlab o‘tgan.

Tom ma’noda ,,Sozanda” romani XX asr xalq hayotini ochib berishga qaratilgan, chinakam durdona asarlar ro‘yxatidan joy oladigan roman desak adashmagan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Komil Avaz ,,Sozanda” [2,3,4,5,6,7,8,9,10,11,12] – Toshkent: ,,O‘zbekiston”, 2012.
2. Mahkam Mahmud. ,,Sozanda” – xalq taqdiri haqida roman”.
3. O‘zbek xalq maqollari.[1] – Toshkent: Sharq, 2005.
4. WWW.Ziyo.com kutubxonasi.

Gulmira BOZOROVA
Buxoro davlat universiteti
Filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi
gulmirabozorova020gmail.com

HALIMA XUDOYBERDIYEVANING TALMEHDAN FOYDALANISH MAHORATI



Annotatsiya: maqolada talmeh she'riy san'ati haqida fikr yuritilib, uning ichki guruhlari va har bir guruhning she'riy matnda bajarayotgan vazifalari taniqli o'zbek shoirasi Halima Xudoyberdiyeva she'rlari misolida ochib berilgan.
Kalit so'zlar: *she'riyat, talmeh san'ati, tarixiy shaxslar nomi, asar qahramonlari nomi*
Annotation: the article discusses the art of poetry, its internal groups, and the tasks performed by each group in the text of the poem, with the example of the well-known Uzbek poetess Halima Khudoyberdiyeva.
Key words: *poetry, talmeh, names of historical figures, names of heroes*
Аннотация: в статье рассматривается искусство поэзии, его внутренние группы, а также задачи, выполняемые каждой группой в тексте стихотворения, на примере известной узбекской поэтессы Халимы Худойбердиевой.
Ключевые слова: *поэзия, искусство тальме, имена исторических деятелей, имена героев.*

Halima Xudoyberdiyeva zamonaviy o'zbek she'riyatining taniqli vakilalaridan biridir. Shoiraning bitiklari ohangdorligi, lirik obrazlarga va kechinmalarga boyligi bilan ajralib turadi. Bu fazilatni ta'minlagan jihatlardan biri – uning talmeh san'atini o'rinli qo'llaganligi bilan bog'liq.

Halima Xudoyberdiyeva she'rlaridagi talmehlarni mazmun-mohiyatiga ko'ra quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

1. Tarixiy shaxslar nomlarini keltirish. San'atning bu ko'rinishi mumtoz va zamonaviy she'riyatda nihoyatda sermahsul bo'lib, o'quvchidan o'sha shaxs ijodini yoxud hayotini keltirilgan misralardagi fikrga bog'lab,mohiyatni ochib berish talab etiladi:

Bihamdilloh, qolsam hamki sinib, qurib,
So'z aytarman xoki turob bo'lib turib.
Avlodimni qaytmaslikka ont ichdirib,
Amir Temur yo'llaridan yo'lovchiman [1,270]

Ushbu misralarda shoira kelajak avlodning ota-bobolari ruhidan madad olishini va buyuk sarkarda Amir Temur kabi jasur, shijoatli, haqparvar bo'lishlarini istaydi. Talmeh shu maqsadda qo'llangan.

Bu dunyoning qoshi kerik boylari ko'p,
Unga miskin gadolarim sig'armukin?
Hamma qiyg'ir, o'zin urgan boylik, molga.
Mirtemir yo'q,
Yig'lash ham yo'q majnuntolga. [1,271]

Shoiraning "Sig'armukin" deb nomlangan ushbu she'rida o'zi yashayotgan davrdagi boylik, mol-dunyoga o'ch, tinimsiz bir-biridan o'zish payiga tushgan zamondoshlaridan norizolik kayfiyatini ifodalaydi. Ular orasida sof qalbli, "miskin gadolar', "Majnun, hushdan judolar" va "beholdjoni adolar" qanday sig'ishini o'ylab qayg'uradi. Halima Xudoyberdiyevaning aynan shu yerda Mirtemir nomini keltirib o'tishi bejiz emas. Majnuntol so'zi orqali esa uning bevosita "Betobligimda" she'riga ishora qilib ketayotganligini ko'rishimiz mumkin. Go'yo Mirtemir vafotidan keyin bu dunyoda rostgo'y, halol va shuning uchun ham xokisor bir inson qolmaganligini aytib o'tadi.

Posbonlari, lashkarlari saf-saf, ming-ming,
Har biri tik Mashrabga teng, Temurga teng.
Tug'ning qayta yuksalib bormog'in ko'ring,
Yangi posbon, kuchlar yelka tutdi, denglar
O'tdi denglar, turkni oldga o'tdi, denglar [1,276]

Vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan yuqoridagi satrlarda Mashrab va Temurga ishora bor. Bunda Mashrabning isyonkorligi, Temurning matonati, dovyurakligi nazarda tutilgan.

Xalqim, garchand o'tkir tig'san,
Yolg'izlanma, qo'sh-qo'sh o'tgin.
Nasrulloday o'g'il tug'sang,
Jonim onam, bepusht o'tgin.

Aytgin, xalqim, orim, sha'nim,
Biz u yo'ldan bormaymiz, – de .
Qayta topsak… Nodirani
Nasrulloga bermaymiz, – de. [1,279]

Ushbu misralar shoiraning “Mohlaroyim tug‘ilajak…” she’ridan olingan bo‘lib, Nodirayi davron fojiasiga bag‘ishlangan. Bunda Nasrulloning qilgan qilmishlari sanab o‘tilib, o‘zbek onalariga murojaat qiladi; “Nasrulloday o‘g‘il tug‘sang, jonim onam, bepusht o‘tgin” – deb yozg‘iradi shoira. Nasrullo Buxoro xoni bo‘lib, u Nodirani farzandlar bilan birga so‘ydirgan. She’rda shafqatsiz xonning shu qilmishiga ishoa qilinyapti.

Olloh, bizlar karvon-karvon,
Mayli, bo‘z yo, kimxob yopgin,
Bir Navoiy top bizlardan
Yoki bitta Temur topgin.
Olloh, bizlar karvon-karvon,
Birimiz o‘t, birimiz ob.
Bir Nodira top bizlardan
Va yo bitta Qurbonjon top. [1,280]

Halima Xudoyberdiyeva qalamiga mansub “Armon” she’ridan olingan ushbu misralarda buyuk ajdodlarimiz nomi sanab o‘tilib, shoiraning zamondoshlaridan han shunday buyuk insonlar chiqishini kutayotganligi aks etgan.

Qasamki qonimda Mashrab bor, mahzun,
Meni ko‘kka tortar u ilohiy un.
Zikr, ishq, junundan ayro tushgan kun,
Qalandar xirqasin yechmoqqa qasam! [1,286]

E’tibor berilsa, shoira she’rlarida Mashrab siymosiga qayta-qayta murojaat qilinadi. Bu shoira xarakterining Mashrab shaxsiyatiga naqadar uyg‘un ekanligini ko‘rsatadi. Mashrab yolg‘iz Olloh izmiga kiruvchi qalandarnamo shoir va lirik qahramon qonida uning qoni oqib turibdi.

Cho‘lpon ketdi onasining yodida kuydim,
Usmon ketdi, Xolambibi “dod”ida kuydim,
Jismu jonim qirqim-qirqim, jodida kuydim,
Shuncha g‘amni bir mushtipar dilimga berding [1,295].

Lirik qahramonning dardlari cheksiz, chunki u xalq onalari boshiga tushgan musibatlarni his etmoqda. Bu musibatlar XX asr boshlarida yurtining ma’rifatli bo‘lishi yo‘lida o‘z jonidan voz kechgan Cho‘lpon-u Usmonlarning onalari misolida keltiriladi. Nafaqat ular balki o‘sha davrdagi insonlar hayoti, yashash turmushi borasida ham so‘z yuritiladi va qurbon bo‘gan buyuk ajdodlarimizning yodi mudom Vatani yodida bo‘lishi ta’kidlanadi.

2. Asar qahramonlari nomini keltirish orqali talmeh san’atini hosil qilish.

Men oh ursam gullar ohin unutgay,
Bor kuyganlar kuygan chog‘in unutgay.
Men yig‘lasam, ishq dog‘imdan so‘z ochsam,
Bor Layliyu, Kumush dog‘in unutgay! [1,522]

Layli va Kumush obrazlari o‘zbek xalqiga juda yaqindan tanish, shu sababdanmi, ushbu qahramonlarimizni ishqiy she’riy parchalarda juda ko‘p uchratishimiz mumkin. Ikki qahramon taqdiri ham ayanchli yakun topadi, biroq lirik qahramon o‘zining dardlari oldida ularniki hech narsa emasligini, agarda ishq dog‘idan so‘z ochadigan bo‘lsa, Layli va Kumush dardlarini unutib yuborishini mubolag‘ali usulda tasvirlaydi. Xuddi shunday tasvir shoira to‘rtliklarining yana birida uchraydi.

Osmonlarning mohi qolar soyada,
Ishqning borki rohi qolar soyada,
Men oh ursam alangamdan, o‘timdan,
Kumushning ham ohi qolar soyada [1,522].

Boshqa o‘rinda Majnunga ishora qilingan:

Bir ishqli odam yo‘q. Ot-da, har-da bor,
Bugun ishq yo‘q. Do‘q bor. Gumon. Zarda bor.
Bugungi Majnunlar zimdan tekshirar,
Majnun ishqi o‘tgan, o‘tganlarda bor [1,494].

Yuqoridagi satrlarda keltirilgan Majnunlar va Majnun so‘zlari ikki o‘rinda ikki xil ma’noni ifodalaydi. “Bugungi Majnunlar zimdan tekshirar” deyish orqali hozirgi yigitlar ma’nosi anglashilsa, “Majnun ishqi o‘tgan, o‘tganlarda bor” misralarida “Layli va Majnun” dostonidagi oshiq timsoli nazarda tutilgan. Bu ikki davrga mansub Majnunlarning farqli tomonlari she’rning bosh mavzusi qilib olingan.

Umuman olganda, Halima Xudoyberdiyeva she’rlarida qo‘llangan tashbehlar tarixiy mazmunga ega bo‘lib, ular o‘tmish va bugunni bog‘lashga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Халима Худойбердиева. Танланган асарлар. –Т., 2020.
2. Sulton. I. Adabiyot nazariyasi. –T.: O‘qituvchi, 2005.
3. Куронов Д., Мамажонов ва бошкалар. Адабиётшунослик лугати. –Т.: Akademnashr, 2010.

Munira KURBANBAYEVA,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili ta’limi yo‘nalishi
3-bosqich talabasi
E-mail: munirakurbanboeva@gmail.com

O‘ZBEK VA KOREYS TILLARI GRAMMATIKASINING QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek va koreys tillarining alifbolari yozuv qoidalari bilan tanishamiz. Bu maqoladan ikki tilni o‘rganuvchilar tillarning farqlarini va ularning qanday eshitilishini bilib olishlari mumkin.

Kalit so‘zlar: *Hangil, Alifbo, Xunmin cho‘ngngim, Se Jong, Choson, Turkiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Qo‘sh undoshlar, Qo‘sh unlilar (diftonglar).*

Аннотация: в этой статье мы познакомимся с правилами написания алфавитов узбекского и корейского языков. Из этой статьи изучающие два языка могут узнать о различиях между языками и о том, как они звучат.

Annotation: in this article we will get acquainted with the rules of writing the alphabets of the Uzbek and Korean languages. From this article, students of two languages can learn about the differences between the languages and how they sound.

O‘zbek tili Turkiy tillar oilasining qarluq guruhiga mansubdir. Turkiy tillar soni 30 ga yaqin. Bular: o‘zbek, uyg‘ur, qirg‘iz, qozoq, qoraqalpoq, turk, ozarbayjon, turkman, qrim-tatar va boshqalar. Turkiy tillar oilasi qipchoq tillari guruhi, o‘g‘uz tillari guruhi, qarluq tillari guruhiga bo‘linadi. O‘zbek va uyg‘ur tillari qarluq guruhiga kiradi.

Demak, eski o‘zbek tili XII-XIII asrdan to XX asrning boshlarigacha bo‘lgan o‘zbek tili tarixini o‘z ichiga oladi va juda katta yozma manbalarni o‘zida mujassam etadi. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Turdi Farog‘iy, Boborahim Mashrab, Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat, Muhammad Aminxo‘ja Muqimiylarning eski o‘zbek tilini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishda xizmatlari katta. Ayniqsa, bu borada Alisher Navoiy ulkan ishlar qildi. U o‘zbek tilini xazina deb bildi. Bu xazinani ilonlar va tikanlar o‘rab turganligini ta’kidladi. Navoiy eski o‘zbek adabiy tilini ana shu «ilon»lardan va «tikan”lardan tozalab berdi. O‘zbek tili taraqqiyotida Alisher Navoiyning o‘rni benihoya katta. Shoir asarlarida qo‘llangan so‘zlar miqdori yigirma olti mingdan ortiq. Qiyoslaydigan bo‘lsak, bu ko‘rsatkichlar Pushkinda 21 mingdan, Shekspirda 20 mingdan ortiqroq. Navoiy lirikasi orqali turkiy tilning naqadar cheksiz imkoniyatlarga ega ekanligini amaliy jihatdan namoyon qilsa, «Muhokamat-ul lug‘atayn» asari orqali turkiy va forsiy tillarni nazariy jihatdan chog‘ishtiradi va bu borada ham ustunlik turkiy til tarafida ekanligini ilmiy asoslab beradi, davlat arbobi sifatida esa ona tilini huquqiy muhofazaga olib, turkiy tilda ijod qiluvchilarga homiylik qildi, davlat ishlarida turkiy til mavqeyini ko‘tardi va bu ishlarni rag‘batlantirib bordi. Aslida tilni xalq yaratadi, uni xalq boyitadi, rivojlantiradi. Biroq Navoiyning o‘zbek tilining shakllanishi va taraqqiy qilishi sohasidagi xizmatlari shu darajada buyukki, uni haqli ravishda eski o‘zbek tilining asoschisi sifatida qadrlaymiz. Ayniqsa, O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin o‘zbek tilining barcha jabhalarda qo‘llanilishi uchun, mustaqil tarzda rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. 1989-yil 21-oktabrda o‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berildi. Buning natijasida o‘zbek tili respublikamizda o‘tkaziladigan oliy darajadagi davlat anjumanlarida qo‘llanadigan, davlatning rasmiy hujjatlari yuritiladigan tilga aylandi. 1995-yil 21-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisining IV sessiyasida «Davlat tili haqida»gi Qonunning 24 moddadan iborat yangi tahriri qabul qilindi. Yangi tahrirdagi Qonunning muhim jihati shundaki, unda o‘zbek tilining bugungi jahon hamjamiyatidagi mavqeyi hisobga olinadi.

Hozirgi adabiy o‘zbek tilida esa 29 harf va 1 dona tutuq belgisi (’) mavjud. Ulardan 6 tasi unli, 23 tasi undosh hisoblanadi.

Unli harflar: i, u, e, o‘, o, a. Unlilar talaffuziga ko‘ra ham bo‘linadi.

Undosh harflar: 23 ta harfiy belgi bilan ifodalanadi: b, v, g, d, z, j, y, k, l, m, n, p, r, s, t, f, x, ch, sh, q, g, h, ng.

Koreys tili alifbosi

Koreys tili eng qadimiy tillardan biri bo‘lib, lingvistik tadqiqotlarda bu tilning ural-oltoy tillar oilasiga mansubligi aytiladi. Mazkur oilaga o‘zbek, turk, mo‘g‘ul, tibet, fin va venger tillari ham kiradi. Koreys yozma alifbosi Xangil (한글) ancha kech, ya’ni 1443-yili Choson shajarasiga mansub qirol Sejon boshchiligidagi olimlar tomonidan yaratilgan. Sejon hukmdorligi davrida mamlakat iqtisodiy, madaniy va ilmiy jihatdan gullab-yashnagan, ta’limga katta e’tibor qaratilgan. Xangil (한글) alifbosi dastlab Xunmin chongngim (훈민정음, 訓民 正音), ya’ni «xalq ta’limi uchun to‘g‘ri tovushlar» deb atalgan. Bu alifbo paydo

bo‘lgunga qadar davlatning rasmiy yozuvi xitoy tilining shakllaridan biri Xanmin (한문) bo‘lgan. Mazkur yozuv xitoy iyerogliflariga asoslangani sababli aholining faqat o‘rta va yuqori qatlamlari tomonidan qo‘llanilgan, xolos. Xitoy iyerogliflari koreys tilida butkul boshqa tovushni anglatgani orfografik chalkashliklarga sabab bo‘lgan.

Koreys yozuvi — fonetik harfiy-bo‘g‘inli yozuv. 1444-yilda qirol Se Jon davri (1419—50)da koreys olimlari Chon Nin Ji, Sin Suk Chu, Son Sam Mum tomonidan yaratilgan. XV asrning 1-yarmigacha esa koreys tilida Xitoy iyeroglifik yozuvidan foydalanilgan. Lekin bu davrda Xitoy tili koreyslarning adabiy tili bo‘lgani uchun, yangi milliy alifbo keng tarqalmadi. XIX-asr oxiriga kelib koreys tilida yana iyeroglifik yozuv qo‘llana boshladi. Bu yozuv alifbosi 24 fonemani ifodalaydi. Boshqa fonemalar esa harflarni qo‘shish yo‘li bilan hosil bo‘ladi. Hozirgi koreys yozuvida 40 ta grafema mavjud bo‘lib, shundan 24 tasi sodda va 16 tasi murakkabdir. Ammo bu grafemalarning tartibi Shimoliy va Janubiy Koreya Respublikalaridan farq qiladi. Ilgari matnlar yuqoridan pastga va o‘ngdan chapga qarab yozilardi. Hozirgi kunda esa o‘ngdan chapga yoziladi.

Hangil koreys tilini yozishda asosiy yozuv sifatida foydalanilgan Xitoy-Koreya xanja logografikiga to‘ldiruvchi (yoki muqobil) sifatida xizmat qilib, savodxonlikni oshirish maqsadida yaratilgan. Gojoseon davrida (ming yildan ortiq vaqtni qamrab olgan va miloddan avvalgi 108-yilda tugaydi), klassik xitoy tilidan foydalanilgan. Natijada, Hangulni dastlab koreys ziyolilari tomonidan qoralandi va yomonlandi. Koreya XX-asr o‘rtalarida Yaponiyadan mustaqil bo‘lganidan keyingi o‘n yilliklar ichida asosiy koreys yozuviga aylandi.

Zamonaviy hangul orfografiyasida 24 ta asosiy harf ishlatiladi: 14 ta undosh harf va 10 ta unli harf. Shuningdek, asosiy harflarning birlashishi natijasida hosil bo‘lgan 27 ta murakkab harf mavjud: 5 ta zamon undosh harfi, 11 ta murakkab undosh harf, va 11 ta murakkab unli harflar. Asl alifbodagi to‘rtta asosiy harf endi ishlatilmaydi: 1 ta unli harf va 3 ta undosh harf.

Undoshlar: ㄱ-g, ㄴ-n, ㄷ-d, ㄹ-r-l, ㅁ-m, ㅂ-b-p, ㅅ-s-sh, ㅇ-ng, ㅈ-j, ㅎ-h.

Qo‘sh undoshlar: ㅋ-kh, ㅌ-th,ㅍ-ph, ㅊ-ch, ㄲ-k(+ъ), ㄸ-t(+ъ),ㅃ-p(+ъ), ㅆ-s(+ъ), ㅉ-j-ch(+ъ)

Unlilar: ㅏ-a, ㅓ-e(э), ㅗ-o, ㅜ-u, ㅡ -i(ы), ㅣ-i, ㅑ-ya(я), ㅕ-yo, ㅛ-yo‘(ё), ㅠ-yu(ю).

Qo‘sh unlilar (diftonglar): ㅔ-e(e), ㅐ-ae, ㅖ-yee, ㅒ-yae, 외-we, 위-wi, 의-ii, 와- wa, 워-we(wë), 웨- we, 왜-wae.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. F. Bobojonov, K. Rajapova, D. Yusupova. O‘zbek tili (tayanch bilim asoslari) Qoraqalpoq davlat universiteti. O‘quv qo‘llanma. 2017-yil.
2. H.Jamolxonov. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. Talqin. 2005. 93-bet.
3. M.Mengliyeva. “Koreys tili universal qo‘llanma”, 2018-yil. 3-5-betlar.
4. 한국어-1 KOREAN 서울대학교 언어교육원 Language Education Institute Seoul National University. 15-may 2002-yil. 19-bet.

Internet saytlar

1. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Koreys_yozuvi#:~:text=1444%2Dyilda%20qirol%20Se%20Jon,yangi%20milliy%20alifbo%20keng%20tarqalmadi
2. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Koreys_yozuvi#:~:text=1444-yilda%20qirol%20Se%20Jon,yangi%20milliy%20alifbo%20keng%20tarqalmadi

Zilola MIRQODIROVA
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ingliz filologiyasi fakulteti 2-bosqich talabasi
Mirqodirovazilola33@gmail.com

TIL O‘RGANISHDAGI MUHIM JIHATLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz tili o‘quvchilariga qanday qilib darslarini yanada samarali tarzda o‘zlashtirish haqida kerakli ma’lumotlar beriladi. O‘quvchilarda til o‘rganishga doir uchraydigan muammolar haqida alohida to‘xtalib o‘tib, har biri uchun eng zarur va kerakli yechimlar beriladi.

Kalit so‘zlar: *elektron qurilmalar, ko‘nikmalar, qiyinchiliklar, lug’at boyligi, talaffuz.*

Annotation: this article provides language students with the necessary information on how to learn language more effectively. Common problems of language learners will be discussed through article and best possible solutions would be provided.

Key words: *electronic devices, skills, challenges, vocabulary, pronunciation.*

Аннотация: данная статья предлагает ученикам английского языка ценную информацию о том, как оптимизировать учебный процесс. В ней будут рассмотрены типичные трудности, с которыми сталкиваются изучающие язык, и представлены эффективные стратегии для их преодоления.

Ключевые слова: *электронные устройства, навыки, трудности, словарный запас, произношение.*

Ilm-fan va texnologiya rivojlanib borayotgan davrda, davlatimizning yoshlar uchun til bilishga qaratilgan siyosati kuchayib bormoqda. Bunga sabab esa til bilgan yoshlarning dunyo qarashlari ancha keng bo‘lib, o‘z tengdoshlariga qaraganda ustunlikka egadir. Oldinlari qaysidir tilni qunt bilan o‘rganishni istasak, kursga borib qatnashimiz kerak edi chunki mobil telefon va kompyuter orqali til ko‘nikmalarini shakllantirish uqadar ommalashmagan edi. Hozir esa internet orqali telefon yokida shaxsiy kompyuter bilan uydan chiqmay turib, til ko‘nikmalarini mukammal o‘zlashtirishimiz mumkin. Bir necha yillar oldin til o‘rganuvchilar ustozlarning eski metodlaridan, ya’ni dars davomida faqat ustoz gapirib, individual tarzda har bir o‘quvchiga alohida yondashilmagan, ko‘pincha zerikib, hatto keyinchalik til o‘rganishni to'xtatib qo‘yishgan. Endi esa birgina mobil telefonimizdan oqilona foydalansak, yangi tilni mutlaqo qiyinchiliklarsiz o‘rganishimiz mumkin.

Ko‘pgina taniqli olimlar yangi tilni internet texnologiyalar orqali o‘zlashtirish borasida o‘z fikr-mulohazalarini bildirishgan. Jon Taksler, taniqli olim, ko‘pgina tadqiqot ishlarida mobil telefonlarning dars davomida hamda darsdan tashqari keltiradigan foydalari haqida o‘z qarashlarini bayon etgan. Olimning so‘zlariga qaraganda, mobil telefonlar yordamida o‘quvchilar til ko‘nikmlarini shakllantirish jarayonini yanada qiziqarli va maroqli qilishligi mumkin [1]. Glen Stockwell ham mobil telefonlar orqali o‘quvchilar darsdan tashqari ham til ko‘nikmalarini yanada boyitib borish haqida ma’lumot berib ketgan. Glen fikriga ko‘ra, dars davomida o'quvchilar barcha ma’lumotlarni esda saqlab qolisholmaydi, ammo mobil telefonlarning funksiyalari orqali o‘z bilimlarini yanada mustahkamlab olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar [2]. Ularning xulosalariga tayangan holda aytish mumkinki, mobil telefonlar hamda kompyuterlar faqatgina o‘yin o‘ynash dasturlari emas, balki o‘quvchilarga foydali bo‘lgan ma’lumotlarni ham taqdim etishadi.

O‘quvchilar til o‘rganish jarayonida elektron qurilmalarini qay darajada ularga foyda berayotganini aniqlash maqsadida bir nechta tadqiqotlar olib borilgan.

1) Mobil ilovalar orqali so‘z boyligini oshirish:

Ushbu tadqiqot Godwin va Jones tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib [3], asosiy maqsadi yaponiyalaik o‘quvchilarda ingliz tilidagi lug’at boyligini Fleshcard ilovasi orqali rivojlantirish edi. Tadqiqotdan oldin hamda keyin darajali testlar, individual suhbatlar va so‘rovnomalar yordamida ushbu tadqiqot amalga oshirildi. Elektron qurilmalarni integrashtirilgandan so‘ng, o‘quvchilarda sezilarli o‘sish kuzatilib, til o‘rganishga bo‘lgan qiziqish yanada ortdi.

2) Mobil ilovalar orqali talaffuzni to‘g’irlash:

Tadqiqot Levy va Kennedy tomonidan o‘tkazilib [4], asosiy maqsadi mobil ilovalar o‘quvchilar talaffuzga qanday ta’sir qilishini aniqlash edi. Har bir guruhdagi o‘quvchilarga ekspertlar guruhi biriktirilgan bo‘lib, ular kunlik tarzda o‘quvchilar bilan suhbatlar olib borishdi. Asosiy natijalarga ko‘ra, o‘quvchilar talaffuzida katta o‘sish bo‘lib, sezilarli ravishda til ko‘nikmalarni oshirishga muvaffaq bo‘lishdi.

Mobil ilovalarni til o‘rganishda foydasi bo‘lishiga qaramasdan, potential keltiradigan zararlari ham bordir. Ushbu muammolar haqida tanishib chiqib, qanday choralar ko‘rish haqida eslatib o‘tiladi:

Chalg’ituvchanlik : Mobil qurilmalar ko‘pincha har xil turdagi ma'lumotlar orqali o‘quvchilarning e’tiborini osongina chalg’itishi va tilga yo‘naltirilgan o‘rganishga to‘sqinlik qilishi mumkin [5].

Yechimlar: O‘quv mashg’ulotlari davomida uzilishlarni minimallashtirish uchun diqqatni jamlash

rejimlaridan foydalanish.

Onlayn chalg'itadigan ma'lumotlarning oldini olish uchun oflayn funksiyaga ega ilovalarni tanlash.Til o'rganish uchun aniq vaqt chegaralarini belgilash va diqqatni jamlash uchun ularga rioya qilish.

Shaxsiy fikrlashga ta'siri: Ko'pgina ilovalar o'quvchilarni mustaqil fikrlash jarayoniga salbiy ta'sir qilib, dunyo qarash rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin [6].

Yechimlar: Malakali o'qituvchilardan shaxsiy fikr-mulohazalarni olish uchun til almashish dasturlari yoki onlayn repetitorlik bilan qo'shimcha ilovadan foydalanish.

O'quv jarayonida sinfdan tashqari adabiyotlar mutolaa qilib, o'z ustozlari va tengdoshlari bilan munozaralar uyushtirish.

Boshqa til o'rganuvchilar bilan muloqot qilish va tengdoshlarning fikr-mulohazalarini olish uchun onlayn hamjamiyat yoki forumlarga qo'shilish.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, til o'rganish jarayonini yanada qiziq va samarali qilish yo'llari ko'pdir. Shulardan biri esa elektron qurilmalar orqali til ko'nikmalarini passiv holda rivojlantirib borishdir. Bu yo'l bilan o'quvchilar darsdan tashqari jarayonlarda ham o'z bilim va ko'nikmalarini yanada boyitib borish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Traxler, J. (2007). Mobil o'rganish: keyingi avlod. Mobil ilovalar yordamida o'rganish: tadqiqot samaradorligi. (13-24-betlar).

2.Stokvell, G. (2016). Mobil telefonda til o'rganish: keyingi bosqich. Ikkinchi til sifatida ingliz tili uchun elektron jurnal, 20 (1), 1-12.

3. Godwin-Jones, R. (2011). Mobil telefon ilovasi bilan lug'atni o'rganish: amaliy tadqiqot, 411-425. 2.

4. Levy M..&Kennedy, (2005). Mobil ilovalar yordamida talaffuz treningi: amaliy tadqiqot, 261-274.

5. Tornton, P., & Houser, C. (2005). Yaponiyada ingliz ta'limida mobil telefonlardan foydalanish. Kompyuter yordami bilan o'rganish, 217-228.

6. Kukulska-Hulme, A., & Shield, L. (2008). Mobil ilovalar yordamida til o'rganish haqida umumiy ma'lumot, 271-289.

Rukhshona RAHMONOVA,
Student of CSPU
Department English language and theory
e-mail: rahmonovaruxshona341@gmail.com
Mukhlisa KENJAEVA *Scientific advisor:*
e-mail: mukhlisa.kenjaeva96@gmail.com

TEACHING ENGLISH THROUGH SONGS

Annotation: in today's dynamic educational landscape, incorporating music into English language teaching for young learners has emerged as a vibrant and effective pedagogical tool. Harnessing the power of songs captivates students' attention, facilitates language acquisition and fosters a fun and interactive learning environment.

Keywords: *teaching English, songs, language acquisition, interactive learning.*

Аннотация: в сегодняшней динамичной образовательной среде включение музыки в преподавание английского языка юным ученикам стало ярким и эффективным педагогическим инструментом. Использование силы песен привлекает внимание учащихся, облегчает овладение языком и создает веселую и интерактивную среду обучения.

Ключевые слова: *обучение английскому языку, песни, овладение языком, интерактивное обучение.*

Annotatsiya: bugungi dinamik ta'lim sharoitida yosh o'quvchilar uchun ingliz tilini o'qitishga musiqani kiritish jonli va samarali pedagogik vosita sifatida paydo bo'ldi. Qo'shiqlar kuchidan foydalanish o'quvchilarning e'tiborini tortadi, tilni o'zlashtirishni osonlashtiradi va qiziqarli va interaktiv o'quv muhitini yaratadi.

Kalit so'zlar: *ingliz tilini o'rgatish, qo'shiqlar, til o'zlashtirish, interaktiv o'rganish.*

Linguistic Proficiency Through Melody: Songs offer a rich tapestry of vocabulary, grammar and pronunciation, seamlessly woven into catchy melodies. By exposing young learners to diverse musical genres, teachers can enhance their linguistic proficiency while making learning enjoyable. Repetition of lyrics aids in the retention of

vocabulary and grammatical structures, reinforcing language acquisition. Cultural Immersion and Global Awareness is integrating songs from different cultures broadens young learners' perspectives, fostering cultural immersion and global awareness. Through music, students not only learn language but also gain insights into customs, traditions, and values of various communities worldwide. This cultivates empathy and cross-cultural understanding from an early age.

Enhanced Engagement and Motivation the rhythmic and melodic elements of songs naturally captivate young learners, igniting their interest and enthusiasm for learning English. Singing along to their favorite tunes creates a sense of enjoyment and accomplishment, boosting motivation and participation in language activities. Moreover, collaborative singing promotes peer interaction and teamwork, enhancing social skills.

Multi-sensory Learning Experience utilizing songs in English language teaching engages multiple senses, offering a holistic learning experience. Visual aids such as music videos, lyric sheets, and gestures complement auditory input, reinforcing comprehension and memory retention. Incorporating movement and dance further stimulates kinesthetic learning, making lessons dynamic and immersive. Facilitating Language Acquisition songs serve as powerful mnemonic devices, facilitating language acquisition through repetition and rhythm. Catchy melodies and memorable lyrics aid in the internalization of vocabulary, grammar rules, and pronunciation patterns. Additionally, the emotional resonance of music enhances affective language learning, fostering a positive attitude towards English acquisition.

Practical Implementation Strategies: Integrating songs into the English language curriculum requires thoughtful planning and implementation. Teachers can select age-appropriate songs that align with learning objectives and students' interests. Pre-teaching key vocabulary and conducting interactive listening activities prepare learners for song comprehension. Follow-up tasks such as gap-filling exercises, lyric sequencing, and role-plays deepen understanding and reinforce language concepts.

This study aimed at identifying Libyan teachers' views regarding the use of songs in teaching English to young learners, and recognizing the challenges they might encounter and how they use songs in the classes. The data were collected by distributing an online questionnaire to 65 Libyan teachers, working in a number of primary schools where English was being taught as a foreign language. The study was conducted in Misurata City in Libya, during the academic year 2021-2022. The findings showed that the majority of the teachers recognized the pedagogical value of using songs in teaching English to young learners and. However, the lack of resources, and additional effort in selecting suitable songs might cause several potential problems the teachers might concern. Moreover, the ideas that songs could be time-consuming and inappropriate in religion and culture might be challenges to them. In addition, the results revealed that Libyan teachers use several strategies when using songs in their classes. Finally, it was recommended that it was important to integrate songs in the teaching process, and use modern educational approaches to teach foreign languages to young learners

To conclude, incorporating songs into English language teaching for young learners offers a dynamic and effective approach to language acquisition. By harnessing the inherent power of music, educators create engaging and immersive learning experiences that promote linguistic proficiency, cultural awareness, and motivation. Through melody and rhythm, teachers sow the seeds of language learning, nurturing students' growth and fostering a lifelong love for English.

REFERENCES

1.Komiljonova M. A. et al. CONTENT AND LANGUAGE INTEGRATED LEARNING (CLIL) METHOD AND HOW IT IS CHANGING THE FOREIGN LANGUAGE LEARNING LANDSCAPE //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2024. – T. 2. – №. 26. – C. 26-33.

2. Djurayeva, M. A. (2023). DEVELOPING NOTE-TAKING SKILLS IN CONSECUTIVE INTERPRETING. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 232–236.

3.Djurayeva M. DELVING INTO NOTE-TAKING TECHNIQUE IN CONSECUTIVE INTERPRETING //Models and methods in modern science. – 2022. – T. 1. – №. 17. – C. 43-49.

4. Oybek o'g'li X. S., Baxodirovna K. M. METHODS OF TEACHING ENGLISH PHONETICS //The Role of Exact Sciences in the Era of Modern Development. – 2024. – T. 2. – №. 1. – C. 6-9.

5. Baxodirovna K. M. et al. WHY LEARNING THE ENGLISH LANGUAGE IS ESSENTIAL: 10 EFFECTIVE METHODS FOR TEACHING ENGLISH //The Role of Exact Sciences in the Era of Modern Development. – 2024. – T. 2. – №. 1.

6. Qo‘jaspirova G.M.: “ O‘qituvchining kasbiy o‘zini o‘zi tarbiyalash madaniyati”
7. Okon V.I. "O‘z-o‘zini tarbiyalash jarayoni" // Umumiy didaktikaga kirish // M., s.164-178
8. Xoxlova O.A. O‘qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasini shakllantirish // Maktabgacha ta'lim katta tarbiyachisining qo‘llanmasi. 3-son.
9. Mayer A.A. Maktabgacha ta'lim o‘qituvchisining kasbiy malakasi modeli / A.A. Mayer// Pedagogikmenejmentasoslari.1-son.
10. Doniyorov, A., & Karimov, N. (2020). An incomparable book of a great scholar
11.https://www.bl.uk/shakespeare/articles/an-introduction-to-shakespeares-comedy/JohnMullan
12. https://slideplayer.com/slide/10738946/

Sabina XAMRAKULOVA
Independent applicant, Fergana state university
sabinulka83@gmail.com

SEMANTIC ANALYSIS OF ENGLISH AND UZBEK PHRASEOLOGICAL UNITS EXPRESSING JUVENILE AGE AND YOUTH FROM A COMPARATIVE ASPECT

Annotation: phraseological fund of any existing language is known to be the most picturesque way of conveying identity of its national culture. The aim of the following research is to reveal universal and unique in the semantics of the phraseological units expressing juvenile age and youth in the English and Uzbek languages.

Key words: *anthropocentric approach, juvenile age, semantic analysis, phraseological description, dictionary definition, nuclear seme, component structure, additional seme, meliorative esteem, integral seme*

Annotatsiya: har qanday tilning frazeologik jamg’armasi uning milliy madaniyatining o’ziga xosligini yakkol ifoda etuvchi vositasi hisoblanadi. Quyidagi maqolaning asosiy maqsadi ingliz va o’zbek tillarida o’spirin va yoshlik davrini ifodalovchi frazeologik birliklarining semantikasida umumiy va o’ziga xos xususiyatlarini yoritish.

Kalit so’zlari: *antroposentrik yondashuv, o’spirin davri, semantic tahlil, frazeologik tavsif, lug’at definisiyalari, yadroviy sema, component tarkibi, qo’shimcha sema, meliorativ baholash, integral sema.*

Аннотация: фразеологический фонд любого языка является наиболее выразительным способом выражения своеобразия его национальной культуры. Цель данной статьи раскрыть универсальное и уникальное в семантике фразеологических единиц, выражающих юношеский возраст и молодость в английском и узбекском языках.

Ключевые слова: *антропоцентрический подход, юношеский возраст, семантический анализ, фразеологическое описание, словарные дефиниции, ядерная сема, компонентный состав, дополнительная сема, мелиоративная оценка, интегральная сема.*

The number of phraseological units referring to the phrase-semantic group of juvenile age in the English language is 56, whereas in Uzbek there are 24 units. Lexemes «youth», «young»,«yigit», «qiz», «yoshlik» are considered as lexical units to denote this period of a human being’s age. In both the languages there are phraseological units of various structure: substantive («a golden girl», «the salt of youth», «bo’z bola», «yosh bo’g’in»), verbal («sow one’s wild oats», «be under age», «bo’yi yetmoq», «yoshlik qilmoq»), adverbial («in the first flush of», «just out of one’s teens», «yoshlik qilib»), adjective («still in the swaddling clothes», «balog’atga yetgan»), sentence («wine and youth are flax upon fire», «ketini mo’ychinak tishlamagan»). A certain part of phraseological units represents a core of the following group as they specifically nominate this age period): «young thing», «a young shaver», «just out of one’s teens», «yosh narsa», «bo’z yigit» (used to talk about quite a young man). Despite this fact, majority of the phraseological units referring to this group includes some additional semes in the structure of their phraseological meaning. These semes describe juvenile age in different aspects. Therefore, youth in itself differs from other age periods by lack of experience and insufficient maturity: a spring chicken», «moshdek ham aqli yo’q», «still in swaddling clothes», «suyagi qotmagan», «yoshlik qilib qo’ydi». However, in the Uzbek language there can be found a contrasting expression like: «ena/ona

xotin», which is used to give a negative estimate to quite a young but rather a
dodgy person.

In both the compared languages we can find a great many expressions to state the fact that an adolescent boy or girl have already been of legal age: «come of age», «the full age» (which is 21 years old in England), «lawful age» (reaching which enables a person to have particular rights and duties according to the law)», «balog'atga yetgan», «the age of concent» - «the age when a woman can get married». Here we can also refer Uzbek expressions connected with the custom to marry girls in early age: «haddi kamol qiz» - «a girl of marriageable age», «ko'zga ko'rinib qoldi» - has grown up and smartened». Only in English we can find phraseological units to denote a particular age of youth: «silver jubilee»-«twenty years», «just out of one's teens»-«in twenty years». In both the languages the period of adolescence and youth is considered as the happiest time, what is more, this semantics reflects both the phraseological meaning and the component structure of the phraseological units: «sweet seventeen»; «yoshlik-beboshlik.

The above-mentioned age period has got various manifestations, the fact of which is confirmed by vivid picturesque of phraseological units existing in both the languages compared: «the salt of youth», «a ring tail<ed> roarer (snorter)», «wild oats» , «sow one's wild oats», «qirchillama yigit», «sho'xlik qilmoq», «oyim tilla». In the two languages a so called «jet set» is reproved because of their addiction to idleness and laziness. In English such an expression belongs to a great Shakespeare: «curled darlings», and in Uzbek this connotation can be conveyed through «buvachcha» which means «wealthy parents'son". In English there is a series of phraseological units belonging to the above-mentioned phrase-semantic group, which describes young people from the aspect of their appearance and physical ability, intersexual relationships regarding love, marriage (like fiancé, fiancée, beloved), as well as their status amidst their peers. Herewith, the corpus of additional semes varies according to the concept some or other unit conveys: «a sweater girl» - «about a bosomy girl », «a hot number» (often used as a slang expression) - «about a handsome girl», «a golden girl» - «about a girl who is quite popular among males», «a glamour girl» - «about a pretty girl», «one's best girl» - «one's beloved», «one's young man» - «one's fiancé, lover».

In both the languages there are several phraseological units intended to express a girl's purity and innocence. Yet, in virtue of mentality these units are characterized as meliorative in Uzbek: «onasi o'pmagan qiz», «qog'ozga o'ralgan qanddek qiz» (both the phrases are used to talk about a virgin), whereas such English slang expressions as «canned goods» and «buttercup» are distinguished by disdainful notes in their usage.

The following four phraseological units are considered to be aboriginal English units

- «May Queen», there are national British traditions in its origin, as consequence, its meaning is supplemented by the name of this tradition and its short description: May Queen is a girl, who has been chosen as a queen at 1st May celebrations and, therefore, crowned with a flower garland;

- the second unit arose during staging «Look back in anger» by John Osborne and at the time being is interpreted in two phrase-semantic versions: 1.«wrathful young men» (about young English writers of fifties in the 20th century who are famous for their sharp novolescent attitude to bourgeoisie like John Osborne, Kingsley Amis, John Wayne, John Braine); 2.«angry young men» (referring to angry young British men after the Second World War). In the last two expressions the seme of age is situated at the periphery of its phraseological meaning.

- historical expression «the hell-fire club» (the club of jet set) is based on a historical realia on the ground that clubs like this were not rare in England in the 18th century;

- similarly to the above-mentioned expression a historical name of the retail mall situated in the central part of London became the basis of the origin of phraseological unit «Carnaby Street» (clothes for young people).

Expression «yerga yetilgan ekan» is believed to be a primordial Uzbek phraseological unit. It is utilized while talking about the young people who died at an early age. It is also significant to note that in all the English phraseological expressions describing youth lexemes «youth» and «young» are located in their component structure. Whereas, in Uzbek lexemes «yosh» and «yoshlik» are in the component structure of only 6 phraseological units: «yosh boshi bilan» (despite being young), «yosh bo'lsa xam bosh» (it's okay to be young), «yosh bo'g'in» (youth), «yosh narsa» (too young), «yoshlik qilib qo'ydi» (because of one's youth), «yoshlik - beboshlik» (youth is breeziness). The phraseological units of this phrase - semantic group in both the compared languages mainly convey the idea about the value of the following age period in humans' life: «to young heart everything is fun»,

«talabalik (yoshlik) – oltin davrim» («studentship (youth) is one's best period).

Besides that, in both the languages it is noted that lack of experience, immaturity and carelessness are typical of young people:«young heads are giddy and young hearts are warm», «as the young folks see, the young folks do; as they hear, they say» (used to talk about the young's credulity); «moshdek ham aqli yo'q», «ketini mo'ychinak tishlamagan» (used to talk about too young and inexperienced young people).

The significance of feelings and lovesome relationships for this age period has also reflected in the phraseology of the languages compared: «wine and youth are flax upon fire»; «Layli va Majnundek» (like Layli and Majnun who are the characters of the cognominal fairy tale.

In the Uzbek language we can find some phraseological units to emphasize the fact that even being young, a person may be mature in mind as well as capable of doing helpful things:«Yosh bo'lsa xam bosh» (in spite of being young he can do a lot of things). Not only in English but also in Uzbek there is a parallel between youth and wealth, what is more, in both the languages money is considered to have detrimental impact on the young:«abundance of money runs youth», «a rich bride goes young to church); «og'zi qiyshiq bo'lsa ham, boyning bolasi gapirsin» (used to talk about rich young people who can do what they want).

Conclusion As it can be seen from our research among English and Uzbek people youth and juvenile age have always been associated with something joyful and careless.This fact reflects the phraseological fund in both English and Uzbek languages.The analysis of the semantic structure of the phraseological units expressing juvenile age and youth selected from competent dictionaries made it possible to reveal the following: - the number of English phraseological units expressing this age group is twice as much as that of the Uzbek language; - the concept of youth is universal in the cultures of English and Uzbek people; - there are some expressions which can be found only in either of the compared languages,for instance, "angry young men" in English and "yerga yetilgan ekan" in Uzbek; In addition to this, in both the compared languages there is mainly an equal number of similarities and dissimilarities between the language expressions describing this age period. The unique thing about these lexical units is connected with the national identity of English and Uzbek people.

The list of used literature:

1. Cowie,A.P. Oxford Dictionary of Current idiomatic English. 8th edition A.P.Cowie, R.Mackin, I.R.McCaig. – Oxford: Oxford University Press, 2007
2. Fernando,C. Idioms and Idiomaticity/ C.Fernando. – Oxford : Oxford University Press,1996
3. Kunin A.V. English phraseology/ A.V.Kunin. – M.,1996
4. Longman Dictionary of English idioms. – Bath: Pitman Press,1980
5. Ojegov S.I. Tolkoviy slovar jivogo russkogo yazika. – M.,1978
6. Pinkhasov Ya.D. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Leksikologiya va frazeologiya./Ya.d.Pinkhasov – Tashkent: "O'qituvchi",1969
7. Rakhmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – "O'qituvchi", 1978
8. Rakhmatullayev Sh. O'zbek frazeologiyasiga oid ba'zi bir masalalar./Sh.Rahmatullayev – ADD,T.,1996
9. Sodikova M. O'zbekcha-ruscha frazeologik lug'ati. – "Tashkent",1996